4. Ilgari foydalanilgan masofaviy zondlash materiallari va ularning elementlari;
5. Mavjud kadastr GAT modeli va ularning elementlari.
6. Yangi masofadan zondlash materiallari va ularning elementlari;

1-SERVER bo‘yicha birinchidan beshinchi strukturaviy ichki elementlarning ketma-ketligi haqida ma’lumotlarni O‘zbekiston davlat kadastrlarining yagona tizimidan olinadi.

Bu ma’lumotlarning barchasi «Geodeziya va kartografiya to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida 1942 yilgi koordinatalar tizimi va 1977 yilgi Boltiq balandliklar tizimi asosida tuzilgan (O‘RQ, 22.11.2016 yil 391-son).

Yangi masofadan zondlash materiallari asosan WGS-84 yilgi koordinatalar tizimida bajariladi.

Birinchi uslubiy kamchilik: 1-SERVER da birdan beshgacha raqamlangan ichki elementlar uchun mavjud ketma-ketlik ma’lumotlarini SK-42 koordinata tizimidan WGS-84 koordinata tizimiga o‘tkazish kerak.

Buning ikkita muhim sababi bor. ***Birinchidan,*** – barcha dala ishlari WGS-84 koordinata tizimida GPS, zamonaviy optik-elektron qurilmalar va masofadan zondlashning yangi materiallaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, dalada tasdiqlanishi zarur yangi ma’lumotlarni aynan masofadan zondlash materiallarini dastlabki leshifrovka natijalari belgilaydi. Bu materiallar dalada bajarilishi zarur bo‘lgan ish xajmini, turini va loyihalash smetasini aniqlaydi.

Ikkinchidan, bu masofaviy zondlash materiallarini dastlabki leshifrovkalash natijalari sohada dalada tasdiqlanishi kerak bo‘lgan yangi va muhim ma’lumotlarni aniqlaydi. Bu materiallar dala ishlarida bajariladigan ishlarning hajmi, turi va loyiha-smeta hujjatlarini belgilaydi.

SERVER 2 mohiyatan tayyorgarlikning dastlabki bosqichida aniqlangan ish hajmi, turi va loyiha-smeta hujjatlarining zarur dala tatbiqlari majmuasidir (2-rasm).

SERVER 2 ning tarkibiy ichki elementlari ketma-ketligi quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

1. Geodezik o‘lchovlarning dala natijalari va ularning elementlari;
2. Dala statistik ma’lumotlari va ularning elementlari;
3. Yangi Yerni masofadan zondlash materiallarini dala deshifrovkasi va interpretatsiyasi.

SERVER 3 mohiyatan dala ishlaridan keyingi kameral ishlar majmuasidir (2-rasm).

1-jadval

Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish sxemasi

Davlat kadastrlari	
Yer kadastri	«Yergeodezkadastr» davlat qo‘mitasi
Konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastri	Davlat geologiya qo‘mitasi
Suv kadastri	Gidrometxizmati Davlat geologiya qo‘mitasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi
O‘rmon kadastri	O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi
O‘simlik dunyosi kadastri	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi
Hayvonot dunyosi kadastri	Ekologiya va atrof-muhitni muhofazaqilish davlat qo‘mitasi
Qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar kadastri	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi
Binolar va inshootlar kadastri	«Yergeodezkadastr» davlat qo‘mitasi
Shaharsozlik kadastri	Qurilish vazirligi
Gidrotexnika inshootlari kadastri	"Davsuvxo‘jaliknazorat" inspeksiyasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi "O‘zbekenergo" DAK
Madaniy meros ob’ektlari kadastri	Madaniyat vazirligi
Avtomobil yo‘llari kadastri	Vakolatli organ
Temir yo‘llar kadastri	Vakolatli organ
Etkazib berish quvurlari kadastri	Vakolatli organ
Aloqa ob’ektlari kadastri	Vakolatli organ
Energetika ob’ektlari kadastri	Vakolatli organ
CHiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari kadastri	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi
Tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar kadastri	Vakolatli organ
Texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalar kadastri	Vakolatli organ
Kartografiya-geodeziya kadastri	«Yergeodezkadastr» davlat qo‘mitasi



1-rasm. GAT texnologiyalariga asoslangan axborot-analitik boshqaruv tizimi kontseptsiyasi (O.R. Allanazarov bo'yicha, 2024 y.)

SERVER 1	SERVER 2	SERVER 3
Dastlabki tayyorgarlik ishlari	**Dala tatbiqlari majmuasi**	**Kameral ishlar majmuasi**
1. Mavjud geoikonikalar va ularning elementlari; 2. Geodezik o‘lchashlarning mavjud natijalari va ularning elementlari; 3. Mavjud statistik ma’lumotlar va ularning elementlari; 4. Ilgari foydalanilgan masofaviy zondlash materiallari va ularning elementlari; 5. Mavjud kadastr GAT modeli va ularning elementlari. 6. Yangi masofadan zondlash materiallari va ularning elementlari;	1. Geodezik o‘lchovlarning dala natijalari va ularning elementlari; 2. Dala statistik ma’lumotlari va ularning elementlari; 3. Yangi Yerni masofadan zondlash materiallarini dala deshifrovkasi va interpretatsiyasi.	1. Yangi geoikonika ma’lumotlari; 2. Geodezik o‘lchovlarning yangi natijalari; 3. Yangi statistika; 4. Yangi Yerni masofadan zondlashning materiallarining deshifrovka va interpretatsiya natijalari; 5. Kadastr GAT modelining maxsus ma’lumotlar bazasini yangilash.
SERVER 4		**SERVER 5**
Tabiiy resurslar tematik qatlamlari	**Jamiyat resurslarining tematik qatlamlari**	**GAT texnologiyalariga asoslangan axborot-tahliliy boshqaruv tizimi**
1. Davlat Yer kadastri; 2. Konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastri; 3. Suv kadastri davlat kadastri; 4. O‘rmon davlat kadastri; 5. O‘simlik dunyosi kadastri 6. Hayvonot dunyosi kadastri.	1. Binolar va inshootlar kadastri; 2. Shaharsozlik kadastri; 3. Gidrotexnika inshootlari kadastri№ 4. Avtomobil yo‘llari kadastri; 5. Temir yo‘llar kadastri 6. Etkazib berish quvurlari kadastri; 7. Aloqa obyektlari kadastri; 8. Energetika obyektlari kadastri..	1. Raqamli kadastr kartalarini chop etish; 2. Kadastr raqamli boshoratlash kartalarini chop etish; 3 Maxsus kadastr raqamli kartalarini chop eting

2-rasm. GAT texnologiyalari asosida axborot-tahliliy boshqaruv tizimi konsepsiyasini ishlab chiqish uchun zarur shart-sharoitlar (B.G.Azimov, 2024 y.)

SERVER 3 ning ichki elementlari ketma-ketligi quyidagicha bo‘lishi kerak:

1. Yangi geoikonika ma’lumotlari;
2. Geodezik o‘lchovlarning yangi natijalari;
3. Yangi statistika;
4. Yangi Yerni masofadan zondlashning materiallarining deshifrovka va interpretatsiya natijalari;
5. Kadastr GAT modelining maxsus ma’lumotlar bazasini yangilash.

3 SERVERda amalga oshirilgan kompleks kameral ishlar majmuasi natijasida O‘zbekiston davlat kadastrlari yagona tizimining kartografik-geodeziya davlat kadastrining WGS-84 koordinata tizimi uchun moslashtirilgan topografik asos yaratiladi.

Ikkinchi uslubiy kamchilik: 3 SERVERda kartografik-geodeziya davlat kadastrining WGS-84 koordinata tizimiga moslashtirilgan topografik asosni O‘zbekiston davlat kadastrlarining yagona tizimiga qo‘llash mantiqan mumkin emas.

CHunki yuqorida ta’kidlanimizdek, «Geodeziya va kartografiya to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha materiallar 1942 yilgi koordinatalar tizimi va 1977 yilgi Boltiq balandliklar tizimi asosida qabul qilinadi. Bu esa faol ishchan WGS-84 koordinata tizimini mohiyatan o‘lik SK-42 koordinata tizimiga o‘tkazishdir.

SERVER 4 mohiyatan faol ishchan WGS-84 koordinata tizimi asosida davlat kadastrlari ma’lumotlarini majmuasidir (2-rasm).

Faol ishchan WGS-84 koordinata tizimidagi topografik asos birinchi navbatda quyidagi tabiiy resurs bilan shug‘ullanuvchi davlat kadastrlariga zarur (1-jadval).

1. Davlat Yer kadastri;
2. Konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastri;
3. Suv kadastri davlat kadastri;
4. O‘rmon davlat kadastri;
5. O‘simlik dunyosi kadastri
6. Hayvonot dunyosi kadastri.

Bundan tashqari, jamiyat resurslariga bag‘ishlangan quyidagi davlat kadastrlariuchun ham muhimdir (1-jadval):

1. Binolar va inshootlar kadastri;
2. Shaharsozlik kadastri;
3. Gidrotexnika inshootlari kadastri№
4. Avtomobil yo‘llari kadastri;
5. Temir yo‘llar kadastri
6. Etkazib berish quvurlari kadastri;
7. Aloqa obyektlari kadastri;
8. Energetika obyektlari kadastri.

CHunki bu davlat kadastrlari har yili millionlab davlat mablag‘larini davlat kadastriga oid zarur vazifalarni WGS-84 koordinata tizimida bajaradi. Natijalarni esa «Geodeziya va kartografiya to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasiga muvofiq bajarilgan ma’lumotlarni SK-42 koordinata sistemasida topshiradi. Keyinga yil esa hammasi boshqatdan boshlanadi.

Agar davlat kadastrining vakolatli organlari bilan birgalikda maxsus tadqiqotlar o‘tkazilsa, bir topografik asosda ham tabiiy resurslarni, ham jamiyatning mavzuli resurslarini birlashtirish mumkin bo‘ladi (2-rasm, SERVER 4).

Shunday qilib, bajarilgan dala oldi tayyorgarlik ishlari (SERVER 1), dala ishlari (SERVER 2), kameral ishlar (SERVER 3) va WGS-84 koordinata tizimi topografik asosida to‘plangan kadastr ma’lumotlari to‘plami (SERVER 4) GAT texnologiyalariga asoslangan

analitik boshqaruv tizimi konsepsiyasi nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqish uchun zarur shartlar hisoblanadi (SERVER 5).

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 16-fevraldagi “Davlat kadastrlarining yagona tizimini (DKYaT) yaratish va yuritish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni nasdiqlash haqida”gi 66-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi 2000 yil 15 dekabrdagi 171-II-son Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Geodeziya va kartografiya to‘g‘risida”gi 2016 yil 22 noyabrdagi 391-sonli Qonuni.

4. Мирмахмудов Э.Р., Юсупжонов О.Г.,Тошонов Б.Ш., Хасанбаева Д.О. Предварительный анализ геодезической сети Алмалыкской промышленной зоны. Научно-технический журнал. Наука и образование сегодня. Москва, 2020. № 5 (52). С. 106-109.

5. Мирмахмудов Э.Р. Об оптимизации исходной системы координат для территории республики Узбекистан // журнал Науки о земле. 56-59 с.

QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARINING CHEGARALARINI GEODEZIK USULLARDA ANIQLASH

Tuxtamishev Sh.Sh., Urokov, O.A., Berdikulov U.A.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda respublikamizda qishloq xo‘jaligi yerlarini topografik jihatdan o‘rganish va yer maydonlarining chegaralarini aniqlash hamda belgilash bo‘yicha keng ko‘lamli islohatli ishlar olib borilayotganligi, qishloq xo‘jaligi yerlarining chegara hududlarini aniqlashva belgilash borasida geodeziya, kartografiya va geoinformatika sohasining o‘rni muhim sanalishi, loyihani joyiga ko‘chirish asosida qishloq xo‘jaligi yerlariningchegara maydonlarini aniqlash va belgilab berishda yerdan va fazodan turib tadqiq etish ko‘lami ortib bormoqda va mazkur ishlar respublikamizda muhim o‘rin tutishi jahonda va uning turli mintaqalarida yerdan foydalanuvchilarning chegara hududlarini maxsus to‘siqlar yordamida himoyalashga alohida ahamiyat qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Aerofotos’yomka, kosmosurat, deshifrlash, yaylov, pichanzor, loyiha, kontur, analitik usul, taxeometrik s’yomka.*

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ГРАНИЦ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ЗЕМЕЛЬ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОДЕЗИЧЕСКИХ МЕТОДОВ

Тухтамишев Ш. Ш., Уроков, О.А., Бердикулов У.А.
Самаркандский государственный университет архитектуры и строительства
Самарканд, Узбекистан.

Абстрактный: *В данной статье сегодня в нашей республике проводятся масштабные реформаторские работы по топографическому изучению земель сельскохозяйственного назначения и определению и обозначению границ земельных участков, геодезии, картографии и геоинформатики при определении и обозначении границ земельных участков. сельскохозяйственных угодий, возрастает значение области сельского хозяйства, объем исследований с земли и космоса в определении и определении границ участков сельскохозяйственных угодий на основе проекта переселения, а значение этих работ в нашей республике возрастает. увеличивается в мире и в различных его регионах с земли. Особое внимание уделяется защите приграничных территорий пользователей с помощью специальных барьеров.*

Ключевые слова: *Аэрофотосъемка, космическая съемка, расшифровка, пастбище, сенокос, проект, эскиз, аналитический метод, тахеометрическая съемка.*

DETERMINATION OF THE BOUNDARIES OF AGRICULTURAL LAND USING GEODESIC METHODS

Tukhtamishev Sh.Sh., Urokov, O.A., Berdikulov U.A.
Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering, Samarkand, Uzbekistan.

Abstract. *In this article, today in the Republic of Kamiz, large-scale reform works are being carried out on the topographical study of agricultural lands andthe determination and marking of the boundaries of land areas, geodesy, cartography and The role of geoinformatics is considered important, the scale of research from the ground and space in determining and defining the border areas of agricultural land based on the relocation of the project is increasing, and the importance of these works in our republic is in the world and in its various regions. Special attention is paid to the protection of border areas of land users with the help of special barriers.*

Keywords: *Aerial photography, space photography, decoding, pasture, hayfield, project, outline, analytical method, tacheometric survey.*

Qishloq xo‘jaligi yerlarining chegaralarini aniq belgilash ushbu yerlarning samarali foydalanilishi va ularning huquqiy tartibini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Geodezik usullar yerlarning aniq koordinatalarini aniqlash va ularni kartaga tushirish imkonini beradi. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi yerlarining chegaralarini aniqlashda qo‘llaniladigan asosiy geodezik usullar ko‘rib chiqiladi.

Geodezik usullar haqida umumiy ma'lumot.

Geodezik usullar asosan ikkiga bo‘linadi: an'anaviy va zamonaviy usullar. An'anaviy usullarga teodolit va nivelir yordamida o‘lchovlar kiradi, zamonaviy usullar esa GNSS (Global Navigation Satellite System) tizimlari va elektron taxometrlar yordamida amalga oshiriladi.

An'anaviy geodezik usullar

Teodolit yordamida o‘lchovlar:

Teodolit yordamida burchak va masofalarni aniq o‘lchash mumkin.

Bu usulda yerning chegaralari aniqlanadi va olingan natijalar kartaga tushiriladi.

Nivelir yordamida o‘lchovlar:

Nivelir yordamida yerning balandligi va tekisligi o‘lchanadi.

Bu usul ko‘proq yerlarning vertikal profilini aniqlashda qo‘llaniladi.

Zamonaviy geodezik usullar

GNSS (Global Navigation Satellite System):

GNSS priyomniklari yordamida yerning har bir nuqtasining koordinatalari yuqori aniqlikda aniqlanadi.

Bu tizim orqali yerlarning chegaralari aniq belgilanishi va ularning kartografik xaritasi tuzilishi mumkin.

RTK (Real-Time Kinematic) texnologiyasi esa real vaqt rejimida aniqlikni oshiradi.

Elektron taxometrlar:

Elektron taxometrlar masofani, burchaklarni va balandliklarni avtomatik ravishda o‘lchaydi.

Bu qurilmalar orqali tez va aniq o‘lchovlar amalga oshiriladi, bu esa yerlarning chegara chiziqlarini belgilashda juda qulaydir.



1-rasm. Kosmosurat yordamida ma’muriy-hududiy chegaralarini o‘rnatish

Agar yer maydonlarni loyihalash analitik usulda bajarilgan bo‘lsa, unda loyihani joyga ko‘chirish usulini tanlash planiy materialni hosil qilish uchun olib borilgan s’yomka turidan bog‘liq bo‘lmaydi. Agarda loyihalash mexanik yoki grafik usulda bajarilgan bo‘lsa, unda loyihani joyga ko‘chirishda tayanch sifatida ko‘pincha joyda konturli nuqtalar qo‘llaniladi.

Ushbu nisbatga doir aerofotos’yomka materiallari yer ustidagi s’yomka planlari oldida katta afzallikga ega, chunki ularda joydagi tafsilotlar to‘la mukammal tasvirlangan bo‘lib, loyihani joyga ko‘chirishda chiziq o‘lchash asboblar bilan o‘lchashlar sonini ancha kamaytirishga va ushbu asboblarni faqat kalta masofalarni o‘lchash uchun qo‘llanishga imkon tug‘diradi (1-rasm).

O‘lchashlar sonini maksimal qisqartirishi va o‘lchashlar uzunligini kamaytirishi aerosuratlarni to‘g‘ri o‘qilishi va shubhasiz tanla oladigan yaqin tayanch sifatida nukgalarni tanlash orqali amalga oshiriladi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, konturli nuqtalarni tanlash uchun eng yaxshi fotomahsulot bo‘lib, deshifrlanmagan kontaktli f aerosuratlar hisoblanadi, chunki aerosuratlarni transformatsiyalash yoki kattalashtirish jarayoni hamma vaqt tasvirning dag‘alligini kamayadi, xususan joydagi mayda ob’ektlarda.



2-rasm. Kosmosuratlarni deshifrlash

Deshifrlash belgilarni tushirishi bilan aerosuratlardagi tafsilotlar qisman yopiladi va konturli nuqtalarni tayanch sifatida qo‘llanishi ko‘p miqdorda kamayadi. Shuning uchun loyihalashda, ayniqsa loyihani joyga ko‘chirishda, loyihalashni bajariladigan deshifrlangan aerofoto-mahsulotlardan tashqari, ular yordamida ko‘p miqdorda joydagi mayda ob’ektlarni osongina tanlab olishiga imkon beradigan deshifrlanmagan kontaktli aerosuratlarni mavjudligi foydali hisoblanadi. Ular bilan tomonlar parallelligi va perpendikulyarligini qattiq rioya

qilishini talab qilinmaydigan uchastkalarni joyga ko‘chirishi qulay, masalan, yaylov, pichanzorlar va h.k. (2-rasm).

Loyiha nuqtalarni joyga ko‘chirish usullari bilan birgalikda, qachonki loyiha nuqta ishonch bilan tanlanalingan konturli nuqta bilan mos keladi va joyda o‘lchashlarni bajarish talab qilinmaydi, yoki qachonki AB kontur chizig‘ida C loyiha nuqtaning o‘rni (3-rasm).

AC yoki BC o‘lchashlar orqali aniqlanadi, aerofotos’yomka materiallarni qo‘llashda loyiha nuqtalarni joyga ko‘chirish uchun kerakli o‘lchashlar uzunligini kamaytirishga imkon beradigan boshqa usullar ham keng qo‘llaniladi.

Masalan, aerosuratlarning alohida qismlarini har xil masshtabligi sababli (xususan, agar u traneformatsiyalanmagan bo‘lsa) A va B uzoqda joylashgan nuqtalar bo‘yicha C loyiha nuqtani hosil qilishi, aerosuratda AC va BS chiziqlarni o‘lchashda katta xatolarga olib kelishi mumkin.

Bu holatda natija aniqroq bo‘ladi, agarda C loyiha nuqtani <prtnida joylashgan E konturli nuqtadan foydalansa A-B chiziqga C nuqtadan perpendikulyar tushirilsa va ushbu perpendikulyar asosidan joyda C loyihaviy nuqtani hosil qilish uchun aerosuratdan olingan CD o‘lcham aniqlansa.

3-rasm. Loyiha nuqtalarini o‘rnatish

O‘lchashlar uzunligini kamaytirishi uchun to‘g‘ri chiziqlarni kesishidan foydalanadilar, shunda aerosuratdagi to‘g‘ri chiziqlarni kesishtirish nuqtasi aerosuratni qiyaligi uchun noto‘g‘ri tasvirlanishiga qaramasdan joyida ushbu to‘g‘ri chiziqlarni kesishtirish nuqtasi bilan aniq mos kelishidan amal qiladilar. Shuning uchun K loyiha nuqtani joyga ko‘chirishda, uning yaqinida joyda AR va BN chiziqlarning kesishida x nuqtani o‘rni topiladi. Ushbu nuqtadan xL kesimi o‘lchanadi va LK perpendikulyar bo‘yicha K loyiha nuqtasini o‘rni topiladi. Nazorat uchun joyida loyiha nuqtalar orasidagi (tomonlar) barcha chiziqlar o‘lchanadi, natijalari aerosuratda yoki rejalash chizmasida yoziladi va aerosuratdagi muvofiq chiziqlar bilan solishtiriladi.

Tayyorgarlik ishlarni olib borishda, loyihalashda va loyihani joyga ko‘chirishda aniqligini oshirish uchun joyda mahkamlangan, aniqlangan (opoznak) nuqtalaridan foydalaniladi.

Aerofotomahsulotlar bo‘yicha loyihani joyga ko‘chirish aniqligi taxminan yer ustidagi s’yomka planlari bo‘yicha loyihani joyga ko‘chirish aniqligiga to‘g‘ri keladi.

Loyihani joyga ko‘chirishdagi xatoliklarining yer maydonlari yuzalarining aniqligiga ta’sirini hisobga olish juda murakkab jarayon xisoblanadi, chunki joyga ko‘chirilgan maydon chegarasining bir qismi oldindan o‘tkazilgan teodolit yo‘llariga, bir qismi esa tafsilotlarning konturli nuqtalariga tayangan bo‘lishi mumkin, hamda, ayrim yer maydonlarning chegara qismlari bir usulda joyga ko‘chirilgan, qolganlari esa boshqa usulda va h.k. kuzatilishi mumkin.

Shuning uchun loyihani joyga ko‘chirishdagi xatolarni hisobga olish usullaridan eng oddiy usullarga to‘xtalib o‘tamiz.

Loyihany joyga ko‘chirish aniqligi ushbu jarayonnning ikki asosiy bosqichini o‘tkazish jarayonidan bog‘liq:

loyihani joyga ko‘chirish uchun geodezik qiymatlarni kameral aniqlash;

loyihani joyga ko‘chirishda dala o‘lchashlar.

Geodezik qiymatlarni kameral aniqlashi loyihani faqat grafik va mexanik usullarda bajarish uchun kerak.

Analitik usulni qo‘llashda esa, geodezik qiymatlar loyihalash jarayonida hosil qilinadi va ularning aniqligi faqat joydagi o‘lchashlar xatolaridan bog‘liq bo‘ladi.

Agar loyihani faqat chiziq o‘lchash qurollari yordamida ko‘chirilsa, unda plandagi o‘lchashlar masshtab aniqligiga muvofiq (0,08 mm yoki yaxlit 0,1) xato bilan aniqlanadi.

Taxeometrik s’yomka hozirgi kunda, optik geodezik asbob – teodolit-taxeometr(doiraviy taxeometr)lardan tashqari, asosan, elektron taxeometrlar yordamida bajarilmoqda. S’yomka jarayonida kerakli o‘lchashlarni amalga oshirish uchun optik asbobning gorizontal va vertikal doiralari hamda ko‘rish trubasidagi ipli dalnomer chiziqlari xizmat qiladi.

Shu bois, quyida hozirgi kunda ishlab chiqarishda keng qo‘llanilayotgan hamda yangi ishlab chiqarilayotgan elektron taxeometrlarning tuzilishi, texnik tavsiflari va ular imkoniyatlariga batafsil urg‘u beriladi.

Hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan elektron taxeometrlar (elektron taxeometrik stansiyalar) o‘lchash-hisoblash majmuasidan iborat bo‘lib, unga ixcham masofa o‘lchash elektron dalnomeri, gorizontal va vertikal burchaklarni o‘lchab, natijasini ekran(displey)ga chiqarib va birdaniga xotiraga yozib qayd qiluvchi elektron moslama, hamda natijalarni dastlabki ishlab chiqish uchun kichik kompyuterlar kiradi.

Elektron taxeometrlar eng ommaviy bo‘lib, bugungi kunda ko‘p chet el firmalar tomonidan ishlab chiqarilmoqda va ular tizimli hamda kundalik s’yomkalarda ishlatiladigan asboblarga bo‘linadi va bir-biridan aniqligi, imkoniyatlari xamda avtomatlashtirilgan darajasiga qarab farq qiladi.

Bugungi kunda elektron taxeometrlar ma’lum aniqlik diapazonini qamrab oladigan bir avlod asboblarining seriyali qilib chiqarilmoqda. Har bir seriyada ko‘rsatilgan diapazon doirasida aniqligi, avtomatlashtirish darajasi va qo‘shimcha funksiyalarning har xil to‘plami bo‘yicha farqlanadigan bir necha modifikatsiyasi bo‘ladi.

Elektron taxeometrlarni ishlab chiqaruvchi ilg‘or firmalar bo‘lib, “Leica” (Shveysariya), “Trimble” (AKSH), “SOKKIA” (Yaponiya), UOMZ (Rossiya) va boshqalarni qayd etish mumkin.

“Carl Zeiss” (Germaniya) tomonidan ishlab chiqilgan Elta S10, S20 tizimli taxeometrlar hamda kundalik ishlatiladigan Elta R55 lar to‘g‘risida yetarli ma’lumot keltirilgan. Quyida “Leica” (Shveysariya), Trimble” (AKSh) firmalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektron taxeometrlar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz.

“Leica” (Shveysariya) tomonidan ishlab chiqilgan TPS seriyali elektron taxeometrlar asosan topografik, kadastr, qurilish s’yomkalarni bajarishga mo‘ljallangan bo‘lib, quyidagi rusumlarda ishlab chiqarilmoqda:

TSM – motorlashtirilgan taxeometrik stansiyalar;

TSR – qaytargichsiz o‘lchashlarni bajariladigan taxeometrlar;

TSMR – qaytargichsiz o‘lchashlarni bajariladigan motorlashtirilgan taxeometrlar;

TSA – motorlashtirilgan qaytargichni avtomatik tarzda kuzatadigan taxeometrlar.

TPS seriyali elektron taxeometrlarda quyidagi afzalliklar mujassamlashgan:

Uch sinfli aniqligi - o‘lchash aniqligiga qarab mavjud seriyaning qatorida kerakli modelini tanlash mumkin. Masalan, TPS 802 - 2 , TPS 803 - , TPS 805 - 5;

10000 ta o‘lchashlar - ishonchli o‘rnatilgan xotira 10000 ta bloklar ma’lumotini saqlash qobiliyatiga ega;

Uzluksiz qaratish vinti - nishonga qaratishda vintni maxkamlash va bo‘shatish hojati yo‘q;

Lazer shovuni - lazer shovun tufayli asbobni optik markazlashtirgichga nisbatan ancha tez markazlashtirish mumkin;

Elektron ko‘rsatkichi - rejalash ishlarini bajarishda juda qulay, reykali elektron ko‘rsatgichi bo‘yicha stvorga qaytargichni aniq qo‘yish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

TPS 400 seriyali elektron taxeometrlar (3– rasm) topografik s’yomka va qurilish ishlariga mo‘ljallangan bo‘lib, bazis chiziqlarni hosil qilish, rejalash ishlari, balandliklarni uzatish, yuzalarni hisoblash, borib bo‘lmas nuqtalar balandligini aniqlashda qo‘llash mumkin.

TPS 800 seriyali elektron taxeometrlar bilan esa yuqorida qayd etilgan ishlardan tashqari orientirlash, teskari geodezik masalani yechish, loyihani joyga ko‘chirish, ko‘rinmaydigan nuqtalarni o‘lchash va boshqa ishlarni amalga oshirishi mumkin.

TRS 1100 seriyali elektron taxeometrlar qo‘shimcha amaliy dasturlar bilan ta’minlanganligi tufayli, ular yuqori unumli hisoblanadi va alohida masalalarni yechishga, shuningdek asboblarning ishlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan.

TPS seriyali elektron taxeometrlarda bir qator geodezik o‘lchashlarni bevosita joyda bajarish uchun dasturlar o‘rnatilgan, chunonchi:

-rejalash dasturi ma’lum koordinatalari bo‘yicha uch o‘lchamli rejalash elementlarini hisoblashga imkon beradi.

-orientirlash. Balandlikni uzatish dasturi orqali boshlang‘ich direksion burchaklarni hisoblash va koordinatalari ma’lum bir yoki bir necha borib bo‘lmas nuqtalarning kuzatish natijalari bo‘yicha balandliklarni uzatish mumkin.

doiraviy qabullar dasturi yordamida bir necha qabullardan iborat o‘lchangan burchaklarda o‘rtacha yo‘nalishlarni aniqlash mumkin.

Keyingi yillarda “Leica Geosistem” (Shveysariya) firmasi tomonidan yanada ham yuqori unumli, avtomatlashgan Leica FlexLine TS rusumli elektron taxeometrlar ishlab chiqarilmoqda. Bu rusumli elektron taxeometrlar qator afzalliklarga ega bo‘lib, ulardan haqiqiy sifat, moslashuvchanlik, qulaylik va samaradorlik xossalarini ta’kidlab o‘tish mumkin.

Shuning dek, Leica FlexLine TS02 plus elektron taxeometri texnik va o‘rtacha aniqlikda s’yomka ishlarning barcha standart vazifalari uchun ishonchli, tezkor va qulay asbob hisoblanadi. Bu asbob katta grafik oq–qora displey, harfli- raqamli klaviatura, bluetooth simsiz aloqa bilan jihozlangan va SmartWorx Viva dasturiy ta’minoti orqali yanada moslashuvchanlikka erishish mumkin.

Leica FlexLine TS06 plus elektron taxeometri o‘rtacha aniqlikda kundalik s’yomka ishlarning barcha standart vazifalari uchun ishonchli, tezkor va qulay asbob hisoblanadi.Unda katta grafik oq–qora displey, harfli – raqamli klaviaturadan tashqari, yangi o‘rnatilgan Leica FlexFildplus dasturi va yangi rangli sensor displey bilan jihozlangan.

Leica FlexLine TS09 plus elektron taxeometri Leica FlexLine plus asboblari turkumida yetakchi model bo‘lib, yuqori aniqlikdagi ishlar uchun ideal asbob hisoblanadi. TS09 plusning kengaytirilgan konfiguratsiyasi uni favqulodda moslashuvchan asbobga aylantiriladi, chunki u bilan nafaqat kundalik s’yomka ishlarni, balki har qanday murakkab masalalarni katta ishonch bilan bajarish mumkin. Yangi o‘rnatilgan Leica FlexFildplus dasturi va yangi rangli sensor displey bajarilayotgan ishlar samarasini yanada oshirishiga imkon beradi.

Xulosa: Geodezik usullar qishloq xo‘jaligi yerlarining chegaralarini aniqlashda yuqori aniqlik va samaradorlikni ta’minlaydi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, GNSS tizimlari va elektron taxometrlar bu jarayonni yanada osonlashtiradi va tezlashtiradi. Ushbu usullar

yordamida qishloq xo‘jaligi yerlarining huquqiy tartibini ta’minlash va ularning samarali foydalanilishini nazorat qilish imkoniyati oshadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Tukhtamishev, S., Suyunov, S., Mirzaev, A., Urokov, O., & Berdikulov, U. (2024). Analysis of the quality of measurements of permanent base stations (UZPOS) in the territory of Samarkand. In*E3S Web of Conferences* (Vol. 498, p. 02020). EDP Sciences.
2. Abdurakhmonov, S., Ochilov, S., Tukhtamishev, S., Urokov, O., Berdikulov, U., & Azzamov, G. (2024). Cartographic modeling of demographic processes using remote sensing data. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 497, p. 02030). EDP Sciences.
3. Usmanovich, S. T., Rashitovich, S. S., & Adkhamovich, B. U. (2022). It is Currently Modern in the Field of Geodesy Application of Levels. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 193-197.
4. Usmanovich, S. T., Rashitovich, S. S., & Adkhamovich, B. U. (2022). SURFACE CONTROL OF HELIOSTATS. *Gospodarka i Innowacje.*, *22*, 355-357.
5. Abdisaidovich, M. A., & Adxamovich, B. U. (2023). GORIZONTAL BURCHAKLARNI ELEKTRON TAXEOMETR BILAN O ‘LCHASH ANIQLIGI VA UNDAGI XATOLIKLAR. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 100-104.
6. Сафаров, Т. У., Саманкулов, Ш. Р., Худайкулов, Ш. Ш., & Бердикулов, У. А. (2023). Методика Юстировки Много Фацетных Гелиостатов. *Open Academia: Journal of Scholarly Research*, *1*(1), 69-73.
7. Суюнов, А. С., Суюнов, Ш. А., & Бердикулов, У. А. (2018). ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ТРИГОНОМЕТРИК НИВЕЛИРЛАШДА РЕФРАКЦИЯНИ ҲИСОБГА ОЛИШНИНГ ЯНГИЧА ЙЎЛИ. *Irrigatsiya va Melioratsiya*, (2), 55-57.
8. ISROILOV, M., BERDIKULOV, U., & QOBILOV, A. Creation of a Network of Permanently Operating Satellite Reference Stations. State and Opportunities of the State Geodesic Network Republic of Uzbekistan. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, *7*(07), 136-141.

TOPOGRAFIYA VA KARTOGRAFIYA ASOSLARI FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION TA’LIMNING AHAMIYATI

Negmatov S.Q.

NavDPI, Navoiy, O‘zbekiston, e-mail: sqnegmatov@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Topografiya va kartografiya asoslari fanini o‘qitishda innovatsion ta’limning ahamiyatining ba’zi bir jihatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Topografiya, innovatsion ta’lim, geodeziya, kartografiya, Dunyo atlasi, O‘rta Osiyo, Xorazm geografiyasi*

ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЕТОДОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ ОСНОВ ТОПОГРАФИИ И КАРТОГРАФИИ

Негматов С.К.

НавГПИ, Навои, Узбекистан, e-mail: sqnegmatov@mail.ru

Аннотация: *В данной статье освещены некоторые аспекты значения инновационного образования в преподавании основ топографии и картографии.*

Ключевые слова: *Топография, инновационное образование, геодезия, картография, Атлас мира, Центральная Азия, география Хорезма.*

THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING THE FUNDAMENTALS OF TOPOGRAPHY AND CARTOGRAPHY

Negmatov S.K.
NavSPI, Navoi, Uzbekistan, e-mail: sqnegmatov@mail.ru

Abstract: *In this article, some aspects of the importance of innovative education in the teaching of the basics of topography and cartography are highlighted.*

Key words: *Topography, innovative education, geodesy, cartography, World Atlas, Central Asia, Khorezm geography.*

Innovatsion ta'lim sharoitida "Topografiya va kartografiya asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu maqsadga, eng avvalo, oliy ta'lim muassasalaridagi geografiya ta'limi orqali erishiladi. Har qanday shaxsning tayanch geografik madaniyati geografiya ta'limida nafaqat geografik bilimlar, ko'nikma va malakalar yoki kompetensiyalar o'zlashtirilishi, balki talabalarda ijodiy faoliyat tajribasi va atrof-muhitga hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasi shakllanishi bilan birgalikda vujudga keladi.

Innovatsion ta'lim sharoitida "Topografiya va kartografiya asoslari" fani ta'limi – muayyan jamiyatda tarixan shakllangan geografik tajribaning avloddan-avlodga o'tkazilishi va o'zlashtirilishini ta'minlashga, ta'lim oluvchilarning geografik bilim, ko'nikma va malakalar, kompetensiyalarni o'zlashtirishiga, ijodiy kuchi va ichki salohiyatini rivojlantirishga, mustaqil o'qish qobiliyati va geografik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning mushtarak, maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan va ilmiy pedagogik asoslangan o'zaro munosabati jarayonidir.

"Topografiya va kartografiya asoslari" fani geografik fanlar ichida muhim fanlardan biri bo'lib, unda kishilik jamiyatida va inson faoliyatida muhim hisoblanadi. Kishilik jamiyatida kartaning o'rni alohida bo'lib, turli geografik tadqiqotlar va yer yuzasidagi voqea-hodisalarning hududiy tarqalishi kartada yaqqol namoyon bo'ladi. Geografik kartalar asosini topografik kartalar tashkil qiladi. Birorta hududning geografik kartasini tuzish uchun, o'sha hududning topografik plani va kartasi tuziladi. Joyning topo kartasini tuzish uchun kartaning negizi hisoblangan geodezik asos bo'lishi zarur. Bu orqali yerning shakli, kattaligi va boshqa o'lchamlari aniqlanadi (1-rasm).



1-rasm. Topografiya va kartografiya aloqadorligi.

Topografiya – yer yuzasining ma'lum bir kichik qismini plan yoki kartada tasvirlash usullarini o'rgatadi. Hozirgi vaqtda topografik plan olishda aero va kosmo suratlardan foydalanilmoqda.

Kartografiya – tabiat va jamiyatda vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradigan voqea va hodisalarning tarqalishini, ularning o‘zaro bog’liqligini, kartografik ma’lumotlarni belgi-modellar vositasida ko‘rgazmali ravishda tasvirlash yo‘llarini o‘rgatuvchi fan hisoblanadi. Kartografiya – qadimiy fanlardan biri bo‘lib, dastlab milodning II-asrida yashagan Klavdiy Ptolomey tomonidan fanga kiritilgan.

“Topografiya va kartografiya asoslari” fani tarixi ham boshqa fanlar qatori tarixiy manbalar asosida o‘rganiladi. Dastlabki kartografik tasvirlar ibtidoiy jamoa davrida paydo bo‘lgan. Masalan, miloddan avvalgi ikki minginchi yillarda Shimoliy Italiyadagi tog‘larida toshlaraga yo‘llar, daryolar va sug‘oriladigan yerlar tasvirlanganligi ma’lum va ular har xil chiziqli shakllardan tashkil topgan. Bunday tasvirlar qadimgi Vaviloniya shahrining arxeologik tasvirlarida ham uchraydi. O‘rta Osiyo haqidagi dastlabki geografik va kartografik ma’lumotlar miloddan avvalgi V-asrlarda yashagan yunon allomasi Geradot tomonidan yozilgan asarlarda uchraydi.

Klavdiy Ptolomey tomonidan yaratilgan “Geografiya” kitobida 27 ta kartadan iborat “Dunyo atlasi”ni yaratadi, bu atlasda daraja to‘rlari ham tasvirlangan. Yunon olimi Erotosfen tomonidan yer yuzasidagi joylarning o‘rinlari, ob’ektlarni kenglik va uzoqlik orqali aniqlash va gradus o‘lchash yo‘li bilan aniqlash usullari ishlab chiqilgan. Strabon tomonidan yaratilgan kitoblarda yerning sharsimonligi va uni o‘lchash usullari to‘g‘risida, o‘sha davrlarda ma’lum bo‘lgan hududlarning kartalari va ularning geografik tasvirlari bayon etilgan.

Ta’limda o‘quv dasturlari va darsliklarning mazmunini takomillashtirish, ayniqsa, uning yangi mazmundagi tarkibiy tuzilishini aniqlash, o‘quv materiallarini har bir bo‘lim va mavzularini maqsadga muvofiq joylashtirilganligini qayta qarab chiqish, ta’lim va tarbiya jarayonining asosiy omillaridir.

O‘quv materialining mantiqiy tarkibiy tuzilishi deyilganda, odatda, o‘rganiladigan o‘quv fanlaridagi tushuncha va fikr -muloxazalarni ichki aloqalari va ularning bir-biriga ta’siri, bir-birini taqozo qilishi tushuniladi.

Ptolemey yaratgan atlasidagi 22-kartada O‘rta Osiyo hududi 81^0-147^0 *shq.u va* 33^0-63^0 *sh.k.* orasida tasvirlagan, unda respublikamiz hududi ham aks ettirilgan. Shuni ta’kidlash lozimki, Ptolomey bosh meridianni *Kanar* orollaridan o‘tkazgan.

Mazkur fanning rivojlanishiga O‘rta Osiyolik bir qancha allomalar o‘z hissalarini qo‘shishgan. Xususan, al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, A.R.Beruniy, M.Qoshg’ariy, Z.M.Bobur, Haydar Mirzo kabi allomalar shular jumlasidandir.

IX-asrning boshlarida al-Xorazmiy tomonidan 1^0 yoy uzunligini o‘lchash bo‘yicha ekspidetsiyalar o‘tkazilgan, “Dunyo atlasi”ni yaratish bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan. Uning “Surati-al-arz” kitobi “Xorazm geografiyasi” nomi bilan mashhur bo‘lib, unda o‘nlab kartalar va ularning izohlari berilgan.

Al-Farg‘oniyning geodeziya sohasidagi ishlar ko‘p bo‘lib, “Al-Komil fil usturlob” (Usturlob to‘g‘risida mukammal ma’lumotlar) va “Usturlob san’ati to‘g‘risida” nomli asarlari geodezik o‘lchash ishlarini bajarishda asosiy manbalar bo‘lib hisoblanadi.

A.R.Beruniyning XI-XII asrlardagi geodeziya va kartografiya fanlariga qo‘shgan hissasi kattadir. Uning “Kartografiya” nomli asarida daraja to‘ri, sharni tekis yuzaga ko‘chirish va kartografik proyeksiyalar, osmon globusini yasash to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilgan. “Hindiston” kitobida turli shaharlarning geografik koordinatalarini hisoblab, ularni tekis yuzada tasvirlagan va dunyodagi 300 dan ortiq joylarning geografik koordinatalarini aniqlagan. Beruniy tomonidan bundan tashqari “Dunyo kartasi” va 995 yilda “Dunyo globusi”ni yaratgan.

Maxmud Qoshg‘ariy XI asrda O‘rta Osiyoda kartografiya fanida kartalarga rang berish va shartli belgilardan foydalanish ishlarini amalga oshirgan. Mirzo Ulug‘bek davrida uning shogirdi Ali Qushchi Samarqandiy yasagan dunyo kartasi va yer shari globusi ushbu fanning rivojlanishida muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. XIX asrda Hoji Yusuf Mirfayozov

tomonidan yasalgan globusda (bo‘yi 117 sm, yer shari aylanasi uzunligi 130 sm, masshtabi 1:25000000 (1sm-250 km) meridian va parallellar qora rangda, tropik chiziqlar qizil rangda berilgan.

O‘rta asrlarda Yevropada kartografiya fani buyuk geografik kashfiyotlar davrida rivojlangan va maxsus kartalar tuzilgan. XVI asr o’rtalarida g’arbda kompas yordamida oddiy o‘lchash usuli bilan olingan topografik planlar vujudga kelgan. 1570 yilda yaratilgan Avraam Ortemeyning “Yer shari manzarasi”, 1569 yilda yaratilgan Gerard Merkatorning “Dunyo kartasi” va “Dunyo atlasi”, Vegenyerning “Dengiz atlasi” sermazmunligi bilan ajralib turadi.

Geodezik ishlar mazmuni va tavsifiga ko‘ra ikki bosqichga bo‘linadi (2-rasm):



2-rasm. Geodezik ishlar mazmuni va tavsifiga ko‘ra bosqichlari.

Qishloq xo‘jaligida planli-kartografik mahsulotlar juda katta ahamiyatga ega. Yer tuzish tashkilotlari yerdan oqilona foydalanish masalalarini yechishda ulardan keng foydalanadi.

Barcha yer toifalarining doimiy hisobini olib borish, yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish, yerdan foydalanish hamda almashlab ekish dalalari chegaralarini belgilash, aholi turar joylari, yo‘llar, sug‘orish tarmoqlari va boshqalarni joylashtirishda plan va kartalar asos bo‘lib xizmat qiladi. Yerlarni sug‘orish va zaxini qochirish, tuproq eroziyasiga (yemirilishiga) qarshi kurash tadbirlarini va boshqa shu kabi masalalarni planli-kartografik hujjatlar yordamida yechish mumkin. Agrotexnikaga oid juda ko‘p masalalarni yechish uchun ham tuproq, relyef, o‘simlik qoplami, suv havzalari tasvirlangan planli-kartografik hujjatlar bo‘lishi kerak.

Planli-kartografik hujjatlar mamlakat mudofaasi uchun ham juda zarur, shuning uchun ham azaldan „karta—armiyaning ko‘zi“ deb sanaladi.

Innovatsion ta’lim sharoitida “Topografiya va kartografiya asoslari” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayonida oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilarining ilg‘or tajribalari erishilgan materiallarni o‘rganish, shuningdek, kuzatishlar va suhbatlardan ma’lum bo‘lishicha, ularning ko‘pchiligi o‘z amaliy faoliyatlarida kuchsiz avtoritar motivga asoslangan bir xildagi o‘qitish jarayonlarini qisman o‘zgartirgan holda foydalanishadi (3-rasm).



3-rasm. Topshiriqlarning ishlash tuzilmasi.

Innovatsion ta’lim sharoitida “Topografiya va kartografiya asoslari” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga doir topshiriqlarning tuzish algoritmi: shakllantirilishi zarur bo‘lgan kompetensiya jihatlarini aniqlash, baholash; tanlangan jihat asosida topshiriqlarni tahrirlash; rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan manbalarni qidirish; rag‘batni shakllantirish; shkala, modelli javoblar, kalitlarni ishab chiqish.

Innovatsion ta’lim sharoitida “Topografiya va kartografiya asoslari” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga doir topshiriqlarni bajarish algoritmi bilan tanishib chiqamiz (4-rasm).



4-rasm. “Topografiya va kartografiya asoslari” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga doir topshiriqlarni bajarish algoritmi

Innovatsion ta’lim sharoitida “Topografiya va kartografiya asoslari” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar bilimlarga tayanadi va egallagan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashni talab etadi.

Quyida innovatsion ta’lim sharoitida “Topografiya va kartografiya asoslari” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga doir topshiriqlarning tarkibiy tuzilishi bilan tanishib chiqamiz.



5-rasm. Innovatsion ta'lim sharoitida "Topografiya va kartografiya asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga doir topshiriqlarni tarkibiy tuzilishi

Talabalarga aniq vaziyatlarda harakat qilish usullarini tanlash, eng asosiysi bilim, egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq hayotiy vaziyatlarda qo'llash, kerakli ma'lumotni topishga o'rgatish, maqsadida topografiya va kartografiya fanidan topshiriqlardan foydalanildi.

"Topografiya va kartografiya asoslari" fanidan topshiriqlardan - Innovatsion ta'limning integrativ didaktik birligi bo'lib, o'zida o'qitish mazmuni, texnologiyalari, o'qitish sifati monitoringini qamrab oladi va talabalar kasbiy kompetentligini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

"Topografiya va kartografiya asoslari" fanidan topshiriqlarning maqsadi: alohida faoliyat yoki ularni ma'lumotlar bilan yuklantirish emas, talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishdan iborat.

"Topografiya va kartografiya asoslari" fanidan topshiriqlardan mazmuni turli xil faktlarni o'z ichiga oladi: kashshof-geograflar ismi-sharifi va ularning kemalari nomlari; atmosfera qobig'i, qatlamlari va gazlari; bulutning turlari; tog' jinslari guruhlari; raqamli ko'rsatkichlar (balandlik va chuqurlik haqidagi ma'lumotlar, materiklar, mamlakatlar va mintaqalar chekka nuqtalarining geografik kengligi va uzunligi, ayrim hududlarda yog'inlar miqdori va havo harorati, aholi soni, muhim sanalar va sh.k.); tabiat zonalarining geografik o'rni, yil fasllari davomiyligi, yanvar va iyul oyining o'rtacha harorati, yog'in miqdori va rejimi, tuproq tiplari hamda o'simlik va hayvonot dunyosi moslashuvining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlar eng muhim faktlar sirasiga kiradi.

Taniqli metodist-olim N.N. Baranskiy fikricha, hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi geografiya metodologiyasi uchun ham, geografiya ta'limi metodikasi uchun ham eng muhim masala hisoblanadi. Zero, geografik sabab-oqibat bog'lanishlari geografik ob'ektlar, hodisa va jarayonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini aks ettirib, mohiyatan ilmiy geografiya va geografiya ta'limining ilmiylik darajasini belgilab beradi. Masalan, relefning shakllanishi, birinchidan, ichki sabablar: tog' paydo bo'lishi, yer po'stining mo''tadil

harakati, vulqonlar, ikkinchidan, tashqi sabablar: muz bosishi, dengiz transgressiyasi, ya'ni dengizning quruqlikka bosib kirishi, shamol va oqar suv ishining oqibati sifatida qarab chiqiladi.

Geografik sabab-oqibat bog'lanishlari va geografik tushunchalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va munosabatlar geografik qonunlar, qonuniyatlar, ta'limotlar, konsepsiyalar, nazariyalar va ilmiy farazlarda o'z aksini topadi.

Tadqiqot muammosi bo'yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, butun jahonda geografiya ta'limini modernizatsiya qilishning yangi strategiyalarida ijodiy faoliyat tajribasi va uni shakllantirishga ustuvorlik berilgan. Xususan, Stiven Skoffxem (Stephen Scoffham) muallifligi va tahriri ostida chop etilgan "Geografiya va ijodkorlik" (Geography and creativity), "Geografiyani ijodiy o'qitish" (Teaching Geography Creatively), "Geografiya, ijodkorlik va kelajak" (Geography, Creativity and the Future), "Geografiya va matematika: ijodiy yondashuv" (Geography and Mathematics: A Creative Approach), "Geografiyada sayr-tomosha va o'yinlar" (Fun and Games in Geography) va "Ehtiyojga asoslangan dala tadqiqotlari kuchli va to'kis ta'lim strategiyasi sifatida" (Enquiry-driven fieldwork as a rich and powerful teaching strategy) kabi ishlarda geografiyani o'quv fani sifatida ijodiy rivojlantirish mumkinligi va geografiya ta'limidagi ijodkorlik prinsiplari:

1) ijodkorlik obrazli fikrlash yoki xulq-atvorni nazarda tutishi;

2) ijodiy faoliyatning maqsadga muvofiqligi, ya'ni qo'yilgan maqsadga erishishga qaratilganligi;

3) bu jarayonlar qandaydir o'ziga xos (original) narsalarni yaratishi kerakligi;

4) natija maqsadga nisbatan muhim ahamiyatga ega bo'lishi zarurligi asoslab berilgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуқодиров А.А Таълимда инновацион технологиялар. – Т.: Истеъдод, 2008.– 180 б.

2. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. / Монография. –Т.: Фан, 2007. – 144 б.

3. Мирзалиев Т. Картография. Дарслик. Т.: ЎзМУ, 2002. – 40-45 б.

4. Мирзалиев Т., Мусаев И. Картография. Ўқув қўлланма. Т.: ЎзМУ, 2007. – 121-123 б.

GEOINFORMASION TIZIMLAR YORDAMIDA SUV XAVZASINING JOYLASHUVINI KARTOGRAFIK MODELLASHTIRISH

Ibragimov U.N., Aliqulov G'.N.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
Qarshi, O'zbekiston, e-mail: utkir.ibragimov.92@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kartalarni tuzishning zamonaviy metodlarini qo'llash va relyefning uch o'lchamli modelini MapInfo dasturlarida yaratish hamda tuzilgan raqamli elektron kartalarning ma'lumotlar bazasini yaratish hisoblanadi.*

Kalit so'zlar. *GIS, Landshaft, ArcGis, MapInfo, masofadan zondlash ma'lumotlari va relyefning uch o'lchamli modelini yaratish.*

КАРТОГРАФИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ РАСПОЛОЖЕНИЯ ВОДБАССЕЙНА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ

Ибрагимов У.Н., Аликулов Г.Н.
Каршинский инженерно-экономический институт
Карши, Узбекистан, e-mail: utkir.ibragimov.92@mail.ru

Аннотация. *В данной статье рассматривается использование современных методов создания карт и создание трехмерной модели рельефа в программах MapInfo и создание базы структурированных цифровых электронных карт.*

Ключевые слова. *ГИС, ландшафт, ArcGis, MapInfo, данные дистанционного зондирования и 3D-моделирование местности.*

CARTOGRAPHIC MODELING OF WATER BASIN LOCATION WITH THE HELP OF GEOINFORMATION SYSTEMS

Ibragimov U.N., Alikulov G.N.
Karshi Engineering Economics Institute
Karshi, Uzbekistan, e-mail: utkir.ibragimov.92@mail.ru

Abstract. *In this article, it is considered to use modern methods of creating maps and to create a three-dimensional model of the relief in MapInfo programs and to create a database of structured digital electronic maps.*

Keywords. *GIS, Landscape, ArcGis, MapInfo, remote sensing data and 3D terrain modeling.*

Keyingi yillarda suv resurslari kartalarini yaratishning “qog‘ozli” deb atalgan odatdagi texnologiyasi bilan bir qatorda geoinformasion tizimdan (GIS) foydalangan holda kartalar yaratishning kompyuterli texnologiyasi shiddat bilan rivojlanmoqda. Oddiyroq qilib aytganda, GIS ga tabiat va jamiyat obyektlari va hodisalari haqidagi geografik topografik, yer resurslari va boshqa kartografik axborotlarni yig‘ish, ularga ishlov berish, EHM xotirasida saqlash, yangilash, tahlil qilish, yana qayta ishlashni ta’minlovchi avtomatlashtirilgan apparat-dasturli kompleks deb ta’rif bersa bo‘ladi.

Landshaft strukturasi va xususiyatlarini tabiiy geografik jihatdan o‘rganishda zamonaviy tadqiqot uslublarini qo‘llanishi ularni optimallashtirishda muhim o‘rin tutadi. Shularni hisobga olganda, landshaftlarni mustaqil tadqiq qilish zaruriyati ortib bormoqda.

Kartalarni tuzishda zamonaviy metodlarni qo‘llash xavzada bo‘layotgan jarayonlarni kuzatib borish va tahlil qilishda asosiy o‘rinlarni egallaydi, chunki, zamonaviy metodlarda ma’lumotlarning kiritilishi, ularni qayta ishlash jarayoni tez kechadi. Hozirgi kunda geografik axborot tizimlari yordamida landshaft kartalarini tuzish, dala tadqiqotlarini olib borish va ishlab chiqarishda ArcGis, MapInfo, ArcView, WinGIS, PHOTOMOD, GeoDraw, GeoGraph va boshqalar keng qo‘llanilmoqda. GIS dasturlarida landshaft tadqiqotlarini olib borish ishlari bir nechta bosqichda olib boriladi.

Vektorlash uchun rastrli materiallarda fazoviy koordinatalar tizimi tanlanadi. Bu jarayon avtomatik yoki qo‘lda amalga oshirilishi mumkin. Avtomatik tarzda bajarish uchun dastlab ikkita tayanch nuqta tanlanadi. Qolgan barcha tayanch va nazorat nuqtalari avtomatik holda joylashtirib chiqiladi. Shundan so‘ng, havzaning kosmik suratlari bir-biriga ulanadi. Suratlar ulangach, ular raqamli ko‘rinishga keltiriladi.

Vektorlash jarayonida esa rastrli materiallardagi obyektlar raqamlanadi. Buning uchun kartani tuzish dasturi ishlab chiqilgan bo‘lishi, shuningdek ilmiy-adabiyotli ma’lumotlar tahlil qilingan bo‘lishi kerak. Raqamli kartalar bir nechta mavzuli qatlamlardan iborat bo‘lishi mumkin. Har bir qatlamda ma’lum bir obyektlar tasvirlanadi.

Relyefning uch o‘lchamli modelini MapInfo dasturlarida yaratish uchun o‘zaro birlashtirilgan suratlarga mutloq balandligi ma’lum bo‘lgan nuqtalar tanlanadi va ularning mutloq balandligi beriladi. So‘ngra ular o‘zaro to‘g‘ri chiziqlar bilan tutashtirib chiqiladi. Ular yordamida relyefni uch o‘lchamli modelini yaratishdan tashqari gorizontallarni avtomatik tarzda o‘tkazish ham mumkin.

Tuzilgan raqamli elektron kartalarning ma’lumotlar bazasi yaratiladi. Ma’lumotlar bazasiga kartadagi obyektlar haqida ma’lumotlar jadval shaklda kiritiladi va saqlanadi. Ma’lumotlar bazasini yaratish uchun kartografik, adabiyotli va statistik ma’lumotlar, bundan tashqari dala tadqiqotlari natijalari tanlanadi.



1-rasm. Relyefning uch o‘lchamli modelini yaratish uchun balandliklar tarmog‘i



2-rasm. 3D (uch o‘lchamli relyef) modeli

Dala tadqiqotlarini olib borish ishlab chiqilgan dastur asosida bajariladi.

Eng oxirgi bosqichda kartalarning legendasi tuziladi, ular tahrir qilinadi, ekspert tizimlar orqali ular tekshirib ko‘rilib, nashr qilinadi. Shuningdek, ArcGIS dasturi yordamida kosmik suratlar asosida relyefning uch o‘lchamli modelini yaratish mumkin.



3-rasm. ArcGIS dasturida tayyorlangan 3D (uch o‘lchamli relyef) modeli (M 1:1 000 000)



4-rasm. Tayanch uchastkani ArcGIS dasturida tayyorlangan 3D modeli (M 1:200 000)

Ushbu kartalar yaratilgandan so‘ng 3 ta davrda olingan suratlar uch o‘lchamli model va slope hamda aspect qiymatlar ko‘rinishiga o‘tkazilishi uchun ularga qo‘shimcha tarzda tayanch uchastkaning barcha yaratilgan qatlamlari birlashtirilgan holda uning ustiga Create Random Points orqali tasodifiy nuqtalar optimal holga keltirilib joylashtiriladi.

Suv havzalari tizimida asosiy manba bo‘lib masofadan zondlash ma’lumotlari hisoblanadi. Suv havzalari tizimida aerokosmik metodi quyidagilarda ishlatiladi: modellashtirishda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlash hamda surat fototonini o‘lchash va fotogrammetrik ishlov berish avtomatlashtirilgan tarzda olib borilishi mumkin. Suv havzalari tizimida ma’lumotlarni yangilashda deshifrovka ishlari eng murakkab jarayon hisoblanadi.

Suv havzalari tizimida kartografiyaning rivojlanishi geoinformatsion tizimning vujudga kelishi va jadal rivojlanishi natijasida uchuvchisiz uchish apparatlari asosiy yo‘nalish bo‘yicha rivojlanmoqda:

1. kartografik masalalar muammolarini yechish, joyni tasvirga tushirish, bo‘ylama va ko‘ndalang qoplamalarni uchish jarayonida nazorat qilish (onlayn), tashqi va ichki orientirlash elementlari qiymatlarini dastur yordamida tezda aniqlash va fototriangulyasiya to‘rini yaratish fototopografik mahsulotni yaratish va joyning uch o‘lchamli modelini yaratish.

2. fazoviy ma’lumotlarni yig‘ish, ularga ishlov berish, tasvirlash, tarqatish, atrof muhit ob’yektlarini ro‘yxatga olish, natijani tahlil qilish, modellashtirish, bashoratlash va boshqarish bilan bog‘liq ilmiy va amaliy geografik masalalarni yechishda samarali foydalanish uchun joy haqidagi ma’lumotlar va bilimlarni birlashtirishni ta’minlaydigan GAT dasturlaridan foydalanish va ularni amalda qo‘llash malakaviy ko‘nikmalarini shakllantirish.

3. uchuvchisiz uchish apparatlarning texnologiyasi birinchi navbatda topografik kartografiya masallarni yechishda zarur chunki bu usul boshqa usullardan ko‘ra ko‘proq miqdordagi ma’lumotga ega. 1:2000 va undan yirikroq masshtabdagi ma’lumot yetarli darajada deb hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Safarov E.Yu., Musayev I.M., Abduraximov X.A. Geografik axborot tizimlari va texnologiyalari. - Toshkent., TIMI, 2009.

2. Ibragimov Utkir Nurmamat o‘g‘li “Masofadan zondlash materiallaridan foydalanib qishloq xo’jalik yerlarini monitoring qilish va elektron kartalarini tuzish” “Oriental

Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” jurnal (5), May, 2023, 916-928 https://oriens.uz/journal/article/ masofadan zondlash materiallaridan foydalanib qishloq xo’jalik yerlarini monitoring qilish va elektron kartalarini tuzish/

3. Ibragimov Utkir Nurmamat o‘g‘li, and Aralov Muzaffar Muxammadiyevich. 2022. “Topografik kartalar yaratishning asosiy usullari”. arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali 1(4): 31-33. https:// www. sciencebox.uz /index. php/arxitektura/article/view/4913.

4. http // www. GIS.ru

GEODEZIYA, KARTOGRAFIYA VA KADASTRDA BAZAVIY GPS STANSIYASINING QO‘LLANILISHI

Xusanova M.I., Isakov M.K., Ochilova D.A., Omonov I.X.
Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish universiteti (SamDAQU), Samarqand, O‘zbekiston.

Annotasiya: *GPS yordamida amalga oshiriladigan o‘lchovlar yerning ma'lum bir nuqtasining aniq koordinatalarini aniqlash.*

Kalit so‘zlar: *Xaritalash va yer o‘lchov ishlari, masofaviy joylarni xaritalash uchun GPS stansiyalari orqali ma'lumotlar yig‘ish, GAT, kompyuter texnologiyalari, davlat kadastrlari, ma’lumotlar bazasi.*

ПРИМЕНЕНИЕ БАЗОВОЙ СТАНЦИИ GPS В ГЕОДЕЗИИ, КАРТОГРАФИИ И КАДАСТРЕ

Хусанова М.И., Исаков М.К. Очилова Д.А., Омонов И.Х.
Самаркандский государственный университет архитектуры и строительства (СамДАКУ), Самарканд, Узбекистан.

Аннотатсия: *Измерения, произведенные с помощью GPS, определяют точные координаты определенной точки на земле.*

Ключевые слова: *Картографо-маркшейдерские работы, сбор данных через GPS-станции для картографирования отдаленных территорий, ГАТ, компьютерные технологии, государственные кадастры, базы данных.*

APPLICATION OF GPS BASE STATION IN GEODESY, CARTOGRAPHY AND CADASTRE

Khusanova M.I., Isakov M.K. Ochilova D.A., Omonov I.Kh.
Samarkand State University of Architecture and Construction (SamDAKU), Samarkand, Uzbekistan.

Annotation: *Measurements made with the help of GPS determine the precise coordinates of a specific point on the ground.*

Key words: *Cartographic and mine surveying works, data collection via GPS stations for mapping remote territories, state aggregation systems, computer technologies, state cadastres, databases.*

Geodeziya, kartografiya va kadastr sohalarida bazaviy GPS stansiyalarining qo‘llanilishi juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohalarda aniq o‘lchovlar, xaritalar va yer ro‘yxatlarini yaratish uchun GPS texnologiyalaridan keng foydalaniladi.

Bazaviy GPS stansiyasi bu ma’lum bir joyda doimiy ravishda joylashgan va yuqori aniqlikdagi GPS qabul qilgichlar bilan jihozlangan stansiyadir. Ushbu stansiya sun’iy yo‘ldosh signallarini doimiy ravishda qabul qiladi va ma’lumotlarni saqlaydi. Bu stansiyalar re’lefni o‘lchashda, joylashuv aniqlashda va keng ko‘lamli geodezik ma’lumotlarni to‘plashda asosiy rol o‘ynaydi.

Geodeziyada qo‘llanilishi:

- Aniq o‘lchovlar: GPS yordamida amalga oshiriladigan o‘lchovlar yerning ma’lum bir nuqtasining aniq koordinatalarini aniqlashga imkon beradi. Bazaviy stansiyalar bu jarayonda qo‘shimcha ma’lumot manbai bo‘lib, nisbiy aniqlikni oshiradi.

- Monitoring: Bazaviy stansiyalar uzoq muddatli kuzatuvlar uchun foydalaniladi. Masalan, zilzila yoki tuproqning harakati kabi tabiiy jarayonlarni kuzatish.

- Xaritalash va yer o‘lchov ishlari: Geodeziya va kartografiya uchun zarur bo‘lgan aniqlikni ta’minlash uchun bazaviy GPS stansiyalari asosiy manba hisoblanadi.

Kartografiyada qo‘llanilishi:

- Xaritalar yaratish: GPS texnologiyalari aniq va batafsil xaritalar yaratishga imkon beradi. Bazaviy stansiyalar xaritalarni yuqori aniqlikda tuzishda yordam beradi.

Joylashuv ma’lumotlarini to‘plash: Masofaviy joylarni xaritalash uchun GPS stansiyalari orqali ma’lumotlar yig‘ish osonlashadi.

Kadastrda qo‘llanilishi:

- Yer uchastkalarini aniqlash: Yer maydonlarining chegaralarini aniqlashda va rasmiy hujjatlar tuzishda yuqori aniqlikdagi GPS o‘lchovlari muhim.

- Kadastr xaritalarini tuzish: GPS stansiyalari bilan o‘lchangan aniq koordinatalar kadastr xaritalarini yangilash va saqlash uchun ishlatiladi.

Umuman olganda, bazaviy GPS stansiyalari geodeziya, kartografiya va kadastr sohalarida aniq va ishonchli ma’lumotlar to‘plashda muhim vosita hisoblanadi. Ular hududlarni aniqlash, xaritalash va kuzatishda keng qo‘llaniladi.

Topografik-geodezik ishlar sistemasida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan GPS va GLONASS sun’iy yo‘ldosh tizimlarini, geoinformasion tizimlarni, raqamli va lazerli-elektron o‘lchash va hisoblash texnikalarini, shuningdek lazerli skanerlash texnologiyalarini ishlab chiqarishga tadbiq etish hozirgi zamon talabidir. Maxsus o‘lchash vositalari va usullari zamon talablarini e’tiborga olib, fan-texnikaning so‘ngi yutuqlariga tayangan holda ishlab chiqarilmoqda. Ta’kidlash joizki, geodeziya o‘z rivojlanishi mobaynida yangidan-yangi ma’no kashf etdi: zamonaviy lazerli va elektron geodezik asboblarga, zamonaviy texnologiyalarga, geodezik o‘lchash va suratga olish usullariga hamda o‘lchash va suratga olish natijalarini qayta hisoblash usullariga ega bo‘ldi. Shu bilan birgalikda ko‘pgina boshqa muhandislik fanlari geodeziyaning yordami va yutuqlariga tayanib kelmoqdalar. “O‘zbekiston Respublikasi hududida topografik va kadastr ishlarini ta’minlashda GPS (AQSH) va GLONASS (Rossiya) yo‘ldosh navigasiya tizimlaridan foydalanishga qaratilgan davlat maqsadli dasturi” ga muvofiq yangi davlat geodeziya yo‘ldosh tarmog‘ini yaratishga kirishildi. Ushbu tarmoq milliy manfaatimizni himoyalagan holda umumjaxon geodeziya tarmog‘iga kirib borish uchun imkon yaratmoqda.

Respublikamiz hududida yuqori aniqlikga ega bo‘lgan SGS-0 yo‘ldosh geodeziya tarmog‘i punkti ishlab turibdi. Ushbu tarmoq 20 ta punktdan, 4 tasi doimiy faoliyat yuritadigan referension punkt, umumjaxon kosmik tarmog‘iga kirish imkonyatiga ega bo‘lgan kitob chiqish punkti 15 ta davriy faoliyat ko‘rsatadigan referension puntdan iboratligi alohida e’tiborga ega. SGS-1 tarmog‘ining punktlari barcha tarmoqlarni GPS texnalogiyalari bilan ta’minlashga xizmat qiladi. Bir vaqtning o‘zida davlat geodeziya tarmog‘idagi mahalliy deformasiyalarni aniqlash va aniqlash imkonini berishi korxona ishchi xodimlariga qulaylik yaratdi.

"O‘zbekiston Respublikasida Milliy informatsion-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish tadbirlari to‘g‘risida"gi qaror O‘zbekiston hukumatining raqamli texnologiyalarni va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan muhim hujjatlaridan biridir. Ushbu qaror mamlakatda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) ni rivojlantirish, elektron hukumat tizimlarini joriy etish, raqamli iqtisodiyotni yaratish hamda aholining raqamli bilim darajasini oshirish maqsadida qabul qilingan.

Qarorning asosiy maqsadlari:

- Axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish: AKT sohasini modernizatsiya qilish, keng polosali internet xizmatlarini kengaytirish, davlat boshqaruvida raqamli tizimlardan foydalanishni kuchaytirish.

- Elektron hukumatni rivojlantirish: Davlat xizmatlarini elektron shaklda ko‘rsatish, davlat organlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvini tezlashtirish va ochiqlikni ta’minlash.

- Raqamli iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash: Texnologiyalar orqali tadbirkorlikni rivojlantirish, AKT sohasida yangi ish o‘rinlarini yaratish va innovatsiyalarni joriy qilish.

- Xavfsizlik va maxfiylikni ta’minlash: Axborot xavfsizligi va ma’lumotlarni himoya qilishga katta e’tibor qaratish, raqamli infratuzilmani himoyalash choralarini ko‘rish.

Asosiy yo‘nalishlar:

- Davlat organlari va idoralarini raqamlashtirish: AKT vositalari yordamida davlat boshqaruvi va xizmat ko‘rsatish tizimlarini soddalashtirish.

- AKT kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash: Texnologiyalarni boshqarish va rivojlantirish uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash.

- Raqamli xizmatlarni kengaytirish: Aholi va tadbirkorlik subyektlariga raqamli xizmatlarni joriy etish va ularni yanada ommalashtirish.

“Milliy geografik axborot tizimini yaratish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qaror O‘zbekiston Respublikasida geoinformatsion texnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning turli sohalarida geografik ma'lumotlardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Bu qaror, geografik ma'lumotlar bazasini yaratish, ular bilan ishlash va raqamli xizmatlar ko‘rsatish orqali turli sohalarda innovatsiyalarni joriy qilishga asoslanadi.

Qarorning asosiy maqsadlari:

- Milliy geografik axborot tizimini yaratish: O‘zbekiston bo‘ylab joylashgan geografik ma'lumotlar bazasini yaratish va ushbu ma'lumotlarni turli sohalarda foydalanish uchun ochiq qilish.

- Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish: Geografik axborot tizimlari (GAT) orqali davlat boshqaruvining turli darajalarida aniq va dolzarb ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilishni soddalashtirish.

- Hududlarni rivojlantirish va monitoring qilish: Tizim yordamida hududiy rivojlanishni rejalashtirish, infratuzilmani yaxshilash va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni nazorat qilish.

- Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy ofatlar monitoringi: Tabiiy ofatlar xavfini aniqlash, oldini olish choralari va ekologik monitoringni olib borish.

- Kadastr va yer resurslarini boshqarish: Yer resurslari va kadastr ma'lumotlarini samarali boshqarish va ularni doimiy yangilab turish.

Bu qaror O‘zbekistonda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, geografik ma’lumotlardan samarali foydalanish va turli sohalar uchun innovatsion yechimlarni joriy qilishga xizmat qiladi. Milliy geografik axborot tizimi kelajakda iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarida samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng, geodeziya, kartografiya va kadastrda ko‘rilmagan rivojlanish pog‘onasiga ko‘tarildi. U xaqda zamonaviy texnologiyalar va elektron geodezik asboblarning xalq xo‘jaligiga tadbiq etilganligi va qo‘llanilishi guvohlik beradi.

Maxsus o‘lchash vositalari va usullari zamon talablarini e’tiborga olib, fan-texnikaning so‘nggi yutuqlariga tayangan holda ishlab chiqarilmoqda. Zamonaviy geodezik o‘lchash ishlari GPS stansiyasidan olingan ma’lumotlarga asoslanib sanoat korxonalarida, qurilishda, ishlab chiqarish korxonalarida va xalq xo‘jaligining boshqa turli sohalarida sanoat va fuqaro qurilishida, yo‘llar, bino-inshootlar, truboprovodlar, kanallar, aerodrom, stansiya va

boshqa obyektlarning o‘rnini aniqlash, ularning plan va kartalarda o‘rnini belgilash, loyihalarini chizish va ularni joyga ko‘chirish, qurish, ulardan foydalanish uchun xizmat qilmoqda. Katta ma’suliyat talab etadigan bunday murakkab ishlar avtomatlashtirish va kompyuterlashtirishni taqozo etadi. O‘lchash ishlarini bajarishda zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Geodezik o‘lchash ishlarini tez va sifatli bajarish maqsadida zamonaviy GPS priyomniklarini qo‘llash tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaev, A. M., "Geodeziya asoslari va o‘lchash ishlari," Toshkent: O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 2018.

2. Kurdi, F., "GPS texnologiyalari va ulardan geodeziya sohasida foydalanish," "Geodeziya va Kartografiya" ilmiy jurnali, 2017, 2-soni.

3. Iskandarov, O. S., "Kadastr va GPS tizimlari," Toshkent: Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi nashriyoti, 2019.

4. Trimble Navigation Ltd., "GPS Basics: A Guide to the Global Positioning System," 2008.

5. Rizos, C., "Principles and Practice of GPS Surveying," Geodetic Publications, 2015.

QARSHI SHAHAR URBANOFLORASINI O‘RGANISHDA TO‘R TIZIMLI XARITALASHNING O‘RNI.

Norxodjayeva A.M.

Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston, e-mail: azizamuzaffarovna@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaharlarda o‘simlik turlarini saqlab qolishning global strategiyasi sifatida urbonafloralarining holatini baholovchi samarali biohujjatlash amaliyoti sifatida to‘r tizimli xaritalashning qo‘llanilishi, uning yutuq va kamchiliklari, ma’lumotlarni jamlashdagi ahmiyati ochib berilgan. Shu bilan birga O‘zbekiston florasini to‘g‘ tizimli xaritalash orqali o‘rganish asnosida Qarshi shahri urbanoflorasini tadqiq qilishni, har birining maydoni 1x1 km bo‘lgan 186 ta kvadratlardan tashkil topganligi, 2022-2024 yillar davomida olib borilgan tadqiqotlarda shahar florasidan yig‘ilgan birlamchi materiallar tahliliga bag‘ishlagan ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Urbanoflora, to’r tizimli xarita, grid mapping, GAT, indeks, iNaturalist,flora.*

РОЛЬ СЕТОЧНОГО КАРТИРОВАНИЯ В ИЗУЧЕНИИ УРБАНОФЛОРЫ ГОРОДА КАРШИ

Норходжаева А.М.

Каршинский государственный университет

Карши, Узбекистан, e-mail: azizamuzaffarovna@mail.ru

Аннотация: *В данной статье описывается использование системы сеточного картографирования как эффективной практики биодокументирования для оценки состояния городской флоры в качестве глобальной стратегии сохранения видов растений в городах, ее преимущества и недостатки, а также важность сбора данных. Кроме того, приведены данные по изучению флоры города Карши, состоящей из 186 квадратов площадью 1x1 км каждый, путем обследования сеточной карты Узбекистана, анализ первичных материалов, собранных из флоры города в ходе других исследований, проведённых в 2022-2024 гг.*

Ключевые слова: *Урбанофлора, система сеточной карта, grid mapping, GIS, индекс, iNaturalist, флора.*

ROLE OF GRID MAPPING IN STUDYING URBANOFLORA OF KARSHI CITY

Norkhodjaeva A. M.

Karshi State University, Karshi, Uzbekistan, e-mail: azizamuzaffarovna@mail.ru

Abstract: *This article describes the use of grid mapping system as an effective biodocumentation practice for assessing the state of urban flora as a global strategy for conservation of plant species in cities, its advantages and disadvantages, as well as the importance of data collection. In addition, data on the study of the flora of the city of Karshi, consisting of 186 squares of 1x1 km each, by exploring the grid map of Uzbekistan, analysis of primary materials collected from the flora of the city during other studies conducted in 2022-2024 are provided.*

Keywords: *Urban flora, grid mapping system, grid mapping, GIS, index, iNaturalist, flora.*

Kirish. Tabiatga inson ta’sirining ko‘lami tobora ortib borishi natijasida tabiiy ekotizimlarni o‘zlashtirilishi va ekologik muhitning buzilishi floristik ob’ektlar xilma-xilligining qisqarishiga sabab bo‘lmoqda [2]. Bu jarayon ayniqsa shaharlarda, urbanlashgan floralarda jadal kechmoqda [6]. Shaharlarda o‘simlik turlarini saqlab qolishning global strategiyasi sifatida urbonafloralarining holatini baholovchi samarali biohujjatlash amaliyotini ishlab chiqish zarurati yuzaga keldi [14]. Geografik axborot tizimi (GAT) texnologiyalaridagi so‘nggi o‘zgarishlar biologik xilma-xillikni raqamli shaklga o‘tkazish va ularni tahlil qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi [11]. Bu tizim yordamida o‘simliklarning tarqalishi, xilma-xilligi, ekologik sharoitlari haqida chuqur va ishonchli ma’umotlar olish shuningdek, ma’lumotlarni vizuallashtirish, hamda geofazoviy tahlil qilish mumkin [3]. Hozirgi kunda to‘r tizimli xaritalash (Grid mapping) metodi o‘simliklar xilma-xilligini o‘rganish va biohujjatlashtirishning eng zamonaviy va takomillashgan usuli sifatida dunyo miqyosida ommalashib bormoqda [8]. Urbonafloralarini to‘r tizimli xaritalash Yevropada, ayniqsa, Italiya, Fransiya va Germaniya davlatlarida rivojlanishining yuqori bosqichida [6,7]. Bu jarayon shahar ekologiyasini yaxshilash, yashil maydonlarni samarali boshqarish va biologik xilma-xillikni saqlab qolishda muhim rol o‘ynamoqda. To‘r tizimli xaritalash, shahar o‘simliklarining tarqalishini aniq kuzatish imkonini berib, ularning ekologik sharoitlarini baholashga yordam beradi. Ushbu tadqiqotning maqsadi to‘r tizimli xaritalash asosida Qarshi shahri florasini keng ko‘lamli tahlillarini amalga oshirish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX-asrning ikkinchi yarimidan boshlab G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida mahalliy floralarni to‘r tizimli xaritalash (Grid mapping) asosida o‘rganishga kirishildi [10]. Ushbu yondashuv, o‘simlik turlarining tarqalishini aniqlash va ularning xilma-xilligini tahlil qilishda yangi imkoniyatlar ochdi. Tadqiqotchilar to‘r tizimli xaritalash usuli orqali floristik ma’lumotlarni tizimli ravishda to‘plash, saqlash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu borada erishilgan yutuqlar “Atlas Florae Europaeae” yaratilishiga sabab bo‘ldi. Ushbu atlasda Yevropa hududi 50x50 km kvadratlarga ajratildi [4]., 2018-yilga kelib mazkur asarning 17 jildi chop etildi [5]. Bu asar Yevropa florasini yanada chuqurroq o‘rganish va biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarga katta hissa qo‘shdi. Bir nechta Yevropa davlatlari florasini o‘rganishda “Atlas Florae Europaeae” loyihasidan asos sifatida foydalanib, to‘r tizimli xaritalash ishlarini amalga oshirdi. Bunda mamlakatlar o‘zi egallagan maydonidan, tabiiy iqlimiy xususiyatlaridan va florasining xilma-xilligidan kelib chiqib, to‘r tizimli xaritalashda turli mashtabdagi indekslardan foydalangan. Masalan Buyuk Birtaniya va Irlandiya 10x10 km, Belgiya va Lyuksemburg 4x4 km, Niderlandiya 5x5 km, Ispaniya va Portugaliya 10x10 km, Germaniya 6×10 km va Sloveniya 3×5 km xajimdagi kataklarga ajratilgan. Urbonafloralarni to‘r tizimli xaritalashda ham tabiiy florada bo‘lgani kabi Yevropa davlatlari katta yutuqlarga erishgan. Parij, Rim va Gamburg shaharlari urbanofloralarini o‘rganish sohasida yetakchi o‘rinlarga ega. Xususan, Gamburg urbanoflorasini to‘r tizimli xaritalashga qaratilgan ishlarda qo‘llanilgan metodlar alohida e’tiborga loyiq ([12].

MDH davlatlari orasida A.P. Sergein 2014 yilda to‘r tizimli xaritalashga asoslangan “Пространственная структура флоры Владимирской области” mavzusida doktorlik ilmiy ishini himoya qilgan [8]. Ushbu tadqiqot, o‘simliklarning tarqalishi va ularning ekologik

xususiyatlarini aniq tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, to‘r tizimli xaritalashning yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda ilmiy salohiyatning ortishi va kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi O‘zbekistonda o‘simliklar bioxilma-xilligini tizimli tahlil qilish sohasida G‘arbiy Yevropa darajasidagi tadqiqotlarni boshlash imkoniyatini yaratdi. Xususan, tabiiy flora turlarini to‘r tizimli xaritalashga bag‘ishlangan tadqiqotlar yo‘lga qo‘yildi va ilk tajriba sifatida dastlabki to‘r tizimli xarita 2018-yil Zarafshon tizmasining g‘arbiy tarmoqlari uchun ishlab chiqildi. Bu to‘r tizimli xarita har birining maydoni 5x5 km bo‘lgan 277 ta kvadratlardan tarkib topgan [15]. Ushbu tajribalar asosida 2021-yil Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi bo‘lib har birining maydoni 5x5 km bo‘lgan 19240 indekslardan iborat O‘zbekiston florasining to‘r tizimli xaritasi yaratildi [9]. Tadqiqotlarning navbatdagi bosqichi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Botanika instetutida 2021-2024 yillarda “Janubi-G‘arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panj oldi okruglari florasining to‘r tizimli xaritalash (Surxondaryo viloyati qismi)” davlat dasturi amalga oshirilayotganini e’trof etish mumkin. Mahalliy flora tarkibining boyligi, kamyob, endem va muhofazaga muhtoj turlarining xilma-xilligi va to‘r tizimli xaritalash uchun asos bo‘ladigan dastlabki ma’lumotlar ko‘lamining kattaligi uchun Surxondaryo viloyati tanlangan [1]. Hozirda dastur davomida to‘plangan Surxondaryo tabiiy florasiga mansub 2500 dan ortiq o‘simlik turning 69914 ta gerbariy ma’lumotlari 884 ta indekslar kesimida turlar xilma-xilligi (species richness) va yig‘malar zichligi (collection density) ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil qilinmoqda. Shuningdek 2021-2023 yillarda Botanika instetutida bajarilgan “Turli tabiiy-iqlim va antropogen sharoitlarda urbonafloralarning shakillanish xususiyatlari (Belorus va O‘zbekiston misolida)” amaliy loyihasi doirasida Toshkent va Buxoro shaharlari florasi to‘r tizimli xaritalash asosida o‘rganildi. Unga ko‘ra Toshkent shahri 591 ta, Buxoro 85 ta 1x1 km o‘lchamdagi kvadratlarga ajratilgan.

Tadqiqot metodlar. Dala tadqiqotlarida o‘simliklarning geografik koordinatalarini aniqlash uchun Tracklia ва Google Earth мобил дастурлари ishlatilgan. Xaritalarni yaratishda ArcGIS v10.6.1(ESRI Inc., Redlands, CA, USA) dasturi, WGS 1984 (World Geodetic System 1984) global joylashishni aniqlash tizimi qo‘llanilgan [13]. Statistik tahlillar JASP 14.1 platformasida amalga oshirilgan.

Natijalar. Shahar hududlari antropogen ta’sir ostida rivojlangan bo‘lib, shu sababli bugungi kunda o‘simlik turlarining tarqalishiga ta’sir qiluvchi kuchli o‘zgaruvchan ekologik sharoitlarga ega. Umuman olganda, shaharlar o‘simlik turlariga boy bo‘lishiga qaramay, kichikroq miqyosda ularning xilma-xilligi sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bu farqlar, shaharning ekologik sharoitlari, iqlimi, tuproq tuzilishi va inson faoliyatining xarakteriga bog‘liq holda yuzaga keladi. To‘r tizimli xaritalsh shaharlar florasini eng kichik floristik birlikda tahlil qilish va o‘zgaruvchan sharoitlarga o‘simliklarning moslashuvchanligini kuzatish imkonini beradi.



1-rasm. Qarshi shahrining to‘r tizimli xaritasi (1x1 km)

Bu jarayon, shahar muhitidagi o‘simliklar uchun tahdidlar va imkoniyatlarni baholashga yordam beradi, shuningdek, florani muhofaza qilish va boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib Qarshi shahrining har birining maydoni 1x1 km bo‘lgan 186 ta kvadratlardan tashkil topgan to‘r tizimli xaritasi ishlab chiqildi (1-rasm). Ajratilgan kvadratlar lotin alifbosi va sonlar ishtirokida indekslar bilan nomlandi.

To‘r tizimli xaritaning kml, kmz fayllari dala tadqiqotlarida foydalanish uchun Tracklia, Google Earth mobil ilovalariga integratsiya qilindi (2-rasm). 2022-2024 yillar davomida olib borilgan maqsadli dala tadqiqotlarida 3 mingdan ortiq gerbariy namunalari yig‘ildi va ular geofazoviy joylashuviga ko‘ra to‘r tizimli xaritada 138 ta (74 %) indeksdan joy oldi. Bundan tashqari dala tadqiqotlarida 300 ga yaqin o‘simlik turning 1600 ga yaqin ma’lumotlari iNaturalist global bioxilma-xillik platformasiga yuklandi.
(3-rasm. https://www.inaturalist.org/people/aziza1985).



2,3-rasm. Qarshi shahri to‘r tizimli xaritasining mobil ko‘rinishi (chapda), iNaturalist portaliga yuklangan ma’lumotlar (o‘ngda).

Hozirda dala tadqiqotlari davomida yig‘ilgan gerbariy namunalari kamerali tahlil qilinib, Excel dasturida to‘r tizimli xaritalash uchun ishlab chiqilgan ma’lumotlar bazasiga maxsus parametrlar asosida kiritilmoqda. Ayni vaqtgacha to‘plangan gerbariylar orasida *Stellaria neglecta* (82 ta), *Lactuca serriola* (68 ta), *Sonchus oleraceus* (64 ta) *Lamium amplexicaule* (48 ta) kabi turlar eng ko‘p namunaga ega. To‘r tizimli xaritada *Stellaria neglecta* 49 ta, *Lactuca serriola* 41 ta, *Sonchus oleraceus* 39 ta va *Lamium amplexicaule* 25 ta indekslardan joy oladi. Ushbu turlarning geofazoviy joylashuvi bo‘yicha to‘r tizimli xarita indekslari bo‘yicha tarqalishi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Eng keng tarqalgan turlarning to‘r tizimli xaritasi:
A – ***Stellaria neglecta*** (Lej.) Weihe**,** B **-** ***Lactuca serriola*** L.**,**
C **-** ***Sonchus oleraceus*** L.**,** D **-** ***Lamium amplexicaule*** L.

Xulosa. Shahar hududlari antropogen ta’sir ostida rivojlangan bo‘lib, shu sababli bugungi kunda o‘simlik turlarining tarqalishiga ta’sir qiluvchi kuchli o‘zgaruvchan ekologik sharoitlarga ega. Bunday sharoitlarda to‘r tizimli xaritalash jarayoni, tarqoq ma’lumotlarni bir tizimga jamlash va ularni zamonaviy texnologiyalar orqali vizualizatsiya qilish, floristik tadqiqotlarni samarali o‘tkazish imkonini beradi. Turlarning fazoviy joylashuvini xaritalarda aks ettirish, infografikalar tayyorlash va ma’lumotlar almashinuvini tezkor va sifatli amalga oshirish jarayoni tadqiqotlarning aniq va ishonchli natijalarini taqdim etadi. Umuman olganda, florani tahlil qilishda to‘r tizimli xaritalash uzoq muddatli va ishonchli tadqiqot usuli sifatida butun dunyo botaniklari tomonidan e’tirof etiladi. Qarshi shahri urbonaflorasi O‘zbekiston florasini to‘r tizimli xaritalash milliy platformasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tadqiqot jarayonida to‘plangan ma’lumotlar Global bioxilma-xillik

portaliga (GBIF) va milliy platformaga integratsiya qilinadi. Bu integratsiya, o‘z navbatida, mahalliy florani yanada chuqurroq o‘rganish, turlar haqida keng qamrovli ma’lumotlarni taqdim etish va bioxilma-xillikni saqlashga oid tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Qarshi shahri urbonaflorasi bilan bog‘liq ma’lumotlarning bunday integratsiyasi, shahar ekosistemalarini tushunishga va ularni boshqarishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Акбаров Ф.И., Тожибаев К.Ш., Сурхондарё вилояти флораси айрим эндем турларнинг биоикдимий моделини яратиш // НамДУ илмий ахборотномаси. Наманган 2022 й. №4, 127-133 Б.
2. Benito B. M., Cayuela L., Albuquerque F. S. The impact of modelling choices in the predictive performance of richness maps derived from species-distribution models: Guidelines to build better diversity models //Methods in Ecology and Evolution. – 2013. – Т. 4. – №. 4. – С. 327-335.
3. Brototi Biswas B. B., Sakshi Walker S. W., Mayank Varun M. V. Web GIS based identification and mapping of medicinal plants: a case study of Agra (UP), India. – 2017.
4. Jalas J, Suominen J, Lampinen R (eds). Atlas Florae Europaeae // №11. –1996. –The Committee for Mapping the Flora of Europe and Societas Biologica Fennica Vanamo, Helsinki
5. Kurtto A., Sennikov A.N. Atlas Florae Europaeae Distribution of Vascular Plants in Europe // Helsinki. 2018. –9 p.
6. Celesti-Grapow L. et al. Determinants of native and alien species richness in the urban flora of Rome //Diversity and Distributions. – 2006. – Т. 12. – №. 5. – С. 490-501.
7. Muratet A. et al. The role of urban structures in the distribution of wasteland flora in the greater Paris area, France //Ecosystems. – 2007. – Т. 10. – С. 661-671.
8. Серегин А.П. 2014 г. Флора Владимирской области: анализ данных сеточного картированиуа // Товарищество нау. изд. КМК. Москва 2014. – С. 418.
9. Tojibaev, K., Khassanov, F., Turginov, O., Akbarov, F., Pulatov, S., Turdiboev, O. (2022) Endemic plant species richness of Surkhondaryo province, Uzbekistan // Plant Diversity of Central Asia. 1. 71–84.
10. Tutin TG, Heywood VH, Burges NA, Valentine DW, Walters SM, Webb DA (eds). Flora Europaea // №1. –1964. – Cambridge University Press, Cambridge., 1968–1980
11. Peterson A. T. Predicting species' geographic distributions based on ecological niche modeling //The condor. – 2001. – Т. 103. – №. 3. – С. 599-605.
12. Schmidt K. J., Poppendieck H. H., Jensen K. Effects of urban structure on plant species richness in a large European city //Urban Ecosystems. – 2014. – Т. 17. – С. 427-444.
13. Shcherbakov A. V. et al. A grid-based database on vascular plant distribution in the Meshchersky National Park, Ryazan Oblast, Russia //Biodiversity Data Journal. – 2021. – Т. 9.
14. Wellmann T. et al. Earth observation based indication for avian species distribution models using the spectral trait concept and machine learning in an urban setting //Ecological Indicators. – 2020. – Т. 111. – С. 106029.
15. Қодиров У.Ҳ. Ургут ботаник-географик райони флораси. Автореф. дис. … биология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). –Тошкент, 2020. – С. 40.

ARSGIS DASTURIDA RAQAMLI XARITALARNI YARATISH TARTIBI

Zuxurov Y.T., Aralov M.M.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi, O‘zbekiston, e-mail: m.aralov87mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ARSGIS dasturida raqamli xaritalarni yaratishning tartibi va asosiy usullari bo‘yicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Raqamli xaritalarni yaratish uchun yangi zamonaviy asboblar va dasturlar yordamida tuzish bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar. *ARSGIS dasturi, raqamli xarita, geografik ma’lumotlar, atribut ma’lumotlar, ArcMap, ArcCatalog, deshifrofka va koordinatalar.*

ПОРЯДОК СОЗДАНИЯ ЦИФРОВЫХ КАРТ В ПРОГРАММЕ ARSGIS

Зухуров Й.Т., Аралов М.М.
Каршинский инженерно-экономический институт
Карши, Ўзбекистон, e-mail: m.aralov87mail.ru

Абстракт. *В данной статье представлена информация о порядке и основных методах создания цифровых карт в программе ARSGIS. Описано создание цифровых карт с использованием новых современных инструментов и программ.*

Ключевые слова. *Программное обеспечение ARSGIS, цифровая карта, географические данные, атрибутивные данные, ArcMap, ArcCatalog, декодирование и координаты.*

PROCEDURE FOR CREATION OF DIGITAL MAPS IN THE ARSGIS PROGRAM

Zuxurov Y.T., Aralov M.M.
Karshi Engineering and Economic Institute, Qarshi, O‘zbekiston, e-mail: m.aralov87mail.ru

Abstract. *This article provides information about the procedure and basic methods for creating digital maps in the ARSGIS program. The creation of digital maps using new modern tools and programs is described.*

Key words. *ARSGIS software, digital map, geographic data, attribute data, ArcMap, ArcCatalog, decoding and coordinates.*

Kirish. Hozirgi kunda respublikamizda barcha sohalarda shu jumladan aholi yashash joylari, qishloq xo‘jaligi korxonlarida axborot texnologiyalari shu darajada rivojlandiki, ularda kadastr ishlarini takomillashtirish davr talabiga aylandi. Bunda raqamli xaritalar yaratish va ular bilan ishlash muhim ahamiyatga ega. Bu ishlarni amalga oshirishdan maqsad qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan raqamli xaritalardagidek, aholi yashash joylari hamda bino va inshootlarni ro‘yxatga olishda qo‘llaniladigan raqamli xaritalarini ishlab chiqishdan iborat. Chunki aholi yashash joylari hamda bino va inshootlarining raqamli xaritalari ishlab chiqlsa juda katta ishni amalga oshirgan bo‘lamiz. Raqamli xaritalarning qulaylik tomoni shundaki, har-bir aholi chegaralari aloxida raqamlanadi. Yana bir qulaylik tamoni har-bir hovlining ekin yeri, qurilish osti maydoni aloxida raqamlanadi va shu uyning maydoni aniq ko‘rsatiladi. Albatta bu ishlarni amalga oshirish anchagina qiyin kechadi.

Asosiy qism: Raqamli xaritalarni yaratish uchun yangi zamonaviy asboblar va dasturlar zarur bo‘ladi. Shu jumladan hozirda ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan ArsGIS dasturi yangi raqamli xaritalarni yaratishga judayam qo‘l keladi. Ushbu dastur yordamida yaratilgan xaritlar bilan ishlash foydalanuvchining imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Shuning uchun ushbu dastur yordamida aholi yashash joylari xaritasini yaratish ishlarini takomillashtirish davr talabi hisoblanadi.

ArcGIS ESRI kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bu obektlarni geografik ma’lumotlari va atribut ma’lumotlari bilan birgalikda ishlash imkoniyatini beradi.

ArsGIS dasturida ma’lumotlar bazasini yig‘ish va saqlash juda qulay. ArsGIS dasturida raqamli xaritalarini yaratish uchun quyidagilarni bajarishimiz kerak.

–ArsGIS dasturining ArcMap versiyasi kompyutor bazasiga o‘rnatiladi;

–joyni havodan turib raqamli fotokamera yordamida suratga tushiriladi;

–transformatsiyalangan suratlardan joyning fotoplani yoki fotosxemasi tuziladi;

–fotoplan olib joyga borib deshifrofka qilinadi;

–suratlarni ArcGIS dasturiga masshtab bo‘yicha tushiramiz;

–deshifrofka qilingan fotoplan yoki fotosxemaga qarab ArcGIS dasturiga raqamli xarita chiziladi, shu bilan birgalikda ma’lumotlar ham kompyuterga kiritilib boriladi.

ArcGIS dasturi asosiy ikki qismdan iborat.

1.ArcMap 2.ArcCatalog

1-Bo‘lim ArcMap Geografik obyektlarni atribut ma’lumotlar bilan ishlashda qo‘llaniladi. Ishchi oynadan Arc Map ni yani dasturni ishga tushirish uchun, ishchi oynadan Arc Map ning ustiga sichqonchaning chap tugmasini bosish orqali ishchi holatga tushiriladi (1-rasm).



tugmasi bosilib, variantning to‘rtala burchagiga berilgan koordinata balandliklari qo‘yiladi 2-(rasm).



2-rasm. 3-rasm.

Avtonastroyka yoqiladi va ekranda xarita paydo bo‘ladi 3-(rasm)

2-Bo‘lim ArcCatalog-bu ma’lumotlarni boshqarish.

Arc Catalog oynasi ochilib yaratib olinadi.

Personalnaya bazaning ichiga o‘zimizga kerakli sharli belgi, obyektlarni kiritamiz.

Har bir shartli belgilarni davlat standartiga mos ravishda yasaladi (4-rasm).



4-rasm.

Yasalgan har bir shartli belgiga koordinatalar tizimidan sharoitimizga mos koordinatalar tizimini kiritamiz. Bizning respublikamizda ko‘proq Gauss Kruger koordinatalar tizimidan foydalaniladi. Barcha topografik va obzor-topografik xaritalar teng burchakli ko‘ndalang silindirik proeksiyada tuziladi. Bu proeksiyani nemis olimi K.F.Gauss (1777-1855) nazariy jihatdan asoslagan bo‘lsa, ikkinchi bir nemis olimi L.Kryuger (1857-1923) uni hisoblash formulalarini ishlab chiqqan. Shuning uchun ham Gauss-Kryuger proeksiyasi deyiladi. Bu proeksiyada ellipsoid sirtidagi shakl burchaklari tekislikda aynan o‘ziga o‘xshash tarzda tasvirlanganidan unga teng burchakli yoki konform (o‘xshash) proeksiya deyiladi.

Bu proeksiya qishloq xo‘jaligiga oid xaritalarni tuzishda ko‘proq qo‘llaniladigan proyeksiya hisoblanadi.

Gauss-Kryuger to‘g‘riburchakli ko‘ndalang –silindrik proeksiyasi ellipsoid sirtida nuqtalarning geodezik koordinatalari bilan shu nuqtaga tegishli tekislikdagi to‘g‘ri burchakli koordinatarini o‘zaro bog‘lash imkonini beradi.

Bu proeksiyani qo‘llashda yer ellipsoidi sirti fikran meridianlar bilan 6^0 li 60 ta zonalarga bo‘linadi. Zonalarning tartib nomeri grinvich meridianidan sharqqa qarab hisoblanadi. Har bir zonaning o‘rtasidan o‘tuvchi meridian zonaning o‘q meridiani deyiladi. Ellipsoidning har bir zonasi alohida tekislikka konferm (o‘xshash) qilib o‘tkaziladi.

Zonaning o‘q meridiani tekislikda to‘g‘ri chiziq qilib tasvirlanib, abssissa o‘qi, unga perpendikulyar qilib o‘tkazilgan va ekvator tekisligida yotgan chiziq esa ordinata o‘qi deb qabul qilingan. Bu o‘qlarning o‘zaro kesishgan O nuqtasi koordinata sistemasini bosh nuqtasi deb olinadi. Har bir zona o‘zining koordinata sistemasiga ega. Berilgan nuqta koordinatalari bo‘yicha qaysi zonada joylashganligini bilish uchun uning ordinata qiymati oldiga zona

nomeri yozib qo‘yiladi. Masalan, y=7375252 m bo‘lsa, bu yerdagi birinchi 7 raqami zona nomeridir, yoki y=12375252 m bo‘lsa, bu yerdagi oldindagi 2 raqam, ya’ni 12 zona nomerini ifodalaydi.

Shimoliy yarim sharda joylashgan hududlar uchun hamma abssessalar musbat. O‘q meridian tomondagi ordinatalar musbat, g‘arb tomonlari manfiy bo‘ladi.

Manfiy ishorali ordinatalarni musbat ishoraga keltirish uchun ular qiymatiga 500 km qo‘shib yoziladi (ya’ni, o‘q meridian 500 km g‘arbga shartli suriladi). Shunda yuqorida berilgan y=7375252 m bo‘lgan ordinata haqiqiy qiymati 375252 m – 500000m =124748 m bo‘ladi.

Zonalardagi geodezik asosning hamma nuqtalarini koordinatalarini yagona sistemada ochish uchun, ularning hech bo‘lmaganda bittasini koordinatasini bilish kerak. Boshlang‘ich nuqta qilib Pyotrburg shahridagi Pulkovo astronomik observatoriyasining dumaloq zalini markazi qabul qilingan. Bu sistema 1942 yil koordinatalar sistemasi deb qabul qilingan.

Balandlik bo‘yicha boshlang‘ich sadxiy yuza qilib, Boltiq dengizining sadhi, hozirgi Kaliningrad shahridagi Kronshtad fushtog‘ining noli qabul qilingan.

Bu tizimni ishga tushirish uchun ishchi oynadan 

yoqiladi, undan 

koordinatalar ochiladi bu tizimidan 

tanlanadi. Pulkov 1942-yilgi koordinata tizimi xududlarga bo‘linadi. Biz yashab turgan xududga mos keladigani 

koordinata tizimidir 5-(rasm).

5-rasm



Arc Catalog oynasi yopiladi.

ArsGIS dasturiga raqamli xaritalarni kiritish.

– arc map oynasi ochiladi:
– arc map oynasidan redaktor paneli ochilib 

yoqiladi:
– redaktor paneldan sozdat novыy ob’ekt ochilib yokiladi:
– redaktor panelidan 

o‘zimizga kerakli qatlam tanlab olinadi:
– redaktor panelidan shu belgilar yordamida ma’lumotlar bazasi yaratiladi:
– ma’lumotlar bazasiga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni kiritib boramiz 6-rasm:

6-rasm



Xulosa: Chiziqli obyektlarga kerakli ma’lumotlar kiritiladi. Masalan yo‘llar, gidrografiya, chegara, gorizontallar, elektr liniyalari, gaz quvurlari va boshqa chiziqli obektlarni olishimiz mumkin.

Adabiyotlar roy‘xati

1. Аликулов, Ғ., & Аралов, М. (2022). РЕЛЬЕФНИНГ РАҚАМЛИ МОДЕЛЛАРИНИ УЧУВЧИСИЗ УЧИШ АППАРАТЛАРИ ЁРДАМИДА ЯРАТИШ. Innovatsion Texnologiyalar, 1(4), 131–134.

2. Aralov, M.M. (2022). MUHANDISLAR TAYYORLASH TA’LIMINING MUAMMOLARI VA YUTUQLARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 107–111.

3. Aralov M.M., & Qilichev Z.M. (2023). TOPOGRAFIK CHIZMACHILIK FANINI O‘QITISHDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING GRAFIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 674–679.

4. Ibragimov Utkir Nurmamat o‘g‘li, and Aralov Muzaffar Muxammadiyevich. 2022. “Topografik kartalar yaratishning asosiy usullari”. arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali 1(4).

ZAMONAVIY USLUBLARDA QISHLOQ XO‘JALIK KARTA VA PLANLARI TUZISHNING AYRIM MASALALARI

Xusanova M.I., Isakov M.K., Aliyeva N.S., Omonov I.X.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti (SamDAQU), Samarqand, O‘zbekiston.

Annotasiya: *Zamonaviy qishloq xo‘jalik xaritalarini tuzishda GPS, GNSS, GAT, dronlar, masofadan zondlash va IoT texnologiyalari kabi uslublar hosildorlikni oshirish.*

Kalit so‘zlar: *GPS va GNSS texnologiyalari, dronlar yordamida xaritalash, masofadan zondlash texnologiyalari, Geografik axborot tizimlari.*

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПОДГОТОВКИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КАРТ И ПЛАНОВ В СОВРЕМЕННЫХ СТИЛЯХ

Хусанова М.И., Исаков М.К., Алиева Н.С., Омонов И.Х.
Самаркандский государственный университет архитектуры и строительства (СамДАКУ), Самарканд, Узбекистан.

Аннотатсия: *Современные методы сельскохозяйственного картирования, такие как GPS, GNSS, GAT, дроны, дистанционное зондирование и технологии Интернета вещей, для повышения производительности.*

Ключевые слова: *Технологии GPS и GNSS, картография дронов, технологии дистанционного зондирования, географические информационные системы.*

SOME ISSUES OF PREPARING AGRICULTURAL MAPS AND PLANS IN MODERN STYLES

Khusanova M.I., Isakov M.K. Aliyeva N.S., Omonov I.Kh.
Samarkand State University of Architecture and Construction (SamDAKU), Samarkand, Uzbekistan.

Annotation: *Modern agricultural mapping techniques such as GPS, GNSS, GAT, drones, remote sensing and IoT technologies to improve productivity.*

Key words: *GPS and GNSS technologies, drone mapping, remote sensing technologies, geographic information systems.*

Zamonaviy uslublarda qishloq xo‘jalik karta va planlarini tuzish turli innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, ular yordamida qishloq xo‘jaligi uchun aniq va samarali xaritalar yaratish mumkin. Bu uslublar nafaqat aniq o‘lchovlarni taqdim etadi, balki hosildorlikni oshirish va yer resurslaridan oqilona foydalanishni ham ta’minlaydi. Qishloq xo‘jalik xaritalarini tuzishda qo‘llaniladigan ayrim zamonaviy uslublari quyidagilar.

1. GPS va GNSS texnologiyalari:

- GPS (Global Positioning System) va boshqa GNSS (Global Navigation Satellite Systems) tizimlari qishloq xo‘jalik maydonlarining aniq koordinatalarini olishda keng qo‘llaniladi. Bu texnologiyalar qishloq xo‘jaligi yerlarining hududiy chegaralarini aniq belgilash, tuproq tahlilini o‘tkazish va ekish, sug‘orish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun ishlatiladi.
- RTK (Real-Time Kinematic) texnologiyasi yordamida joylashuv aniqroq bo‘ladi, bu esa qishloq xo‘jalik planlarini tuzishda yuqori darajada aniqlik ta’minlaydi.

2. Dronlar (UAV) yordamida xaritalash:

- Dronlar (uchuvchisiz uchish apparatlari) yordamida havo suratlarini olish va yuqori aniqlikdagi xaritalar yaratish qishloq xo‘jalik planlarini tez va samarali tuzishda yordam beradi.
- Dronlardan foydalanish hosildorlikni kuzatish, zararli hasharotlar tarqalishini nazorat qilish va tuproq namligini o‘lchash kabi jarayonlarda qo‘llanilishi mumkin.

3. Masofadan zondlash texnologiyalari (RS):

- Masofadan zondlash orqali sun'iy yo‘ldosh va havo suratlari yordamida yer maydonlarining ekologik holati, tuproq tarkibi va o‘simlik qoplamini kuzatish mumkin.
- Sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari yer yuzasining dinamik o‘zgarishlarini aniqlash va monitoring qilishda ishlatiladi. Bu ma’lumotlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga maydonlarning samaradorligini tahlil qilish va rejalashtirish imkoniyatini beradi.

4. Geografik axborot tizimlari (GAT):

- Geografik axborot tizimlari (GAT) yordamida yer uchastkalari haqidagi ma’lumotlar interaktiv ravishda boshqariladi va yangilanadi. GAT texnologiyasi orqali turli ko‘rsatkichlarga asoslangan (masalan, yerning hosildorligi, tuproq tarkibi, ekologik sharoitlar) xaritalar tuziladi.
- Bu tizimlar yordamida qishloq xo‘jalik maydonlarini optimal boshqarish, ekinlarni joylashtirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish rejalari amalga oshiriladi.

5. IoT (Internet of Things) va sensorlar:

- Qishloq xo‘jalik maydonlarida o‘rnatilgan sensorlar yordamida yer va o‘simliklarning holatini kuzatish mumkin. IoT texnologiyalari ekinlar maydonlaridan ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ib, qishloq xo‘jalik xaritalarini dinamik ravishda yangilash imkonini beradi.

- Sensorlar tuproq namligi, havo harorati va o‘simliklar holatini o‘lchash orqali tuproqni kuzatish xaritalarini tuzishga yordam beradi.

6. O‘simlik indekslari yordamida tahlil:

- NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) kabi o‘simlik indekslari orqali o‘simliklarning sog‘lig‘i, tuproqdagi namlik va boshqa agroekologik sharoitlarni o‘lchash mumkin. Ushbu texnologiyalar qishloq xo‘jaligi rejalashtirish uchun hosildorlik xaritalarini yaratishda qo‘llaniladi.

7. 3D xaritalash va tuproq tahlili:

- 3D xaritalar yerning re`lyefini aniq aks ettirib, qishloq xo‘jalik maydonlarining yuqoridan ko‘rinishini yaratish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, suv oqimini boshqarish va eroziyani nazorat qilishda samarali vosita hisoblanadi.

- 3D texnologiyalar tuproq tarkibi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot beradi.

O‘zbekistonda yer davlat kadastrlarining yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda u davlat kadastri yuritiladigan tabiiy, xo‘jalik obyekti yoki boshqa obyekt muayyan turining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tafsilotlari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ma’lumotlar va xujjatlar tizimidan iborat bo‘ladi. Bu ko‘rsatkichlarni namoyon etishda yirik masshtabli kadastr karta va planlarini tuzish zarurdir.

Yirik masshtabli kadastr karta va planlari umumdavlat kartalari bo‘lib, xalq xo‘jaligining extiyojini qondirish, davlat kadastr tizimini yuritish va kadastr ma’lumotlarini ma’lum geografik makonga bog‘lab muayayn zamonda ko‘rsatish uchun xizmat qiladilar.

Bir xil mavzudagi va bir xil masshtabdagi kadastr kartalarining mazmuni, qo‘llanilgan shartli belgilar va legendalari umumiy bo‘ladi. Kadastr kartalari muntazam ravishda yangilanib turadilar.

Kadastr kartalarida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy boyliklar, voqea va xodisalarning geografik joylanishi berilibgina qolmasdan ularning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari mutloq miqdorda, ma’lum bir vaqtdagi yangi ma’lumotlarga asoslanib karta obrazli- belgilar asosida tasvirlanadi.

Kadastr karta va planlari, ya’ni mavzuli, tematik kartalar tuzilishi, qo‘llanilishi, maqsadi, masshtabi va boshqa xususiyatlari bo‘yicha quyidagicha tuziladi va loyihalanadi hamda talabalarga javob berishi kerak:

Davlat geodeziya va kartografiya xizmati xalq xo‘jaligining umumiy reja asosida extiyojlarini qondirish;

Mavzuli kartografiyalash sohasidagi tashkilotlar ular oldida turgan muayyan fan sohasi va xalq xo‘jaligi masalalarini yechish.

Mavzuli kartalarni loyixalashda umumiy- ilmiy va metologik asos sifatida xususiy-ilmiy va matematik metodlar, obyektlarning kompleks va sistemali aks ettirilishiga yondashish, modellashtirish metodlari qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir[2].

Yer –jamiyatning asosiy boyligidir. Shuning uchun ilmiy asoslangan, barcha yerlardan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish va tuproq xosildorligini oshirish umum insoniy vazifadir.

Ushbu vazifa va maqsadlarni hayotga tadbik etish, xalq faravonligini oshirish jarayonida barcha mutaxassislar, jumladan geodeziya, kartografiya va kadastr soha mutaxassislari oldida o‘ta aniqlikdagi yirik masshtabli kartalar tuzish, ular asosida mahsus qishloq xo‘jaligi kartalarini barpo etish turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat ko‘mitasi tasarrufidagi tashkilotlari va korxonalari barcha kartalarni, jumladan qishloq xo‘jalik kartalarini tuzish va nashr etish borasida ishlar olib bormokda. Nazarimizda[1], qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda qo‘llaniladigan qishloq xo‘jalik karta va planlarga quyidagi vazifalarni qo‘yish mumkindir: qishloq xo‘jalik xodimlarini to‘laqonli karta va planlar bilan foydalanishni qondirish; yirik

masshtabli tuproq kartalarini birinchi navbatda (tavsiyalari bilan), yerdan foydalanish kartalari, qishloq xo‘jalik ekinlari va kadastr kartalarini keng ko‘lamda tuzishni yo‘lga qo‘yish; kartalarning mazmunini kengaytirish borasida, maxsus mazmunlarni generalizasiyalash uslubini ishlab chiqish; karta va planlarni qo‘llanish ustida ilmiy-izlanish ishlarini olib borish; xar xil mazmundagi qishloq xo‘jalik o‘quv va tashviqotlar olib borish uchun mo‘ljallangan kartalarni tuzish borasida ishlarni keng olib borish; fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarish kartalarini, viloyat kartalarining yangi tipdagilarini tuzish; tumanlar miqyosida qishloq xo‘jalik kartalarini yangi avlodlarini, karta tuzishning zamonaviy usullarini [3] qo‘llash borasida ishlarni rivojlantirish; tuman hamda fermer xo‘jaliklarini qishloq xo‘jalik karta, plan va atlaslarini tuzish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish; kartalarni tuzishning texnologiyasini mukammallashtirish va sifatini ko‘tarish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Zamonaviy qishloq xo‘jalik xaritalarini tuzishda GPS, GNSS, GAT, dronlar, masofadan zondlash va IoT texnologiyalari kabi uslublar hosildorlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va yer maydonlarini aniq rejalashtirish imkoniyatini beradi. Bu uslublar qishloq xo‘jalik ishlab chiqaruvchilariga iqtisodiy samaradorlikni oshirishga va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirzaliev T., Musaev I. Kartografiya, T., Ilm Ziyo, 2007, -160 b.
2. Berlyant A.M. Kartograficheskiy metod issledovaniya. - M: MGU, 1988. -254 s.
3. Bennett, R. M., Tambuwala, N., & Rajabifard, A., "Geospatial Technologies for Agriculture," “Springer”, 2020.
4. McBratney, A. B., Oliver, M. A., & Webster, R., "Precision Agriculture: Spatial and Temporal Variability in Crops and Soils," “Taylor & Francis Group”, 2019.
5. Van Sickle, J., "GPS for Land Surveyors," 4th ed., “CRC Press”, 2015.
6. Leick, A., "GPS Satellite Surveying," 4th ed., “John Wiley & Sons”, 2015.
7. Jones, H. G., "Remote Sensing Applications in Agriculture," “Springer”, 2017.

GIS TEXNOLOGIYASI VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

Tillaxo‘jayev S.S., To‘xtaboyev K.A.
Andijon davlat universiteti, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya: *Bugungi kunda geografiyani o‘rganishni geografik xaritalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zamonaviy dunyoda xaritalarni eskicha qo‘lda chizish usuli esa juda qoloqlik belgisidir. Xarita chizish va tadqiqotlarda xaritalardan foydalanishda bizga GIS texnologiyasi yordam beradi. Ushbu maqolada siz GIS texnologiyasi haqida tushuncha, uni qo‘llanilish sohalari va usullari haqida ma’lumotga ega bo‘lasiz.*

Kalit so‘zlar: *GIS, geografiya, tadqiqot, raw, baza, tahlil, geologiya va geografiya.*

ГИС-ТЕХНОЛОГИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Тиллаходжаев С.С., Тухтабаев К.А.
Андижанский государственный университет, Андижан, Узбекистан.

Аннотация: *Сегодня изучение географии невозможно представить без географических карт. В современном мире старый способ рисования карт от руки является признаком отсталости.Технология ГИС помогает нам использовать карты в картографии и исследованиях. В этой статье вы получите информацию о концепции ГИС-технологии, областях ее применения и методах.*

Ключевые слова: *ГИС, география, исследования, сырье, база данных, анализ, геология и география.*

GIS TECHNOLOGY AND MODERN RESEARCH

Tillakhojayev S.S., Tokhtabayev K.A.
Andijan State University, Andijan, Uzbekistan.

Abstract: *Today, the study of geography cannot be imagined without geographical maps. In the modern world, the old way of drawing maps by hand is a sign of backwardness.GIS technology helps us in using maps in mapping and research. In this article, you will get information about the concept of GIS technology, its application areas and methods.*
Keywords: *GIS, geography, research, raw, base, analysis, geology and geography.*

Geografik **axborot tizimi (GIS)** geografik ma’lumotlarni saqlash, boshqarish, tahlil qilish, tahrirlash, chiqarish va vizualizatsiya qilish uchun integratsiyalangan kompyuter apparat va dasturiy ta’minotdan iborat. Buning ko‘p qismi ko‘pincha fazoviy ma’lumotlar bazasida sodir bo‘ladi; ammo, bu GIS ta’rifiga javob berish uchun muhim emas. Kengroq ma’noda bunday tizimni shuningdek, inson foydalanuvchilar va yordamchi xodimlar, protseduralar va ish jarayonlari, tegishli tushunchalar va usullar haqidagi bilimlar to‘plami va institutsional tashkilotlarni o‘z ichiga oladi.

Geografik axborot tizimlari (GIS) - fazoviy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash, kirish, tahlil qilish, sharhlash va grafik vizualizatsiya qilish tizimlari. GIS geografik axborot texnologiyalari (GIS texnologiyalari) asosidir, ya’ni, fazoviy taqsimlangan axborotni qayta ishlash va taqdim etish uchun axborot texnologiyalari.

GIS texnologiyalari turli manbalarda mavjud bo‘lgan har xil turdagi ma’lumotlarni birlashtirish, ularni qayta ishlash va ma’lumotlarni vizual ravishda taqdim etish uchun kuchli vositadir. Rastr va vektor grafiklarining noyob muharrirlari bo‘lgan va analitik operatsiyalarni amalga oshirish uchun eng keng vositalarga ega bo‘lgan ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlarining (DBMS) ilg‘or imkoniyatlaridan foydalangan holda, GIS kartografiya, geologiya, kommunal xizmatlar sohasidagi muammolarni hal qilishning eng samarali vositasidir. ma’muriyat, yerni boshqarish, ekologiya, transport, sanoat, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi. Bundan tashqari, GIS ko‘pincha muhandislik hisob-kitoblarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash mumkin bo‘lgan yagona vositadir (1-rasm).



1-rasm. GISning asosiy tushunchasi

Hisoblanmagan ko‘plik, geografik axborot tizimlari , shuningdek qisqartirilgan GIS, ushbu tizimlar bilan bog‘liq sanoat va kasb uchun eng keng tarqalgan atamadir. Bu taxminan geoinformatika bilan sinonimdir . Ushbu tizimlarni va ularning asosiy geografik tamoyillarini o‘rganadigan akademik intizom GIS deb ham qisqartirilishi mumkin, ammo bir ma’noli GISfan ko‘proq tarqalgan. GIScience ko‘pincha texnik geografiya bo‘limida geografiyaning kichik intizomi hisoblanadi .

1960-yillarda paydo bo‘lganidan beri GIS tobora ko‘payib borayotgan dasturlarda qo‘llanilib kelinmoqda, bu joylashuvning keng tarqalgan ahamiyatini tasdiqlaydi va

geofazoviy texnologiyani qo‘llashdagi to‘siqlarning doimiy ravishda qisqarishiga yordam beradi.

Geografik axborot tizimlari (GIS) turli sohalarda keng qo‘llaniladi, jumladan:

1. Geografiya va kartografiya: GIS geografik xaritalarni, shu jumladan topografik xaritalarni, erdan foydalanish xaritalarini, raqamli balandlik modellarini yaratish va boshqalarni yaratish va tahlil qilish uchun ishlatiladi.

2. Shaharsozlik va rejalashtirish: GIS shahar infratuzilmasini rivojlantirish, erdan foydalanishni rejalashtirish, transport yo‘nalishlari, obyektlarning joylashuvi va boshqalarga bo‘lgan ehtiyojlarni tahlil qilish va prognoz qilishda yordam beradi.

3. Agronomiya va qishloq xo‘jaligi: GIS qishloq xo‘jaligi erlarini boshqarishni optimallashtirish, ekin maydonlarini rejalashtirish, iqlim sharoitlarini tahlil qilish va hosildorlik darajasini aniqlash uchun ishlatiladi.

4. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish: GIS ekotizim o‘zgarishlarini kuzatish va tahlil qilish, iqlim o‘zgarishini o‘rganish, ekologik xavflarni rejalashtirish va baholash, qo‘riqxonalarni rayonlashtirish va hokazolarda yordam beradi.

5. Transport va logistika: GIS marshrutni rejalashtirish, yuklarni yetkazib berishni optimallashtirish, harakatni tahlil qilish, shahar va viloyat transport tizimlarini tashkil etish va boshqalar uchun qo‘llaniladi.

6. Geologiya va geologik tadqiqotlar: GIS minerallar xaritalarini yaratishda, foydali qazilmalarning tarqalishini bashorat qilishda, geologik tuzilmalarni tahlil qilishda va geologik faoliyat bilan bog‘liq xavflarni aniqlashda yordam beradi.

7. Geologiya va geologik tadqiqotlar: GIS minerallar xaritalarini yaratishda, foydali qazilmalarning tarqalishini bashorat qilishda, geologik tuzilmalarni tahlil qilishda va geologik faoliyat bilan bog‘liq xavflarni aniqlashda yordam beradi.

Yuqorida GIS texnologiyasidan qo’llanilish sohalarini ko’rib chiqdik. Endi shu sohalardan kelib chiqqan holda olib boriladigan GIS tadqiqotlari va maqsadlarini ko’rib chiqamiz.

Geografiya va kartografiyada turli geografik xaritalar tuzish, tahrirlash va qiyosiy solishtirsh maqsadlarida qo‘llaniladi. Yer osti suvlarini o‘rganish, relief tuzilishini tadqiqi qilish, ekzogen va endogen jarayonlarni kuzatish uchun ham GIS texnologiyasi kerak. Bu texnologiya orqali ushbu tadqiqotlar qilinib, ularning xaritasi tuziladi.

Bugungi kunda shaharlarni qurish, joylashtirish va rejalashtirishda ham GIS texnalogiyasidan keng qo‘lanilmoqda. Bu dastur tuproqning xolati, yerosti suvlarining harakati va tuproqning eruvchanligini statistik ma’lumotlar orqali aniqlab beradi. Boshqa zamonaviy dasturlar orqali integratsiya qilinishi orqali shaharlarni ma’lum bir hududda qurish mumkin yoki mumkin emasligini, qurganda uni atrof-muhitga va atrof-muhitni shaharga ta’sirini qanday bo‘lishini, kelajakdagi o‘zgarishlarni oldindan ko‘rib, ayta olish mumkin.

Muhandislar biz foydalanadigan telefonlar uchun aloqa tarmoqlarini loyihalash, amalga oshirish va boshqarishni, shuningdek, internetga ulanish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash uchun GIS texnologiyasidan foydalanadilar . Boshqa muhandislar yo‘l tarmoqlari va transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun GIS dan foydalanishlari mumkin.

Dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirishda, hamda bu boradagi tadqiqotlarda ham GIS texnologiyasining o‘rni juda kata. GIS dasturiga ma’lum joy nomini kiritsangiz u joyning agrosharoiti, tuproq va suv holati haqida to‘la ma’lumot bera oladi. Va o‘sha joyda qanday ekin turi ekish kerakligi va almashlab ekishda qanday ekin lozimligi, ekin hosildorligi va shu kabi agronomik ma’lumotlarni bera oladi.

GIS tizimlari ko‘pincha uch o‘lchovli tasvirlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Bu, masalan, zilzila yoriqlarini o‘rganayotgan geologlar uchun foydalidir. GIS texnologiyasidan foydalangan holda tahlil qilish mumkin bo‘lgan ma’lumotlar turiga cheklov yo‘q.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Boltayev T.X., Rahmonov Q., Akbarov O.M. Geoinformatsiya tizimining ilmiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2019.
2. Востокова Е.А., Шевченко Л.А., СysheНН В.А. и др. Картографирование по космическим снимкам и охрана окружающей среды.-М.,:Недра, 1982. -251с.
3. Гусев В.Н., Науменко А.И., Волохов Е.М. и др. Основы наземной лазерно-сканирукей съемки. — СанктПетербургский государственный горный институт. - СПб., 2008. -80 с
4. Safarov E., Musaev I. Geoaxborot tizimi va texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Tafakkur. 2012. -184 b.

GAT DASTURLARI YORDAMIDA TEMIR YO‘LLAR DAVLAT KADASTRI MA’UMOTLAR BAZASINI YARATISH

Ibragimov U.N.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
Qarshi, O‘zbekiston, e-mail: utkir.ibragimov.92@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada geoaxborot tizimlaridan foydalanib temir yo‘llar davlat kadastri ma’lumotlar bazasini yaratish, ularga oid ma’lumotlarni to‘plash, ularni boshqarish, yangilash ArcGIS dasturi yordamida yaratilgan kartalar bilan ishlash va kartografik ma’lumotlar bazasini tahlil qilish haqida bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar. *ArcGIS dasturi, temir yo‘l davlat kadastri, kartografik ta’minot, geoinformatsion ma’lumotlar, 3D o‘lchamli modellar va temir yo‘l liniyalarini masofadan zondlash.*

СОЗДАНИЕ БАЗЫ УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМ КАДАСТОРОМ ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММ ГАТ

Ибрагимов У.Н.
Каршинский инженерно-экономический институт
Карши, Узбекистан, e-mail: utkir.ibragimov.92@mail.ru

Аннотация. *В данной статье описано создание базы данных государственного кадастра железных дорог с использованием геоинформационных систем, сбор информации о них, управление ими, их обновление, работа с картами, созданными с помощью программы ArcGIS, и анализ картографической базы данных.*

Ключевые слова. *Программное обеспечение ArcGIS, государственный кадастр железных дорог, картографическое обеспечение, геоинформационные данные, трехмерные модели и дистанционное зондирование железнодорожных линий.*

CREATION OF RAILWAYS STATE CADASTOR ADMINISTRATION BASE WITH THE HELP OF GAT PROGRAMS

Ibragimov U.N.
Karshi Engineering Economics Institute
Karshi, Uzbekistan, e-mail: utkir.ibragimov.92@mail.ru

Abstract. *This article describes the creation of a database of the state cadastre of railways using geoinformation systems, collecting information about them, managing them, updating them, working with maps created using the ArcGIS program, and analyzing the cartographic database.*

Keywords. *ArcGIS software, railway state cadastre, cartographic support, geoinformation data, 3D dimensional models and remote sensing of railway lines.*

Har bir geografik axborot tizimining asosiy negizini ma’lumotlar bazasi (MB) tashkil etadi. Malumotlar bazasi deganda obyektning holatini, uning xossalari va boshqa obyektlar

bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettiruvchi malumotlarning nomlangan to‘plami hamda bu malumotlar bazasini yuritish uchun zarur bo‘lgan texnik va dasturli vositalarning kompleksi tushuniladi. Umumiy manoda ma’lumotlar bazasi - bu maxsus tashkil etilgan yozuv va fayllar to‘plamidir. GISning MBsida, masalan, obyektning nomi, u joylashgan viloyat yoki shahar, u haqida joy kartasi, obyektning iqtisodiy geografik va boshqa ko‘rsatkichlari saqlanishi mumkin.

Malumotlar bazasi tarkibiga o‘zgarish kiritish malumotlar bazasini qayta qurishni anglatadi. Biror bir zarur savolga javob olish uchun esa maxsus dastur yozishga to‘g’ri keladi. Foydalanuvchilarning savollariga javob berish uchun ba’zan xaftalab, oylab vaqt talab qilinadi, natijada ma’lumotlar o‘z dolzarbligini yo‘qotadi.

Milliy geografik axborot tizimini yaratishda har bir davlat ma’lum bir dasturdan foydalanmoqda. Ushbu dasturlar orasida ArcGIS dasturi dunyoda yetakchilardan biri hisoblanadi. Ushbu dastur yordamida turli xil mavzudagi kartografik ma’lumotlarni yaratish, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va tasvirlash mumkin.

“ArcGIS 9.3” dasturidan fazoviy ma’lumotlar bilan ishlashda foydalanish mumkin. Dasturining asosiy xususiyati - jadval ko‘rinishida oddiylik bilan ishga tushishi, baza tipidagi fayllar va server ma’lumotlar bazasidan ma’lumotlarni tasvirlashda, qayta ishlashda ularni yaxshi tushunish va tahlil etishdir.



1-rasm. ArcGIS dasturini ishga tushirish

Hozirgi kunda, Respublikamiz xalq xo‘jaligining turli sohalarida tuzilgan ma’lumotlar bazasi yordamida geoaxborotlar tizimini yaratishda kosmik va aerosur’atlardan keng ko‘lamda foydalanilgan holda aniqlik darajasi yuqori bo‘lgan elektron raqamli kartalarni yaratish texnologiyasi yo‘lga qo‘yilib, mavjud 1:10000 va 1:25000 miqyosidagi elektron raqamli kartalar yangilanmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib biz temir yo‘llar davlat kadastrini yuritishda ma’lumotlar bazasini shakllantirish ishlarini amalga oshirishni rejalashtirdik. Buning uchun hozirgi zamonaviy dasturlardan bo‘lgan ArcGIS dasturidan foydalanildi.

Ma’lumki, hozirgi vaqtda Geoaxborot tizimlaridan barcha sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Jumladan temir yo‘llar davlat kadastrini kartografik ta’minotini yaratishda GAT texnologiyalari muhim ahamiyatni kasb etadi. Bunda ma’lumotlar bazasini shakllantirish muhim masalalardan hisoblanadi.

Chunki, har qanday karta qanday vazifani bajarishidan qatiy nazar, yaratilishi hamda biron bir masalani hal etishda asosiy ma’lumot tashkil qiladi.

Temir yo‘llar davlat kadastri ma’lumotlar bazasini yaratish, ularga oid ma’lumotlarni to‘plash, ularni boshqarish, yangilash ArcGIS dasturi orqali amalga oshirildi.

Ma’lumotlar bazasini yaratishda “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, stat.uz internet ma’lumotlarni hamda tadqiqot davrida olib borilgan ishlari ma’lumotlaridan foydalanildi.

Ushbu keltirilgan sxemada ko‘rsatilgan tartib asosida temir yo‘llarining kadastr hujjatlari to‘plamini tayyorlash uchun birinchi navbatda ma’lumotlarni to‘plash ishlari amalga oshirilishi kerak.



5 -rasm. Temir yo‘l davlat kadastri ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlari

Temir yo‘llari davlat kadastri navbatchi kartasi va kadastr plani asosiy hujjat hisoblanib temir yo‘llari kadastrida rejim asosida saqlanadi, unga matnli va raqamli ma’lumotlar kiritilib, yangilanib boriladi. Bundan tashqari atomobil yo‘llari obyektlarining kadastr plani asosiy grafik shakl bo‘lib, unda kadastr ma’lumotlari saqlanadi. atomobil yo‘llari obyektlarining kadastr plani obyekt ishga tushgandan keyin tuziladi va temir yo‘llari davlat kadastri navbatchi kartasiga kiritiladi. Kadastr navbatchi kartasida yer uchastkasi va obyektni kadastr raqamlari ko‘rsatiladi. Temir yo‘llari davlat kadastri navbatchi kartasida obyektlarning hamma texnik qiymatlari saqlanadi. Temir yo‘llari davlat kadastri navbatchi kartasi obyektlarni o‘lchamiga qarab masshtabda 1:10000-1:50000, plan masshtabida 1:500-1:2000 tuziladi. Kadastr planida soliq olinadigan maydon (yer solig’i) ko‘rsatiladi.

Temir yo‘llari davlat kadastrini yuritish tartibi “Temir yo‘llar davlat kadastri ma’lumotlar bazasini yaratish sxemasi” asosida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Temir yo‘llarini texnik ro‘yxatdan o‘tkazish va pasportlashtirish, kelgusida yo‘l tarmoqlarini rivojlantirish, qayta qurish yo‘li bilan ta’mirlash va foydalanilayotgan yo‘llarni saqlash bo‘yicha ishlarni oqilona rejalashtirish maqsadida yo‘llarning va yo‘l inshootlarining mavjudligi, ularning masofasi va texnik holatlari haqidagi ma’lumotlarni olish uchun amalga oshiriladi.

Yo‘llarni tekshirayotganda asosan maxsus asboblar yordamida tekshirish usullari qo‘llaniladi. Geometrik parametrlarni o‘lchash, shikastlanganlik darajasini baholash, yo‘llardagi jihozlar va qurilmalar haqida ma’lumotlarni to‘plash va harakat jadalligini hisoblash temir yo‘llarini pasportlashtirish laboratoriyasi yordamida amalga oshiriladi. Temir yo‘lning mustahkamligi, tekisligi va mustahkamlik darajasini baholash uchun maxsus ko‘chma laboratoriyadan foydalaniladi. Olingan ma’lumotlar kompyuter yordamida ishlanadi va tahlil qilinib yo‘l-axborot bankiga kiritiladi.



2-rasm. Temir yo‘lning ko‘ndalang qirqimi.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi temir yo‘l kadastri bo‘yicha millliy geoaxborot tizimini shakllantirishda zarur bo‘lgan ma’lumotlar bazasi shaklantiriladi. Shakllantirilgan ma’lumotlar bazasida zarur bo‘lgan atributiv ma’lumotlar asosiy o‘rinni egallaydi. Ma’lumki atributiv ma’lumotlar bu- gegrafik axborot tizimi obyektlarining tavsifini ta’riflovchi zarur jadvalli yoki matnli ma’lumotlar to‘plami hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda barcha sohalarda shu jumladan temir yo‘l kadastri sohasida ham axborot texnologiyalari shu darajada rivojlandiki, ularda kadastr ishlarini takomillashtirish davr talabiga aylandi. Bunda raqamli kartalar yaratish va ular bilan ishlash muhim ahamiyatga ega.

Barcha obyektlarniki bo‘lgani kabi temir yo‘llar kadastr kartalarini yaratishda masofadan olingan tasvirlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki hozirgi zamonaviy kartografiyada masofadan zondlash materiallarini qayta ishlash asosida elektron raqamli kartalar yaratish ancha qulay va samarali hisoblanadi.

Chunki, raqamli kartalarni yaratish uchun yangi zamonaviy asboblar va dasturlar zarur bo‘ladi. Shu jumladan hozirda ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan Ars GIS 9.3 dasturi yangi raqamli kartalarni yaratishga judayam qo‘l keladi. Ushbu dastur yordamida yaratilgan kartalar bilan ishlash foydalanuvchining imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Shuning uchun ushbu dastur yordamida karta yaratish ishlarini takomillashtirish davr talabi hisoblanadi.

3-rasm. Temir yo‘l liniyalarini masofadan zondlash materiallari asosida kuzatish.

Arc GIS 9.3 ESRI kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bu obyektlarni geografik ma’lumotlari va atribut ma’lumotlari bilan birgalikda ishlash imkoniyatini beradi.

Ars GIS 9.3 dasturida ma’lumotlar bazasini yig’ish va saqlash juda qulay. ArgGIS 9.3 dasturida raqamli kartalarini yaratish uchun quyidagilarni bajarishimiz kerak.

−ArgGIS 9.3 dasturining ArcView versiyasi kompyuter bazasiga o‘rnatiladi;

−joyni havodan turib raqamli fotokamera yordamida suratga tushiriladi;

−transformatsiyalangan suratlardan joyning fotoplani yoki fotosxemasi tuziladi;

−fotoplan olib joyga borib deshifrovka qilinadi;

−suratlarni ArcGIS dasturiga masshtab bo‘yicha tushiramiz;

−deshifrofka qilingan fotoplan yoki fotosxemaga qarab ArcGIS dasturiga raqamli karta chiziladi, shu bilan birgalikda ma’lumotlar ham kompyuterga kiritilib boriladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Safarov E.Yu., Musayev I.M., Abduraximov X.A. Geografik axborot tizimlari va texnologiyalari. - Toshkent., TIMI, 2009.

2. Ibragimov Utkir Nurmamat o‘g‘li “Masofadan zondlash materiallaridan foydalanib qishloq xo‘jalik yerlarini monitoring qilish va elektron kartalarini tuzish” “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” jurnal (5), May, 2023, 916-928 https://oriens.uz/journal/article/ masofadan zondlash materiallaridan foydalanib qishloq xo‘jalik yerlarini monitoring qilish va elektron kartalarini tuzish/

3. Ibragimov Utkir Nurmamat o‘g‘li, and Aralov Muzaffar Muxammadiyevich. 2022. “Topografik kartalar yaratishning asosiy usullari”. arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali 1(4): 31-33. https:// www. sciencebox.uz /index. php/arxitektura/article/view/4913.

4. http // www. GIS.ru

QURILISH MAYDONIDA BINO VA INSHOOTLARNI O‘RNINI TANLASHDA RELYEF HOLATINING AHAMIYATI.

Samankulov Sh.R.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
Samarqand, O‘zbekiston, e-mail: shuxrat.samankulov87@gmail.com

Annotatsiya: *Bu maqola yerning relyefi va qurilish jarayonidagi rolini tushuntiradi, yassi va nishabli uchastkalarda uy qurishning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qiladi. Yassi relyef qurilish uchun qulay bo‘lsa-da, narxning yuqoriligi bilan ajralib turadi. Kichik nishabli maydonlarda yerning qiyaligi va tuproq xususiyatlariga moslashtirilgan loyiha talab etiladi, terasli va kaskadli uylar uchun ko‘proq resurslar kerak bo‘ladi. O‘rtacha va yuqori nishablikdagi maydonlarda esa maxsus injenerlik yechimlari, vaqt va materiallar talab etiladi. Shuningdek, yerning relyefi va hudud xususiyatlarini e’tiborga olish soliq hisoblashda muhim rol o‘ynaydi, yuqori koeffitsentli hududlarda soliqlar ham yuqori bo‘lishi kerakligi ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *relef, gorizontal, nishablik, yassi, nivelir.*

ПРИ ВЫБОРЕ МЕСТА РАСПОЛОЖЕНИЯ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ НА СТРОИТЕЛЬНОЙ ПЛОЩАДКЕ БОЛЬШОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИМЕЕТ СТАТУС РЕЛЬЕФА.

Саманкулов Ш.Р.
Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет
Самарканд, Узбекистан, e-mail: shuxrat.samankulov87@gmail.com

Аннотация: *В этой статье объясняется роль Земли в ее рельефе и процессе строительства, анализируются преимущества и недостатки строительства дома на плоских и наклонных участках. Плоский рельеф, хотя и удобен для строительства, характеризуется высокой ценой. Для небольших участков с уклоном требуется проект, учитывающий особенности склона и почвы, а для домов с террасами и каскадами требуется больше ресурсов. Однако для участков со средним и высоким уклоном требуются специальные инженерные решения, время и материалы. Также учет рельефа и особенностей местности играет важную роль при расчете налогов, указано, что налоги также должны быть высокими в районах с высокими коэффициентами.*

Ключевые слова: *рельеф, горизонталь, склон, равнина, нивелир.*

WHEN CHOOSING THE LOCATION OF BUILDINGS AND STRUCTURES ON THE CONSTRUCTION SITE IMPORTANCE OF RELIEF STATUS.

Samankulov Sh.R.
Samarkand State University of architecture and construction
Samarkand, Uzbekistan, e-mail: shuxrat.samankulov87@gmail.com

Annotation: *This article explains the role of the Earth in its relief and construction process, analyzes the advantages and disadvantages of building a house on flat and sloping plots. The flat relief, although convenient for construction, is characterized by a high price. Small sloping areas require a project tailored to the slope and soil characteristics of the land, with more resources needed for terraced and cascaded houses. In the case of medium to high Slope fields, however, special engineering solutions, time and materials are required. Also, the consideration of the terrain and terrain features plays an important role in tax calculation, it is indicated that taxes should also be high in areas with high coefficients.*

Keywords: *relief, horizontal, slope, flat, nivelir.*

Agar siz uyingizni shahar atrofi hududida qurmoqchi bo‘lsangiz, relyef – yerning landshaft shakli va qiyosini bildiruvchi muhim omillardan biridir. Yerning relyefi tekis, kichik

nishabli, o‘rta nishabli yoki tik qiyalik bilan bo‘lishi mumkin va har bir turda uy qurish uchun o‘zining afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Yassi relyef – qurilish uchun eng qulay variant hisoblanadi va asosan unda qiyalik 0%-3% (0º0¹-2º60¹) gacha hisoblanadi. Yassi yerda maydonni tayyorlash, qiyaliklarni mustahkamlash va uyning poydevorini qurish uchun qo‘shimcha xarajatlar ko‘pincha talab qilinmaydi. Yassi uchastoklar ko‘pincha har qanday loyiha uchun ideal bo‘lib, qurilish ishlari oson va samarali amalga oshiriladi. Biroq, tekis yer uchastkalari kamida, odatda, yuqori narx bilan sotiladi.

1-rasm. Binoning normal tekislikda joylashgan holati

Kichik nishabli maydonlar, ya’ni yerning gorizontaldan 3% dan 8% (2º60¹-7º12¹) gacha og‘ishi bo‘lgan uchastkalar, unda qurilish qilishda muayyan e’tiborga olish kerak. Bu yerda siz uyni qurishning ikki asosiy yo‘lini tanlashingiz mumkin.

Nishab tomondan tuproq qo‘shish orqali maydonni tekislesh mumkin. Bu usul orqali yerni tegishli holga keltirish va qurilish uchun qulay muhit yaratish mumkin. Shu bilan birga, bu prosess qo‘shimcha xarajatlar va vaqtincha resurslarni talab etadi, chunki tuproq qo‘shish uchun maxsus texnika va materiallar zarur bo‘ladi.

Nishabli uchastkada uyning pastki qavatini yerning qiyaligiga moslashtirish mumkin. Bu usul bilan, uyning pastki qismi yerning qiyaligiga moslashtiriladi, bu esa maydonni tekislesh va uyning konstruksiyasini optimallashtirishga yordam beradi. Ammo, buning uchun ham qo‘shimcha qurilish ishlari va resurslar talab qilinadi.

Qurilish jarayonida yerning relyefini hisobga olish har doim muhimdir. Agar yer qiyalikka ega bo‘lsa, bunday relyefga mos loyiha tanlash va qurilish texnologiyalarini qo‘llash talab qilinadi. Kichik nishabli uchastkalarda maxsus injenerlik yechimlari va qurilish metodlari bilan drenaj tizimlari, yerning mustahkamligini ta’minlash va boshqa masalalarga e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Yerning relyefini tahlil qilish va qurilishning turli usullarini o‘rganish, qurilishning samarali va moliyaviy jihatdan maqbul bo‘lishiga yordam beradi. Yassi uchastkalar har qanday loyiha uchun qulay bo‘lsa-da, kichik nishabli yerlarda qurilishni moslashtirish va to‘g‘ri usullarni tanlash, qurilishning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.Birinchi usul har qanday turdagi uy loyihasidan foydalanishga imkon beradi, ammo ko‘proq materiallar va ishlarni talab qiladi. Ikkinchi usul tuproq va maydon sathini tejaydi, lekin uyning individual loyihasini va poydevorni mustahkamlashni talab qiladi.

O‘rtacha qiyalik maydoni (8% dan 20% gacha) ($2^{o}60^{1}$-$7^{o}12^{1}$) gorizontaldan sezilarli og‘ishga yega. Bunday sathda siz faqat yer va tuproqning xususiyatlarini hisobga olishi kerak bo‘lgan individual loyihaga muvofiq uy qurishingiz mumkin. Mumkin bo‘lgan variantlardan biri terasli yoki kaskadli uy bo‘lib, u qiyalikdan pastga siljigan bir necha darajalardan iborat. Bunday uy o‘ziga xos ko‘rinishga yega va tabiiy landshaftni dizayn yelementi sifatida ishlatishga imkon beradi. Biroq, bunday uy qurish uchun ko‘proq materiallar, ish va vaqt talab yetadi.

2-rasm. Binoning o‘rtacha qiya tekislikda joylashgan holati

O‘rtacha qiyalik maydoni, ya’ni yerning gorizontaldan sezilarli og‘ishga ega bo‘lgan uchastkalar, 8% dan 20% ($2^{o}60^{1}$-$7^{o}12^{1}$) gacha bo‘lishi mumkin. Bunday sathda bino va inshootlar qurishda, yerning va tuproqning xususiyatlarini har tomonlama hisobga olish talab etiladi. Ushbu yerda qurilish uchun individual loyihaga muvofiq qarorlar qabul qilish kerak bo‘ladi.

O‘rtacha qiyalikda bino va inshootlar qurishning bir varianti bu terasli yoki kaskadli bino va inshootlar qurishdir. Terasli uy qurilishida, yerning qiyaligiga moslashtirish uchun uy bir nechta darajalarda quriladi, bu yerning balandligini bosqichma-bosqich osonlik bilan yengishga yordam beradi. Kaskadli uy esa, turli darajalarda, ya’ni bir necha bosqichda quriladi va yerning qiyaligini maksimal darajada ishlatishga imkon beradi.

Bu turdagi uylar tabiiy landshaftni dizayning bir qismi sifatida ishlatish imkonini beradi, ular o‘zining o‘ziga xos ko‘rinishi va landshaft bilan uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, terasli yoki kaskadli uy qurish uchun ko‘proq materiallar va ish talab qilinadi, shuningdek, vaqt va resurslarning aniq taqsimotini ham ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi. Bu turdagi qurilish jarayoni ancha murakkab va talabchan bo‘lishi mumkin, shuning uchun har bir bosqichda e’tiborli yondashuv va rerejalashtirish zarur.

3-rasm. Binoning yuqori nishablikda joylashgan holati

Ko‘rib turganingizdek, bino va inshoot qurish uchun yer uchastkasidagi relyef loyiha tanlash, texnologiyalar va qurilish xarajatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yerning qiyaligi va landshaft xususiyatlari uyning qurilish usullari, fundamentning turi va drenaj tizimlarini tanlashda muhim rol o‘ynaydi. Agar yerning qiyoligi, suv bilan ta’minlash va tuproq xususiyatlari haqida aniq va to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmasangiz, qurilish jarayonida kutilmagan muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Shuning uchun, saytni sotib olishdan oldin, uning barcha xususiyatlarini sinchkovlik bilan o‘rganish va har tomonlama tahlil qilish zarur. Bu yerning yuqori va past nuqtalarini, drenaj muhitini, shuningdek, yerning geologik va gidrologik shartlarini qamrab olishni anglatadi. Ushbu ishlarni yuqori malakali mutaxassislar, jumladan, professional me’morlar va quruvchilar bilan maslahatlashib amalga oshirish tavsiya etiladi. Ular saytining o‘zgarishlari va unda qurilish amalga oshirish bo‘yicha sizga aniq va to‘g‘ri maslahatlar berib, loyihaga mos keladigan to‘g‘ri yo‘lni tanlashda yordam beradi.

Shuningdek, yerni professionallar tomonidan tahlil qilish, qurilishning samarali va moliyaviy jihatdan asoslangan bo‘lishiga imkon yaratadi, shuningdek, kelgusida qurilish jarayonida kutilmagan muammolarni minimallashtirishga yordam beradi. Eng muhimi, yerning har bir detali va xususiyatini hisobga olish bilan, siz o‘z uyingizni orzu qilgan holda qurish uchun barcha shartlarni ta’minlaysiz.

Shu nuqtai nazardan qurilgan bino va inshootlar hozirda ham qurilib kelinmoqda va davom etmoqda. Sizga ma’lumki bu kabi bino va inshootlar ham foydalanganlik uchun davlat mol-mulk soliqlari to‘lab boradilar, biroq davlat mol-mulk solig‘ini to‘lash normative meyyoriy hujjatlarida ma’lum bino va inshootlar joylashgan hudud va hududning relyef jihatdan qay darajada joylashganligi inobatga olinmaydi. Ma’lumki bino va inshootlarga nisbattan soliq undurishda bino va inshoot joylashgan hudud (rayon) koeffitsenti va bir qancha konstruksiyalar uchun tegishli koefitsentlar o‘sha vaqtdagi eng kam ish haqqi (BH) miqdoriga nisbattan hisoblab chiqariladi. Mazkur maqolada ham bino va inshootlar kabi bino va inshootlarning joylash hududini va uning relyefini inobatga kadastr pasportlarida ko‘rsatilib, soliq to‘lash qiymatlari ham tartibga olinishi kerak. Hulosa qilib aytish mumkinki foydalanish koeffitsenti yuqori bo‘lgan hududlarda soliqlari yuqori va koeffitsenti past bo‘lgan hududlarda soliq stavkalari past bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Artikov, G. A., Samankulov, Sh. R., Xudayqulov, Sh. Sh., & Nomozov, A. A. (2023). Avtomobil Yo’llari Davlat Kadastri Kartalarini Yaratishda, Tegishli Obyektlarni Ro’yxatdan O’tkazish Va Rasmiylashtirish Tartibi. Miasto Przyszłości, 36, 196-201.

2. Askarovich, K.Z., Mardonovich, P. I., Samankulov, S. R., & Ogli, B. A. Z. (2021). THEME: DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY CREATION OF DIGITAL TOPOGRAPHIC PLANS OF TERRAIN INCLINATION. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 202-207.
3. Djavatov,S., Samankulov, Sh., & Xushnud, T. (2023). PONYaTIYe OB OPTIMALNOM EKSPERIMENTE V GEODEZII. Wire Insights: Journal of Innovation Insights, 1(1), 1-6.
4. Husanov, B., & Samankulov, S. R. (2023). Shaharlarning Geografik Koordinatalari Uzunlama Va Kenglamalarini Beruniy Asarlarida Berilishi. Miasto Przyszłości, 35, 423-426.
5. Safarov, T. U., Samankulov, Sh. R., Xudaykulov, Sh. Sh., & Berdikulov, U. A. (2023). Metodika Yustirovki Mnogo Fasetnых Geliostatov. Open Academia: Journal of Scholarly Research, 1(1), 69-73.
6. SAFAROV, T., UROKOV, O., & SAMANKULOV, S. R. (2020). Studies Of Axes Of Hyeliostat Rotary Turning Devices. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 7(05), 144-145.
7. Samankulov, S. R., & Nomozov, A. (2019). The role of modern laser scanners in the geodetic detection and planning of underground utilities. In Bridge to science: research works (pp. 201-205).
8. Suyunov, A., Tukhtamishev, S., Suyunov, S., Manoev, S., & Samankulov, S. (2023). Innovative solutions in creating noise maps in cities. In E3S Web of Conferences (Vol. 463, p. 02007). EDP Sciences.
9. Usmanovich, S. T., Rashitovich, S. S., & Adkhamovich, B. U. (2022). It is Currently Modern in the Field of Geodesy Application of Levels. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 193-197.
10. Usmanovich, S. T., Rashitovich, S. S., & Adkhamovich, B. U. (2022). SURFACE CONTROL OF HELIOSTATS. Gospodarka i Innowacje., 22, 355-357.
11. Usmonovich, S. T., & Rashidovich, S. S. (2023). GEODETIC METHODS STUDYING AND DETERMINING LANDSLIDES. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 245-251.3

GAT DASTURLARIDAN FOYDALANIB BINO VA INSHOOTLAR DAVLAT KADASTR MA'LUMOTLARINI TUZISH

Zuxurov Y.T., Aralov M.M.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi, O'zbekiston, e-mail: m.aralov87mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada GAT dasturlaridan foydalanib bino va inshootlar davlat kadastr ma'lumotlarini tuzish tartibi va asosiy usullari bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bino inshootlar davlat kadastr ma'lumotlarini geoportali ichiga monitoring manbalarini, jumladan, raqami va portal foydalanuvchilarining fikr-mulohazalarini ifodalash va GIS dasturiy ta'minotlarida tahlil qilish haqida ko'nikma hosil qilish bayon etilgan.*

Kalit so'zlar. *ARSGIS dasturi, bino inshootlar, davlat kadastr, raqamli xarita, geografik ma'lumotlar, atribut ma'lumotlar, ArcMap, ArcCatalog, deshifrofka va koordinatalar.*

СОЗДАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ КАДАСТРОВЫХ ДАННЫХ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОГРАММ GAT

Зухуров Й.Т., Аралов М.М.
Каршинский инженерно-экономический институт
Карши, Ўзбекистон, e-mail: m.aralov87mail.ru

Абстракт. *В данной статье представлена информация о порядке и основных методах составления государственных кадастровых данных о зданиях и сооружениях с использованием программ GAT. Описано встраивание государственных кадастровых данных строительства в*

геопортал мониторинга ресурсов, включая количество и выражение мнений пользователей портала, а также формирование навыков анализа в программном обеспечении ГИС.

Ключевые слова. *Программа ARSGIS, здания, государственный кадастр, цифровая карта, географические данные, атрибутивные данные, ArcMap, ArcCatalog, декодирование и координаты.*

CREATION OF STATE CADASTRAL DATA OF BUILDINGS AND STRUCTURES USING GAT PROGRAMS

Zuxurov Y.T., Aralov M.M.
Karshi Engineering and Economic Institute
Qarshi, O‘zbekiston, e-mail: m.aralov87mail.ru

Abstract. *This article provides information on the procedure and basic methods for compiling state cadastral data on buildings and structures using GAT programs. The integration of state cadastral construction data into a geoportal for resource monitoring is described, including the number and expression of opinions of portal users, as well as the formation of analysis skills in GIS software.*

Key words. *ARSGIS program, buildings, state cadastre, digital map, geographic data, attribute data, ArcMap, ArcCatalog, decoding and coordinates.*

Kirish. Davlat kadastrlari geoportalida kartografik rasmlar, matnli va statistik materiallar, infografika (geoinfografika), fotosuratlar va uch o‘lchovli modellar orqali ArcGIS dasturida xarita tuzish ishlarini boshlash yo‘llari. ArcGIS ga ma’lumotlarni yuklash va ularning xossalari bilan tanishish aniqlash va tasvirlashda asosan ArcGIS dasturiga ma’lumotlarni yuklash va uning xossalari bilan tanishish asosan “Pusk” tugmasi bosiladi “Vse Programma” qatoriga kiriladi.

“ArcGIS” papkasi tanlanadi “ArcMap” belgisiga ikki marta bosish orqali ishchi oyna ochiladi,natijada “Sloi” ustunida ko‘rilayotgan ma’lumot paydo bo‘ldi.

Asosiy qism: Bino va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlarini olish ArcMapga yuklangan tasvir yoki boshlang‘ich ma’lumot olish uchun shu faylning ustiga sichqoncha belgisi olib boriladi va o‘ng tugmachasi bosiladi. Paydo bo‘lgan buyruqlar panelidan “Svoystvo” qatori tanlanadi va asosi hudud bo‘yicha chizma ishlari olib boriladi.



1-rasm. “ArcGIS dasturida “ArcMap” ilovasining ishchi oynasi.



2-rasm. Bino va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlarini asoslashda ArcMAP bilan ishlash.

Bino va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlarini asoslashda keyingi bosqichda ArcMap dasturiga ma’lumot qo‘shish orqali Arc map dasturidagi + belgisini bosdim, natijada

“Dobavit Dannie” oynasi paydo bo‘ldi. Ushbu oynadan tahlil qilinadigan ma’lumotni u joylangan papkadan ArcMap ga o‘tkazish uchun quyidagi belgi bosildi (3-rasm).



3-rasm. ArcMAP ishchi oynasining funksiyalari bilan ishlash.



4-rasm. ArcMap ilovasida electron raqamli kartaningsaqlashdagi razmer va ramkalash funksiyasi.

Qatlam xossalari oynasidan manba ustuni tanlanadi va tanlangan ustunda tasvirning barcha ma’lumotlari bilan tanishish imkoni yaraladi.

Bino va inshootlar davlat kadastrlarini geoma’lumotlar bazasini hosil qilish orqali bajarilgan ishning tahliliy bayonnomasini tuzishda quyidagilarga e’tibor qaratilishi lozim:

-ishning maqsadi va vazifalari;

-ishni bajarish uchun berilgan birlamchi ma’lumotlar tavsifi;

-hisoblash usullari va ularning aniqligi;

-hisoblash natijalari tahlili;

-ishni bajarish natijasida olingan ma’lumotlarning ilmiy, amaliy ahamiyati va hokazolar.

Bino inshootlar davlat kadastr ma’lumotlarini geoportali ichiga monitoring manbalarini, jumladan, raqami va portal foydalanuvchilarining fikr-mulohazalarini ifodalash va SHeyp-fayllar yaratishni shakllantirishdan maqsadi talabalarga ma’lumotlarni GIS dasturiy ta’minotlarida tahlil qilish haqida ko‘nikma hosil qilishdan iborat. Amaliy mashg‘ulotni bajarish davomida talaba sheyp fayl mustaqil yaratish, SHeyp fayl asosida Bino va inshootlarning geoportali orqali hududlar maydonlarini aniqlash imkoniga ega bo‘ladilar va malaka oladilar.

Ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar berilgan: ArcMap dasturi hamda talaba tamonidan 1 amaliy mashg‘ulotda yuklab olingan xarita.

Ishni bajarish maqsadida qo‘yilgan vazifalar:

1) ArcMap dasturiga tasvirni kiritilsin va u tasvirdan massifning turar yoki noturar binolari tanlab olinsin;

2) tanlangan obyekt sheyp fayli yaratilsin;

3) bajarilgan ishning tahliliy bayonnomasi tuzilsin.

4). Tanlangan hudud yoki massif sheyp faylini yaratish va obyekt maydoni yuzasini hisoblash.

Hudud tasviri ArcMap dasturida ochiladi va sheyp fayli yaratilishi kerak bo‘lgan shartli belgilar tanlab olinadi.

Ish oynasining chap tamonidagi Catalog oynasidan yaratilishi kerak bo‘lgan sheyp fayl saqlanadigan papka tanlab olinadi va sichqonchaning o‘ng tugmachasi shu papka ustiga

bosiladi. Hosil bo‘lgan ustundan *Noviy* qatori tanlanadi va tanlangan qatordan sheyp fayl qatoriga o‘tiladi hamda sichqonchaning o‘ng tugmasi bosiladi.

Natijada *Sozdat noviy* sheyp fayl oynasi hosil bo‘ladi.

Ushbu hosil bo‘lgan oynadan SHeyp fayl nomi yoziladi va uning turi tanlanadi. Sheyp fayl nuqta, maydon va chiziq ko‘rinishida bo‘ladi. Qaysi obyektning xaritasini yaratishga qarab sheyp faylning turi ham tanlanadi. Bizning kurs loyhamizda massivlarning yaratilgani bois uning maydon turi tanlanadi (5-rasm).



5-rasm. ArcMap ilovasida shartli belgi qo‘yish oynasida ishlash.

Yuqoridagi panelga e’tibor qaratadigan bo‘lsak ushbu yaratayotgan sheyp faylimiz noma’lum koordinatalar tizimida ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Unga koordinatalar sistemasini berish uchun *Izmenit* tugmachasi bosiladi.

Hosil bo‘lgan oynadan Geografik koordinatalar tizimiga kiriladi va undan kerakli papkasi ochiladi va undan WGS-1984 koordinatalar tizimi tanlanadi. OK tugmachasi bosiladi natijada sheyp fayl koordinataga ega bo‘ladi.

Shundan so‘ng turar va noturar obyekti chegarasi sichqonchaning chap tugmasini bir marotaba bosish orqali chizib chiqiladi. Chizish yakunlangach sichqoncha tugmasi ikki marotaba bosiladi bunda sheyp fay hosil bo‘ladi.

Ishni yakunlash uchun yana Redaktor qatoriga o‘tiladi va tahrirlashni yakunlash tugmasi bosiladi .

Bunda saqlash kerak yoki yo‘qligi so‘raladi. Unda OK tugmasini bosish orqali sheyp fayl saqlanadi va ish yakunlanadi. Natijada rastr fayl vektor ko‘rinishiga o‘tkaziladi.

Bajarilgan ishning tahliliy bayonini tuzish. Bajarilgan ishning tahliliy bayonnomasini tuzishda quyidagilarga e’tibor qaratilishi lozim:

-Tasvirlarni tahlil qilish;

-ishni bajarish uchun berilgan birlamchi ma’lumotlar tavsifi;

-sheyp fayl yaratish texnologiyasi hamda bu fayllarni gidrologiya fanidagi ilmiy va amaliy ahamiyati.

JPEG formatidagi juda ham muhim bo‘lgan ammo koordinataga ega bo‘lmagan tasvirlarni GAT ga qo‘shish va uni elektron ma’lumotga aylantirish maqsadida geobog‘lash ishlarini qanday olib borishni o‘rgatish.

Bino va inshootlar Davlat kadastrlarini geoportali orqali obyektlar koordinatalari Google Map dasturi yordamida yoki JPS tadqiqotlari asosida koordinatalari olinadi. Tasvirdagi shu obyektlarga Georeferensing paneli orqali olingan koordinatalar berib chiqiladi.

Keyingi bosqichda hududning geobog‘lanmagan tasviri shu hududning eski keraksiz bo‘lsada geobog‘langan tasviriga bog‘lanadi. Bunda geobog‘langan tasvirdagi taniqli obyektlar geobog‘lanmagan tasvirdagi aynan shu obyektlar bilan birlashtiriladi.

Keyingi bosqichda bir biridan turli yo‘nalish va masofada joylashgan ikkala tasvirda ham ko‘rinishi aniq bo‘lgan kamida 3 obyekt tanlab olinada va geobog‘lanmagan tasvirdagi obyekt geobog‘langan tasvirdagi aynan shu obyektlarga bog‘lanadi.

GAT da klassifikatsiyalash ishlarini olib borish qoidalari va jarayonlari bilan

tanishtirish. Ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar berilgan: ArcMap dasturi hamda talaba tamonidan bino va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlarini yuklab olingan xaritaning kampanovkasini hosil qilishda quyidagi ko‘ratkichlarga asoslanamiz.

Bajarilgan ishning tahliliy bayonnomasini tuzishda quyidagilarga e’tibor qaratilishi lozim:

-ishning maqsadi va vazifalari;

-ishni bajarish uchun berilgan birlamchi ma’lumotlarning tavsifi;

-ishning amaliy ahamiyati;

-ishni bajarish natijasida olingan ma’lumotlarning ilmiy, amaliy ahamiyati va hokazolar.

GAT da turli obyektlarni ajratib olish va ularning xossalari bilan tanishish.

Ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar berilgan: ArcMap dasturi hamda talaba tamonidan 1-amaliy mashg‘ulotda yuklab olingan massif xaritasi va uning asosida 4-amaliy mashg‘ulot asosida atribut ma’lumotlarning yaratilgan sheyp fayli.

Ishni bajarish maqsadida qo‘yilgan vazifalar.

ArcMap dasturiga sun’iy yo‘ldosh tasvirlari kiritilib va bino va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlarini sheyp fayli yaratilsin. Yaratilgan bino va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlarini sheyp fayli asosida maydoni hisoblansin.

Ishni bajarish tartibi.

ArcMap dasturi yordamida atribut jadvallar bilan ishlash.

Bino va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlarini tasviri va yuqoridagi yaratilgan sheyp fayl ArcMap dasturida ochildi va sheyp fayl ustiga kelib sichqonchaning o‘ng tugmasi bosiladi. Bunda paydo bo‘lgan buyruqlar ustunidan atribut jadvalini ochish funksiyasi belgilanadi va natijada bizga kerakli bo‘lgan ishchi stol ochish orqali elektron raqamli kartalarni jihozlash ishlari olib boriladi.

Ushbu buyruq ustida sichqoncha bosilganda jadval hosil bo‘ladi. Ushbu hosil bo‘lgan jadvalda maydon o‘lchash bilan bog‘liq ishlarni olib borish uchun yangi ustun yaratiladi.

Bunda quyidagicha amal bajariladi. Atribut jadvali buyruqlar panelida sichqoncha o‘ng tugmasi bosiladi. *Dobavit pole* belgilanib maydon nomi va boshqa ikkinchi darajali shartlari belgilanadi va OK tugmasi bosiladi Shunda atribut jadvalida yangi ustun paydo bo‘ladi .

Ushbu hosil bo‘lgan jadvalda bino va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlarini maydonini o‘lchash uchun yangi ustun ustiga sichqonchani olib borib o‘ng tugmasi bosiladi. “*Vichislit geometriyu*” tanlanib undan hosil bo‘lgan oynada o‘lchov birligi tanlanadi va OK tugmasi bosiladi. Natijada yangi ustunda maydon qiymatlari paydo bo‘ladi natijada jadvalga ko‘chadi va uni xarita bilan birgalikda chop etish imkoni yaratadi.

GAT tizimlari orqali yaratilgan xaritalarni foydalanuvchiga taqdim etish orqali turli masshtab va boshqa maqsadlardagi xaritalarni chop etish. Shartli belgilar va xarita xossalarini xaritada ifodalashda ArcMap dasturi hamda tadqiqotchi tamonidan bino va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlari hududining yaratilgan sheyp fayli xaritani dizaynlashda dasturning “*vstavka”* panelidan foydalaniladi. Ushbu panel ArcMap dasturi yuqori qismida joylashgan.

Arc Map ilovasi orqali *Vstavka* bosiladi, shimol belgilari qatori tanlanadi va natijada hosil bo‘lgan oynadan kerakli shimol belgisi tanlanadi va OK tugmasi bosiladi. Natijada

xaritada shimol belgisi paydo bo‘ladi. Uni kerakli joyga olib borish va kattalashtirish imkoni mavjud. Bundan tashqari masshtab belgisini qo‘yishda ham xuddi shu tartib ish amalga oshiriladi *Vstavka* bosiladi, masshtab belgisi qatori tanlanadi va natijada hosil bo‘lgan oynadan kerakli masshtab belgisi tanlanadi va o‘lchov birligi belgilanadi va *OK* tugmasi bosiladi. Natijada xaritada masshtab belgisi paydo bo‘ladi. Uni kerakli joyga olib borish va kattalashtirish imkoni mavjud.

Xaritani dizaynlash va foydalanuvchiga taqdim etish asosan tayyor bo‘lgan xaritani foydalanuvchiga yetkazish uchun ArcMap dasturi yuqori qismidagi Fayl qatori belgilanadi. Hosil bo‘lgan ustundan xaritani eksport qilish qatori tanlanadi.

Hosil bo‘lgan oynada saqlanadigan fayl va format hamda sifati belgilanadi. Bajarilgan ishning tahliliy bayonini tuzish asosan bajarilgan ishning tahliliy bayonnomasini tuzishda quyidagilarga e’tibor qaratilishi lozim:

Xulosa: GISni yaratishda asosiy e’tiborni geografik asosni to‘g‘ri tanlashga qaratiladi, chunki u boshqa ma’lumotlarni bir-biri bilan bog‘lash, obyektlar koordinatalarini aniqlash, qatlamlarni ketma-ket yoki biror bir mavzu bo‘yicha joylashtirish va bino va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Аликулов, Ғ., & Аралов, М. (2022). РЕЛЬЕФНИНГ РАҚАМЛИ МОДЕЛЛАРИНИ УЧУВЧИСИЗ УЧИШ АППАРАТЛАРИ ЁРДАМИДА ЯРАТИШ. Innovatsion Texnologiyalar, 1(4), 131–134.

2. Aralov, M. M. (2022). MUHANDISLAR TAYYORLASH TA’LIMINING MUAMMOLARI VA YUTUQLARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 107–111.

3. Aralov , M. M., & Qilichev , Z. M. (2023). TOPOGRAFIK CHIZMACHILIK FANINI O‘QITISHDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING GRAFIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 674–679.

4. Ibragimov Utkir Nurmamat o‘g‘li, and Aralov Muzaffar Muxammadiyevich. 2022. “Topografik kartalar yaratishning asosiy usullari”. arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali 1(4).

BINO VA INSHOOTLAR RAQAMLI KADASTR XARITA VA PLANLARI UCHUN MASSHTAB TANLASHNI ASOSLASH

Xusanova M.I., Isakov M.K., Ro‘ziqulov D.N., Omonov I.X.

Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish universiteti (SamDAQU), Samarqand, O‘zbekiston.

Annotasiya: *Bino va inshootlarning raqamli kadastr xaritalari va planlari uchun optimal masshtabni tanlash zaruriyatini asoslashga qaratilgan. Raqamli kadastr xaritalari hududlarni boshqarish, yer uchastkalarini ro'yxatga olish, shaharsozlik, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli kadastr, bino va inshootlar, masshtab tanlash, kadastr ma'lumotlari aniqligi.*

ОБОСНОВАНИЕ ВЫБОРА МАСШТАБА ДЛЯ ЦИФРОВЫХ КАДАСТРОВЫХ КАРТА И ПЛАНОВ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ

Хусанова М.И., Исаков М.К. Рузикулов Д.Н., Омонов И.Х.

Самаркандский государственный университет архитектуры и строительства (СамДАКУ), Самарканд, Узбекистан.

Аннотатсия: *Целью является обоснование необходимости выбора оптимального масштаба цифровых кадастровых карт и планов зданий и сооружений. Цифровые*

кадастровые карты играют важную роль в управлении территориями, регистрации земель, городском планировании, реализации и контроле инфраструктурных проектов.

Ключевые слова: *Цифровой кадастр, зданий и сооружений, выбор масштаба, точность кадастровых данных.*

JUSTIFICATION OF SCALE SELECTION FOR DIGITAL CADASTRAL MAPS AND PLANS OF BUILDINGS AND CONSTRUCTIONS

Khusanova M.I., Isakov M.K. Ruzikulov D.N., Omonov I.Kh.
Samarkand State University of Architecture and Construction (SamDAKU), Samarkand, Uzbekistan.

Annotation: *The objective is to justify the need to select the optimal scale of digital cadastral maps and plans of buildings and structures. Digital cadastral maps play an important role in territorial management, land registration, urban planning, implementation and control of infrastructure projects.*

Key words: *Digital cadastre of buildings and structures, choice of scale, accuracy of cadastral data.*

Bino va inshootlar raqamli kadastr xaritalari va planlari shaharsozlik, yer resurslarini boshqarish, mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish kabi ko‘plab sohalarda asosiy ma’lumot manbai hisoblanadi. Ushbu xaritalar mulkning joylashuvi, chegaralari va geometrik shaklini aniq tasvirlab berishi kerak. Shu sababli, kadastr xaritalarining aniqligi va ishonchliligi tanlangan masshtab bilan bevosita bog‘liq. Xarita va planlar uchun to‘g‘ri masshtabni tanlash hududning xususiyatlari, binolar va inshootlarning ko‘pligi, normativ talablar va texnologik imkoniyatlarga qarab asoslanadi.

Bino va inshootlar kadastr xarita va planlarning masshtablari tizimini tanlashda ularning umumiy yaxshi o‘qilishini saqlagan holda to‘liq ma’lumot olishga yo‘naltirilgan. Buning uchun bir qator shartlarni hisobga olish kerak bo‘ladi: xarita (plan)larning tarkibi va qo‘llanilishi, ishlab chiqarish faoliyatini ixtisoslashtirish, konturlar o‘lchami, kartograflashtirilgan xo‘jalik birligi toifasi va boshqalar.

Bino va inshootlar raqamli kadastr xarita va planlari uchun masshtab tanlashni asoslash jarayoni bir qancha omillarga bog'liq. Ushbu omillarni hisobga olish, xaritalashning aniq va samarali bo'lishini ta’minlaydi. Masshtab tanlashning asosiy omillari quyidagilar:

1. Xaritaning maqsadi va qo'llanilish sohasi:

Kadastr xaritalari odatda mulklar va hududlar haqida aniq ma'lumot berish uchun ishlatiladi. Agar xarita kichik hududni batafsil tasvirlashi kerak bo'lsa, katta masshtab (1:500, 1:1000) tanlanadi. Katta maydonlar uchun esa kichik masshtab (1:5000 va undan kichik) tanlanadi.

2. Hududning murakkabligi:

Bino va inshootlar joylashgan hududning arxitekturaviy va topografik murakkabligi masshtab tanlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, zich joylashgan yoki ko'p qurilishlar bo'lgan hududlar uchun katta masshtab talab qilinadi, chunki bunday hududlarni aniqlik bilan tasvirlash zarur.

3. Kerakli aniqlik darajasi: Xaritalar kadastr ma'lumotlari uchun aniq bo'lishi lozim, shuning uchun aniqlik darajasi yuqori bo'lgan joylarda katta masshtab tanlanadi. Aniqlik talab darajasi qancha yuqori bo'lsa, xarita masshtabi ham shuncha katta bo'lishi kerak.

4. Normativ-huquqiy talablar: Ko'pincha raqamli kadastr xaritalari va planlari davlat standartlariga muvofiq bo'lishi kerak. Ushbu standartlarda bino va inshootlar uchun tavsiya etilgan masshtablar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

5. Kirish imkoniyatlari va texnologik cheklovlar: Raqamli xaritalashda ishlatiladigan dasturiy ta'minot va uskunalar masshtab tanlashga ta'sir qilishi mumkin. Agar o'lchov

vositalari yoki sensorlar yuqori aniqlik bilan ma'lumot yig'a olmasa, katta masshtabli xarita yaratish qiyin bo'lishi mumkin.

Bino va inshootlar uchun raqamli kadastr xaritalarida masshtab tanlash hududning xususiyatlari, aniqlik talablari va normativ huquqiy talablarga asoslanadi.

Bino va inshootlar kadastr xaritalari va planlari masshtab imkoniyatlaridan unumli foydalanishini ta’minlash uchun bir necha masshtablarda (asosiy va ishlab chiquvchi) tuzish kerak, ularning soni ko‘p bo‘lmasligi shart, chunki taqqoslash ishlari murakkablashadi.

Eng yirik masshtablardagi bino va inshootlar kadastr xaritalari va planlari xududda ko‘p o‘zgarish bo‘lganida tuziladi. Kichik masshtabli bino va inshootlar kadastr xaritalarida umumiy qonuniyatlar aks etadi. Ular Respublika va viloyat miqyosida bino va inshootlar resurslarini boshqarishda bosh bo‘lib sanaladi. Aholi punktlarini bino va inshootlar kadastr xarita va planlari uchun 1:2 000, 1:1 000 masshtabda asoslash kerak bo‘lganida 1:500, masshtablarni tavsiya etish mumkin. Shuni qayd etish kerakki, bino va inshootlarning kadastrining raqamli xaritalari uchun masshtab tarkibini va tasvirlnayotgan ob’ektlarning umumlanish darajasini xamda ob’yektlar nuqtalarining joylashuv aniqliklarini ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Shunday qilib, bino va inshootlar kadastr xaritasida ob’ektlar joylashuvi aniqligini ko‘rsatilishi masshtab va kadastr s’yomkasi usuli bilan aniqlanadi.

Bino va inshootlar kadastr s’yomkalari uchun davlat va maxalliy koordinata sistemalarini qo‘llash mumkin. Mahalliy koordinatalar tizimidan foydalanilganda, davlat koordinatalar tizimiga o‘tishda parametrlarni saqlash va aniqlash kerak. Muhimi, yagona koordinatalar tizimi ish o‘tkazilgan xududlarga tarqatiladi.

Viloyat ahamiyatidagi tuman va shaharlarning bino va inshootlar raqamli kadastr xarita (plan)lari shaharlarni maydoniga bog‘liq holda 1:50 000 yoki 1:25 000, 1:10 000 yoki 1:5 000 masshtablarda tuziladi. Bino va inshootlarning kadastr raqamlari va chegaralarini aks ettirish uchun qo‘llaniladi.

Hududlarini bino va inshootlar kadastr xarita (plan)larini 1:10 000 yoki yirik masshtablarda tuziladi, kadastr hududi bo‘lib, qishloq, ovul bo‘lsa unda masshtab 1:2 000, shahar yoki shaharning bir qismi bo‘lsa, masshtab yirik tanlanadi.

Ammo bino va inshootlar kadastr raqamli xarita planlariga ko‘rsatma bilan belgilangan masshtablar asosan amaliy tajribalarni aks ettiradi, biroq nazariy jihatdan asoslanmagan.

Bino va inshootlarni ro‘yxatga olishga mo‘ljallangan raqamli kadastr planlarining nazariy asolanganligi muhim axamiyatga ega.

Bino va inshootlar kadastr xarita planlarining bazasi bo‘lib topografik xaritalarning xizmat qilishini hisobga olib yirik masshtabli topografik s’yomkalarning masshtablarini asoslash va tanlash va ularning natijasida tuziladi. Bunday yondoshuv kadastr planlari masshtablarini aniqlashda qo‘llanishi mumkin.

Bino va inshootlar uchun raqamli kadastr xaritalari va planlarida masshtab tanlash ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ushbu qaror xaritaning maqsadi, aniqlik darajasi, hududning murakkabligi va amaldagi normativ-huquqiy talablar asosida belgilanadi. To'g'ri masshtabni tanlash nafaqat yer uchastkalari va inshootlarning aniq tasvirlanishini ta'minlaydi, balki kadastr ma'lumotlarining ishonchliligini oshiradi, shuningdek, kelgusida xaritalardan samarali foydalanishga zamin yaratadi. Kichik hududlar uchun katta masshtabli xaritalar aniqlikni oshirsa, katta maydonlar uchun kichik masshtab ish unumdorligini ta'minlaydi. Shu bois, masshtab tanlash jarayonida barcha omillarni hisobga olish xaritalashning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaev, A. M., "Geodeziya asoslari va o‘lchash ishlari," Toshkent: O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 2018.

2. Kurdi, F., "GPS texnologiyalari va ulardan geodeziya sohasida foydalanish," "Geodeziya va Kartografiya" ilmiy jurnali, 2017, 2-soni.

3. Iskandarov, O. S., "Kadastr va GPS tizimlari," Toshkent: Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi nashriyoti, 2019.

4. Trimble Navigation Ltd., "GPS Basics: A Guide to the Global Positioning System," 2008.

5. Rizos, C., "Principles and Practice of GPS Surveying," Geodetic Publications, 2015.

KARTOGRAFIK METODLAR YORDAMIDA IQLIM O‘ZGARISHLARINI TAHLILI

Tovbayev G‘.
Guliston davlat universiteti , Guliston, O‘zbekiston.

Annotatsiya: *XX asr 2-yarmidan boshlab global iqlim o‘zgarishining tabait-jamiyat tizimiga, jumladan insoniyatning xo‘jalik faoliyatiga ta’siri yaqqol sezilib bormoqda. Natijada, iqlim o‘zgarishini yumshatish masalasida har xil sohada bir guruh olimlar tomondan ilmiy ishlar olib borildi. Xususan, geografik-kartografik fanlarda ham ilmiy hamda amaliy tadqiqotlar olib borildi. Ushbu tadqiqotlarni komplekslashtirish va tarmoqlarga ajratish orqali ularning ilmiy metodlari tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *tabiiy geografiya, kartografiya, metodlar, yondashuvlar.*

АНАЛИЗ ИЗМЕНЕНИЙ КЛИМАТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КАРТОГРАФИЧЕСКИХ МЕТОДОВ

Товбаев Г
Гулистанского государственного университета, Гулистан, Узбекистан.

Аннотация: *Со 2-й половины XX века отчетливо ощущается влияние глобальных изменений климата на систему природа-общество, в том числе на экономическую деятельность человечества. В результате группа учёных различных направлений провела научную работу по проблеме смягчения последствий изменения климата. В частности, научные и практические исследования проводились в области географических и картографических наук. Обобщив эти исследования и разделив их на отрасли, были проанализированы их научные методы.*

Ключевые слова: *естественная география, картография, методы, подходы.*

ANALYSIS OF CLIMATE CHANGES USING CARTOGRAPHIC METHODS

Tovbayev G.
Gulistan State University, Gulistan, Uzbekistan.

Annotation: *since the 2nd half of the 20th century, the impact of global climate change on the nature-society system, including the economic activity of mankind, has been clearly felt. As a result, scientific work was carried out by a group of scientists in various fields on the issue of mitigating climate change. In particular, scientific and practical researches were carried out in geographic and cartographic sciences. By summarizing these studies and dividing them into branches, their scientific methods were analyzed.*

Key words*: natural geography, cartography, methods, approaches.*

Har qanday tadqiqotni olib borishda ma’lum bir yo‘nalish va metodlar qo‘llaniladi. Xususan, tabiiy geografiyada ham ma’lum bir komponent yoki tabiiy kompleksni o‘rganish jarayonida bir qancha metodlar ishning asosiy amaliy qismini tashkil qiladi. Bu metodlar turli-tuman bo‘lib, ularni mutaxassislar bir qancha tizimini ishlab chiqishgan.

Jumladan, V.K.Juchkova (1986; 2004), I.N.Babushkin (1972), A.M.Berlyant (1978) [1], K.V.Pashkang (1986), K.N.Dyakonov (1996) [2], V.S.Tikunov (1997), A.Soatov (2001) [3], M.A.Xrustaleva (2003) [4], B. Gomez (2010) [5], J. Jonker, B.Pennink (2010) [6],

G.A.Kachayev (2011) [7], Barros, L. P. de, Kastrup, V (2013), N. Klifford (2016) [8], Strelnikova A.V., Yeremeeva K. S (2019), Élida Santos Ribeiro (2022) kabi olimlar tabiiy geografik va kartografik tadqiqot usullarini ishlab chiqishgan.

O‘zbek tabiiy geografi Abdurasul Soatov yuqorida qayd qilingan olimlarning ishlarini tahlil qilib, o‘zining “Tabiiy geografiyaning tadqiqot usullari” nomli o‘quv qo‘llanmasini ishlab chiqdi va quyidagi tadqiqot usullari izohlab yozdi: *dialektik, qiyoslash, statsionar, ekspeditsiya, kartografik, aerofotografik, kosmik, statistik-matematik, modda va energiya balansi uslubi, modellashtirish, laboratoriya-analitik, tipologik, tarixiy-genetik, rayonlashtirish, yozma, kompleks, multiplikatsion, palinologik (chang-kul), sistemali, geografik baholash, monitoring, prognozlash* [3].

1-jadval

Geografik tadqiqot metodologiyalari

Tabiiy geografiya		**Kartografiya**	
Tadqiqotchi (lar)	***Tadqiqot o‘tkazgan yili va asari***	***Tadqiqotchi (lar)***	***Tadqiqot o‘tkazgan yili va asari***
V.K.Juchkova	1984, Методы комплексных физико-географических исследований. – М.:Академия	A.M.Berlyant	Картографический метод исследования. 1978
I.N.Babushkin	1972, Комплексная полевая практика по физической географии	Barros L. P. de, Kastrup V	The cartography method – some clues 2013; 2015
N.L.Beruchashvili	Методы комплексных физико-географических исследований.Учебник.	A. V. Strelnikova, K.S. Yeremeeva	Картографические методы в цифровую эпоху: новые возможности для изучения городских практик, 2019
A. G. Isachenko	Теория и методология географической науки : учеб. А.Г. Исаченко. - М. : Академия, 2004	Élida Santos Ribeiro	The method of cartography and science education: interlocutions, 2022
M.M.Golubchik	Теория и методология географической науки : учеб. пособие / М. М. Голубчик [и др.]. - М. : Владос, 2005	G.A.Kachayev	Разработка методики оценки экологического состояния территории по топографическим картам 2011, dissertatsiya

Yu.G.Simonov	Методы геоморфологических исследований / Ю.Г. Симонов, С.И.Болысов. - М.: Аспект пресс, 2002	V.S.Tikunov	Моделирование в картографии. — М.: Изд-во Моск. унта, 1997
	1986,		
K.V.Pashkang	Комплексная полевая практика по физической географии		
M.A.Xrustaleva	Аналитические методы исследований в ландшафтоведении/ М.: Техполиграфцентр, 2003		

Bulardan tashqari geografik fanlar tarmoqlanib ketishi natijasida sohalari bo‘yicha alohida geografik tadqiqot metodologiyalari ham ishlab chiqildi (1-jadval).

Xususan, tabiiy geografiya sohasidagi metodlarni A. G. Isachenko (2004), M.M.Golubchik. (2005.), N.L.Beruchashvili (199) , Yu.G.Simonov (2002), kartografik metodlarni A.M.Berlyant (1988), iqtisodiy geografik metodlarni N.N.Baranskiy (1990), A.S.Soliyev (2013), zamonaviy geografik metodlarni K.N.Dyakanov (1996) kabi olimlar ishlab chiqqan. Ushbu olimlar geografik-kartografik sohalardagi metodlarni kompleks emas balki quyidagi tamoq va tarmoqchalar orqali ishlab chiqqanlar :

- ***tabiiy geografik:*** *geofizik, geokimyoviy, geomorfologik, gidrologik, klimatologik, biogeografik, pedologi;*
- ***iqtisodiy geografik****: iqtisodiy-matematik, iqtisodiy modellashtirish, demografik-statistik;*
- ***kartografik*** *aerokosmik, geoaxborot, masofadan zondlash* (1-chizma).



1-chizma. Geografik tadqiqot metodlarining iyerarxik bo‘linishi.

Zamonaviy geografik tadqiqot metodlarini geografik sohalar emas, balki komponentlar bo‘yicha kompleks ajratishda ingliz olimlarining hissalari katta. Ya’ni ular geografik tadqiqot metodlarini tarmoqlar bo‘yicha ajratmasdan kompleks yondashdilar. Ayniqsa, Basil Gomez va Jon Pol Jons III larning Geografiyada tadqiqot usullari: Tanqidiy yondashish (Research Methods in Geography: a Critical Introduction) nomli ilmiy adabiyotida geografik qobiqning har bir komponentini tarixiy-evolutsion darajasidan kelajagigacha o‘rganishdagi olib boriladigan tadqiqot uslublarini qo‘llagan. Bularning ichida iqlimni va uning o‘zgarishini o‘rganishdagi tadqiqot uslublari o‘ziga xosdir [6].

Rivojlangan davlatlarlarda ilm-fanning yuksalishi, yuqoridagi olimlarning tadqiqotlari hamda globallashuv jarayonida iqlim o‘zgarishini geografik axborot texnologiyalaridan foydalangan holda matnli formatdagi ma’lumotlarni raqamli texnologiyalarda ifodalash orqali yanada samarali yutuqlarga erishmoqda. Natijada, rivojlangan davlatlarda (ayniqsa AQSH, Fransiya, Germaniya) iqlim o‘zgarishini kartalashtirish texnologiyasi orqali sekin-astalik bilan har bir sohaga kirib bormoqda. Jamiyatning har bir bo‘g‘ini iqlim o‘zgarishini elektron qurilmalardagi (kompyuterlar, GPS mobil telefonlari) kartalar orqali har bir sohada ko‘proq foydalanilmoqda. Masalan, qishloq xo‘jalik sohasida iqlim xususiyatlarining 6 oylik prognozlarini bilish orqali dehqonchilik tarmoqlarini shakllantirmoqda.

BMT hamda Jahon Banki tomonidan iqlim o‘zgarishini o‘rganish bo‘yicha xalqaro axborot internet portali ham yaratildi. Bu esa GAT orqali iqlim o‘zgarish xususiyatlari (muzliklar erish jarayoni, dovullar bo‘lishi, okean harakati) va elementlarini kuzatish (havoning harorati, bosimi, harakati, namligi, yog‘inlar, radiatsiya) orqali yanada qulaylashtiradi [9].

Adabiyotlar ro‘yxati

1. A. M. Берлянт. Картографический метод исследования. М.:- 1978
2. К.Н.Дьяконов, Н.С.Касимов, В.С.Тикунов. Современные методы географических исследований/ – М.: Просвещение, 1996
3. A.Soatov. Tabiiy geografiyaning tadqiqot uslublari. T.: 2001
4. М.А.Хрусталева. Аналитические методы исследований в ландшафтоведении. М.: Техполиграфцентр, 2003 – 78 с
5. B. Gomez (ed.), J.P. Jones III (ed.). Research Methods in Geography: a Critical Introduction // / Wiley-Blackwell, - 2010. – 480 p
6. J. Jonker, B. Pennink. The Essence of Research Methodology // Springer-Verlag : Berlin-Heidelberg, 2010. – P. 21-41.
7. Г.А.Качаев. Разработка методики оценки экологического состояния территории по топографическим картам. М.:-2011,
8. N. Clifford, M. Cope, T. Gillespie, S. French. Key Methods in Geography // SAGE Publications Ltd, 2016. – 752 с
9. https://climateknowledgeportal.worldbank.org/ - BMT hamda Jahon Banki tomonidan iqlim o‘zgarishini o‘rganish bo‘yicha xalqaro axborot internet portali

GIS TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANGAN HOLDA O‘QUV JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Shukurov A.U., Abdulxamidov E.F.
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, Qarshi, O‘zbekiston.

Annotatsiya: *Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida kompyuterlashtirish, ta’lim ma’lumotlari, geoaxborot texnologiyalari va geoaxborot tizimlari kabi atamalar paydo bo‘la boshladi. Maqolada geografik makonni modellashtirish va geografiyani o‘qitish metodologiyasida GISdan*

foydalangan holda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Davlat ta’lim standarti talablari.

Kalit so‘zlar: *raqamli xarita, masofa, yo‘nalish, grafika intyerfeysi, elektron ta’lim, geoaxborot tizimlari (GAT).*

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГИС-ТЕХНОЛОГИЙ

Шукуров А.У., Абдулхамидов Э.Ф.
Каршинский инженерно-экономический институт, Карши, Узбекистан

Аннотация: *на разных этапах развития общества стали появляться такие термины, как компьютеризация, образовательная информация, геоинформационные технологии и геоинформационные системы. В статье рассматриваются вопросы моделирования географического пространства и повышения эффективности образовательного процесса с использованием ГИС в методике обучения географии. Требования государственного образовательного стандарта.*

Ключевые слова: *цифровая карта, расстояние, маршрут, графический интерфейс, электронное обучение, геоинформационные системы (GAT).*

IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS USING GIS TECHNOLOGY

Shukurov A.U., Abdulkhamidov E.F.
Karshi Institute of Engineering Economics, Karshi, Uzbekistan.

Annotation: *at different stages of the development of society, terms such as computerization, educational data, geoengineering technologies and geoengineering systems began to appear. The article examines issues of modeling geographic space and improving the effectiveness of the educational process using GIS in the methodology of teaching geography. Requirements of the state educational standard.*

Keywords: *digital map, distance, direction, graphic inertia, e-learning, geoengineering systems (GAT).*

Kirish: Jamiyat va ta’lim tizimining hozirgi rivojlanish darajasi o‘zgaruvchan sharoitlarda ishlashga qodir bo‘lgan yangi turdagi o‘qituvchini tayyorlashni talab qiladi. Hozirgi bosqichda davlat, jamiyat va oliy maktab oldida yangi vazifa - zamonaviy ta’lim sanoatini yaratish vazifasi turibdi. Har bir davr o‘z oldiga moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishda amalga oshiradigan yangi maqsad va vazifalarni pedagogik faoliyat orqali qo‘yadi, bu uning mazmuni jihatidan hamma vaqt uchun bir xil bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun har bir tarixiy davr ta’lim, tarbiya va o‘qitishda o‘z mazmunini talab qilgan va talab qilishda davom etmoqda.

Geoaxborot tizimlari (GIS texnologiyalari), geografik axborot tizimlarining paydo bo‘lishi XX asrning 60-yillari boshlariga to‘g‘ri keladi. Aynan o‘sha paytda geografik makonni modellashtirish va muammolarni hal qilish bilan bog‘liq faoliyat sohalarini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish uchun zarur sharoitlar paydo bo‘ldi. GIS texnologiyasi o‘quvchilarga turli xil geografik xaritalar ko‘nikmalarini beradi va an'anaviy maktabdan raqamli maktabga o‘tishga yordam beradi, bu erda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ta’lim natijalariga erishiladi. U kartografik bilim va ko‘nikmalarning asosiy rolini ta’kidlaydi va o‘quvchilar tomonidan maktab geografiyasining mazmunini o‘zlashtirish xususiyatlarini aks ettiradi.

Geografik ta’limni rivojlantirish jarayonida GIS texnologiyalari ma’lumotni idrok etish uchun qulay shaklda taqdim etishga imkon beradigan zamonaviy vositalar sifatida belgilanadi. Sun'iy intellekt, virtual haqiqat, bulutli xizmatlar, QR kodlari va boshqaruv

panellari kabi raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha jabhalarida faol ravishda amalga oshirilmoqda. Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida bu davr birinchi navbatda kompyuterlashtirishda, so‘ngra hayotimizni axborotlashtirish, shu jumladan ta’lim bilan bog‘liq sohalarda muhim ahamiyatga ega.

Raqamlashtirish ta’lim jarayonining ajralmas qismidir. Raqamlashtirish elektron ta’limni tashkil etish va uning ta’lim tashkilotlarida ishlashi bilan bog‘liq. Davlat ta’lim standarti talablariga muvofiq, axborot ta’lim muhiti ochiq pedagogik tizimni anglatadi, shu jumladan axborot ta’lim resurslari, shu jumladan raqamli ta’lim resurslari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining texnologik vositalari to‘plami: kompyuterlar, boshqa AKT uskunalari, aloqa kanallari, ta’limni ta’minlaydigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimi.zamonaviy axborot va ta’lim muhiti tushuniladi.

Raqamlashtirish bilan bog‘liq jarayonlar maktab geografik ta’lim tizimida ham faol rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan maktab geografiyasining tarbiyaviy ahamiyati va roli inson turli maqsadlarda foydalanadigan ma’lumotlarning aksariyati makon bilan bog‘liqligi bilan belgilanadi. Bu atrofdagi dunyoning global, mintaqaviy va mahalliy xususiyatlarini o‘rganish va tushunish, fazoviy farqlash va ushbu makonda rivojlanayotgan voqealar va jarayonlarning integratsiyasi muhimligini aks ettiradi. Geografiya sohasida qonuniyatlarni aniqlash va axborot jarayonlarini tashkil etishning turli darajalarida rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish zarurati geografiya fanida GIS - geoaxborot tizimining paydo bo‘lishiga yordam berdi.

Geoaxborot tizimlari (GAT) rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kompyuter mutaxassislari va kartograflar o‘z kuchlarini birgalikda texnikaviy masalalami yechishga qaratgan edilar. Bu texnologiyalar bir nechta asosiy fanlarga tayandi. O‘tgan davr mobaynida ko‘plab fundamental savollar yuzaga keldi va ular javobini topishga harakat qilindi. Turli xil geoaxborot tizimlari yaratilar ekan, ulami bir biri bilan bog‘lash muammosi, turli xil ma’lumotlarni tartibga keltirish, ma’lumotlar bazalari va raqamli ma’lumotlaming tuzilishi va aniqligi, ma’lumotlar almashuvi kabi masalalami ko‘rib chiqish va nazariy nuqtai nazardan tushuntirish lozim bo‘ldi.

Geoaxborot texnologiyalari xaritalardan olingan katta hajmdagi ma’lumotlarni boshqarish va ular orqali tabiat va jamiyatni o‘rganish uchun tuzilgan edi. Zamonaviy geoaxborot tizimlari yordamida bajariladigan ishlar kundan-kunga oshib bormoqda. Bu vaziyatda ko‘p olimlar geoaxborot nima, geoaxborot fanining vazifalari nima, uning yordamida qanday masalalar yechilishi mumkin, degan savollami hanuz o‘rtaga tashlamoqdalar.

Geoaxborot tizimlari va texnologiyalarining rivojlanishiga, bir tomondan, fan va texnika yutuqlari, ikkinchi tomondan, Yerni o ‘rganuvchi fanlar, shu jumladan, geodeziya, geografiya, geologiya, kartografiya fanlarining nazariy va amaliy izlanishlari ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlar tez sur’atda rivojlanmoqda. Mazkur darslik faqat boshlang‘ich ma’lumotlarni yoritib, umumiy nazariy masalalar qatori ulaming amaliy yechimini ko‘rsatadi. Eng muhim savol ushbu tizimlaming kelajagi va istiqbollari bormi?

Bugun ular kuchli qurol bo‘lib, geografik ma’lumotlarga asoslanib, hududiy rivojlanishni boshqarishda, tabiiy boyliklardan foydalanishda ulaming ahamiyati katta. Xarita tuzish bilan chegaralanmasdan ular tadqiqot va boshqarish unumdorligini oshiradi. Geoaxborot tizimlarining rivojlanishi, asosan, ma’lumotlar, texnikaviy vositalar va dasturlarga bog‘liq bo‘lgan va kelajakda ham bog‘liq bo‘ladi. Ma’lumotlar turlari va ulami to‘plash yo‘llari ko‘payib bormoqda, ular to‘liqlik, aniqlik, batafsillik, zamonaviylikka ko‘ra takomillashib bormoqda.

Mamlakatimizda dolzarb muammolardan biri - shunday ma’lumotlarni yaratish, alishuv standartlarini barpo etish va ma’lumotlami tarqatish muammosidir. Geoaxborot va

geopozitsionli tizimlar birgalikda qo‘llanilishi sababli ma’lumotlami to‘plash tezligini, ulaming aniqligi va ish unumdorligini oshirishning yangi imkoniyatlari yaratilmoqda.

Texnikaviy vositalaming takomillashitrilishi, o‘z navbatida geoaxborot tizimlarining unumdorligini oshirishga olib kelmoqda. Oxirgi 10 yil ichida Internet, uyali aloqa, kompyuterlar va ma’lumot tashuvchilarning texnikaviy imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi. Bunga bog‘liq holda dasturlash, ma’lumotlami boshqarish va yangi geoaxborot tizimlarining turlarini yaratish yo‘llari ko‘payib bormoqda. Intemetdan geografik ma’lumot tarqatish va tegishli maslahat berish imkoniyatlaridan hali to‘liq foydalanilmagan va bu vazifa o ‘z yechimini kutmoqda.

Dasturlash sohasida yangi usullar va uslubiyatlar rivojlanib, shaxsiy kompyuterdan foydalanuvchining “hayotini” osonlashtirish maqsadida grafika intyerfeysi va menyulaming xilma-xilligi oshmoqda. Geoaxborot tizimlarida vektorli va rastrli ma’lumotlami birgalikda qayta ishlash imkoniyatlari ko‘paymoqda. Geoaxborot fani rivojlangani sari geoaxborot tizimlari yordamida yechiladigan vazifalar murakkablashmoqda va shu sababli “Fazoviy bog‘langan ijtimoiy fanlar” kabi yangi ilmiy yo‘nalishlar vujudga kelmoqda.

Geoaxborot tizimida saqlanadigan axborotning xususiyatlari Haqiqatning murakkabligini e’tiborga olsak, barcha mavjud axborotni saqlash muammosi yuzaga chiqadi. Geoaxborot tizimlari hududiy yoki fazoviy ma’lumotlar orqali dunyoni o‘rganishga yordam beradi. Demak, geoaxborot tizimidan foydalanuvchida ma’lumotlar bazasi asosida Dunyo to‘g‘risida tasawur hosil qilinadi. O‘lchash natijalari va ma’lumotlar bazasidagi axborot iloji boricha to‘liq va aniq bo‘lish shart.

Ma’lumotlar bazasidagi hududiy axborot shunday xususiyatlarga ega:

1. U haqiqiy obyektlaming raqamli tasviri.

2. U sun‘iy obyektlaming raqamli tasviri.

3. Ma’lumotlar bazasi maqsadi uchun yaratilgan sun’iy obyektlar (piksellar)dan iborat. Uzluksiz hodisalami (masalan, havo harorati, balandliklar, geologiya qatlamlari, tuproqlar va h.k.) ma’lumotlar bazasida saqlash uchun o‘lchash ishlari bajariladi va shunday savollar tekshiriladi:

1. Nuqtada (gidro-, meteo- postlarda) ma’lumot kuzatilganda nuqtalar orasida nima bor va uni Qanday qilib hisoblasa bo‘ladi?

2. Chiziq bo‘yicha ma’lumot kuzatilsa, uning orasida nima bor va bu ma’lumot qanday hisoblanadi?

3. Joyni qismlarga bo‘lib, har bir qismdagi hodisa o‘zgarmas deb hisoblanadimi va u chegarada nima bor?

Misol uchun tuproqlar xaritasi tuzilganda shunday savollaming ko‘tarilishi tabiiy. Chegaralami o‘tkazish natijasida diskretli obyektlar yaratiladi va ular nuqta, chiziq, noreal sifatida qabul qilinadi.

Ushbu usullar ikki xil bo‘ladi:

a. rastrli yoki tekis joylashgan nuqtalardan iborat;

b. bir xil kattalikdagi zonalardan iborat. Bu usullar - approksimatsiya va haqiqatning faqat ayrim tomonini bildiradi.

Hududiy axborot 3 o‘lchovli, ya’ni:

- fazoni bildiradi va bu axborot nuqtadan nuqtagacha o‘zgaradi;
- vaqtni bildiradi va bu axborot vaqt mobaynida o‘zgaradi;
- mavzuni bildiradi va turli ko‘rsatkichlar alohida saqlanib, turli qatlamlami yuzaga keltiradi.

Hodisani o‘rganishda esa birorta o‘lchov o‘zgarmas deb faraz qilinadi. Misol uchun, aholini ro‘yxatga olishda ayrim yil uchun u o‘zgarmaydigan deb hisoblanadi va noreallar uchun birorta ko‘rsatkich (masalan, daromad, ishsizlik) aniqlanadi.

Bunday xususiyatlami e’tiborga olgan holda ma’lumotlar bazasi yaratilishida ikki yondashuvdan foydalaniladi:

1. Geografik joylashuvi o‘zgarmaydigan deb qabul qilinadi, vaqt esa o‘zgaruvchan deb faraz qilinadi.

2. Vaqt o‘zgarmaydi, joylashuvi esa o‘zgaradi.

Ma’lumotlar bazasidagi atributlar nima? Ularning izohi quyidagicha:

• mavzuli o‘lchovi - xaritada ko‘rsatilgan obyektlaming turli ko‘rsatkichlari; ular atributlar jadvalida saqlanadi;

• har bir ob’yekt to ‘ g‘risidagi ma’ lumot j advalning qatoridir;

• har bir ko‘rsatkich esa jadvalning ustunida beriladi;

• jadvalda mavzuli va fazoviy o‘lchovlar saqlanadi. Geoaxborot tizimida saqlanadigan axborotning xususiyatlari. Haqiqatning murakkabligini e’tiborga olsak, barcha mavjud axborotni saqlash muammosi yuzaga chiqadi. Geoaxborot tizimlari hududiy yoki fazoviy ma’lumotlar orqali dunyoni o‘rganishga yordam beradi.

Xulosa: Geoaxborot fani, geoaxborot tizimlari va texnologiyalari hamda geoaxborotni topib berish tizimlari va texnologiyalarining rivojlanishida bir nechta bosqich mavjud va bu ilmiy hamda amaliy yo‘nalishning kelajagiga Siz ham o ‘z hissangizni qo‘shasiz deb o‘ylaymiz. Bu sohani rivojlantirish orqali Vatanimiz ham yuqori darajadagi axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan ilg‘or davlatlar safida o‘ziga munosib o ‘rinni egallab turibdi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Novenko, D.V., Jeleznyakov, A.V. va boshqalar.umumta’lim maktabida geografiyani o‘qitish jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan va raqamli geografik xaritalar bilan ishlash uchun dasturiy vositani, raqamli geografik xaritalar to‘plamini va Yerning sun'iy yo‘ldoshlaridan olingan rasmlarni o‘z ichiga olgan axborot geokompleksi. Uslubiy tavsiyalar [matn] / A. V. Zheleznyakov, D. V. Novenko va boshqalar - M. 2008. 78 s.

2. Paul A. Longlev, Michael F. Goodchild, David J Maguire, David W. Rhind. 2015.

3. GIS Fundamentals: A First Text on Geographic Information Systems (4th Edition), 188-206 pp.

4. Ergashev, Nuriddin. "Ergashev Nuriddin G’ayratovich N. G’. Ergashev, A. O’. Shukurov. SN Siradjev. Raqami axborot texnologiyalari. O ‘quv qo ‘llanma. Intelekt, Qarshi 2023. 220-b.: N. G’. Ergashev, A. O’. Shukurov. SN Siradjev. Raqami axborot texnologiyalari. O ‘quv qo ‘llanma. Intelekt, Qarshi 2023. 220-b." *E-Library Karshi EEI* 1.01 (2023).

5. Shukurov, A. U. "Didactic opportunities for the introduction of cloud technologies". *Electronic journal of actual problems of modern science, education and training* 10.2 (2021): 29-35.

6. Razzoqovich T.S., and S.A.Uktamovich. "IMPROVING THE LEARNING PROCESS AND INFORMATION LEARNING SPACE USING GOOGLE'S CLOUD SERVICES International conference on multidisciplinary research and innovativ." (2021).

7. Shukurov, Akmal. "THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN." *Models and methods in modern science* 1.18 (2022): 35-38.

8. Uktamovich S.A. "Specific Aspects Of The Methodology For Using Cloud Technologies In Virtual Education. Eurasian Scientific Herald 13, 47-54." (2022).

9. Uktamovich, S.A. "STAGES OF DEVELOPMENT, DIRECTIONS AND COMPARATIVE ANALYSIS OF CLOUD TECHNOLOGIES European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8 (12)." (2020).

10. Uktamovich, S.A. "Stages of development of cloud technology in education Eurasian Scientific Herald 5, 48-51. 2022."

11. Gayratovich, Ergashev Nuriddin, Shukurov Akmal Uktamovich, and Jabborov Elbek Erkin o'g'li. "Using the capabilities of modern programming languages in solving problems of technical specialties. academicia An International Multidisciplinary Research Journal. 2019. 686-696."

12. Uktamovich Shukurov Akmal. "Specific Aspects Of The Methodology For Using Cloud Technologies In Virtual Education". *Eurasian Scientific Herald* 13 (2022): 47-54.

13. Uktamovich, Shukurov Akmal. "STAGES OF DEVELOPMENT, DIRECTIONS AND COMPARATIVE ANALYSIS OF CLOUD TECHNOLOGIES." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol* 8.12 (2020).

14. Uktamovich, Shukurov Akmal, and Nekboyev Xurshid Xoliyorovich. "INCREASE IN ENERGY EFFICIENCY AND DATA CENTER EFFICIENCY WHEN SWITCHING TO CLOUD COMPUTING". *Intent Research Scientific Journal* 2.12 (2023): 100-105.

15. Uktamovich, Shukurov Akmal. "IMPROVING THE BASE TRAINING OF STUDENTS OF TECHNICAL OSMS BASED ON THE INFORMATION DESIGN APPROACH." *American Journal of Pedagogical and Educational Research* 18 (2023): 199-204.

16. Uktamovich, Shukurov Akmal. "OLIY TA'LIMNI BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TAKOMILLASHTITIRSH." *Наука и технологии* 1.1 (2023).

17. Uktamovich, Shukurov Akmal. "MODERN TECHNOLOGIES FOR THE CREATION OF INFORMATION SYSTEMS (GAT TECHNOLOGIES, WEB TECHNOLOGIES)". *Open Access Repository* 4.03 (2023): 16-21.

18. Uktamovich, Shukurov Akmal. "Specific Aspects Of The Methodology For Using Cloud Technologies In Virtual Education". *Eurasian Scientific Herald* 13 (2022): 47-54.

19. Shukurov, Akmal. "ITS FEATURES AND USE IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF WEB-TECHNOLOGIES." *ПЕДАГОГИКА И ПСИХОЛОГИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ*. 2021.

20. ШУКУРОВ, Акмал. "БУЛУТЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВОСИТАЛАРИ ЁРДАМИДА ВИРТУАЛ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ." http://science. nuu. uz/uzmu. php.

ФОРМИРОВАНИЕ КАРТОГРАФИЧЕСКИХ УМЕНИЙ ШКОЛЬНИКОВ 34-ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ ТАЙЛЯКСКОГО РАЙОНА САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ ПРИМЕНЕНИЕМ ГИС-ТЕХНОЛОГИЙ

Тожиева С.А.

Самаркандский государственный университет им.Ш.Рашидова, Самарканд, Узбекистан

Аннотация. *Главная задача приобщение школьников к творческой деятельности посредством самостоятельного изучения нового учебного материала, которое складывается из изучения фактов, предположения о существовании причинных связей, проверки и обоснования их правильности с помощью ГИС геоинформационных технологий.*

Ключевые слова: *(ГИС) геоинформационная система, картография, география, методика, технология, организация, легенда карты.*

FORMATION OF CARTOGRAPHIC SKILLS SCHOOLCHILDREN OF UZBEKISTAN USING GIS TECHNOLOGIES

Tojiyeva S.A.

Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan

Abstract: *The relevance of the program for teaching cartographic literacy is determined by the goals of modern education, aimed at developing not only the knowledge and skills of students, but also the experience of creative activity of students, as well as meta-subject and personal results.*

Keywords: *(GIS) geographic information system, cartography, geography, methodology, technology, organization, map legend.*

Введение. Информация и знания играют все большую роль в жизни современного человека. Без них невозможно достигнуть профессионального успеха и личностного роста. Основными инструментами информатизации являются информационно - коммуникационные технологии: компьютерная техника, Интернет, различные программные средства. Основной проблемой информатизации является подготовка детско-взрослого сообщества к жизни в условиях информационного общества, повышение его информационной культуры, овладение компьютерной грамотностью. Современный этап развития образовательной системы сопровождается переосмыслением целей образования, изменение и уточнение которых влечет за собой преобразование содержательных компонентов.

Карта – это объект первостепенной значимости. За каждым географическим знаком стоит живая действительность, сложная и интересная. Необходимо основательное изучение географической карты. Ведь понимание и считывание с карты информации предполагает глубокие знания предмета. Уровень умений работы с картой у выпускников основной школы невысокий. Школьники не могут выбрать для ответа соответствующие карты, не умеют их анализировать, давать характеристики объектам и явлениям. Поэтому необходимо сформировать картографическое умения, позволяющие считывать информацию с карты, работать с легендой карты и довести до сознания школьников, что географическая карта - это язык географии. При работе картами, необходимо овладеть приемом чтения условных знаков и знать правила их чтения карт. Для этого создается инструкция-правила, помешенная на доске в классе, при помощи которой обучающиеся знакомясь с новой картой могут дать краткую характеристику картам, назвать масштаб, условными обозначениями обозначающие отдельные объекты на карте.

Основная часть. Основной принцип обучения - наглядность. Это данные ярких образов, представлений способствующих усвоению знаний. Процесс познания не ограничен зрительным образом действительности и восприятием, картины, условной схемы. Мышление, устанавливая свойства, отвлекает от конкретных образов, внутренние и внешние связи объекта или явления с другими объектами или явлениями, вскрывают стороны, которые непосредственно зрительно не воспринимаются. При этом значительная ступень познания строится на законах реально воспринимаемого мира. Соединяясь с мышлением, активизирует и конкретизирует его. Традиционным средством обучения географии являются картины - обобщенное воспроизведение реальных объектов, подчеркивающее главные признаки объекта, явления, позволяющее получить достоверную информацию о типичных признаках и особенностях предмета, и сравнительно легко отделить главное от второстепенного. Они могут быть использованы в разных дидактических целях: при изучении нового материала, его повторении и закреплении, а также для проверки уровня освоения учащимися полученных знаний [1].

Возможности ГИС-технологий очень обширны. Тематические карты имеют набор тематических слоев, которые легко убираются и добавляются в зависимости от поставленных целей. Кроме применения готовых карт и слоев, программа позволяет редактировать их и создавать новый продукт. Инструментарий включает в себя

операции по проведению различных расчетов, построению картограмм, картодиаграмм, т.е. обладает инструментальными средствами для работы статистических данных. Большинство школ Самаркандского района имеют оборудование, позволяющее применять данные технологии, но для более обширного применения на уроках географии цифровых карт необходим компьютерный класс, но проблему в образовательном процессе наличие компьютерного класса не решает. Главным препятствием для таких видов деятельности, является неготовность учителя к применениям современных технологий, в том числе и ГИС.

На уроках географии преобладают три формы организации учебной деятельности: фронтальная, индивидуальная и коллективная. Наиболее широкое применение нашла фронтальная работа. Форма организации отличается тем, что учитель ведет работу со всем классом одновременно, применяя различные методические приемы, при этом все выполняют единое задание. Индивидуальные особенности учитывать приходится очень редко. Важная проблема состоит в обеспечении устойчивого внимания, поддержки интереса к изучаемому материалу в течение всего урока. Очень важна индивидуальная форма работы, но её использование затруднено большой численностью детей в классе, содержанием предмета. При индивидуальной работе нужно учитывать индивидуальные особенности у школьников. Для успешной организации индивидуальной работы используется раздаточный дидактический материал. Обычно, эти два вида применяются в сочетании или последовательно.

Рис.1,2. Работы с географической картой в школе.

Так, обычно после выполнения самостоятельных или практических работ организуется их фронтальное обсуждение. Важное значение имеют коллективные формы работы, формирующие умения сотрудничать и рационально организовывать совместный труд. В коллективных формах работы организация учебной деятельности предполагает разделение труда [2].

Одной из технологий исследовательской деятельности учащихся в школе и развития у них интереса к обучению и формированию географического типа мышления является картографический метод. Для школьной практической, исследовательской, олимпиадной деятельности при изучении географии географическая карта является одним из важнейших источников информации. Работа с географической картой в школе выступает как один из основных методов получения школьниками информации. Школьная географическая карта - средство обучения и предмет для исследования, но использование карт в школьном обучении обязательно должно быть увлекательным, интересным и разнообразным. Тогда и только тогда можно достичь высоких результатов в изучении географии, сформировать самостоятельную личность. Карта, при умелой работе с ней, выступает не только в роли богатого и разнообразного источника знаний, но и стимулятора умственного развития школьников [3]. Сложно переоценить значимость олимпиадных работ - это отличный способ мотивации обучающихся, развития их познавательного интереса и интеллектуальных способностей. Разработанный вариант олимпиадной работы по географии может быть

применена в учебном процессе с целью разнообразия образовательного процесса, повышения интереса учащихся к картографии и изучению географии в целом, получения новых знаний, а также при проведении школьного этапа олимпиады по географии.

Информационные технологии на уроках географии призваны направить внимание учащихся не на изучение разрозненных географических фактов, объектов и явлений, а на овладение способами работы с географической информацией, на формирование собственной аргументированной позиции, а также способствует созданию обстановки психологического комфорта. Активное использование новых информационно-коммуникативных технологий позволяет формировать специальные навыки у учащихся с различными познавательными способностями, делать уроки наглядными, эффективными, а что самое главное, формирует ключевые компетенции у учителя [4].



Рис.3. Физическая карта Узбекистана вид с помощью ГИС программы Google Earth [5].

Заключение. Использование ГИС значительно повышает мотивацию обучения, способствует активному внедрению современных педагогических технологий, развитию интегрированного подхода, продуктивному обучению в деятельности, и, в конечном счете, саморазвитию. В ходе исследования была изучена психолого-педагогическая и методическая литература, систематизированы знания о ГИС в учебно-воспитательном процессе. Изучена методика применения ГИС. Проведённое анкетирование позволило с уверенностью говорить, что большинство школ Самаркандского района готово использовать ГИС но не в полном условии на уроках географии, в случае проведения обучения или курсов по подготовке поданной тематике. Причин, по которым учителя не готовы использовать несколько: недостаточное техническое обеспечение школ и неготовность учителей-географии работать с ГИС, о которой говорилось ранее. В процессе работы было проведено экспериментальное обучение, в результате которого была доказана эффективность методики применения ГИС при формировании картографических умений школьников на уроках географии. Были применены различные методы работы на уроках которые показаны на рис1.

Список использованных источников:

1. Абрамов Л.С. Информационная функция географии. // География в школе. - 1998 - №5.
2.https://core.ac.uk/download/162320292.pdf

3. Баринов А.С., Суслов В.Г. Компьютерные Издательский дом «Генжер»,2014.
4. Антонова Л. В. Удивительная география. - М.: ЭНАС, 2009.
5. https://WorksPay.ru

QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISHDA GIS TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Qo‘chqorova G.Sh., Safarova N.S.
Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston.

Annotatsiya: *Mamlakat qishloq xo‘jaligini jadal rivojlanishi mazkur sohadagi mavjud barcha yerlardan oqilona foydalanishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, yer munosabatlarini tartibga solish, shuningdek sohaga zamonaviy texnologiyalarni hamda yer resurslarini hisobga olishning yangi uslublarini joriy etish va yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish muammolarini aniqlash, ularning echimini topish, ushbu yo‘nalishdagi mavjud imkoniyatlar va istiqbollarni belgilab olish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.*

Kalit so‘zlar: *Elektron xaritalar, geoaxborot tizimi, Ayero yoki kosmo surat, qishloq xo‘jaligi yerlari, landshaft kartalari, foydali qazilmalarni qidiri, geokimyoviy kartalarini, sintetik metod, topoelementlar, Kameral ishlar, shartli belgilar.*

ЗНАЧЕНИЕ ГИС-ТЕХНОЛОГИЙ В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОМ ЗЕМЛЕПОЛЬЗОВАНИИ

Қўчқорова Г.Ш. Сафарова Н.С.
Каршинский государственный университет, Карши. Узбекистан.

Аннотация: *Бурное развитие сельского хозяйства страны требует рационального использования всех имеющихся земель в этой сфере. Сегодня организация рационального и эффективного использования земель, регулирование земельных отношений, а также внедрение современных технологий и новых методов учета земельных ресурсов на местах, выявление проблем повышения эффективности землепользования. , поиск их решения, определение имеющихся возможностей и перспектив в этом направлении остается одной из актуальных задач современности.*

Ключевые слова: *Электронные карты, геоинформационная система, аэро- и космическая съемка, сельскохозяйственные угодья, ландшафтные карты, разведка полезных ископаемых, геохимические карты, синтетический метод, топоэлементы, операторские работы, условные знаки.*

THE IMPORTANCE OF GIS TECHNALOGIES IN THE USE OF AGRICULTURAL LAND

Qo‘chqorova G.Sh., Safarova N.S.
Karshi State University, Karshi, Uzbekistan.

Abstract: *The rapid development of the country's agriculture requires the rational use of all available land in this area. Today, the organization of rational and efficient use of land, the regulation of land relations, as well as the introduction of modyern technologies and new methods of accounting for land resources in the field, and the identification of problems of increasing the efficiency of land use, finding their solutions, detyermining the available opportunities and prospects in this direction remains one of the urgent tasks of today.*

Key words: *Electronic maps, geoinformation system, ayerial and space photography, agricultural land, landscape maps, prospecting for minyerals, geochemical maps, synthetic method, topoelements, camyera work, conventional signs.*

Qishloq xo‘jaligi yerlaridan oqilona foydalanish va ularni monitoring qilishda elektron xaritalarning ahamiyati katta. Shu boisdan, elektron xaritalarni yaratish va ularni yangilash bo‘yicha sohaga kirib kelaètgan yangicha ilg‘or texnologiyalar, jumladan yuqori aniqlikka ega bo‘lgan kosmosuratlar, elektron raqamli xaritalarni yaratish bo‘yicha zamonaviy dasturiy ta’minotlarga asoslangan holda elektron raqamli xaritalarni yaratish va yangilash ishlari olib borilmoqda. GIS tizimlari turli manbalardan, jumladan, GPS qurilmalari, UAV (dronlar) va ijtimoiy tarmoqlardan ma’lumotlarni yig’adi, hamda, GIS tizimlari ma’lumotlarni strukturalangan formatda saqlash imkonini beradi, bu esa tezkor va samarali ma’lumotlarni tahlil qilishni ta’minlaydi. GIS yordamida ma’lumotlarni tahlil qilish, masalan, harakatlarning, oqimlarning va joylashuvlarning modellarini yaratish imkonini beradi. GIS tizimlari xaritalar, grafiklar va diagrammalar yordamida ma’lumotlarni vizual tarzda taqdim etadi, bu esa qaror qabul qilish jarayonini osonlashtiradi.

Hozirgi kunda geoaxborot tizimi (GAT) texnologiyalari jadal sur’atlar bilan rivojlanib borishi natijasida u nafaqat texnik sohalarda, balki haètimizning turli sohalarida ham qo‘llanib kelinmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi yerlarining elektron xaritalarini yangilashda zamonaviy GAT texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir [1].

Elektron xaritalarni yangilashdan maqsad yerdan foydalanuvchilar tomonidan foydalanilaètgan yerlarning xozirgi kundagi (zamonaviy) holatini aks ettiruvchi yangilangan elektron raqamli xaritalar va yer maydonlarini yer turlari bo‘yicha hisoblash qaydnomalaridan davlat yer kadastrini yuritish, yer munosabatlarini tartibga solish, yer tuzishning hududiy xo‘jaliklararo va ichki loyihalarini tuzish, tabiiy landshaftlarni yaxshilash, topografo-geodezik, kartografiya, tuproq agrokimyosi, geobotanika,qishloq xo‘jaligi ekinlarining monitoringi, yer tanlash va ajratish hujjatlarini rasmiylashtirish, irrigatsiya va melioratsiya, tarixiy-madaniy va boshqa yo‘nalishlarda tekshirishlar va izlanishlar ishlarini olib borishda foydalaniladi. Elektron xaritani yangilash jaraènida avvalgi yillarda yaratilgan elektron xaritani oxirgi marta suratga olingan ayero yoki kosmo suratdagi holatga solishtirib, avvalgi elektron xaritada aks etmagan barcha o‘zgarishlar yangilanaètgan elektron xaritada aks ettiriladi. Ayero yoki kosmo suratda aks etmagan holatlar dala sharoitida ko‘rib chiqilib, qo‘shimcha ravishda yangilanaètgan elektron xaritaga kiritiladi. Elektron xaritani yangilash ishlari barcha yer turlarida, tashkilot, o‘quv, shirkat, yordamchi, dexqon va fermer xo‘jaliklarida, davlat yer zaxirasida, o‘rmon va suv fondi, barcha yerdan foydalanuvchilar, tuman, viloyat hududlarida bajariladi.

Yangilangan elektron xaritadagi holat dala sharoitida ko‘rib chiqiladi, ayerosuratda aks etmagan biroq joyida mavjud bo‘lgan, ma’lumotlar aniqlanib, joylardagi konturlarni tegishli shartli belgilar asosida o‘zgartirish kiritiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki respublikamiz hududida qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish va ularni elektron xaritalarini yaratish va yangilash ishlarini olib borish, yerlardan samarali va maqsadli foydalanishni tashkil etish hamda ma’lumotlar bazasini to‘liq shakllantirilishida zamonaviy GAT texnologiyalarini qo‘llash samarali natija beradi. [5; 291-b]

Yer egalari va yerdan foydalanuvchilar chegaralarini to‘g‘ri aniqlash elektron xaritani yangilashning eng asosiy elementlaridan biridir. Kameral ishlarni boshlashdan oldin ishlash obyekti (shirkat xo‘jaligi) hududidagi (fermer xo‘jaliklarining chegarasidan tashqari) barcha yer uchastkalari chegaralari elektron tarxga tushirildi. Shu bilan birga, tegishli yer tuzish hujjatlari bilan faqat yuridik huquqi rasmiy tasdiqlangan, texnik jihatdan to‘g‘ri rasmiylashtirilgan hujjatlardan olingan chegaralar tarxi asosida tushirib olinadi[2].

Elektron xaritani yangilash davrida chegara belgilari va chegarani chiziqli shakllari oldindan tarixiy hujjatlarda aks ettirilgan tabiiy topoelementlar bilan solishtirib tekshiriladi. Agarda, xo‘jalik chegarasida topoelementlar bo‘lsa, ular ayni tabiiy holi bo‘yicha elektron xaritaga tushiriladi. Yangilanayotgan elektron xaritalar dala sharoitida quyidagi tartibda

ko‘rib chiqiladi va o‘zgartirish kiritiladi: ishni bajaruvchi tashkilot vakili tomonidan yangilangan elektron xaritani dala sharoitida ko‘rib chiqib, elektron xarita hamda ayero yoki kosmo suratda aks etmagan holatlar tushirib olinadi hamda elektron xaritada aks ettiriladi.

Yangilangan va dala sharoitida solishtirish yo‘li bilan tekshirib olingan elektron xarita yer maydonlarini hisoblash qaydnomalarini yaratishga asos bo‘ladi. Yuqoridagi elektron xaritalarda joyning avvalgi xolati va xozirgi kundagi yangilanishi talab etilayotgan holat aks ettirilgan. Xususan Xorazm viloyatining dehqonchilik tarmoqlarini kartaga olish orqali yerlardan oqilona foydalanish va tarmoqlarni to‘g‘ri joylashtirishga yordam berish kabi muammolarni o‘rgangan [4; 2-b]

Yer resurslari xaritalari ko‘pchilik qishloq xo‘jaligi xaritalari uchun asosiy manba bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirishda, yerdan foydalanishda, chorvachilikda yaylovlarni tasvirlashda asos bo‘lib xizmat qiladi[2].

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki respublikamiz hududida qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish va ularni elektron xaritalarini yaratish va yangilash ishlarini olib borish, yerlardan samarali va maqsadli foydalanishni tashkil etish hamda ma’lumotlar bazasini to‘liq shakllantirilishida zamonaviy GAT texnologiyalarini qo‘llash samarali natija beradi. Bu o‘z navbatida foydalanuvchilarga ma’lumotlarni tezkor va sifatli holda etkazish imkonini beradi. So‘ngi yillarda landshaft kartalaridan qishloq xo‘jalik tarmoqlarida amaliy foydalanishning birqancha yangidan-yangi metodlari mavjud. Bu kabi metodlardan biri - foydali qazilmalarni qidirishda landshaft kartalaridan foydalanish hisoblanadi. Bunday holatda landshaft kartalari aynan landshaft – geokimyoviy kartalarini tuzishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ularning asosiy mazmunini ayrim geokimyoviy ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirilgan turli landshaft tiplarining konturlari tashkil etadi. M.A.Glazovskaya [3; 3-162 b.] Bu esa o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi yerlarining kimyoviy holatini o‘zgarishini baholashga imkoniyat yaratadi. Qashqadaryo viloyatining qishloq xo‘jaligi yerlari GIS texnologiyalari yordamida foydalanib xaritalashtirish ishlari amalga oshirish jarayonini tatqiq etar ekanmiz. Qishloq xo‘jaligi landshaftlarining komplekslarini tadqiq etishda va kartalashtirishda bir qancha GIS metodlardan foydalaniladi. Eng asosiylari: analitik va sintetik metodlardir. Birinchi metodimizda, landshaft kompleksining xususiyatlari bir vaqtning o‘zida uning alohida komponentlari – tuprog‘i, suv, relyefi, o‘simligi va boshqalarini bitta kartada tasvirlash yo‘li orqali ochib beriladi. Ikkinchi sintetik metodda esa landshaft kompleksi (qishloq xo‘jaligining malum bir turi) va uning tipologik o‘xshashligi tasvirlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Safarov E.Y. Geografik axborot tizimlari. - Toshkent, Universitet, 2010.

2. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to‘g‘risida Milliy hisobot. - T.: Yergeodezkadastr, 2019. - 60 b.

3. *Глазовская М. А. Геохимические основы типологии и методики исследований природных ландшафтов. -М.: МГУ, 1964. –162 с.*

4. *Sadullayeva Nodira Umirbek qizi. Allanazarov Doniyor Yakub o’g’li “qishloq xo’jalik tarmoqlarini kartaga olishni masalalari”*

5. Egambyerdiev A., Ibragimov J.K., Mo‘minov A.A. “qishloq xo‘jaligi yerlarining elektron xaritalarini yangilashda zamonaviy geoaxborot tizimi (gat) texnologiyalaridan foydalanish “ O‘zbekiston Milliy universiteti 2020 y

5. “Geografiya o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar”. Mamatqulov M. “O‘zbekiston” – 2015

6. “Geografiya o‘qitish metodikasi”. Ahrorov I. “O‘qituvchi” – 2017

GIS-BASED ANALYSING OF ACCEPTABLE AREAS FOR SOLAR AND WIND ENERGY SOURCES IN SAMARKAND REGION, UZBEKISTAN

Khasanova M.U.
Samarkand State University named after Sharof Rashidov
Samarkand, Uzbekistan, e-mail: tempusrim64@gmail.com

Abstract. *This study provides analysis of the evolution of renewable energy (RE) use for electricity generation and the measures adopted to promote its use in transition economies. The RE installed capacity increased notably from 2019 to 2024, coinciding with the adoption of promotion measures. Feed-in tariffs (FITs) are the most used mechanism in force net metering has been introduced and tax in centives in four. Plus, tax incentives are also in place in the country. The study finds significant variances in the measures applied, and installed capacity improvements, by regions. All regions, have at least adopted one RE measure. Navoi Samarkand and Tashkent have reached peak their RE installed capacity. This study shows that the recent measures adopted seems to be having a positive impact on the capacity to generate electricity from RE [3].*

Чилучор Чашма («Сорок четыре родника») – так называется место в 12 км от поселка Шахритуз, очень известное во всем Таджикистане.Здесь прямо у подножия небольшого холма, посреди раскаленной пустыни, бьют из-под земли пять больших водных источников, распадающихся на 39 мелких. Все источники, сливаясь, образуют канал шириной 12–13 м, в котором обитает большое количество рыб. Местность Сари Хосор расположена в отрогах горного хребта Вахш, в верховьях реки Сурхоб, примерно на высоте 1200-1600 метров над уровнем моря. Это красивейший уголок Таджикистана. Джамоат селений Сари Хосор с административным центром Шахидон с 1996 года учрежден в составе Балджуванского района Хатлонской области. Сари Хосор богат рекреационными ресурсами. Здесь сохранились уникальные исторические и природные памятники, которые дают полное представление о жизни, быте, традициях и народных ремеслах жителей этого региона. Рельеф Сари Хосора очень сложный и своим разнообразием отличается от рельефа других регионов страны. Ландшафтное строение Сари Хосора составляют низкие горы, склоны гор и высокие горы. Большая часть рельефа этой местности средние горы, которые расположены на высоте 1200-1300 метров над уровнем моря. Промежуточная высота границ данной местности от

1200 до 3500 метров над уровнем моря, что свидетельствует о разнообразии экологии данной местности. Гидрографию Сари Хосора составляют реки Сурхоб, Тира, Оби Мазор, Шуробдарё и Шаршараи Пушти Бог. Название Сари Хосор имеет древнюю историю и содержит в себе очень много значений. По мнению местных жителей, Сари Хосор – это название одного из селений, которое расположено на возвышенности холма с белым песком, то есть «Сари Хоксор».

На юге Таджикистана расположено одно из самых древних мест – Долина Чилдухтарон, что в переводе означает «Долина Сорока Девушек». Согласно легенде, когда в долину пришли захватчики с намерением превратить девушек в своих наложниц, они стали молить Аллаха, чтобы он превратил их в каменные глыбы. Так образовалось сорок каменных глыб, расположенных одна за другой. С тех пор каждую весну местные жители украшают каменные глыбы цветами и ленточками. Здесь также множество петроглафов с самыми разными наскальными рисунками – от бытовых сцен до сцен охоты.Долина Чилдухтарон славится своими интереснейшими легендами и прекрасными пейзажами, что привлекает множество туристов.

Государственный природный заповедник «Дашти Джум» Расположен на южном склоне Дарвазского хребта, площадь 19,7 тыс. га. Заповедник был организован для сохранения последней на территории Центральной Азии полноценной и жизнеспособной популяции винторогого козла Мархура, а также среднеазиатского муфлона. Горные массивы Шурабада представляют собой живописные лесистые холма и в отдельных участках скалистые местности. Наиболее выраженной особенностью местности является наличие разнообразной флоры и фауны, а также уникальных ландшафтов. Особенной достопримечательностью региона является обитание здесь горных винторогих козлов, популяция и ареал которых в мире ограничен. Заповедник «Дашти Джум» постановлением Правительства Республики Таджикистан объявлен зоной туризма.

Заповедник «Зоркуль» - единственный заповедник на Памире, образован в 2002 году, расположен на высоте 4100 – 4200 м над уровнем моря. В зоогеографическом отношении относится к Центрально- азиатской области, охватывает окрестности и акваторию Памирского озера Зоркуль.

Озеро – пограничное, за ним к югу располагается территория Республики Афганистан, так называемый Афганский Бадахшан. В границах заповедника находится еще три сравнительно небольших озера под общим названием Чаканкули, которые протянулись по одному из ущелий Ваханского хребта. Верховье этого ущелья также относится к территории заповедника вплоть до пика Согласия, высота которого составляет около 6000 км.

Крыша Мира – именно так часто переводят название горной системы Памир. Памир – огромный горный узел почти в центре азиатского материка и тесно связан с другими высочайшими горными системами мира – Тянь-Шань, Каракорум, Гиндукуш, Гималаи. Горы Памира отличаются суровостью, большой высотой. Здесь расположено множество ледников, озер и рек. Условия для жизни очень суровые, и есть место для высокогорных пустынь, где преобладает полярный климат. На Памире находится несколько семитысячников. Именно здесь в центре высотного альпинизма величественно устремились в небо два памирских семитысячника: пик Исмоили Сомони (7495 м) и пик Евгении Корженевской (7105 м). Помимо этого, здесь можно увидеть множество гор выше 6000 метров.

Список литературы

1. Курорты Таджикистана. Душанбе 1976.
2. Диловаров Р.Д. Асосхои туризм. Душанбе 2013,
3. Министерства иностранных дел: www.mfa.tj

4. Комитета по развитию туризма : www.ctd.tj
5. www.pamirs.org
6. Материал с Комитетом по развитию туризма при Правительстве Республики Таджикистан.

BUXORO VILOYATIDA AGROTURIZM VA ETNOTURIZMNING RIVOJLANISHI

Mavlonov A.M.
Buxoro davlat pedagogika instituti
Buxoro, O‘zbekiston, e-mail: ahmadjonmavlonov1978@gmail.com

Annotasiya: *Mazkur maqolada Buxoro viloyatida agroturizm va etnoturizmning rivojlanishi va uning imkoniyatlari o‘rganilgan. Maqolada viloyatdagi agroturizm va etnoturizmning obyektlari va ulardagi shart-sharoitlar xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Turizm, agroturizm, etnoturizm, turistik obyektlar, turizm klasteri, “Sheyxan etno-markazi", turistik infrastruktura.*

РАЗВИТИЕ АГРОТУРИЗМА И ЭТНОТУРИЗМА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Мавлонов А.М.
Бухарский государственный педагогический институт
Бухара, Узбекистан, e-mail ahmadjonmavlonov1978@gmail.com

Аннотация. *В данной статье рассматривается развитие и возможности агротуризма и этнотуризма в Бухарской области. Также в статье рассматриваются объекты агротуризма и этнотуризма в регионе и их условия.*

Ключевые слова: *Туризм, агротуризм, этнотуризм, туристические объекты, туристический кластер, «Этноцентр Шейхана», туристическая инфраструктура.*

DEVELOPMENT OF AGRO-TOURISM AND ETHNO-TOURISM IN THE BUKHARA REGION

Mavlonov A.M.
Bukhara State Pedagogical Institute
Bukhara, Uzbekistan, e-mail ahmadjonmavlonov1978@gmail.com

Abstract: *This article discusses the development and possibilities of agrotourism and ethnotourism in the Bukhara region. The article also discusses the objects of agrotourism and ethnotourism in the region and their conditions.*

Key words: *Tourism, agrotourism, ethno-tourism, tourist sites, tourism cluster, “Sheikhan Ethnocenter”, tourism infrastructure.*

O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari juda katta turistik imkoniyatlarga ega. Bular orasida Buxoro viloyati o‘zining noyob arxitektura yodgorliklari, tarixiy obidalari, diniy ziyoratgohlar va boshqa diqqatga sazovor joylarni ko‘pligi bilan alohida ajralib turadi. Darhaqiqat, Buxoroning boy tarixi, betakror arxitektura yodgorliklari, madaniyati, olimu ulamolarining jahon sivilizasiyasiga qo‘shgan ulkan hissasi, o‘ziga xos tabiati va boshqa ko‘plab jihatlari tufayli yuksak turistik salohiyat shakllangan. Ayni vaqtda, viloyatda ziyorat, diniy, tarixiy, madaniy turizm nisbatan rivojlangan. Ammo, Buxoro viloyatida agroturizm va etnoturizmni ham istiqbollari katta.

Agroturizm Romitan, Buxoro, G‘ijduvon, Vobkent kabi tumanlarda nisbatan yaxshi shakllangan. Masalan, Romitandagi O‘zbekiston-Turkiya hamkorligida tashkil etilgan

“Varnet” ishlab chiqarish klasteri viloyatdagi agroturizmning eng yirik markazidir. Bugungi kunda “Varnet” qo‘shma korxonasida ichki turizm tobora kuchaymoqda. Unda kelgan kishi etishtirilayotgan noz-ne'matlarni tomosha qilishi, botanika bog‘ida sayr qilishi, ovqatlanish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Qolaversa, viloyatdagi ayrim tadbirlar ham “Varnet” ishlab chiqarish klasteriga o‘tkazilishi odat tusiga kirgan.

Shuningdek, Buxoro tumanidagi “Madaniyat” agroturizm klasteri ham viloyatda mashhur. Bu klaster Buxoro tumanida joylashgan M.Ahmedov nomidagi fermer xo‘jaligi negizida shakllangan. Mazkur klaster tashrif buyuruvchilarga ilg‘or fermer M.Ahmedovning 50 yillik fermerlik tajribasi tufayli qishloq xo‘jaligi yutuqlari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Sayyohlar agrobiznes bilan ham shug‘ullanishlari, qishloq aholisining turmush tarzi bilan tanishishlari, tabiiy meva va sabzavotlarni tatib ko‘rishlari mumkin [2].
Shunday bo‘lsada, viloyatda agroturizm etarlicha rivojlanmagan. Ayrim hududlar an'anaviy qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga ixtisoslashgan. Misol uchun Qo‘rg‘on (Romitan tumani) anjir va anorga, Jilvon (Shofirkon tumani) uzumga, Bog‘imuso (Peshku tumani) va Chelong‘u (Romitan tumani) sabzi, Buxoro tumani shahar atrofi qishloq xo‘jaligiga (sabzavot va ko‘katlarga) ixtisoslashgan. Mana shularni asos qilib, ushbu hududlarda sohalarga bag‘ishlab yarmarka va festivallarni tashkil qilib, ularga turistlarni taklif qilish yaxshi samara beradi. Bu esa o‘z navbatida tuman va shaharlarda ichki va tashqi turizmni rivojlantirilishiga rag‘bat beradi.

Buxoro shahri yaqinidagi Sheyxon mahallasida (Buxoro tumanida) namunaviy tipdagi “Sheyxan etno-markazi" tashkil etilgan [3]. Sheyxon qishlog‘i uzoq yillik tarixga ega. Qishloq aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanib kelgan. E'tiborli jihati shundaki, qishloqning o‘ziga xos tarixi, qadimiy inshootlari va milliy urf-odatlari hozirgi kunga qadar saqlanib kelinmoqda. Etnik qishloq turizm klasterini tashkil etishda qishloqda sho‘rdanak, quruq mevalar, milliy shirinliklar, poliz ekinlari va hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash jarayonlarining avloddan-avlodga o‘tib kelishi kabi qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq ayollari ushbu mahsulotlarni tayyorlashda har bir ko‘chadan bitta xonadonda yig‘ilishib qadimgi urf-odatlar, milliy kuy-qo‘shiqlarni ijro etib, laparxonlik, qadimgi rivoyatlar va an'analarni yosh avlodga yetkazish jarayonida mehnat qilishni odat tusiga aylantirishgan. Sayyohlar uchun qishloq turmush tarzini namoyish etish bo‘yicha qator shart-sharoitlar mavjud bo‘lib, hozirgi kunda mas'ullar zimmasiga namunaviy tipdagi etnoturizm markazi, qo‘shimcha turistik xizmatlarni tashkil etish va ushbu turizm qishlog‘i bo‘yicha 1-3 kunlik turistik paket ishlab chiqish kabi topshiriqlar yuklanib, tuzilgan rejaga binoan zaruriy choralar ko‘rildi.

Bundan tashqari, qishloq markazida supermarket, dorixona, go‘zallik saloni, axborot markazi, tikuv sexi, turoperatorlik ofisi, pochta xizmati, avia va temir yo‘l chiptalari kassasi, suvenir do‘koni, elektrotexnika buyumlari ustaxonasi, sartaroshxona, qandolatchilik va milliy shirinliklar tayyorlash sexi, oilaviy mehmon uyi, poyafzal ta'mirlash ustaxonasi, kiyim do‘koni, milliy choyxona, velosiped ijara markazi va nonvoyxonani o‘z ichiga olgan zamonaviy maishiy xizmat uyini qurish ham rejalashtirilgan.

Viloyatdagi etnoturizmning asosisy markazlaridan biri qadimiy G‘ijduvon shahridir. G‘ijduvon kulolchiligi qadimdan mashhur. Mazkur soha asosida shahardagi “Qo‘rg‘on” mahallasi hududida etnoturizmni yo‘lga qo‘yish mumkin. Shuningdek, Qadimgi “G‘ijduvon Qo‘rg‘oni”ning qadim davrlariga xos bo‘lgan maqom va folklor jamoalarining maktabini tashkil etish, holvapazlik va G‘ijduvon kulchasini pishirish hamda boshqa hunarmandlar jamoasini jalb etgan holda “G‘ijduvon kulolchiligi va pazandalari” festivalini yuqori saviyada o‘tkazish shaharda ichki va tashqi turizmni yanada taraqqiy etishiga olib keladi.

Shuningdek, hunarmandchilik yo‘nalishida Buxoro miniatyurasini rivojlantirish maqsadida «Buxoro ipak qog‘ozi» hunarmandchilik markazi, Buxoro shahrining «Arabon» ko‘chasida joylashgan XVI asrga tegishli qadimiy ob'ekt negizida umumiy qiymati 1,5 mlrd

so‘m bo‘lgan «Usto-shogird» miniatyura markazi tashkil etilgan. Bunday markaz Naqshbandiya nomi bilan Galaosiyo shahrida ham faoliyat olib bormoqda.
Yuqoridagilardan bilan birga, Kogon shahrida “Xalqlar do‘stligi”, Qorako‘l tumanida “Poykent oqshomlari”, G‘ijduvon tumanida kulolchilik va pazandalik, Shofirkon tumanida kashtado‘zlar va xalq o‘yinlari festivallari, Jondor tumanidagi Qizbibi ziyoratgohida “Varaxsha malikasi” qizlar ko‘rik-tanlovi, Vobkent tumanida asal sayli kabi tadbirlarni o‘tkazishda yetarli tajriba to‘plandi. Ushbu tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etilishi viloyatdagi shahar va tumanlarda agroturizm va etnoturizmni yanada rivojlantirishga turtki beradi.

Bundan tashqari, viloyatda 10 dan ortiq “turizm mahallasi” va “turizm qishloqlari”da bo‘lib, u yerda yaratilgan shart-sharoitlar va halqimizning boy milliy an'analari, urf-odatlari, hunarmandchilik namunalaridan bahramand bo‘lish mumkin [1]. Jumladan, bunday ishlarni Romitan tumanidagi “Qo‘rg‘on” va Vobkent tumanidagi “Shirin” turizm mahalla va qishloqlarida ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Buxoro viloyati katta turistik imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, viloyat tuman va shaharlari hali foydalanilmagan turistik imkoniyatlar bor. Ayni paytda, ularning ayrimlaridan turizmda, xususan ichki turizmda foydalanilmoqda. Ammo kelajakda turistik infrastrukturani yaxshilash orqali mazkur obyektlardan xalqaro turizm obyekti sifatida foydalanish imkoniyati bor. Buning uchun eng avvalo, mazkur turistik obyektlar to‘g‘risida dam oluvchilarga axborot beruvchi vositalarni ko‘paytirish hamda reklama, targ‘ibot – tashviqot ishlarini rivojlantirish kerak. Qolaversa, turistik obyektlar atrofida zamonaviy turistik infrastrukturani yanada yaxshilash turistlar oqimini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mavlonov A.M. Buxoro vohasi turizm va rekreatsiya geografiyasining amaliy masalalari. – Buxoro: Bukhara Hamid Print, 2023. 110 b.
2. Навруз-Зода Б.Н. Этапы формирования агротуристического кластера // Географические проблемы и возможности развития туризма и рекреации в Узбекистане. Материалы Международной научно-практической конференции. - Чирчик, 2019. стр. 131-134.
3. https://sputniknews.uz/20220919/buxoroda-yangi-turistik-markaz-ochildi--foto-28349862.html

ZIYORAT TURIZMINING KICHIK HUDUDLAR IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

To‘rayev Q.T.[1], Qurbonov Sh.B.[2], Shonazarova V.D.[2]
[1]Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston, email: turaevq@bk.ru
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston.
email: qurbonov1977@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada ziyorat turizmining kichik hududlar iqtisodiyotiga ta’siri Toshkent viloyati Zangiota tumanida joylashgan “Zangiota ziyoratgohi” majmuasi, shuningdek Surxondaryo viloyati Termiz tumanida joylashgan “Al-Xakim At-Termiziy ziyoratgohi” majmualari misolida ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ziyorat turizmi, diniy turizm, ziyoratgohlar, ziyoratgoh va qadamjolar, turistik obyektlar, ziyorat marshrutlari.*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В ЭКОНОМИКЕ МАЛЫХ ТЕРРИТОРИЙ

Тураев К.Т.[1], Курбанов Ш.Б.[2], Шоназарова В.Д.[2]

[1]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан, email: turaevq@bk.r
[2]Чирчикский государственный педагогический университет, г. Чирчик, Узбекистан.
e-mail: qurbonov1977@mail.ru

Аннотация. *В статье рассматривается влияние паломнического туризма на экономическое развитие малых территорий на примерах комплексов Зангиата, расположенного в Зангиатинском районе Ташкентской области, и Аль-Хаким Ат-Термизи, расположенного в Термезском районе Сурхандарьинской области.*

Ключевые слова: *паломнический туризм, религиозный туризм, святыни, места паломничества, туристские объекты, паломнические маршруты.*

ROLE AND IMPORTANCE OF PILGRIMAGE TOURISM IN THE ECONOMY OF SMALL TERRITORIES

Turaev K.T.[1], Kurbanov Sh.B.[2], Shonazarova V.D.[2]
[1]Termez State University, Termez, Uzbekistan, email: turaevq@bk.ru
[2]Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan.
e-mail: qurbonov1977@mail.ru

Abstract. *The article examines the influence of pilgrimage tourism on the economic development of small territories using the examples of the Zangiata complex, located in the Zangiata district of the Tashkent region, and Al-Hakim At-Termizi, located in the Termez district of the Surkhandarya region.*

Keywords: *pilgrimage tourism, religious tourism, shrines, pilgrimage sites, tourist sites, pilgrimage routes.*

Jahonda ziyorat turizmi xalqaro turizmning eng jadal rivojlanib borayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat dinlarning markazi hisoblangan Osiyo qit’asi ziyorat turizmning eng yirik mintaqasi sifatida e’tirof etiladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, dunyoda yiliga o‘rtacha olti yuz millionga yaqin ziyorat turistik sayohatlar amalga oshirilib, ularning yarmidan ko‘pi Osiyoga to‘g‘ri keladi. YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, “dunyo aholisining 60 foizi biror bir dinga e’tiqod qiladi va bu holat xalqaro va ichki ziyorat turizmni rivojlantirishning katta salohiyati mavjudligini ko‘rsatadi” [3]. Shu bois ziyorat turizmni yanada rivojlantirish jarayonida hududlarning ziyorat turistik resurslarini baholash, ularni birlashtiruvchi maxsus marshrutlarni ishlab chiqish va joylarda turizm uchun zarur bo‘ladigan infratuzilmani tizimli ravishda shakllantirishni taqozo etadi.

Respublikamizda diniy va ziyorat turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida turistlar oqimini shakllantirish va ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari dasturi”da “Ichki turizm yo‘nalishida faoliyat yurituvchi turoperatorlar bilan hamkorlikda respublikaning barcha hududlari qamrab olingan arzon narhlardagi ichki turizm mahsulot (turpaket) larini ishlab chiqish hamda ularni joylarda keng targ‘ib qilish” yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan[1]. Bu borada, jumladan, O‘zbekistonda hududlardagi diniy va ziyorat turizm obyektlarini inventarizatsiya qilish, mazkur obyektlarga turistlar oqimini jalb qilish choralarini ishlab chiqish, mahalliy, milliy va xalqaro ahamiyatdagi diniy turistik marshrutlarni loyihalash, ularning kompleks dasturlari va xaritalarini yaratish, joylarda diniy turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini oshirish yo‘llarini asoslashga qaratilgan ijtimoiy geografik tadqiqotlarni o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli mamlakatlarning turistik va rekreatsiya salohiyati juda murakkab tushuncha bo‘lib, uni barchani birdek qanoatlantiradigan mezonlar asosida baholash qiyin. Bu ko‘p jihatdan turistik salohiyatning asosini, har bir alohida hududning kelib chiqishi va mohiyatiga ko‘ra har xil bo‘lgan madaniy, tabiiy va tarixiy meros obyektlari tashkil etishiga bog‘liq. Shu bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatga ega bo‘lgan bir qancha tashqi omillar turistik yo‘nalishning jozibadorlik darajasining yakuniy ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ziyorat turizmdan keladigan daromad ba’zi davlatlar budjetining asosini tashkil qiladi. Masalan, Saudiya Arabistoni 2019 yil 13 mln ziyoratchini qabul qilgan bo‘lsa, 2030 yilga borib bu raqamlar ikki baravarga ko‘payib 30 mlnga borishi kutilmoqda. Shuningdek, Xindistonning Gujarat shtatida tashrif buyuruvchi sayyohlarning deyarli 36% diniy sayyohlar hisoblanadi. Braziliyadagi diniy turizm bozori mamlakatdagi eng yirik sayyohlik segmentlaridan biri bo‘lib, ular 20 mln kishini tashkil qilmoqda. Iroqning iqtisodiyotida diniy turizm neftdan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi.

Statistik ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida 2023 yil davomida jami kirish va chiqish turizmida 11413,7 ming kishi qatnashgan. Uning 58,0 % yoki 6626,3 ming kishisini mamlakatimizga kelgan turistlar tashkil qilgan, respublika aholisidan 4787,4 ming nafari xorijga sayyohlik uchun borgan. Ichki turizmda 5112,5 ming kishi ishtirok etgan. Mamlakatimizga kelgan turistlarning deyarli 80,0 foizi qarindoshlarini yo‘qlash, ziyorat qilish maqsadida tashrif buyurishgan. Kelganlarning ko‘pchilik qismi qo‘shni davlatlar Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Afg‘oniston va Rossiyaga tegishli. Shuningdek, Turkiya, Pokiston hamda Hindistonlik turistlar ham ko‘pchilikni tashkil qilgan. O‘zbekistondan turist sifatida tashrif buyurgan davlatlar ham Markaziy Osiyo davlatlari hisoblanadi, shuningdek, tahlil qilinayotgan yilda Misr, Belarus va Turkiyaga ham nisbatan ko‘proq aholi borgan [4;5].



2019-2023- yillarda O‘zbekistonda kiruvchi, chiquvchi va ichki turizmning asosiy ko‘rsatkichlari (ming kishi hisobida)

Mamlakatimiz aholisining deyarli yarmi istiqomat qiladigan qishloq joylari, ya’ni kichik hududlarning iqtisodiyotida ham turizmning o‘rni va ahamiyatini yuqori. Aksariyat turistik obyektlar: tarixiy, arxeologik, etnik-madaniy va boshqalarda turizmdan keladigan daromad, asosiysi aholining aynan tirikchilik manbai ham mazkur soha ekanligini ta’kidlash o‘rinli.

Ziyorat turizmining kichik hududlar iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati baholash uchun bevosita turizm faoliyati bilan shug‘ullanadigan davlat tashkilotlari, jumladan Turizm va madaniy meros vazirligi, uning huzuridagi Madaniy meros departamenti, “Vaqf” hayriya

jamoat fondi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari qo‘mita ma’lumotlaridan keng foydalanildi. Shuningdek, muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolarga borib o‘rganildi, adabiyotlar, maqolalar, internet ma’lumotlari asosida tahlil qilindi.

Ziyorat turistik obyektlar joylashgan aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri nazariy jihatdan ijtimoiy geografik omillar, jumladan transport geografik o‘rni, yirik shaharlarga yaqinligi, boshqa turistik obyektlar bilan birikishi, aholi soni va zichligi katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Samarqand viloyati Payariq tumani Xartang qishlog‘idagi Al-Buxoriy ziyoratgohi, Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Zangiota ziyoratgohlarida yuqoridagi omillar yaqqol seziladi. Aksincha bo‘lgan joylarda, masalan aholi manzilgohlaridan uzoq, aholisi siyrak hamda transport tugunidan uzoqda bo‘lgan Surxondaryo viloyatida Sufi Olloyor, Mavlonoyi Zoxid, Oq ostona bobo kabi ziyoratgohlarda ushbu modelning samaradorligi kam namoyon bo‘ladi.

Ziyoratgohlarning joylashgan o‘rni (tog‘ va tog‘ oldi, yoki tekislik hududlarda joylashganligi) ham turli xususiyatlarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, ziyoratlarda muqaddas hisoblangan komponentlar (tosh, g‘or, suv, buloq, daraxtlar, baliqlar) tog‘li va tog‘ oldi huudlarida ko‘pligi bilan namoyon bo‘lsa, ziyoratchilarning har ikkala hududga kelishi mavsumiy bo‘lsada, lekin tog‘-tog‘ oldi hududlarda yoz faslida ziyoratgohlarning yon atrofidagi dam olish zonalari, oromgohlar, tabiatning turli qiziqarli obyektlari, sharshara va buloqlar bilan ziyoratgoxlarga ziyorat qilish xamohang tarzda oshib borishini hisobga olsak, tekisliklarda aholi zich bo‘lgan hududlarda mavsumiylik bu qadar sezilmaydi. Ayniqsa, xaftaning juma, shanba va yakshanba kunlarida ushbu hududlarda ziyoratchilar sig‘imi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunga misol tariqasida Surxondaryo viloyatida Sufi Olloyor, Xo‘jaipok, Jizzax viloyatida O‘smat ota, “Novqa ota” ziyoratgohi kabi ziyoratgohlarni keltirish mumkin.

Ziyorat turizmni jadal rivojlanib borishi barobarida, aholini ko‘proq ziyorat obyektlarga jalb qilish va o‘z navbatida mazkur obyektlarda turli xildagi xizmatlarni rivojlantirishga olib kelmoqda. Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish, yaqin atroflarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, hududlarni zaruriy xizmatlar bilan ta’minlash shular jumlasidandir.

Respublikamizda ham ko‘plab ziyoratgoh va qadamjolar – Imom al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Imom Moturudiy, Abduholiq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshbandiy, Ahmad Farg‘oniy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Imom at-Termiziylarning muqaddas maqbaralari va ular nomi bilan bog‘liq tabarruk qadamjolar bor, buyuk ajdodlarimiz hayoti va ilmiy-ma’naviy meroslariga boy yurt xisoblanadi, qolaversa buddizm, xristianlik, zardushtiylik bilan bog‘liq bo‘lgan diniy turistik obyektlar bor. Bularning aslida aksariyat qismi mahalliy ziyoraratchilarning qamrovi bilan gavjum. Mamlakatimizda aksariyat muqaddas qadamjolarga xos yana bir jihat shundaki, ularning hududi tarixan markazlarda, yonida buloqlar, ming yillik daraxtlar, uzoq tarixga ega masjidlar mavjud. Masalan, Al-Xakim At-Termiziy ziyoratgohi eski Termiz hududida, Sufi Olloyor uzoq tarixga ega masjid.

Ziyoratga boradigan sayyohlar va mezbon jamoatchilik o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yanada yaxshilash turistlar oqimining sezilarli oshirishga ijobiy ta’sir qiladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, kichik hududlar xo‘jaligida quyidagi xizmat turlarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Do‘konlar diniy yodgorliklar, buyumlar, tasbehlar, bosh kiyimlar, ziyorat uchun boshqa diniy buyumlar katta daromad keltiradi. Ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu narsa-buyumlarga ziyoratchilar tomonidan qiziqish insoniyatning qadim tarixidan buyon mavjud bo‘lib kelgan.

O‘rganishlar natijasida, Toshkent viloyati Zangiota tumanida joylashgan “Zangiota ziyoratgohi” majmuasi, shuningdek Surxondaryo viloyati Termiz tumanida joylashgan “Al-Xakim At-Termiziy ziyoratgohi” majmualarida anketa so‘rovnomalar o‘tkazildi. Ma’lum bo‘ldiki, Zangiota ziyoratgohi majmuasida turli lavozimlarda ishlovchi doimiy xodimlar soni 40 tani tashkil qiladi. Shuningdek, ziyoratgoh joylashgan hududda bevosita aynan ziyoratchi

va turistlarga xizmat qiladigan 50 taga yaqin turli do‘konlar tomonidan ziyorat buyumlari, estaliklar sotiladi. Har bir do‘konda o‘rta hisobda 2-3 kishi band ekanligini ko‘rish mumkin. Ishlovchilarning o‘rtacha oylik maoshi respublikamizda har bir kishiga mos keluvchi o‘rtacha oylikdan ancha yuqori. Shu bilan birga, savdo do‘konlariga sotuvga chiqarilgan buyumlarning deyarli barcha mazkur hududda yashovchi aholi tomonidan ya’ni hunarmandlar, asosan ayollar tomonidan tayyorlanadi va yetkazib beriladi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda majmua hududini obodonlashtirish ishlarida ham maxalliy aholi ishtirok qiladi. Masalan, yilning ikkita mavsumida bahorda va kuzda ekiladigan gul ko‘chatlari har birida ikki mingtani tashkil etib, bevosita gul yetkazib berish bilan shug‘ullanuchi aholi mavjud. O‘rganishlar jarayonida guvohi bo‘ldikki, ziyoratgohga bir kunda o‘rta hisobda 1500-2000 gacha yaqin ziyoratchi tashrif buyuradi. Ularning tunab qolishlari, dam olishlari uchun bir qancha mehmonxonalar, uy mehmonxonalari mavjud.

Mehmonhonalar bilan bir qatorda, turistlarga xizmat ko‘rsatadigan fotosuratchilar, ovqatlanish shohobchalari hamda avtomobil transportining o‘rni alohida e’tiborga loyiq.

Surxondaryo viloyatida joylashgan Al-Xakim At-Termiziy ziyoratgohida 30 ga yaqin ishchi xodimlar faoliyat yuritadi. Ziyoratgoh atrofida 20 ortiq turli ziyorat buyumlari, estaliklar hamda xunarmandlar tomonidan yasalgan buyumlar bilan savdo qiluvchi do‘konlar mavjud. Do‘konlarning har birida o‘rtacha ikki kishi bandligini ko‘rishimiz mumkin. Ziyoratgoh xududini obodonlashtirish uchun mingdan ortiq turli manzarali hamda mevali buta va daraxtlar parvarishlanib kelinmoqda. Ziyoratgoh yaqinida vaqf tasarruviga qarashli mehmonxona mavjud. Aholiga qulaylik tug‘dirish maqsadida Termiz shahridan kunlik qatnovchi transport vositasi yo‘lga qo‘yilgan.

Ziyoratgohlarning mahalliy aholining iqtisodiy sharoitiga va faoliyatiga ta’sirini bir necha ziyoratgohlarda so‘rovnomalar va o‘rganishlar asosida shakllantirdik. Biz bularni ehtimollik nazaridan 8 ta asosga ajratdik [2].

1. Do‘konlar. Suvenir, ibodat va ziyorat buyumlari, ziyorat bukletlari, bu hududdagi hunarmandchilik va kichik sanoat ishlab chiqarishga asoslangan, ziyorat ma’lumotlari keltirilgan bosmaxonalar faoliyati natijalari asosida, buklet va brashyuralar chiqarish uchun.

2. Transport xizmatlari. Ziyoratga keluvchilar uchun alohida marshrutlari yo‘lga qo‘yilganligi.

3. Ovqatlanish shahobchasi. Ovqatlanish shahobchasida ziyoratchilarning talablari kam, aksariyat shu hududda faoliyatini olib borayotgan savdo do‘konlari xodimlari, xaydovchilarni doimiy mijoz sifatida qabul qilib faoliyat ko‘rsatadi.

4. Fotosuratchilar. Muqaddas obyektda ziyoratchilarni tarixiy xotiralarini suratga muhrlash orqali o‘zlarining xizmatlarini taklif qilmoqda.

5. Mehmonxona va mehmon uylari. Ziyoratga yaqin atrofdagi xonadonlar ziyoratchilarga o‘zlarining mexmonxona – tunash, dam olish xizmatlarini taklif qilmoqda.

6. Ziyoratgoh hududini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish. Ziyoratga kelganlarni shunday bir xissiyotlar chulg‘ab oladiki, bu hududning manzarasi o‘laroq yiliga ikki marta mavsumiy gullarning ekilishidir. Bu gul ko‘chatlarini yetishtirish ko‘chat xo‘jaliklari gul yetkazib berish va ishchi kuchi bilan yuqoridagi ehtiyojlarni ta’minlaydi.

7. Qurilish xizmatlari. Ziyoratgoxlarni ta’mirlash ishlarini olib boradi, majmuani yonidan yangi ansanbllarni shunga mos tarzida quradi.

8. Ziyorat hududida o‘z faoliyatini olib boruvchi ishchi xodimlar. Ziyoratchilar bilan muloqot qiluvchi, ekskursiya olib boruvchi, ziyorat ibodatlarni amalga oshirishda yordamchi hodimlar va boshqalar shular jumlasidandir.

Tahlillar ko’rsatishicha kichik hududlarda ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlari, umuman olganda, ijtimoiy geografik masalalar xududning turizm sektori o‘sishi bilan yaxshilanishi mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kichik hududlarda turizmni rivojlantiirish imkoniyatlari katta. Bunday imkoniyatlardan samarali foydalanish istiqbolda mintaqaviy turizmni rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Aynan shu maqsadda hududda turizmni kompleks rivojlantirish davlat dasturi ishlab chiqilishi zarur. Hududlarning ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda turizm industriyasini rivojlantirish lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son Farmoni.

2. To‘rayev Q.T., Qurbonov Sh.B. O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish va hududiy
tashkil этilishini takomillashtirishning geografik asoslari. Monografiya. – T.: ZEBO PRINT, 2023. – 156 b.

3. The World Tourism Organization (UNWTO) //www.e-unwto.org/doi/epdf/10.18111/9789284413805

4. https://uzbektourism.uz/ (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi rasmiy veb-sayti).

5. www.stat.uz.

YO‘L VA YO‘L BO‘YI LANDSHAFTLARINING TURISTIK SALOHIYATINI OSHIRISH MASALALARI XUSUSIDA (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

Halimova G.S., Qalandarova D.D.
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston.

Annotatsiya*: Maqolada yo‘l va yo‘l bo‘yi landshaftlari va ularning rekreatsion imkoniyatlarini o‘rganish, yo‘l bo‘yi landshaftlarining funksiyalari, shuningdek ulardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *yo’l, yo’l bo’yi landshaftlari, turizm, rekreatsiya, estetik zavq, shovqin to’siqlari, estetik funksiya*

ПО ВОПРОСАМ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА АВТОДОРОЖНЫХ И ПРИДОРОЖНЫХ ЛАНДШАФТОВ (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)

Халимова Г.С., Каландарова Д.Д.
Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан.

Аннотация: *В статье представлены исследования дороги и придорожных ландшафтов и их рекреационные возможности, функции придорожных ландшафтов, а также рекомендации по их использованию.*

Ключевые слова: *дорога, придорожные ландшафты, туризм, рекреация, эстетическое удовольствие, шумовые барьеры, эстетическая функция*

ON THE DEVELOPMENT OF TOURISM OF HIGHWAY AND ROADSIDE LANDSCAPES (ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA REGION)

Halimova G.S., Qalandarova D.D.
Bukhara State University, Buxara, Uzbekistan.

Abstract: *The article presents studies of roads and roadside landscapes and their recreational opportunities, functions of roadside landscapes, as well as recommendations for their use.*

Key words: *road, roadside landscapes, tourism, recreation, aesthetic pleasure, noise barriers, aesthetic function*

Har qanday hududning iqtisodiy salohiyati uning landshaft geografik xususiyatlari hamda turistik imkoniyatlarining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Shu sababdan ham geografik tadqiqotlarda landshaftlarning rekreatsion xususiyatlarini o'rganish va baholash muhim o'rin tutadi. Shunday ekan har bir landshaftning turistik imkoniyatlarini o'rganib, ularning rekreatsion xususiyatlarini oshirish bo'yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Bu borada Buxoro viloyatida ham turli mutaxasislar tomonidan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Buxoro viloyati tabiiy geografik jihatdan to'lig'icha cho'l zonasiga joylashgan bo'lib, o'zlashtirilganlik darajasiga ko'ra cho'l-voha va cho'l-yavlov qismlariga bo'lingan. Aholi manzilgohlarining joylashuviga ham bevosita tabiiy geografik, iqlimiy xususiyatlarining ta'siri sezilib turadi. Ushbu manzilgohlar va ular iqtisodiyotini bir-biriga bog'lovchi vosita bu transportdir. O'z navbatida, transport shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, urbanizastiya jarayoni, sanoat rayonlari hamda hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun har bir hudud o'z iqtisodiyotini o'sishini ta'minlashi uchun, eng avval transport sohasi hamda transport infrastrukturasini rivojlantirishdan boshlamog'i lozim.

Odatda, katta hududlarga ega bo'lgan mintaqalarda, xususan ularning ichki qismlarida transport infratuzilmasini rivojlantirish muammolari dolzarb bo'ladi. Buxoro viloyati ham bundan mustasno emas.

Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida transport tizimining yana bir muhim qismi bo'lgan avtomobil transporti va avtomobil yo'llari ham o'rin tutadi. Mintaqa iqtisodiyotining avtomobil transportidan foydalanmaydigan birorta sohasi yo'q. Qisqa masofalarga yuk va yo'lovchilarni tashishda, zamonaviy transportning boshqa xillari mavjud bo'lmagan manzilgohlarda aholi va tashkilotlarga xizmat ko'rsatishda, ayniqsa transport uchun noqulay bo'lgan cho'l hududlarida avtomobil transportining ahamiyati beqiyosdir.

Buxoro hududidagi qator avtomobil yo'llari xalqaro va davlat ahamiyatiga ega. Hozirgi kunda viloyat avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 4100 km dan ortiq. (1-jadval). Shularning 95-100 foizi qattiq qoplamali yo'llardir. Viloyatimiz hayotida muhim o'rin tutgan avtomobil yo'llari jumlasiga eng avvalo Samarqand-Buxoro, Toshkent-Nukus, Urganch-Denov, Nukus-G'uzor yo'llari kiradi. Mazkur yo'llar nafaqat viloyat, balki O'zbekistoning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Avtomobil yo'llari uzunligi bo'yicha viloyatlar orasida Buxoro viloyati peshqadam hisoblanadi.

1 - jadval

Buxoro viloyati avtomobil yo'llari uzunligi

Avtomobil yo'llari	**Yo'lning uzunligi, km**
Xalqaro ahamiyatga molik	540
Davlat ahamiyatiga molik	1155
Mahalliy ahamiyatiga molik	2406
Jami:	4101

Jadval Avtomobil yo'llari qo'mitasidan olindi

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin mavjud avtomobil yo'llarini xalqaro andozalarga moslash, yo'llarni saqlash va ta'mirlash, yangi barpo etilayotgan sanoat rayonlariga xalqaro magistrallar bilan bog'laydigan yo'llar qurilishi masalalariga e'tibor kuchaydi. Shu bilan birga endilikda avtomobil transportida ham xususiylashtirish davom

etmoqda. Transport vositalari-avtobuslar, yuk va yengil mashinalarga ega bo‘lgan jamoa hamda xususiy xo‘jaliklar ko‘paymoqda, ularning yo‘lovchi va yuk tashishda salmog‘i asta-sekinlik bilan o‘sib bormoqda.

Buxoro (Kogon) – Samarqand – Qarshi “uchburchagida” Buxoro shahri ham o‘ziga xos mavqega ega. Toshg‘uzor – Boysun - Qumqo‘rg‘on yo‘lining ishga tushirilishi Buxoro – Qarshi - Termiz “yo‘lagining” shakllanishi va rivojlanishiga imkon beradi. Ayni vaqtda Buxoro – Gazli - Nukus avtomobil yo‘li Katta O‘zbek traktining bir qismi sifatida ahamiyati ortib bormoqda.

Buxoro viloyati aholisi sonining ortib borishi, yashah hududlarining kengayishi yo’llar uzunligining ortishiga olib kelmoqda. Yo’l qurilishi natijasida tabiiy landshaftlarda bir qancha o’zgarishlar kuzatilmoqda. Aksariyat hollarda yo’l atrofi laandshaftlari o’z tabiiy xususiyatini yo’qotib bormoqda. Yo’l bo’yi landshaftlari inson faoliyati natijasida shakllanar ekan, biz uni madaniy landshaft deb aytishga to’laqonli haqlimiz. Yo’llar kundalik ehtiyojimizning asosiy qismiga aylanib ulgurgan. Shunday ekan, yo’l bo’yi landshaftlarining hozirgi holatini o’rganish va kelajakda ekologik, rekreatsion imkoniyatlarini oshirish bo’yicha kerakli tavsiyalarni ishlab chiqish lozim.

Yo'l bo’yi landshaftlari yo'lning ikki tomonidagi o'simliklar, daraxtlar, butalar, suv havzalari, cho'l, o'tloqlar va boshqa tabiiy landshaftlarni o'z ichiga olgan hududlardir.

Yo'l bo’yi landshaftlari hayvonlar va o'simliklar uchun muhim yashash joyi bo'lib, biologik xilma-xillikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ular shuningdek, shovqin va ifloslanishni kamaytirib ihota vazifasini ham o’taydi. Bugunga kelib kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan Yo'l bo’yi landshaftlari - bu yo'l qurilishi jarayonida yo'ldan ikki yon tomonga cho'zilgan hududlardir. Yo'l bo’yi landshaftlari yo'lni atrofdagi muhitdan ajratibgina qolmay, ekologik, estetik va xavfsizlik funktsiyalarini bajaradi. Bular quyidagilar:

Ekologik funktsiyalari:

-Yashash joylarini saqlash: yo'l bo’yi landshaftlari hayvonlar va o'simliklar uchun yashash joylarini saqlaydi;

- Biologik xilma-xillikni ta'minlash: turli xil o'simliklar va hayvonlar turlarini yashab, ko’payishi uchun qulay muhit hisoblanadi;

-Suv havzalarini himoya qilish: yo'l bo’yi landshaftlari suv havzalariga yo'ldan oqib kelgan iflos suvlarni oqib o'tishini kamaytiradi;

-Tuproq eroziyasini kamaytirish: o'simliklar tuproqni eroziyadan himoya qiladi;

- Shovqin va ifloslanishni kamaytirish: o'simliklar shovqin va havoning ifloslanishni kamaytirishga yordam beradi;

Estetik funktsiyalari:

- Tabiiy go'zallikni ta'minlash: yo’l bo’yi landshaftlari yo'l bo'ylab tabiiy go'zallikni ta'minlaydi;

- Landshaft manzarasidagi bir xillikni buzish: o'simliklar va boshqa elementlar landshaft manzarasidagi bir xil ko’rinishning takrorlanishini oldini oladi va yo'l bo’yi qiziqarli manzaralar yaratadi;

- Sayohatchilarga dam olish joyini ta'minlash: yo'l bo’yi landshaftlari sayohatchilarga dam olish, tabiiy manzaradan bahramand bo'lish va tabiat bilan aloqa qilish uchun joylarni ta'minlaydi;

Xavfsizlik funktsiyalari:

- Landshaft manzarasini yaxshilash: o'simliklar yo'lning chegaralarini belgilashga yordam beradi va haydovchilar uchun ko'rinishni yaxshilaydi.

- Shovqin to'siqlari sifatida xizmat qilish: o'simliklar yo'l shovqinini kamaytirish uchun to'siqlar sifatida xizmat qiladi.
- Hayvonlar bilan bog'liq baxtsiz hodisalarni kamaytirish: o'simliklar hayvonlarni yo'lga chiqib, avtohalokatga uchrashini oldini olishga yordam beradi.

Yo'l bo'yi landshaftlarini tashkil qilish va ekotizimni himoya qilish, yo'l xavfsizligini ta'minlash va estetik zavq berish uchun muhimdir. Bu quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Rejalashtirish:

-Yo'l qurilishi rejalashtirilgan joylarni diqqat bilan tanlash, ekologik ta'sirni kamaytirish va landshaftni saqlab qolish strategiyasini ishlab chiqish;
- Ekologik baholash: yo'l qurilishi rejalashtirilgan hududni biologik xilma-xillik, tuproq sifati, suv manbalari va boshqa ekologik xususiyatlar nuqtai nazaridan baholash;
- Landshaftni tahlil qilish: hududni mavjud o'simliklar, daraxtlar, relyef, suv havzalari va boshqa xususiyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilish;
- Maqsadlarni belgilash: yo'l bo'yi landshaftlarini tashkil qilish uchun aniq maqsadlarni belgilash, masalan, biologik xilma-xillikni saqlash, shovqin va ifloslanishni kamaytirish, estetik zavq beruvchi muhitni yaratish va h.k.
- Dizaynni tanlash: yo'l atrofi landshaftini tashkil qilish uchun mos dizaynni tanlash, masalan, tabiiy landshaftni saqlab qolish, sun'iy landshaftni yaratish yoki har ikkisini birlashtirish.

2. O'simliklarni tanlash va joylashtirish:

- Mahalliy o'simliklar: hudud iqlimiga, tuproq turiga va boshqa sharoitlarga mos keladigan mahalliy o'simliklarni tanlash;
-Turli xil o'simliklarni tanlash: Turli xil o'simliklarni, masalan, daraxtlar, butalar, gullaydigan o'simliklar, o'tlarni tanlash biologik xilma-xillikni oshirish uchun;
- O'simliklarni joylashtirish: O'simliklarni 151trategic ravishda joylashtirish, masalan, shovqin to'suvchi yo'laklarni yaratish, tuproq eroziyasini kamaytirish va h.k.

3. Suv havzalarini tashkil qilish:

- Suv havzalarini himoya qilish: yo'l qurilishidan oldin mavjud suv havzalarini himoya qilish va kerak bo'lganda yangi suv havzalarini yaratish;
- Suv havzalarini tashkil qilish: suv havzalarining shakli, o'lchami va chuqurligini estetik zavq beruvchi ko'rinishga keltirish va suv havzalariga o'simliklarni ekish.

4. Yo'l xavfsizligini ta'minlash:

- Ko'rinishni yaxshilash: o'simliklarni shunday joylashtirish kerakki, haydovchilar yo'l bo'ylab go'zal manzarani ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin;
- Shovqin to'siqlarini o'rnatish: Yo'l shovqinini kamaytirish uchun shovqin to'siqlarini o'rnatish;
- Yoritilishni ta'minlash: yo'l bo'ylab yoritilishni ta'minlash yo'l xavfsizligini oshirish uchun;

5. Estetik zavq beruvchi muhitni saqlab qolish:

- Vizual estetika**:** yo'l atrofi landshaftini jozibali ko'rinishga ega bo'lishini ta'minlash uchun o'simliklarni tanlash va joylashtirish;
- Barqarorlik: yo'l atrofi landshaftlarini tashkil qilish uchun barqaror materiallarni va usullarni tanlash;
-Jamoatchilik ishtiroki: jamoatchilikni xabardor qilish, muammolarni muhokama qilish va himoya qilish choralarini ko'rishda ishtirok etishga rag'batlantirish kabi tadbirlarni amalga oshirishimiz kerak;

Yo'l atrofi landshaftlarini to'g'ri tashkil qilish ekologik muvozanatni saqlash, yo'l xavfsizligini ta'minlash va estetik zavq beruvchi muhitni yaratishga yordam beradi. Ushbu

bosqichlar yo'l qurilishi va yo'l bo'yi landshaftlarini tashkil etish jarayonida hisobga olinishi kerak.

Yo'l bo'yi landshaftlaridan rekreatsiya maqsadida foydalanish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Yo'l bo'yi landshaftlaridagi piyoda yo'llari va yo'laklari piyoda yurish va yugurish uchun ideal joylardir. Shuni hisobga olib yo'l landshaftlarida velosiped yo'llari yoki velosipedda sayr qilish uchun moslashtirilgan yo'llarni tashkil qilish lozim

2. Yo'l bo'yi landshaftlari ko'plab qush turlari uchun yashash joylarini ta'minlaydi va qushlarni kuzatish uchun ajoyib joylardir. Yo'l bo'ylaridagi daraxtlarda qushlar uchun inlar tashkil qilinsa maqsadga muvofiq.

3. Yo'l bo'yi landshaftlari sayohatchilarga yo'l bo'ylab manzaradan bahramand bo'lish va atrof-tabiiy-muhit bilan aloqa qilish imkonini beradi. Yo'l landshaftlarida o'tkaziladigan vaqt ruhiy tushkunlikni kamaytirishga va umumiy farovonlikni yaxshilashga yordam beradi. Yo'l bo'yi landshaftlarida odamlarning bir-biri bilan uchrashishi va muloqot qilishi uchun maxsus joylarni tashkil qilish lozim.

Yuqoridagi tavsiyalar inobatga olingan holda yo'l bo'yi landshaftlari tashkil qilinganda mazkur landshaftlar odamlarga tabiat bilan aloqa qilish, rekreatsion faoliyat bilan shug'ullanish va umumiy farovonlikni yaxshilash uchun qimmatli imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Nazarov I., Allayorov I., Toshev X., Mavlonov A. Madaniy landshaftlar yaratishning tamoyillari xususida To`plam, Tog` va tog`oldi hududlaridan foydalanishning geografik asoslari. Toshkent, 2002 y. (22-23 betlar)

2. Xin Gu, Tao Hong Landscape Design of Road Environdment basedon Computer Journal ofPhysics: Conference Series 1649 (2020) 012012 doi:10.1088/1742-6596/1/01/2012

3. Road Landscape Manual A.Guide to the Planning, Design, Operation and Maintenance of Road Landscape Infrastructure 2nd Edition, June 2013

4. Roadside Design Guide 4nd Edition 2011 American Association of state Highway and Transportation Offisials 444 North Capitol Street, NW,Suite 249 Washington, DC 20001

5. http://creativecommons.org/licenses/by/3.0/au/

6. https://www.irfnet.org

EKOTURIZM ASOSIDA O'SIMLIKLAR DUNYOSINI MUHOFAZA QILISH

Bazarova N., Mardonova N.

Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O'zbekiston

e-mail: nigorabazarova10@gmail.com., xaydarovanargiza32@gmail.com

Annotatsiya*. Mazkur maqolada o'simliklar dunyosini saqlab qolishda ekoturizmning tutgan o'rni haqida bayon qilingan. O'simliklar dunyosining tabiat va insoniyat hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qashqadaryo vohasida ekoturizmni rivojlantirish uchun katta tabiiy imkoniyatlar mavjudligi va unung istiqbollari shuningdek, Hisor qo'riqxonasidagi mavjud ko'plab o'simliklar haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *landshaft, qo'riqxona, ekoturizm, ekoturist, flora, tog', cho'l, voha.*

ЗАЩИТА МИРА РАСТЕНИЙ НА ОСНОВЕ ЭКОТУРИЗМА

Bazarova N., Mardonova N

Каршинский государсвенный университет, Карши, Узбекистан

e-mail: nigorabazarova10@gmail.com, xaydarovanargiza32@gmail.com

Аннотация. *В данной статье описывается роль экотуризма в сохранении мира растений. Приводятся сведения о значении мира растений в природе и жизни человека. Отмечено наличие больших природных возможностей для развития экотуризма в Кашкадарьинском оазисе и его перспективность, а также многочисленные растения Хисарского заповедника.*

Ключевые слова: *ландшафт, заповедник, экотуризм, экотурист, флора, гора, пустыня*, оазис.

PROTECTION OF THE PLANT WORLD BASED ON ECOTOURISM

Bazarova N., Mardonova N.
Karshi State University, Karshi, Uzbekistan, e-mail: nigorabazarova10@gmail.com

Annotation. *This article describes the role of ecotourism in preserving the plant world. It provides information about the importance of the plant world in nature and human life. It notes the presence of great natural opportunities for the development of ecotourism in the Kashkadarya oasis and its prospects, as well as numerous plants of the Hisarsky Reserve.*

Key words: *landscape, reserve, ecotourism, ecotourist, flora, mountain, desert, oasis.*

Kirish. So‘ngi yillarda Respublikamizda turizm sohasiga asosiy davlat siyosati darajasida qaralmoqda. O‘zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlari juda katta va bu imkoniyatlardan to‘la foydalanishga erishilsa, turistik bozorda peshqadamlik qilayotgan mamlakatlar safidan o‘rin olishishubhasiz. Turizmni rivojlantirish uchun zarur huquqiy va iqtisodiy asoslar yaratilib, hukumat tomonidan tegishli chora-tadbirlar, qonun va qarorlar qabul qilinmoqda va ularning ijrosi ta’minlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni [1] ijrosini ta’minlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori [2] qabul qilindi. O’zbekistonning tabiiy boyliklarini asrab-avaylash maqsadida turizmning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ekologik turizm ham yurtimizda rivojlanib bormoqda.

Ekoturizm - turizmning yangi sohasi bo‘lib, atrof muhitga eng kam ta’sirini ta’minlovchi turizmdir. Ekoturizm dasturi odatda ekologik toza joylarga borishni nazarda tutadi va tabiat qo‘riqxonalariga uyushtiriladi. Ekoturizm tabiatga nisbatan xo‘jalik faoliyati yetib bormagan obyektlar bilan belgilanadi.

Dolzarbligi. Hozirgi kunda ekologik muammolar global ahamiyat kasb etib, tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish dunyo hamjamiyati oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ekoturizmning asosiy maqsadi sayohat paytida yangi joylarni ko‘rish, tabiat go‘zalligidan, toza tog‘ yoki o‘rmon havosidan bahra olish, «yovvoyi» tabiat bag‘rida dam olish, shuningdek, boshqa xalqlar urf-odati, madaniyati, san’ati, tarixiy obidalarini ko‘rishdan iborat.

Turizmning bu ko‘rinishi Kanada, AQSH, Avstraliya, Nepal, Ekvador, Braziliya, Yaponiya, Xitoy, JAR, G‘arbiy Yevropa davlatlari, Markaziy va Janubiy Amerika kabi mamlakatlarda tez rivojlanmoqda [3]. Ekologik turizmni tashkil etish va rivojlanishi uchun qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar, davlat buyurtmaxonalari, tabiat yodgorliklari muhim obyektlar bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu obyektlar ekologik toza hududlar bo’lib, ajoyib tabiat ko‘rinishiga ega, turli ekosistemalar va xilma-xil landshaftlarga boy hisoblanadi. O‘zbekistonning boshqa mamlakatlarida uchramaydigan ekzotik tabiati, flora va faunasi butun turistik regionning jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardir.

Xususan, viloyatimizda turizm va ekoturizmni rivojlantirishda barcha imkoniyatlar yetarli, obyektiv shart-sharoitlar mavjud. Boy tarixiy merosi, an'analari, o'ziga xos tabiati, xilma-xil landshaft ko'rinishlari o'simlik va hayvonot dunyosi ya'ni turistik resurslarga boyligi buning tasdig'idir. Shunday ekan, viloyatimizda ushbu sohadagi imkoniyatlardan yanada keng foydalanish, noyob o'simliklar va hayvonot dunyosini saqlash, ko'paytirish muammolarini hal qilishda, ekologik turizm muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda ko'plab o'simlik turlari yo'qolib ketishining real xavfi yuzaga keldi va ular global darajadagi ekologik muammolar sifatida o'z yechimini topa boshladi. So'ngi yillarda o'simliklarni muhofaza qilish ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunonchi, 1997 yil 26 dekabrda "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish to'g'risida"gi [4], 1999 yil 15 aprelda «O'rmonlar to'g'risida»gi [5], 2004 yil 3 dekabrda "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar" [6] O'zbekiston Respublikasi Qonunlari qabul qilindi. Binobarin, O'zbekiston davlati o'rmonlar bilan kamroq qoplangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Respublikamizda o'rmonlarning iqtisodiy ahamiyati u darajada ko'p bo'lmasa-da, biroq barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun o'rmonlarning ekologik ahamiyati nihoyatda katta. Shu bois, kurrai zaminimizning eng noyob, o'xshashi yo'q o'rmonlarini, nihoyatda go'zal tabiiy landshaftlarini asl holida kelgusi avlodga yetkazish uchun ulardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va bu yo'nalishda ekoturizmni rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, 2021 yil 30 dekabrda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi [7]. Ushbu huquqiy bazaning yaratilishi respublikamizda o'simliklar dunyosini muhofaza qilishning ahamiyati muhimligidan dalolat beradi.

Muhokama va natijalar. Ekoturizmning muhim obyekti bo'lib, ekologik toza hudud, ajoyib tabiat va boshqa rekreatsiya resurslari hisoblanar ekan, mamlakatimiz bu resurs turlariga ayniqsa, o'simliklar dunyosiga nihoyatda boy o'lka hisoblanadi. O'zbekistonning o'ziga xos ekzotik tabiati, xilma-xil landshaftlari, flora va faunasi butun turistik regionning jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardir. O'zbekistonda ekoturizm rivojlanishi tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni vatanimizga jalb etish, noyob o'simliklar dunyosini saqlash, ko'paytirish muammolarini hal qilishga qaratilgan.

"Ekologik turizm" tushunchasining alomatlaridan iloji boricha ko'prog'ini chuqurroq tushunish uchun I. Zorin va V. Kvartalnov o'zaro bog'langan "ekotizim", "ekologiya", "ekologik sayohat etikasi" kabi tushunchalar sistemasini taklif qilishadi. Ayniqsa, oxirgi tushuncha ahamiyatga molik. Uni jonli tabiatga, borilayotgan landshaftlarga, u yerda yashovchi kishilarga nisbatan hurmat kodeksi, deb sharhlanadi [8].

Respublikamizda nihoyatda keng qamrovli tabiiy-iqlimiy jihatdan diqqatga sazovor hududlar mavjud. Bu yerda turli iqlimiy zonalar qumli-sahro, cho'l, tekislik havzalari, yuksak tog'lar va hatto subtropiklar iqlimi mavjud. Mamlakatimizning xalqaro talablariga mos keluvchi bunday joylarda ekoturizmni rivojlantirish samarali natija berib, kelajakda tabiatni o'z holida, balkim yanada go'zalroq saqlanishiga erishishimiz mumkin.

Respublikamizning ekologik turizm salohiyatini hisobga olganimizda ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy resurslari - 4 faslli tabiat mavsumlari, o'zining ekologik tizimlariga ega bo'lgan 5 ta tabiiy landshaft bioxilma-xilliklarida endemik turlarning mavjudligidir.

O'simliklar dunyosi tabiat va insonlar hayotining birlamchi resursi hisoblanadi. O'simliklar dunyosi bo'lmasa yerda hayotning muvozanati, mutanosibligi yo'qoladi. Insoniyat zimmasidagi eng muhim vazifa ham o'simliklar dunyosini asrab qolish, muhofaza qilish, dorivor turlarini ko'paytirish, ilmiy tadqiqotlar olib borish asosida insonlar uchun foydali bo'lgan jihatlarini o'rganish masalalari turadi. Har bir o'simlik turi biosferada o'zining ekologik ahamiyatiga ega.

Aynan XXI asrda kelajak avlod uchun biologik xilma-xillikni himoya qilish, borini saqlab qolish, samarali foydalanish va qo‘llab-quvvatlash zaruriy shartdir. O‘simliklar xilma-xilligi barcha davlatlar uchun muhim hayotiy manba, dolzarb va salohiyatli resurs hisoblanadi. Zero, o‘simliklar jamiyatning barqaror rivojlanishida, uning iqtisodiy, madaniy-estetik, ekologik ehtiyojlarini hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bois, insoniyat zimmasidagi eng muhim vazifa - o‘simliklar dunyosini asrab qolish, muhofaza qilish va dorivor turlarini ko‘paytirishdan iborat. Shu o‘rinda, mazkur masalaning yechimini topishda ekoturizmning o‘rni beqiyos ekanligini e’tirof etishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ekoturizmning rivoji natijasida O‘zbekistonning janubiy – g‘arbiy hududida tabiatni muhofaza etish ishlari rivojlanadi.

Xususan, Qashqadaryo vohasi bioxilma-xillikka eng boy bo‘lgan hududlardan biri hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati tabiati ham o‘zining betakror go‘zalligi bilan ekologik turizm maqsadida foydalanish imkoniyatlariga ega.

Vohamiz o‘zining turli xil landshaftlari, xushmanzara tabiati va fayzli go‘shalari bilan sayyohlarni o‘ziga rom etadi va albatta mana shu hududlar o‘zining o‘simliklar olami bilan alohida o‘rin tutadi.

Qashqadaryo viloyatida ekoturizm obyektlari nihoyatda xilma-xil bo‘lib, asosan viloyatning tog‘li hududlari, cho‘l hududlari va tekisliklarda mavjud obyektlar yuqori intensivlikka ega. Haqiqatdan ham mamlakatimizning boshqa joylarida uchramaydigan go‘zal va betakror tabiat manzaralarini Qashqadaryoda ko‘rish mumkin. Tog‘larning supasimon yonbag‘irlari erta bahordan maysalarning baxmal to‘shovi bilan qoplanadi, yozga borib atrof oltindek bug‘doyzorga burkanadi, ular o‘rtasida serhosil bog‘lar va o‘rmon halqalari qorayib ko‘rinadi. Sal yuqoriroqda, tog‘lar yonbag‘irlarida archazorlar hukmronlik qiladi, undan ham balandroqda esa yaylovlar va qishki qorlar, muzliklar yastanib yotadi. Qashqadaryo vohasining sharqiy qismidagi tog‘li hududlar o‘z jozibasi va sinoati ila kishini hayratlantirmasdan qo‘ymaydi.

Ekoturizmning muhim turlaridan biri ilmiy turizm hisoblanib, shu yo‘nalishda o‘simliklar olamini muhofaza qilish ishlarini amalga oshirish mumkin.

Bunda turistlar dala sharoitida kuzatishlar olib boradilar, tabiatda izlanish ishlarida ishtirok etadilar. Qashqadaryo vohasidagi “Qizil kitob” ga kiritilgan kamyob turlarni o‘rganish uchun “Qashqadaryoning noyob o‘simliklar olami” nomli ekoturlar tashkil etilib, unda boshqa davlatlardan kelgan botaniklar ham ishtirok etishlari, ilmiy izlanishlar olib borishlari uchun sharoitlar mavjud. Vohamizda turli iqlimiy zonalar cho‘l, tekislik havzalari, adir, tog‘ va yaylov hududlari mavjud bo’lib, albatta har bir hududda o‘ziga xos o‘simliklar olami shakllangan, bu yerlarda ekoturizmni tashkil etish asosida o‘simliklarni muhofaza qilib borish imkoniyati juda katta hisoblanadi.

Viloyatimizning nufuzi hisoblangan Hisor Davlat qo‘riqxonasiga ekotur marshrutlarini ishlab chiqish va uni uyushtirish uchun imkoniyatlar katta. Hisor qo‘riqxonasi bioxilma-xillik jihatdan Respublikada oldingi o‘rinlarda turadi. Xususan, Hisor davlat ko‘riqxonasining o‘simliklar dunyosi juda boy va xilma-xildir. Qo‘riqxona hududida 910 turdagi o‘simliklar o‘sishi aniqlangan. Ular 81 oilaga kiruvchi 384 turkumga mansub, shundan kamyob va yo‘qolib borayotgan 30 turi O‘zbekiston Qizil Kitobiga kiritilgan. Shulardan ba’zilarini misol tariqasida keltiramiz. Tulipa micheliana Hood, T.oritdiodis ingens Th. Hood, Eremurus robustus Kegel, Akopitum talassikum M.Pop, Ferula sumobul M.Pop, Dianthus uzbekistanikus Linc. kabilar shular jumlasidandir. Bu yerning aralash o‘rmonlari o‘ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi ya’ni mevali daraxtlarning ko‘pligidir: Malus domestica, Prunus sogdiana Vass, Ziziphus jujuba Mill, Pyrus regelii Rchd. kabilar o‘sadi.

Ilmiy ishlarni olib borish, kuzatish va birinchi ma’lumotlarni olish uchun qo‘riqxona hududida 8 ta botanik sinov maydonchasi tashkil etilgan bo‘lib, tadqiqotchilar tomonidan

o‘simliklar dunyosini va qo‘riqxona o‘simliklari fenologiyasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish uchun shart-sharoitlar yaratilgan.

Shuni ham alohida ta’kidlamoqchimizki, adir va cho‘llar ham o‘zining o‘simliklar olamiga boyligi bilan ajralib turadi.

Adirlar dengiz sathidan 500-700 m dan 1200 m gacha baland bo‘lgan tog‘oldi qirlaridir. Adirlar o‘simligi, asosan, rang o‘simliklaridan tarkib topgan. Rang o‘simliklari orasida ko‘pincha ko‘p yillik yirik o‘tlar – Phlomis thapsoides Bge, Psoralea Sogdiana Vass, Artemisia scoparia Wet., Elytrigia (Agropyron) trichophora (Link.) Nevski va boshqalar ham tez-tez uchrab turadi. Adirlarning toshli va shag‘alli baland yerlarida turli-tuman butalar o‘sadi.

Vohaning cho‘l hududi ham o‘simliklar dunyosiga juda boy. Qumli cho‘llarning katta qismida qumda o‘suvchi o‘simliklar: daraxtlardan Haloxylon persicum Bge (ba’zan bo‘yi 6-7 metrga yetadi), Calligonum aphyllum (Pall.) Gurke, uchraydi. Butalardan Ammodendron conollyi Bge. chala butalardan shuvoq tarqalgan. Bu yerda o‘tlar orasida Carex physodes M.., Tulipa lehmanniana Merckl., Colchicum luteum Baker, Iris songorica Schrenk., boshoqlilardan Poa bulbosa L. uchraydi.

Xulosa. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlanishi tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni vatanimizga jalb etish, noyob o‘simliklar dunyosini saqlash, ko‘paytirish muammolarini hal qilishga qaratilgan. Shuningdek, voha tabiatini muhofaza qilishda va viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishida ekoturizmning tutgan o‘rni nihoyatda muhim va samaradorligi yuqori istiqbolli sohalardani biri hisoblanadi.

Kurrai zaminimizning eng noyob, o‘xshashi yo‘q o‘simliklari va o‘rmonlarini, nihoyatda go‘zal tabiiy landshaftlarini asl holida kelgusi avlodga yetkazish uchun undan oqilona foydalanish va muhofaza qilish muhim vazifadir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni. PF-5326-son. 2018-yil 3-fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. PQ-3514-son. 2018 yil 7 fevral.
3. Храбовченко В.В. Экологический туризм. Учебно-методическое пособие. –М.: Финанси и статистика. 2003. – 208 с.
4. “O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. PQ-543-sonli 1997 yil 26 dekabr.
5. «O‘rmonlar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. PQ-770-sonli 1999 yil 15 aprel.
6. “Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. PQ-771-sonli 2004 yil 3 dekabr.
7. Mirziyoyev Sh.M. “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. PF-46-son. 2021 yil 30 dekabr.
8. Nig‘matov A., N. Shomurodova - Ekoturizm asoslari - T.: Iqbol, 2007.

TURIZM VA REKREATSIYANING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Jumayev X.X., Raximberdiyev M.O.
Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O'zbekiston, e-mail: jumayevgeog@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turizm va rekreatsiyani rivojlanishiga ta'sir qiluvchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va infratuzilma omillarining roli, suv havzalarining, o'simlik va hayvonot dunyosining, mineral suvlar va shifobaxsh balchiqlarni turizmdagi ahamiyati berilgan. Shuningdek, tadqiqotchi olimlarning turizm va rekreatsiyaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar haqidagi fikr mulohazalari va ularning hududlarda turizmni rivojlanishiga ta'sirlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, geosiyosiy vaziyat, infratuzilma, shifobaxsh balchiqlar, qulay, nisbatan qulay, ionlashishi, fitonsid, etnografiya va folklorlar.*

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА И РЕКРЕАЦИИ

Жумаев Х.Х., Рахимбердиев М.О.
Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан
e-mail: jumayevgeog@mail.ru

Аннотация: *В данной статье представлена роль природных, социально-экономических, политических и инфраструктурных факторов, влияющих на развитие туризма и отдыха, значение водных объектов, флоры и фауны, минеральных вод и лечебных грязей в туризме. Также освещены мнения ученых-исследователей о факторах, влияющих на развитие туризма и рекреации, и их влиянии на развитие туризма в регионах.*

Ключевые слова: *природное, социально-экономическое, геополитическое положение, инфраструктура, лечебные грязи, удобное, относительно удобное, ионизация, фитонциды, этнография и фольклор.*

FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF TOURISM AND RECREATION

Zhumaev Kh.Kh., Rakhimberdiev M.O.
Karshi State University, Karshi, Uzbekistan, e-mail: jumayevgeog@mail.ru

Abstract: *This article presents the role of natural, socio-economic, political and infrastructural factors influencing the development of tourism and recreation, the importance of water bodies, flora and fauna, mineral waters and therapeutic mud in tourism. The article also highlights the opinions of research scientists on the factors influencing the development of tourism and recreation, and their impact on the development of tourism in the regions.*

Keywords: *natural, socio-economic, geopolitical position, infrastructure, therapeutic mud, convenient, relatively convenient, ionization, phytoncides, ethnography and folklore.*

Turizm va rekreatsiyani rivojlanishida, hududning turistik-rekreatsion salohiyatini, infratuzilma tizimlarini shakllantirishda turlicha omillar va shart-sharoitlarning ta'siri muhim hisoblanadi. Ular orasida tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, tibbiy-biologik, etnik, ijtimoiy-psixologik va boshqa omillar alohida o'rin tutadi.

Mintaqada turizmni rivojlantirishda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, infratuzilma omillari muhim hisoblanadi. Ular sayyohlik markazlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ularni quyidagi 4 ta yirik guruhlarga ajratishimiz mumkin.

- tabiiy omillar - re'lef, iqlim, suv resurslari, mineral suvlar va shifobaxsh balchiqlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, landshaftlar, ekologik holat, qo'riqlanadigan hududlar turistik mintaqalarning jozibadorligini oshiradi;

- ijtimoiy-iqtisodiy omillar - iqtisodiy-geografik o‘rin, tarixiy-madaniy obyektlar, sug‘urta va moliya, aholi daromadi, ta’lim, sotsiologik, nozogeografik, kriminogen, innovatsiya va investitsiya muhitini rivojlantiradi;
- infratuzilma omillari - mehmonxonalar va boshqa joylashtirish tizimi, ovqatlanish tizimi, transport xizmati, savdo shaxobchalari, ko‘ngilochar shaxobchalari, madaniyat tashkilotlari, muhandislik-qurilish inshoatlari infratuzilmaning rivojlanish darajasini belgilaydi;
- siyosiy omillar - geosiyosiy vaziyat, inqirozlar, siyosiy beqarorlik, iqtisodiyotni harbiylashtirish, chegaralarni ochish mamlakatlar bo‘ylab sayyohlikni rag‘batlantiradi yoki aksincha chegaralaydi.

Tabiiy omillar tarixan rekreatsiya va turizmni rivojlantirish uchun asos bo‘lib kelgan. Tabiiy omillarga re’lef, iqlim, suv havzalari, o‘simlik va hayvonot dunyosi, mineral suvlar va shifobaxsh balchiq kabilar muhim ahamiyat ega. Atmosfera umumiy sirkulyatsiyasining namoyon bo‘lishlaridan biri shamol bo‘lib, u ayni paytda ob-havo sharoitlarining turizm va rekreatsiya uchun qulayligini belgilaydigan omillardan biri hisoblanadi [11].

Rekreatsiyani tashkil etishda meteorologik elementlar, jumladan, qulay haroratning davomiyligi, quyosh nurlari davomiyligi, havoning nisbiy namligi va boshqalar insonlarni dam olishi, salomatligi va uni tiklashda e’tiborga olinadi.

Suv havzalarining geoekologik roli turli tuman bo‘lib, tog‘ va tekislik daryolari, chuqurligi va sho‘rligi bilan ajralib turuvchi ko‘llar xilma-xil turistik sayohatlari va sport tadbirlari: ekstremal rafting, akvalang bilan suv ostiga sho‘ng‘ish hamda yil bo‘yi baliq ovini uyushtirishda muhim omil hisoblanadi [13]. Demak, suv havzalarida rekreatsion faoliyat davolash-sog‘lomlashtirish, sport va sayyohlik, baliq ovi va ovchilik faoliyatini o‘z ichiga oladi.

1-jadval.

Suv havzalarining plyaj-cho‘milish rekreatsion xususiyatlariga ko‘ra qulaylik darajasi

Ko‘rsatgichlar	**Qulaylik darajasi**		
	qulay	**nisbatan qulay**	**noqulay**
Qirg‘oq holati	Quruq terrasali, tik qiyaliksiz, tabiiy sharoiti yaroqli	Quruq, tik qiyasiz, ko‘pincha to‘satdan, qirg‘oqga chiqish uchun oddiy tuzilmalarni talab qiladi	Sohillari botqoq, juda tik yoki baland jarlik
Suvga yaqin qismi	Ochiq	Bir oz tozalashni talab qiladi	Butazor, yopiq
Plyaj holati	Qum va kichik shag‘al toshlar	O‘tlar, katta shag‘al toshlar	Glina, torf, yirik toshlar
Qirg‘oqlarning uzunligi	20-100 m (dengizda), 20-50 m (daryo va ko‘lda)	<100 m (dengizda), <20 m; >50 m (daryo va ko‘lda)	Sayozlik yo‘q
Suv osti holati	Qum va kichik toshlar	Yirik toshlar, shag‘al qumlar, toshlar	Tosh, loy, katta o‘tkir toshlar, suvlar mikroorganizmlar bilan qoplangan, katta plitalar
Daryo oqimi tezligi	< 0,3 m/s	0,3-0,5 m/s	> 0,5 m/s
Suv harorati °C	18° - 24°	16°-17°	<16° > 26°
Sanitariya-gigiyena sharoiti	Toza, sanitariya holati yaxshi	Sanitari holati yaxshilanadi, suv o‘z-o‘zini tozalaydi	Sanitariya holati belgilangan darajadan oshadi va suv holati qoniqarsiz

Manba: Колотова Е.В. Рекреационное ресурсоведение. Учеб. пособие, М. 1998.

Cho‘milish mavsumi suv havzalarida suvni harorati 18°C ga yetganda boshlanadi (cho‘milish uchun qulay harorat, suvning harorati 18 dan 24 °C [2]. Bu suv havzalarini rekreatsion zonalarga aylantirishga yordam beradi, hamda ko‘plab dam olish va ko‘ngilochar obyektlar (sanatoriya-kurortlar, dam olish uylari, turbazalar va boshqalar) joylashishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Suv havzalarining geoekologik roli turli tuman bo‘lib, tog‘ va tekislik daryolari, chuqurligi va sho‘rligi bilan ajralib turuvchi ko‘llar xilma-xil turistik sayohatlari va sport tadbirlari: ekstremal rafting, akvalang bilan suv ostiga sho‘ng‘ish hamda yil bo‘yi baliq ovini uyushtirishda muhim omil hisoblanadi [13]. Demak, suv havzalarida rekreatsion faoliyat davolash-sog‘lomlashtirish, sport va sayyohlik, baliq ovi va ovchilik faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Suv havzalari turizm va rekreatsiyani rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, yozda suv havzalari qirg‘oqlarida dam olish turlarining qulaylik darajasiga qarab qulay, nisbatan qulay va noqulay darajalarga bo‘linadi (1-jadval).

O‘simlik dunyosini turizm va rekreatsiyani rivojlantirishdagi ahamiyati juda katta bo‘lib, o‘simliklarning ionlashishi va fitonsid xususiyatlari tufayli landshaftning shifobaxsh ta’siri ular bilan bog‘liq. O‘rmonlar, jumladan, aralash va qarag‘ay o‘rmonlar eng yaxshi ionlashishga ega ekanligi aniqlangan. Dam olishda asosiy vazifani bajaradigan o‘rmonlar, ushbu hududning sanitariya-gigiyena sharoitlarini ham belgilaydi. O‘rmonlar insonlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nurlaridan himoya qiladi va yoz kunida havo haroratini 1-1,5 °C ga tushiradi, atmosfera namligini (30 foizgacha) oshiradi, atmosfera havosini sanoat ifloslanishidan ham tozalaydi.

2-jadval

Turli xil yashil maydonlarda shovqin va ifloslanishining kamayish darajasi

O‘simlik turlari	**Magistral yo‘llardan uzoqligi, m**				
	50	100	150	200	250
	Shovqinni kamaytirish, dB				
Keng bargli daraxt turlari					
Dub, terak	4,2	6,1	8,0	9,0	10,0
Butalar	6,0	9,1	11,5	12,5	14,0
Ignabargli daraxt turlari					
Qarag‘ay	7,0	11,0	12,5	14,0	15,5
Sosna	9,0	12,2	14,2	16,0	17,5

Manba: Колотова Е.В. Рекреационное ресурсоведение. Учеб. пособие. М. 1999.

Turli xil daraxt turlarining chang o‘tkazmaydigan xususiyatlari bir xil emas. Yil davomida 1 ga. o‘rmon 50-70 tonnagacha changni filtrlay oladi. Masalan, archa barglari orqali har yili havodan 32 t/ga chang, qarag‘ay - 36, eman - 56, olxo‘ri - 68 t/ga gacha filtrlaydi [1], shovqinni va ifloslanishini kamaytiradi. Daraxt barglari sodir bo‘lgan tovush energiyasining o‘rtacha 25 foizini o‘zlashtiradi va bu energiyaning taxminan 75 foizi aks ettiriladi va tarqatadi. Ignabargli o‘simlik turlari eng yaxshi shovqin yutuvchi xususiyatlarga ega [5], bu esa rekreatsiyani rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi (2 -jadval).

Hayvonot dunyosi turizm uchun ikkita qarama-qarshi funksiyani bajaradi: bir tomondan, u tanishuv, baliq ovi va ovchilik turizmi uchun turizm-rekreatsiya resursi bo‘lib xizmat qiladi, ikkinchi tomondan, turizmni rivojlantirishda cheklovchi omil hisoblanadi. Tanishuv turizmida hayvonlar olami vakillarini, tabiiy yoki ular atrofiga yaqin bo‘lgan turistik hududlarda sayyohlarga ko‘rsatish yoki bevosita kuzatib borish imkoniyatiga ega [6]. Turistik faoliyatda ovchilik va baliq ovi turizmi yovvoyi hayvonlar va baliqlarning turlari ko‘p bo‘lishiga ham bog‘liq holda rivojlanadi.

Mineral suvlar va shifobaxsh balchiqlar tibbiy-davolanish, sog‘lomlashtirish turizmni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Mineral suvlar harorati, kislotalilik, minerallashuvi va gazlari tarkibi bo‘yicha tasniflanadi. Mineral suvlar va shifobaxsh balchiqlarning mavjudligi mintaqaning ko‘plab hududlarida davolanish-sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirishda va turizm infratuzilmasining joylashishini ham belgilaydi. Tabiiy omillarning har tomonlama tahlil qilinganda, insonlarning yashash va dam olish faoliyati uchun qulaylik sharoitni baholashda, hududlarning qulay va noqulaylik darajasini ham belgilab beradi.

Tog‘ va cho‘l landshaftlari bu, maksimal estetik-resurs salohiyatiga ega bo‘lgan rekreatsion hudud hisoblandi. Hududning ekologik holati va qo‘riqlanadigan hududlar, qo‘riqxona va milliy bog‘lar tabiatini bir butun holda majmuaviy o‘rganish, biologik va geografik jihatdan o‘xshash bo‘lgan hududlarning tabiiy resurslari va tabiiy sharoitidan oqilona foydalanish turizm va rekreatsiyani rivojalantirishda muhim omildir. Hozirgi kunda milliy tabiat bog‘lari muhofaza qilinadigan va turizm-rekreatsiya maqsadida tashkil etiladi.

Turizmni rivojlantirishda A.P.Durovich va boshqa olimlar tarixiy-madaniy omillarga - mintaqadagi turli xil tarixiy-me’moriy yodgorliklar, aholining milliy, madaniy, diniy tarkibining xilma-xilligi va boshqa an’analarni kiritadi [4]. Y.A. Vedenin tarixiy-madaniy obyektlariga – sanoat korxonalari, qishloq xo‘jaligi, transport, teatrlar, o‘quv muassasalari, sport inshootlari, botanika va hayvonot bog‘lari, etnografiya va folklorlar, diqqatga sazovor joylar, hunarmandchilik san’at namunalari, xalq urf-odatlari, bayram marosimlari va boshqa obyektlarini kiritadi [3]. Bunday obyektlarga arxeologik, arxitektura va monumental san’at yodgorliklarini kiritish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Tadqiqotchi V.I.Krujalin fikriga ko‘ra, turizmning rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar quyidagilardan iborat: hududning iqtisodiy-geografik o‘rni; qabul qiluvchi mamlakat va uning turistlarni asosiy yetkazib beruvchisi bo‘lgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi; aholining ijtimoiy va kasbiy tarkibi; turistik infratuzilma va turar joy fondlari mavjudligi,.. transport vositalarini takomillashtirish; ma’lum bir hududda, xizmatlar uchun narx darajasi, aholining real pul daromadlari, ta’tilning davomiyligi, rekreatsion zonalar va turistik yo‘nalishlar to‘g‘risida reklama va ma’lumotlar ishlab chiqish [8]. Yuqoridagi barcha omillar hududda turizm va rekreatsiya sohasini rivojlanish darajasini belgilab beradi.

Bugungi kunda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omili sifatida innovatsion faoliyatdan foydalaniladi [9]. Innovatsion omillar ilmiy-texnik taraqqiyotni va turizm sanoatini kompyuterlashtirishni aniqlaydigan asosiy sayyohlik turlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi, iqtisodiyotning transport va aloqa, qishloq xo‘jaligi, qurilish, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish va boshqa muhim sohalariga katta ta’sir ko‘rsatadi hamda iqtisodiy rivojlanish uchun katalizator vazifasini bajaradi [10]. Bunda, mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishi turizmni qay darajada rivojlanishini ham belgilaydi. Infratuzilma omillariga – mehmonxonalar va boshqa joylashtirish tizimi, ovqatlanish tizimi, transport xizmati, savdo shaxobchalari, ko‘ngilochar shaxobchalari, madaniyat tashkilotlari, bank, muxandislik-qurilish obyektlari va boshqalar kiradi.

Turizmning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri mamlakatdagi siyosiy vaziyat, inqirozlar, siyosiy beqarorlik, iqtisodiyotni harbiylashtirish yoki chegaralarni ochish siyosati, turizm sohasida ma’muriy nazoratni yengillashtirish bularning barchasi soliq va pul siyosatining birlashtirilishi mamlakat bo‘ylab sayohat qilish imkoniyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilaydi [12]. Markaziy Osiyo respublikalariga, jumladan, O‘zbekistonga ham qo‘shni Afg‘onistondagi siyosiy vaziyat turizmning rivojlanishiga katta ta’sirini o‘tkazib kelayapti va har bir mamalakatdagi siyosiy barqarorlik turizmni rivojlanishida muhim omil bo‘ladi.

Turizm sanoatining shiddat bilan rivojlanishi, jahon turizm bozorida raqobatning yuzaga kelishi, turizm infratuzilma faoliyatiga ta’sir ko‘rsatdi va ularning keyingi

ixtisoslashuvini aniqlab beradi, hamda sohani rivojlantirishda yetarli shart-sharoit mavjudligini hisobga olgan holda, turistik-rekreatsion resurslarining barcha turlarini yo‘lga qo‘yish orqali aholining iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini yaxshilashga erishish mumkin.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi davriga kelib, turizm sohasi yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Zero hududlarning tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilma salohiyatidan sayyohlik maqsadlarida samarali foydalanish o‘z navbatida aholining bandlik darajasini oshirishda, turmush sharoitlarini yuksaltirishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababdan, zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan turizm va rekreatsiyani ilmiy tadqiq qilish, hududlarning turistik-rekreatsiya salohiyatidan foydalanishning ilmiy-uslubiy masalalarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Turizm va rekreatsiyani rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillardan kompleks foydalanish, o‘z navbatida sayohatning davomiyligini, turistik-ko‘ngilochar tadbirlarni o‘tkazish imkoniyatlarini aniqlaydi va sayyohlik oqimlarining ortishiga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Большаков А. С. Организация лесопользования. Сыктывкар: Учебное пособие. СЛИ, 2013. С.14-15

2. Ветитнев А. М. Курортное дело: учебное пособие. 20-е изд. стер. -М.: КНОРУС, 2007. - с. 528.

3. Веденин Ю.А. Культурный ландшафт как объект культурного и природного наследия. Известия РАН. Сер. геогр., 2001, № 1. Красная С.А. Культурный туризм; просветительская сущность и факторы развития Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата культурологии. - М., 2006.

4. Дурович А.П., Кабушкин Н.И., Сергеева Т.М. и др. Организация туризма: учеб. пособ. - Мн.: Новое знание, 2005.

5. Киприна Е.Н. Туристское ресурсоведение: учебное пособие. Тюмень: Изд-во Тюменского государственного университета, 2014. С.73.

6. Колбовский Е.Ю. Экологический туризм и экология туризма. учебное пособие. М.: 2006. Академия. с.256.

7. Колотова Е.В. Рекреационное ресурсоведение. Учеб. пособие, М. 1998.

8. Кружалин В.И., Мироненко Н.С. и др. География туризма. Учебник. М.: Федеральное агентство по туризму. 2014. с.320.

9. Новиков В.С. Инновации в туризме: учебное пособ. - М.: ИЦ Академия, 2007. - 208 с. 37.

10. Романов А.А., Саакянц Р.Г. География туризма: учеб. пособ. - М.: Советский спорт, 2002. с. 464.

11. Толстая Е. В. Экологическая медицина. Минск: МГЭУ им. А. Д. Сахарова, 2005. с. 123.

12. Чудновский А.Д., Жукова М.А., Сенин В.С. Управление индустрией туризма: учебное пособие. 2-е изд. - М.: КНОРУС, 2005. С. 448.

13. Шамуратова Н.Т. Ўзбекистонда экологик туризм ва унинг табиий географик жиҳатлари. Г.ф.н. диссерт. авторефер. Т. 2011. 12- 25 б.

QASHQADARYO VILOYATINING TABIIY TURISTIK - REKREATSION SALOHIYATI

Jumayev X.X., Shokirova G.SH.

Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston, e-mail: jumayevgeog@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining tabiiy turistik-rekreatsion salohiyati, jumladan, relef turlari, suv havzalari, daryolar, ko‘llar, suv omborlar, iqlimning asosiy*

turistik-rekreatsion xususiyatlari va turizmdagi ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatidagi suv havzalarida rekreatsiyani rivojlantirishda, cho‘milish-plyaj turizmi maqsadida baholash ishlari olib borilgan, shifobaxsh mineral suv manbalarining, o‘simlik dunyosi va qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarning turistik-rekreatsion salohiyati va ularning turizmdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *rekreatsion-kognitiv, speleo, nisbiy namlik, cho‘milish-plyaj, suv harorati, o‘rta davr, shifobaxsh balchiqlar, ionlashishi, fitonsid, qo‘riqxona.*

ПРИРОДНЫЙ ТУРИСТСКО-РЕКРЕАЦИОННЫЙ ПОТЕНЦИАЛ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Жумаев Х.Х., Шокирова Г.Ш.
Каршинский государственный университет
Карши, Узбекистан, e-mail: jumayevgeog@mail.ru

Аннотация: *В данной статье представлена информация о природном туристско-рекреационном потенциале Кашкадарьинской области, включая типы рельефа, водоемы, реки, озера, водохранилища, основные туристско-рекреационные особенности климата и его значение в туризме. Также при развитии рекреации на водных объектах Кашкадарьинской области проведена работа по оценке с целью купально-пляжного туризма, туристско-рекреационного потенциала источников лечебных минеральных вод, растительного мира и охраняемых природных территорий и их значения были выделены в туризме.*

Ключевые слова: *рекреационно-познавательный, спелео, относительная влажность, купальный пляж, температура воды, средний период, лечебные грязи, ионизация, фитонциды, заповедник.*

NATURAL TOURIST AND RECREATIONAL POTENTIAL OF KASHKADARYA REGION

Zhumaev Kh.Kh., Shokirova G.Sh.
Karshi State University, Karshi, Uzbekistan, e-mail: jumayevgeog@mail.ru

Abstract: *This article provides information about the natural tourism and recreational potential of the Kashkadarya region, including types of relief, water bodies, rivers, lakes, reservoirs, the main tourism and recreational features of the climate and its importance in tourism. Also, during the development of recreation in water bodies of the Kashkadarya region, work was carried out to assess the tourist and recreational potential of sources of medicinal mineral waters, flora and protected natural areas for the purpose of bathing and beach tourism, and their significance was highlighted in tourism.*

Keywords: *recreational and educational, speleo, relative humidity, bathing beach, water temperature, middle period, therapeutic mud, ionization, phytoncides, nature reserve.*

Tabiiy turistik-rekreatsion salohiyat - bu aholining dam olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira oladigan turli darajada va o‘lchamdagi tabiiy va tabiiy-antropogen landshaft majmualari va ularning xususiyatlaridir.

Har bir hududning tabiati, uning turli komponentlari, tabiat yodgorliklari, tog‘lar, daryolar, ko‘llar, shifobaxsh buloqlar, o‘rmonzorlar o‘z navbatida mazkur hududning turistik-rekreatsion jozibadorligini oshirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qashqadaryo viloyatining chegaralari uzunligi 795 km bo‘lib, shundan 405 km tog‘lar, 390 km tekisliklardan o‘tadi. G‘arbdan sharqqa 293 km, shimoldan janubga 195 km masofaga cho‘zilganligi, ko‘plab qiziqarli kompleks turistik marshrutlar tuzishda qulayliklar tug‘diradi.

Qashqadaryo havzasi hududi geomorfologik jihatdan uchta asosiy shaklga (tog‘, tog‘oldi va tekislik mintaqalari) ajratiladi. Tog‘ mintaqasi asosan Zarafshon va Hisor

tizmalariga mansub bo‘lgan o‘rtacha baland va baland tog‘larni o‘z ichiga oladi. Qoratepa, Chaqilkalon, Osmontarash, Qoratog‘, Hazrati Sulton, Beshnov, Sumsar, SHertog‘, Takao‘ynar, Toytalash, Eshakmaydon, Xontaxti, Qorasirt, Chaqchar, Sariqiya, Kontepa, Oqboshtov, Oqtog‘, Bobosurxak-Qorasirt tog‘ va tog‘oldi hududlarida eksteremal tog‘ turizmi, alpinzm, treking, speleo va ekoturizm turlarni rivojlantirish imkoni mavjud.

O‘rtacha balandlikdagi tog‘lardagi o‘rmon-o‘tloq-dasht mintaqasi G‘arbiy Tyanshan va Hisor tog‘larida 800-900 m dan 2500-2700 m gacha bo‘lgan balandlikda joylashgan. O‘rtacha balandlikdagi tog‘lar ekoturistlar uchun ancha qulay, inson organizmi uchun komfort va subkomfort xususiyatlarga ega [12]. Hududning relyef tipiga qarab ham turizm va rekreatsiyaning bir qancha turlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Rekreatsiya tizim tarkibidagi relyefning asosiy rekreatsion xususiyatlarining namoyon bo‘lishini tahlil qilish uchun, dam olishda uning funksiyalarini uchta guruhini ajratib ko‘rsatish kerak: jozibadorlik, transport va xavfsizlik, texnologik funksiyalari [3]. Bunda, rekreatsiyani rivojlantirishda hududning landshaft jozibadorligi bilan birga xafsizlik nuqtai nazardan ham e’tiborga olish zarur.

Hozirgi vaqtda relyefning turli xil hududiy turistik-rekreatsion tizimlarning shakllanishi va faoliyatiga ta’sirini baholash amalga oshiriladi [4]. Bularga quyidagilar kiradi: rekreatsion-davolanish turi (iqlimiy, balneologik); rekreatsion - sog‘lomlashtirish turi (plyaj - cho‘milish va davolovchi yurish); rekreatsion-sport turi (chang‘i sporti, sho‘ng‘ish, daryo bo‘yida suzish, baliq ovlash va ovchilik); rekreatsion-tanishuv turi, tabiiy kompleksdagi relyefning asosiy holatini hisobga olgan holda rekreatsion-kognitiv tipidir. Bu yerda, sayyohlik va rekreatsiya faoliyatini rivojlantirishda relyef elementlarini kompleks baholashga e’tibor qaratilgan.

Qashqadaryo viloyatidagi Beshnov, Osmontarash, SHertog‘, Sumsar, Chaqchar tog‘laridan turizm va rekreatsiyada foydalanish imkoniyatlari katta. Tog‘larda doimiy qor va muzliklar, soy va daryolar, sharsharalar (Suvtushar, Tatar, Xo‘kkizburun, Baytaldumi, Teres va boshqa.), soy vodiylari, tabiat yodgorliklari, karst shakllari, g‘orlar, daralar (Qalaisheron, Qizilsuv, Suvtushar, Turku Tuyg‘un, Kunkurmas, Novshur, Tanxoz, Oqsuvdara, Qasam daralari va boshqalar) ajoyib rekreatsion obyektlarida tog‘-chang‘i, ekoturizm, treking, alpinizm turizmini rivojlantirish uchun istiqbolli hududlar hisoblanadi.

Iqlim sharoitlarining shakllanish xususiyatlariga ko‘ra, Qashqadaryo viloyati hududi subtropik iqlim guruhiga mansub bo‘lib, Turon provinsiyasining alohida Qashqadaryo iqlim okrugi sifatida ajratiladi [2]. Qashqadaryo viloyatining o‘ziga xos iqlimiy xususiyatlari uning geografik o‘rniga bog‘liq. Viloyatda rekreatsiyada eng foydali iqlimiy omillaridan biri quyosh radiatsiyasi miqdori 6700-7000 mj/m2 ni tashkil etadi. Quyoshli kunlar 2600-3000 soatga teng bo‘lib, u viloyat hududining deyarli hamma joyida yil davomida musbatdir [7]. Quyoshli kunlarning davomiyligi turistik-ko‘ngilochar tadbirlarni o‘tkazish imkoniyatlarini belgilaydi va sayyohlarning dam olishini oqilona tashkil etish imkonini beradi.

Viloyatning yillik o‘rtacha harorati tekislik va tog‘oldi rayonlari shimolida 15 ^{0}C (Kitob), janubda 16,1 ^{0}C (G‘uzor), Qarshi shahrida iyunning o‘rtacha harorati 28,4-29 ^{0}C bo‘lsada, ammo kunduz kunlari harorat 36-37 ^{0}C gacha ko‘tariladi. Mutlaq maksimum tog‘oldi hududlarida (Kitob, Dehqonobod) 43 ^{0}C, tekislikda esa 46-47 ^{0}C gacha (Qarshi, G‘uzor) yetadi. Tog‘li hududda relyef ta’sirining kattaligidan tekislikka nisbatan ancha salqin va sovuq bo‘lmaydiga kunlar o‘rta hisobda 226-228 kunga teng va bu turizmni ayrim turlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Insonlar uchun o‘rtacha qulay ob-havo sharoitlari quyidagi holatlarda kuzatiladi: havo harorati + 18 + 26 ^{0}C, nisbiy namlik 40-60 foiz, shamol tezligi - 0,1-0,2 m/s hisoblanadi. Havoning nisbiy namligi 30-60 foiz bo‘lganda odam o‘zini yaxshi his etadi. Agar nisbiy

namlik 30 foizdan past bo‘lsa quruq havo, 71-80 foizdan yuqori bo‘lsa juda nam havo hisoblanadi [6]. Viloyatda bunday qulay ob-havo sharoiti bahor oylariga mansub bo‘lib, ichki turizm faollashadi, sayyohlikni “pik” davriga to‘g‘ri keladi.

Viloyatda havoning nisbiy namligi yil davomida o‘zgarib turadi. Yozda namlik meyordan ancha past bo‘lib, Muborakda iyulda 22 foiz, Qamashida 25 foiz, tog‘larga ko‘tarilgan sari esa nisbiy namlik miqdori ortib boradi. Qarshi cho‘lida qurg‘oqchil kunlar ko‘p bo‘ladi va bu turizmni ayrim turlarini rivojlantirishda noqulay hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati hududida atmosfera yog‘inlarining mavsumiy va hududiy taqsimlanishi juda xilma-xil. Tekislikda yillik yog‘inlar miqdori 175- 300 mm, o‘rtacha baland tog‘larda 630-850 mm ni tashkil etadi. Qishki barqaror qor qoplamining mavjud bo‘lishi tog‘ chang‘i sporti bilan shug‘ullanish ikoniyatini beradi. Viloyatning Kitob, Shahrisabz, Yakkabog‘, Qamashi va Dehqonobod tumanlaridagi tog‘larda qor qalinligi 20-50 sm, baland tog‘larda esa doimiy muzliklar va qor qoplamlari vujudga kelgan bo‘lib ikki oydan olti oygacha qor qoplami saqlanib turadi. O‘rtacha baland va baland tog‘li mintaqalarda qishki tog‘ sport turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Viloyatning barcha iqlimiy ko‘rsatgichlaridan yil bo‘yi va mavsumiy turizm-rekreatsiya turlarini rivojlantirishda samarali foydalanish imkoniyatlari yuqori. Koson, Muborak, Mirishkor va Nishon tumanlarida bahor oylarida ekoturizm, tuyachilikning rivojlanganligini e’tiborga olib safari turizmi, tuya sutidan foydalangan holda sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish istiqbolli hisoblanadi.

Qashqadaryo havzasida 3122 katta-kichik daryolar bo‘lib, shulardan, 33 ta daryoning uzunligi 20 km dan, 149 ta daryoni uzunligi 10 km dan ortiq daryolardan iborat [11]. Qashqadaryo viloyati tog‘li hududlarida juda ko‘plab kichik-kichik soylar mavjud bo‘lib, bular ajoyib rekreatsiya sayyohlik obyektlari hisoblanadi.

Viloyatning tabiiy rekreatsion resurslarning turlari, jumladan, daryo va soylar, ko‘llar (tabiiy, sun’iy), buloqlar, sharsharalar va boshqalarni hududlar bo‘yicha mavjud turistik-rekreatsion salohiyatiga e’tibor qaratiladi. Hazrati Bashir, Yuqori Ayoqchi, Ho‘ja Nemati, SHerdog‘, Jovuz, Madmon, Sumsar qishloqlari, Langar, Tarag‘ay, Katta O‘ra va Kichik O‘radaryolarining yuqori oqimlari, Oqqishloq, Shaxshar, Dukonxona, Duob qishloqlarida, Maydanak platosi, Torqopchig‘oy daryosining o‘rta va yuqori oqimlarida, Oqsuv, Qizildaryo, Turna daryosi, Tanxozdaryoning o‘rta va quyi oqimlari hududlari kelajakda dam olish va davolash-sog‘lomlashtirish maskanlarini joylashtirishda istiqbolli hududlar hisoblanadi.

Suv havzalarida suvni harorati 18 ^{0}C bo‘lganda cho‘milish uchun qulay hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatidagi suv havzalarida rekreatsiyani rivojlantirishda cho‘milish-plyaj maqsadida baholash uchun suv havzalarini qirg‘oq bo‘yi holati, suvga yaqin qismi, plyaj holati, sayozligi, oqim tezligi, suvining harorati, sanitariya-gigiyena holati va umumiy tavsifi bo‘yicha, ularni qulaylik darajasiga qarab quyidagicha baholanadi: qulay - 3 ball, o‘rtacha qulay - 2 ball, nisbatan qulay - 1 ball (1-jadval).

1-jadval.

Qashqadaryo viloyati tabiiy suv obyektlarini plyaj-cho‘milish dam olish maqsadida baholash

Suv obyektlari	Qirg‘oq holati	Suvga yaqin qismi	Plyaj holati	Sayozlik	Tavsifi	Oqim tezligi	t ^{0}C	Sanitariya-gigiyena holati
Qashqadaryo daryosi	3	3	3	3	2	3	3	2
Jinnidaryo	2	2	1	2	2	3	3	2

Oqsuv	2	2	1	1	2	2	1	2
Tanxoz	2	2	2	2	2	2	2	3
Qizil daryo	2	3	2	1	2	2	1	3
Turna daryo	2	2	1	2	2	3	3	2
Langar daryo	1	1	1	1	2	3	3	2
G‘uzor daryo	2	1	1	2	2	3	3	2
Katta O‘radaryo	2	2	2	2	2	2	3	2
Kichik O‘radaryo	2	1	2	1	2	3	3	2
Hisorak suv ombori	2	2	1	1	3	-	2	3
Chimqo‘rg‘on suv ombori	3	2	3	3	3	-	3	3
Pachkamar suv ombori	3	2	3	2	2	-	3	2
Tallimarjon suv ombori	3	3	3	3	2	-	3	3
Sho‘r ko‘l	3	3	3	3	3	-	3	2
Sechan ko‘l	3	3	3	3	3	-	3	3

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqordagi 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, viloyatdagi tog‘ daryolari cho‘milish uchun noqulay hisoblanadi. Chunki, daryolarning oqim tezligi yuqori va suv harorati past. Tog‘ oldi hududlarda ham daryoning oqim tezligi 1,1-1,3 m/s dan yuqori, daryolarda havfsiz cho‘milish uchun oqim tezligi 0,5 m/s dan yuqori bo‘lmasligi kerak. Qashqadaryo havzasining yuqori oqimidagi daryo suvlarining harorati 10 ^{0}C dan pastligi tufayli cho‘milish uchun noqulay hisoblanadi, o‘rta oqimida suvlarning harorati 18-20 ^{0}C, quyi oqimida esa suvning harorati 23 ^{0}C dan yuqori bo‘ladi va daryo bo‘ylarida ko‘plab dam olish va cho‘milish-plyaj zonalarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Muz-qor suvidan to‘yinuvchi tog‘ daryolari Oqsuv, Tanxoz, Qizilsuv daryo suvlari harorati yoz oylari 10-14 ^{0}C gacha ko‘tariladi, shuning uchun ham bu daryolar cho‘milishda noqulay, aksincha, daryo bo‘ylarida rekreatsiyani rivojlantirishda, qor-yomg‘ir suvlaridan to‘yinuvchi daryolar Qashqadaryo, Qorasuv, Jinnidaryo, Turnadaryo, Katta O‘radaryo, Kichik O‘radaryo va soylar cho‘milishda qulay hisoblandi. Viloyat tog‘li mintaqalaridagi Janqa ko‘li, Tanxozdaryo boshlanadigan joyda G‘oziko‘l, Katta Uradaryoning yuqori oqimida Turobbobo, Kichik Uradaryo boshlanishida Xo‘jabulg‘ur ko‘llari atrofida rekreatsiya, ekoturizm, cho‘l mintaqasidagi Xo‘jamsayyod, Sechanko‘l, Achinko‘l, SHo‘rko‘l ko‘llarida cho‘milish-plyaj turizmi, suv sporti va ov turizmida istiqbolli turistik obyektlar hisoblanadi.

Suv omborlarning turizm va rekreatsiyada ahamiyati katta bo‘lib, ularning atrofida kurort-sanatoriyalar, dam olish bazalari, bolalar oromgohlari, cho‘milish zonalarini barpo etish imkoniyati istiqbolli. Suv omborlarning suvli yuza maydoni 500 ga va undan ortiq bo‘lsa dam olishning barcha turlaridan foydalanish, suv sporti bilan shug‘ullanish va musobaqalar o‘tkazish uchun qulay hisoblanadi. Viloyatdagi suv omborlar, jumladan, Tallimarjon suv omborining maydoni 30 km^2, suv sig‘imi 1,5 mlrd.m3. Uning atrofida harorat yozda 30-37 ^{0}C, namlik 22-25 foiz, shamolning tezligi 2,6 m/s, suv harorati 17-23 ^{0}C. Bu yerda plyaj-cho‘milish, suv sporti, matorli qayiqda suzish ikoniyati mavjud va dam olish hududlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Chimqo‘rg‘on suv ombori geografik jihatdan ancha qulay joylashgan, yoz oylarida dam oluvchilar ko‘plab tashrif buyuradi. Chimqo‘rg‘on suv ombori hajmi 500 mln.m3, suv omborining atroflarida shamolning tezligi 2-3 m/s, havo harorati 26-30 ^{0}C, nisbiy namlik 30-25 foiz, suv harorati o‘rtacha 18-22 ^{0}C, bu hududda rekreatsiyani rivojlantirish imkoniyatlari yuqori bo‘lib, suv sporti, cho‘milish, baliq ovlash uchun qulayliklar mavjud.

Pachkamar suv ombori adirlar orasida joylashgan bo‘lib, rekreatsiyada muhim obyekt hisoblanadi. Pachkamar suv omborining atroflarida shamolning tezligi 2-3 m/s, havo harorati 26-30 ^{0}C, nisbiy namlik 30-25 foiz, suv harorati o‘rtacha 19-22 ^{0}C. Suv omborda suv sporti turlari, cho‘milish, matorli qayiqda suzish, baliq ovlash imkoniyatlari yuqori.

Tog‘ mintaqasida joylashgan Hisorak, Langar, Dehqonobod, Qizilsuv, Qalqama suv omborlari mavjud. Ular atrofida yozda harorat 26-30 ^{0}C, havoning nisbiy namligi 20-25 foiz, shamol tezligi 2-3 m/s bo‘ladi. Hisorak suv ombori qor-muzlikni erishidan to‘yinadigan daryo va soylardan suv yig‘ilishi tufayli boshqa suv omborlarga nisbatan suv haroratining pastligi bilan ajralib turadi. Hisorak, Langar, Qizilsuv, Toshloqsoy suv omborlarining atroflarini dam olish maskanlarga aylantirish istiqbolli hisoblanadi.

Viloyatdagi mavjud suv omborlardan turizm-rekreatsiya maqsadida foydalanishda: yaqin qisqa davrga mo‘ljallangan, Qarshi shahridan 60-120 km masofa uzoqlikda joylashgan Hisorak, Chimqo‘rg‘on, Pachkamar va Nug‘ayli suv omborlarini ekologiya, irrigatsiya va melioratsiya, sanitariya-gigiyena talabalariga mos kelishini o‘rgangan holda, shahar aholisi uchun ochiq suv havzasi sifatida dam olish maskaniga aylantirish maqsadga muvofiq;

o‘rta davrga mo‘ljallangan Tallimarjon, Qalqama, Qarabog‘, Qamashi va Toshloqsoy suv omborlaridan rekreatsiya maqsadida, bu yerda suv sporti, baliq ovlash, cho‘milish va boshqa rekreatsiya turlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq;

uzoq vaqtga mo‘ljallangan, Boburtepa, Luqliko‘l, SHo‘robsoy, Langar va Dehqonobod suv omborlaridan ham kelajakda turizm va rekreatsiya maqsadida foydalanish maqsadga muvofiq.

Aholi uchun qulay bo‘lgan joylarda turli-tuman mineral buloq suvlar aholining e’tiborini tortadiki, bu buloq suvlari ichimlik suvi va balneologik maqsadlarida intensiv foydalanilamoqda. Tog‘lardagi buloqlardan aholi ichimlik suvi sifatida foylanishi bilan birga, qishloq va shahar aholisi undan sog‘lomlashtirish maqsadida ham foydalanmoqda.

Qashqadaryo viloyatida ko‘plab shifobaxsh mineral suv manbalari aniqlangan va hozirgi kunda ulardan 20 ga yaqini o‘rganilgan. Ular tekislik hududlarida Shimoliy Maymanoq, Maydayob, Xo‘jaquduq, Qorabayir, Alachabob, Janubiy Muborak va Qarshi yer osti buloqlarining minerallashuv darajasi ancha yuqori (80 g/l gacha), tog‘li hududlarda Ko‘kbuloq, Chillabuloq, Qorabuloq, Haydarbuloq, Qaynarbuloq, Xo‘ja Inkan, O‘rinbuloq, Kamol buloq va boshqa mineral buloqlarni mavjudligi, bu yerlarda ko‘plab davolash-sog‘lomlashtirish muassasalarini tashkil etish imkoniyatlarini yaratadi.

Viloyat nafaqat mamlakat yoki O‘rta Osiyoda, balki dunyo ahamiyatiga ega davolash-sog‘lomlashtirish va dam olish maskanlarini tashkil qilish uchun yetarlicha tabiiy resurslariga ega. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida kurort-rekreatsiya xo‘jaligini rivojlantirishda, Hisor-Ko‘xitang va G‘uzor-Dehqonobod rayonlarida kurortlar tarmog‘ini rivojlantirish uchun istiqbolli hisoblanadi [13]. Shahrisabz, Yakkabog‘, Qamashi, Dehqonobod, G‘uzor tumanlarida sanatoriyalarni rivojlantirishda yetarlicha mineral suvlar va shifobaxsh balchiqlarning katta zahiralari mavjud.

Dehqonobod tumanidagi Konsoy, Xo‘jaipok vodorod-sulfidli, Kamol buloq va O‘rinbuloq mineral buloqlarining suvlari tarkibida juda ko‘p kimyoviy elementlarning

mavjudligi balneologik ahamiyatga ega bo‘lib, bu hududlarda turistik oqimning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Viloyatda shifobaxsh balchiqlarning turi ko‘p bo‘lib, Konsoy va Xo‘jaipok mineral sho‘r ko‘llar shular jumlasidan. Konsoy sho‘r ko‘li Qarshina shaharchasidan 16 km. janubiy-sharqda, magistral yo‘ldan 15 km uzoqlikda joylashgan. Ko‘lning suv sarfi sekundiga 1,5-2,0 litr, minerallashishi darajasi 266 gramm, suvning tarkibi xlorid-natriyli, harorati 34 ^{0}C, tibbiy-davolanish rekreatsion ahamiyatiga ega bo‘lib, bu hududlarda davolash-sog‘lomlashtirish obyektlarini, yo‘llarni qurish, rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish hamda mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi shubhasizdir.

Qashqadaryo viloyati hududida o‘simliklarning 1184 turi yoki O‘zbekiston florasi vakillarining 40 foiziga yaqini tarqalgan. Viloyatning tekislik, tog‘oldi va tog‘li hududlarida rereatsiyani tashkil qilishda o‘simliklar dunyosi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyatdagi o‘rtacha baland tog‘larining o‘simlik qoplami zichligi 50-70 foiz, ayrim joylarda bundan ham ko‘p. Viloyatda 64,5 ming ga. o‘rmonli maydon bo‘lib, ulardan 64,3 ming ga.ni tabiiy tog‘ o‘rmonlari (archazorlar, yong‘oqzorlar va boshqa.) tashkil etadi. Archazorlar Hisor va Zarafshon tizmalarining yonbag‘irlarida 1500-3000 m balandliklarda, yong‘oqzorlar esa 800-2500 m balandliklarda tarqalgan [5]. Jumladan, Hisor qo‘riqxonasi (76889 ga) da 10750 ga maydon o‘rmon bilan qoplangan. Kitob geologiya davlat qo‘riqxonasi maydonining 52 foizini, yani 2793 ga. qismini o‘rmonlar tashkil qiladi. O‘rmonlar turizm va rekreatsiyani tashkil qilishda hamda uni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

1 gektar maydonga ega bo‘lgan qarag‘ay o‘rmoni atmosferaga kuniga 5 kg, qayinzorlar 2-3 kg gacha, archa o‘rmonlar - taxminan 30 kg fitonsidlarni chiqaradi [10]. Shu sababli, ignabargli o‘rmonlarda havo deyarli toza va uning tarkibida 1 m^3 havoda 100 ga yaqin mikroorganizmlar mavjud [9], ammo shaharlar havosida bu ko‘rsatkich 200 martadan oshib ketadi. Fitonsidlar grippning patogenlarini (pixta, archa, qoraqarag‘ay), dizenteriyani (eman, terak, qayin), difteriyani (archa), silni (qarag‘ay), stafilokokklarni (cheremuxa, terak) va boshqalarni yo‘q qilishi mumkin. Demak, turizm-rekreatsiyani rivojlantirishda, turistlar uchun qulaylik yaratish maqsadida magistral yo‘llar atroflarida, shaharlar va turistik obyektlar atrofidagi o‘simlik qoplamiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Tekislikda esa o‘simlik qoplami 10-20 foizni (ba’zida 5 foizini) tashkil qiladi, tekislik (cho‘l zonasi) qismida saksovulzorlar ko‘p uchraydi. O‘rmonlar radiatsiya va termal sharoitlarga foydali ta’sir ko‘rsatadi, yozda odamlar haddan tashqari issiq - diskomfort bo‘lgan kunlarda, o‘rmon maydonlari taxminan 1 darajadan 6 darajagacha issiqlikni kamaytiradi. 1 gektar o‘rmon maydoni 1 darajagacha, 15-20 gektar o‘rmon hududi esa 6 darajagacha issiqligini kamaytiradi [8]. Hududlarning o‘simlik qoplami rekreantlar uchun muhim ahamiyatga ega. Chaqchar, Xontaxti, Eshakmaydon, Bobosurxak, Oqbosh, Sariqiya, Beshnov, Sumsar, SHertog‘, Toytalash tog‘larida archali va siyrak o‘rmonlar katta maydonlarni egallaydi. Bu hududlarda o‘simliklar qoplami yil davomida haroratni mo‘tadillashtiradi, kurort-sanatoriya, dam olish zonalari va bolalar oromgohlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Hisor davlat qo‘riqxonasida Hisor tog‘ining janubi-g‘arbida, Qizildaryoning yuqori oqimida, Toshqo‘rg‘on qishlog‘idan 3,5 km janubda, Amir Temur va Mergandaryoning quyilish joyida joylashgan ohaktoshdan iborat maydonchada dinozavrlarning 23 ta panja izlari tushgan so‘qmoq bor. Hisor davlat qo‘riqxonasi hududi noyob tabiiy obyektlarga boy. Qo‘riqxonaning janubiy qismida dengiz sathidan 2937 m balandlikda O‘rta Osiyoning eng yirik g‘orlaridan biri Amir Temur g‘ori joylashgan. G‘orning uzunligi 815 m. bo‘lib, unda

stalaktitlar, stalagmitlar va boshqa ohakli quymalar ko‘p. Qo‘riqxonada tabiat yodgorliklari, karst shakllari, g‘orlar, daralar va boshqalar joylashgan bo‘lib, hududda turizm-rekreatsiyaning ko‘pgina turlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Qashqadaryo viloyatining yovvoyi tabiati bilan sayyohlarni tanishtirish maqsadida Hisor davlat qo‘riqxonasi va Kitob davlat geologik qo‘riqxonasiga tashrif uyushtirish va turistik infratuzilmalarni barpo etish maqsadga muvofiq. Jumladan, Kitob geologiya davlat qo‘riqxonasida paleozoy erasining deyarli barcha davrlariga mansub umurtqasiz hayvonlar qoldiqlari g‘oyatda yaxshi saqlangan bo‘lib, u ajoyib turistik maskandir. Kitob tumani Jovuz qishlog‘ida joylashgan “Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i”[1] UNESCOning global geoparklar tarmog‘iga kiritilishi belgilangan bo‘lib, tabiat bog‘ida geoturizm, ilmiy turizm va ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta. Qashqadaryo viloyatidagi qo‘riqlanadigan hududlarning tabiiy resurslari va o‘rmonlar bilan qoplanganlik darajasi turizm va rekreatsiyani rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘pgina rekreatsiya faoliyat turlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida viloyatda joylashgan suv omborlarini ekologiya, irrigatsiya va melioratsiya, sanitariya-gigiyena talabalariga mos kelishini o‘rgangan holda shahar va qishloq aholisi uchun ochiq suv havzasi sifatida dam olish maskaniga aylantirish maqsadga muvofiq. Shahrisabz shahri, Shahrisabz (Oqsaroy, Miraki, G‘ilon), Kitob, (Hazrati Bashir, Varganza, Mingchinor), Yakkabog‘ (Ishkent, Tatar), Chiroqchi (Langar va Tarag‘ay), Qamashi (Maydanak tog‘i), Dehqonobod (Chaqchar tog‘i, Konsoy sho‘r ko‘li, Xo‘jaipok), Mirishkor (Sichanko‘l), Muborak (Qoraqum qishlog‘i, O‘tror) tumanlarida va boshqa shu kabi ekoturizm va rekreatsiya resurslariga boy hududlarda tadbirkorlik subyektlari, davlat-xususiy sherikchiligida turizm infratuzilma (mehmon uylari, kemping, sanatoriya, dam olish uylari, bolalar oromgohlari, choyxonalar, savdo va transport xizmatlari) obyektlarni barpo etish imkoniyati mavjud.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-sonli Farmoni.
2. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Вопросы географического районирования Средней Азии и Узбекистана. Научние труды. ТашГУ, вип. 231, Тошкент 1964. С. 266.
3. Борсук О.А., Тимофеев Д.А. Привлекательность как критерий эстетической геоморфологии. Геоморфология на рубеже XXI века (IV Щукинские чтения). - М., 2000.
4. Бредихин А. В. Рекреационно-геоморфологические системы. Учебник - М.-Смолнск, 2010.
5. Жумаев Х.Х. Қашқадарё вилоятининг табиий рекреацион салоҳияти ва унинг ҳудудий таркиби”. “Бухорода ислом маданиятини модернизациялаш ва туризмни барқарор ривожлантириш истиқболлари”. Ҳалқаро илмий-амалий конференция материаллари. Бухоро. 24 фаврал, 2020 йил. 723-729 б.
6. Зокиров Ф.З., Раҳмонов К.Р. Ўзбекистоннинг шифобахш масканлари. Т. 1991. 120 б.
7. Маматов А. ва бошқалар. Қашқадарё вилояти географияси. Ўқув қўлланма. Қарши, 1994. 16-23 б.
8. Монахов Д.И., Шевченко Н.А. Природно-рекреационный потенциал и его социо-экологоэкономическая оценка. Экономика и экология территориальных образований. №2, 2016. Ростов-на-Дону. с.78-79.

9. Рогов В. А. Улучшение параметров микроклимата в производственных помещениях // Химия растительного сырья. 2000. № 2. С.73-78.

10. Токин Б. П. Целебные яды растений. Повесть о фитонцидах. 3-е изд., испр. и доп. Л.: ЛГУ, 1980. С. 26.

11. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. Учебник. - Т: Voris-nashriyot, 2007. С.76.

12. Шамуратова Н.Т., Сабитова Н.И., Никадамбаева Х.Б. Ҳудудларни ривожлантиришда экотуризмнинг аҳамияти: халқаро ва миллий тажриба. Ўзбекистонда туризм ва рекреацияни ривожлантиришнинг географик муаммолари ва имкониятлари. Халқаро илмий-амалий конференция. Чирчиқ шаҳри, 2019 йил 11-12 октябрь. 258 б.

13. Юсупов А.Х. “Оценка климатических уловий южных районов Узбекистана для отдыха и лечения”. Автореферат дисс. к. г.н. Т. 1995. С.17.

QASHQADARYO VILOYATIDA RIVOJLANAYOTGAN ZIYORAT TURIZMI (G‘uzor tumani misolida)

Qurbonov P.R., Safarov I.B.
Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston, e-mail: safarovisoq@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati G’uzor tumanidagi ziyorat turizmi obyektlari o‘rganilgan va viloyatda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ziyorat, ziyorat turizmi, muqaddas, qadamjo, sakral obyektlar, tabiiy obyektlar.*

РАЗВИВАЮЩИЙСЯ ПАЛОМНИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ (На примере Гузарского района)

Қурбонов П.Р., Сафаров И.Б.
Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан
e-mail: safarovisoq@gmail.com

Аннотация: *В данной статье изучены объекты паломнического туризма в Гузарском районе Кашкадарьинской области и разработаны предложения и рекомендации по развитию паломнического туризма в регионе.*

Ключевые слова: *паломничество, паломнический туризм, священное, место, сакральные объекты, природные объекты,*

DEVELOPING PILGRIMAGE TOURISM IN THE KASHKADARYA REGION (On the example of Guzor district)

Qurbonov P.R., Safarov I.B.
Karshi State University, Karshi, Uzbekistan, e-mail: safarovisoq@gmail.com

Annotation: *this article explores the objects of pilgrimage tourism in the Ghuzar District of the Kashkadarya region and develops proposals and recommendations for the development of pilgrimage tourism in the region.*

Keywords: *pilgrimage, pilgrimage tourism, holy, stepping stone, sacral objects, natural objects.*

Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan XXI asrda nafaqat butun dunyo mamlakatlarida, shu bilan birga Yangi O‘zbekistonda ham muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarga bo‘lgan munosabatlar o‘zgarib bormoqda. Buning isbotini 2019-yil 19-

dekabrda BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida “Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish” nomli maxsus rezolyutsiyasi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PF 6165-sonli “O‘zbekiston Pespublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tog‘risidagi” farmoni, hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 100-sonli “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” qarorlari, 2018-yil 15-fevraldagi 120-sonli “Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risidagi” qarorlarining qabul qilinishida ham ko‘rish mumkin.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga ko‘p daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlaridan biri turizm sohasi bo‘lib, ziyorat turizmi esa hozirgi kunda eng tez rivojlanib borayotgan turizmning tarmog‘i hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatidagi muqaddas qadamjolar hamda ziyoratgohlarni joylashgan geografik o‘rni va ziyoratgohlarning inson turmush tarzida tutgan ahamiyatini o‘rganish hamda tahlil qilish asosiy vazifalar hisoblanadi.

Viloyatda joylashgan ziyorat turizm obyektlarini uch turga bo’lib, o’rganishimiz mumkin; *birinchisi* - Ziyorat turizmining tabiiy geogafik obyektlari (g’orlar, daraxt, buloq, ko’l, daryo, sharshara, tosh); *ikkinchisi* - Ziyorat turizmining sakral geografik obyektlari(muqaddas ziyoratgohlar, avliyolar qabrlari, ba’zi ulug’ zotlarning g’oyib bo’lgan joylari); *uchunchisi* - Ziyorat turizmining arxeologik va arxetektura yodgorliklari;

Qashqadaryo viloyatida butun dunyoga ma’lum bo’lgan atoqli olim va mutaffakkirlar abadiy qo’nim topgan. Ularning boy ma’naviy-madaniy merosi butun dunyoga avvalgidek katta qiziqish tug’diradi. Viloyatda yuzga yaqin muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar xalqimizning tarixiy-madaniy obidalari sifatida saqlanib kelinmoqda. Abu Muin Nasafiy, Abu Ubayda al-Jarroh, Langar ota, Sulton Mir Haydar, Hazrati Beshir, Isoq ota, Murodbaxsh ota ziyoratgohlari bugungi kunda ziyoratchilar bilan gavjum. Bu ziyoratgohlarga viloyat bo’yicha eng ko’p ziyoratchilar tashrif buyurmoqda. Viloyatda ziyoratgohlar soni bo’yicha G’uzor tumani ajralib turadi.

G‘uzor tumanida muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar juda ko‘p bo‘lib, bu ziyoratgohlar Mirijanda ota, Musofir ota, G‘ulom Naqshband (G‘uzor shahri), Azizi G‘uzoriy (Eskibog‘ qishlog‘i), Chuchuk ota (Chukuk qishlog‘i), Xonaqa ota (Chanoq qishlog‘i), Zaynulobidin ota (Oqbo‘yin qishlog‘i), Xo‘ja Buzruk ota (Batosh qishlog‘i), Valiy Bobo (Qo‘shtepa qishlog‘i), Sharilloq ota (Qirpachkamar qishlog‘i), Said Xo‘ja Qorovul ota (Pachkamar MFY), Qorayli bobo (Qorayli qishlog‘i), Oqtosh bobo (Tengdosh qishlog‘i), Yettiqo‘l ota, Omon ota (Omon-ota qishlog‘i), Chuchuk ota (Qorako‘z qishlog‘i), O‘tari ota, Dostor ota (O‘tari qishlog‘i), Ko‘ktosh ota (Sovlig‘ar qishlog‘i), Hazrati Luqmon ota (Mustaqillik mahallasi), Hazrati Imom Halqama (Zangtepa qishlog‘i), G‘oyib ota (Quduq qishlog‘i), Qorako‘z ota (Qorako‘z qishlog‘i), Qumcho‘p ota, Tohir va Zuxra (Qavchin qishlog‘i), Zangi bobo (Zangibobo qishlog‘i), Jinjakli ota (Toshguzar qishlog‘i), Hojatbaror (Oqtosh qishlog‘i), Hazrati Xo‘jaboshi Abulays ota (Chugurtma qishlog‘i) ziyoratgohlari shu tumanda joylashgan. Ziyoratgohlarning ko‘pligi bu tumanda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda yuqorida keltirilgan ziyoratgohlarni faqatgina mahalliy ziyoratchilar uchun ma’lum, tashrif buyurayotgan ziyoratchilarning ham asosiy qismi mahalliy xalq vakillari hisoblanadi. Mahalliy aholi ommoviy ravishda ziyoratgohlarga bahor va yoz oylarida boradi. Insonlar tomonidan ziyorat qilish uchun haftaning ba’zi kunlari ziyorat qilinadigan kunlar sifatida belgilab olingan bo‘lib, bu tumanda asosan chorshanba, juma, yakshanba kunlari ziyorat qilish uchun xosiyatli kunlar hisoblanadi. Ziyoratchilar doimo muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarga o‘zgacha bir hurmat bilan

munosabatda bo‘lib kelganlar. Ziyorat jarayonida mahalliy aholi o‘zlarini qiynab kelayotgan savollarga javob topishga harakat qilishadi va ma’lum bir vaqt dunyo g‘am-tashvishlaridan ozod bo‘lib, ruhan yengil bo‘ladi.

G‘uzor tumanida joylashgan ziyoratgohlarni, ziyorat turizmining tabiiy va sakral geografik obyektlariga kiritishimiz mumkin. Ziyorat turizmining tabiiy geografik obyektlariga(daraxt, tosh, ko‘l, g‘orlar) Sharilloq ota, Hazrati Luqmon ota, Chuchuk ota(Chukuk qishlog‘i), Chuchuk ota (Qorako‘z qishlog‘i), Jinjakli ota ziyoratgohlarini kiritishimiz mumkin. Ziyoratgohlarni ba’zilari haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak. Hazrati Luqmon ota ziyoratgohi - G‘uzor tumanidagi Mustaqillik mahallasi hududi yaqinidagi Hazrati Luqmon ota nomli fermer xo‘jaligi hududida joylashgan. Ziyoratgoh atrofida bitta kattagina daraxt bo‘lib, mahalliy aholi bu yerga kelib, ziyorat qilib ketishadi.

Sharilloq ota ziyoratgohi - G‘uzor tumanidagi Qirpachkamar qishlog‘ida baland qirliklar tepasida joylashgan. Ushbu ziyoratgoh Sharilloq ota yoki Qo‘chqorbuloq ota ziyoratgohi deb ham ataladi. Qishloqda yashovchi aholining aytishicha ziyoratgohda bitta daraxt bo’lib, bu daraxt nomini ziyoratgoh nomi bilan aytar ekan. Qirning tepasida Sharilloq ota ziyoratgohi joylashgan. Qirning pastki qismida, ya’ni Sharilloq ota ziyoratgohiga chiqish joyida ikkita buloq sharillab oqib turibdi. Buloqning suvi bir necha yillardan buyon to’xtovsiz oqib turadi. Buloq suvi qish va yoz oylarida bir xil haroratda o’zgarmasdan turadi.

1-rasm. Sharilloq ota ziyoratgohi.

Ziyoratga kelganlar buloq suvidan ichib, o‘zlarining ziyorat marosimlarini o‘tkazib ketishadi. Ziyoratgohning janubi-g‘arbiy yon bag‘rida kattagina g‘or mavjud bo‘lib, bir yo‘la o‘sha g‘orni ham ziyorat qilib ketishadi. Aytishlariga qaraganda, cho‘ponlar g‘orning ichiga 6-9 metr kirishgan, ichkari qismida odam tik tursa bo‘ladi. Odamlar ziyorat qilishlari uchun buloqning oldida saxovatli insonlar tomonidan mo‘jazgina sharoit qilingan.

Chuchuk ota ziyoratgohi G‘uzor tumani Omon-ota MFY Qorako‘z qishlog‘ining sharqiy tomonida baland qirliklar orasida joylashgan. Bu ziyoratgohda ham buloq va bir nechta daraxtlari bor. Buloq suvi baland toshlarning ostidan shiddat bilan oqib chiqadi va o‘sha joydagi quduqga suv yig‘iladi. Ziyoratgohda toshlarni yorib chiqqan bir nechta daraxtlari bor. Ziyoratga kelganlar ham buloq suvidan ichib, o‘sha daraxtlar atrofida turli xildagi ziyorat marosimlarini bajarishadi. O‘sha yerga g‘oyib bo‘lgan Chuchuk ota ruhlariga fotihalar o‘qishadi. Darani ikki tarafdan daraxtlar o‘rab olishgan soya salqin joy bo‘lib, bunday sharoit ziyoratchilarga ham yoqadi. Ayniqsa buloq yonida ikki dona baqa o‘zlarining chiroyli kuylari bilan ziyoratchilarni o‘ziga tortadi. Agarda biz bu ziyoratgohlarni tamirlab ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratib, ziyoratchilar oqimini ko‘paytirsak tumanda ziyorat turizmini rivojlantirishga hissa qo‘shgan bo‘lar edik.

2-rasm. Chuchuk ota ziyoratgohi (Omon-ota MFY)

G‘uzor tumanida ziyorat turizmining sakral geografik obyektlari ham juda ko‘p bo‘lib, faqat bu ziyoratgohlarni tuman miqyosida biladilar xalos. Ziyorat turizmining sakral geografik obyektlariga muqaddas qadamjolar hamda mavhum ziyoratgohlar kiradi. Said Xo‘ja Qorovul ota, O‘tari ota, Dostor ota, Yettiqo‘l ota, Omon ota, Qorako‘z ota, G‘oyib ota, Qumcho‘p ota Hojatbaror ziyoratgohlari tumandagi ziyorat turizmining sakral geografik obyektlari hisoblanadi.

Said Xo‘ja Qorovul ota ziyoratgohi - G‘uzor tumanidagi Pachkamar suv ombori hududida joylashgan. Bu ma’lumotlarni qishloqda yashovchilar bo‘lgan suhbatda bilib oldik. Kasbi Qorovullik bo‘lganligi uchun ziyoratgohga Said Xo‘ja Qorovul ota deb atashadi. XX asrning 60-yillarida bu yerda Pachkamar suv omboriqurilishi amalga oshirilgan. Aytishlaricha, qurilish boshlangandan keyin bu yerda har xil g‘ayritabiiy hodisalar yuz bergan, va qurilish Said Xo‘ja Qorovul ota ziyoratgohidan aylanib o‘tilgan. Said Xo‘ja Qorovul ota qishloqda yashovchilarning aytishicha, dushmanlardan qochib mana shu yerda g‘oyib bo‘lgan ekanlar. Bugungi kunda Pachkamar suv omboriga dam olish maqsadida chiqqanlar ham bir yo‘la ziyoratgohga kelib, Said Xo‘ja Qorovul ota ziyoratgohini ziyorat qilib ketadi.

3-rasm. Said Xo‘ja Qorovul ota ziyoratgohi

Omon-ota ziyoratgohi - Omon-ota bulutlar bilan bo‘ylashgan, yulduzlar bilan so‘zlashgan sehrli va so‘lim bir go‘shadir. Tog‘ bag‘rida joylashgan, bu aziz go‘shaning har bir giyohi, har bir toshi asrlardan so‘zlaydi. G‘uzor tumanining shimoli-sharqiy tomonida Omon-ota deb nomlanuvchi qishloq joylashgan. Bu qishloq tuman markazidan 35-40 km uzoqlikda joylashgan. Qishloq atrofini baland qirliklar o‘rab turadi. Bu qishloqqa “Omon-ota” deb nom berilishiga bir nechta rivoyatlar mavjud. Rivoyatlarda aytilishicha qadim zamonlarda bu qishloqqa bir nechta darvish ziyoratga kelishadi. Ular ko‘plab joylarni ziyorat qilib qishloq tepasidagi baland tepalikka dam olishadi. O‘sha kuni darvishlardan bittasi betob bo‘lib qoladi va shu yerda vafot etadi. Darvishlar bu vafot etgan hamrohini olib ketolmas edi. Chunki ular juda ko‘p joylarga ziyoratga borishlari kerak edi. Shu yerda yashovchi aholiga iltimos qilib, baland tepalik ustiga dafn qilishadi. Ular “Bu do‘stimizni sizlarga omanot qilib tashlab ketamiz” - deb ketishgan ekan. Hozir ham o‘sha tepalik ustida qabr va yonidan daraxt o‘sib chiqqan. Shundan buyon bu qishloq Omon-ota qishlog‘i deb atalib kelinadi. Hozir o‘sha tepalik ustida Omon-ota ziyoratgohi joylashgan. Bu tepalikni balandligi taxminan 1000-1100 m ga teng.

4-rasm. Omon-ota ziyoratgohi

Ziyoratgohga qishloqda yashovchi aholi hamda tumandagi boshqa qishloqlardan ham yosh-u qari haftaning qaysi kuni bo’lishidan qa’tiy nazar ziyoratga kelib ziyorat qilib ketishadi.

Tohir va Zuhra ziyoratgohi. G‘uzor tumani shimolida Qarshi-Qamashi yo‘lining 25-kilometridagi Do‘ng qovchin qishlog‘ida Qarshidan kelaverishdagi yo‘lning shundoq o‘ng tomonidagi qop-qora changalzorda Tohir va Zuhraning qabri joylashgan. Tuman aholisi tasavvurida Tohir va Zuhra afsonasi bilan bog‘liq voqealarni ayni shu joyda bo‘lganligiga hech kim shubha bilan qaramaydi. Xalq orasida e’zozlanib kelingan “Tohir va Zuhra” dostoni “O‘zbek film” studiyasi tomonidan yaratilgan ajoyib ekran asari aslida tuprog‘imizning aynan shu joyida suratga olinganini ko‘plar bilmasa kerak. “Sharq yulduzi” jurnalining 1988 yil 8-sonida taniqli yozuvchi YE. Berezikov Tohir va Zuhraning qabriga daxldor “Tirik afsona” asarini chop etdi. Muallif Do‘ng Qovchinlik qariyalarning hikoyalari asosida ikki yoshning go‘zal sevgisi to‘g‘risida ajoyib asar yaratgan.

Shu qishloqlik Abdi Otayorovning hikoya qilishicha, Tohir va Zuhraning qabri bir-biriga o‘ralib, chirmashib ketgan changallar bilan qoplangan. “Yoshligimizda qabr yonidagi tut daraxtining ustiga chiqqanmiz va qo‘shchi bo‘lib ishlaganimizda ham bu yerda ko‘p yurganmiz. Keyinchalik qabr atrofida o‘sgan garovdan gavron kesib olardim, (gavron –

omochga qo‘shilgan xo‘kizni haydash uchun ishlatiladigan tayoq) Tohir va Zuhra mozori avliyo sanalsada ziyoni yo‘q edi. Urushdan keyin changalzorning shunday yonida paxta brigadasi uchun dala shiyponi qurildi. Kolxozning o‘sha paytdagi raisi Qurbon Begimqulov bu joyni avliyo joy deb atab, tez-tez mol so‘ydira boshladi. Shundan keyin odamlar bu ziyoratgohdan qo‘rqadigan bo‘lishdi. Biror kasallik tuzalavermasa, changalzorga sig‘inib mol so‘yish an’ana bo‘ldi”.

Marhum Haydar boboning hikoya qilishicha: “Inqilobdan keyin Tohir va Zuhra qabriga munosabat har xil bo‘lgan. Xalq ardoqlab kelgan qabristonni eskilik sarqiti deb qarovchilar ko‘paygan. Eng dahshatlisi changalzorga uch marta o‘t qo‘yib yuborilgan. Qarshilik Mirzo Qurbon ismli o‘qituvchi eskilikka kurashuvchi sifatida bu changalzorga birinchi bo‘lib o‘t qo‘ygan. Ilgari changalzor oq, qizil va rangli o‘rama gullar bilan bezanib turardi. Gullarni kim ekmasa va parvarish qilmasada juda go‘zal manzara kashf etardi. Changalzor yondirilgach, gullar butunlay o‘smay qo‘ydi. Oxirgi marta changalzorga o‘t ketishi 1975 yilda sodir bo‘lgan. Qishloqlik odamlar orasida yurgan gaplarga qaraganda falokatning ro‘y berishiga changalzorning avliyoligi sabab bo‘lgan”.[5]

Yana bir taxmin changalzor oldidan Muborak-Yakkabog‘ gaz quvuri o‘tkazilayotgan bir paytda quvur qaziyotganlardan biri og‘ir betob bo‘lib vafot etadi. Shunda bu changalzorni akasining o‘limiga sababchi deb bilgan vafot etgan kishining ukasi ataylab o‘t qo‘yib yuborgan. Tohir va Zuhra qabrining shimol tomonidagi 400-500 metr masofada joylashgan Omon ota tepaligi A. Otayorovning aytishicha, tarixiy qo‘rg‘onning qoldig‘idir. Hozirgi kunda bu tepalik qabristonga aylantirilgan.

Mahalliy xalqning ma’lumotlariga ko’ra, qabr qazish paytida tuproq ostidan turli xil buyumlar yog‘och ustunlar chiqqanligiga guvoh bo‘lishgan. Tepalikning o‘rtasida katta hovuz bo‘lgan, mana shu qo‘rg‘on Tohir va Zuhra yashagan shahar degan rivoyatlar bor. Qishloq keksalari hikoyalariga qaraganda, Do‘ngqishloq O‘rta Shahritatar (ayrimlar shahritotar deb aytishadi) qadimgi shahar bo‘lgan. Keksa o‘qituvchi Xudoyqul To‘rayevning aytishicha, urush yillari shu qishloqdagi kolxozni boshqarganlardan biri Bozor Elmurodov ana shu og‘ir yillarda kolxozchilar bir tepalikni tekislab dala shiyponi qurganligini gapirib bergan. Qurilish uchun tepalikni tekislayotganda ular katta bir tosh bo‘lagiga duch kelishgan. Undagi arab imlosida yozilgan yozuv kolxozchilarni qiziqtirib qoladi va o‘qib ko‘rish uchun qishloq mullasi Nazar eshonni olib keladi. Mulla yozuvni o‘qib ko‘rib, bu Shahritatar darvozasining peshtoki ekan, deb tushuntiradi. Shuningdek, tuproq, ostidan juda katta ketmon topiladi. Aytishlaricha, ketmon dastasi o‘rniga omochning bo‘yinturug‘ini kiritib ko‘rishganda bo‘yinturuq ketmon dastasi atrofida aylanib qolgan ekan. Odamlarning eslashicha, shiypon qurilgan joy hozirda buzilib tekislanib ketgan. Bu Do‘ng Qovchin qishlog‘ining eski va yangi o‘rnini taxminan o‘rtasida bo‘lgan. Shundan kelib chiqqan holda: “Tatarlar, tatarlar Tohir do‘nggin sotarlar” kabi xalq og‘zida yurgan ibora ham shahri tatarlar Tohirni qiynoqqa solganligi haqida to‘qilgan degan taxminlar bor.

1950-yil shu qishloqda sobiq “Kommunist” o‘rta maktabining binosi qurildi. Yangi maktab uchun bino qurilishi qishloq, tuman madaniy hayotida ham katta voqea bo‘lgan. Maktabning o‘sha paytdagi direktori, marhum Najmiddin Muhiddinovning xotirlashicha maktab binosi poydevoriga pishiq g‘isht qidirib topish, uni shahardan tashib keltirish muammosini qanday hal qilish to‘g‘risida bosh qotirib yurgan paytda maktabning qorovuli keksa chol maslahat berib qoladi. U pishiq g‘ishtni qayerdan kovlab olish mumkinligini ko‘rsatadi. Direktor g‘ishtning konini borib ko‘rgach maktabning yuqori sinf o‘quvchilari va o‘qituvchilari qazish ishlariga jalb etiladi. Kutilmaganda maktab qurilayotgan binoning yonginasida juda sifatli “chor g‘isht” (kvadrat shakldagi g‘isht) koni topiladi. Ma’lum

bo‘lishicha bu g‘ishtlar Omon ota qo‘rg‘onini yaqinidan qal’aga suv olib keladigan quvurdan buzib olingan ekan. Bu quvurdan qadimda qal’aga Qashqadaryoning yuqori oqimidan suv kelib turgan.[5]

Tohir va Zuhra qabristonini obodonlashtirish masalasiga birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov Qashqadaryo viloyati hokimi bo‘lgan davrda katta e’tibor bilan qaradi. U kishining tashabbusi bilan 1991-1992 yillarda Tohir va Zuhra qabristoni obodonlashtirildi. Bu yerda katta qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Natijada ziyoratgoh chiroyli xiyobonga aylandi. Ziyoratgohga Tohir va Zuhra afsonasidagi voqealarga asoslangan asar qahramonlari haykallari majmuasi, favvora bunyod etilib, atrofga har xil manzarali daraxtlar ekildi. Endilikda bu hudud sayohatchilar diqqatini o‘ziga tortadigan xiyoboniga aylandi. Tohir va Zuhra ziyoratgohiga kiraverishda marmar toshda shunday yozuv bor: “Tohir va Zuhra sevishganlar xiyoboni O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan bunyod etilgan”. Shunday ekan tirik haqiqat bo‘lgan xalqimizning bu afsonasini yod aylab, uni asrab- avaylashimiz zarur. Hozirda G‘uzor va boshqa tumanlardan nikohdan o‘tayotgan yosh kelin kuyovlar bir marta shu yerga kelib Tohir-Zuhra qabriga gul qo‘yib sevishganlarni xotirlab duoi-fotiha qilib ketishadi. So‘ngi tadqiqot ishlariga qaraganda ziyoratgoh haqida ma’lumotlarni qaytadan ko‘rib chiqish zarurati tug‘ilmoqda.

Qadimda Shahrisabz tog‘larida erigan qorlar Iskandarko‘l va Amir Temur g‘ori atrofiga yig‘ila borib Katta O‘radaryoni tashkil etib, Boshcharbog‘ tog‘laridan boshlangan Kichik O‘radaryo bilan G’uzor tumanining Pachkamar mavzesiga kelib birlashgan. Ikki daryo qo‘shilishidan G‘uzor daryosi paydo bo‘lgan. G‘uzordan boshlangan bu daryo 30 kilometr masofani bosib o‘tgach, Do‘ng Qovchin qishlog‘idan o‘tib Tohir va Zuhra ziyoratgohidan 2 kilometr narida Qashqadaryoga quyilgan. Shuning uchun ham daryolar o‘rtasida joylashgan bu joy qadimdan tabiati xushmanzara va insonlar yashashi uchun qulay bo‘lgan.

G’uzor tumanidagi ziyoratgohlarni joylashgan geografik o’rniga ko’ra ularning aksariyati tumandagi adirlarda joylashgan. Bu esa tumanda ziyorat turizmi bilan birgalikda ekoturizmni ham rivojlantirish uchun qulay bir imkoniyat hisoblanadi. Bundan tashqari G’uzor tumani o’zing *“tandir go’shti”* bilan butun O’zbekistonda mashhur hisoblanadi. Demak tumanda gastranomik turizmni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yetarlidir. Tumandagi muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarni qaytadan tamirlab, ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratib berilsa ziyoratchilar oqimining ko’payishiga sabab bo’ladi. Demak G’uzor tumanida ziyorat turizmining tabiiy va sakral geografik obyektlari yetarli darajada bo’lib, bu ziyorat obyektlari rivojlantirilsa viloyat miqyosida ziyorat turizmini rivojlanishi uchun zamin tayyorlangan bo’lardi.

Xulosa qilib, G’uzor tumanida ziyorat turizmini rivojlantirish uchun quydagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin;

- ✓ Tumanda xususiylashtirish chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali maqsadli ravishda ziyorat turizm obyektlarini obodonlashtirish, rekansturuksiya qilish va turizm infrastrukturasini yaxshilab borish;
- ✓ Har yili an’anaviy ravishda o’tkazib kelinayotgan “O’zbekiston bo’ylab sayohat qil” turizm dasturi doirasida turizmning qolgan turlari bilan birgalikda ziyorat turizm obyektlariga tizimli sayohatlar tashkil etish;
- ✓ Ziyorat turizmida uy-mehmonxonalari va halol-brendli umumiy ovqatlanish shahobchalarini tashkil etish mumkin.
- ✓ Tumanning ichki imkoniyatlaridan foydalanib, turizm industriyasini rivojlantirish lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Farmoni//www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15-fevraldagi “Muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh, masjid va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to’g’risida” 120-sonli Qarori//www.lex.uz.
3. Даминов Э. Абу-л-Муин Насафий. - Тошкент 2017
4. Ravshanov P. Qarshi tarixi. – Toshkent, 2006
5. P.R.Qurbonov, I.B.Safarov, “Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizimi”. monografiya. Qarshi – 2022

GIS YORDAMIDA TURIZM VA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

Tobirov O.Q., Isaqov M.Sh, Ro‘zmatova K.X.
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Qo‘qon, O‘zbekiton, e-mail: tobirovodiljon4@gmail.com

Abstrakt. *Turizm va rekreatsiya mintaqaviy rivojlanishning muhim tarkibiy qismidir, lekin ular ko'pincha geografik cheklovlar va boshqaruv muammolari bilan cheklanadi. Geografik axborot tizimlari (GIS) turizm resurslarini yaxshiroq rejalashtirish va boshqarish imkonini beruvchi ushbu muammolarni hal qilish uchun kuchli vositalarni taqdim etadi. Ushbu maqola turizmni rivojlantirish oldida turgan geografik muammolarni o'rganish uchun IMRAD formatidan foydalanadi va ularni hal qilish uchun GIS texnologiyasidan qanday foydalanish mumkinligini o'rganadi va shu bilan turizm salohiyatini oshiradi. Topilmalar fazoviy tengsizliklarni bartaraf etish, infratuzilmani optimallashtirish, barqaror turizmni rag‘batlantirish va foydalanish imkoniyatini yaxshilashda GIS salohiyatini ta’kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *Geografik axborot tizimlari, turizmni rivojlantirish, fazoviy tahlil, yaroqlilik, barqaror turizm, qulaylik*

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И РЕКРЕАЦИИ С ПОМОЩЬЮ ГИС

Тобиров О.Қ., Исаков М.Ш, Рузматова К.Х.
Кокандский государственный педагогический институт, Коканд, Узбекистан
e-mail:tobirovodiljon4@gmail.com

Аннотация. *Туризм и рекреация являются жизненно важными компонентами регионального развития, однако они часто сдерживаются географическими ограничениями и проблемами управления. Географические информационные системы (ГИС) предоставляют мощные инструменты для решения этих проблем, позволяя лучше планировать и управлять туристическими ресурсами. В этой статье используется формат IMRAD для исследования географических проблем, с которыми сталкивается развитие туризма, и рассматривается, как технология ГИС может быть применена для их решения, тем самым повышая туристический потенциал. Результаты подчеркивают потенциал ГИС в преодолении пространственного неравенства, оптимизации инфраструктуры, содействии устойчивому туризму и улучшении доступности.*

Ключевые слова: *Географические информационные системы, развитие туризма, пространственный анализ, пригодность участка, устойчивый туризм, доступность*

GEOGRAPHIC PROBLEMS AND POSSIBILITIES OF TOURISM AND RECREATION DEVELOPMENT WITH THE HELP OF GIS

Tobirov O.Q., Isakov M.Sh, Ruzmatova K.X.
Kokand State Pedagogical Institute, Kokand, Uzbekistan, e-mail: tobirovodiljon4@gmail.com

Abstract. *Tourism and recreation are vital components of regional development, yet they are often constrained by geographical limitations and management challenges. Geographic Information Systems (GIS) provide powerful tools to address these issues, enabling better planning and management of tourism resources. This paper employs the IMRAD format to investigate the geographic problems facing tourism development and explores how GIS technology can be applied to resolve them, thus enhancing tourism potential. The findings highlight the potential of GIS in overcoming spatial inequalities, optimizing infrastructure, promoting sustainable tourism, and improving accessibility.*

Keywords: *Geographic Information Systems, tourism development, spatial analysis, site suitability, sustainable tourism, accessibility*

Kirish. Jahon turizm sanoati iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhitni boshqarish va madaniy almashinuvda muhim rol o'ynaydi. Biroq, uning potentsial o'sishiga to'sqinlik qiluvchi notekis rivojlanish, atrof-muhitning degradatsiyasi va yomon infratuzilma kabi bir qancha geografik muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish fazoviy munosabatlarni har tomonlama tushunishni talab qiladi, bu erda Geografik Axborot Tizimlari (GIS) o'ynaydi. GIS fazoviy ma'lumotlarni yig'ish, boshqarish, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish uchun asos bo'lib, uni turizm va rekreatsiyani rejalashtirish uchun qimmatli vositaga aylantiradi.

Ushbu maqola turizm va rekreatsiya rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi geografik muammolarni o'rganadi va GIS texnologiyalari tomonidan ushbu qiyinchiliklarni engish uchun taklif qilinadigan imkoniyatlarni o'rganadi. Bu barqaror, qulay va iqtisodiy jihatdan foydali turizm tizimlarini yaratish uchun GISdan qanday foydalanish mumkinligini ko'rsatishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ❖ Turizm va rekreatsiyaga ta'sir qiluvchi asosiy geografik muammolarni aniqlash.
- ❖ Ushbu muammolarni hal qilishda GIS imkoniyatlarini o'rganish.
- ❖ Turizmni rivojlantirish uchun nazariy modellar va GIS ilovalarini taklif qilish.

Materiallar va usullar. Tadqiqotda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishda GISni qo'llash bo'yicha mavjud adabiyotlarni va amaliy tadqiqotlarni ko'rib chiqishga qaratilgan nazariy yondashuv qo'llaniladi. Turizm sektoridagi geografik muammolarni hal qilishda ularning samaradorligini aniqlash uchun GISga asoslangan bir qancha metodologiyalar tahlil qilindi. Amaldagi materiallarga quyidagilar kiradi:

Turizm industriyasi faol bo'lgan hududlardan misollar.

Turizm geografiyasi va GISga oid nazariy modellar.

Turistik rejalashtirishda GIS ilovalaridan olingan ma'lumotlar, masalan, hududning yaroqliligini tahlil qilish, sayyohlik oqimi monitoringi va atrof-muhitga ta'sirni baholash.

Turizmni rivojlantirish uchun GIS potentsialini baholash uchun ko'p mezonli qarorlar tahlili (MCDA) tizimi qo'llanildi. Ushbu yondashuv turizmni rivojlantirish uchun maqbul joylarni aniqlash va ekologik barqarorlikni baholash uchun topografiya, iqlim, infratuzilma va erdan foydalanish kabi fazoviy ma'lumotlarning turli qatlamlarini birlashtiradi. Sayyohlarning xatti-harakatlarini tushunish va foydalanish imkoniyatini optimallashtirish uchun fazoviy o'zaro ta'sir modellari (SIM) ham o'rganildi.

Natijalar. Geografik muammolarni tahlil qilish turizm va rekreatsiyani rivojlantirishda bir qancha asosiy muammolarni aniqladi:

Fazoviy nomutanosibliklar: turizm salohiyatiga ega bo‘lgan ko‘plab hududlar geografik izolyatsiya, infratuzilmaning yo‘qligi yoki foydalanish imkoniyati pastligi sababli rivojlanmaganligicha qolmoqda. Aksincha, mashhur sayyohlik joylari ko'pincha ortiqcha turizmni boshdan kechiradi, bu esa atrof-muhitning buzilishiga olib keladi.

Atrof-muhitga ta'siri: Turizmning tez o'sishi atrof-muhitga, ayniqsa zaif ekotizimlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'rmonlarni kesish yoki suv resurslaridan ortiqcha foydalanish kabi barqaror bo'lmagan amaliyotlar tabiiy yashash joylarini yomonlashtiradi.

Foydalanish imkoniyati va infratuzilma: Turizmning o'sishiga ko'pincha transport tarmoqlarining etarli emasligi va turistik diqqatga sazovor joylar va shahar markazlari o'rtasidagi aloqaning yomonligi to'sqinlik qiladi. Bu, ayniqsa, qishloq yoki tog'li hududlarda yaqqol ko'rinadi.

GIS texnologiyalari ushbu muammolarni hal qilish uchun bir nechta imkoniyatlarni taqdim etadi:

Hududning yaroqliligini tahlil qilish: GIS qulaylik, atrof-muhitga sezgirlik va diqqatga sazovor joylarga yaqinlik kabi omillarni hisobga olgan holda yangi turistik ob'ektlar uchun maqbul joylarni aniqlash uchun fazoviy ma'lumotlarni birlashtirishi mumkin. GISda MCDA dan foydalanish geografik ma'lumotlarga asoslangan holda ko'proq ma'lumotli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Turizm oqimini tahlil qilish: GISga asoslangan fazoviy o'zaro ta'sir modellari sayyohlarning xatti-harakatlari va oqimini tahlil qilishi, turistlar tirbandligini boshqarishga va tashrif buyuruvchilar sonini mintaqalar bo'ylab bir tekis taqsimlashga yordam beradigan naqshlarni aniqlashi mumkin. Bu mashhur yo'nalishlarga bosimni kamaytirishga yordam beradi va kamroq ma'lum hududlarni targ'ib qiladi.

Barqaror turizmni rivojlantirish: GIS yerdan foydalanish, o'simlik qoplami va suv resurslari bilan bog'liq fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish orqali turizmning atrof-muhitga ta'sirini baholashi mumkin. Bu atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni minimallashtirish va resurslardan mas'uliyatli foydalanishni ta'minlash orqali barqaror turizm amaliyotini rivojlantirishga yordam beradi.

Infratuzilmani rejalashtirish va foydalanish imkoniyati: GIS transport tarmoqlarini vizuallashtirish va tahlil qilish imkonini beradi, infratuzilmadagi bo'shliqlarni va yaxshilashni talab qiladigan sohalarni ta'kidlaydi. Bu sayyohlik koridorlarini yaxshiroq rejalashtirish va transport tizimlarini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Munozara. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, GIS fazoviy tahlil va vizualizatsiya orqali geografik muammolarni hal qilish orqali turizm va rekreatsiya rivojlanishini sezilarli darajada oshirishi mumkin. GISni turizmni rejalashtirishga integratsiyalashuvi nafaqat qarorlar qabul qilishni yaxshilaydi, balki mintaqaviy barqaror va muvozanatli rivojlanishga ham yordam beradi. Turizm infratuzilmasi uchun maqbul joylarni aniqlash, atrof-muhitga ta'sirini kuzatish va turistik oqimlarni tahlil qilish orqali GIS fazoviy nomutanosibliklarni bartaraf etishga va adolatli o'sishga yordam beradi.

Biroq, turizmda GISni qo'llash ham ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ma'lumotlarning mavjudligi va sifati mintaqalarda sezilarli darajada farq qilishi mumkin, bu GISga asoslangan modellarning samaradorligini cheklaydi. Bundan tashqari, fazoviy ma'lumotlarning ko'p qatlamlarini birlashtirishning murakkabligi maxsus ko'nikmalar va tayyorgarlikni talab qiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar ma'lumotlarga kirishni yaxshilashga va turizmni rejalashtiruvchilar uchun qulay GIS vositalarini ishlab chiqishga qaratilishi kerak.

Xulosa. GIS texnologiyalari turizm va rekreatsiyani rivojlantirish oldida turgan geografik muammolarga kuchli yechimlarni taklif etadi. Saytning yaroqliligini yaxshiroq tahlil qilish, sayyohlik oqimi monitoringi va atrof-muhitga ta'sirni baholash orqali GIS turizm mintaqalarining barqaror va muvozanatli o'sishiga hissa qo'shadi. Ushbu maqolada o'rganilgan nazariy modellar GISning fazoviy tengsizliklarni bartaraf etish, infratuzilmani optimallashtirish va mas'uliyatli turizm amaliyotlarini targ'ib qilish imkoniyatlarini ta'kidlaydi. Turizmda GISning kelgusida qo'llanilishi turizmni rejalashtirish va rivojlantirishda uning rolini yanada oshirish uchun ma'lumotlar integratsiyasi va foydalanish imkoniyatini yaxshilashga qaratilishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bahaire, T., & White, R. (1999). The application of GIS in sustainable tourism planning: A review. *Journal of Sustainable Tourism, 7*(2), 159–174. https://doi.org/10.1080/09669589908667333
2. Boers, B., & Cottrell, S. (2007). Sustainable tourism infrastructure planning: A GIS-supported approach. *Tourism Geographies, 9*(1), 1-21. https://doi.org/10.1080/14616680601092824
3. Cano, M., & Mysore, V. (2015). GIS applications in tourism planning: A case study of Kharu block, India. *Journal of Tourism Planning and Development, 4*(2), 110-124. https://doi.org/10.1080/21568316.2015.1077538
4. Chang, Y. C., & Chang, Y. H. (2006). Spatial information for regional tourism development: A case study of Taiwan's Tainan area. *Annals of Tourism Research, 33*(4), 1186-1201. https://doi.org/10.1016/j.annals.2006.06.001
5. Getz, D. (1986). Models in tourism planning: Towards integration of theory and practice. *Tourism Management, 7*(1), 21-32. https://doi.org/10.1016/0261-5177(86)90006-2
6. Hasse, J., & Milne, S. (2005). Participatory approaches and geographical information systems (GIS) in tourism planning. *Tourism Geographies, 7*(3), 272–289. https://doi.org/10.1080/14616680500164850
7. Kumar, N., & Singh, V. (2018). Geospatial technology and tourism planning: A case study of tourism resource mapping in India. *Journal of Tourism, Heritage & Services Marketing, 4*(2), 11–21. https://doi.org/10.5281/zenodo.1490501
8. McAdam, D. (1999). The value and scope of GIS in tourism management. *Journal of Sustainable Tourism, 7*(1), 77-92. https://doi.org/10.1080/09669589908667326
9. Perpiña, C., González-Guerrero, A., & Olcina, J. (2012). Using GIS to assess the spatial pattern of tourism in Spain. *Applied Geography, 35*(1–2), 43–54. https://doi.org/10.1016/j.apgeog.2012.06.011
10. Zook, M., & Graham, M. (2007). The creative reconstruction of the Internet: Google and the privatization of cyberspace and digiplace. *Geoforum, 38*(6), 1322–1343. https://doi.org/10.1016/j.geoforum.2007.05.004

TURIZM VA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

Tobirov O.Q., Isaqov M.Sh, Ro‘zmatova K.X.

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Qo‘qon, O‘zbekiton, e-mail: tobirovodiljon4@gmail.com

Abstrakt. *Turizm va rekreatsiya iqtisodiy rivojlanish va madaniy almashinuvda muhim rol o'ynaydi, lekin ularning o'sishiga ko'pincha turli geografik muammolar to'sqinlik qiladi. Ushbu maqola turizm va rekreatsiya rivojlanishiga ta'sir qiluvchi geografik muammolar tahlilini taqdim etadi va strategik rejalashtirish va boshqarish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish imkoniyatlarini o'rganadi. Erdan foydalanish, ekologik barqarorlik va infratuzilmaga e'tibor qaratgan*

holda, tadqiqot fazoviy nomutanosibliklarni bartaraf etish va resurslarni boshqarishni kuchaytirish orqali turizm sanoatini yaxshilashning potentsial yo'llarini aniqlaydi.

Kalit so‘zlar: *Turizmni rivojlantirish, geografik muammolar, fazoviy rejalashtirish, barqaror turizm, infratuzilma, atrof-muhitni boshqarish*

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И РЕКРЕАЦИИ.

Тобиров О.Қ., Исаков М.Ш, Рузматова К.Х.
Коканский государственный педагогический институт, Коканд, Узбекистан
e-mail: tobirovodiljon4@gmail.com

Аннотация. *Туризм и рекреация играют важную роль в экономическом развитии и культурном обмене, но их рост часто сдерживается различными географическими проблемами. В этой статье представлен анализ географических проблем, влияющих на развитие туризма и рекреации, и исследуются возможности преодоления этих проблем посредством стратегического планирования и управления. Сосредоточившись на землепользовании, экологической устойчивости и инфраструктуре, исследование определяет потенциальные пути улучшения туристической отрасли путем устранения пространственных различий и улучшения управления ресурсами.*

Ключевые слова: *Развитие туризма, географические проблемы, пространственное планирование, устойчивый туризм, инфраструктура, управление окружающей средой*

GEOGRAPHICAL PROBLEMS AND OPPORTUNITIES OF TOURISM AND RECREATION DEVELOPMENT.

Tobirov O.Q., Isakov M.Sh, Ruzmatova K.X.
Kokan State Pedagogical Institute, Kokand, Uzbekistan, tobirovodiljon4@gmail.com

Abstract. *Tourism and recreation play significant roles in economic development and cultural exchange, but their growth is often hindered by various geographic challenges. This paper presents an analysis of the geographic problems affecting tourism and recreation development and explores the opportunities for overcoming these challenges through strategic planning and management. Focusing on land use, environmental sustainability, and infrastructure, the study identifies potential pathways to improve the tourism industry by addressing spatial disparities and enhancing resource management.*

Keywords: *Tourism development, geographic problems, spatial planning, sustainable tourism, infrastructure, environmental management*

Kirish. Turizm va rekreatsiya ham mahalliy, ham global iqtisodiyotda bandlik, madaniy almashinuv va atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo'shadigan muhim tarmoqlar sifatida paydo bo'ldi. Biroq, bu tarmoqlarning kengayishi barqaror o'sishga to'sqinlik qiluvchi bir qancha geografik to'siqlarga duch keladi. Resurs taqsimotidagi fazoviy nomutanosiblikdan tortib, haddan tashqari sayyohlik natijasida kelib chiqqan atrof-muhitning tanazzuliga qadar, bu muammolarni hal qilish geografik sharoitlarni har tomonlama tushunishni talab qiladi.

Ushbu maqola turizm rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan geografik muammolarni o'rganadi va ushbu muammolarni yumshatish imkoniyatlarini aniqlashning nazariy asoslarini taqdim etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadlari:

- ✓ Turizm va rekreatsiya rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy geografik muammolarni o'rganish.
- ✓ Strategik fazoviy rejalashtirish va barqaror amaliyotlar orqali ushbu muammolarni bartaraf etish imkoniyatlarini tahlil qilish.
- ✓ Turizmni rivojlantirish strategiyalariga geografik mulohazalarni integratsiyalashning nazariy modelini taklif qilish.

Materiallar va usullar. Turizm va rekreatsiya rivojlanishiga ta’sir etuvchi geografik omillarni baholash uchun nazariy tahlil o‘tkazildi. Ushbu tadqiqot yerdan foydalanish, tabiiy resurslarning fazoviy taqsimoti, infratuzilmani rivojlantirish va ekologik barqarorlik kabi asosiy masalalarga qaratilgan. Amaldagi usullarga quyidagilar kiradi:

Adabiyotlarni ko'rib chiqish: Turizmni rivojlantirishdagi umumiy muammolarni aniqlash uchun turizm geografiyasi, fazoviy tahlil va atrof-muhitni boshqarish bo'yicha akademik tadqiqotlar va amaliy tadqiqotlar ko'rib chiqildi.

Qiyosiy tahlil: Geografiyaning turizm natijalariga, xususan, foydalanish imkoniyati, atrof-muhitga ta'siri va erdan foydalanishni rejalashtirish nuqtai nazaridan qanday ta'sir qilishini tushunish uchun turli mintaqalardagi amaliy tadqiqotlar solishtirildi.

Nazariy asos: Geografiyani turizmni rivojlantirish strategiyalariga qanday kiritish mumkinligini tahlil qilish uchun fazoviy rejalashtirish tizimidan foydalanildi.

Natijalar. Adabiyotlarni o'rganish va qiyosiy tahlil natijalari turizm va rekreatsiya rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan bir qancha geografik muammolarni, shuningdek, potentsial echimlarni ko'rsatadi. Ushbu muammolarni uchta asosiy yo'nalishga bo'lish mumkin:

Turizmni rivojlantirishdagi fazoviy tengsizliklar. Geografik nomutanosibliklar ko'pincha turizmning notekis rivojlanishiga olib keladi. Ba'zi hududlar boy tabiiy yoki madaniy resurslardan foydalanadi, boshqalari esa etarli darajada diqqatga sazovor joylar yoki infratuzilmaga ega emas.

Olis yoki alohida hududlar, turizm salohiyatiga ega bo‘lishiga qaramay, transport tarmoqlari va infratuzilmasi yetarli emasligi sababli jiddiy to‘siqlarga duch kelmoqda.

Imkoniyatlar: Ushbu nomutanosibliklarni bartaraf etish mintaqaviy aloqalarni rivojlantirish va muvozanatli rivojlanishni rag'batlantirish uchun strategik fazoviy rejalashtirishni talab qiladi.

Atrof-muhitning buzilishi va barqaror bo'lmagan amaliyotlar. Mashhur yo'nalishlarda haddan tashqari sayyohlik ko'pincha atrof-muhitning buzilishiga, jumladan, yashash joylarining buzilishiga, ifloslanishiga va biologik xilma-xillikning yo'qolishiga olib keladi.

Yerdan noto‘g‘ri foydalanish va resurslardan foydalanish bu muammolarni yanada kuchaytirib, turizmning uzoq muddatli barqarorligiga tahdid soladi.

Imkoniyatlar: Ekologik turizm va tabiatni muhofaza qilishga asoslangan turizm kabi barqaror turizm amaliyotlari resurslarni mas'uliyatli boshqarishni rag'batlantirish bilan birga atrof-muhitga zararni kamaytirish yo'llarini taqdim etadi.

Infratuzilma va mavjudlik muammolari. Sayyohlik infratuzilmasi, jumladan yo'llar, aeroportlar va jamoat transporti yo'nalishlarga kirish imkoniyatini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Infratuzilmaning yomonligi ma'lum hududlarga, xususan, qishloq yoki ekologik jihatdan sezgir hududlarga turistlar oqimini cheklaydi.

Imkoniyatlar: Infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalar, ayniqsa, rivojlanmagan hududlarda, foydalanish imkoniyatini yaxshilash va turizmning yanada muvozanatli o'sishiga yordam beradi. Strategik infratuzilmani rejalashtirish, shuningdek, turizm rivojlanishining ekologik va ijtimoiy maqsadlarga mos kelishini ta'minlaydi.

Munozara. Ushbu tadqiqotda aniqlangan geografik muammolar turizm va rekreatsiyani rivojlantirishga yanada kompleks yondashuv zarurligini ta’kidlaydi. Geografik omillar - fazoviy tengsizliklar, atrof-muhitga ta'sir va infratuzilmani rivojlantirish - bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni samarali hal qilish uchun yaxlit strategiyani talab qiladi.

Strategik fazoviy rejalashtirish: geografik ma'lumotlar va tahlillarni birlashtirgan fazoviy rejalashtirish yondashuvi mintaqalar bo'ylab turizm rivojlanishini muvozanatlashda yordam beradi. Sayyohlik salohiyatiga ega hududlarni aniqlash va qulaylik muammolarini hal qilish orqali rejalashtiruvchilar yanada adolatli va barqaror o'sishga yordam berishi mumkin.

Barqaror turizm amaliyotlari: Ekologik turizm va barqaror yerdan foydalanish siyosatini amalga oshirish turizmning atrof-muhitga salbiy ta'sirini yumshata oladi. Ushbu amaliyotlar tabiiy resurslarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishni ta'minlaydi, shu bilan birga mas'uliyatli turizm faoliyatini amalga oshirishga imkon beradi.

Infratuzilmani rivojlantirish: Infratuzilmadagi kamchiliklarni bartaraf etish, ayniqsa, alohida yoki kam rivojlangan hududlarda turizm imkoniyatlarini kengaytirish uchun juda muhimdir. Transport va jamoat ob'ektlariga strategik investitsiyalar kirish imkoniyatini oshirishi va mintaqaviy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin.

Xulosa. Fazoviy tengsizliklar, atrof-muhitning degradatsiyasi va infratuzilma muammolari kabi geografik muammolar turizm va rekreatsiya rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biroq, strategik fazoviy rejalashtirish, barqaror turizm amaliyoti va infratuzilmani rivojlantirish bilan bu muammolarni samarali hal qilish mumkin. Turizmni rivojlantirish strategiyalariga geografik jihatlarni kiritish orqali mintaqalar turizm sohasida barqaror va adolatli o‘sish uchun yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bramwell, B., & Lane, B. (1993). Sustainable tourism: An evolving global approach. *Journal of Sustainable Tourism, 1*(1), 1–5. https://doi.org/10.1080/09669589309450696
2. Butler, R. W. (1980). The concept of a tourist area cycle of evolution: Implications for management of resources. *Canadian Geographer, 24*(1), 5–12. https://doi.org/10.1111/j.1541-0064.1980.tb00970.x
3. Getz, D. (1986). Models in tourism planning: Towards integration of theory and practice. *Tourism Management, 7*(1), 21–32. https://doi.org/10.1016/0261-5177(86)90006-2
4. Hall, C. M., & Page, S. J. (2014). *The geography of tourism and recreation: Environment, place, and space* (4th ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9781315816310
5. Inskeep, E. (1991). *Tourism planning: An integrated and sustainable development approach*. Van Nostrand Reinhold.
6. Jansen-Verbeke, M. (1986). Inner-city tourism: Resources, tourists, and promoters. *Annals of Tourism Research, 13*(1), 79–100. https://doi.org/10.1016/0160-7383(86)90054-6
7. Lew, A. A. (1987). A framework of tourist attraction research. *Annals of Tourism Research, 14*(4), 553–575. https://doi.org/10.1016/0160-7383(87)90071-5
8. Moscardo, G. (2006). Building community capacity for tourism development: Conclusion. *Journal of Sustainable Tourism, 14*(5), 474–479. https://doi.org/10.2167/jost613.0
9. Pigram, J. J. (1992). Alternative tourism: Tourism and sustainable resource management. *Environment and Resources, 20*, 69–87. https://doi.org/10.1146/annurev.es.17.110192.000441
10. Sharpley, R. (2009). *Tourism development and the environment: Beyond sustainability?* Earthscan.
11. Swarbrooke, J. (1999). *Sustainable tourism management*. CABI.

O‘ZBEKISTONDA GLYATSIOTURIZMNI O‘RGANISH VA UNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN AYRIM MASALALAR XUSUSIDA

Matnazarov A.R., Xolbo‘tayev A.N., Toshpo‘latova S.Q., Xudayberdiyeva H.R.
Nizomiy nomidagi TDPU, Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Respublikamizning tog‘ va baland tog‘li hududi bo‘ylab tarqalgan tog‘ muzliklarining glyatsioturizmdagi ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Glyatsioturizm, tog‘ tizmasi, gertsinid, G‘arbiy Tyanshan, Hisor, morena uyumlari, erratik xarsang, ekzaratsiya, trog vodiysi, subglyatsial, postglyatsial, glyatsial*.

О НЕКОТОРЫХ ВОПРОСАХ ИЗУЧЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ГЛАТИО-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Матназаров А.Н., Холботаев А.Н., Тошполатова С.Р., Худайбердыева Х.Р.
ТДПУ Низоми, Ташкент, Узбекистан.

Аннотация: *В данной статье раскрывается значение горных ледников в гляциотуризме, распространенном по горным и высокогорным районам нашей Республики*.

Ключевые слова: *Гляциотуризм, горный массив, герцин, Западный Тянь-Шань, Хисар, моренные сваи, эрратический харсанг, экзарация, троговая долина, подледниковье, послеледниковье, ледниковье.*

ON SOME ISSUES CONCERNING THE STUDY AND DEVELOPMENT OF GLATIO TOURISM IN UZBEKISTAN

A.R. Matnazarov, A.N. Kholbotayev, S.Q. Toshpolatova, H.R. Khudayberdiyeva
Nizomi TDPU, Tashkent, Uzbekistan.

Abstract: *In this article, the importance of mountain glaciers in the glaciotourism, spread throughout the mountainous and high-altitude regions of our Republic, is revealed.*

Keywords: *Glaciotourism, mountain range, Hercynian, Western Tianshan, Hisar, moraine piles, erratic kharsang, exaration, trough valley, subglacial, postglacial, glacial.*

Kirish. Tog‘ muzliklarining hozirgi holatga kelish sabablari va ularning tabiatdagi gidrologik, umuman geoekologik rolini keng omma orasida yanada yorqinroq yoritish uchun, muzliklarning qadimgi davrlardagi ko‘lami xususida tushuntirish ishlarini olib borish yanada kuchli samara beradi.

Asosiy qism. Qadimgi tog‘ muzliklari qoldirgan morena uyumlari, erratik xarsanglar, ekzaratsiya izlari, trog vodiylarining o‘ziga xos jihatlari, karlar turistlar uchun qiziqarli ob’ektlar bo‘lishi mumkin. Lekin ularning tabiiy holati hamisha ham o‘z holicha saqlangan deb bo‘lmaydi. Chunonchi Sarito‘qay urochishasini tashkil etuvchi yalanglik va uning shimoli-sharq qismida saqlanib qolgan morena uyumlari mahalliy aholi tomonidan tashkil etilgan fermer xo’jaligi binolari, molxonalari qurilishi fonida sezilar-sezilmas holga kelib qolgan. Aslida esa ushbu tabiiy manzaralar qiziqarli glyatsioturistik ob’ekt sifatida o‘rganiladi. Uni muhofaza qilish esa davr talabi darajasiga qadar ko’tarilishi lozim deb bilamiz.

Mazkur ishining yechimi jarayonida quyidagi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy natijalarga erishiladi.

O‘zbekiston tog‘ muzliklari hududning ko‘p tadqiq etilgan tabiiy geografik kompanentlaridan biridir. Ammo uning o‘rganish tarixi bizga qadar biron-bir ilmiy ishda aspektlar asosida tahlil etilmagan edi. Shu boisdan ushbu tadqiqotda O‘zbekiston tog‘ muzliklarining ilmiy o‘rganilish tarixi 13 ta aspekt asosida shakllanganligi fanda ilk bora o‘z in’ikosini topdi. Natijada nafaqat tog‘ muzliklari misolida, dunyo miqyosida ham shiddat

bilan rivojlanib kelayotgan ekoturizm nuqtai-nazaridan mutlaqo o‘rganilmaganligi ma’lum bo‘ldi.

O‘zbekiston tog‘ muzliklarining geografik tarqalish va joylashish tabiiy geografik qonuniyatlari, dalada olib borilgan natural kuzatishlar va ilmiy adabiyotlar tahlili natijasi o‘laroq olingan ma’lumotlar asosida yanada boyitildi. Natijada tog‘ muzliklarining orotektonik, geomorfologik, iqlimiy, fitogen qonuniyatlar asosida geografik tarqalish va joylashish xususiyatlariga oid muqaddam ma’lum bo‘lgan tabiiy geografik qonuniyatlarning o‘ziga xos jihatlari tadqiq etildi. Jumladan Nurota kabi pastak (2000 m. dan ziyod) gertsinidlarda ham, ayrim belgilariga ko‘ra qadimda tog‘ muzliklari mavjud bo‘lgan bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risidagi faraz olg‘a surildi.

O‘zbekiston tog‘ muzliklari hududning bazis yuzalari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanganligi fanda ilk bora o‘z isbotini topdi. Shu boisdan tog‘ muzliklari G‘arbiy Tyanshan, Hisor tizmalarida, ularning yuqori qismlarini tashkil etuvchi birinchi tartibli bazis yuzalari bo‘ylab joylashganligi tabiiy geografik qonuniyat tarzida qayd etildi. Ikkinchi va uchinchi tartibli bazis yuzalari ishg‘ol qilgan hududlarda esa, tog‘ muzliklarining chekinish jarayonini anglatib turuvchi trog vodiylari, morena uyumlari, ekzaratsiya izlari geografik tarqalishga ega ekanligi geomorfologik qonuniyat sifatida qayd etildi. Izobazit egri chiziqlari qamrab olgan to‘rtinchi tartibli bazis yuzalarida esa muzlik chekinishi tufayli mavjud bo‘lgan geomorfologik elementlar juda kam uchrashi, ammo ushbu hududning tabiiy geografik sharoiti hamon tog‘ muzliklari ta’sirida rivojlanayotganligi, ularni kartalashtirish asosida o‘z isbotini topdi.

O‘zbekiston tog‘li hududida mavjud meteostantsiyalar qayd qilgan o‘rtacha ko‘p yillik havo harorati, yog‘in miqdorini tahlil qilish va ushbu ma’lumotlarni muqaddam ma’lum ilmiy farazlarga solishtirish orqali tog‘ muzliklarining iqlim mahsuloti sifatida har 5-6, 8-9-12, 19-20 va undan ham yirik ko‘p yillik tsikllari aniqlandi. Shu bilan birgalikda o‘rtacha ko‘p yillik yog‘in miqdori keyingi yarim asr davomida qariyib o‘zgarmagan holda, o‘rtacha ko‘p yillik havo harorati ko‘rsatkichi o‘sa borayotganligi o‘rganildi. Ushbu holat ortidan tog‘ muzliklarining zamonamizdagi katostrofik holati ochiqlandi. Ushbu jarayon iqlim qonuniyatlari fonida yuz berayotganligi chizma-grafiklar vositasida ilmiy asoslandi.

O‘zbekiston tog‘ muzliklari geografiyasining holati fitogen qonuniyatlar bilan ham chambarchas bog‘liqligi o‘rganildi. Natijada tog‘ muzliklarining progressiv va regressiv holatlari hududga xos o‘simliklar olami, jumladan tog‘ archazor o‘rmonlarining yuqori va quyi chegaralari dinamikasida o‘z aksini topishi davrimizda qisman saqlanib qolgan 1000-2500 yillik relikt archa turlari vositasida rekonstruktsiya qilindi. Qo‘lga kiritilgan ilmiy ma’lumotlar 1000-2500 yillar muqaddam tog‘ muzliklari ko‘lamining hozirgi holatiga nisbatan bir-necha bor yirik bo‘lganligini ko‘rsatdi. Bu holat muhim ilmiy tabiiy geografik asos sifatida fanga taqdim etildi.

O‘zbekiston tog‘ muzliklarining geografik tarqalish xususiyati hudud bo‘ylab mavjud glyatsionimlar geografiyasida yaqqol aks etishi tadqiqotlar natijasida o’z ifodasini topdi. Tadqiqot ishi mazmunida ilk bora “glyatsionim” ilmiy termini qo‘llanildi va fanga tadbiq etildi.

Fanda ilk bora “glyatsioturizm” ekoturizmning muhim va istiqbolli tarmog‘i sifatida qayd etilib, uning ilmiy asosi yaratildi. Hududdagi mavjud glyatsioturistik obyektlar “subglyatsial”, “postglyatsial”, “glyatsial” kabi uch guruh asosida tasniflanib, kartalashtirilgan.

Xulosa. Ushbu glyatsioturistik ob’ektlar geografiyasi asosida ekoturistik yo‘nalishlar ishlab chiqildi va ular o‘zlashtirilish darajasiga ko‘ra, “o‘ta sodda”, “sodda”, “murakkab” va “o‘ta murakkab” kabi to‘rt guruh asosida amalga oshirilish ehtimoli mavjud ekanligi kartalar vositasida ilmiy asoslandi. Mavjud turlarning tavsifi taklif etilgan tasnif asosida keltirildi.

Ushbu holat dissertatsiyaning amaliy ahamiyatini baholashda muhim ilmiy asos ekanligi isbotlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bondarev L.G. Features of the Viut century phases of variability of the Tien Shan glaciers vkn. some regularities of the Tien Shan glaciation. Ed. Ilm. Frunze. 1971 pp. 137-145.

2. Matnazarov A. “O‘zbekiston tog‘ muzliklarining tabiiy geografik tarqalish qonuniyatlari va ekoturistik ro‘li” mavzusidagi geografiya fanlari bo‘yicha falasafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2021 yil. 120-bet.

3. Sultonova N., Matnazarov A., Karakulov N., Janzakov A. Characteristics of development in internationally related to climate elements of mountain glaces in Uzbekistan. Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; Dec 06, 2021.

4. Matnazarov A., Sultonova N., Janzakov A., Karakulov N. Morphological Types of Uzbekistan Mountain Glaciers and their Present Condition. Journal of Pharmaceutical Negative Results: DOI: 10.47750/pnr.2022.13.S08.315.

5. Matnazarov A. “O‘zbekiston tog‘ muzliklarining tabiiy geografik tarqalish qonuniyatlari va ekoturistik ro‘li” mavzusidagi geografiya fanlari bo‘yicha falasafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2021 yil. 120-bet.

6. Matnazarov A., Safarov U., Hasanova N. The state of international relationship between the formation and activity of mountain glaces of Uzbekistan. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 2(12): 22-25, December 2021.

7. Nizomov A, Nugmanova A, Matnazarov A. O‘zbekiston tog‘ muzliklari. T. “Fan va texnologiyalar”, 2016. 98 b.

8. Shchetinnikov A.S. Glaciers of the Piskom river basin. L.: Leningrad, Gidrometizdat, 1976. p 120.

O‘ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRSH ISTIQBOLLARI

Atadjanov I.Sh.

Urganch davlat universiteti, Urganch, O‘zbekiston, e-mail: i.atadjanov@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada turizmni, shu jumladan noan’anaviy hisoblangan ekologik turizmni rivojlantirish, bugungi kunda turizmning dunyo mamlakatlarida milliy iqtisodiyotidagi o‘rni, O‘zbekistonda ekologik turizmni tashkil qilish imkoniyatlari va asosiy yo‘nalishlari, mazkur sohani rivojlantirishdagi muammolar, ekoturizmni rivojlantirishning ahamiyati masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *turizm, ekoljgik turizm, sayyohlik tashkiloti, milliy daromad, ekoturizm strategiyasi, ekoturistik salohiyat, qo‘riqxona.*

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Атаджанов И.Ш.

Ургенчский государственный университет, Ургенч, Узбекистан

e-mail:i.atadjanov@mail.ru

Аннотация: *В статье освещены вопросы развития туризма, в том числе экологического туризма который считаеся нетрадиционным, место туризма в национальном экономике стран в современном мире, возможности организации и основные направлении туризма в Узбекистане, проблемы развития в этом отрасле, о значениях развитие экотуризма.*

Ключевые слова: *туризм, экологический туризм, туристтическая организация, национальный доход, стратегия экотуризма, экотуристический потенциал, заповедник.*

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL TOURISM IN UZBEKISTAN

Atadjanov I.Sh.
Urgench State University, Urgench, Uzbekistan, e-mail:i.atadjanov@mail.ru

Abstract: *The article covers issues of tourism development, including eco-tourism, which is considered non-traditional, the place of tourism in the national economies of countries in the modern world, the possibilities of organizing and the main directions of tourism in Uzbekistan, development problems in this industry, and the importance of ecotourism development.*

Key words: *tourism, ecotourism, tourism organization, national income, ecotourism strategy, ecotourism potential, reserve.*

Mamlakatimizda turizmni, shu jumladan uning noan'anaviy sohalarini rivojlantirishga davlat ahamiyatidagi vazifa sifatida muhim e'tibor qaratilmoqda. "Turizm" so'zi fransuz tilidan tarjima qilinganda – "sayr qilmoq, sayohat" ma'nolarini anglatadi. Bugungi kunda turizm dunyo mamlakatlarida milliy iqtisodiyotga salmoqli daromad keltiruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Butunjahon Sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra mazkur soha daromadi yiliga 1,5 trln. AQSH dollarini tashkil etadi. Turizm hamda turistik xizmatlarning tobora rivojlana borishi natijasida so'nggi yillarda uning noan'anaviy turlari-ekoturizm, agroturizm, arxeologik, etnografik, diniy turizm, ekstremal sharoitlar turizmi va boshqalar shakllana boshladiki, bugungi kunda mazkur yo'nalishlar mutaxassislar tomonidan tez taraqqiy qilayotgan sohalar sifatida baholanmoqda.

Jahon mamlakatlaridagi sayyohlik tajribasida so'nggi yillarda shu narsa aniqlanganki, sayyohlar tomonidan muayyan bir mavzuga asoslangan yo'nalishlar bo'yicha sayohat qilish istaklari ko'payib bormoqda. Sayyohlar biror mintaqani yoki mamlakatni to'laligicha emas, balki o'ziga xos bir jihatlarini ko'rish istagini bildirishgan. Bu esa shu narsani ham anglatadiki, demak, sayyohlarning qiziqish doirasi yildan-yilga-kengaymoqda, ular sayyohlikda yangi yo'nalishlar shakllanishi va rivojlanishini hohlaydilar. Shu bois, inson va tabiatning o'zaro uyg'unligini va atrof-muhitni muhofaza etish naqadar muhim ekanligini amalda namoyon etishga xizmat qiladigan yangi yo'nalish, ya'ni ekoturizm bugungi kunda sayyohlikning istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda desak yanglishmaymiz.

O'tgan asrning 80-yillari boshidan keng jamoatchilik fikri hamda ekologik dunyoqarashning rivojlanishi ta'sirida sayohatchilarning ehtiyojlarida o'zgarish kuzatildi. Odamlar saraton issig'i davrida tabiiy o'rmonlarni, yirik shahar inshootlari o'rniga mahalliy aholi turar joylarini tobora afzal ko'rishmoqda. Bu esa oxirgi o'n yillik davomida ekologik turizm shakllanganligidan dalolat beradi [4].

Ekologik turizm bugungi kunda Keniya, Kosta-Rika, Yaqin Sharq va ba'zi Arab davlatlari, yevropa qit'asidagi ayrim davlatlarning iqtisodiyotiga salmoqli daromad keltirayotgani sir emas. Ma'lumotlarga qaraganda, sayyohlik bozorida ekoturizmdan keladigan daromad 10-14 foizni tashkil etar ekan. So'nggi yillarda jahon mamlakatlarida ekologik turizmga e'tibor kuchayib borayotganligini shundan ham bilish mumkinki, 2002-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan "Ekologik turizm yili" deb e'lon qilingan edi.

Ekoturizm sohasida havaskor va kasb bilan bog'liq turizm tarmog'iga bo'lgan qiziqishning ortishi sayohatlarni takomillashtirishni talab etmoqda. Ekoturizmning rivojlanishi tabiatni muhofaza qilish, turistlarni ona tabiatimizga jalb etish, noyob o'simliklar va hayvonot dunyosini saqlash va ko'paytirish muammolarini hal qilishga katta hissa qo'shadi.

O'zbekistonda ekoturizm bilan bog'liq bo'lgan betakror go'zal tabiat, landshaftlar, xilma xil noyob o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy yodgorlik lar mavjud. Boy tabiiy-iqlim salohiyati turistlarga nafaqat Toshkent, Jizzax viloyatining tog'li qismidagi va Farg'ona

vodiysidagi ko‘plab g‘orli tog‘lar, muzliklar va ko‘llarni, balki Navoiy, Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi cho‘llarni, sahrolarni, vohalarni taklif etishi mumkin.

Xo‘sh, ekologik turizm o‘zining nimasi bilan ajralib turadi? Avvalambor, ekoturizm tabiatni muhofaza qilishga yangicha yondashuvdir. Aynan shu sababdan ham u atrof-mhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning yangi amaldagi ko‘rinishlaridan biridir. Shuni ham aytish kerakki, turizmning mazkur yo‘nalishi sayyohlarni va sayyohlik tashkilotlarini tabiatga salbiy ta’sir qilmaslikka, uni muhofaza qilishga da’vat etadi. Ekologik turizm - muayyan hududning inson ta’siriga juda kam uchragan yoki deyarli uchramagan qismlariga uning ekotizimlariga salbiy ta’sir etmasdan noyob tabiati va madaniy-etnografik xususiyatlarini o‘rganishdir [2].

2002-yil Kanadaning Kvebek shahrida bo‘lib o‘tgan Butunjahon ekoturizm Sammitida qabul qilingan “Kvebek deklaratsiyasi”ning asosiy tamoyillaridan biri ham sayohat qilinayotgan mintaqaning tabiiy va madaniy merosini sayyohlarga tushuntirishdan iboratdir. Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonga kelayotgan yoshi 50 dan oshgan sayohlarning 41 foizi mamlakatimizning eng xushmanzara hamda tabiiy landshaftlar yaxshi saqlanib qolgan noyob joylarini ko‘rish, 25-30 yoshlar atrofidagi sayohlarning 26 foizi esa ekologik muammolar mavjud hududlarni ko‘rish istagida ekanliklarini bildirishgan. Ekoturizmni rivojlantirishning yana bir ijobiy tomoni shuki, unda turistlarga yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatuvchi mehmonxonalar talab qilinmaydi. Turizmning bu turida an’anaviy hordiq chiqarish va maishiy qulayliklar ikkinchi darajali bo‘ladi. Tabiatning betakror
manzaralarini tomosha qilish uchun palatkalarni joylashtirish va kempinglarni o‘rnatishning kifoya. Biroq, boshqa tomondan qaraganda, ekoturizm yuqori malakali mutaxassisni, ya’ni har bir guruh uchun ekolog, turistlarning xavfsizligini ta’minlovchi xodimni talab qiladi. Bundan tashqari ekologik turlarni taklif etuvchi firmalarning barcha harakatlari tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha qonunchilik talablari asosida olib borilishi kerak. Ekoturizm sog‘lom hayot tarzi shakli hamdir. Ekologik turlar ko‘pincha sport bilan shug‘ullanish, sog‘lomlashtirish muolajalarini ham ko‘zda tutadi. Ekologik turizmning bir necha o‘ziga xos yo‘nalishlari mavjud. Bular: turistlarni ekologik savodxonligi va madaniyatini oshirish maqsadida qilinadigan sayohatlar; tabiatdagi ekologik muvozanatni saqlab turish uchun tabiatning inson ta’siriga deyarli uchramagan ekologik toza hududlariga yo‘naltirilgan sayohatlar; insonning xo‘jalik faoliyati ta’siridan muhofaza qilingan tabiiy hududlarga yo‘naltirilgan sayohatlar va h.k.

Ekologik turizm obyekti asosan nisbatan tabiatga ziyon yetkazilmagan ududlar – “yovvoiy tabiat” hisoblanadi. kerak. Tabiiy holicha saqlangan tabiatni o‘rganish chog‘ida turistlarda uni asrash muhimligi tuyg‘usi shakllanadi. Turistlar noyob tabiatni, aholining an’anaviy hayot tarzi hamda uning madaniyati va etnografik hususiyatlarini o‘rganish va qayta tiklash va asrashda bevosita ishtirok etadilar. Ekoturizmning aynan shu jihatlari shahardagi tezkor va sershovqin kundalik hayot tarzidan charchagan turistlarni o‘ziga jalb etadi. G‘arb mamlakatlarida ekologik turizm dam olish va bilim olishning anchagina qimmat shakli bo‘lishiga qaramay yuz minglab odamlar unga mablag‘ sarflashga tayyordirlar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, madaniyat, tarix va tabiatni o‘rganishga qaratilgan turlardan tushadigan foyda umuman turistik daromadlar hajmining 15-23% ini tashkil etadi.

Ekologik turizm bu turizm industriyasining maxsus tarmog‘i bo‘lib, u tabiat hududlariga ziyon yetkazmagan holda o‘rganish uning obyektlari va hodisalarini tushunishga o‘maklashadi va aynan ushbu obyektlar va hodisalarning mavjudligi mazkur yo‘nalishni rivojlantirishni taqozo etadi. Demak, O‘zbekiston uchun optimal ekoturizm strategiyasini yaratish - bu yangi ish o‘rinlarini yaratish va tabiatning noyob yodgorliklarini muhofaza qilish va qayta tiklash uchun mablag‘larga ega bo‘lish demakdir.

Mamlakatimiz butun dunyoga o‘zining boy mineral resurslari, rang-barang landshaftlari, jonli tabiatning noyob boyliklari, xayvonot va o‘simlik olamining xilma-xilligi hamda qulay tabiiy va iqlimiy sharoitlari bilan tanilgan. Mamlakatimiz o‘zining iqlim sharoiti bo‘yicha dunyodagi eng mashhur kurortlar hisoblanmish O‘rta yer dengizi sohillari, Shveytsariya tog‘lari va AQShning Kaliforniya shtatidan aslo qolishmaydi. Yurtimizning deyarli barcha viloyatlarida ommaviy ekoturizm markazlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan tabiiy obyektlar mavjud.

O‘zbekistonda ekoturizmning ustuvor tomoni shundaki, sayohatlarni deyarli butun yil davomida tashkil etish mumkin. Bahorda sahrolar va cho‘llar o‘ta chiroyli manzara kasb etadi, yoz faslining boshida esa o‘simliklar quriy boshlaydi va bu vaqtdagi tabiat manzarasi o‘zining jozibadorligini yo‘qotadi. Biroq aynan shu vaqtning o‘zida mamlakatimizning tog‘li hududlarida dam olish turistlar uchun qiziqarlidir. Ekoturizm mamlakatimizning milliy bog‘larida, ekologik vaziyat murakkablashgan Orolbo‘yi mintaqasida, shuningdek ixtisoslashgan muassasalarda muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Xorijlik sayyohlarda Orol dengizining qurigan tubini va undagi “kemalar qabristoni” ni tomosha qilish ishtiyoqi kuchli. To‘g‘ri, Orol dengiziga ommaviy va doimiy sayyohlik turlarini uyushtirish qiyin, ammo mazkur sayyohlikdan kelgan daromadning muayyan qismi mintaqa aholisi ma’lum qismining hayot darajasini ko‘tarishga, ular uchun ichimlik suvini tozalovchi vositalar o‘rnatib berishga sarflanishi mumkin [5].

O‘zbekistonda ekologik turizmnii rivojlantirishda sifatli xizmatlar ko‘rsatish va umuman soha infratuzilmasini puxta tashkil etish, internetda veb saytlar yaratish, reklama mahsulotlarini ishlab chiqish va uni keng targ‘ib qilish xalqaro turistik bozorda mamlakatning obro‘sini ta’minlovchi vositalar bo‘lib xizmat qiladi. Turistlarni jalb qilish uchun birinchi galda qulay xizmat ko‘rsatish sharoitlarini yaratish, ularni qulay transport vositalari bilan ta’minlash va albatta O‘zbekistonning ekoturistik salohiyatini jahon miqyosida targ‘ib qilish zarur. Bu borada shu paytgacha muayyan ishlar ham qilingan. “O‘zbekistonning qo‘riqxonalari va milliy bog‘lari” fotoalbomi, “Hisor qo‘riqxonasi”, “Sarmishsoy”, “Jayron ekomarkazi”, “Bodayto‘qay qo‘riqxonasi” bukletlari shular jumlasidandir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mazkur nashrlardagi ma’lumotlar o‘zbek, balki rus va ingliz tillarida berilishi kerak. O‘zbekistonda ekologik turizmning hozircha ko‘proq tabiat ne’matlarini iste’mol qilish bilan bog‘liq shakllari (hususan, ovchilik, baliqchiik, rafting, trekking, piknik) tarqalgan bo‘lib, unda atrof-muhitdan bevosita foydalanilmoqda. Ammo bunday yo‘nalishning noyob ekotizimlar hamda milliy bog‘larni asrashdagi samarasi past, chunki daromadlar muayyan darajada buzilgan ekologik muvozanatni qayta tiklash tadbirlariga har doim ham sarflanavermaydi.

Sohani rivojlantirishda dam olish uylari, mehmonxona, turistik bazalar, yo‘llar, muhandislik tarmoqlarini qurish bilan bog‘liq barcha loyihalarni ekologik baholash ham muhim omil bo‘lmoqda. Ekoturizm ayniqsa tog‘li va qiyin yetib boriladigan joylarda mahalliy iqtisodiyotni yaxshilashga xizmat qilishi mumkin. Buning uchun esa mahalliy boshqaruvni ekoturistik faoliyatga keng jalb qilish hamda soha uchun zaruriy infratuzilma (joylashtirish vositalari, ovqatlanish, aloqa, tibbiy xizmat ko‘rsatish obyektlari, qutqarish xizmatlari va h.k.) yaratilishi lozim. Ekologik turlarni amalga oshirish natijasida olingan daromadning bir qismi mamlakatimiz ekotizimlarini asrash va ularni tiklash uchun sarflanadi. Shunday ekan, ekoturizm barqaror ekologik taraqqiyotni ta’minlash, atrof tabiiy muhitni kelajak avlodlar uchun asrashning muhim omillaridan biri bo‘lib qolaveradi [1].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tabiat va insonning o‘zaro muloqoti ovqatlanish, uyqu va dam olish kabi tabiiy ehtyoj hisoblanadi. Eng muhimi, ekoturizm inson va tabiat uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladiki, bu esa kishilarning hayotiy kuch va imkoniyatlarini

tiklash hamda o‘zini Ona tabiatning ajralmas bo‘lagi sifatida his qilishlarida muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abirqulov Q.N., Hojimatov A.N., Rajabov N.R. Atrofmuhitni muhofaza qilish. Toshkent: TDIU, 2003, 148-b.
2. Александрова А.Ю. География туризма. Москва, 2010. С. 592.
3. Nizamov A., Amanbayeva Z., Safarova I. O‘zbekistonning ekoturistik resurslari va yo‘nalishlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. 104-b.
4. Pardayev M.Q. Ekologik turizm asoslari. – Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2015.
5. Nigmatov A., Shomurotova N. O‘zbekistonni ekoturistik rayonlashtirish tajribasi. Ekologiya xabarnomasi. №2, –Toshkent. 2007. 46–54-b.

TURIZM VA REKREATSION HUDUDLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Fayzullayeva L.X.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi, O‘zbekiston
e-maillobarfayzullayeva@gmail.com

Annotatsiya: *Qashqadaryo viloyati sog’lomlashtirish va rekreatsion hududlari bilan respublikada keng imkoniyatlarga va alohida o’ringa ega bo’lgan viloyatdir. Ushbu maqolada viloyatning turizm va rekreatsion salohiyati keltirib o’tilgan va xulosa muallif tomonidan berilgan.*

Kalit so‘zlar: *rekreatsiya, yer fondi, yer toifasi, keskin kontinental, turizm.*

ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИЗМ И РЕКРЕАЦИОННЫХ ЗОН (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Файзуллаева Л.Х.
Каршинский инженерно-экономический институт, Карши, Узбекистан
lobarfayzullayeva@gmail.com

Аннотация: *Кашкадарьинская область – регион с широкими возможностями и особое место в республике со своими оздоровительно-рекреационными зонами. В данной статье упоминается туристско-рекреационный потенциал региона и дается заключение автора.*

Ключевые слова: *рекреация, земельный фонд, категория земель, резко-континентальный, туризм.*

PROSPECTS OF EFFECTIVE USE OF TOURISM AND RECREATION AREAS (EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION)

Fayzullayeva L.X.
Karshi Institute of Engineering and Economics, Karshi, lobarfayzullayeva@gmail.com

Abstract: *Kashkadarya region is a region with wide opportunities and a special place in the republic with its health and recreation areas. In this article, the tourism and recreational potential of the region is mentioned and the conclusion is given by the author.*

Key words: *recreation, land fund, land category, sharp continental, tourism.*

Kirish. Respublikamizning boy va qadimiy madaniy merosini o’rganish, milliy qadriyatlarimizni tiklash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ularga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, aholining madaniy hordiq chiqarishi uchun zamonaviy dam olish maskanlarini

barpo etish borasida bugungi kunda keng ko’lamli ishlar amalga oshirilayotganligiga Qashqadaryo viloyati yaqqol misol bo’la olishi mumkin. Viloyat Qashqadaryo daryosining havzasida Pomir-Oloy tog’ining g’arbiy qiyaligida joylashgan bo’lib, ob-havosi ekologik jihatdan eng toza bo’lgan hududlardan biridir. Musaffo havosi va chiroyli tabiati bilan birga hudud qadimiy shaharlari va arxitektura yodgorliklari bilan sayyohlarni o’ziga jalb etib kelmoqda. Ular uchun zamonaviy dam olish maskanlarini yaratish, xorijiy sayyohlar uchun estalik ramzi bo’lgan sovg’alar ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish kabi muhim omillar viloyatda turizm va rekreatsiyaning jadal rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qashqadaryo viloyatida Respublikadagi jami tarixiy obidalarning 17,76% joylashgan. Qashqadaryo viloyatda bugungi kunda 1 ming 468 madaniy meros obyekti ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning 1 ming 189 tasi arxeologiya, 208 tasi arxitektura, 43 ta monumental yodgorliklar, 34 tasi diqqatga sazovor joylar[1] hisoblanadi.

Tadqiqot o‘tkazish uslubiyati. Ushbu maqolani tayyorlashda hududiy tahlil, kartografik, geografik taqqoslash, statistik tahlillardan foydalanilgan.

Natijalar va munozaralar. O‘zbekiston Respublikasida yer – davlatning umummilliy boyligidir. Undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza etiladi. Yer fondi yerlaridan to‘g‘ri foydalanishning asosiy maqsadiga qarab quyidagi 8 ta toifaga bo’linadi:

- qishloq xo‘jaligi yerlari - qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun yoki ana shu maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar;
- aholi punktlarining yerlari (shaharlar, poselkalar va qishloq aholi punktlarining yerlari), shahar va poselka chegaralari doiralaridagi, shuningdek, qishloq aholi punktlari chegaralari doiralaridagi yerlar;
- Sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan yerlar;
- tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreasiya maqsadlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan yerlar;
- tarixiy-madaniy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan yerlar;
- o‘rmon fondi yerlari;
- suv fondi yerlari;
- zahira yerlar.[2]

Qashqadaryo viloyati umumiy yer maydoni 2022-yil 1-yanvar holatiga ko’ra 2866,5 ming gektarni tashkil etib, bundan 2342,5 ming gektar (82%) i qishloq xo’jaligi uchun mo’ljallangan yerlardir. Bundan tashqari umumiy haydalma yerlarning 99,5%, pichanzorlarning 91,8%, daraxrzorlarning 98,2% hamda bo’z yerlarning butun qismi qishloq xo’jaligi maqsadida foydalaniladi. O‘rmon fondi yerlari esa jami yer fondining 11,0% qismini tashkil etadi.



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida yer fondining foydalanish turlari bo‘yicha taqsimlanishi (2022 y. 1 yanvar holatiga, % hisobida)

Tabiatni muhofaza qilish, sog’lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo’ljallangan yerlar – alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo’lgan yerlar, shuningdek, ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar umumiy yer fondining 3,0 foizini (75,1 ming ga)tashkil qiladi. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarda mo’ljallangan yerlar – ko’rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslar uchun berilgan yerlar 2,0 foizni (67,9 ming ga) tashkil etadi.Qolgan toifadagi yerlarning ulushi esa ancha past bo’lib, jami 2,0 foizni tashkil etadi, xolos (1-rasm) [1]. Bu ma’lumotlarning barchasi kelajakda viloyatda qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini yuritish uchun qulay imkoniyatlar mavjud ekanligini ko’rsatadi.

Qashqadaryo viloyatining iqlimi keskin kontinental (quruq, tez o’zgarib turuvchi) subtropik (tropikka yaqin, yondosh, qishi iliq). Kontinental-subtropik iqlim shimol va g’arb tomondan hududning keng ochiqligi va janub, janubiy-sharqdan esa kuchli tog’ to’siqlarining mavjudligi bilan xarakterlanadi [2]. Shu sababli ham yozning issiq davrida aholi oila a’zolari bilan ommaviy ravishda tabiat quchog’ida dam olish maqsadida rekreasiya hududlariga borishadi. Yoz oyida aholining ushbu hududlarda borishining asosiy sababi, namlik miqdori o’rtacha 50%, havo harorati 16-18 ^{0}S bo’lishi inson organizmi uchun qulay sharoit hisoblanadi. Havo harorati 24 ^{0}S, risbiy namlik 44-60%, shamol tezligi sekundiga 0,7-1 metr bo’lganda inson organizmi uchun juda qulay sharoit vujudga keladi [3].

Viloyatning tog’ va tog’oldi hududlaridan bo’lmish Kitob va Shahrisabz tumanlari yoz oylarida minglab aholining madaniy hordiq chiqaruvchi maskaniga aylanadi. 2023-yildan boshlab turizm qishlog’iga aylantirilgan “Bashir” qishlog’idagi sayyohlar soni qariyb 700 mingga yetgan. Bugungi kunda qishloqda 20 dan ziyod mehmon uylari faoliyat yuritmoqda. Qishloqda ziyorat turizmi, ekoturizm va agroturizm jadal rivojlanmoqda.(2-rasm) Shahrisabz tumanidagi “Suvtushar” mo’jizaviy sharsharasi ham tabiatning insonga ato etgan go’zal in’omidir. Sharsharaning balandligi 84 metr bo’lib, dengiz sathidan 2 ming 100 metr yuqoridagi ulkan tosh qoyasidan otilib tushadi. (3-rasm)

2-rasm. “Bashir” qishlog’i

3-rasm. “Suvtushar” sharsharasi

Dam olish maqsadida tashrif buyurgan aholi tomonidan rekreatsion zonalarga ko’p hollarda shavqatsiz munosabatda bo’linmoqda. Dam olish davomida fuqarolar tomonidan hosil bo’lgan maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish o’rniga to’g’ri kelgan joylarda tashlashi, kul va yonuvchi moddalarni o’chirmasdan ketib qolishi, yashil zonalarda o’simliklarni payhon qilishi, Qizil kitobga kiritilgan o’simliklarni noqonuniy terish holati, yovvoyi hayvonlarga duch kelganda ortiqcha harakat qilishi va ularga ozor berish holatlari aniqlanmoqda. Aslida betakror go’zallikni asrab-avaylash, kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazish har birimizning unutilmas burchimizdir [4]. Tabiatning o’zi zargarga o’xshaydi.

Uning bag’ridan unib chiqqan har bir giyoh, har bir daraxt, o’rmonlar, hayvonot olami o’ziga xos bir olamdir. Bu tabiiy boylikka daxl qilinishining oldini olish, muhofaza qilish faqat shu soha xodimlarining ishi emas, balki barchamizning burchimizdir. Chunki, biz yashayotgan hudud musaffoligi, ekologik muvozanat barchamizga birday daxldordir.

Xulosa qilib aytganda, ona tabiatga mehr-muhabbatli bo’laylik. Oilalarda va mahallalarda atrof-muhitga nisbatan ekologik tarbiyani kuchaytiraylik. Tabiatni qanchalik asrab-avaylasak kelajak avlodimizning ham davomiyligini ta’minlagan bo’lamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O’zbekiston Respublikasi davlat Soliq qo’mitasi huzuridagi Kadastr agentligi davlat kadastrlari palatasining Milliy hisoboti. - Toshkent, 2022.
2. G‘.N.Aliqulov, M.M.Aralov, N.A.Abdiraxmatov, Z.M.Qilivhev “Yer va bino inshootlar xatlovi” Qarshi 2022.
3. A.Rafiqov, N.Vahobov, A.Qayimov, Sh.Azimov. Amaliy geografiya.Toshkent: O’zbekiston. 2004.-159 b.
4. https://www.ekogazeta.uz/xabarlar/7872

O‘ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANISHIDA TURISTIK OQIM SATISTIKASINI O‘RNI

Djurayeva L.V.
Chirchiq davlat pedagogika instituti, Chirchiq, O‘zbekiston
e-mail: lobarzurayeva@gmail.com

Annotasiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistonda Turistik oqimning statistikasi yillar kesimida tahlillari orqali sohadagi bazi bir muammolar kursatib utilgan va mazkur malumotlar asodida turizmning holati, turizmni rivojlantirishning dolzarbligiga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *turistik oqim, statistika turizmni rivojlantirish, turizm yo‘nalishi, sayohat, turist, ichki turizm, turizm imkoniyatlari*

РОЛЬ СТАТИСТИКИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ПОТОКОВ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА УЗБЕКИСТАНА

Джураева Л.В.
Чирчикский государственный педагогический институт, Чирчик, Узбекистан
e-mail: lobarzurayeva@gmail.com

Аннотация: *В данной статье посредством анализа статистики туристского потока в Узбекистане в разрезе лет были рассмотрены некоторые проблемы отрасли и на основе этих данных особое внимание было уделено состоянию туризма ,актуальности развития туризма.*

Ключевые слова: *турпоток, статистика, развитие туризма, туристическое направление, путешествие, турист, внутренний туризм, туристические возможности.*

THE ROLE OF TOURIST FLOW STATISTICS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN

Dzhurayeva L.V.
Chirchik State Pedagogical Institute, Chirchik, Uzbekistan
e-mail: lobarzurayeva@gmail.com

Annotation: *In this article, by analyzing the statistics of the tourist flow in Uzbekistan in the context of years, some problems of the industry were considered and based on these data, special attention was paid to the state of tourism, the relevance of tourism development.*

Key words: *tourist flow, statistics, tourism development, tourist destination, travel, tourist, domestic tourism, tourist opportunities*.

Kirish. Dunyoda Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) va Jahon savdo tashkiloti (WTO)ning ma'lumotlariga ko‘ra, jahon bo‘yicha 2019-yilda xalqaro turizm bozorida 1,7 trillion dollarlik xizmatlar eksporti amalga oshirilgan, shuningdek, yo‘lovchi tashish xizmatlari (255 mlrd.dollar) eksportining 7 foizi va jahondagi jami xizmatlarning 28 foizi xalqaro turizm hissasiga to‘g‘ri kelib, kunlik turistik xizmatlar eksporti hajmi 5 milliard dollarni tashkil qiladi1.Shu nuqtai nazardan turistik xizmatlarni amalga oshirish asnosida hududlarning turistik-rekreatsiya salohiyatini yanada yuksaltirish imkoniyatlarini aniqlash va baholash hamda mavjud infratuzilmani takomillashtirishni taqazo etadi. Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish, hududlarda turizm infratuzilmani kengaytirish, turistik mahsulotlarni va yangi turizm obyektlarini yaratish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda "iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida turizmni jadal rivojlantirish, qulay iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turistik rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanish, boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorlarida targ‘ibot qilish, mamlakatimizning ijobiy qiyofasini shakllantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar"2 belgilab berildi. "2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish" Konsepsiyasida ".turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilashga, uning iqtisodiyotdagi o‘rni va ulushini oshirishga, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirish" yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilg.Lekin shunday imkoniyatlarga qaramasdan tarmoqda muammolar yitarlichadir .Tarmoq rivojlanishida Turistik oqim statistikasini o'rni beqiyos sanaladi sababi davlatga tashrif buyurayotgan va davlatdan chiqib ketayotgan turistlarni hisobga olish va ularni raqamlashtirib sohani aynan qaysi tarmogida imkoniyatlarni kengligi va qaysi tarmoqlaridagi salohiyatga qaramasdan rivojlanishni pastligini nazorat qila olishimiz mumkundur .

Turistlarni hisobga olish statistikasiga XX asrning birinchi yarimida asos solingan. 1929 yilda Avstriyaga 2 mln. ga yaqin, Shvesariga -1,5 mln, Italiyaga – 1 mln. dan ziyod turist tashrif buyurdi. Yevropa mamlakatlarida erkin turistik harakatning sayohat statistikasi yuritila boshlaydi. Xalqaro turizm statistikasi asosan ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, turistik oqimlar statistikasi va turistik daromadlar hamda harajatlar statistikasidan iborat. Ularning har biri uchun BMT asosiy ko‘rsatkichlar ro"yxatini ishlab chiqqan. Bular ixcham axborotli va nisbatan oson o‘lchanadi.Turistik oqim ko‘rsatkichlarining eng muhimi kelish (ketish) va mazkur mamlakatda bo‘lishning davomiyligi hisoblanadi. Turistlarning kelish (ketish) soni deganda ma'lum muddat, odatda kalendar yilda bironta mamlakatga kelgan va ketgan, ruyxatda qayd etilgan turistlar soni tushunishimiz kerak. Turistning bir yilda bir necha mamlakatda bo‘lishi mumkinligi hisobga olingan holda, xatto bir safar chog‘ida bir necha davlatda bo‘lsa, haqiqiy turistlar soni kelaganlarga nisbatan kam bo‘ladi.Jahonda turistik oqimlar soni kelish (ketish) statistikasi yozuvida aks etadi. Turistik daromadlar va harajatlar statistikasi turizmni baholash qiymati mazmuniga ega bo‘lib, uni milliy iqtisodiyotga ta'sirini o‘rganishda, jumladan mamlakatning to‘lov balansi, shuningdek turizm industriyasi o‘zining sektorlariga harakteristika berishda zarurdir.Turistik harajatlar – tashrif buyuruvchi yoki uning nomidan boshqa shaxsni tayyorlash va safar chog‘ida, shuningdek belgilangan joyda bo‘lish chog‘idagi iste'mol qilingan harajatlarning umumiy summasi hisoblanadi.

Dunyo miqyosida turizm sohasida mamlakatlar duch keladigan muammolar juda ko‘p va murakkab bulib,bunday muammolar mamlakatimizni ham chetlab utmagan.O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlanishda turistik oqim satistikasi orqali tarmoqdagi muammolarni hal

qilish va yahshilashga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish uchun foydalanish muximdir

Biroq, ushbu muammolarni hal etish O‘zbekistonda mvjud turistik resurslardan oqilona foydalanish hamda resurslarni namoyish qilish uchun yuqori darajadagi hamkorlik va muvofiqlashtirishni talab qiladi.Aynan shuning uchun hozirgi kunda Yturtimizga tashrif buyurayotgan tuiriisistlarning soni salmogi hamda ularning tarkibi maqsadini urganishimiz zarurdir .bunday masalani hal qilishda turistik poqim statistikasini Ozbekiston respublikasiga tashrif buyurgan va chiqib ketgan turistlar soni va dinamikasi

Turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining jinsi buyicha taqsimlanishi 2021 yil yanvar mart oyining ma’lumotlariga kura erkaklar 121,0 har ming kishiga miqdorda ‘sa bu kursatgich 50,7%ni tashkil qiladi .Ayollarda esa bu kursatgich 117,8 ming kishini tashkil qilsa miqdorda esa bu kursatgich 43,5 %ni tashkil qiladi

2021 yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasiga turistik

maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni 238,8 ming kishini1) tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davrida 1214,0 ming kishini tashkil etgan. O‘zbekistonga kelgan chet el fuqarolarining soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 5,1 barobar kamaygan. Shu bilan birga,2021 yilning yanvar-mart oylarida turistik maqsadlarda ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari 301,9 ming kishin1) tashkil etgan bo‘lib, o‘tgan yilning yanvar-mart oylarida bu ko‘rsatkich 1 435,3 ming kishini tashkil etgan. Xorij mamlakatlariga ketgan fuqarolarning soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 marta kamaygan.

Boshqa xorijiy davlatlardan O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Turkiyadan – 6,4 ming kishi (2,7 %), Pokistondan – 1,5 ming kishi (0,6 %), Ukrainadan – 1,2 ming kishi (0,5 %), Janubiy Koreyadan – 0,8 ming kishi (0,3 %), Xitoydan – 0,7 ming kishi (0,3 %), Hindistondan – 0,7 ming kishi (0,3 %), AQSH dan – 0,6 ming kishi (0,2 %), Germaniyadan – 0,4 ming kishi (0,2 %), Buyuk Britaniyadan – 0,3 ming kishi (0,1 %), Moldovadan – 0,3 ming kishi (0,1 %), Yaponiyadan – 0,2 ming kishi (0,1 %), Fransiyadan – 0,2 ming kishi (0,1 %), Isroildan – 0,2 ming kishi (0,1 %), Italiyadan – 0,2 ming kishi (0,1 %) va Erondan – 0,2 ming kishi (0,1 %) tashrif buyurgan.

Turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining jinsi va safar maqsadlari bo‘yicha taqsimlanishi (2021 yil yanvar-mart, % da)

2021 yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yosh bo‘yicha taqsimlanishidan ko‘rish mumkinki, ularning 50,8 % i 31-55 yoshlilar, 19,5 % i 56 yosh va undan kattalar, 15,6 % i 19-30 yoshlilar, 14,1 % ini 18 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etdi. Davolanish maqsadida tashrif buyurgan chet el fuqarolarining 50,0 % i 31-55 yoshlilar, 22,2 % i 56 yosh va undan kattalar, 17,4 % i 19-30 yoshlilar, 10,4 % ini 18 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etdi. O‘z qarindoshlarini yo‘qlash maqsadida tashrif buyurganlarning 49,5 % i 31-55 yoshlilar, 21,1 % i 56 yosh va undan kattalar, 15,0 % i 18 yoshgacha bo‘lganlar, 14,4 % i 19-30 yoshlilarni tashkil etdi

Mamlakatda ichki sayyohlarning umumiy soni 2016-yildagi 8,8 milliondan 2019-yilda 14,7 millionga, 2021-yilda esa 15 million 2022-yilda 5,3 milliondan oshgan. 2023-yilda xorijiy sayyohlar sonini 7 millionga, mahalliy sayyohlar sonini esa 12 million nafarga yetkazish rejalashtirilgan.

O‘zbekistonda bunga qaratilgan ishlar tizimli amalga oshirilmoqda va bu borada 833 ta yangi mehmonxona, xususan, yirik, o‘rta va kichik mehmonxonalar foydalanishga topshirilgan. Ayni paytda O‘zbekistonda yuzlab yangi mehmonxona loyihalari barpo etilmoqda, ular yaqin kelajakda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

2020 -yildagi Solo Travel Safety Reportda O‘zbekiston tashrif buyurish uchun dunyodagi eng xavfsiz 5 ta davlatdan biri sifatida qayd etildi. Bunga mustaqil ayol sayohatchilar kiradi, ular mamlakatda o‘zlarini xavfsiz his qilishlari haqida xabar berishgan. Terrorizm va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlar xavfi juda past, kichik jinoyatlar statistikasi esa ko‘pchilik yirik sayyohlik yo‘nalishlariga qaraganda ancha pastligini ko‘rsatdi va bu nafaqat, O‘zbekistonda balki butun dunyoda turizmni rivojlantirish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ko‘plab xalqaro nashrlarning fikriga ko‘ra, mamlakatimiz 2020-yilda eng jozibador sayyohlik joylaridan biriga aylangan. Shu yili Buyuk Britaniyaning The Telegraph gazetasi tashrif buyurish lozim bo‘lgan shaharlar ro‘yxatini e’lon qildi. Shular qatorida bizning Toshkent shahri ham kiritilgan.

O‘zbekistonda turizm sohasining izchil rivojlantirilishi mamlakatimizni ushbu yo‘nalishdagi yuqori ko‘rsatkichli xalqaro reytinglarga kiritish imkonini berdi. Xususan, o‘tgan yil davomida O‘zbekiston 10 ga yaqin nufuzli nashrlar (“The New York Times” (AQSh), “The Guardian” (Buyuk Britaniya), reyting kompaniyalari va portallari (“CrescentRating”, “Wegoplace”) tomonidan eng sayohatbop turistik mamlakatlardan biri sifatida tan olindi.

Eng nufuzli xalqaro reytinglardan biri hisoblangan “WTTC” reytingida O‘zbekiston 183 o‘rinni egalladi. Milliy statistika tizimi metodologiyasini takomillashtirish hamda turizmni tezkor rivojlantirish natijasida 2023-yilda, mamlakatimizning reytingda yetakchi yuztalikda qayd etilishi kutilmoqda

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh.,Tursunova G.R. Turizm asoslari.-T.: Fan va texnologiya, 2014.
2. Lobar, D. R., & Nilufar, U. (2023). O ‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 560-565.
3. Vohidovna, D. L. (2023). OMONKHONA IN BOYSUN DISTRICT OF SURKHANDARYA REGION TOURISM-HEALING SHELTER. Academia Science Repository, 4(06), 5-9.
4. Urinova, N. S. (2022). Opportunities of agroturism in Parkent district. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 1278-1280.
5. Urinova, N., & Abdullaeva, N. (2020). Opportunities for formulating research skills for higher education students. Molodoy ucheniy, (11), 193-195.

O`ZBEKISTONDA SAKRAL TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Safarov I.B.
Qarshi davlat universitet, Qarshi, O’zbekiston, e-mail: safarovisoq@gmail.com

Annotatsiya: *maqolada sakral turizmning xususiyatlari, uning turlari, O`zbekistonda diniy turizmning solohiyati, foydalanish holati va istiqbollari bayon qilinadi.*

Tayanch so`zlar: *sakral joylar, diniy turizm, sakral turizm, ziyorat turizmi.*

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ САКРАЛЬНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Сафаров И.Б.
Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан
e-mail:safarovisoq@gmail.com

***Аннотация**: В статье анализируются особенности священных мест и сущность паломнического туризма. В ней также рассматриваются потенциал сакрального туризма в Узбекистане, его состояние и перспективы развития.*

***Ключевые слова:** священное место, религиозный туризм, сакрал туризм, паломнический туризм.*

PILGRIMAGE TOURISM AND TASKS OF SACRED GEOGRAPHY

Karshi State University, Karshi, Uzbekistan
e-mail:safarovisoq@gmail.com

***Abstract:** The article analyzes the feachures of sacred places and the nature of pilgrimage tourism. It also considers potential of sacred tourism in Uzbekistan, its status and development prospects*

***Keywords:** sacred place, pilgrimage tourism, sakral, sacred tourism,*

Diniy sig`inish bilan bog`liq bo`lgan va tabarruk deb hisoblanadigan joylar, narsalar va voqealar “sakral (muqaddas)” hisoblanadi. Jahonning deyarli barcha xalqlarida qadim zamonlardan buyon muqaddas qadamjolar maqomiga ega bo`lgan obyektlar mavjud. Muqaddaslik tushunchasi Yerda oqil insonning mavjudligi bilan chambarchas bo`g`liq. Tabiat bilan hamjihatlikda yashagan inson tabiat hodisalarini ilohiylashtirgan, bu hodisalarga sig`ina boshlagan va turli marosimlar o`tkazaboshlashgan. Shunda sayyoramizda sakral joylar vujudga kelgan. Bunday sig`iniladigan landshaft nuqtalari – energetik jihatdan ahamiyatli joylar sayyoramizda juda ko`p. Diniy kult bilan bog`liq bo`lgan va tabarruk deb hisoblanadigan joylar, narsalar va voqealar “muqaddas” hisoblanadi. “Muqaddas” ta’rifi juda qimmatli, ahamiyatli mazmunni bildiradi. Muqaddas doimo transsendentallik (haddan tashqarilik), mistiklik (tasavvuf) bilan bog`liq. Dastavval, “muqaddas” tushunchasi dinga mansub – batamom mistik (Xudo va ilohiy jabhaga bog`liq bo`lgan) va ko`p odamlar uchun alohida qiymatga ega bo`lgan hodisaga mansub. Tarixiy jarayonlarga noan’anaviy qarash uchun ilmiy muomalaga “sakral” (lon. *sacre* yoki *sakra* - muqaddas, tabarruk, ibodat, sig`inish, marosim, ilohiy, sirli) tushunchasi kiritilgan. Keng ma’noda “sakral” – odatdagi, kundalik (profan) narsalardan, tushunchalardan, hodisalardan farq qiladigan dinga, irratsionallikka, mistikaga aloqador barcha narsalarni anglatadi.

Ammo, muqaddaslikni doimo diniy amaliyot bilan birgalikda qarash to`g`ri emas. Sakral ob’yektlar jumlasiga an’anaviy ravishda mozorlar, kreatsiya joylari, o`lim bilan bog`liq bo`lgan voqealar sharafiga haykallar kiradi. Shuningdek, ajdodlar kulti, davlat hokimiyati, ijodiy daholik (va daho bo`lgan shaxslar), bilim (ayniqsa mistik tushunchadagi bilim), tabiatning buyukligi, jangovor qahramonlik, madaniyat namoyon bo`ladigan va boshqa joylar bilan bog`liq obyektlar ham muqaddaslik maqomiga ega bo`lishi mumkin. Shunday qilib, sakral maqomga ega bo`lgan geografik obyektlar jumlasiga benazir kishilarning hayoti va tarixiy voqealar bilan bog`liq joylar, memoriy yodgorliklar, madaniy qadriyatlar (muzey, kutubxona), nufuzli o`quv yurtlari va boshqa joylar ham qaralishi mumkin. Ilohiylikka bog`liqlikni taqoza etadigan diniy obyektlardan farq qilgan holda dunyoviy sakral obyektlar tug`ilish, barkamollik, jasorat, kuch, vatan va boshqa shu kabi toifalarga taqaladigan mistikaga asoslangan (Gromov, 2005). Sakral obyektlarga me’moriy obyektlardan tashqari mashhur tabiiy obyektlar (tog`lar, g`orlar, cho`ldagi belgilar, suv havzalari (ko`llar, daryolar, buloqlar), daraxtzorlar, hatto ayrim daraxtlar va qadimiy toshlar ham mansub. Insoniyat bunday madaniy, tarixiy va tabiiy meros yodgorliklariga “muqaddas joylar” maqomini beradi. Shu asosda muqaddas joylarni inson tomonidan yaratilgan va tabiiy muqaddas joylarga ajratish mumkin. Xullas, “sakral” tushunchasi xalqlarning tarixiy-madaniy merosidagi barcha qimmatli va juda ahamiyatli obyektlarni qamrab oladi.

Sakrallik tushunchasi makro va mikrokosm birligini qidirilishi sifatida juda qadim davrlardayoq vujudga kelgan. Bu tushuncha yerda oqil insonning mavjudligi bilan chambarchas bo`g`liq. Ajdodlarimizning ongi muqaddas landshaft, “kuch joyi” oldida sajda qilishdan (sig`inishdan) olamni bir butun tushunishga tomon tadrijiy rivojlandi. Tabiat bilan hamjihatlikda yashagan inson tabiat hodisalarini ilohiylashtirgan, bu hodisalarga sig`ina boshlagan va turli marosimlar o`tkazaboshlashgan. Shunda sayyoramizda sakral joylar vujudga kelgan. Bunday sig`iniladigan landshaft nuqtalari – energetik jihatdan ahamiyatli joylar sayyoramizda juda ko`p.

Muqaddas va mu’tabar qadamjolar maqomiga ega bo`lgan obyektlar xudo irodasi bilan biror-bir hodisa sodir bo`lgan joylar, barcha zamonlar va kultlarning buyuk avliyolari va ularning safdoshlari dafn qilingan joylar, yo`qolgan dinlarning muqaddas joylari, ko`pyillik ziyoratgohlar va zohidlik (tarki dunyochilik) obyektlari, shuningdek kuch joylari deb atalmish joylarda tabiatning ko`rinmas kuchlari yaratgan unikal landshatlardir (Завгородний,. 2013).

Geografik nuqtai nazardan sakral joylar diniy funksiyani bajaradigan tabiiy-antropogen geosistemalar bo`lib, ular birinchi navbatda insoniyatning diniy ehtiyojlari bilan bog`liq bo`lgan, shuningdek aholining muayyan toifasiga mansub kishilarning bunday joylar bilan munosabatda bo`lishga intilishishiga sabab bo`ladigan ziyorat qilinadigan obyektlardir. Hududiy hosilalarning bunday toifasi insoniyat rivojlanishining har bir bosqichda mavjud bo`lgan ”muqaddas joylar” tushunchasiga to`g`ri keladi va barcha hozirgi dinlarda mavjud.

V.L.Ogudin (2003) qadrlanadigan obyektlarni shu hududga yaqin joylarda yashaydigan aholi uchun bajaradigan quydagi 6 ta funksiyasini ajratadi:

- ✓ birlashtiruvchi (konsolidatsiya) funksiya – urug`dosh guruh yoki diniy jamoaning a’zolari yashaydigan muayyan bir hududning shartli markazi sifatida mavjud bo`lgan kult obyekti;
- ✓ vositachi (mediator) funksiya – kult obyekti inson va xudo o`rtasida olamning tuzilmasida vositachi rolini o`ynaydi;
- ✓ to`plovchi (kommunikativ) funksiya – kult obyekti ijtimoiy hayot markazi bo`ladi;
- ✓ himoya (protektorlik) funksiyasi – obyekt yoki uning ortida turgan kuchlar muayyan hududda yashovchi yoki muayyan sotsial guruhga kiruvchi kishilarni himoya qiladi;
- ✓ davolovchi (shifobaxshlik) funksiya – obyekt sog`lomlashuvga imkon beradi;
- ✓ tabiatni muhofazalovchi funksiya – obyekt atrof hududdagi hayvon va o`simliklarni asrashga va ko`paytirishga imkon beradi.

Dunyo dinlarining har biri muqaddaslikni qadrlashga asoslangan, madaniy landshaftdagi muqaddaslik toifasidagi muayyan obyektlar bilan bog`lagan holda yer maskani to`g`risida tasavvur beradi va geografik obyektlar muqaddaslik maqomini oladi. Vaqt o`tishi bilan vujudga keladigan “muqaddas joylar” sakral geografiyaning asosiy elementlaridir. Kartalarda aks etgan maskanlarning tashqi ko`rinishi siyosiy yoki diniy qarashlarga bog`liq holda o`zgaradi.

Diniy qarashlar sakral geografiyani (sacred geography, сакральная география) shakllantirdi va u integral fan sifatida sekin-asta tadqiqotning alohida, mustaqil sohasiga aylanib bormoqda, sakral geografik tadqiqotlar esa tobora dolbzarblashmoqda. Sakral geografiya – geografiya fanlari tizimida faol rivojlanayotgan ilmiy yo`nalish bo`lib, ichki ziyoratchilik (muqaddas joylarni ziyorat qilish) va bilib olish turuzmini rivojlantirish, aloqalarni mustahkamlash, salomatlikni va kishilarning ma’naviy hayotini yaxshilash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uning vazifalaridan biridir. Sakral geografiya – geografiya fanlari tizimida faol rivojlanayotgan uning vazifalaridan biri – ichki ziyorat va bilish turizmini

rivojlantirish, vatanparvarlikni tarbiyalash, kishilarning salomatligini va ma’naviy hayotini yaxshilashdan iborat (Abdullayev va b., 2020).

Sakral geografiya – sayyoramizdagi muqaddaslik toifasidagi muayyan obyektlarning o`zaro munosabatini aniqlash to`g’risidagi bilimlar tizimi bo`lib, u hududiy tasavvurlarning ayrim turlarini - diniy tizimlardagi hududiy tasavvurlar shakllanishining qonuniyatlarini o`rganadi. Uning o`rganish obyektlari – turli xalqlar va dinlarning kishilari muqaddas deb hisoblaydigan barcha joylar va narsalardir. Sakral geografiyaning vazifalaridan biri muqaddas, alohida e’zozlanadigan joylarni, kishilarning muayyan hamjamiyati nazarida ilohiy ahamiyat kasb etadigan diniy yodgorliklarni o`rganishdan iborat. Sakral geografiya siyosiy chegaralarga ega emas. Masalan, musulmonlar uchun ahamiyatli bo`lgan ziyoratgohlar sharqning ko`pgina joylarida joylashgan. Shu sababli sakral geografiya o`zining tarmoqlari orqali Yer sharining turli qismlarini bo`g`lab turadi. va xilma-xillikdagi diniy birlikni ko`rsatadi.

Ichki va tashqi ziyorat (muqaddas joylarni ziyorat qilish) va bilib olish turizmini rivojlantirish, aloqalarni mustahkamlash, salomatlikni va kishilarning ma’naviy hayotini yaxshilash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sakral geografiyaning vazifalaridan biridir.

Sobiq SSSRda sakral geografiya ilmiy yo`nalish sifatida batamom mabjud emas edi. Ateistik mustabidlikdan ozod bo`lgandan keyin Rossiya federatsiyasi, Belorus, Gruziya, Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston, Ukraina kabi mamlakatlarida sakral-geografik tadqiqotlarga qiziqish ortdi. Masalan, Qirg`istonda sakral joylar kartasi tuzildi, unga 1100 dan ziyod sakral joylar kiritildi, Qozog`istonda uch tilda Qozog`istonning sakral obyektlari to`g`risida kitoblar nashr etildi. “Qozog`istonning umummilliy ahamiyatga ega bo`lgan sakral obyeklari” kitobida tabiiy merosning alohida qadrlanadigan yodgorliklari, arxeologik yodgorliklar va o`rta asr shahar markazlari, sig`iniladigan joylar bo`lgan diniy va kult obyektlari, tarixiy shaxslar bilan bog`liq bo`lgan sakral joylar va tarixiy va siyosiy voqealar bilan bog`liq bo`lgan 185 ta sakral joylar tavsiflangan. Qozog`istonda “Sakral Qozog`iston” ilmiy- tadqiqot markazi tashkil etilgan. Ammo Yevropa va boshqa mamlakatlardagiga nisbatan bu mamlakatlarda sakral geografik tadqiqotlar ancha past.

Mustaqillik yillarida O`zbekistonda ham ajdodlarimizning muqaddas dini bo`lgan islomning jamiyatimizdagi o`rnini qayta tiklash bo`yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Sakral geografik tadqiqotlar so`ngi yillarda dunyoda katta e’tibor qozondi. Yevropada “sakral turizm”ning kuchli oqimini yuzaga keltirgan o`nlab yo`l ko`rsatkichlar nashr etildi. Turli mamlakatlarda olib borilayotgan tadqiqotlar sakral geografiyani o`rganishning istiqbolli ekanligini ko`rsatmoqda.

Diniy turizm deb bilim orttirish va ma’rifiy maqsadlarda diniy sayyohlar uchun odatdagi muhit doirasidan tashqaridagi ziyoratgohlarni (markazlar, muqaddas joylar) borib ko`rish uchun qilinadigan sayohat tushuniladi. Diniy turizm hozirgi paytda turizmning eng qadimiy va eng kam sonli turidir. Diniy turizmning ikki turi – asl ziyorat turi va ekskursiya-bilish turi farqlanadi. Sakral turizm turizmning eng qadimiy va ayni paytda eng yangi turi hisoblanadi. Sakral turizmning ildizlari ziyoratga borib taqaladi. Ziyorat sakral ahamiyatli joylarga sig`inish maqsadida qilinadigan sayyohatdir. Ziyorat an’analarining rivojlanishi barcha asosiy dinlar uchun xos. Makka va Madina musulmonlarning, muqaddas yeri (Quddus-Iyerusalim), Afon, Rim, Kompostella, Valaam xrestianlarning, Ilahobod va Varanasi hindularning, Lxass lamaistlarning, Nara buddistlar va sintoislarning bosh ziyoratgohlari hisoblanadi. Mavjud ma’lumotlariga ko`ra, har yil 200 mln.dan ziyod kishi ziyorat qilishadi. Sakral turizm dasturini ishlab chiqishda yil vaqtlari (ommaviy hordiq davriga, diniy bayramlarga va b), ishtirokchilarning soni va tarkibi (individual, oilaviy va guruhiy), borib

ko`riladigan obyektlar (arxitektura-kult inshootlari), shuningdek tabiatning sakral yodgorliklari (suv havzalari, g`orlar, tog`lar, daraxtzorlar va b.) bo`yicha va geografik belgiga (mahalliy, regional, rayonlararo, millat, internatsional) hamda davomiyligiga ko`ra (uzoq va qisqa muddatli) ko`rsatkichlar hisobga olinadi.

Islomda Makka va Madina shaharlari ziyorat turizmining (haj) bosh shaharlaridir. Bundan tashqari Quddus (Moria tog`idagi Xalifa Umar maschiti), Istambul (Moviy machit), Damashq (Ummaviylar machiti), Bag`dod (Oltin maschit), Qohira (Ibn Tulun va sulton Hasan maschiti) va Dehli (Qutb Minor minorasi va Quvvat ul Islom maschiti) ham musulmonlarning muhim muqaddas ziyoratgohlaridir.

Mamlakatimiz va viloyatlarning sotsial-iqtisodiy rivojlantirish uchun yangi salohiyatni qidirish doirasida regional turizm nazariy-ma'rifiy bosqichdan amalga oshirish bosqichga o`tmoqda va sakral turizmga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi paytda mamlakatimizda regional turizmni rivojlantirishga e'tibor kuchaytirildi, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda turizmning boshqa tarmoqlari qatorida ziyorat turizmiga ham jiddiy e'tiborni qaratish lozimligi ta'kidlangan. Amalda sakral turizmga dinga, turli xildagi mistikaga va tushuntirib berishni imkoni yo`q hodisalar va an'analarga bog`liq bo`lgan turistik xizmatlarning barcha turlari kiritiladi.

Hududlarni rivojlantirish konsepsiyalarida sakral turizmning o`rni bir qator holatlarga bog`liq bo`lib, ular tarixga va tabiatga, shuningdek inson omiliga bog`liq bo`lgan holda tasniflanishi mumkin. Jumladan diniy qadamjolarning, diniy madaniyat yodgorliklarining va sakral tabiatning mavjudligiga, aholining diniy-ma'naviy ahvoliga bog`liq. Sakral turizmni rivojlantirish uchun ko`pyillik ma'naviy an'analarning mavjudligi muhim omidir.

Ommaviy turizmdan farq qilgan holda sakral turizmning region uchun asosiy sotsial-iqtisodiy afzalligi to`g`ridan-to`g`ri foyda olish emas, balki hududda yashaydigan aholi uchun sakral dasturlarning sotsial-psixologik va pedagogik sinergiyadadir. Bu yerda fuqoraviy mas'uliyatni oshirishda, madaniyat va ma'naviyatni shakllantirish, yosh avlodga yo`naltirilgan tarbiyaviy ish to`g`risida bormoqda.

Alohida ahamiyatga ega bo`lgan sakral obyektlar bu joylardan uzoqda, boshqa shaharlarda va mamlakatlarda yashaydigan o`zga madaniy-tarixiy an'analarga ega bo`lgan kishilarning e'tiborini tortadi. Bu hodisa qadimdan ziyoratchilar va qiziquvchan odamlar oqimini hosil qilgan, keyinchalik ularga dunyoviy turistlar oqimi ham qo`shilgan hamda bunday obyektlar joylashgan mamlakatlar byudjetiga katta ulush qo`shishgan. Bu hodisani turistik tarmoqning tizim hosil qiluvchi qismi deb hisoblansa, uning yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi va mamlakat xalqlarini jipslashtirsh bilan bog`liq bo`lgan muhim tarkibiy qismi ekanligiga e'tibor bermaslik mumkin emas.

Mamlakatimizda yuzlab mahalliy sakral ahamiyatga ega bo`lgan yodgorliklar va tabiiy obyektlar (buloqlar, toshlar, ko`llar, daraxtlar) mavjud. Kishilar ziyorat qiladigan muqaddas va tabarruk diniy joylar tarmog'idan iborat. Ro`yxatini tuzish, ularning asosiy belgilarini tavsiflash va h.k. Ammo ularning to`liq ro`yxati olinmagan, xususiyatlari ilmiy jihatdan o`rganilmagan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллаев С.И., Ismailova H,A. O`zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish masalalari Ўзбекистонда география фанининг6 долзар масалалари. Рес-ка илмий-амалий конференция материаллари Термиз., 2020.

2. Бабкин А.В. Специальные виды туризма. Ростов –на Дону. 2008 -252 сю

3. Голубев С.В. Сакральная география. Аспекты познавательного и паломнического туризма. Инфоурок. География. Статьи. Сакральная география –её современное понимание. 2016.

4. Громов Д. Сакральная география. Энциклопедия мест силы. Екатерибург: Ультра.Культура. 2005 – 648 с.

5. Завгородний Ю.Ю. Сакральная география и феномен паломничества: тайное и явное (взгляд из советкой периферии). Aiem – asem org/…/zavgorodniy 3 Pdf. Ю. Завгородний // Філософія і релігієзнавство. Перший науковий філософсько-релігійний портал. – Режим доступа: http://tureligious.com.ua. – Дата доступа: 28.09.2013.

6.Огудин В.А.Сакральная экология. Формы религиозно-экологического мировоззрения. Киев, 2003.

SURXONDARYO VILOYATI SHAHARLARINING RIVOJLANISHIDA TURIZMNING ROLI

Ernazarov Sh.E., Pardayev N.S.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatidagi shaharlarning rivojlanishida turizm muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot mahalliy va xalqaro sayyohlar uchun asosiy diqqatga sazovor joylar bo'lgan mintaqaning noyob tarixiy, madaniy va tabiiy resurslarini ta'kidlaydi. Tahlil turizmning iqtisodiy o'sishga, ish o'rinlari yaratishga va shahar infratuzilmasini yaxshilashga ta'sirini o'rganadi va turizm mahalliy biznes imkoniyatlarini qanday rivojlantirishi va ijtimoiy xizmatlarni yaxshilashga hissa qo'shishiga urg'u beradi. Maqolada turizmni barqaror rivojlantirish strategiyalari hamda Surxondaryo viloyatidagi shaharlar muvozanatli mintaqaviy rivojlanishga erishish uchun o‘z turizm salohiyatidan qanday foydalanishi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Turizm rivojlanishi, Shahar hosil qiluvchi omillar, Mintaqaviy turizm, Turistik infratuzilma, Urbanizatsiya, Surxondaryo viloyati, Sayyohlar oqimi.*

РОЛЬ ТУРИЗМА В РАЗВИТИИ ГОРОДОВ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Ерназаров Ш.Э., Пардаев Н.С.
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Ташкент, Узбекистан

Аннотация: *В данной статье туризм играет важную роль в развитии городов Сурхандарьинской области. В исследовании подчеркиваются уникальные исторические, культурные и природные ресурсы региона, которые являются основными достопримечательностями для местных и иностранных туристов. В анализе рассматривается влияние туризма на экономический рост, создание рабочих мест и улучшение городской инфраструктуры, а также подчеркивается, как туризм способствует развитию местных деловых возможностей и улучшению социальных услуг. В статье говорится о стратегиях устойчивого развития туризма и о том, как города Сурхандарьинской области используют свой туристический потенциал для достижения сбалансированного регионального развития.*

Ключевые слова: *Развитие туризма, Градообразующие факторы, Региональный туризм, Туристская инфраструктура, Урбанизация, Сурхандарьинская область, Туристический поток.*

THE ROLE OF TOURISM IN THE DEVELOPMENT OF CITIES OF SURKHANDARYA REGION

Ernazarov Sh.E., Pardayev N.S.
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: *In this article, tourism plays an important role in the development of cities in Surkhandarya region. The study highlights the unique historical, cultural and natural resources of the region, which are major attractions for local and international tourists. The analysis examines the impact of tourism on economic growth, job creation and urban infrastructure improvements, and emphasizes how tourism contributes to the development of local business opportunities and improved social services. The article talks about sustainable tourism development strategies and how cities in Surkhandarya region use their tourism potential to achieve balanced regional development.*

Keywords: *Tourism development, City-forming factors, Regional tourism, Tourist infrastructure, Urbanization, Surkhandarya region, Tourist flow.*

Bugungi kunga kelib shaharlarni paydo bo‘lishi va rivojlanishi, turli omil va ayrim sohalar asosida amalga oshmoqda. Turizm esa ham, shahar paydo qiluvchi ham, rivojlantiruvchi soha sifatida tez rivojlanmoqda. Turizmni rivojlantirish yordamida milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni yaxshilash, yangi ish o‘rinlarini barpo etish, aholi daromadlarini oshirish va shular bilan birga, tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilishga katta imkoniyatlar yaratiladi.

Mintaqaviy turizm bozorining asosiy obyektlaridan biri – turistik xizmatlar bo‘lib, turistik – bu turistik ehtiyojlarni qondiruvchi asosiy, qo‘shimcha va kompleks xizmatlar majmuidir. Asosiy xizmatlarga sayyohlikni tashkil qilish va o‘tkazish uchun zarur xizmatlar, qo‘shimcha xizmatlarga esa sayohat o‘z ichiga olmagan va ehtiyoj bo‘lgan holda dam olish joyida taqdim qilinadigan xizmatlar majmuini kiritish o‘rinli bo‘ladi.

Xorijiy sayyohlarga ko‘rsatiladigan har qanday turistik xizmatlar eksport qilish bilan barobar bo‘lib, bu chetdan keladigan valyuta tushumlarini ko‘payishiga zamin yaratadi.

Hozirgi kunda viloyatdagi turizmni rivojlantirishdagi asosiy muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

- ✓ yurtimiz oliygohlarida turizm soxasida mutaxassis tayyorlovchi mutaxassislik yo‘nalishlarining yo‘qligi;
- ✓ turizm obektlarining turlari va joylashuvi bo‘yicha yagona reyestrining mavjud emasligi;
- ✓ turistik marshrutlarning to‘liq va mukammallashmaganligi;
- ✓ tur operatorlarning mintaqa turizmini to‘liq namoyon qilmasligi;
- ✓ soxa bo‘yicha marketing va menejmentning shakllanmaganligi;
- ✓ mintaqada mavjud turistik ob’yektlardan samarali foydalanmaslik;
- ✓ turistik infratuzilmalarning rivojalanishining sustligi;
- ✓ turizmning zamonaviy turlarini mavjud emasligi;
- ✓ ichki turistlar potensialidan foydalanmaslik.

Turistik koridorning Surxondaryo viloyati qismini rivojalantirish orqali, xududlardagi turistik maskanlar va unga yaqin joylashgan shahar hamda shaharchalarda xizmat ko‘rsatish sohalarini va infratuzilmalarni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, bularning natijasida mazkur hududlarda yangi shaharchalar tashkil topadi. Shaharchalar tashkil qilinishi yoki mavjud shahar va shaharchalarda ichki migratsiyani kuchaytiradi natijada mintaqa urbanizatsiyasi sifatida hamda urbanistik taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadi.

Turistik marshrut yo‘nalishida yoki unga yaqin joylashgan hududlarda yangi shaharchalar tashkil qilish mumkin. Hozirgi kunda shahar hosil qiluvchi omillar sifatida bir qancha omillar bo‘lsada, qishloq xo‘jaligini sust rivojlanganligi va turistik potensialni yuqoriligi tufayli, shahar hosil qiluvchi omil sifatida rekreatsion va turistik ob’yektlarni ko`ytirish mumkin.

Turizm sohasini rolini ko‘rib chiqar ekanmiz, shuni yodda tutish kerakki, turizmni rivojlantirishning nazarda tutilayotgan ishlanmalari va rejalari quyidagi savollarga javob berishi kerak:

– turizm bozorining holatini va bu tarmoq ravnaqining asosiy muammolarini qanday baholash kerak;

– turizm bozorining qaysi asosiy yo‘nalishlari viloyat manfaatlariga to‘liqroq javob beradi, mablag‘larni qayerga va nimaga samaraliroq sarflash kerak;

– qanday qilib viloyat shaharlarining imijini yaxshilash va sayyohlar uchun shaharlarning jozibasini oshirish mumkin;

– turizmni rivojlantirish evaziga viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqini qay taxlitda rag‘batlantirish mumkin.

Shu bilan birgalikda soha rivojiga to‘sqinlik qilayotgan bir qator kamchiliklar mavjud bo‘lib, bu kamchiliklarni quyidagi takliflar orqali bartaraf etish tavsiya qilinadi:

- viloyatga tashrif buyurayotgan sayyohlarning ko‘pchilik qismi asosan faqat bir xil davlatlar (Xitoy, Xindiston, Janubiy Koreya)dan kelishmoqda. Mintaqa turizm sohasini rivojlantirishni maqsad qilar ekanmiz, viloyatning turizm salohiyatini katta demografik tuzilishga ega bo‘lgan Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlarda yanada keng tarzda targ‘ibot-tashviqot qilib, ushbu mamlakatlardan keladigan sayyohlar sonini ko‘paytirish kerak;

- viloyatda Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Janubiy Koreya mamlakatlaridan tashrif buyurayotgan turistlarga mazkur davlatlar tilida so‘zlasha oladigan yo`lboshchilar yetishmasligi hechkimga sir emas. Shuning uchun, xitoy, yapon, hind, koreys, indonez, bengal, malay, arab, hind, pushtu tilida so‘zlasha oladigan gidlarni tayyorlash lozim;

- viloyatga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri qishloq xo‘jaligi sohasi bo‘lib, mazkur yo‘nalishda agroturizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Shuning uchun ham istiqbolda agroturizmni rivojlantirish, buning uchun esa xorij tajribalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir;

- mintaqaga tashrif buyurayotgan sayyohlar, asosan keksalarni tashkil qilmoqda. Bunga sabab, viloyatda yoshlarbop infratuzilmalarning yetishmasligidir. Shuning uchun, viloyatda yoshlarni jalb qiluvchi turistik infratuzilmalarni (jumladan, xostel) yaratish lozim;

- viloyatning turizm kompleksida besh yulduzli mehmonxonaning yo‘qligi yuqori daromadli turistlarning mintaqada tashrif buyurishdan bosh tortishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun, xorijiy investorlarni jalb qilgan holda viloyatda besh yulduzli mehmonxonalarni barpo etish kerak;

- mintaqada tashrif buyurayotgan sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida rivojlangan mamlakatlardagi kabi yengil avtomobillarni ijaraga beruvchi korxonalarni tashkil qilish lozim. Bu esa, viloyatning turizm jozibadorligini oshirish bilan birgalikda turistik xizmatlarning ko‘payishiga qulay zamin yaratadi;

- viloyatning turizm salohiyatini kiruvchilari eng ko‘p internet saytlarda ham reklama qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Surxondaryo viloyatiga sayyohlar oqimini ko‘paytirish, ular uchun qulay sharoitlar yaratish va Qumqo`rg`on, Sherabod, Angor, Boysun, Bandixon, Oltinsoy tumanlari va viloyat shaharlarida mahalliy aholi daromadlarini oshirish maqsadida, shuningdek viloyatning turistik ob’yektlarini, tabiiy sharoitini, iqlimi hamda jahon tajribasini o‘rgangan holda yo‘nalishli turistik marshrutlarni tashkil etish ortidan yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Ekoturistik potensiali yuqori bo‘lgan Boysun va Saraosiyo tumanlarida erkin sayyohlik zonasini tashkil imkoniyatlari mavjud. Bu joylarda turizmni rivojlantirish uchun

barcha imkoniyatlar bor. Bundan tashqari Oltinsoy tumanida ham betakror tabiat manzaralari, ziyoratgohlar, diqqatga sazovor joylari mavjud. Oltinsoy tumanida agroturizmni rivojlantirish uchun imkoniyatlari katta. Chunki viloyatda tumanning uzumchilik bo`yicha yetakchilik bunga zamin yaratadi.

Shuningdek, mintaqada turizm sohasining rivojlanish shartlarini modellashtirish va modeldagi barcha omillarni kompleks tarzda rivojlantirish istiqbolda turizm sohasini rivojlanishi uchun ta'sir qiladigan murakkab dastur, metod va yo'nalishlarni ifodalovchi samarali mintaqa siyosatini shakllantirishga ko'mak beradi.

Bugungi kunga kelib dunyo davlatlarining ko'pchiligi, tovarlar ishlab chiqarish tarmoqlaridan xizmatlar ko'rsatishga o'tish natijasida, ko'pchilik davlatlarda postindustrial jamiyat rivojlandi.

Birgina Fransiya davlatiga 2023 yil 90 mln turist, Ispaniyaga esa 83 mln atrofida turist tashrif buyurgan. Turizm sohasi eng tez o'sib borayotgan davlatlar 20 taligida O'zbekiston yuqori o'rinlarda ketmoqda.

Turizm sohasiga bugungi kunda shahar hosil qiluvchi tarmoq sifatida ham qaralmoqda. O'zbekiston turizm sohasini har tomonlama rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Bu uning ichki mintaqalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu borada respublikaning turistik imkoniyatlarini ko`tarish mumkin bo`lgan mintaqalaridan biri Surxondaryo viloyati hisoblanadi. Viloyati o'zining qulay tabiiy sharoiti hamda arxitektura–me'morchiligi va noyob arxeologik yodgorliklar bilan alohida ajralib turadi. Biroq, bugungi kunda mintaqaning turistik salohiyati va mavjud imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini, yuqori deb bo'lmaydi. Bular o'z navbatida hududning turistik salohiyatini tadqiq qilish va uning hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning dolzarbligini belgilab beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini turizm sohasini jadal rivojlantirishni taьminlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4861-son farmoni, 2016 yil 2 dekabr // www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3514-son qarori, 2018 yil 7 fevral // www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi № PF-6165-son farmoni, 2021 yil 9 fevral // www.lex.uz
4. Mirzayev M.K. "Tumanni rejalashtirish va hududiy joylashtirish" fanidan ma'ruza matni Toshkent 2013 yil.
5. Soliyev A.A, Tashtayeva S.K. Egamberdiyeva M.M. Shaxaralar geografiyasi // O'quv qo'llanma Toshkent "Barkamol fayz media" 2018 yil 184 bet.
6. «Turizm, ta'lim va iqtisodiyot tarmoqlar integratsiyasi» mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, 25.05.2018 maqolalar to'plami.
7. «Turizm, ta'lim va iqtisodiyot tarmoqlar integratsiyasi» mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Toshkent 2018 yil.

ПУТИ РАЗРАБОТКИ МЕТОДОЛОГИИ ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКИХ РЕГИОНОВ НА РЕГИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМАТИЧЕСКОЙ КАРТЕ

Музропова Ф.И.
Каршинский инженерно-экономический институт, Карши, Узбекистан
e-mail:muzropova94@mail.ru

Аннотация: *В данной статье географические основы определения уровня развития туристских ресурсов и инфраструктуры туризма, научнопрактические предложения и рекомендации по их совершенствованию, рациональному использованию туристско-рекреационных ресурсов, развитию многих видов туристской деятельности в будущее и усовершенствование существующей туристической инфраструктуры.*

Ключевые слова: *Всемирный совет путешествий и туризма, туристические ресурсы, Всемирная туристская организация, география туризма, архитектура, памятники истории, объекты культуры.*

WAYS TO DEVELOP A METHODOLOGY FOR OBTAINING ECOTOURISTIC REGIONS ON A REGIONAL, SYSTEMATIC CARD

Muzropova F.I.
Karshi engineering economics institute, Karshi, Uzbekistan
e-mail: muzropova94@mail.ru

Abstract: *In this article, the geographical basis of determining the level of development of tourist resources and tourism infrastructure, scientific and practical proposals and recommendations for their improvement, the rational use of tourist and recreational resources, the development of many types of tourism activities in the future, and the improvement of the existing tourism infrastructure are detailed.*

Keywords: *World Travel and Tourism Council, Tourism Resources, World Tourism Organization, tourism geography, architecture, historical monuments, cultural objects.*

Туризм-одна из самых высокодоходных отраслей в мировой экономике экотуризм, который является одним из ее основных направлений, нуждается в соответствующем картографическом обеспечении. Здесь экотуризм требует осмысления содержания, сути того, что является одним из путей спасения человечества в поиске решений даже самых тяжелых планетарных экологических проблем XXI века. Разработка карты экотуристических районов Узбекистана также является одним из серьезных исследований в развитии экотуризма в нашей стране.

Сегодня экотуризм и его развитие зависят не только от социально-экономических условий исследуемой территории, но и от природных условий данной территории, наличия в ней экотуристических объектов и их географического положения. Потому что особенности природных условий позволяют определить экотуристические возможности территории и какие ее виды можно развивать. То есть изменения, происходящие в мире и направленные на построение открытого общества без границ , а также растущий поток туристов, в том числе и экотуристов, вызвали большой интерес к картографической продукции, что требует анализа созданных карт, а также поиска путей и возможностей их совершенствования.

Рост спроса на туристские карты и схемы в связи с возросшей потребностью в экотуризме требует создания новых картографических продуктов и решения задач систематизации, унификации этих продуктов, проведения научных исследований в области эстетики их картографического оформления.

При этом в качестве основных задач современного картографирования экотуризма можно взять следующие, а именно:
1)создание карт для туристов (собственно экотуристические карты)
- расширить тематику и содержание экотуристических карт.
-детальное изображение общегеографических элементов точная локализация природных и культурно-исторических объектов.
- показать существующую туристическую инфраструктуру.
- отображение оптимальных (время, расстояние, уровень сложности и т. д.) маршрутов.
- увеличение информационного объема карт и атласов.
2)создание карт развития индустрии экотуризма и регулирования туристской деятельности (карты для органов управления в сфере туристского бизнеса и туризма)
- демонстрация перспектив развития экотуризма на картографируемой территории
- формирование рынка услуг, бюджетных ассигнований и инвестиций в туристскую отрасль.
Карты экотуризма по назначению делятся на:
-научно-справочное, классическое научное исследование, дающее долгосрочную характеристику местности с точки зрения ее привлекательности для туристов
- упрощенный картографический интерпретатор, предназначенный для широкого круга пользователей, отражающий популярную местную историю По содержанию туристская карта делится на общую и специализированную.

Общие карты экотуризма формируются для большой территории. В нем указаны объекты, которые посещают туристы в первую очередь архитектурно-исторические памятники, национальные парки, музеи, а также объекты инфраструктуры кроме гостиниц, туристических баз, кемпингов, экотуристические дорожные сети, реки, леса.
Эти карты используются для того, чтобы узнать местность, выбрать маршрут путешествия, разместить туристов в экологических достопримечательностях и получить разнообразную информацию о системе обслуживания.

При разработке экотуристических карт используется метод социально-экономического и природного картирования. Особенности редакционной и подготовительной работы при создании этих карт:
- установление контактов с местными организациями по вопросам развития туризма для получения информации
– подбор текстового и иллюстративного материала-чертежи, старые карты, Создание базы данных, необходимой для отображения на карте, и окончательная формулировка работы.

При составлении региональной систематической карты для целей туризма под базой данных понимается упорядоченный комплекс данных об условиях и ресурсах развития туризма в регионе, информация об объектах туризма и туристской инфраструктуры, представленная в цифровом виде.
При получении региональной системной карты для целей туризма база данных должна содержать следующую информацию:
- картографические ресурсы и картографические работы в векторной или растровой форме, составляющие сущность содержания карты при выполнении работ по картографированию туризма в перспективе, цифровые топографические и туристские карты определенной территории или ее частей, планы населенных пунктов и территорий в крупном и среднем масштабе;

- к семантической информации, составляющей территориальную информацию и атрибутивную базу данных, привязанную к конкретному объекту на карте или плане, относятся табличные данные об объектах туризма и туристской инфраструктуры, а к необходимой информации для объекта-его вид, форма, наименование, адрес, номер телефона. Дополнительная информация по группам объектов должна иметь форму, характерную для каждой из них. Например, для туристских маршрутов дополнительная информация включает вид туризма, категорию или уровень сложности, даты поездки, маршруты, экскурсионные объекты;
- В форматах *bpm, *jpeg rastr графическое изображение объектов туризма и туристской инфраструктуры, природных ландшафтов, музейных экспозиций и т.д.;
-фрагменты текста с описанием популярных объектов туристско-экскурсионной и туристской индустрии, туристских маршрутов, на которые ссылается графическое изображение объектов;
- мультимедийные элементы, содержащие видеоизображения и звуковые описания памятников туристских маршрутов.

При работе с электронными картами, созданными в ГИС, требуются определенные навыки. Мультимедийные технологии популярность картографических работ, в которых собрана вся информация, обеспечивается мультимедийными технологиями.

Результат целенаправленных исследований показывает целесообразность систематического картирования туризма. При формировании туристской картографии необходимо создать уникальную технологию создания карт и планов. Данная технология позволяет отражать своими элементами туристско-рекреационную систему планов, серий карт и атласов туристских целей, а также систематически осуществлять процесс нанесения на карту. Для этого создание туристских картографических работ разработка необходимого содержания, обеспечение современной аудио-и видеогид-информацией, применение геоинформационных и мультимедийных технологий поднимают развитие туристской картографии на высокий уровень.

Мировой опыт развития экотуризма показывает, что охраняемые природные территории способствуют развитию местной социокультурной среды, а также приносят пользу отечественной экономике, привлекая местное население к производству товаров и услуг для туристов. Экологический туризм-сложный бизнес с отдельными закономерностями, принципами и механизмами развития. Индустрия экотуризма в Узбекистане, в том числе в национальных парках, находится на стадии становления. Основной задачей территориальных сетей национальных парков является создание карты совокупности эколого - экономических объектов, объединенных научными, экологическими, туристскими и рекреационными связями, имеющих общие цели сохранения природного, исторического, культурного наследия страны для нынешнего и будущих поколений.

Список использованной литературы

1. Ибодуллаев Н.Э. ,,Возможности повышения эффективности использования туристских ресурсов (на примере Самаркандской области)’’. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук
2. Киров И.К., Андерсон В.Н. Создание и эксплутация электронного туристического атласа г. Одессы // Мат. Междунар. науч.-практ. конф. ≤Краеведение и туризм: образование, воспитание, стиль жизни ≥ – М.: Реформа - 1998. -стр. 145-147.
3. Лурье И.К. Геоинформационное картографирование. Методик геоинформатики и сифровой обработки космических снимков. – М.: KDU, 2008. - 226 стр.

4. Маркова А.Е. Общий обзор туристической картографии Украины // Туристический краеведческий журнал: Мат. III Всеукр. науч.- практика. конф. «Туризм в Украине: экономика и культура». - Т. 1. - Ч.2. - М.: КМ-трейдинг. –М.: 1998. – стр. 303-309.
5. Мирзалиев Т., Алланазаров О.R. Об информационной емкости карт // научно-методические основы создания национального атласа Узбекистана. – Т., 2009. -стр. 198-199.
6. Пастушкова С.А. Опыт рекреационного картографирования северных территорий России // Геодезия и картография. – 2000. - № 5-стр. 32-38.
7. Саидова С.R., Сафаров Е.Ю., Саидов А.К. Процесс генерализации при составлении гидроэкологических карт: традиции и современность // информация географического общества Узбекистана, т. 43-т., 2014. – стр. 184-187.
8. Салишев К.А. Принципы и задачи системного картографирования // системного картографирования природных и социально-экономических комплексов. – М.: 1978. – стр. 481-489.
9. Северинов В.Ф. Картографический анализ сферы обслуживания туризма в Украине // Вестник геодезии и картографии. –М.: 2001. - № 4. - С. 37-43.

ARXEOLOGIK YODGORLIKLAR VA TARIXIY MANZILGOHLARNI O‘RGANISHNING IJTIMOIY-GEOGRAFIK JIHATLARI (JANUBIY IQTISODIY RAYON MISOLIDA)

Xamidova M.Z.
Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston
e-mail: mohigulhamidova2222@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Janubiy iqtisodiy rayon arxeologik yodgorliklari va tarixiy obyektlarining muhofaza qilish va ularni boshqarish mexanizmlari haqida so‘z boradi. Iqtisodiy rayonda mavjud arxeologiok yodgorliklar ulushi respublikada eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, bu undan samarali foydalanish imkoniyati mavjudligini bildiradi.*

Kalit so‘zlar*: arxeologik yodgorlik, arxitektura yodgorliklari, milliy madaniy meros, tarixiy obyektlar, “ochiq osmon muzey”i, diqqatga sazovor joylar, monumental san’at yodgorliklari.*

СОЦИАЛЬНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ И ИСТОРИЧЕСКИХ ПОСЕЛЕНИЙ (НА ПРИМЕРЕ ЮЖНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНА)

Хамидова M.Z
Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан
e-mail: mohigulhamidova2222@gmail.com

Аннотация: *В данной статье рассматриваются механизмы охраны и управления археологическими памятниками и историческими объектами Южного экономического района. Доля существующих археологических памятников в экономическом районе самая высокая в республике, что свидетельствует о возможности их эффективного использования.*

Ключевые слова: *археологический памятник, памятники архитектуры, национальное культурное наследие, исторические объекты, “музей под открытым небом”, достопримечательности, памятники монументального искусства.*

SOCIO-GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE STUDY OF ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS AND HISTORICAL SITES (ON THE EXAMPLE OF THE SOUTHERN ECONOMIC REGION)

Khamidova M.Z

Qarshi State University, Qarshi, Uzbekistan, e-mail: mohigulhamidova2222@gmail.com

Abstract: *This article will talk about the mechanisms of protection and management of archaeological monuments and historical objects of the southern economic region. The share of existing archaeologioc monuments in the economic region is the highest in the Republic, which means that there is an opportunity to use it effectively.*

Key words: *archaeological monument, architectural monuments, national cultural heritage, historical objects, "open sky museum", attractions, monuments of monumental art.*

Har qanday mamlakat iqtisodiy o‘sishga erishish jarayonida o‘zining resurslariga tayanadi hamda ulardan oqilona foydalanishga harakat qiladi. Biroq mamlakatlar faqatgina tabiiy resurslar va foydali qazilmalar hisobiga iqtisodiyotni doimiy rivojlantirishning imkoniyati past ekanligini, shu sababli ham boshqa yo‘nalishlardan ham samarali foydalanish zarurligini ko‘rsatib bermoqda.

O‘zbekiston ham mamlakat hududida juda ko‘plab tabiiy resurslar va foydali qazilma boyliklari mavjudligi bilan dunyoning ko‘plab davlatlaridan ko‘ra ustunlikka ega. Shu bilan birga mamalakatimizda faqatgina tabiiy resurslardan foydalanish bilan birga uzoq yillik tariximiz hamda ko‘plab madaniyatlar kesishuvidan shakllangan arxeologiya va tarixiy-madaniy obyektlaridan ham samalari foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Xususan, 2001-yilda qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” hamda 2009-yilda qabul qilingan “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlari shular jumlasidandir.

Ushbu qonunlarda O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo‘lmish madaniy meros obyektlarini hamda arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi F-5181-sonli Farmoyishida moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish, boshqarish hamda ulardan oqilona foydalanishning yagona mexanizmini ishlab chiqish belgilangan [4]. 2023-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” strategiyasining 58-maqsadida “Ko‘hna tarix durdonalari” milliy dasturini ishlab chiqish hamda uning doirasida madaniy meros obyektini restavratsiya qilish, yodgorliklarda “ochiq osmon muzey”larini tashkil etish masalalar keltirilgan [3].



1-chizma. O‘zbekiston Respublikasidagi moddiy madaniy meros obyektlari soni

Manba: O‘rganilgan ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Bu kabi normativ asoslarning qabul qilinganligi, mamlakat arxeologik va tarixiy-madaniy obyektlarni o‘rganishni, ular bo‘yicha tadqiqotlar olib borishni hamda samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirib beradi. Negaki O‘zbekistonda bugungi kunda 8210 dona moddiy madaniy meros obyektlari mavjud bo’lib ularning aksar qismini arxeologiya obyektlari tashkil etadi (1-chizma).

Tarixiy obyektlar hamda arxeologiya yodgorliklari Respublikaning barcha hududlari bo‘ylab tarqalgan. Bu holat Janubiy iqtisodiy rayon uchun ham o‘rinli. Ushbu rayon Respublikamiz janubida joylashgan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari shakllanayotgan yangi iqtisodiy makon - asosiy iqtisodiy rayonni tashkil etadi. Uning maydoni 48,7 ming km^2 bo‘lib, u O‘zbekiston hududining 10,9 foizni tashkil etadi [5]. Biroq, qamrab olingan maydon nisbatan kichik bo’lishiga qaramasdan, bu iqtisodiy rayonda O‘zbekistonda mavjud jami moddiy madaniy meros obyektlarining qariyb 25 % ini tashkil etadi. Ya’ni Respublikada mavjud 8210 ta moddiy madaniy obyektlardan ikkala viloyatda umumiy 2029 tasi joylashgan. Bu yerda asosiy ko’rsatkich Qashqadaryo viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi. Viloyat iqtisodiy rayonning qariyb 72 % arxeologik yodgorliklar va tarixiy manzillariga egalik qiladi (2-chizma). Shu bilan birga Surxondaryo viloyati esa monumental san’at yodgorliklari va diqqatga sazovor joylari bilan ustunlik qiladi(3-chizma).



2-chizma. Qashqadaryo viloyati moddiy-madaniy meros obyektlari soni



3-chizma. Surxondaryo viloyati moddiy-madaniy meros obyektlari soni

Manba: O‘rganilgan ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Janubiy iqtisodiy rayon tarixi 2700 yillik davrga borib taqalishi hamda tarixdan shimol hamda janubni bog‘lovchi darvoza vazifasini o‘taganligi uning hududida asosan ilk shaharlar va ularning qoldiqlari bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy obyektlar ko‘plab uchrashini asoslaydi. Bular sirasiga Yerqo‘rg‘on, Shulluktepa, Qal’ai Zahhoki Moron, Kesh shahri, Ayritom, Qoratepa va Termiz shahri kabi manzilgohlarni misol sifatida keltirish mumkin. Qashqadaryo viloyatida joylashgan obyektlarning aksaryati bevosita Amir Temur hamda Temuriylar davri bilan bog‘liq. Ayniqsa, Shahrisabz shahrida joylashgan Oq Saroy majmuasi, Dor us-siyodat, Dorut Tilovat, Shahar qal’a devori kabi obyektlar shular jumlasidandir.

Surxondaryo viloyatida esa, asosan Kushonlar davri hamda buddaviylik dini bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlar Buddaviylik majmualari, Fayoztepa, Kampirtepa, Dalvarzintepa kabi tarixiy manzilgohlarni kiritish mumkin. Bu kabi obyektlar hududlar aholisining ijtimoiy hayotida ham, madaniyatlarning shakllanishida ham, tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy izlanishlar olib borishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq obyektlar va yangi kashf etilayotgan manzilgohlarning hududlar bo‘ylab tekis tarqalmaganligi, geografik joylashuvi,

tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarning kam ekanligi esa ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda biroz noqulayliklar yuzaga keltiradi.

Qo‘shimchasiga, O‘zbekiston hududidagi barcha tarixiy obyektlar va manzilgohlar davlat muhofazasida hamda ulardan foydalanish bevosita davlat siyosatiga aloqador. Davlatning olib boriladigan oqilona siyosati ushbu arxeologiya obyektlari hamda tarixiy manzilgohlaridan samarali foydalanilishiga olib keladi va aksincha nooqilona siyosat esa obyektlar va yodgorliklarning qarovsiz qolishiga, talon taroj qilinishiga olib keladi. Bunday holat ijtimoiy hamda geografik nuqtayi nazardan hududlar imkoniyatini pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ham, hukumat mazkur sohada oqilona siyosat hamda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun yetarli shart-sharoitlarni ta’minlab kelayotganligi ilmiy tadqiqot olib borishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to’g’risida”gi qonuni T.: O‘zbekiston 2001. Manba: https://lex.uz/acts/-25461
2. O‘zbekiston Respublikasining “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni T.: O‘zbekiston 2009. Manba: https://lex.uz/docs/-1526440
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-158-son. – T., 2023-yil 11-sentabr. Manba: https://lex.uz/ru/docs/-6600413
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoyishi. F-5181-son. – T., 2018-yil 16-yanvar. Manba: https://lex.uz/docs/-3506332
5. Soliyev A. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Toshkent. «Universitet». 2014. 404 b.
6. Stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti

QASHQADARYO QISHLOQ TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Normatov S.A.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Shahrisabz, O‘zbekiston, e-mail: normatovsunnat030@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qashqadaryo qishloq turizmining shakllanish jarayonlari hamda mamlakatimiz hayotida tutgan o‘rni, mazkur sohada faoliyat yuritishning nazariy hamda amaliy asoslari, qishloq turizmi nuqtalari bilan birgalikda ushbu faoliyatni amalga oshirish imkoniyati bo‘lgan hududlar tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *qishloq turizmi, qishloqlar, mehmon uylari, turizm mahalasi, istiqbolli marshrutlar.*

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОГО ТУРИЗМА КАШКАДАРЬИ

Норматов С.А.

Шахрисабзский государственный педагогический институт

Шахрисабз, Узбекистан, e-mail: normatovsunnat030@gmail.com

Аннотация: *В данной статье говорится о процессах формирования Кашкадарьинского сельского туризма и его роли, также представлены теоретические и практические основы деятельности в данной сфере а также возможностью осуществления данной деятельности совместно с существующими точками сельского туризма.*

Ключевые слова: *сельский туризм, села, гостевые дома, туристический район, перспективные маршруты.*

FORMATION AND DEVELOPMENT OF RURAL TOURISM OF KASHKADARYA

Normatov S.A.
Shakhrisabz state pedagogical institute
Shakhrisabz, Uzbekistan, e-mail: normatovsunnat030@gmail.com

Abstract: *This article talks about the formation processes of Kashkadarya rural tourism and its role in the life of our country. Also, what are the contents of the international and national requirements in this field are explained.*

Key words: *rural tourism, villages, guest houses, tourist district, promising routes.*

So‘nggi davrlarda jahon xo‘jaligida kechayotgan jarayonlar, chunonchi turizm va rekreasiyaning shiddat bilan rivojlanishi tendensiyalari turli mintaqa va mamlakatlar qatori Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan O‘zbekistonga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimiz rahbari, Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ushbu sohani rivojlantirishga bo‘lgan kuchli e’tibor, qabul qilingan xuquqiy-me’yoriy xujjatlar, shuningdek turistlarni jalb qilish va turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish bilan bog‘liq o‘zgarishlar buning yorqin isbotidir[6]. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-5781-son Farmoni bilan 2019-yil 1-noyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi eng yuqori turizm salohiyatiga ega bo‘lgan fuqarolar yig‘inlari (shaharcha, qishloq, ovullar hamda shahar, shaharcha, qishloq va ovullarning mahallalari) ro‘yxatini shakllantirishi hamda ushbu fuqarolar yig‘inlari hududlarida 20 tadan kam bo‘lmagan oilaviy mehmon uylari tashkil etilganda va turistlar uchun kamida besh xil xizmat turlari (yashash va/yoki ovqatlanish bo‘yicha xizmatlardan tashqari) ko‘rsatilgan taqdirda ularga “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘I” yoki “Turizm ovuli” maqomini berishi belgilangan. Shuningdek yana mazkur farmon bilan “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomiga ega fuqarolar yig‘inlari mahalliy aholisini turistlarga sifatli xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tayyorlash va o‘qitishni doimiy asosda tashkil etish ham ko‘zda tutilgan[1].

Qashqadaryo viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar tomonidan 2023-yilda 222,3 ming nafar xorijiy turistlar tashrif buyuruvchiga xizmat ko‘rsatildi. Ichki turistlar soni 2109 ming kishini tashkil qiladi.

1-jadval

Turistlar tashrif buyuradigan qishloqlar haqida ma’lumot

T/R	Tuman	Qishloq (MFY) nomi	Yil boshidan buyon tashrif buyurganlar soni	2022 yilga nisbatan (%)da	2022 yil
1	Shahrisabz	Miroqi	278400	128,89	216000
2	Shahrisabz	G‘elon	180000	107,14	168000
3	Shahrisabz	Suvtushar	192000	103,23	186000
4	Kitob	Bashir	267600	131,18	204000
5	Kitob	Jovuz	96000	114,29	84000
6	Kitob	Varganza	60000	142,86	42000
7	Chiroqchi	Tarag‘ay	9600	160,00	6000
8	Chiroqchi	Langar	6000	111,11	5400

Izoh: Manba viloyat statistik boshqarmasi ma`lumotlari asosida muallif tayyorlangan

Yuqodidagi jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, turistlar tashrif buyuradigan qishloqlar bo‘yicha Miroqi qishlog‘i 27,8 ming, Bashir qishlog‘i 26,7 ming, Suv tushar qishlog‘i esa

19,2 ming turist tashrif buyurgan. Umuman olganda barcha turistik qishloqlarda o‘tgan 2022-yilga nisbatan o‘sish tendensiyasi kuzatilgan.

Turizm infratuzilmasining muhim tarkibiy elementi-bu, mehmonxonalardir. Agarda, respublikamizda mehmonxonalarda xonalar sonining ko‘pligi bilan Toshkent shahri (8,8 ming xona, jamiga nisbatan 33,6 %) yetakchilik qilsa, bu borada Qashqadaryo viloyati 4,9 foizni tashkil etib, respublika o‘rtacha ko‘rsatgichidan ham ancha past darajada[5]. Viloyatda joylashgan turizm infratuzilma obyektlarini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish, xizmat ko‘rsatish darajasini yuksaltirish, turizmni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Buning uchun turizm infratuzilmasining 67 tarkibiy qismlari: mehmonxonalar, transport xizmatlari, ovqatlanish, dam olish, davolash, ko‘ngilochar va boshqa xizmatlarni yuqori darajada tashkil etish talab etiladi.

Viloyatda hozirgi kunda ko‘plab mehmonxonalar qurilmoqda, ayniqsa, xususiy turistik mehmonxonalar soni ortib borayapti, jumladan, viloyatda 2020 yilda 54 ta (2019 yilda 47 ta, o‘rinlar soni 1297 ta) mehmonxonalar bo‘lib, 2469 ta o‘rinni tashkil qilgan. Mehmonxonalar soni bo‘yicha yuqori salohiyatli hududlarga Qarshi (25 ta) va Shahrisabz shaharlari (11 ta) kirsa, o‘rta salohiyatli hududlarga Shahrisabz (14), Kitob (10) va Yakkabog‘ (10) tumanlari, aksincha past salohiyatli hududlarga Qamashi, Nishon, Mirishkor Kasbi tumanlari va qolgan tumanlar o’rtachadan past salohityali hududlarga mansub. Past va o‘rtachadan past salohiyatli hududlarda davlat xususiy sherikchilik asosida tadbirkorlik subyektlarini jalb qilgan holda mehmonxonalar qurish va turistik xizmatlarni yaxshilash maqsadga muvofiq

Qashqadaryo viloyatida 2022 yilda jami 243 ta (2020 yilda 47 ta) oilaviy mehmon uylari tashkil etilgan bo‘lib, ularning soni tez ortib bormoqda va yil davomida mehmon uylari 26 taga ko‘paydi, oilaviy mehmon uylarda 186 xona va 396 ta o‘rinlar soni mavjud. Mehmon uylar soni bo‘yicha Shahrisabz shahri (37 ta) yuqori ko‘rsatgich ega bo‘lib, boshqa hududlar, jumladan, Qarshi shahrida 6 ta, Shahrisabz tumanida 2 ta, Kitob va Chiroqchi tumanlarida 1 ta mehmon uylari faoliyat olib bormoqda va aksincha viloyatning qolgan hududlarida birorta mehmon uylar tashkil etilmagan [5].

O‘rganishlar natijasida ma’lum bo’ldiki, viloyatning turizm strategik yo‘nalishi sifatida qishloq joylari turistik imkoniyatlari ziyorat turizmi, agroturizm, gostronomik turizm, ekoturizm yo‘nalishlari muhim deb hisoblaymiz. Bular quyidagi jadvalda hududiy jihatlari o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari keng. Yurtimizda jahon dinlari taraqqiyoti tarixi bilan bog‘liq muqaddas joylar, me’moriy yodgorliklar asrlar davomida ziyoratchilar uchun xizmat qilgan. Turistlar Fayoztepa va Qoratepadagi buddaviylik ibodatxonalarni, Dalvarzintepadagi mahalliy ibtidoiy dinlarning muqaddas joylarini, Xorazmdagi Ayoztepa va Tuproqqal’adagi zardushtiylar madaniyatining yodgorliklarini ko‘rishlari mumkin. Shuningdek, diniy turizm doirasida Islom olamida mashhur Buxorodagi so‘fiylar xonaqohlari, Bahouddin Naqshband, Xojai Jahon majmualari, yetti pir maqbaralari, Samarqanddagi Imom al-Buxoriy maqbarasi, Shohi Zinda va Ruhobod majmualarini ziyorat qilish mumkin. Yahudiylar Buxorodagi XVII asrda qurilgan birinchi sinagogani ziyorat qilishlari mumkin.

Qashqadaryo viloyati ziyorat turizmi imkoniyatlari katta bo‘lib, ulardan samarali foydalanish viloyat turizm istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, viloyatdagi o‘ndan ortiq ziyoratgohlarni, xususan *Imom Muyinan-Nasafiy majmuasi, Dorus saodat majmuasi, Hazrati Bashir ziyoratgohi, Muborak al-Mervaziy ziyoratgohi, Langar ota ziyoratgohi* kabilarni xalqaro va mahalliy marshrutlarga kiritish zarurdir (4-jadval). Ziyoratlarga tashriflar statistikasini yuritish masalasi muammo bo‘lib qolmoqda. Asliga feys control yoki boshqa nazorat tizimi orqali hisoblab borilishi ziyoratgoh va qadamjolardagi asl statistikani olib boorish imkonini beradi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, shuni ta‘kidlash joizki Qashqadaryo viloyatida qishloq turizmini rivojlantirish strategiyasida ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolardan samarali foydalanish uchun infratuzilmani va turizmda sog‘lom raqobatni hamda turizm klasterlari va erkin turistik zonalarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etad.

Xulosa. Qashqadaryo viloyatidagi mavjud ziyoratgohlarni ta’mirlab, qayta tiklash zarur. Shu bilan birga ziyorat turlar dasturini yaratib, turistlarga taklif qilish lozim. Qashqadaryoning keng sayyohlik imkoniyatlari, betakror va go‘zal tabiati, xalqimizning mehmondo‘stligi, sahovatpeshaligi hamda bag‘rikengligi sayyohlarni maftun etib, ularning xotirasi va qalbida o‘chmas taassurot qoldiradi. Buni amalga oshirish uchun birinchidan, viloyat qishloqlari turistik atlasini yaratish, ikkinchidan, viloyat qishloqlaridagi ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar aks etgan videoroliklar va reklamalarni ijtimoiy tarmoqlarda va televideniyada reklamasini yanada kengaytirish, uchinchidan, turistik qishloqlar yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, to‘rtinchidan ziyoratgohlar tashriflar statistikasini zamonaviy tizimlar asosida yuritish antropogen yukning holatini nazorat qilish va ilmiy asosida chora-tadbirlar ishlab chiqishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 30.04.2022 yildagi PQ-232-son ―Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida Qarori. www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni.
3. Usmanov M.R. Turizm geografiyasi: o‘quv qo‘llanma. — Samarqand, «SamDU», 2020.
4. Абдусаломова З.Н. Ҳалқаро туризмда маркетинг жараёни. и.ф.н. дис. ТДИУ, 2001. – 34 б
5. Jumayev X.X. Qashqadaryo viloyati turizm geografiyasi // monografiya // Qarshi: “Fan va ta’lim” nashriyoti, 2022. – 156 b
6. Жумаев Х.Х. Қашқадарё вилоятининг туризм салоҳияти: имкониятлар ва ривожланиш истиқболлари // Ўзбекистон география жамияти 54 жилд, 2018
7. Назаров М.И., Жумаев Х.Х., Умарова М.Х Қашқадарё вилоятида тарихий-маданий туризмни ривожлантириш салоҳияти // География жамияти ахбороти 56 жилд 2020.

SHAHRISABZ TUMANI G‘ELON QISHLOG‘INING EKOTURIZMDAGI IMKONIYATLARI

Yusupov B. B.

Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston, e-mail:yusupovgeog@mail.ru

Anatasiya: *Maqolada Qashqadaryo havzasi tog’ va tog’oldi ekoturizmni rivojlanishining ayrim masalalari, ayniqsa, iqlimiy va xududiy sharoitlari o‘rganib chiqildi va tog’oldi ekoturizmi bevosita tabiat bilan inson o‘rtasida o‘zaro to‘qnashuvi qay tarzda kechishi bilan bog‘liq. bo’lgan jarayolar haqida. Yurtimizdagi ko‘plab tabiat go‘shalari borki, u bevosita sayyohlarning dam olish va sog‘lomlashtirish vazifasini bajaradi. Binobarin tog‘ va tog’oldi hududidagi hushmanzara joylar mahalliy va chet ellik sayyohlar uchun ochilmagan qo‘riq ekanligi va ekoturizmdagi jihatlari xaqida malumot berildi.*

Kalit so‘zlar: *Tog‘lar, ekoturizm, sharsharalar, o‘rmonlar, daryolar, g‘orlar, ko‘llar,*

ВОЗМОЖНОСТИ ЭКОТУРИЗМА СЕЛА ГЕЛОН ШАХРИСАБЗСКОГО РАЙОНА.

Юсупов Б.Б.
Самаркандский государственный университет, Самарканд, Узбекистан
e-mail: yusupovgeog@mail.ru

Анатасия: *В статье изучены некоторые вопросы развития горного и предгорного экотуризма в Кашкадарьинском бассейне, особенности климатических и региональных условий, причем горный экотуризм напрямую связан с тем, как происходит взаимодействие природы и человека. о происходивших процессах. В нашей стране немало природных уголков, которые непосредственно служат целям отдыха и оздоровления туристов. Поэтому была дана информация о том, что горные и горные районы являются неоткрытыми резервами для местных и иностранных туристов и их аспектах в экотуризме.*
Ключевые слова: *Горы, экотуризм, водопады, леса, реки, пещеры, озера,*

ECOTOURISM POSSIBILITIES OF THE VILLAGE OF GELON, SHAKHRISABZ DISTRICT.

Yusupov B.B.
Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan, e-mail: yusupovgeog@mail.ru

Anastasia: *The article examines some issues of development of mountain and foothill ecotourism in the Kashkadarya basin, features of climatic and regional conditions, and mountain ecotourism is directly related to how nature and man interact. about the processes that took place. In our country there are many natural corners that directly serve the purposes of recreation and health improvement of tourists. Therefore, information was given that mountainous and mountainous areas are undiscovered reserves for local and foreign tourists and their aspects in ecotourism.*
Keywords: *Mountains, ecotourism, waterfalls, forests, rivers, caves, lakes.*

Qashqadaryo zamini o‘zining boy tarixi, qadimiy osori-atiqalari, o‘tmish yodgorliklari, daryo, soy, buloqlari, baland va viqorli tog‘lari, betakror tabiati bilan yurtimizning turizm sohasi salohiyatida muhim o‘rin tutadi. Viloyatda turizm sohasidagi barcha yo‘nalishlar bo‘yicha yetarli imkoniyatlar mavjud. Turizm faoliyati subyektlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, mintaqalarning turistik salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, dam olish va turizm uchun shart- sharoitlarni yaxshilash, shuningdek, turizm xizmatlari ko‘rsatish sohasida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish hamda aholining bandligi va farovonligini oshirish bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Zero Prezidentimiz Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston-2030” strategiyasida xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirishni respublikamiz o’z oldiga maqsad qilib olgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yilning 3-iyun kuni hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini ko‘paytirish chora-tadbirlari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilgan edi. Mazkur yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan berilgan tezkor topshiriqlar ijrosini barvaqt va sifatli ta’minlash maqsadida Turizm qo‘mitasi boshchiligidagi respublika ishchi guruhi tashkil etildi. Ishchi guruh tomonidan Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani G‘elon qishlog‘iga tashrifi amalga oshirildi. Tashrif doirasida respublika ishchi guruhi vakillari tomonidan turistik imkoniyatlar jumladan, zamonaviy turizm infratuzilmasi obyektlarini barpo etish, turistlarga xizmat ko‘rsatish uchun zarur sharoitlarni yaratish masalalari ko‘rib chiqildi.

Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident qarori (PQ-245-son, 08.07.2024

y.) qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2023 yildagi “Qashqadaryo viloyatining tog‘li rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obe’ktlarini barpo etish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-376-son qarori 6-bandiga asosan, Shahrisabz tumani hududida xususiy investitsiyalarni jalb qilgan holda 2024-2025 yillarda qo‘shimcha mehmonxonalar, mehmon uylari, xizmat ko‘rsatish majmualari va dam olish maskanlarini qurish maqsadida bo‘sh yer uchastkalarini 10 yil muddatda teng ulushlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan auksion savdolariga chiqarish belgilangan.

Qishloqda turizm amaliyotining asosini qadimiy urf-odat va an’analar, shuningdek, turli xalq unsurlari, etnografik osori - atiqalari saqlanib qolgan qishloq aholi punkti tashkil etadi, agar ularni targ‘ib qilishning kuchli strategiyasi bilan uyg‘unlashtirilgan holda foydalansa juda katta samaradorlikka erishish va yaxshi foydalanish mumkin. Qishloq turizmi birinchi navbatda, stressli muhitda yashovchi shahar aholisiga, shuningdek, o’rtacha va yuqori daromadli odamlarga qaratilgan. Turizm qishlog’ini tashkil etishdan maqsad, hududning turizm salohiyatini yanada rivojlantirish, turistlar oqimini yanada ko’paytirish, turistlarni hududning noyob turistik salohiyati va madaniy me’ros obyektlari bilan keng tanishtirish, sayyohlarga qulay shart- sharoitlar yaratish. Hududda zamonaviy turizm infratuzilmasining izchil rivojlanishini ta’minlash, zamonaviy talablarga muvofiq ko’rsatiladigan turizm, mehmonxona va transport xizmatlari turlarini kengaytirish, sifatini yaxshilash hamda mazkur sohada faoliyat yuritish istagida bo’lgan tadbirkorlik sub’ektlariga ko’maklashish, ichki turizmni faollashtirish, yangi ish o’rinlari yaratishdan iborat.

Qishloq turizmini rivojlantirish va rag‘batlantirish orqali, ayniqsa, bir tomondan qishloqning, ikkinchi tomondan, uning aholisining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumot uchun, Prezidentimizning 5781-sonli farmoni bilan fuqarolar yig‘inlari hududlarida, 20 tadan kam bo‘lmagan oilaviy mehmon uylari yaratilgan taqdirda va sayyohlar uchun kamida besh xil xizmat turi (yashash va yoki ovqatlantirish xizmatlaridan tashqari) ko‘rsatilgan taqdirda, ularga “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomi beriladi. 2020-yildan boshlab “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomining berilgan fuqarolar yig‘ini “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlariga kiritiladi. [Xalq so’zi 2019 yil 14-avgust]. Qashqadaryoning ajoyib so’lim qishloqlaridan biri. Shahrisabz tumanidagi Hisor tog’larining janubiy g’arbiy qismida dengiz sathidan 2600 metr balandlikdagi tog‘li G‘elon qishlog‘idir. Bu yerga deyarli har kuni sayyohlar keladi. Qishloq shahar markazidan 60 km uzoqlikda va tog‘ yon bag‘irlarida joylashgan.

G’elon va Ko’l qishloqlari botig’ini sharq tomondan o’rab turgan Zaxchaxona tog’lari shimoli-g’arbdan Qaraganda nihoyatda baland qoyali tog’lar tarzida ko’rinadi. Dengiz sathidan 3800-3900 metr balaidlikdagi Zaxchaxona tog’lari qadimgi muzlik ta’sirida tarashlangan relyef shakllarining ko’pligi bilan alohida ajralib turadi. Hisorning janubi-g‘arbiy qismi Qashqadaryo havzasida bo‘lib, uning eng qadimgi geologik yotqiziqlari tokembriy metamorfik jinslari Maskara va Chakmonkuydi massivlari zaminidadir. Juda chuqurdagi burmalangan zamin ustidagi yura davri iliq dengiz ohaktoshlari kompleksi odatda bir necha yuz metr qalinlikka ega. Yuqori yura davri hosilalari bu mintaqada o‘rtacha chuqurlikdagi iliq dengiz sharoiti o‘nlab million yillar hukmron bo‘lganligini ko‘rsatadi. Hozirgi zamon relyefining diqqatga sazovor shakllari tog‘ tangilari, yirik karst g‘orlari, o‘ydim - chuqur karst varonkalari va botiqlari ham shu yura davri ohaktoshlarida shakllangan. Hisorning o‘zagi Oqsuv va Tanxozdaryo oralig‘ida Osmontarosh tog‘i hamda, Hisor qo‘riqxonasi janubiy maydonidagi Uloqo‘ynar intruziv massivlari paleozoy erasi oxirida eng kuchli metamorfik jarayonlar ro‘y berganligini ko‘rsatadi. Oqsuv daryosining Hisorak

qishlog’idan to Hazratsulton tog’igacha bo’lgan maydoni devon davriga mansub ohaktoshlardan tuzulgan, bu jins majmualari perm davrida Zarafshon tog’ tizmasi ko’tarilishidan tasirlanib, zichlashgan, bazan marmarlashgan.

Hozirgi Zarafshon tizmasi bilan Hisorni birlashtiruvchi Hazratsulton tog’i bir darajada burmalangan, undan sharqdagi va janubdagi hududlarda erning ichki qisimlarida kuchli magmatik jarayonlar ro’y bergan. Osmontarosh va Xo’jaqorshivar intruziv majmualari huddi shu voqealar hosilasidir. Granit, diorit, plagiogranit boshqa intruziv jinslar Tamshush, Suvtushar, G’elondaryo va boshqa joylardagi tog’lar zaminini tashkil etadi. Qashqadaryo havzasi landshaftlarining hududiy tabaqalashuvi xususiyatlarining tahlili bu xududda tabaqalashuv eng avval geologik geomorfologik omil muhim hisoblansada, yuza jinslarining roli ham ancha katta ekanligini ko’rsatadi. Yuza jinslarining tasiri nafaqat o’simlik - tuproq qoplamida, balki eroziya jarayonlarining faolligida, morfostrukturaning o’ziga xosligida va boshqa xususiyatlarida ham yaqqol namoyon bo’ladi. Qashqadaryo havzasining tog’lik qismida yaruslilikning namoyon bo’lishi, tog’larda balandlik zonalari spektrining darajasi, gipsometrik sath (absolyut balandlik), relyefning genezisi va parchalanish darajasiga ko’ra landshaftlarning quyidagi kichik sinflari ajratiladi: Tog’oldi adirlari va pasttog’larning landshaftlari. O’rtacha balandlikdagi tog’ landshaftlari. Baland tog’ landshaftlari.

Qashqadaryo tog`li hududi tabiatining ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, tahlil qilish, ulardan oqilona foydalanish yo’llarini ko’rsatish shu kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Hozirgi paytda viloyatdagi sanatoriylar, oromgohlar, dam olish uylarining katta qismi o’rtacha balandlikdagi tog’ hududlarida joylashgan. O’rtacha balandlikdagi tog’ landshaftlari 1200-2000 m balandliklar oralig’idagi tog’ yonbag’irlarida tarqalgan. Bu xildagi landshaftlar Hisor tizmasining Qashqadaryo va Jinnidaryo, Oqsuv va Tanxozdaryo, Yakkabog’daryo va G’uzordaryo oralig’idagi Sumsar - Shertog’, Toytalash va boshqa tog’massivlarida mavjud. O’rtacha baland tog’ landshaftlari 546 ming ga maydonni band etadi. O’rtacha balandlikdagi tog’larning iqlimi ancha salqin. Yanvar oyining o’rtacha harorati manfiy, absolyut minimum -25-30 gr pasayadi. Absolyut maksimum 35-40 gr. Harorat +5 gr dan yuqori bo’lgan davr 200-250 kun bo’lib, ularning yillik jami 3000-4000 gr etadi. Harorat +10 gr dan yuqori bo’lgan davr 150-200 kun yillik jami 2500-3000 gr. Sovuq bo’lmaydigan davr 170-200 kun. Yillik ehtimoliy bug’lanish yillik yog’inlar miqdoriga nisbatan ancha katta va shu bois namlik koeffitsiyenti 0,5-0,2 dan oshmaydi. O’rtacha balandlikdagi tog’larning yonbag’irlari ancha kuchli parchalangan, suvayirg’ichlari yassilangan. Yonbag’irlarining qiyaligi 10-150 m. Iqlim sharoitlariga bog’liq holda o’ziga xos relyef shakillanadi. Bunday reyef uchun turli shakillardagi qoyalar, tik zinapoyali yonbag’irlar xos. Reyefning parchalanish darajasiga ko’ra o’rtacha balandlikdagi tog’lar kuchli va kam parchalangan reyefga ega.

Ammo bu hududlarning ekoturizmdagi imkoniyatlarini o’zlashtirish yaqin istiqboldagi muhim ijtimoiy vazifadir. Shu sababli bu hududlardagi ekoturizm tizimlarini o’z ichiga oladigan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga jiddiy etibor qaratilishi lozim. Ammo bu tarmoqlarni to’g’ri va mutanosiblik bilan rivojlantirish masalalarini ilmiy asosda hal etilishi lozim. Ayni paytda o’simlik va hayvonot olamining vakillarini muhofaza qilish, relief xususiyatlarini etiborga olgan holda tabiiy va antropogen jarayonlarga qarshi o’rmon - meliorativ tadbirlar muntazamlik bilan amalga oshirilib borilmog’i lozim. Shu jumladan, G‘elon qishlog’i ham o‘ziga xosligi va tabiiyligi bilan sayyohlarni o‘ziga ohanrabodek tortib kelmoqda. G‘elon qishlog‘iga chiqishda Hisorak suv omboriga chiqasiz, tog‘lar tomon yo‘l olasiz.

“Hisorak” suv omboriga duch kelasiz, dengiz sathidan 1800-2000 m balandlikda bo‘lib, atrofdagi barcha hududlarni suv bilan ta’minlaydi. Oqsuv daryosi o’zani bo’ylab ekoturistik sayohatni amalga oshirish mumkin, bunda Hisorak qishlog’idan boshlab turistlar Sarchashmagacha bo’lgan 15 km masofani bosib o’tishlari kerak bo’ladi. Sarchashma qishlog’idan G’eon qishlog’igacha bo’lgan masofa 12 km tashkil qiladi. Bu sayohatni davomiyligi 2-3 kunni tashkil etadi, chunki yuqoriga chiqan sari turistlar uchun qiziqarli bo’lgan tabiat mo’jizalari ko’payib boradi. Darada ochilib qolgan qattiq tub jinslarni, yuvilish natijasida hosil bo’ladigan tor va chuqur, tik yonbag’irli vodiyni, ularning uzoq vaqtdan buyon tik holatda bo’lgan yon devorlarini tomosha qilishlari mumkin. Hisor tog’li xudud bo’lganligi uchun geologik - geomorfologik, botanik, paleontologik,

gidrologik yodgorliklarga boy. Geomorfologik yodgorliklar bo’lgan g’orlar tog’ daralari, Oqsuv daryosi o’rta oqimida ham anchagina. Bu esa tashrif buyuruvchi turislar uchun juda qiziqarli hisoblanadi. Paleozoy ohaktoshlarida shakllangan Kaptarxona karst g’ori Hisorak qishlog’idan 2 km shimolda Oqsuvning chap biqinida. G’or dengiz sathidan 1358 m balandlikda, daryo yuzasidan 170 m sathda, uzunligi 24 m, balandligi 7-27 m kengligi 5-27 m. Yana shunday g’orlardan biri G’elon qishlog’idan 5 km lar chamasi sharqdagi 23 m uzunlikdagi Farmon g’ori ham muhim tabiat obidalari qatoriga kiradi. Misol uchun, Turkiyada turizm eng rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi. Bir tomoni azim tog‘lar, ikkinchi tomoni Oq dengiz sohillariga tutash, Alaniya o‘lkasidagi Dim va Damlatosh g‘orlari uzunligi 360 metrni, kengligi va balandligi 10-15 metrni tashkil qiladi. G‘or ichida turistlarni qulay yurishi uchun maxsus yo‘lak qurilgan. Kaptarxona va Farmon g‘orlarining ayrim qismlarida ham ana shunday maxsus eko yo’lakchalar qurishni tavsiya etamiz.

O‘zbekistonda esa dunyoga mashhur o‘nlab g‘orlar bo‘lishiga qaramay, birorta g‘or turistik ekskursiya tashkil etish uchun tayyorlanmagan. Paleozoy davrining juda qalin ohaktoshlarini kesib o’tgan daryo o’zanlari nihoyatda o’zgacha tangilar hosil qilgan. Jumladan 30-yillarda tadqiqot olib borgan taniqli geolog S.I.Klunnikov va P.P.Chuenkolar daralarni shunday tariflaydilar “Uzoqdan qraganda yassi tepaliklar orasida yashirin chuqur daralar mavjudligi bilinmaydi. Ahyon-ahyonda ko’zga tashlanadigan daryo tirsaklarining ustki qismigina bir necha yuz metirlar chuqurlikka o’yib kirgan daryoning daralari mavjudligini ko’rsatadi. Daryo tangilari tog’ oralig’ida yoriqlar bo’ylab oqqanga o’xshab ko’rinadi.” Ha, Hisorak va G’elon qishloqlari oralig’ida Oqsuv daryosining kengligi 150-200 m chuqurligi 500-600 m Oqsuv daryosi Hisor tizmasining o’zagini tashkil etgan Hazratsulton va G’ova to’g’ massivlari yonbag’irlarida muzlik va doimiy qorlardan to’yinadi. Daryo Seversev va Botirboy daryolari qo’shilishidan boshlanadi. Daryoning G’elon va Hisorak qishloqlari o’rtasidagi darasi g’oyatda ulkan va salobatli, o’lchamlari bo’yicha bunday noyob dara ma’lum va mashhur Shimoliy Amerikadagi Kolorada daryosidagi “ Grand Kanon” qo’riqxonasiga o’xshaydi. Vodiy eniga sekin o’sadi, odatda ularni chuqurligi enidan ortib boradi. Dara ba’zan yer yuzasi yorilganda tektonik yo’l bilan ham vujudga keladi. Kanon va darbandan farqli ravishda tubi qisman daryo o’zani bilan band bo’ladi. Dara hududida asl yovvoyi tabiat iloji boricha o‘z holida saqlab qolishga harakat qilingan.

Daraning ikki tarafida siyrak o‘rmonzorlarni yoki u yerda uchraydigan har hil yovoyi hayvonlarni ham kuzatish mumkin. Siz o’zingizni bu yerda tashqi dunyodan butunlay uzulgan va tabiat bilan yolg’iz qolgandek his qilasiz bu erda hech qanday aloqa yo’q va telefonlar faqat kamera sifatida xizmat qilishi mumkin. Chunki biz mahalliy tabiat haqida juda uzoq vaqt gapirishimiz mumkin. Albatta, bunday go’zallikdan qoyil qolish juda yoqimli va hayratlanarlidir. Tog‘lar o‘rtasida bunday yo‘lni qurish mahaliy aholining aytishicha, yo‘l

1978 yilda qurilgan. Bundan oldin odamlar ot va eshakda tog'larga chiqib, oziq-ovqat sotib olish uchun Urgut tumaniga tushishgan.

Yo‘l ochilgandan so‘ng Shahrisabz shahri G'elon va Ko‘l qishloqlari uchun ham markazga aylandi. Darvoqe, ikkala qishloq ham Shahrisabz tumani tarkibiga kiradi. Tog‘ yo‘li har yili ta'mirlanadi, Zero, ularni taraqqiyot va XXI asr bilan bog‘lab turgan ana shu yo‘ldir. Hozirgi kunda ushbu yo'llar tamirlanib zamonaviy yo'lga aylantirilgan. G'elon qishlog‘ining mashhurligi shundaki, O‘zbekistonning eng baland nuqtasi, Hazrati Sulton cho‘qqisi ostonasida joylashgan. Yaqin-yaqingacha yopiq bo‘lgan va oxirgi yillarda yana sayohatchilar uchun ochilgan bu cho‘qqiga chiquvchilar aynan G'elon qishlog'i orqali o'tishi tufayli bu yerda malum fursatga to'htab o'tishi mahaliy aholi yashash tarzi va qishloqning o'ziga hos maftunkor tabiatidan baxramand bo'lishi mumkin. Mahalliy aholi ko‘chalarda asosan motosikl va eski UAZlarda harakatlanadi. Sayyohlar bu yerga hech bo‘lmaganda vaqtincha osmono‘par binolar, avtomobillar va fabrikalarning shovqini, bo‘lmagan dunyoga sho‘ng‘ishi uchun keng imkoniyat mavjut.

G‘elon qishlog'idagi mehmonlar nafaqat qishloq hayoti, balki urf-odatlari bilan ham tanishadilar. Masalan, bu yerda to‘y marosimlari hamon eski o'zbek urf-odatlari (musulmon shariati) asosida o‘tkaziladi. Qoidaga ko‘ra, qizlar voyaga yetganidan keyin darhol turmushga beriladi. Uylari sinch va loydan quriladi, 7800 nafardan ziyod aholi ro‘yxatdan o‘tgan. G‘elondagi uylar asosan ikki qavatli bo‘lib, birinchi qavati maishiy ehtiyojlar va chorva mollari uchun moslashtirilgan. Ikkinchi qavatda egalari yashaydi. Xuddi shu arxitektura Tibet Nepalning baland tog‘larida qo‘llaniladi. Chunki bu yerga qish faslida juda qalin qor tushishi bilan bog'liqdir. G‘elon qishlog'ida darvozalar, katta to‘siqlarni ko‘rmaysiz. Bu yerda odamlar bir katta oiladek yashaydi. qishloq hududi geografik jihatdan qulay joylashuvga ega.

Agar qishloqlarning geografik joylashuvi haqida gapiradigan bo‘lsak, ularda tekis yer yuzasini deyarli topa olmaysiz. Bu yerdagi butun hayot tik qiyaliklarda joylashgan. G'elon qishloqdagilar asosan chorva mollarini boqish va asosan dehqonchilikdan sabzavot va mevalar ham yetishtirib daromad olishadi. Qishloqda sayyohlar muloqot qilishlari, aholining turmush tarzi bilan yaqindan tanishishlari, uchun 1-3 kun davomida tabiyatning go‘zal maskanlaridan baxramand bo'lishi shuningdek, qo‘shni Ko‘l qishlog'iga sayr qilishlari mumkin. Bu yerga kelgan sayyohlar mahalliy aholining mahoratiga qoyil qolgan holda milliy taomlarni tatib ko‘rishdan mamnun. Misol uchun, bu qishloqlarda hali ham diametri 1 metr bo‘lgan non pishirilishini kam odam biladi. Ular qadimiy taomlar, jumladan "lotingon", "koch", "qurtoba" (qurutdan tayorlanadi) retseptlarini unutishmagan. Ushbu taomlarning asosiy tarkibiy qismi nordon sut va go‘shtdir. Tarkibi boy va yuqori kaloriyali bo‘lib, xoh cho‘pon, xoh dehqon bo‘lishidan qat'i nazar, ularni uzoq vaqt to‘q tutadi.

Qizig‘i shundaki, odamlar G‘elonga nafaqat o‘ziga xoslik, balki ekstremal holatlarni uchun ham borishadi, chunki yaqinda bu yerda rafting - tog‘ daryosida sport raftingi tashkil etiladi. Adrenalin bilan to‘la ushbu qiziqarli sarguzasht nafaqat xorijlik mehmonlar, balki mahalliy sayohlarni ham o‘ziga jalb qiladi. Odamlarning aytishicha, qishloqdagi asosiy muammo mahalliy aholining ishsizligi, u yerda ish o‘rinlari yaratilsa yaxshi bo‘lardi. Albatta, bunday chekka qishloqda zavod qurishning iloji yo‘q, bizningcha, u yerda ekoturizmni, etnoturizm, agroturizmni rivojlantirish mumkin bo‘lgan imkoniyatlardan biridir. Bunday sayohatning qiziqarliligi shundaki, turistlar asta-sekin o'zgaruvchan landshaftlardan bahramand bo'lishi mumkin. Misol uchun, tong otganda va quyosh botgandan keyin bir xil joy butunlay boshqacha ko'rinishi mumkin. Chunki odamlar bunday tabiat mo'jizasga qoyil qolish uchun pul to'lashga tayyor. Agar turizm tizimli yo‘lga qo‘yilsa, qishloq ahli yaxshi yashaydi. Shu muamoni bartaraf etish va turizmdan yuqori daromad olish maqsadida,

O‘zbekiston delegatsiyasining 2023 yil 4 - 6 oktabrda Rossiyaning Qozon shahridagi “Kazan EKSPO” tadbirlar doirasida Qashqadaryo viloyatida “Tog‘ chang‘i kompleksi” loyihasini barpo etish yuzasidan memorandum imzolangan edi. G‘elonda barpo etiladigan “Tog‘ chang‘i kompleksi” loyihasi doirasida 13,6 km dor yo‘li butun mavsum davomida turistlarga xizmat qiladi Shahrisabz tumanining G‘elon qishlog‘ida barpo etiladigan mazkur “Tog‘ chang‘i kompleksi” loyihasi Ma’lum bo‘lishicha, 1-bosqichda 5,9 km gondolali dor yo‘li (G‘elon-Sarchashma), 4 ta tog‘ - chang‘i yo‘li, 35 ta villa, 1 ta tashrif markazi, 4 yulduzli mehmonxona, 5 qavatli avtoturargoh, restoran, vertolyot maydonchasi, bolalar shaharchasi va daryo bo‘ylab yo‘lakchalar barpo etiladi va bunga birichi bosqichda 100 mln. dollar investitsiya mablag‘i jalb qilinadi.

Endilikda mehmonlar G‘elon yoki Sarchashma qishloqlarining biriga avtomashinada yetib olib, keyingi manzilga tog‘ yon-bag‘irlarida qurilayotgan 5,9 km.lik dor yo‘li orqali yetib olishlari mumkin. Shuningdek, loyihaning 2 va 3-bosqichlariga 200 mln. dollar investitsiya mablag‘i evaziga 3,8 km o‘rindiqli va 2,9 km gondolali dor yo‘li, 21 ta tog‘ - chang‘i yo‘li, 3 ta mehmonxona (3, 4 va 5 yulduzli), 2 ta restoran, 75 ta villa, kuzatuv minorasi, attraksionlar (ziplayn, rodelban va skaypark) barpo etiladi. Tog‘ yon-bag‘irlarida dam olish maskanlarining tashkil etilishi sayyohlarning mazmunli hordiq chiqarishiga xizmat qiladi. So‘lim tabiat, musaffo tog‘ havosi, shifobaxsh chashma va buloqlar mehmondo‘st qishloq odamlari, ekologik toza mevalar, xushxo‘r taomlar va ruxlariga sokinlik bag‘ishlovchi tabiat yodg’orliklari sayyohlarni o‘ziga jalb qilishi shubhasiz. Xo’jalik nuqtai nazaridan baland tog’ landshaftlari yozgi yaylovlar sifatida foydalanishi mumkin. Ammo rel’efning murakkabligi baland tog’ o’tloq-dasht landshaftlarini yaylov sifatidagi ahamiyati unchalik katta emas. Tog’ landshaftlarining tabiiy salohiyatidan foydalanishda yaqin kelajakda ekoturizim va sport turizimini rivojlantirish samarali hisoblanadi. Ana shunday maskanlarda O‘zbekiston tabiati naqadar go‘zal ekanini his etasiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеяси 25-сессиясидаги нутқи. -Самарқанд, 2023.
2. O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 8 martdagi ”Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 198-sonli Qarori.
3. Абдуллаев С.И., Қашқадарё вилояти географияси фанидан маърузалар матни
4. Аллаёров Р.Х. Жануби-ғарбий Ҳисор тоғ ва тоғолди ландшафтлари геоэкологик вазиятини баҳолаш ва оптималлаштиришнинг табиий географик асослари. PhD дисс.автореф. Самарқанд, 2023.
5. Badalov O‘.B Qashqadaryo viloyatini rekreatsiya-turistik resurslaridan samarali foydalanishning geografik jihatlari FrDu ilmiy xabarlari 6-son 2023 yil 30-34 B.
6. Бадалов Ў.Б., Ярашев Қ.С. Омонқўтонсойнинг рекреация ресурслари ва улардан фойдаланиш масалалари // Республика илмий-амалий конференция материаллари. -Наманган, 2014. –Б. 157-158.
7. Mamatov A.M., Abdullaev S.I., Xo’jamqulov B.E., Hisor davlat qo’riqxonasi O’rta Osiyo tog’ tabiatining andozasi Qarshi Nasaf nashriyoti 2010 yil
8. Ярашев Қ.С. Юсупов Б.Б. Табиий муҳофаза этиладиган ҳудудларда экотуризимни ривожлантириш масалалари (Ҳисор давлат қўриқхонаси мисолида) ЎзМУ хабарлари. Тошкент-2022 3/2 Табиий фанлар
9. Ярашев Қ.С. Жанубий Ўзбекистон дарё ҳавзалари ландшафларининг функционал-динамик боғлиқлиги ҳамда уларни ландшафт-экологик районлаштириш // География фанлари доктори **(**Dsc) дисс. автореф. -Самарқанд, 2022. – 29 б.

10. Yarashev Q.S. Yusupov B.B. Ekoturizim resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida) “Farg‘ona vodiysida zamonaviy geografik tadqiqotlar: metodlar, nazariya va amaliyot” FarDU xabarlari Farg‘ona sh, (2024.03. 30)
11. Юсупов Б.Б. Экотуризм атроф муҳитни муҳофазалаш ва барқарор ривожлантириш омили. «Замонавий географик тадқиқотлар назария, амалиёт, инновация» Халқаро илмий-амалий конференция материаллари Самарқанд ш, 12-13 май 2023 йил.
12. Qashqadaryo viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishlari huzuridagi turizm qo‘mitasi.

TURIZM GEOGRAFIYASI VA UNING RIVOJLANISH MASALALARI

Shodiyeva N.H.[1], Ro‘zmatov B.Z.[2]
[1]Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
e-mail: nafosatkhons@gmail.com
[2]Yakkasaroy tumani 172-maktab, Toshkent, O‘zbekiston, e-mail:ruzmatov.bobur@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Turizm geografiyasi va uning rivojlanishiga oid ilmiy tadqiqot olib borgan Yevtropalik, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari olimlari hamda mamlakatimiz olimilarining ilmiy tadqiqot ishlari, hamda turizmni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili berilgan.*

Kalit so‘zlar: *turizm geografiyasi, mintaqaviy turizm, hududiy ishlab chiqarish majmualari, rekreatsion zona (mintaqa), rekreatsion* rayon (makrorayon), rekreatsion «podrayon», rekreatsion mikrorayon va rekreatsion punkt.

ГЕОГРАФИЯ ТУРИЗМА И ВОПРОСЫ ЕЁ РАЗВИТИЯ

Шодиева Н.Х.[1], Рузматов Б.З.[2]
[1]Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан e-mail: nafosatkhons@gmail.com
[2]Школа 172 Яккасарайского района, Ташкент, Узбекистан
e-mail: ruzmatov.bobur@gmail.com

Аннотация: *В данной статье представлен анализ научно-исследовательских работ европейских, российских и среднеазиатских учёных и учёных нашей страны, проводивших научные исследования по географии туризма и его развития, а также анализ факторов, влияющих на развитие туризма.*

Ключевые слова: *география туризма, региональный туризм, региональные производственные комплексы, рекреационная зона (регион), рекреационный район (макрорайон), рекреационный «подрайон», рекреационный микрорайон и рекреационная точка.*

GEOGRAPHY OF TOURISM AND ISSUES OF ITS DEVELOPMENT

Shodieva N.H.[1], Ruzmatov B.Z.[2]
[1]National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan
e-mail: nafosatkhons@gmail.com
[2]School 172 of Yakkasaray district, Tashkent, Uzbekistan
e-mail: ruzmatov.bobur@gmail.com

Abstract: *This article presents an analysis of research works by European, Russian and Central Asian scientists and scientists of our country who conducted scientific research on the geography of tourism and its development, as well as an analysis of factors influencing the development of tourism.*

Key words: *geography of tourism, regional tourism, regional production complexes, recreational zone (region), recreational district (macrodistrict), recreational "subdistrict", recreational microdistrict and recreational point.*

Turizm geografiyasining (TG) fan sifatida shakllanishi va rivojlanishida dastlabki izlanishlar XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin I.G. Kol tomonidan olib borilgan. Bu tadqiqot dam olish, turizm geografiyasi bo'yicha ilk qadamlardan biri bo'ldi. Shu davrda nemis geografi A.Gettner ham o'z izlanishlarida TG o'ziga xos jihatlarini ochib berdi. U turizm geografiyasining predmeti bo`yicha ilmiy ishlar olib borib, yirik shaharlar atrofida tabiat va iqlim resurslaridan foydalanish xususiyatlariga katta e'tibor berdi. Shuningdek, Gettner sayohat paytida kishilarning tabiiy va ijtimoiyiqtisodiy hamda rekreatsiya resurslaridan foydalanishini turizm geografiyasining predmeti deb ta'kidlaydi (Erdavletov, 2000, b.94- 95). «Turizm geografiyasi» terminini birinchi bo'lib fanga 1905 yilda D.Stradnerom kiritgan.

U o‘z izlanishlarida turistik faoliyatning xo‘jalikni rivojlantirishdagi o‘rniga alohida e'tibor qaratdi. K. Shputs 13 (1919) esa turizmda moddiy texnik bazalarni yaratish lozimligini alohida ta'kidlaydi. Shu bilan birga u madaniy tadbirlar va tabiiy landshaftlarni turizm geografiyasining muhim obyekti sifatida o‘rgandi. Ta'kidlash joizki, ushbu fanning turli jabhalari bo‘yicha xorijiy davlatlar olimlari ko‘p izlanishlar olib borgan. Masalan, Fransiyada birinchi bo‘lib R.Blanshar (1920) Alp tog‘ida turizm xo‘jaligi va turistik marshrutlarni tashkil etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar o‘tkazdi. Shu davrda Italiyada A.Mariotti turizmning tarixiy bosqichlarini ajratdi va shu asosda uni o‘rgandi. Bundan tashqari, 1930-40 yillarda ko‘pgina davlatlar olimlari turizm va turizm geografiyasining ayrim qirralariga oid ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Jumladan, Germaniyada, Fransiyada, Shveysariyada, Yaponiya hamda AQSH da turizmning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy turistik resurslardan foydalanish va ularning imkoniyatlari to‘g‘risida ilmiy asarlar yaratilgan (Erdavletov, 2000, b.97).

Yevropa va Shimoliy Amerika olimlari tomonidan hududlarni keng miqyosda o'rganish, ilmiy asosda dam olishni tashkil etish va mavjud muammolarni turistik va geografik tadqiqotlar zaminida o'rgandi. Ular o'zlarining ilmiy tavsiyalarida ishlab chiqarish va tabiiy muhit o'rtasidagi tafovutni chetlab o'tmadi. Shu bois, mazkur mintaqalarda turizm tez sur'atlar bilan o'sib bordi. Chunonchi, 1936- 1939 yillarda turizm sohasi bo'yicha Krakovdagi Yagellon universitetida turistik kadrlar tayyorlashga katta ahamiyat berildi. Shu davrda polyak geografi S.Lishiр turizm geografiyasining ilmiyuslubiy jihatlarini o'rganib, o'zining asarlarida «Turist geografiyasi» va «Turizm geografiyasi» terminlarini geografik adabiyotlarga kiritdi. U turizm geografiyasining o'rganishda statistika, huquqshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa fanlar bilan aloqasini ilmiy-uslubiy jihatdan isbotladi, turistik tadqiqotlarda xaritaning muhimligini alohida ta'kidladi. Ikkinchi jahon urushi davrida turizmga doir ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar birmuncha pasaydi. Urushdan keyingi 50-60-yillarda turizm geografiyasini o'rganish Fransiya, Kanada, GFR, Avstriya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yaponiya va boshqa davlatlarda keng ko'lamli o'rganildi. XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi yillarda Sobiq Ittifoqda ham bu yo'nalish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, N.S.Mironenko va I.T.Tverdoxlebov (1984) rekreatsiya va turizmning geografik xususiyatlari to'g'risida, P.N.Zachinyaev, N.S.Falkovich (1972) xalqaro turizmning geografik joylanishi va rivojlanishi bo'yicha ilmiy asarlar yaratdi. Bundan tashqari, turizm geografiyasining nazariy va uslubiy asoslarini Pirojnik I.I, Kotlyarov E.A., Aleksandrova A.YU., Dmitrevskiy YU.D., Erdavletov S.R. va boshqalar ham ilmiy ishlarida ko'rish mumkin. Ammo, ta'kidlash joizki, sobiq Ittifoqda rekreatsiya va turizm sohasini keng miqyosda o'rganish yaqin o'tmishda boshlandi. Ushbu tadqiqotlarning asosiy fan tarmog'i sifatida o'rganishda SSSR Fanlar akademiyasining Geografiya instituti olimlari:

I.P.Gerasimov, V.S.Preobrajenskiy, A.A.Mins, B.N.Lixanov, YU.A.Vedenin, I.V.Zorin, L.I.Muxina, E.B.Alaev va boshqalar izlanishlar olib bordi. Shuningdek, turizmning turli yo'nalishlari bo'yicha N.M.Svatkova, K.M.Krivosheeva, B.G.Fadeev, D.Kobaxidze, YU.A.Shtyurmer, U.N.Nabieva. M.I.Azar kabi ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan (Kotlyarov, 1978). Hozirgi paytda Markaziy Osiyo geograf olimlari, jumladan, Z.M.Akramov, E.A.Ahmedov, Sh.Azimov, G.R.Asanov, A.S.Soliev, A.Nigmatov, O.Otamirzaev, S.R.Erdavletov, N.Alimqulova, M.Husanboev, K.N. Musin, A.G.Nizamiev, A.A.Joldasbekov va boshqalar tomonidan turizm geografiyasining turli masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ko'pgina mutaxassislar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida turizm geografiyasi bilan rekreatsiya geografiyasini (RG) bir biriga qo'shilgan holda, yaxlit predmet sifatida ko'rishgan. Ammo bu yo'nalishlarni N. Jorj, B.Barbe (Fransiya), I. Matsnetter (Germaniya), F. Xellayner (Kanada), V.S. Preobrajenskiy, YU.A. Vedenin va boshqalar ularni alohida-alohida ko'rishga xarakat qilishdi. A.I. Chistobaev va M.D Shariginlar (1990) turizm geografiyasi ijtimoiyiqtisodiy geografiya fani bilan bog'liq holda umumiy hududiy tizimni tashkil etadi va TG ga ijtimoiy-iqtisodiy geografiyada hududiy integral-sintetik fan sifatida yondoshishadi[11].

Turizm ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, joylashtirish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va aholi ijtimoiy muammolarini hal etishda, shuningdek, dam olish, sog'lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur fanning tadqiqot ob'ekti va boshqa ko'pgina qirralari bilan «uzoq xorij» davlatlaridan I.G.Kol, A.Gettner, R.Blansharom, A.Mariotti, V.Unitsiker, Corneliu Iatu, MDH davlatlarida A.YU.Aleksandrova, N.N.Baranskiy, YU.A.Vedenin, S.R.Erdavletov, P.N.Zachinyaev, I.I.Pirojnik, YU.D.Dmitrevskiy, N.S.Mironenko, A.Nizamiev, E.A.Okladnikova, I.T.Tverdoxlebov, N.S.Falkovich va boshqa olimlar izlanishlar olib borgan. Ayni vaqtda, respublikamizda ham turizmning ayrim muammolari bo'yicha Z.M. Akramov, E.A. Ahmedov, SH.A. Azimov, A. Zokirov, F.Komilova, A.A.Rafiqov, A. Soliev, T.Toshmurodov, B. Husanboev, N.To'xliev, A.Taksanov, A. Yusupov kabi mutaxassislar shug'ullangan. Ammo mamlakatimizda ushbu yo'nalishning nazariy va amaliy asoslari maxsus yo'nalish sifatida kam o'rganilgan. Shu bois turizm geografiyasining mintaqaviy xususiyatlarini o'rganish, uning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning muhim yo'nalishi darajasida tadqiq etish ilmiy ahamiyatga egadir.

Ko'pgina mutaxassislar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida turizm geografiyasi bilan rekreatsiya geografiyasini (RG) bir biriga qo'shilgan holda, yaxlit predmet sifatida ko'rishgan. Ammo bu yo'nalishlarni N. Jorj, B.Barbe (Fransiya), I.Matsnetter (Germaniya), F.Xellayner (Kanada), Corneliu Iatu (Ruminiya), V.S.Preobrajenskiy, YU.A.Vedenin va boshqalar ularni alohida-alohida ko'rishga xarakat qilishdi. A.I.Chistobaev va M.D.Shariginlar (1990) turizm geografiyasi ijtimoiyiqtisodiy geografiya fani bilan bog'liq holda umumiy hududiy tizimni tashkil etadi va TG ga ijtimoiy-iqtisodiy geografiyada hududiy integralsintetik fan sifatida yondoshishadi. N.S. Mironenko va I.T Tverdoxlebov (1981) fikricha, inson faoliyatining barcha maqsadli, maqsadsiz, bo'sh paytlarida sog'lomlashtirish, tanishuv, sport va madaniy- maishiy faoliyati rekreatsiya, sayohat paytida aholi yashash joyidan boshqa joyga qisqa va uzoq muddatli sayohati, sayr qilishi, ekskursiyasi, tanishuv, ilmiy va sport musobaqalarida 24 soat ichida bo'lishini turizm deb hisoblaydilar.

V.S.Preobrajenskiy rekreatsiya geografiyasini rekreatsion tizim sifatida o'rganib, uning predmeti va o'rganish ob'ektini «hududiy rekreatsion tizim» (HRT) deb ta'riflaydi. E.A.Kotlyarov (1978) va I.I. Pirojniklar (1985) TG va RG ga o'z asarlarida alohida e'tibor qaratadi. 16 Mavjud ilmiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, aksariyat olimlar turizm

geografiyasini nisbatan yangi va uni rekreatsiya geografiyasining bir qismi sifatida qarashga moyillar. Darhaqiqat, turistik faoliyat uzoq muddatli dam olish, sog'liqni tiklash kabi rekreatsion maqsadlarga ancha to'g'ri keladi. (Mironenko, Tverdoxlebov, 1981, b.11) G.R.Asanov TG va RG ga baho berib, «Turizmning gurkirab o'sishi geografiya oldiga yangi vazifalar qo'ydi, xususan turistlar oqimlari qonuniyatlar, turizm industriyasi (mehmonxona, pansionatlar, xizmat sohasi va h.k.) iqtisodiy geografiyaning ob'ekti bo'lib qoldi.

Tabiiyki, turizm geografiyasi faqat dam olish uchun qilinadigan safarlar geografiyasigina emas, balki umuman sayohatlar, safarlar geografiyasi bilan, jumladan, xizmat sohasi va tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq ko'pgina masalalarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, TG safarlar geografiyasi bo'lib, geografiyaning yangi tarmog'idir. RG predmeti hududiy rekreatsiya tizimlarilari (HRT), ularning tarkib topishi, rivojlanish qonuniyatlar tarkibi va taqsimlanishi o'rganishdan iborat bo'lgan geografiya fani oralig'idagi kompleks xarakterdagi oraliq fan», deb baholaydi (Asanov, 1990). Ayni chog'da, N.S.Mironenko, B.B.Rodmon, I.V.Zorin rekreatsion rayonlashtirishda iqtisodiy geografik omilga katta e'tibor qaratadi. V.S.Preobrajenskiy va YU.A Vedeninlar esa turizmni ijtimoiy-iqtisodiy tadqiq etishda aholi, aholi manzilgohlari, shahar va shahar atrofi, urbanizatsiya jarayonining turizmni rivojlantirishdagi o'rniga ahamiyat berdi. A.Soliev fikricha, turizm geografiyasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning yangi tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini belgilovchi muhim omil bo'lishini ta'kidlaydi[12].

Ayni paytda, geografiyaning ushbu yo'nalishi ko'p jihatdan kishilarning bo'sh vaqti, mamlakat va mintaqalarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorligiga bog'liq. Shunday qilib, turizm geografiyasi keng qamrovli tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik fanlar oralig'idagi nisbatan yangi tarmoqlardan biri bo'lib, u mintaqa yoki biror hududning tarixiy taraqqiyotidagi erishgan yutuqlari, madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari, xo'jaligining yuksalishidagi o'rni va o'ziga xos hududiy xususiyatlarini o'rganadi. Turizmni iqtisodiyotning asosiy tarmog'i sifatida qaralganda uning to'rtta asosiy hududiy bug'inlari yoki bosqichlarini ajratish mumkin: xalqaro, milliy, mintaqaviy va mahalliy turizm. Bu yerda biz uchun eng ahamiyatlisi mintaqaviy turizm (MT) hisoblanadi. Chunki, aynan ana shu darajada turizmni tashkil etish va rivojlantirish uchun tashkiliy va huquqiy asoslar mavjud. MT mamalakatning ma'lum bir hududida o'zining ma'muriy - boshqaruv organi, infratuzilmasi mavjud bo'lgan makonni anglatadi. Binobarin, olib borilgan tadqiqotda «MT» tushunchasining kiritilishi ushbu fanni nazariy jihatdan boyitdi. Ma'lumki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada hududiy tizim yoki majmualar g'oyasi muhim o'rinni egalllaydi.

Ular jumlasiga eng avvalo N.N.Kolosovskiy yaratgan (1947) hududiy ishlab chiqarish majmualari (HICHM) kiradi. Shunga mos holda TG uchun hududiy turistik majmua (HTM) tushunchasi katta ahamiyatga ega. Bizningcha, HTM–ma'lum bir hududda yagona infratuzilma asosida turli turistik ob'ektlarning o'zaro aloqadorlikda rivojlanishi va uni boshqarishni anglatadi. HTM avvalo V.S.Preobrajenskiy tomonidan ilgari surilgan hududiy rekreatsion tizim (HRT) bilan chambarchas bog'liq. Ammo HTM bilan HRT o'rtasidagi tofovut ko'proq ularning hududiy jihatdan qanday maqsad va vazifalari, hududiy tafovut yotadi. Ayni paytda biz taklif etayotgan HTM tushunchasi HRT dan farqli o'laroq kichik (lokal) hududni egallashi bilan ajralib turadi hamda tizim tarkib qoidasiga muvofiq serqatlamli, pog'onasimon bo'ladi. Shu o'rinda e'tiborga olish joizki, hududiy rekreatsion yoki turistik tizimlarning mohiyati va taksonomik birliklari to'g'risida aniq bir fikr mavjud emas. Masalan, N.S.Mironenko va I.T.Tverdoxlebovlar (1981, b.131) HRT lari 5 taksonomik birlikka ajratishadi: rekreatsion zona (mintaqa), rekreatsion rayon (makrorayon), rekreatsion

«podrayon», rekreatsion mikrorayon va rekreatsion punkt. Xuddi shunday, YU.D.Dmitrevskiy ham rekreatsiya yoki turistik rayonlarni 5 bug'indan iborat, deb ko'rsatadi: turistik rekreatsion zona, turistik makrorayon, turistik mezorayon, turistik mikrorayon va turistik ob'ekt (Dmitrevskiy, 2002, b.103). Kishilarning biror mintaqadan yoki hududdan boshqa joylarga safar qilishida bevosita geografik xususiyatlar, ya'ni qulay tabiiy geografik sharoit va siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm geografiyasi, A.Soliev fikricha, bu «jonli, faol» yoki «harakatdagi geografiya»dir. Chunki, biror turistik ob'ektni ko'rish uchun o'sha joyga borib bevosita ko'rishi lozim. Bu maqsadga esa geografik marshrutlar asosida amalga oshiriladi. Qolaversa, geografiya fanining tarixi, kelib chiqishi ham ko'p jihatdan aynan turli xil sayohatlarga, hozirgi zamon tili bilan aytganda, turizmga bog'liq. Turizm geografiyasi (TG) iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir bo'lagi bo'lib, u turli mamlakat va mintaqalarda sayyohlikning shakllanishi, rivojlanish va xududiy tashkil etish xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o'rganadi. TG hududiy harakat oqibatida, ya'ni yer yuzining turli tomonlariga geografik marshrutlar uyushtirish asosida vujudga keladi. Bu esa mintaqada xizmat ko'rsatish geografiyasini tashkil etish va rivojlantirishga ham sababchi bo'ladi. Sayohat inson tafakkurini kengaytiradi, dunyoni teran anglashga xizmat qiladi. Kishilar yer yuzining bir biriga o'xshash bo'lmagan joylarini ko'rishni xohlashadi. Demak, biror hudud yoki mintaqaga sayohatga chiqishda tabiiy sharoit katta ahamiyatga egadir. Aksariyat sayyohlar bo'sh paytlarida tabiat qo'ynida dam olish, ovchilik qilish, sport va boshqa mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni istashadi hamda sog'lig'ini tiklaydilar. Shuning uchun xorijiy davlatlardagi ko'plab turistik firma va kompaniyalar kengroq bu omillardan foydalanishga xarakat qiladilar.

Bu o'rinda Janubi-sharqiy Osiyo, Afrika, Markaziy va Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniya davlatlari turistik firmalari o'z xaridorlari bo'lgan Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari sayyohlarini ko'proq tabiati go'zal hamda ekzotik joylarini ko'rsatishga katta e'tibor qaratadi. Dengiz bo'yi, o'rmon, tog' va tog'oldi rayonlaridagi davlatlar, O'rta dengiz havzasida joylashgan hamda Malayziya, Indoneziya, Singapur va boshqa shunga o'xshash mamlakatlar sayyohlarni keng jalb qiladi. Bu o'z navbatida, tabiiy turistik imkoniyatning yuqoriligidan dalolat beradi. Shuningdek, tog' tabiati, landshafti, relefi, iqlimi, tog' sporti va boshqa xususiyatlari bilan sayyohlarni o'ziga qiziqtiradi. Bunday tog' turizmi Yevropaning Karpat va Alpida, Osiyoning Himoloyida, Afrikaning Atlas tog'larida, Amerikaning And va Kordilerasida keng rivojlangan[13].

Adabiyotlar ro'yxati

1. Usmanov M.R. Turizm geografiyasi: o'quv qo'llanma. Samarqand, «SamDU», 2020. 257 b.
2. «Тошкент» энциклопедияси. 2009 йил
3. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. - T.: "O'qituvchi", 1994.
4. Bob Brotherton. The International Hospitality Industry. Oxford, First published 2003, 251 b
5. Mamatqulov M.X., Bektemirov A.B., Tuxliyev I.S. "Xalqaro turizm" - Darslik. Toshkent., 2009 y. 191 b.
6. Mamatqulov X.M. "Mehmonxona va turistik komplekslarda xizmatlarni tashkil etish". O'quv qo'llanma. -S.: SamISI, 2012. 339 b.
7. Mamatqulov X.M. «Turizm infratuzilmasi» O'quv qo'llanma. –T.: «O'zbekiston faylafuslar jamiyati» nashriyoti, 2011. 335 b.
8. Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma.-T.:
9. O'zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011.297 b.

10. Soliev A va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. –T., 2003.
11. Soliev A. O'zbekiston geografiyasi.-T.:Universitet, 2014.
12. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanishi . – T.: "Mumtoz so'z", 2010.
13. Tuxliyev I.S., Qudratov G'.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti. 2010. 264 b.
14. Internet saytlar:
15. https://ru.wikisource.org/

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA ZIYORATGOHLARNING O'RNI VA ROLI

Bozarov E.B., Bozorova J.Yu.
Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O'zbekiston

Annotatsiya: *Maqolada ziyorat turizmi salohiyatini oshirishda hududlar turistik imiji va brendini yaratish masalalari yoritilgan. Bundan tashqari, dunyo hamda mamlakatimiz olimlarining ziyorat tushunchasi haqidagi fikrlari o'rganilib, tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *turistik brend, turistik resurslar, infratuzilma, ziyoratgohlar, tarixiy– madaniy yodgorliklar, turistik obyekt, madaniy meros.*

РОЛЬ И МЕСТО СВЯТЫХ МЕСТ В РАЗВИТИИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ

Бозаров Э.Б., Бозорова Ж.Ю.
Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан

Аннотация*: В статье рассматриваются вопросы создания туристического имиджа и бренда регионов с целью повышения потенциала паломнического туризма в Узбекистане. Кроме того, автором изучаются и анализируются мнения ученых мира и нашей страны о понятии паломничества.*

Ключевые слова: *визит, имидж, туристский бренд, туристские ресурсы, инфраструктура, святыни, памятники истории и культуры, туристический объект, культурное наследие.*

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF PILGRIMAGE SITES IN THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR.

Bozarov E.B., Bozorova J.Yu.
Karshi State University, Karshi, Uzbekistan

Abstract: *The article deals with the creation of a tourist image and brand of regions in order to increase the potential of pilgrimage tourism in Uzbekistan. In addition, the opinions of scientists of the world and our country about the concept of pilgrimage are studied and analyzed.*

Key words: *visit, image, tourist brand, tourist resources, infrastructure, shrines, historical and cultural monuments, tourist site, cultural heritage.*

Mamlakatimizda mustaqillikdan keyingi yillarda xizmatlar sohasi xususan, turizmga e'tibor ancha kuchaydi. So'nggi yillarda yurtimizda turizm xizmatlari sifatini oshirish, sohada yangi ish o'rinlarini yaratish, turizm sohasi qonunchiligini yanada takomillashtirish, turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy va yuridik shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, turizm xizmatlari eksportini kengaytirish hamda "…aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni

ta’minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.” Ushbu natijalarga erishish, turizm sohasini iqtisodiyot tarmoqlarining muhim drayverlaridan biriga aylantirish, “ziyorat” turizmi orqali tashrif buyuruvchilar oqimini kengaytirish, ziyorat turizmi destinatsiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda boy tarixga ega diniy qadamjolar, muqaddas ziyoratgohlar va islom olamida tengsiz bo‘lgan madaniy yodgorliklarning ko‘p ekanligi, ularni targ‘ib qilishda turistik brendlar va turistik qiyofani shakllantirish hamda ularga tegishli bo‘lgan ilmiy-nazariy asoslarning yetarlicha yoritilmaganligi ushbu yo‘nalishda ilmiy ishlar olib borish zarurligini belgilab beradi.

Turizm sohasida ziyoratgohlarning o‘rni va ularga doir ilmiy ishlarni amalga oshirish ko‘plab mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ularning aksariyati bu yo‘nalishni diniy turizmning tarkibiy qismi sifatida e’tirof etishadi.

Olimlarimizdan A.Xudoyarovning fikricha, ziyorat turizmi muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish, ulug‘ ajdodlarimizga ehtirom ko‘rsatish, ularning o‘tmishdagi hayoti va yaratgan madaniy-me’moriy hamda tarixiy merosi bilan tanishish, ularni xotirlash, shuningdek, diniy va dunyoviy marosimlarda qatnashish maqsadida amalga oshiriladigan safarlarni o‘z ichiga oladi. A.Eshtayev tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari o‘rganilib, unda davlat tomonidan ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari, muammolarni yechish va sohani yanada rivojlantirish imkoniyati tahlil qilingan. Tadqiqotchi N.Ibragimov raqobatbardosh turistik hudud brendi va imijining ilmiy asoslarini o‘rgangan bo‘lib, u tomonidan turistik hudud brendi va imijini birlashtiruvchi bozor va iste’molchi ongidan joy olish jarayoni nazariyasi ilmiy asoslangan, brendning konseptual modeli hamda uni turistik hudud nomi, logotipi va sloganga ajratib o‘rganish metodologiyasi ishlab chiqilgan. S.K.Boyjigitov turistik mahsulotlarni siljitishda O‘zbekistonning turistik brendi muammolari va rivojlantirish istiqbollarini muhim marketing dastagi sifatida o‘rgangan.

Tadqiqot metodologiyasi Maqolada ziyorat turizmi, uni obyektlari brendini va ijobiy qiyofasini shakllantirish bo‘yicha mavjud nazariyalar va olimlarning fikrlari o‘rganildi va mamlakatimizdagi uning rivojlanish jarayonlari tahlil qilindi.

Turistik brend - bu taniqli obyekt yoki tabiiy obyektlar majmuasi bo‘lib, u o‘z ichiga madaniy va tarixiy meros, shuningdek, tashrifni qamrab oladigan marshrutda joylashgan obyektlar, noyob hodisalar, hunarmandchilik namunalari, xizmatlar, jalb qiluvchi faoliyat turlarini qamrab oladi. Turistik brendlar shahar, hudud, mintaqa yoki mamlakatdagi turistik obyektlarni targ‘ib qilish va tanitishni osonlashtiradi. Turistik brendlarni turli tamoyillar bo‘yicha turkumlash mumkin. O‘zbekistonda eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlardan biri bu – ziyorat turizmidir. Hududlarning ziyorat turizmi salohiyatini oshirishda uning barcha hududlarida turistik brendni yaratish va qiyofasi (imiji)ni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Chunki turistik hudud brendi nafaqat turistik hududga xos bo‘lgan nom, logotip, ramz yoki belgini ko‘rsatib qolmasdan, balki sayohatchilar tasavvurida turistik hudud bilan bog‘liq unutilmas sayohat tajribasini shakllantiradi, sayyoh va turistik hudud o‘rtasidagi ruhiy-hissiy bog‘liqlikni mustahkamlashga xizmat qilsa, obyektning turistik imiji esa ma'no va taassurotlar yig'indisi bo‘lib, ular tufayli turistik obyektga nisbatan uni targ‘ib qilish orqali ijobiy munosabat shakllantiriladi.

O‘zbekistonda yaqin kelajakda ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2019 yilda chop etilgan Global musulmon turizmi indeksi hisobotiga

ko‘ra, 2018 yilda ziyorat maqsadlarida safar qilgan musulmonlarning soni 140 million kishini tashkil qilgan va 2026 yilga kelib bu raqam 230 millionga yetishi kutilmoqda5 . Ziyorat turizmida boshqa yo‘nalishlardan farqli ravishda, mavsumiylik ta’siri sezilarli emas. Bu esa turizmning ushbu yo‘nalishini rivojlantirish va mavjud imkoniyatlarni oshirish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda har qaysi viloyat o‘ziga xos ziyoratgohlar, tarixiy qadamjolar va madaniy obyektlar mavjuddir. Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmi keng rivoj topib borayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Viloyat hududida mavjud bo‘lgan eng mashhur ziyorat obyektlariga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin: Qarshi shahrida “Odina masjid”, “Ko‘kgumbaz masjid” “Abu Ubayda bin al Jarroh”, Kasbi tumanidagi “Imom Muhammad Sadr Islom”, “Murodbahsh ota”, “Mirdevona”,”Hazrat Sulton Mirhaydar”, Mirishkor tumanidagi “Ishoq ota”, Qarshi tumanidagi “Hazrat imom Muin”, “Shayx Ali”, “Shayxon ota Hulvoyi”, ”Shayx Shibliy”,”Abu Turob Naxshabiy”, “Ko‘k to‘nli ota”, “Imom Muhammad Hanafiy”, G‘uzor tumanidagi “Musofir ota”, “Mir Jandiy ota”,”Zaynulodiddin”, Qamashi tumanidagi “O‘g‘lonjon ota”, “Langar ota”, Chiroqchi tumanida “Kishmishtepa”, “Siypantosh qoya” rasmlari, Yakkabog‘ tumanidagi ”Xoja ilg‘or”, “Tutak ota”, Shahrisabz tumanidagi “Oqsaroy me’moriy yodgorligi”, “Gumbazi sayyidon”, “Hazrati Sulton”, Kitob tumanidagi “Shayx Shamsiddin”, ”Hazrat Bashir”, Dehqonobod tumanidagi “Xojai pok”, ”Beli boyli ota”, Muborak tumanidagi “Xoja Muborak”, ”Xoja Ro‘shnoyi” kabilardir. Ular orasida hududning o‘ziga xosligi va tashrif buyuruvchilar orasida mashhurligi bilan ajralib turadigan obyektlarning turistik brendini yaratish mumkin.

Xalqaro tajribalar ko‘rsatishicha, turizmda hududlar raqobat ustuvorligini aniqlashda alohida obyektlarni mavjudligi bilan emas, balki turizm industriyasining quyidagi tarkibiy qismdan iborat bo‘lgan majmuasining, ya’ni tarixiy-madaniy obyekt yoki arxitektura yodgorliklari, yuqori malakali mutaxassislar va ekskursiya xizmatlarining sifati, tashrif buyuruvchilarga qulaylikni ta’minlovchi joylashtirish va transport infratuzilmalarining rivojlanganlik darajasi, suvenir mahsulotlarining mavjudligi kabilarni inobatga olish lozim. Bunda xizmatlarning noyobligi va betakrorligi asosiy shart hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak Ziyorat turizmi mamlakatimizning jahondagi obro‘-e’tiborini yanada oshirishda, millionlab musulmonlarning buyuk allomalar va mutafakkirlar o‘tgan muqaddas zaminimizga tashrif buyurishida, bizda mavjud islomiy merosni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ziyorat turizmni rivojlantirish uchun amalga oshirilgan vazifalar qatorida quyidagilarni bajarish, uni barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi:

- ziyorat turizimini imkoniyatlarini oshirish hamda turistik imij va brendni yaratishda alohida hudud (viloyat, tuman) kesimida marketing tahlillarini amalga oshirish;

- ziyoratgohlar joylashgan hudud atrofini obodonlashtirish va turistlar uchun zaruriy infratuzilmani ta’minlash uchun kerakli chora tadbirlarni amalga oshirish;

- har bir hududda mavjud bo‘lgan, tarixiy madaniy meros obyektlari orasidan bittasini tanlab, uni hududning turistik brendi sifatida tanitish yuzasidan tegishli yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish va tayyorlashni yo‘lga qo‘yish. Zero sohadagi barcha ijobiy va innovatsion o‘zgarishlarni, turistik imij va brendni yaratish sohasidagi faoliyatni faqat malakali va professional kadrlar yordamida bajarish mumkin;

- ichki va xorijiy turistlar uchun mo‘ljallangan targ‘ibotni ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanish asosida tizimli yo‘lga qo‘yish;

- hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirishda davlat-xususiy sherikchilik tamoyillarini qo‘llash orqali hozirda sohada mavjud bo‘lgan nafaqat tarixiy-madaniy

obyektlar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab muammolarni, balki yondosh sohalardagi muammolarni ham hal qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4802 sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi Abu Muin Nasafiy majmuasini boshqarish va obodonlashtirish direksiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 117-sonli qarori.

5. Bozarov Elyor Boboqulovich. “Raqamli axborot tizimlari va texnologiyalari orqali mintaqa ziyoratgoh va qadamjolarni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati” Turizm sohasi milliy iqtisodiyotning muhim drayveri" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to`plami. -370-373, 2023-yil.

6. Bozarov Elyor Boboqulovich. O‘zbekiston Respublikasi hududida ziyorat turizmini rivojlantirish zaruriyati va sa’y-harakatlar. Gospodarka i Innowacje. -526-531, 2022-yil.

7. Mintaqadagi ziyoratgoh va qadamjolarni modernizatsiyalashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi. -56-58, 2023-yil.

Internet manbalari

1. Lex.uz
2. Samdu.uz

REKREATSIYA –TURISTIK RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH MASALALARI (QUYI ZARAFSHON OKRUGI MISOLIDA)

Ergasheva M.K., Isayeva M.N., Uzakova M.O.
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston
e-mail: ergashova76@mail.ru, Isayevam833@gmail.com

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada rekreatsiya–turistik resurslardan oqilona foydalanishning geografik asoslari, jumladan tabiiy geografiya hamda resursshunoslik fanining nazariy va amaliy masalalari, madaniy landshaft konsepsiyasining mohiyatiga doir ma’lumotlar tahlil qilingan va munosabat bildirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** cho‘l zonasi, tabiiy resurslarni boshqarish, landshaft, antropogen landshaft, konsepsiya, cho‘l zonalaridagi madaniy landshaft konsepsiyasi, indikator, geosistema, optimallashtirish.*

ВОПРОСЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕКРЕАЦИОННО-ТУРИСТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ (НА ПРИМЕРЕ НИЖНЕ-ЗАРАФШАНСКОГО РАЙОНА)

Эргашева М.К., Исаева М.Н., Uzakova M.O.
Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан
e-mail: ergashova76@mail.ru, Isayevam833@gmail.com

Аннотация: *В данной статье проведён анализ и выражены географические основы рационального использования рекреационно-туристских ресурсов, включая теоретические и практические вопросы физической географии и ресурсоведения, сведения о сущности понятия культурного ландшафта.*

Ключевые слова: *пустынная зона, природопользование, ландшафт, антропогенный ландшафт, концепция, концепция культурного ландшафта в пустынных зонах, индикатор, геосистема, оптимизация.*

ISSUES OF REASONABLE USE OF REKREATION-TOURISTIC RESOURCES (IN THE EXAMPLE OF LOWER ZARAFSHAN DISCRICT)

Ergasheva M.K., Isayeva M.N, Uzakova M.O.
Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan
e-mail: ergashova76@mail.ru, Isayevam833@gmail.com

Abstract: *In this article, the geographic basis of the rational use of recreational-tourist resources, including theoretical issues of natural geography and recource science, information on the nature of the concept of cultural landscape is analyzed and expressed.*

Key words: *desert zone, natural recource management, landscape, anthropogenic landscape, concept, cultural landscape concept in desert zones, indicator, optimization.*

Jahon aholisining tabiiy resurslar bilan ta’minlashda geografik fanlar, shu jumladan landshaftshunoslik fani yutuqlari beqiyosdir. Buning asosiy sababi tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida atrof-muhitga ta’sirning tobora ortishi oqibatida turli texnogen xavflar ham kuchaymoqda. Ushbu muammolarga qarshi kurashishga xalqaro tashkilotlar katta e’tibor qaratmoqda. Jumladan, BMTning 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish bo‘yicha dasturining 4-maqsadi “sifatli ta’lim” hamda 17-maqsadi “barqaror rivojlanish yo‘lida hamkorlik...” vazifalari yechimiga yo‘naltirilgan[1]. Mazkur vazifalar ichida tabiiy resurslardan foydalanish alohida muammo sifatida e’tirof etilgan.

Dunyo miqyosida geografiya fanining ramzi, obyekti va predmeti, nazariya va metodologiyasi, tushuncha va tamoyillari, inson yashaydigan va xo‘jalikdagi faoliyatini olib boradigan hududlarning tabiiy sharoitini, tabiiy komponentlari orasidagi o‘zaro aloqadorliklarni, o‘zaro ta’sirlarni shu jumladan, inson faoliyatining ta’sirini baholash kabi ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizda tabiiy resurslar hamda uning rivojlanish tarixini o‘zida aks ettiruvchi zamonaviy adabiyotlarni nashr ettirish bo‘yicha keng islohotlar amalga oshirilmoqda hamda bu borada sezilarli natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasini tasdiqlashni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti loyihasi”[2] 80-maqsadi “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishda muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, unda geografiya faniga oid bilimlar o‘ziga xos alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda "resurs" tushunchasi ko‘p qirrali mazmunga ega. Uning ilmiy talqinlari ko‘p, hanuzgacha qat’iy bir fikrga kelingani yo‘q. Talqinlar qanday bo‘lmasin, uning

[1] 2030 йилгача барқарор ривожланиш соҳасидаги кун тартиби // электрон доступ: http://www.uz/undp/org/.
[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони

mag‘zida antropotsentrik mazmun yotadi, ya’ni insonning hayoti va yashashi uchun zarur va foydali bo‘lgan tabiiy, moddiy, nomoddiy va ma’naviy boyliklar tushuniladi.
Mamlakatimizda turizm sohasi bozor munosabatlarini shakllantirishda xizmat ko‘rsatish sohasidagi iqtisodiy munosabatlarning hal etishda, o‘ziga xos o‘rni bor. Chunki, bu soha bozor subyekti sifatida tez rivojlanish bosqichida, uning tarkibiy qismi bo‘lgan turizm sohasi ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Turizm nisbatan yangi soha bo‘lishiga qaramasdan o‘z mavqeini mustahkamlab bormoqda. Bu kelajakda ham istiqbolli porloq sohalardan biri bo‘lib qoladi. Zarafshon mintaqasida rekreatsion-turistik resurslardan foydalanish, mahsulotlarni shakllantirish, sohani zamon talablari darajasida rivojlantirish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Shunday ekan, Zarafshon mintaqasida turistik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishni talab qiladi.

Zarafshon mintaqasi betakror tabiati hamda ko‘hna va boy tarixi, islom madaniyatining dastlabki tamallari qo‘yilgan ko‘hna shahar ekanligi bilan qadimdan sayyohlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Mintaqada mavjud tabiiy resurslar, boy tarixiy merosdan yanada samarali foydalanish maqsadida bugungi kunda turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xuddi shunday tashviqotlarning samarasi sifatida 2022-2026-yillarida “Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlanitrish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Buxoro viloyatidagi **800 dan ziyod madaniy obyektlarni** birma-bir **restavratsiya** qilish bilan bog‘liq chora-tadbirlar amalga oshiriladi. “Qadimgi Poykent” arxeologik merosi obyekti muhofaza qilish, tadqiq etish, muzeylashtirish choralari ko‘rilib, arxeologiya parki yaratilishi, Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi hamda Buxoro viloyat axborot kutubxona markazi fondidagi noyob va alohida qiymatga ega bo‘lgan nashrlarni alohida kolleksiya holida Buxoroda saqlanishi va muhofaza qilinishi belgilab berilgan. Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi hamda Buxoro viloyat axborot kutubxona markazi fondidagi qo‘lyozmalar, noyob va alohida qiymatga ega bo‘lgan nashrlarni tahlil qilgan xolda, YUNESKOning «Jahon xotirasi» ro‘yxatiga kiritilishi bo‘yicha zarur choralarning ko‘riladi. Buxoro viloyati hokimligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Qurilish vazirligi bilan birgalikda «Turizm mahallasi», «Turizm ovuli», «Turizm qishloqlari»ning ichki yo‘llari, ichimlik suvi va boshqa infratuzilma obyektlarini ta’mirlash ishlarini keyingi yillardagi «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlariga kiritiladi hamda uning doirasida tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

P.Barotov ma’lumotiga ko‘ra Quyi Zarafshon okrugi Zarafshon daryo vodiysining quyi qismini, Buxoro va Qorako‘l vohalarini, Zarafshonning g‘arbdan va janubi-g‘arbdan tutashib turgan qadimgi allyuvial-delta tekisliklarini, Dengizko‘l platosini,o‘z ichiga oladi. Okrug sharqda O‘rta Zarafshon okrugidan kengligi 2-4 km keladigan Hazor yo‘lagi orqali ajralib turadi.
Quyi Zarafshon okrugi paleozoy burmali negizning bukilgan qismida joylashib, uning ustini mezozoy va kaynjzoy cho‘kindi jinslari qoplab olgan. Kaynozoy keng tarqalgan, ular ichida eng ko‘p uchraydigan jinslar to‘rtlamchi davrning allyuvial-delta yotqiziqlari bo‘lib, ular Zarafshon daryosi olib kelgan shag‘al, qum, qumoq va loyqalardan iborat.

Okrug hududi asosan tekisliklardan – Buxoro va Qorako‘l deltalaridan iborat. Zarafshon daryosi O‘rta Zarafshon botig‘idan chiqib Navoiy shahridan g‘arbda va janubi-g‘arbda Buxoro deltasiga kirib boradi. Bu deltani shimoldan va g‘arbdan Qizilqum, sharqidan Qiziltepa, Azkamar, Quyumozor, Qaynog‘och balandliklari, Qo‘shtepa va Qumsulton tepaliklari, janubi-sharqdan esa Qorako‘l platosi o‘rab turadi. Buxoro deltasi janubi-g‘arbga tomon biroz nishab bo‘lib, sug‘orish shahobchalari uni ayrim qismlarga bo‘lib yuborgan.

Unda Zarafshon daryosining 4 ta qayiri joylashgan. Deltaning uzunligi 102 km, o‘rtacha kengligi 50-55 km, eng keng yeri 70 km ga boradi. Mutlaq balandligi g‘arbida 200 m ni, sharqida esa 250 m ni tashkil etadi. Zarafshon daryosi Chandir qishlog‘idan janubi-g‘arbda nisbiy balandligi 15 m gacha bo‘lgan Qorako‘l platosini kesib o‘tib, tor (kengligi 0,5-1,0 km) Qorako‘l yo‘lagini hosil qiladi. Bu yo‘lak Buxoro deltasini Qorako‘l deltasi bilan tutashtirib turadi [2].

Ma’lumki, har bir hududning tabiiy resurslaridan foydalanishda, joyning geografik o’rni, relyefi, iqlimiy sharoiti, suvlari, tuproq hamda o’simlik dunyosiga alohida e’tibor qaratiladi. Landshaft haqidagi ta’limot landshaftlarning tabiiy resurslaridan samarali foydalanish uchun metodologik asos bo‘la oladi. Bu esa o‘z navbatida shakllanayotgan "landshaftlar resursshunosligi" ilmiy yo‘nalishni rivojlantirish zarurligini taqozo qiladi [3].

Mazkur yo‘nalishdagi izlanishlarni landshaftshunoslik fanining yangi rivojlanish bosqichi va uning pirovard maqsadi deb baholash to‘g‘ri bo‘ladi. “Agroimkoniyat” tushunchasi landshaft resurslarining qishloq xo‘jaligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Agroimkoniyatlar ham moddiy va nomoddiy mazmunga ega. Shu nuqtai nazardan tahlil qilinganda “Buxoro Varnet” MCHJ ham aynan shu omillarni inobatga olib, zamon talablari darajasida tashkil etilgan.

Buxoro viloyatining ko‘p yerlari sho‘rxok va qumloq, suv esa tanqis. Bunday joylarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun gidroponika usuli juda qulay. Shu bois 2018 yil 10 iyuldagi Prezident qarori bilan «Buxoro-agro» erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilgan edi. Bu zona uchun Jondor, Kogon, Peshku, Romitan va Buxoro tumanlaridan 3 ming gektar yer ajratildi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jalb etilib, klaster tizimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish uchun keng sharoit yaratildi. «Buxoro Varnet» korxonasi ham ana shu imkoniyatlar samarasi natijasida barpo etildi. Loyihaning umumiy qiymati 120 million dollardan ziyod bo‘lib, bu mablag‘ning hammasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar tashkil etadi.

Buxoro viloyati, Buxoro tumani “So‘fikorgar” MFY hududida joylashgan “Buxara Varnet” MCHJ xorijiy korxonasi 2018 yilda tashkil etilib, 112,85 gektar yer maydoni ajratilgan. Bugungi kunda umumiy qiymati 98,5 mln dollar bo‘lgan “Gidroponika usulida Turkiya texnologiyasi asosida zamonaviy oynali issiqxona barpo etish” loyihasini amalga oshirilmoqda. Jami qurilgan oynali issiqxonalar maydoni 30 gektarni tashkil etib, shundan 7 gektari “Agro green house group” MCHJga, 3 gektari “Meva Sabzavot Green” MCHJga va 3 gektari “Agro Shabnam Plyus” MCHJga tegishli bo‘lib, “Buxara Varnet” MCHJ korxonasining o‘zi 3 gektar yer maydonidan hosil olmoqda. Qolgan 14 gektar yer maydonida qurilish ishlari davom etmoqda.

1990 yillardan boshlab, cho‘l zonasida landshaft ta’limoti asosida madaniy landshaftlarni yaratishga bag‘ishlangan g‘oyalar bildirildi. Ayniqsa, “Cho‘l zonasi madaniy landshafti” konsepsiyasining maqsadi, vazifalari va tamoyillari yaratila boshlandi [4]. Bu harakatlarni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

I bosqich. XX asrning 90-yillaridan XXI asrning boshigacha “Cho‘l zonasi madaniy landshafti” g‘oyasining vujudga kelishi. Birinchi bosqichda antropogen landshaftshunoslik poydevorining shakllanishiga asos bo‘lgan ishlar chuqur tahlil qilinib, cho‘l zonasida tabiatdan samarali foydalanish masalalari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqila boshladi. Masalan, 1992 yilda geosistema, va havza konsepsiyalari asosida Quyi Zarafshon regioni tabiatini optimallashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi ishlar misol bo‘ladi. Bu bosqichda agrolandshaft, voha landshaftlari, irrigatsion landshaftlar kabi tushunchalar mazmuniga

izohlar berildi. Ba’zi quyidagi ilmiy nashrlarda madaniy landshaft konsepsiyasining asoslari bayon qilingan:

1. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш., Тошов Х.Р. “Народный опыт как основа оптимизации природоползования в аридной зоне Узбекистана” -Қарши. 1992.

2. Назаров И.Қ. “Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природоползования (на материалах нижней части бассейна р. Зарафшан). -Тошкент.1992.

3. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш. “Бухоро географияси”. -Бухоро. 1994.

II bosqich. 2010 yildan hozirgacha “Cho‘l zonasi madaniy landshafti” haqidagi konsepsiyaning nazariy asoslari ishlab chiqilishi va amaliyotdagi ishtiroki. Mazkur bosqichda “Cho‘l zonasi madaniy landshafti” haqidagi konsepsiyaning nazariy asoslari ishlab chiqildi, deyish o‘rinlidir. Birinchidan, madaniy landshaft aholini umummadaniyatini yuksaltirishga, odob, go‘zallik tarbiyasiga qaratilmogi lozim. Ikkinchidan, madaniy landshaftning ko‘rinishi, tashkil etilish darajasi uni yaratuvchi xalqning barcha sohalardagi madaniyatidan xabar beruvchi indikatori degan xulosaga kelindi. Mazkur “Cho‘l zonasi madaniy landshafti” haqidagi konsepsiyaning keng targ‘ibotchisi taniqli olim I.Q.Nazarovdir [2].

Rekreatsiya–turistik resurslardan oqilona foydalanish masalalarini tahlil qilish quyidagicha xulosalar chiqarishga asos bo‘ladi:

Madaniy landshaftning ko‘rinishi, tashkil etilish darajasi uni yaratuvchi xalqning barcha sohalardagi madaniyatidan xabar beruvchi indikatori bo‘lib, madaniy landshaft atamasining ommalashuvi fanlararo integratsiyani ta’minlaydi, tabiat-jamiyat qonunlarini chuqur bilish va unga amal qilishga undaydi.

Zarafshon mintaqasi landshaftlarining hududiy rekreatsion- turistik tizimlari, ularning hozirgi holatini saqlab qolish va hududda rekreatsiya va turizmni istiqbolda rivojlantirish bo‘yicha geotizimlarning rekreatsion-turistik imkoniyatlarini aniqlash hamda noyob tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish choralarini kuchaytirishni taqazo etadi.

Landshaft haqidagi ta’limot landshaftlarning tabiiy resurslaridan samarali foydalanish uchun metodologik asos bo‘la oladi. Bu esa o‘z navbatida shakllanayotgan "landshaftlar resursshunosligi" ilmiy yo‘nalishni rivojlantirish zarurligini taqozo qiladi

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Баротов П. Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент., Ўқитувчи, 1996.
2. Назаров И.Қ., Тошев.Х.Р. Ландшафтлар ресурсшунослиги Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 23 -жилд Тошкент, 2003 ,18-20 бет
3. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш., Тошов Х.Р. Мавлонов А.М. Маданий ландшафтлар яратишнинг тамойиллари хусусида. 2002.
4. Эргашева М.К. Ўзбекистонда антропоген ландшафтшуносликнинг ривожланиши. // ЎзГЖ ахбороти. 55-жилд. -Тошкент, 2019. -Б. 23-26.

RAQAMLASHTIRISH ORQALI TURIZM IMKONIYATLARINI NAMOYON ETISH VA RIVOJLANTIRISH

Nasretdinova A., Bozorova J.

Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston.

Annotatsiya: *Maqolada ziyorat turizmi salohiyatini oshirishda hududlar turistik imiji va brendini yaratish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *turistik brend, turistik resurslar, infratuzilma, ziyoratgohlar, tarixiy–madaniy yodgorliklar, turistik obyekt, madaniy meros.*

ДЕМОНСТРАЦИЯ И РАЗВИТИЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ

Насретдинова А., Бозорова Ж.
Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан

***Аннотация**: В статье рассматриваются вопросы создания туристического имиджа и бренда регионов с целью повышения потенциала паломнического туризма в Узбекистане.*

***Ключевые слова:** визит, имидж, туристский бренд, туристские ресурсы, инфраструктура, святыни, памятники истории и культуры, туристический объект, культурное наследие.*

DEMONSTRATING AND DEVELOPING TOURISM OPPORTUNITIES THROUGH DIGITIZATION

Nasretdinova A., Bozorova J.
Karshi State University, Karshi, Uzbekistan.

***Abstract:** The article deals with the creation of a tourist image and brand of regions in order to increase the potential of pilgrimage tourism in Uzbekistan.*

***Keywords:** visit, image, tourist brand, tourist resources, infrastructure, shrines, historical and cultural monuments, tourist site, cultural heritage.*

O‘zbekistonda boy tarixga ega diniy qadamjolar, muqaddas ziyoratgohlar va islom olamida tengsiz bo‘lgan madaniy yodgorliklarning ko‘p ekanligi, ularni targ‘ib qilishda turistik brendlar va turistik qiyofani shakllantirish hamda ularga tegishli bo‘lgan ilmiy-nazariy asoslarning yetarlicha yoritilmaganligi ushbu yo‘nalishda ilmiy ishlar olib borish zarurligini belgilab beradi.

Turizm sohasida ziyoratgohlarning o‘rni va ularga doir ilmiy ishlarni amalga oshirish ko‘plab mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ularning aksariyati bu yo‘nalishni diniy turizmning tarkibiy qismi sifatida e’tirof etishadi.

Olimlarimizdan A.Xudoyarovning fikricha, ziyorat turizmi muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish, ulug‘ ajdodlarimizga ehtirom ko‘rsatish, ularning o‘tmishdagi hayoti va yaratgan madaniy-me’moriy hamda tarixiy merosi bilan tanishish, ularni xotirlash, shuningdek, diniy va dunyoviy marosimlarda qatnashish maqsadida amalga oshiriladigan safarlarni o‘z ichiga oladi. A.Eshtayev tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari o‘rganilib, unda davlat tomonidan ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari, muammolarni yechish va sohani yanada rivojlantirish imkoniyati tahlil qilingan. Tadqiqotchi N.Ibragimov raqobatbardosh turistik hudud brendi va imijining ilmiy asoslarini o‘rgangan bo‘lib, u tomonidan turistik hudud brendi va imijini birlashtiruvchi bozor va iste’molchi ongidan joy olish jarayoni nazariyasi ilmiy asoslangan, brendning konseptual modeli hamda uni turistik hudud nomi, logotipi va sloganga ajratib o‘rganish metodologiyasi ishlab chiqilgan. S.K.Boyjigitov turistik mahsulotlarni siljitishda O‘zbekistonning turistik brendi muammolari va rivojlantirish istiqbollarini muhim marketing dastagi sifatida o‘rgangan.

Tadqiqot metodologiyasi Maqolada ziyorat turizmi, uni obyektlari brendini va ijobiy qiyofasini shakllantirish bo‘yicha mavjud nazariyalar va olimlarning fikrlari o‘rganildi va mamlakatimizdagi uning rivojlanish jarayonlari tahlil qilindi.

Turistik brend - bu taniqli obyekt yoki tabiiy obyektlar majmuasi bo‘lib, u o‘z ichiga madaniy va tarixiy meros, shuningdek, tashrifni qamrab oladigan marshrutda joylashgan obyektlar, noyob hodisalar, hunarmandchilik namunalari, xizmatlar, jalb qiluvchi faoliyat turlarini qamrab oladi. Turistik brendlar shahar, hudud, mintaqa yoki mamlakatdagi turistik

obyektlarni targ‘ib qilish va tanitishni osonlashtiradi. Turistik brendlarni turli tamoyillar bo‘yicha turkumlash mumkin. O‘zbekistonda eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlardan biri bu – ziyorat turizmidir. Hududlarning ziyorat turizmi salohiyatini oshirishda uning barcha hududlarida turistik brendni yaratish va qiyofasi (imiji)ni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Chunki turistik hudud brendi nafaqat turistik hududga xos bo‘lgan nom, logotip, ramz yoki belgini ko‘rsatib qolmasdan, balki sayohatchilar tasavvurida turistik hudud bilan bog‘liq unutilmas sayohat tajribasini shakllantiradi, sayyoh va turistik hudud o‘rtasidagi ruhiy-hissiy bog‘liqlikni mustahkamlashga xizmat qilsa, obyektning turistik imiji esa ma'no va taassurotlar yig'indisi bo‘lib, ular tufayli turistik obyektga nisbatan uni targ‘ib qilish orqali ijobiy munosabat shakllantiriladi

O‘zbekistonda yaqin kelajakda ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2019 yilda chop etilgan Global musulmon turizmi indeksi hisobotiga ko‘ra, 2018 yilda ziyorat maqsadlarida safar qilgan musulmonlarning soni 140 million kishini tashkil qilgan va 2026 yilga kelib bu raqam 230 millionga yetishi kutilmoqda5 . Ziyorat turizmida boshqa yo‘nalishlardan farqli ravishda, mavsumiylik ta’siri sezilarli emas. Bu esa turizmning ushbu yo‘nalishini rivojlantirish va mavjud imkoniyatlarni oshirish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda har qaysi viloyat o‘ziga xos ziyoratgohlar, tarixiy qadamjolar va madaniy obyektlar mavjuddir. Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmi keng rivoj topib borayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Viloyat hududida mavjud bo‘lgan eng mashhur ziyorat obyektlariga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin: Qarshi shahrida “Odina masjid”, “Ko‘kgumbaz masjid” “Abu Ubayda bin al Jarroh”, Kasbi tumanidagi “Imom Muhammad Sadr Islom”, “Murodbahsh ota”, “Mirdevona”, ”Hazrat Sulton Mirhaydar”, Mirishkor tumanidagi “Ishoq ota”, Qarshi tumanidagi “Hazrat imom Muin”, “Shayx Ali”, “Shayxon ota Hulvoyi”,”Shayx Shibliy”,”AbuTurob Naxshabiy”, “Ko‘k to‘nli ota”, “Imom Muhammad Hanafiy”, G‘uzor tumanidagi “Musofir ota”, “Mir Jandiy ota”,”Zaynulodiddin”, Qamashi tumanidagi “O‘g‘lonjon ota”, “Langar ota”, Chiroqchi tumanida “Kishmishtepa”, “Siypantosh qoya” rasmlari, Yakkabog‘ tumanidagi ”Xoja ilg‘or”, “Tutak ota”, Shahrisabz tumanidagi “Oqsaroy me’moriy yodgorligi”, “Gumbazi sayyidon”, “Hazrati Sulton”, Kitob tumanidagi “Shayx Shamsiddin”, ”Hazrat Bashir”, Dehqonobod tumanidagi “Xojai pok”, ”Beli boyli ota”, Muborak tumanidagi “Xoja Muborak”, ”Xoja Ro‘shnoyi” kabilardir. Ular orasida hududning o‘ziga xosligi va tashrif buyuruvchilar orasida mashhurligi bilan ajralib turadigan obyektlarning turistik brendini yaratish mumkin.

Xalqaro tajribalar ko‘rsatishicha, turizmda hududlar raqobat ustuvorligini aniqlashda alohida obyektlarni mavjudligi bilan emas, balki turizm industriyasining quyidagi tarkibiy qismdan iborat bo‘lgan majmuasining, ya’ni tarixiy-madaniy obyekt yoki arxitektura yodgorliklari, yuqori malakali mutaxassislar va ekskursiya xizmatlarining sifati, tashrif buyuruvchilarga qulaylikni ta’minlovchi joylashtirish va transport infratuzilmalarining rivojlanganlik darajasi, suvenir mahsulotlarining mavjudligi kabilarni inobatga olish lozim. Bunda xizmatlarning noyobligi va betakrorligi asosiy shart hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo`lsak Ziyorat turizmi mamlakatimizning jahondagi obro‘-e’tiborini yanada oshirishda, millionlab musulmonlarning buyuk allomalar va mutafakkirlar o‘tgan muqaddas zaminimizga tashrif buyurishida, bizda mavjud islomiy merosni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ziyorat turizmni rivojlantirish uchun amalga oshirilgan vazifalar qatorida quyidagilarni bajarish, uni barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi:

- ziyorat turizimini imkoniyatlarini oshirish hamda turistik imij va brendni yaratishda alohida hudud (viloyat, tuman) kesimida marketing tahlillarini amalga oshirish;
- ziyoratgohlar joylashgan hudud atrofini obodonlashtirish va turistlar uchun zaruriy infratuzilmani ta'minlash uchun kerakli chora tadbirlarni amalga oshirish;
- har bir hududda mavjud bo‘lgan, tarixiy madaniy meros obyektlari orasidan bittasini tanlab, uni hududning turistik brendi sifatida tanitish yuzasidan tegishli yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish va tayyorlashni yo‘lga qo‘yish. Zero sohadagi barcha ijobiy va innovatsion o‘zgarishlarni, turistik imij va brendni yaratish sohasidagi faoliyatni faqat malakali va professional kadrlar yordamida bajarish mumkin;
- ichki va xorijiy turistlar uchun mo‘ljallangan targ‘ibotni ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanish asosida tizimli yo‘lga qo‘yish;
- hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirishda davlat-xususiy sherikchilik tamoyillarini qo‘llash orqali hozirda sohada mavjud bo‘lgan nafaqat tarixiy-madaniy obyektlar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab muammolarni, balki yondosh sohalardagi muammolarni ham hal qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4802 sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi Abu Muin Nasafiy majmuasini boshqarish va obodonlashtirish direksiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 117-sonli qarori.
5. Bozarov Elyor Boboqulovich. “Raqamli axborot tizimlari va texnologiyalari orqali mintaqa ziyoratgoh va qadamjolarni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati”, “Turizm sohasi milliy iqtisodiyotning muhim drayveri” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami. -370-373, 2023-yil.
6. Bozarov Elyor Boboqulovich. O‘zbekiston Respublikasi hududida ziyorat turizmini rivojlantirish zaruriyati va sa’y-harakatlar. Gospodarka Innowacje. -526-531, 2022-yil.
7. Mintaqadagi ziyoratgoh va qadamjolarni modernizatsiyalashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari. O'zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi. -56-58, 2023-yil.

Internet manbalari

3. Lex.uz
4. Samdu.uz

BUXORO VILOYATINING TURISTIK SALOHIYATI VA IMKONIYATLARI

Pardayev N.S., Saitqulova Z.U
O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent. O‘zbekiston
e-mail: pardayevnodirbek4@mail.ru, zaynurasaitqulova3@gmail.com

Annotasiya*: Ushbu maqolada Buxoro viloyatining turistik salohiyati, Buxoro iqtisodiyotida turizmning o‘rni, viloyatda turizimni rivojlantirish borasida qilinayotgan ishlar hamda viloyatda turizim sohasida aholi bandligi kabi masalalar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Buxoro viloyati, turizm, diniy turizm, tarixiy turizm, madaniy turizm, me’moriy obidalar, turistlar, mehmonxona.*

ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И ВОЗМОЖНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Пардаев Н.С., Саиткулова З.У.
Национальный университет Узбекистана, Ташкент. Узбекистан
e-mail: pardayevnodirbek4@mail.ru, zaynurasaitqulova3@gmail.com

Аннотация: *В данной статье рассмотрен туристический потенциал Бухарской области, роль туризма в экономике Бухары, проводимая работа по развитию туризма в регионе, занятость населения в сфере туризма в регионе. регион охвачен.*

Ключевые слова**:** *Бухарская область, туризм, религиозный туризм, исторический туризм, культурный туризм, памятники архитектуры, туристы, гостиница*.

TOURISTIC POTENTIAL AND POSSIBILITIES OF BUKHARA REGION

Pardayev N.S., Saitkulova Z.U.
National University of Uzbekistan, Tashkent. Uzbekistan
e-mail: pardayevnodirbek4@mail.ru, zaynurasaitqulova3@gmail.com

Abstract**:** *In this article, the tourism potential of the Bukhara region, the role of tourism in the economy of Bukhara, the work being done on the development of tourism in the region, and the employment of the population in the field of tourism in the region are covered.*

Key words*: Bukhara region, tourism, religious tourism, historical tourism, cultural tourism, architectural monuments, tourists, hotel.*

Turizm dunyo davlatlari iqtisodiyotiga katta foyda keltiradigan sohalardan biri hisoblanadi. Turizm jahon YaMMning deyarli 10 foizini, xizmatlar eksportining 1/3 qismini beradi. Bugungi kunda jahonda ko‘plab dunyo davlatlari iqtisodiyotining tayanch tarmog‘i turizm tashkil qiladi. Fransiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Gretsiya, Italiya, Kipr kabi Yevropa davlatlarida turizm yuqori darajada rivojlangan. Mazkur soha so’nggi yillarda sharqiy, janubi-sharqiy, janubi-g‘arbiy Osiyo davlatlarida ham jadal rivojlanib bormoqda.

Xalqaro turizm hajmi 2010-yilda 919 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, 2016-yilda bu ko‘rsatkich 1.235 million AQSH dollariga teng bo‘lgan. COVID-19 inqirozi xalqaro turizmga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi, bu umumiy o‘sish tendensiyasini sezilarli darajada sekinlashtirdi. Turizm sanoati koronavirus tarqalishidan qattiq zarar ko‘rdi, chunki ko‘plab mamlakatlar uning tarqalishini oldini olish maqsadida sayohat cheklovlarini joriy qildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon sayyohlik tashkilotining hisob-kitoblariga ko‘ra, 2020-yilga kelib, dunyodagi xalqaro sayyohlar soni 58-78 foizga kamayishiga va bu esa xalqaro turizm daromadlarining 0,9-1,2 trillion AQSH dollari miqdorida yo‘qotilishiga olib keldi. Biroq, 2021-yildan keyingi davrda mazkur sohada qatnashuvchilar soni va undan keladigan daromad ham yana o‘sishda davom etmoqda.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda turizmga katta e’tibor berilmoqda. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida etakchi hisoblanadi. Chunki, mamlakatimiz jahon svilizatsiya o‘choqlari sifatida, o‘zining tarixiy, madaniy, diniy va tabiiy-rekreatsion turizm salohiyati bilan mashhur. O‘zbekistonning turistik salohiyatiga noyob ma’daniy-tarixiy meros, xilma-xil noyob tabiiy-iqlimi ko‘rkam joylar, rekreatsion-gidromineral resurslar, diniy-tarixiy joylar, urf-odatlari va marosimlarini kiritishimiz mumkin [7].

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi dastlabki yillardan boshlab iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohatlar va yangilanishlar boshlandi. Shu o‘rinda

turizm sohasida ham tub islohatlar olib borilib, hozirgi kunda ham mazkur sohani rivojlantirishda davlat tomonidan katta imkoniyatlar yaratilmoqda.

Respublikamizga 2023-yilda 6.5 million, 2022-yilda esa 5.2 millionni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning ilk 3 oyida mamlakatimizga 1.5 million sayyoh tashrif buyurgan, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga qaraganda 2.1 % ga yuqoridir [12]. O'zbekiston boy turizm salohiyatiga ega mamlakatlardan hisoblanadi. Uning asosiy turistik shaharlariga Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon va boshqa shaharlarni kiritish mumkin. Bular orasida Buxoro viloyati o'zining boy tarixiy-madaniy merosi bilan turistlar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Buxoro viloyati O'zbekistonning tarixiy va madaniy merosiga eng boy hududlaridan biri sifatida sayyohlarda ajoyib ta'asurot uyg'otadi. Buxoro shahri, qadimiy Ipak yo'lining muhim nuqtalaridan biri sifatida, ming yillar savdo va madaniyat markazi bo'lib kelgan.

Buxoroda 140 dan ortiq yirik tarixiy-me'moriy yodgorliklar mavjud. Ular orasida Buxoro Arki, Somoniylar maqbarasi, Chashmai Ayyub maqbarasi, Mag`oki Attori masjidi, Namozgoh masjidi, Poyi Kalon ansambli, Qal'a devor qoldiqlari, Minorai Kalon, Masjidi Kalon, Mir Arab madrasasi, Tim va toqilar, Labihovuz ansambli, Ulug'bek madrasasi, Chor Minor, Bolohovuz masjidi, Sitorai Mohi Xossa ansambli va boshqa obidalar sayyohlarni maftun etadi. Bunday qadimiy me'moriy yodgorliklarni saqlab qolgan Buxoro sayyohlarning eng sevimli joylaridan biri bo'lib qolaveradi. Buxoro o'zining jozibasi bilan butun dunyodan millionlab kishilarning e'tiborini tortib keladi.

So'nggi yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Jahonda ko'p mamlakatlarda bo'lgani kabi, COVID-19 pandemiyasi davrida bu erga ham sayyohlar sonining kamayib ketishiga sabab bo'ldi. Biroq, 2022 va 2023-yillardan sayyohlar soni yana yuqori darajada oshdi, bu viloyatning turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirdi. Viloyatga tashrif buyurgan sayyohlar soniga e'tibor bersak, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi tufayli sayyohlar soni keskin kamaygan bo'lsa-da, 2021-yildan keyin tiklanish jarayoni boshlandi. 2022 yilda xorijlik sayyohlar soni 300 ming kishi atrofida bo'lgan, 2023-yilda esa bu ko'rsatkich 400 ming kishiga etgan [13].

Keyingi yillarda turizm sohasi viloyat iqtisodiyotiga yuqori daromad keltirgan istiqbolli yo'nalishlardan biriga aylangani hech kimga sir emas. Ko'hna va boqiy Buxoro bu soha yuqori qatorlarda e'tirof etiladi. Qadim kent yildan-yilga sayyohlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Shu o'rinda sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida, ular uchun yildan-yilga sharoitlar yaxshilanmoqda. Jumladan, ayni kunlarda viloyatda zamonaviy va talabga javob beradigan mehmonxonalar soni 200 taga yaqinlashgan bo'lsa, ularda bir kunda 60 mingdan ortiq mehmonga yuqori darajadagi xizmat ko'rsatilmoqda. Takomillashtirilayotgan soha tufayli 2024-yilda yilda Buxoroga tashrif buyurgan sayyoh soni 4 million nafarga yaqin bo'lib, shundan 550 ming nafardan ortig'ini chet ellik turistlar tashkil qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, 2024-yilda viloyatda hamkorlar investitsiyasi asosida o'ttizdan ortiq zamonaviy mehmonxonalar qurib, ishga tushirilmoqda [12].

Viloyatda turizmning ko'plab sohalariga e'tobor qaratilmoqda. Madaniy va tarixiy turizm mazkur sohaning eng rivojlangan yo'nalishi hisoblanadi. Shaharda tarixiy obidalar, masjidlar, madrasalar va karvonsaroylar turistlarni o'ziga jalb qiladi.

Viloyatning eng mashhur diqqatga sazovor joylari sifatida Poi-Kalon me'moriy yodgorlik, *(Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tomonidan "sakkizinchi mo"jiza" sifatida tan olingan)*; Ark qal'asi; Somoniylar maqbarasi; Chashmai Ayub maqbarasi; Magaki-Attari masjidi; Mirzo Ulug'bek madrasasi, Miri-Arab madrasasi, Labi-Hovuz ansambli va boshqalar e'tirof etiladi [9].

Buxoro arki — O‘zbekistonning Buxoro shahridagi qadimiy ark bo‘lib, atrofidagi maydon sathidan qariyb 20 metr balandlikda ko‘tarilgan va taxminan 4 gektar maydonni egallagan monumental qal’a. Qal’a Buxoroning eng qadimiy me’moriy va arxeologik yodgorligi hisoblanadi. Bu qal’a tepalikni tashkil etgan ko‘p asrlik vayronagarchilik qatlamlariga ega shaharning eng qadimiy qismi hisoblanadi (1-rasm).

Buxoroning 2500-yilligi munosabati bilan ark ichkarisidagi taxt joylashgan hovli ta’mirlanib, o‘z holiga keltirildi. Ark devorlari yangilandi. „Go‘riyon“ darvozasi qayta tiklandi va boshqa obodonlashtirish ishlari olib borildi. Yer sathidan 2,5-3 m chuqurlikda gumbazsimon er osti yo‘li borligi aniqlangan. Arkda Buxoro davlat me’moriy-badiiy muzey qo‘riqxonasi joylashgan.

Bundan tashqari Buxoroda ekoturizm, agroturizm, salomatlik turizmi, diniy turizm ham mvjud. Ushu yo‘nalishlar orasida diniy turizm yuqori darajada rivojlangan. Diniy turizmning rivojlanishiga asosiy omillardan biri - islom dunyosiga mashhur ziyoratgohlarning mavjudligidir. Misol qilib “Yetti pir” ziyoratgohini keltirishimiz mumkin.

1-rasm:Buxoro viloyatida joylashgan Ark majmuasining tashqi ko‘rinishi

Buxoroda madaniy meros obyekti soni hozirda mingdan ziyod bo‘lganini mulahaza qilganda, qadim viloyatda turizm iqtisodiyotni, aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Birgina joriy yilning birinchi yarmida sayyohlikdan viloyat iqtisodiyotiga 763 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ tushgani, turizm va unga yo‘ldosh xizmat ko‘rsatish sohalarida 20 ming nafarga yaqin aholining muqim ish o‘rni bilan bandligi bundan dalolatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta’minlash, shuningdek Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilingan bo’lib, ushbu farmonning 184-bandiga muvofiq Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturni amalga oshirish, unda: 2022 — 2026-yillarda xorijiy va mahalliy turistlar sonini 5 mln nafarga, eksport hajmini 600 mln AQSh dollariga etkazish, viloyatdagi 800 dan ziyod madaniy obyektlarni birma-bir restavratsiya qilish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni nazarda tutish belgilangandi [1]. Hozirgi kunda tashrif buyuradigan mahalliy turistlar soni 3.2-3.5 million kishiga etgan.

Viloyatda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha juda katta ishlar amalga oshirilib kelmoqda va ulardan yana biri 2022-2026-yillarda Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi hamda Buxoro viloyat axborot kutubxona markazi fondidagi qo‘lyozmalar, noyob va alohida qiymatga ega bo‘lgan nashrlarni tahlil qilishni,qo‘lyozmalar, noyob va alohida qiymatga ega bo‘lgan nashrlarni YUNESKOning “Jahon xotirasi” ro‘yxatiga kiritilishi bo‘yicha zarur choralarning ko‘rish nazarda tutildi va hozirda ko‘rsatilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

1-jadval

2022 - 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar				
		2022	2023	2024	2025	2026
1.	Ichki turistlar tashrifi soni (mln kishi)	2,4	2,9	3,4	3,8	4,1
2.	Xorijiy sayyohlar soni (ming kishi)	450,0	900,0	1,200	1,500	1 800
3.	Xizmatlar eksporti (mln AQSh doll)	121	200	230	270	300
4.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	5,399	6,131	6,721	7,336	7,976
5.	Mehmonxonalar nomyer fondining bandlik darajasi	45,0	51,0	61,0	71,0	93,0
6.	Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni (ming)	12,147	13,672	14,902	16,182	17,512
7.	Mehmonxonalar soni (dona)	178	198	218	238	258
8.	Oilaviy mehmon uylari soni (dona)	264	314	325	335	345
9.	Xostellar soni (dona)	55	61	66	71	76
10.	Internet (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda) qamrovi darajasini oshirib borish	7	8	9	10	11

Manba: http://lex.uz//docs/-6212874 saytidan olindi [14]

Xulosa qilib aytganda Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirish uchun resurslar etarli. Biroq, ko‘plab diqqatga sazovor joylarda mehmonxonalar kam, yoki talabga javob bermaydi. Ba’zi turizm obyektlariga olib boruvchi yo‘l infratuzilmasi yaxshi emas. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, viloyatga tashrif buyuradigan mahalliy va xorijlik turistlarga xizmat ko‘rsatish sohalarini yanada rivojlantirish, xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha chora- tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 fevraldagi “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 100-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 sentyabrdagi “2022-2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 543-sonli Qarori.
4. Bobojonov Sh. Sharif shahar yodgorliklari. Buxoro.Buxoro nashriyoti, 2017. – B. 184.

5. Bobojonova F. Buxoro me’moriy obidalar tarixi. O‘quv qo‘llanma.Buxoro. “Fan va ta’lim”, 2022.
6. Mamatqulov X.M, Tuxliyev I.S. Xalqaro turizm. Darslik. Samarqand. 2008.
7. To‘rayev Q.T., Qurbonov Sh.B. O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish va hududiy tashkil etilishini takomillashtirishning geografik asoslari. Monografiya. – Toshkent: ZEBO PRINT, 2023. – 156 b.
8. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 10-жилд. Шарқ – Қизилқум. – Т.: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси», 2005. ISBN: 5-89890-091-8. – Б. 110.
9. Xasanova G.D. O’zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilayotgan ishlar (Buxoro viloyati misolida) . O’zbekistonda turizm infratuzilmasini takomillashtirishda xorijiy tajribani qo’llash”. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar va ma’ruzalar to’plami. Toshkent. 2015. II qism. 138-143 b.
10. Xasanova G.D. O’zbekistonda turizmni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari. “Barqaror raqobatbardosh turistik hududlarni shakllantirishning ustuvor yo’nalishlari: innovatsion boshqaruv, xorij tajribasi va rivojlantirish ctrategiyalari”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislar to’plami. Buxoro. 2018. 292-297 b.
11. Shaw B.J., Shaw G. Sun, sand and sales: Enclave tourism and local entrepreneurship in Indonesia. Current Issues in Tourism, 2(1). – Jakarta, 1999.
12. https://www.uzbekistan.travel
13. https://wwwbuxoro.uz
14. https://www.lex.uz

TABIIY TURISTIK-REKREATSIYA RESURSLARIDAN FAYDALANISHNING BA`ZI BIR NAZARIY MASALALARI

Abdujabborov N.F**.**
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston
e-mail:abdujabborovnarimon77@gmail.com

Аннотация: *maqolada rekreatsion geografik tadqiqotlarda hududning tabiiy sharoitini baholash metodlari va tamoyillari yoritilgan va ba`zi jihatlari ochib berilgan.*

Kalit so`zlar*: rekreatsion geografiya, rekreatsion resurs, tabiiy resurs, baholash*.

НЕКОТОРЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ ТУРИЗМО-РЕКРЕАЦИОННЫХ РЕСУРСОВ

Абдужабборов Н.Ф.
Самаркандский государственный университет им.Шарафа Рашидова
Самарканд, Узбекистан, e-mail: abdujabborovnarimon77@gmail.com

Аннотация: *в статье освещены методы и принципы оценки природных условий местности в рекреационно-географических исследованиях и раскрыты некоторые аспекты.*

Ключевые слова: *рекреационная география, рекреационный ресурс, природный ресурс, оценка.*

SOME THEORETICAL ISSUES OF USING NATURAL TOURISM-RECREATION RESOURCES

Abdujabborov N.F.
Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Samarkand, Uzbekistan
e-mail: abdujabborovnarimon77@gmail.com

Abstract: *the methods and principles of assessing the natural conditions of the area in recreational geographic studies are highlighted in the article and some aspects are revealed.*
Key words: *recreational geography, recreational resource, natural resource, evaluation.*

Rekreatsiya imkoniyatlarini o`rganish va yangi HRT (hududiy rekreatsiya tizimlari)ni bunyod etish masalasi dolzarb hisoblanadi. Samarali va ko`ngildagidek hordiq chiqarish, salomatlikni tezda qayta tiklash uchun rekreatsiya obyektlarini to`g`ri tanlash lozim. Hududning geografik o`rni, iqlimining xushhavoligi, suvning musaffoligi, joyning relyefi kishilarni o`ziga jalb qiluvchi omillardan hisoblanadi. Rekreatsiya faoliyatini tashkil qilish va uni samarali amalga oshirish hududni atroflicha va chuqur o`rganishni taqozo etadi.

O`zbekistonda tabiatning xushmanzara joylarida dam olish azaldan ma`lum bo`lib, Amir Temur, Z.M. Bobur, M. Ulugbek va boshqa ko`pgina ajdodlarimiz ov va tabiat qo`ynida sayr qilish kabi mashg`ulotlarni amalga oshirganliklari bizga tarixdan ma`lumdir. O`tmishdagi ajdodlarimiz tomonidan tabiat go`zalligidan bahramand bo`lib, hordiq chiqarish uchun hamda shu joylarni tabiatini muhofaza qilish maqsadida bog`lar tashkil qilingan. XX asrning boshlarida O`zbekistonda dam olish va davolanish uchun sog`lomlashtirish maskanlari tashkil etilgan[1].

Dam olish va sog`lomlashtirish maskanlari Chirchiq-Ohangaron va Farg`ona vodiysining tog` yonbag`irlarida (Shohimardon, Chimyon, Arashon) joylashgan xushhavo va xushmanzara hududlardan iborat bo`lgan. Bu hududlarda iqlimiy dam olish maskanlari barpo etildi[8].

Keyinchalik ikkinchi jahon urushidan keyin ushbu hududlar to`liq o`rganilib, mineral suvlarining topilishi natijasida davolanish va sog`lomlashtirish maskanlari kengaytirildi. Shifobaxsh suvlarning topilishi (Toshkent va Chortoq mineral suvlari) mamlakatimizda bal`neologik kurortlarning tashkil topishiga sabab bo`ldi. Mamlakatimizda sanatoriylarda davolashning samaradorligini oshirish usullarini ishlab chiqish va rekreatsiya resurslarini muhofaza qilishni ilmiy asosda o`rganish bo`yicha N.F.Semashko (1936) nomidagi kurortologiya va fizioterapiya ilmiy tadqiqot instituti shug`ullanib kelmoqda. Rekreatsiya haqidagi bilimlarni tadqiq qilishda ko`pgina olimlar jumladan, MDH (mustaqil davlatlar hamdo`stligi) olimlari: P.G.Tsarfis, A.V.Chaklin, A.A.Mins, I.P.Gerasimov, A.A.Shoshina, A.P.Avsin, A.D.Lebedov, V.S.Preobrajenskiy, N.A.Danilova, Y.S.Vedenin va boshqalar shug`ullanganlar. Rekreatsiya va rekreatsion faoliyat bilan bog`liq tadqiqotlar zamonaviy fan tizimining yangi, ya`ni yosh yo`nalishlardan biri sifatida XX asrning 60-70- yillarida yuzaga chiqdi. 1963-1975 yillarda hozirgi Rossiya Fanlar Akademiyasi geografiya instituti mutaxassislar jamoasi (Preobrajenskiy, Vedenin, Zorin va boshqalar) tomonidan “Rekreatsion geografiyaning nazariy asoslari” nomli monografiya tayyorlandi va bu monografiya keyingi shu kabi tadqiqotlar uchun asos sifatida xizmat qildi. 1992 yilda esa Rossiya xalqaro turizm akademiyasida V.S.Preobrajenskiy, Y.A.Vedenin, I.V.Zorin, V.A.Kvartolnov, V.M.Krivosheyev, L.S.Filippovichlar muallifligida “Rekrealogiya va rekreatsion geografiya nazariyasi” nomli yangi monografiya chop etildi. Unda ko`p yillik tadqiqotlar umumlashtirilgan va rekrealogiya qanday rivojlanishi lozimligi to`g`risida, rekreatsion tizim, rekreatsion ehtiyoj, rekreatsion faoliyat tizimini tashkil etuvchi bosh omil sifatida, rekreatsion tizim modeli haqidagi konsepsiya yoki dasturi amal vazifasini o`taydi (Vahobov, Yoqubov, 2008). 2001 yilda D.V.Nikolayenko tomonidan “Rekreatsionnaya geografiya” nomli o`quv qo`llanma nashr etildi. Unda rekreatsion geografiyaning murakkab faoliyat ekanligi va zamonaviy sohaning rivojlanish xususiyatlarini yoritilgan. Respublikamizda rekreatsiyaning ilmiy masalalari bilan Z.Mahamatillayev, A.Zokirov, A.Yusupov, Sh.Azimov kabi geograflar tadqiqot ishlari olib borganlar. Mamlakatimizda rekreatsiyaning ilmiy masalalari bilan G’.Zokirov va A.Yusupov kabi geograflar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Tadqiqot va izlanishlar shuni ko`rsatadiki mazkur yo`nalishni yanada boyitish, tadqiqotning yangi usullari

va vositalaridan to`liq foydalanishni takomillashtirish lozim. Keyingi yillarda mahalliy geograflar tomonidan mamlakatimizning barcha mintaqalarida rekreatsiya sohasiga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida sohaga oid maqolalar chop etib kelinmoqda. H.Vahobov va G`.Yoqubovlar tomonidan “Rekreatsion geografiya” (2008) nomli risolasi nashr etilgan. Bu ishlar mamlakatimizda rekreatsiyani rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Quyida biz Qashqadaryo havzasining rekreatsiya imkoniyatlari haqida qisqacha bayon etishga jazm etdik. Qashqadaryo viloyati tabiatida bir vaqtning o`zida to`rtta faslning namoyon bo`lishi rekreatsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarini beradi. Qashqadaryo havzasi nafaqat mamlakat, O`rta Osiyo, balki dunyo ahamiyatiga ega shifoxonalar va dam olish maskanlari tashkil qilish uchun barcha rekreatsiya resurslariga ega (Абдуллаев С.И., Усманова.Р. 1994). Rekreatsiya resurslari, majmuali hamda ayrim komponentlar bo`yicha dam olish va salomatlikni qayta tiklashdagi ahamiyati aniq mezonlar negizida asoslanishi darkor [7].

Rekreatsiya resurslari murakkab tushuncha bo`lib, uni ta`riflashdan oldin tabiiy resurslar haqidagi ta`riflarni bilib olish lozim. Tabiiy resurslar ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishda asosiy omillardan hisoblanadi. Tabiiy resurslar tushunchasini ko`pchilik mualliflar tomonidan turlicha talqin qilingan. Masalan, akademik I.P.Gerasimov bilan professor D.L.Armandlar tabiiy resurslarga quyidagicha ta`rif berganlar: “Tabiiy resurslar kishilar bevosita tabiatdan oladigan va ularning yashashlari uchun zarur bo`lgan xilma-xil vositalardir”.

Rekreatsion geografiyada zarur bo`lgan tabiat resurslari haqida ham mutaxassislar ko`pgina fikrlarni bayon qilishgan. L.A.Bagrova va boshqalar (1977) ning fikricha, «Rekreatsiya resurslari - bu tabiiy, tabiiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy geotizimlar va ularning elementlaridan iborat bo`lib, mavjud texnik va moddiy imkoniyatlar asosida rekreatsiya xo`jaligini tashkil qilish uchun foydalanish mumkin». Binobarin, rekreatsiya resurslari inson dam olishi uchun zarur bo`lgan barcha tabiiy, texnik, ma`naviy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa omillarni o`z ichiga oladi. Bular tarkibida eng muhimi tabiiy resurslar hisoblanadi. Rekreatsiya faoliyati madaniy resurslarsiz ham mavjud bo`lishi mumkin, ammo tabiiy resurslarsiz o`z ma`nosini yo`qotadi (Nizamiyev, 1998). Tabiat resurslari negiz vazifasini o`taganliklari tufayli rekreatsiya faoliyatining turlari aynan ularga bog`liq. Bu borada, ayniqsa, iqlim, suv, relyef, tabiat manzarasi, tabiat yodgorliklari, mineral suvlar va boshqalar yetakchilik qiladilar, masalan, relyef turi rekreatsiya faoliyatining turini, tabiatning xilma - xilligi yoki manzarasi, dam olishning samaradorligini, iqlim – ma`lum dam olish turining vaqtini, bemorlar sog`ayishining sharoitlarini belgilaydi. Bunda integral geotizimlar rekreatsiya nuqtai nazaridan inventarizatsiya qilinishi, so`ngra baholanishi, rekreatsiya majmualaridan foydalanish chog`ida o`zgarishning bashoratlari va noxush hodisalarning oldini olish bo`yicha tadbirlar hamda tavsiyalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Binobarin, hududni rekreatsiya jihatdan tadqiqot qilish integral geotizim - inventarizatsiya - baholash - prognoz - tavsiya sxemasida amalga oshirilishi ko`zlangan natijani beradi.

Tog` va tog`oldi hududlari rekreatsiyada majmuali va yil davomida surunkali foydalanilishi tufayli birinchi navbatda chuqur va har tomonlama tadqiq qilinishi lozim. Bizningcha, dam olishning asosini iqlim belgilaganligi sababli hudud majmuali iqlimshunoslik hamda tibbiyot, meteorologiya negizida uning iqlimiy resurslari va qulaylik (shuningdek noqulaylik) xususiyatlari miqdoriy ko`rsatkichlar bilan: baholanishi muhim ahamiyatga ega. Har bir yirik tog` vodiysining (Qashqadaryo, G`uzordaryo, Oqsuv, Tanxozdaryo va boshqa) meteorologik va iqlimiy, ob-havo sharoitlari o`rganilishi va baholanishi maqsadga muvofiq. Xususan, past va o`rtacha balandlikdagi tog`lar va ularning vodiylari yil fasllari bo`yicha tadqiq qilinishi rekreatsiya obyektlarini to`g`ri joylashtirish, infratuzilma elementlarini tashkil qilishda ilmiy yondashuvni qo`llashga imkon beradi. Tog` yonbag`irlarida landshaftlarning balandlik bo`yicha mintaqalanishi tufayli rekreatsiya

obyektlarini shunga muvofiq joylashtirish, yonbag`irlar ekspozitsiyasi va tabiiy hodisalarni e`tiborga olgan holda resurslardan foydalanish amaliy ahamiyat kasb etadi[7].

Relyef hal qiluvchi tabiat komponentlaridan biri, lekin undan foydalanish samaradorligi joylarda turlicha. Relyef boshqa ko`pgina tabiat komponentlarini (iqlim, tuproq, o`simlik, suv), inson mehnat faoliyati xarakterini belgilaydi. Shuningdek, u bilan tabiat manzarasi, makonda landshaft komplekslarini o`zgarishi, yoki qaytarilishi, kontrastlik kabi xislatlar bog`liq. Zotan, relyef bilan ko`pgina tabiat komponentlarining xususiyatlari bog`liq ekan, u rekreatsiya jihatidan yetarli darajada o`rganilishi va aniq baholanishi darkor. Bunda relyefning gipsometrik balandligi, o`ydim - chuqurligi, qiyaligi, shakllari va tiplari, gravitatsiya hodisalari, suvayirg`ich xususiyatlari, al`p tipidagi relyef shakllarining mavjudligi, qattiq yoki yumshoqroq jinslardan tashkil topganligi va shu munosabat bilan tog` yonbag`irlarini qoyali (kristallashgan, marmarlashgan metamorfik jinslar yoki yarim kristallashgan) jinslardan tashkil topganligiga ahamiyat berish zarur. Chunki, tog` jinslarining tarkibi ularning morfologik ko`rinishini belgilaydi. Tog` jinslari tarkibi asosida turli tabiat hodisalari va jarayonlari tarkib topadi, ularning o`zgarishi yuz beradi. Ohaktosh, mergel jinslaridan g`orlar, karst shakllari, lyossimon va lyossli jinslardan surilma, jar eroziyasi rivojlanadi. Ular sayyohlikda muhim ahamiyat kasb etadi.

Alp tipidagi tik ko`tarilgan qoyalar, sirk va kar shakllar, ayrim tog` massivlari va baland cho`qqilar alpinistlar va qoyaga ko`tariluvchilarni qiziqtiradi. Yonbag`irlar qiyaligining kichik bo`lishi qishda chana, chang`ida uchishga qulaylik tug`diradi. Qashqadaryoda Amir Temur, Kartarxona, Kiyikkamar g`orlari, Amir Temur g`oridagi ko`l, Tuyayaylov va boshqalar mavjud. Relyefning morfografik o`rganishda dam olish binolari, kurort, sanatoriya obyektlarini va ularga xizmat qiluvchi yordamchi binolarni joylashtirish, yo`l, ko`prik, maydonlarni loyihalashga alohida e`tibor berilishi maqsadga muvofiq. Bu borada gravitatsiya hodisalari, qor ko`chkisi, tog` qulashi, sel yuz berishi mumkinligi alohida e`tiborda bo`lishi lozim. Statsionar binolar va rekreatsiya obyektlarini loyihalashda relyef asosida kishi diqqatini o`ziga tortadigan tabiat manzarasi tanlash hamma jihatdan ham samaralidir. Suv rekreatsiyada eng muhim resurs. Dam olishning ko`pgina turlari suv havzalari bilan bog`liq. Shifobaxsh suv ichimlik sifatida turli kasalliklarni davolashda, termal va radonli suv vanna sifatida qabul qilinadi, yer usti suvlari sayr qilishda, cho`milishda, suzishda, sport oyinlarini o`tkazishda, sharsharalar dam olish, asab xastaliklarini davolashda asqotadi, tog` ko`llari nafaqat cho`milish, shuningdek tabiatdan lazzat olish, tabiat tarovati va go`zalligini tomosha qilish, shu bilan asabni tinchlantirish, charchagan organizmga dam berishda ancha ahamiyatli. Shu jihatdan suv resurslari atroflicha o`rganilishi va foydalanishi mumkinligi to`g`risida ilmiy xulosa chiqarish zarur. Soylar tog` vodiylarining suvga bo`lgan ehtiyojini ta`minlabgina qolmasdan, joylarda ko`llar, sharsharalar vujudga keltiradi, tor va qiya vodiyda shiddat bilan oqib, yoqimli ovoz taratadi, bularning barchasi rekreatsiyada yuqori baholanadi, ularni sayyohlarning piyoda yuradigan yo`nalishlarini tanlashda hisobga olinishi samarali bo`ladi.

Bu jihatdan barcha foydalaniladigan obyektlarning yirik masshtabda majmuali kartalashtirilishi yuqori natija beradi, chunki sayyohlar oldindan nimalarga duch kelishlari va tanishishlarini bilishlari foydali. So`qmoq yo`llarni tanlashda piyoda sayyohlar uchun ichimlik suvi sifatida buloqlardan foydalanish va ularning mavjudligiga e`tibor berish zarur, zero, yozning issiq kunlarida bu juda muhim. Tog` ko`llari, suv omborlari, selxonalar va daryolar gidrologik jihatdan atroflicha o`rganilishi, ayniqsa suv harorati, tarkibi va ifloslanish darajasi, ularda cho`milish mumkinligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Tog`oldi suv omborlarida cho`milish davri va cho`milish mumkin bo`lgan qirg`oqlar tanlanib, yer osti grunti aniqlanishi darkor, qiyaliklar kattaligini oldindan bilish suv muolajasini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Suv resurslaridan rekreatsiyada foydalanilishi mumkin bo`lgan obyektlarning tegishli masshtabda kartasi (Qaynarbuloq, Ko`kbuloq, Roxatbuloq,

Qorabuloq, Chinor ota Xaydarbuloq va boshqa) ishlab chiqilishi ko`pgina masalalarni hal qilishga imkon beradi. Chuchuk sizot suvlarning vujudga kelishi uchun Kitob-Shaxrisabz botig`ida daryolar yoyilmalarida qulay tabiiy sharoit mavjud. Mutaxassislarning hisobiga ko`ra Kitob-Shaxrisabz botig`i va Qashqadaryoning yuqori oqimidagi to`rtlamchi davr yotqiziqdari orasidagi yer osti suvlarining zahirasi 20 - 25 m3/sek. ni tashkil qiladi. O`rtacha balandliklardagi va baland tog`lardagi doimiy qor va muzliklar (Seversov, Botirboy, To‘rtko`ylak va boshqa) kartaga tushirilishi, ularning mutlaq balandliklari va dovonlar (Taxtaqoracha 1788 m, Oqrabot 1300 m, Muxbel 3209 m, Shaxan 3400 m, Oqboykalon 3492 m, Tamshush 3658 m, Xarkush 3700 m, G`ova 4000 m va h.k.) ko`rsatilishi maqsadga muvofiq [7].

Bu ma`lumotlar sayyohlar va alpinistlarga ma`lum yo`nalishlarni tanlashda, zabt etiladigan cho`qqi va qoyalarni aniqlashda zarur bo`ladi (Усманова Р. 2004). Tekisliklar rekreatsiya nuqtai nazaridan o`rganilganda birinchi navbatda suv havzalari va o`rmon massivlari, daryo hamda sug`orish kanallariga e`tibor beriladi. Yozning jazirama kunlari qisqa muddatli dam olish arid sharoitida suv havzalari yonida o`tkaziladi. Bu jihatdan sug`orish kanallari (Qarshi magistral kanali va h.k.), suv omborlari (Chimqo`rg`on, Pachkamar, Talimarjon suv omborlari va h.k.), daryo qirg`oqlari, quyuq daraxtzorlar va bog`zorlar, tokzorlar bilan band va tegishli infratuzilma mavjud bo`lsa dam olish va cho`milish uchun qulay sharoit vujudga keladi. O`zbekistonda qadimdan vohalarda turli kattalikda hovuzlar qazilib, atrofi bog` va daraxtzor bilan band bo`lgan. Tekisliklarda dam olish maskanlarining sig`imi talabga javob berishi uchun tegishli rekreatsiya resurslaridan yetarli foydalanish davr talabidir. Cho`l landshaft komplekslari dam olish uchun yil bo`yi qulayliklarga ega emas, buning sabablari ma`lum. Lekin ayni erta bahorda efemerlar gullagan paytda qisqa muddatli dam olish, tabiatda sayr qilishni tashkil qilish foydadan holi bo`lmaydi.

Qisqa muddatli dam olishni amalga oshirish maqsadida eng yaqin va o`simlik olami xilma-xil bo`ladigan hududlarni hamda arxitektura yodgorliklari, sardobalar, suv ob`ektlari, barxan tepalari, sho`rxoklar, ihotazorlar, parklarni tanlash, avtomobil yo`llari mavjud bo`lgan yo`nalishlarni belgilash amaliy ahamiyatga ega. Хулоса. Mazkur maqola Qashqadaryo viloyatida aholining dam olishini tashkil qilish, salomatligini tiklash, turli sport o‘yinlari xususan, sayyohlikning barcha turlari bilan shutullanish masalalariga qaratildi. Rekreatsiya resurslaridan amaliy jihatdan foydalanish maqsadida Qashqadaryo vnloyati tabiiy sharoitlari va resurslarini tahlil qilish va ularning rekreatsiyadagi imkoniyatlarini aniqlash uchun asosiy tabiat komponetlari rekreatsiya nuqtai nazaridan atroflicha tahlil qilindi. Tog`, tog`oldi hududlari sanatoriya va kurortlar majmualarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega ekanligini va rekreatsiya imkoniyatlarini hisobga olib, Oqsuv, Tanxoz, Qizilsuv, Katta Uradaryo va Kichik Uradaryolarning yuqori oqimida turli kasalliklarni davolovchi sanatoriya va kurortlar tizimini vujudga keltirish maqsadga muvofiq. Bu joylarda bolalar oromgohlari, sanatoriylar, dam olish zonalari vujudga keltirish uchun eng qulay. Kitob - Shahrisabz rekreatsiya kompleksining potensial boylik (iqlimiy va suv bilan davolash, arxeologik-arxitektura va tabiiy yodgorliklar va boshq.)larini e’tiborga olgan holda unda bir necha zamonaviy dam olish va davolanish (Jovuz, Varganza, Sarichashma, G‘ilon, Samoq,Tatar, Kaltaqo‘l) maskanlari tashkil qilish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаев С.И., Усманова Р. Қашқадарё вилояти ландшафтларининг рекреацион имкониятлари ва улардан фойдаланиш //Табиат ланшафтларининг экологик муаммолари. Гулистон, 1994. -Б.140-141

2. Багрова Л.А.и др. Рекреационные ресурсы (подходи к анализу понятия) //Изв. АН. СССР, сер. геогр.,1977. -С. 5-12.

3. Низамиев А. Рекреационный комплекс Кыргизстана: реалии и переспективи. – Бишкек: Илым, 1998. -С. 135.

4. Нефедова В.Б. и др. Рекреационное использование территории лесов //Лесная промышленность. –Москва, 1980. -С. 184.

5. Николаев В. А. Проблемы регионального ландшафтоведение. –М.: Изд-во МГУ, 1979. -С 160.

6. Рафикова Н.А., Усманова Р. Экологическая устойчивость геосистем Узбекистана: оценка, прогноз управление и проблемы рекреационного природопользований. //Материалы международной конференции «Устойчивое экономическое развитие и управление региональными ресурсамы». -Ташкент-Ноттингем, 2001. -С. 12-15

7. Усманова Р. и др. Роль природных факторов в развитие рекреации в бассейне реки Кашкадарьи //Экологический вестник, 2004. № 6. -С. 35.

8.Usmanova R., Murodova D.S. Qashqadaryo viloyati tabiiy rekreatsiya resurslarini baholash masalalari// Ўзбекистон География жамияти ахбороти 51-жилд, 2017 йил.

РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА И РЕКРЕАЦИОННЫХ ТЕРРИТОРИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Ишанкулова Д.А.
Самаркандский государственный университет им.Шараша Рашидова
Самарканд, Узбекистан, e-mail: ishankulova.2003@gmail.com

Аннотация: *В статье раскрыты некоторые данные и изменения в цифрах туристического посещения Узбекистана. Её природные и исторические памятники о которых ходят легенды в протяжения многих тысячелетий.*

Ключевые слова: *Туризм, рекреация, природные ресурсы, культура, наука, исторические памятники.*

DEVELOPMENT OF TOURISM AND RECREATIONAL AREAS IN UZBEKISTAN

Ishankulova D.A
Samarkand State University named after Sharaf Rashidov, Samarkand, Uzbekistan
e-mail: ishankulova.2003@gmail.com

Abstract: *The article reveals some data and changes in the figures of tourist visits to Uzbekistan. Its natural and historical monuments, which have been legendary for many millennia.*

Keywords: *Tourism, recreation, natural resources, culture, science, historical monuments.*

Введение. Узбекистан богат не только разными природными ресурсами, также на её территории развивалась культура и наука. Многие мыслители нашей страны покорили мировые трибуны своими знаниями и богатым наследием. Это в частности влечёт большое количество туристов, интересующихся нашими культурными и историческими ценностями. Каждый мыслитель постарался для будущего поколения, для нас и всех остальных. Правители и полководцы оставили великолепные сооружения, мечети, медресе, усыпальницы и др. Также, мы можем сказать, что и природа постаралась для нас. На нашей территории имеются безупречные и завораживающие ландшафты, природные памятники естественного происхождения, родники, водопады в предгорных окрестностях, зоны для отдыха и рекреационные ресурсы. Дары природы ценились людьми всегда и на данные годы большое количество населения заинтересованы на естественном лечений в окружений природы и отдыхе по дальше от городской суеты.

Основная часть. Развитие туризма в Узбекистане с 2017 по 2022 годы стало одной из «точек роста» национальной экономики. Эта отрасль способствует увеличению доходов граждан и созданию новых рабочих мест. Важным фактором является расширение инфраструктуры для «без барьерного туризма» [1].

Вот некоторые ключевые моменты развития туризма в Узбекистане:

1. Легкость въезда: Для граждан 93 стран отменены въездные визы, а жители 56 стран могут посетить Узбекистан по электронной визе. Граждане 47 стран могут находиться в стране без транзитной визы до 5 дней.

2. Новые туристические объекты: В 2022 году были введены такие объекты, как «Tashkent city», «Samarqand turizm markazi» и «Afsonalar vodiysi». Новые турпродукты, такие как «Turizm mahallasi», «Turizm qishlog`i», «Turizm ovuli» и «Tabarruk ziyorat», также пользуются популярностью.

3. Внутренний туризм: В рамках программы «Путешествуй по Узбекистану!» запущена специальная платформа системы «Кэшбэк» для возмещения части расходов на внутренние поездки [2].

4. Стандарты в питании: В общественных заведениях, ресторанах и средствах размещения вводятся стандарты «Халяль», «Кошер» и «Веган» для паломнического туризма.

5. Рост числа туристов: В 2022 году Узбекистан посетили более 5,2 миллиона иностранных туристов, что в 2,5 раза больше, чем в 2017 году. Объем экспорта туристических услуг в 2022 году составил 1,61 миллиарда долларов.

Постепенно увеличивается количество местных и иностранных туристов. Если в 2017 году их число составило 10,6 млн человек, то в 2022 году по стране уже путешествовало 11,4 млн местных жителей. В 2022 году Узбекистан посетили более 5,2 млн иностранных туристов. Это в 2,5 раза больше, чем за 2017 год. Объем экспорта туристических услуг в 2022 году составил $1,61 млрд. Этот показатель в 2021 году был равен $296,4 млн, в 2019 году $951 млн. Всего в 2017-2022 гг. общий объем экспорта туристических услуг составил $5,13 млрд [1].

В 2022 году в Узбекистане функционировали 1838 туристических компаний - туроператоров. По сравнению с 2017 годом (749) их количество увеличилось почти в 2,5 раза. За период с 2017 по 2022 гг. количество мест в гостиницах увеличилось в 2,6 раза и достигло 124 тысяч (в 2017 году - 37 тысяч).

В 2017-2022 годах занятость в этой отрасли увеличилась на 46%. В 2022 году в туристской сфере работало 274 тысячи человек (в 2017 г. - 187 тыс.).

Эти меры способствуют развитию туризма и укреплению позиции Узбекистана на мировой туристической карте [5].

Многие наслышаны о красоте и величий Узбекистана и её краях. Многие люди ценители знают на сколько важны архитектурные сооружения и их глубокую историю. Но, природа – это творение которое не под силу человеку. Люди больше бережным образом должны относится к таким природным памятникам. Например, можно рассмотреть некоторые из них:

Ферганская долина — настоящий жемчуг Узбекистана с богатой и очень живописной природой. Это благодатная земля, полная водных ресурсов, различных природных ископаемых и оазисных земель, возделанных местными земледельцами, этот край окружают величественные хребты Тянь-Шаня. Ещё в древности в этом цветущем оазисе обитали представители разных цивилизаций, об этом свидетельствуют многочисленные археологические ископаемые, которые были найдены на данной территории [3].

Горы Чимган — это не только красивая природа, живописные склоны, долины и ущелья с чистейшими горными реками, водопадами. Ещё и популярная туристическая зона, где развивается горнолыжный спорт, парапланеризм, пеший туризм и скалолазание для любителей. Отзывы свидетельствуют о том, что путешествие в горы Чимган позволяет восстановить силы и пополнить заряд бодрости, напитавшись от неиссякаемого источника энергии — самой природы. Сюда приезжают не только в отпуск, но и в выходные и праздничные дни, а большое количество действующих здесь турбаз и гостиниц позволяет всегда найти подходящее место для размещения и ночлега в зависимости от ваших интересов.

Кладбище кораблей в Муйнаке: Не так давно Муйнак был настоящим городом-оазисом, где процветало рыболовство, а Аральское море было одним из крупнейших в мире солёных озёр. Начиная с 60-х годов прошлого века море стало регулярно осушаться людьми, с целью изменения направления рек для ирригации полей. В результате этой деятельности море стало сокращаться, оголяя земли с большим количеством пыли и ядовитых химикатов. Ржавые останки кораблей — достопримечательность, наглядно показывающая печальные последствия неразумного обращения с Аральским морем. Морской порт, который когда-то был на этом месте, превратился в кладбище кораблей, к развалинам которых можно спуститься и прогуляться по бывшему морскому дну.

Пустыня Кызылкум: На наших землях меж рек Амударья и Сырдарья располагается великая пустыня Азии — Кызылкум. Помимо Узбекистана, Кызылкум частично распространяется на земли Туркменистана и Казахстана, занимая общую площадь в 300 кв. километров. Несмотря на безжизненность песчаных массивов, сушь и резко континентальный климат, растительный и животный мир довольно разнообразен, особенно с приходом весны, когда количество осадков возрастает. Также земли Кызылкума частично освоены человеком — на основе артезианских бассейнов создаются мелкие оазисы, открываются месторождения золотой руды, ведётся овцеводство.

Чарвакское водохранилище: Чарвакское водохранилище было бы простым искусственным водоёмом, если бы не его изумрудные воды на фоне великолепной природы, так гармонично обрамляющей берега. На дальнем фоне красуются зубцы гор Тянь-Шаня, а общая протяжённость береговой линии водохранилища составляет почти сотню километров. Это способствовало тому, что с появлением водохранилища стала активно развиваться и курортная инфраструктура: на побережье сегодня работают лучшие отели Узбекистана, летние лагеря, пансионаты и турбазы, вся прибрежная территория разбита на несколько крупных зон отдыха.[6]

Водопад Пальтау - невообразимой красоты чудо природы. Он шумный, неудержимый, мощный низвергается потоком быстрой воды с высоты 38 метров. Его источник горный сай – река Чаткал, берёт своё начало высоко в горах, в отрогах Коксуйского хребта, который расположен возле границы с Киргизией. [7] (Рис.1)

Рис. 1 Водопад Пальтау

Название водопада «Пальтау» переводится с тюркского языка как «железная гора». Ведь с самого начала своего образования водопад окружали горы, славящиеся рудой, богатой содержанием железа. Возле него были обнаружены средневековые реликвии, одна из которых плавильная печь.

Заключение: Как выше мы рассмотрели некоторые данные о развитий туризма за последние годы, можно сделать краткий вывод что, Узбекистан страна с огромным туристическим потенциалом. Правительство и народ Узбекистана с годами хочет все лучшим образом показать свои ценности и распространить славу этих необычайных мест на весь мир. Стоит отметить что не зря Узбекистан называют “Жемчужиной Востока”, “Колыбелью знаний”.

Conclusion: As we have considered some data on tourism development in recent years, we can briefly conclude that Uzbekistan is a country with a huge tourism potential. Over the years, the government and people of Uzbekistan want to show their values in a better way and spread the glory of these extraordinary places to the whole world. It is worth noting that it is not for nothing that Uzbekistan is called the "Pearl of the East", "The Cradle of Knowledge".

Xulosa: So'nggi yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha ba'zi ma'lumotlarni ko'rib chiqar ekanmiz qisqacha xulosa qilishimiz mumkin, O'zbekiston juda katta turizm salohiyatiga ega mamlakatdir. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston hukumati va xalqi o‘z qadriyatlarini yaxlit ko‘rsatib, bu g‘aroyib joylarning shon-shuhratini butun dunyoga yoyishni istaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston "Sharq marvaridi", "Bilimlar beshigi" deb nomlanishi bekorga emas.

Список использованной литературы:

1. Инфографика: Развитие туризма в Узбекистане в 2017-2022 годах. https://yuz.uz/ru/news/infografika-razvitie-turizma-v-uzbekistane-v-2017-2022-godax

2. В постановлении главы государства «О дополнительных мерах по диверсификации услуг внутреннего туризма» от 30 апреля 2022 года № 232.

3. Ферганская долина. https://nomadsland.travel/ru/before-you-go/uzbekistan/villages/ferghana-valley

4. Баранов, А. С. Информационно-экскурсионная деятельность на предприятиях туризма: учебник /А.С. Баранов, И.А. Бисько; под ред. Е.И. Богданова. – Москва: ИНФРА-М, 2021. – 383 с.

5. Безопасность в туризме: учебно-методическое пособие /сост. С. Ю. Махов. – Орел: МАБИВ, 2020. – 118 с.
6. Узбекистан. Чарвакское водохранилище. https:// culttourism.ru / uzbekistan / charvakskoe_vodohranilishe.html
7. https://uzbekistan.travel/ru/o/vodopad-paltau-i-grot-obi-rahmat/
8. Боголюбов, В. С. Финансовый менеджмент в туризме и гостиничном хозяйстве: учебник для среднего профессионального образования / В. С. Боголюбов. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2021. – 293 с.

TURIZM VA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK MUAMMOLARI, IMKONIYATLARI

Baxshilloyev J.Sh.
Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonning turizm sohasidagi geografik muammolari va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqola turizmning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, mintaqaviy resurslardan foydalanishning ahamiyati va ularning istiqbolli rivojlanishi haqidagi ilmiy-nazariy va amaliy masalalarni qamrab oladi. Maqolada shuningdek, turizmni rivojlantirishdagi zamonaviy tendensiyalar, ekologik masalalar va marketing strategiyalari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Turizm, rekreatsiya, geografik muammolar, mintaqaviy resurslar, iqtisodiy rivojlanish, ekologiya, marketing.*

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ОТДЫХА

Бахшиллоев Дж.
Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан.

Аннотация*: В данной статье анализируются географические проблемы и возможности в туристическом секторе Узбекистана. Статья охватывает роль туризма в экономике страны, важность использования региональных ресурсов и перспективы их устойчивого развития через научно-теоретические и практические вопросы. Также рассматриваются современные тенденции в развитии туризма, экологические проблемы и маркетинговые стратегии.*

Ключевые слова*: Туризм, рекреация, географические проблемы, региональные ресурсы, экономическое развитие, экология, маркетинг.*

GEOGRAPHICAL PROBLEMS AND POSSIBILITIES FOR THE DEVELOPMENT OF TOURISM AND RECREATION

Bakhshilloev J.
Karshi State University, Karshi, Uzbekistan.

Annotation: *This article analyzes the geographic problems and opportunities in Uzbekistan's tourism sector. The article covers the role of tourism in the country's economy, the importance of utilizing regional resources, and the prospects for their sustainable development through scientific-theoretical and practical issues. It also discusses modern trends in tourism development, environmental concerns, and marketing strategies.*

Keywords*: Tourism, recreation, geographic problems, regional resources, economic development, ecology, marketing.*

Kirish.O‘zbekiston turizm sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi. Bu soha O‘zbekistonning boy madaniy merosi, tabiat go‘zalliklari va strategik joylashuvi bilan bevosita bog‘liq. O‘zbekistonning turizm salohiyatidan to‘g‘ri foydalanish, mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va xalqaro darajada tanitish imkoniyatini oshiradi. Biroq, ushbu soha bir qator muammolarni ham o‘zida saqlab qolmoqda. Ushbu maqolada turizmning geografik muammolari va imkoniyatlari batafsil ko‘rib chiqiladi.

1. Tabiiy resurslar va ularning ahamiyati. O‘zbekistonning tabiiy go‘zalliklari, tarixiy obidalari va madaniy merosi turizm sohasining asosini tashkil etadi. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar, nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoda turizm markazlariga aylangan. Ushbu shaharlarning me'morchiligi, tarixiy ahamiyati va mahalliy madaniyati, turistlar uchun jozibador manzillar sifatida qiziqish uyg‘otadi. Samarqanddagi Registon, Buxorodagi Ark qal'asi va Xivadagi Itchan-Qala kabi obidalar turizmning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. (Sodiqov, 2019, 45-50)

O‘zbekistonning go‘zal tabiati, shuningdek, Qizilqum cho‘li, Farg‘ona vodiysi va Tyan-Shan tog‘lari kabi tabiiy resurslari turizm imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Ushbu tabiiy go‘zalliklar, ekoturizm va sport turizmi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ekoturizm, masalan, tog‘larda yurish, tabiatni o‘rganish va mahalliy an'analar bilan tanishish kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. (Karimov, 2021, 30-35)

2. Tabiiy resurslardan foydalanish. Biroq, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalari ham dolzarbdir. Ekologik muammolar, masalan, iqlim o‘zgarishlari, suv resurslarining kamayishi va bioxilma-xillikning yo‘qolishi turizm sohasini tahdid ostiga qo‘yishi mumkin. Tabiiy go‘zalliklarni saqlab qolish va muhofaza qilish orqali turizmning barqarorligini ta'minlash zarur. Bu borada mahalliy aholi bilan hamkorlik qilish va ekologik ta'limni rivojlantirish muhimdir. (Karimov, 2021, 30-35)

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali ekologik turizmni rivojlantirish mumkin. Masalan, Tyan-Shan tog‘larida yurish yo‘laklari va alpinizm uchun joylar yaratish, Qizilqum cho‘lida sahro turizmini rivojlantirish, mahalliy aholi bilan hamkorlikda ekologik tadbirlar o‘tkazish orqali turistlarni jalb qilish mumkin. Ekologik muammolarni hal etish uchun ekologik toza transportni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va suv resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish muhimdir. (Sodiqov, 2019, 65-70)

3. Infratuzilma va xizmat ko‘rsatish. Turizm sohasining rivojlanishi uchun zamonaviy infratuzilma zarur. Mehmonxonalar, transport tizimi, oziq-ovqat va xizmat ko‘rsatish sohasida sifatni oshirish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish talab etiladi. O‘zbekistonning transport infratuzilmasi, jumladan, temir yo‘l va havo transporti o‘sishi turizm sohasiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Mehmonxonalar va restoranlar sifatining oshishi turistlar uchun qulay sharoitlar yaratishi va O‘zbekistonni jahon turizm bozorida raqobatbardosh qilishda muhim ahamiyatga ega. (Tursunov, 2018, 22-27)

Yangi zamonaviy mehmonxona komplekslarini yaratish va mavjud xizmatlar sifatini oshirish muhimdir. Mehmonxonalarning xizmatlari va qabul qilish tizimini zamonaviy standartlarga muvofiqlashtirish turistlar uchun qulay sharoitlar yaratishi va O‘zbekistonni jahon turizm bozorida raqobatbardosh qilishda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mehmonxonalarda mahalliy an'analar va madaniyatni hisobga olish ham muhimdir. O‘zbekistonning mahalliy taomlari, madaniy tadbirlar va mehmonlar uchun ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish zarur. (Karimov, 2021, 30-35)

4. Sifatli xizmatlar. Xizmatlar sifatini oshirishda turizm sohasida innovatsiyalarni joriy etish zarur. O‘zbekiston mehmonxonalarida mehmonlarga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish,

kafe va restoranlarning ovqatlarining sifati, hamda turistlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar (masalan, ekskursiyalar, transport) sifatini yaxshilash zarur. Mehmonxonalarda zamonaviy xizmatlarni taklif qilish, internet va aloqa xizmatlarini taqdim etish, shuningdek, maxsus dasturlar va aktsiyalar orqali mehmonlarni jalb qilish muhimdir. (Qodirova, 2020, 75-80)

Yana bir muhim jihat – xizmat ko‘rsatish sohasida mahalliy madaniyatni hisobga olishdir. Mahalliy an'analar va urf-odatlar turistlar uchun qiziqarli va o‘ziga xos tajribalar yaratishi mumkin. Masalan, mehmonxonalar va restoranlarda o‘zbek milliy taomlari, folklor va madaniy tadbirlar orqali mehmonlar uchun noyob tajribalar taklif etish mumkin. (Sodiqov, 2019, 65-70)

5. Marketing strategiyalari va brendni rivojlantirish. O‘zbekistonni xalqaro turizm bozorida tanitish uchun samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Buning uchun turizmni rivojlantirish dasturlari va brendlarni ishlab chiqish, xalqaro turistik ko‘rgazmalarda ishtirok etish va xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni kengaytirish muhimdir. O‘zbekistonning o‘ziga xos madaniyati va tarixiy merosi turistlar uchun qiziqarli bo‘lishi mumkin, lekin bu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish zarur. (Karimov, 2021, 30-35)

Marketing strategiyalarini ishlab chiqishda digital marketing va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish muhimdir. Xalqaro turizm bozorida O‘zbekistonni tanitish uchun ijtimoiy tarmoqlarda qiziqarli va mazmunli kontent yaratish, bloggerlar va influenserlar bilan hamkorlik qilish samarali bo‘lishi mumkin. Shuningdek, O‘zbekistonning go‘zalliklarini va madaniyatini aks ettiruvchi video va fotosuratlar, turistlarning tajribalarini bo‘lishish muhimdir. (Qodirova, 2020, 88-90)

6. Brendni rivojlantirish. O‘zbekistonni brend sifatida rivojlantirishda turizm bozorida o‘rganish va tadqiqotlar olib borish, auditoriyani aniqlash va marketing strategiyalarini ishlab chiqish talab etiladi. Ushbu jarayonda turizm mahsulotlarini ishlab chiqishda innovatsiyalarni qo‘llash muhimdir. (Sodiqov, 2019, 65-70)

Brendni rivojlantirishda mahalliy aholi, mehnat resurslari va iqtisodiy imkoniyatlar hisobga olinishi zarur. Mahalliy aholi va tadbirkorlar turizm sohasida faol ishtirok etishlari, o‘zlarining xizmatlarini taklif etishlari va brendni rivojlantirishda qatnashishlari muhimdir. Bunda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ularga imkoniyatlar yaratish ham o‘ta ahamiyatlidir. Buning natijasida mahalliy iqtisodiyot rivojlanishi va turizm sohasining barqarorligini ta'minlash mumkin. (Karimov, 2021, 30-35)

7. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish. Turizm sohasini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik va tajriba almashish muhimdir. O‘zbekistonning turizm sohasidagi muvaffaqiyatli tajribalarini o‘rganish, xalqaro tashkilotlar va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik o‘rnatish orqali turizm sohasini yanada rivojlantirish mumkin. (Tursunov, 2018, 22-27)

Xalqaro hamkorlik doirasida turizm sohasida treninglar, konferensiyalar va seminarlar o‘tkazish, mutaxassislar va tadbirkorlar uchun tajriba almashish dasturlarini ishlab chiqish mumkin. Bunday tadbirlar turizm sohasida yangiliklar, innovatsiyalar va muvaffaqiyatli tajribalar bilan bo‘lishishga yordam beradi. (Qodirova, 2020, 75-80)

8. Qiyinchiliklar va muammolar. Biroq, O‘zbekiston turizm sohasida qiyinchiliklar ham mavjud. Ushbu qiyinchiliklar orasida iqlim o‘zgarishi, siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, xavfsizlik muammolari va muayyan infratuzilma muammolari o‘rin olgan. Iqlim o‘zgarishi turizm mavsumini va turistlar sonini bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, mamlakatda xavfsizlik muammolari, terrorist tahdidlar va boshqa xavflar turistlarning O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishini kamaytirishi mumkin. (Sodiqov, 2019, 45-50)

Shu bilan birga, O‘zbekistonning siyosiy va iqtisodiy barqarorligi ham muhimdir. Mamlakat ichidagi iqtisodiy o‘zgarishlar, ish o‘rinlarining ko‘payishi va daromadlarning

oshishi mahalliy aholi uchun turizm sohasida qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Bu esa O‘zbekistonni xalqaro turizm bozorida raqobatbardosh qiladi. (Karimov, 2021, 30-35)

9. Kelajakdagi imkoniyatlar. Kelajakda O‘zbekiston turizm sohasini rivojlantirish uchun ko‘plab imkoniyatlar mavjud. Ekoturizm, madaniy turizm, sog‘liqni saqlash turizmi va tarixiy turizm kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish orqali turizm sohasini diversifikatsiyalash mumkin. Mahalliy an'analar va madaniyatni hisobga olish, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali O‘zbekistonni xalqaro turizm bozorida yanada jozibador qilish zarur. (Tursunov, 2018, 22-27)

O‘zbekistonning turizm sohasini rivojlantirishda aholi bilan hamkorlik, madaniy tadbirlar, xalqaro hamkorlik va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhimdir. Shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ularning imkoniyatlarini kengaytirish ham O‘zbekistonning turizm sohasining barqaror rivojlanishiga olib kelishi mumkin. (Qodirova, 2020, 88-90)

Xulosa. O‘zbekiston turizm sohasining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va barqarorligini ta'minlash uchun muhimdir. Tabiiy va madaniy resurslarni oqilona va barqaror ravishda foydalanish, infratuzilmani yaxshilash, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish O‘zbekiston turizm sohasini yanada mustahkamlashga yordam beradi. O‘zbekistonni jahon turizm bozorida raqobatbardosh qilish va xalqaro darajada tanitish uchun yangi strategiyalar va innovatsiyalarni qo‘llash muhimdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1.Karimov A. (2021). O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini rivojlantirish strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
2.Tursunov, B. (2018). Ekoturizm va uning O‘zbekistondagi rivojlanishi. Toshkent: Tashkent State University of Economics.
3.Qodirova, S. (2020). Xalqaro turizm: muammolar va yechimlar. Toshkent: Institute of Tourism and Hospitality.
4.Sodiqov, R. (2019). O‘zbekiston turizmidagi xavfsizlik masalalari. Toshkent: Tashkent State Institute of Culture.
5.O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi (2023). Turizm sohasidagi statistik ma'lumotlar. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi veb-sayti: www.stat.uz.
6.United Nations World Tourism Organization (UNWTO) (2022). Tourism for Sustainable Development in Asia. Madrid: UNWTO.
7.Ibragimov, D. (2022). Turizm sohasida innovatsiyalar va investitsiyalar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
8.Jones, A. & Smith, B. (2021). Global Tourism Trends: 2021 Edition. New York: Tourism Research Journal.
9.World Travel & Tourism Council (WTTC) (2023). Economic Impact Reports. WTTC veb-sayti: www.wttc.org.
10.Ergashev, M. (2020). O‘zbekistonning madaniy merosi va turizm. Toshkent: O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi.
11.Usmanova, N. (2021). Barqaror turizm va ijtimoiy mas'uliyat. Toshkent: O‘zbekiston Boshqarmasi.
12.Bakirova, L. (2022). Mahalliy an'analar va turizm. Toshkent: O‘zbekiston Madaniyat va San'at Instituti.
13.Zokirov, R. (2020). O‘zbekistonning geografik joylashuvi va turizm salohiyati. Toshkent: Geografiya va iqtisodiy taraqqiyot jurnali.

ZARAFSHON MILLIY TABIAT BOG‘INING BARQAROR RIVOJLANISHIGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR

Baxtiyorova D., Xolmanov E.B.
SamDU, Samarqand, O‘zbekiston, e-mail: dilfuza.baxtiyorova1992@mail.ru

Annotatsiya: *Hozirgi kunda dolzarb bo’lgan tabiatni barqaror rivojlantirish masalasi kichik hududlar uchun ham birdek muhim va ahamiyatlidir. Ushbu maqolada alohida muhofazaga olingan Zarafshon milliy tabiat bog’ining hozirgi kundagi ekologik holati, geoekologik muammolari, tobora kengayib borayotgan antropogen ta’sirlar natijasida ushbu bog’da bo’layotgan o’zgarishlar hamda ularning yechimiga qaratilgan fikrlar ifodalangan. Ekotizimni tabiiy holatda saqlash maqsadida olib borilayotgan chora tadbirlar to’g’risida ma’lumot va muammoni bartaraf etish uchun istiqbolli takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *“O’zbekiston Qizil kitobi”, Zarafshon milliy tabiat bog‘i, Do‘rmon, O‘roqli, ekotizim, qo’riqxonalar, milliy tabiat bog’lari.*

МЕРЫ ПО УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ ЗАРАФШАНСКОГО АЦИОНАЛЬНОГО ПАРКА

Бахтиярова Д., Холманов Э.Б.
СамГУ, Самарканд, Узбекистан, e-mail: dilfuza.bakhtiyorova1992@mail.ru

Аннотация: *В настоящее время актуальная проблема устойчивого развития природы актуальна даже для небольших территорий. В данной статье описывается современная экологическая ситуация Зерафшанского национального природного парка, находящегося под особой охраной, геоэкологические проблемы, изменения, происходящие в этом парке в результате усиления антропогенного воздействия, и идеи, направленные на их решение. Была дана информация о принимаемых мерах по сохранению экосистемы в ее естественном состоянии и перспективных предложениях по решению проблемы.*

Ключевые слова: *«Красная книга Узбекистана», Зарафшанский национальный природный парк, Дормон, Орагли, экосистема, заповедники, национальные природные парки.*

MEASURES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF ZARAFSHAN NATIONAL PARK

Bakhtiyarova D., Kholmanov E.B.
Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan
e-mail: dilfuza.bakhtiyorova1992@mail.ru

Abstract: *The issue of sustainable development of nature, which is relevant nowadays, is equally important for small areas. This article presents the current ecological situation of the Zarafshan National Nature Park under special protection, geoecological problems, the changes taking place in this park as a result of increasing anthropogenic influences, and the opinions aimed at their solution. Information about the measures taken to preserve the ecosystem in its natural state and promising proposals for solving the problem were given.*

Key words: *"Red Book of Uzbekistan", Zarafshan National Nature Park, Dormon, Oragli, ecosystem, nature reserves, national nature parks.*

Bizga ma’lumki, alohida muhofaza qilinadigan obyektlar - tabiatni muhofaza qilishda ayrim hududlardagi tabiiy majmua landshaft o’z holicha maxsus rejim bilan qo’riqlashni talab qiladi. Bu kabi maxsus rejim asosida qo’riqlanadigan hududlar xo’jalik o’zlashtirishdan bevosita ajratib olinib qo’riqlanadigan tabiiy obyektlar hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish, landshaftlarning bir butunligi, tabiiy komponentlar – o’simlik va hayvonot dunyosi, suv, havo hamda tabiiy yodgorliklar, barcha zahiralarning o’zaro muvozanatini muhofaza qilishga qaratilgan bo’ladi [1]. Landshaftlarni muhofaza qilishning shakllari juda ko’p. Xususan,

qo’riqxonalar, buyurtmalar, rezervatlar, milliy tabiat bog’lari va shu kabi bir qancha ko’rinishda bo’ladi. Milliy bog’lar - tabiatni muhofaza qilishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. “Milliy” so’zi muhofaza qilinadigan mazkur obyektlarning xususiy mulk emas, balki butun millatga qarashli ekanini anglatadi hamda muhofaza tadbirlari davlat tomonidan amalga oshiriladi. Milliy tabiat bog’larida antropogen ta’sirilar natijasida kam o’zgargan o’simlik va hayvonot dunyosi boy bo’lgan tabiiy xushmanzara landshaft (akvatoriya)lar muhofaza qilinadi. Shuningdek, milliy tabiat bog’larida tabiatni muhofaza qilish aholining dam olishini tashkil qilish va ommaviy turizm bilan birgalikda olib boriladi [3]. Milliy bog’larni tashkil qilishning muhim jihatlaridan biri – bog’ hududida tabiatga zarar keltirmasdan bir vaqtda qancha dam oluvchilar, sayyohlar bo’lishi mumkinligini hisobga olishdan iboratdir.

Samarqand viloyati Jomboy tumanidagi Zarafshon milliy tabiat bog’i ham o’zining betakror to’qay landshafti, noyob hayvonot va o’simlik olami bilan barchani o’ziga jalb qiladi. Ammo so’nggi bir necha o’n yillar davomida antropogen omillar natijasida Zarafshon milliy tabiat bog’ining turg’un tabiiy holati ham o’zgarishlarga yuz tutgani yaqqol namoyon bo’lmoqda. Bu esa o’z o’rnida Zarafshon daryosining o’ng qirg’ogi bo’ylab saqlanib qolgan to’qayzorning so’nggi qismi bo’lmish ushbu bog’ hududida samarali chora-tadbirlar qo’llashni hamda barqaror holda saqlash ustida jiddiy bosh qotirishni taqozo qilmoqda.

Hozirgi kunda ushbu milliy bog’da 300 ga yaqin o‘simlik turlari o‘sadi, bu o’simliklardan 10 ga yaqin turi “O’zbekiston Qizil kitobi”ga kiritilgan. Ushbu hududda baliqlarning 18 turi, suvda va quruqlikda yashovchi jonzotlarning 2 turi, sudralib yuruvchilarning esa 10 turi hamda qushlarning 218 turi shuningdek sut emizuvchilarning 26 turi mavjud. Bu hayvonlarning ham 10 ga yaqin turlari “Qizil kitob”ga kiritilgan.

Ushbu hududda yashovchi Buxoro bug‘usi Markaziy Osiyo uchun endemik tur hisoblanib, u faqat Markaziy Osiyoda yashaydi va boshqa hech qayerda uchramaydi. Hozirgi kunda Zarafshon milliy tabiat bog‘idagi ochiq muhitda yuzdan ziyod Buxoro bug‘ulari yashamoqda. O‘ralgan joyda (valerada) ularning 30 dan ortig‘i alohida parvarish qilinmoqda. 1975 - yilda qo‘riqxona sifatida tashkil etilib, 2018-yilda Zarafshon milliy tabiat bog‘iga aylantirilgan ushbu hudud bugungi davrga - yashil taraqqiyotning yangi talablariga moslashish va yanada takomillashish bosqichida turibdi [2]. Bog‘ hududining suv bilan ta’minlanishi Zarafshon daryosining suv sathiga bog‘liq. Daryoda suv qancha to‘lib oqsa, Milliy bog‘ning o’simlik va hayvonot dunyosiga ijobiy ta’sir etadi. Daryo sathi qancha yaqin bo‘lsa, yer osti suvi ko‘tarilib dov-daraxt va o‘simlik dunyosining yaxshi rivojlanishiga juda katta ta’siri bor.

Zarafshon daryosi sathi oxirgi 20-30 yilda 6-8 metrgacha tushib ketgan. Buning asosiy sabablaridan biri daryodan juda katta miqdorda qum-shag‘alning qazib olinishidir. Bundan tashqari iqlim o‘zgarishi, tabiiy boyliklar va suv resurslarining tobora taqchil bo‘lib borayotgani ham barqaror rivojlanishga kuchli salbiy ta’sir etmoqda. Milliy bog‘da hayvonot va nabotot olamini asrab, to‘qayzorlarni saqlab qolish uchun Zarafshon daryosining o‘rta qismida, Milliy bog‘ning birinchi bo‘lim daryo qismida to‘g‘on qurishga ehtiyoj bor. Ekologiya va atrof-muhitni asrashda suv taqchilligining oldini olish bundan buyon ham dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

O‘z o‘rnida bu kabi vazifalarni bajarishda bir qancha jihatlarga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, birinchi navbatda bog‘ hududidagi tabiiy resurslardan qonun doirasida oqilona foydalanish hamda o‘zboshimchalik bilan noqonuniy tasarruf qilishga yo‘l qo‘ymaslikka to‘xtalib o‘tish o‘rinlidir. Milliy tabiat bog‘ida fuqarolarning katta yer hududlaridan, Beshkapa, Do‘rmon, O‘roqli qishloqlarida yashovchi ayrim aholining Milliy tabiat bog‘iga qarashli ichki buloq suvlaridan o‘zboshimchalik bilan foydalanib kelishini tartibga solishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Bu holat alohida muhofazaga olingan tabiiy hududlarga oid qonun hujjatlariga zid hisoblanadi. Beshkapa, Do‘rmon, O‘roqli, Yer teshar, Qarapchi, Ashirto’p, Mo‘g‘ol, Beshkal, qishloqlarida istiqomat qiluvchi mahalliy aholi tabiat bog‘i balansidagi yer maydonlariga bir necha o‘n yillar maboynida chorva mollarini boqib, daraxtlarni kesib, ehtiyotsizlik oqibatida yong‘in chiqarish holatlari kuzatilmoqda. Yuqoridagi qishloqlarning yuzdan ortiq fuqarolari ko‘p yillar mobaynida Milliy bog‘ hududini o‘zlarining shaxsiy tomorqa yer maydoniga aylantirib olishganining guvohi bo’lishimiz mumkin. Xalqaro konvensiyaga muvofiq, “Qizil kitob”ga kiritilgan Buxoro xonguli, bug‘ularining turlarini, zotini yangilash maqsadida qo‘shni Tojikiston Respublikasining Panjikent tumani chegarasida hayvonlar migratsiyasi uchun koridorlar ochib qo‘yilgan, lekin yuqorida aytilganidek, antropogen omillar ta’sirida aholi tomonidan bunga imkon berilmay kelinmoqda. Bunday ekologik muammolarning oldini olish uchun bir nechta takliflarni aytib o‘tish o‘rinlidir.

Jumladan, Milliy bog‘ yerlaridan yoki hududning buloq suvlaridan noqonuniy foydalanishga oid masalani yechishga doir ikki xil yo’lni taklif qilishni o’rinli deb hisoblaymiz.

Birinchi yo‘li - ishchi guruh tuzilib, respublika, viloyat, tuman kadastr mutaxassislari yordamida chegaralarni yana bir bor aniqlab, belgilab olish maqsadga muvofiq bo’lardi. Natijada mahalliy aholi milliy bog’ hududidan xo’jalik faoliyatida noqonuniy foydalanishni cheklashga erishish mumkin. Shuningdek, milliy bog‘ hududining aholi yashash punktlari bilan chegaralarni simli to’siq yordamida o‘rab chiqishga zarurat bor. To‘siqning har 500 metriga kuzatuv minorasi o‘rnatish hamda hududga nazorat kameralari qo‘yilishi kutilgan samarani berishi mumkin degan fikrdamiz.

Ushbu o’rnatilgan kuzatuv kameralari orqali olingan tasvirlarni doimiy ravishda ko’zdan kechirib borish va bog’ hududida fuqarolarning nojo’ya hatti – harakatlari sodir bo’lgan taqdirda bunga tegishli choralar ko’rish maqsadga muvofiq bo’lardi.

Zarafshon milliy tabiat bog’i moliyaviy jihatdan davlat tasarrufidagi tashkilot hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlab o’tilgan masalaning ikkinchi yo‘li sifatida, Respublikamizda eksperiment tariqasida ushbu milliy tabiat bog‘ini davlat byudjeti hisobidan, qaram tashkilot holatidan chiqarib, o‘zini-o‘zi moliyalashtiradigan tizimga aylantirishdir. Bunda yer ijarachilari hamda ekoturizmdan tushadigan mablag‘lar hisobidan tashkilotning moddiy-texnik bazasi rivojlantirib boriladi. Dehqonchilik maqsadida fuqarolar foydalanib kelayotgan milliy bog‘ yerlari mutasaddi tashkilotlarning qonuniy ruxsati bilan, shaffof auksion asosida ma’lum bir muddatga ijaraga beriladigan bo‘lsa, bu masala ancha tartibga solingan bo‘lardi.

Milliy bog’ hududiga qarashli yerlar aholiga manzarali va ko‘p yillik ihota daraxtzorlari barpo etish, mahalliy ekoturizmni tashkil qilish uchun berilsa, ham ekologiya uchun, ham iqtisodiy tarafdan samaraga erishish mumkin bo’lardi. Ushbu chora tadbirlar orqali keladigan mablag‘larni bog‘ ishchi-xodimlarining oylik maoshlari va bog‘ning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga qonuniy yo‘naltirish mumkin maqsadga muvofiq bo’lardi. Milliy tabiat bog‘i hududida o’ziga xos noyob jonzotlar, “O’zbekiston Qizil kitobi”ga kiritilgan turlar talaygina, bu esa ushbu bog’ga tashrif buyurgan sayohatchilarni befarq qoldirmasligi tayin. Ushbu noyob turlarni ko‘rish uchun bog‘ hududiga kiradigan sayyohlardan keladigan mablag‘larni to‘g‘ri yo‘naltirib, hayvonlar soni va turlarini ko‘paytirish, bog‘ hududida 5-10 kishini olib yurishga mo’ljallangan sayyohlarga xizmat ko’rsatuvchi elektromobillar sotib olish imkoniyatlari mavjud.

Bizga ma’lumki, yurtboshimizning “Suv havzalarida noruda materiallarni qazib olishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan 2024-yil 1-maydan boshlab Zarafshon daryosi o‘zanida ham noruda materiallarni qazib olishga muddatsiz moratoriy joriy qilingan. Biroq, shunga qaramasdan daryoning ayrim hududlaridan shag‘al qazib olish ishlari haligacha davom etayotganining guvohi bo’lishimiz mumkin. Zarafshon daryosining sathi oxirgi yigirma yil ichida 7-8 metrgacha pasayib ketgan [4]. Bog‘ hududidagi

“Qizil kitob”ga kiritilgan o‘simliklarning ayni vegitatsiya davrida yer osti suvlarining tushib ketishi oqibatida yildan yilga qurib qolish holatlari kuzatilmoqda. Daryo sathi yana atropogen omillar ta’sirida 10 metrga tushsa, Zarafshon milliy tabiat bog‘i ekotizimi butunlay yomon ahvolda qolishi, ya’ni, ayrim o’simlik va hayvon turlari yo‘qolib ketishi hech gap emas.

Bu ketishda Milliy tabiat bog‘ining o‘simlik va hayvonot dunyosi yildan yilga antropogen omillar ta’sirida yo‘qolib ketish xavfi tomon boraveradi. Biz bu muammoga mutasaddi vazirlik va idoralar, shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari e’tibor qaratishlariga, zarur choralar ko‘rilishiga umid qilib qolamiz. Aks holda vaziyat kundan kun og‘irlashib boraveradi. Muammoning ko’lami kengayishda davom etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдулқосимов А.А. Ўрта Осиёнинг тўқай ландшафтлари ва уларнинг хусусиятлари. «Ўзбекистоннинг ноёб ландшафтлари», илмий тўплам. Самарқанд, 1993 й.
2. Алибеков Л. А., Нишонов С. А. «Табиатни мухофаза килиш ва табиий ресурслардан рационал фойдаланиш» укув кулланма Тошкент «Укитувчи»-1982 [269 bet]
3. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Talabalar uchun darslik. Toshkent “yangi asr avlodi” 2005y.
4. Xolmanov E. Zarafshon milliy tabiat bog’i jiddiy ekologik islohotlarga muhtoj. “Oila va tabiat”. Ijtimoiy-siyosiy, ekologik gazeta, Toshkent. 30.05.2024

KITOB-SHAHRISABZ BOTIG‘I TABIIY SHAROITNING REKREATSION-TURISTIK MAQSADLARIDA FOYDALANISHNI TADQIQ ETISH XUSUSIYATLARI

Usmanova R.[1], Xushmurodov F.M.[1], Narzullayev H.[1], Boymurodova X.[2]

[1]Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

[2]Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya: *maqolada Kitob-Shaxrisabz botig‘i tabiiy sharoitinig tabiiy resurslaridan foydalanib agroturizmni tashkil yetishning geografik xususiyatlari haqida bayon etilgan. Kitob-Shaxrisabz botig‘ida agroturizmni tashkil yetishda tog‘ turizmi, yekoturizm va turizmning boshqa turlarini o‘rni, ularni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Kitob-Shaxrisabz botig‘ining agroturistik marshrutlarini tashkil etishning geografik jihatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlari: *agroturizm, ziyorat turizmi, tog‘ turizmi, ekoturizm, fermerlik, gastronomik, qo‘riqxona, kenglik stansiyasi, dinozavr izlari.*

ОСОБЕННОСТЬ ИССЛЕДОВАНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ УСЛОВИЙ В РЕКРЕАЦИОННО-ТУРИСТИЧЕСКИХ ЦЕЛЯХ КИТАБ-ШАХРИСАБЗА

Усманова Р.[1], Хушмуродов Ф.М.[1], Нарзуллаев Х.[1], Боймуродова Х.[2]

[1]Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан

[2]Самаркандский государственный университет, Самарканд, Узбекистан

Аннотация: *в статье описаны географические особенности организации агротуризма с использованием природных ресурсов Китаб-Шахрисабзского болота. Освещена роль горного туризма, экотуризма и других видов туризма в организации агротуризма в Китаб-Шахрисабзском бассейне, вопросы их развития. Раскрыты географические аспекты организации агротуристских маршрутов болота Китаб-Шахрисабз.*

Ключевые слова: *агротуризм, паломнический туризм, горный туризм, экотуризм, земледелие, гастрономия, заповедник, широтная станция, следы динозавров.*

CHARACTERISTICS OF RESEARCHING THE USE OF NATURAL CONDITIONS FOR RECREATION-TOURISTIC PURPOSES OF KITAB-SHAHRISABZ

Usmanova R.[1], Khushmurodov F.M.[1], Narzullayev H.[1], Boymurodova Kh.[2]
[1]Karshi State University, Karshi, Uzbekistan
[2]Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan

Abstract: *the article describes the geographical features of organizing agrotourism using the natural resources of the Kitab-Shakhrisabz bog. The role of mountain tourism, ecotourism and other types of tourism in the organization of agrotourism in the Kitab-Shakhrisabz basin, and issues of their development are highlighted. Geographical aspects of the organization of agro-tourist routes of the Kitab-Shakhrisabz bog are revealed.*

Key words: *agrotourism, pilgrimage tourism, mountain tourism, ecotourism, farming, gastronomic, nature reserve, latitude station, dinosaur tracks.*

Turizm mamlakatimiz iqtisodiyotida keng ko‘lamga ega bo‘lib, insonlar hayotini yaxshilashda muhim o‘rin tutadi. Turizmning holati, uning rivojlanish istiqbollari ushbu sohaga jalb qilingan turistik resurslardan samarali foydalanishga bog‘liq. Mamlakat qanchalik turli-tuman turistik resurslariga boy bo‘lsa, turizmni rivojlantirish shuncha oson kechadi. Ushbu soha mamlakat iqtisodiyotida salmoqli o‘rinni egallab, yangi istiqbolli xizmat turlarining shakllanishiga ham sabab bo‘lmoqda. Turizmning ma’naviy, ruhiy va intellektual ahamiyati katta ekanligidan, so‘nggi yillarda mamlakatimiz qishloq joylari agroturizm yo‘nalishlarini tashkil etish va rivojlantirish yuzasidan keng islohotlar olib borilmoqda.

Tabiiy sharoiti turlicha bo‘lgan, bir vaqtda to‘rtta faslni o‘zida namoyon etadigan betakror tabiatga ega Kitob-Shaxrisabz botig‘ida turizmning barcha turlari qatori agroturizm xususiyatlarini va ularning imkoniyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Kitob-Shaxrisabz botig‘ida agroturizm resurslari va obyektlariga tavsif berish va turistik marshrutlarni tashkil etish tadqiqotning maqsadidan iborat. Kitob-Shaxrisabz botig‘ida turizm va rekreatsiya imkoniyatlaridan maksimal foydalanish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Turizmning rivojlanish davrining boshlanishida, dunyo bo‘yicha turistlar soni 2,5 mln kishini (1950) tashkil etgan bo‘lsa, Jahon turistik tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra 2016 yilda, dunyo bo‘yicha turistlar soni 187 mln dan oshgan va turizmdan keladigan daromad 1,4 trillion AQSH dollarini tashkil qilgan. Bundan ko‘rinadiki, Jahon turistik tashkiloti ma’lumoti bo‘yicha 2020 yilda xalqaro turistlar soni 1,36 mlrdga, 2030 yilda esa 1,8 mlrd kishini tashkil etishi kutilmoqda.

Tadqiqot obyekti Kitob-Shahrisabz botig‘i va uni shimolda, shimoli-sharqda va janubi-sharqda o‘rab turgan tog‘lar tashkil etadi. Absolyut balandligiga ko‘ra past, o‘rtacha balandlikdagi va baland tog‘lardan iborat bo‘lgan Qoratepa, Chaqilkalon, Sumsar, SHertog‘, Tagimatmon, Hazrati Sulton, Osmantarosh, Beshnov va Chaqchar tog‘lari kiradi. G‘arbda Kitob-Shahrisabz botig‘i sharqdan g‘arbga tomon qiyalashib borgan holda Qarshi cho‘li bilan tutashadi, ammo bu tabiiy-geografik regionlar orasidagi chegara relyefda yaqqol ifodalanmagan. Kitob-Shahrisabz botig‘i va uning atrofidagi hududlar uchun murakkab landshaft tuzilmasi xarakterlidir. Kitob-Shahrisabz botig‘ida landshaftlarning kontrastlik xususiyatlari hamda nisbatan uncha katta bo‘lmagan maydonda ham gorizontal, ham balandlik zonallik o‘z ifodasini topadi. Hududda landshaftlarning turli zonal tiplari tarqalgan bo‘lib, turistik rekreatsiya turlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz qishloq joylarida agro, yashil, etno, eko, fermerlik, gastronomik, dala hovli turizmi yo‘nalishlarini tashkil etish va rivojlantirish, turizm va uning (eko, agro, tarixiy, diniy, ekstremal) tarmoqlarida xizmat turlarini shakllantirish, hududlarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda turizmni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Kitob-Shaxrisabz botig‘i

qadimiy me’moriy yodgorliklar va madaniyat durdonalari, hamda takrorlanmas tabiati bilan dunyo sayyohlarini o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

Agroturizm - tabiatda tinch va osoyishta dam olish bilan birga qishloq sayohati, ya’ni qishloqda mehnat qilish bilan birga dam olishdir. Rivojlangan mamlakatlarda agroturizmning turli xil ko‘rinishlari shakllangan bo‘lib, uning tashkil etilishi ekoturizm, sport turizmi, madaniy turizm kabi turizm turlari bilan amalga oshirilmoqda. Agroturizm Yevropada taxminan 200 yillik tarixga ega. Agroturizm assotsiatsiyasi ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida faol rivojlanib ulgirdi. Ayniqsa, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Polsha, Norvegiya, Belorussiya kabi mamlakatlarda agroturizmning o‘ziga xos rivojlanish yo‘nalishlari tashkil etilgan. Masalan, Fransiyada agrosanoat turistlarining birinchi assotsiatsiyasi tashkil etilgan bo‘lsa, Italiyada esa qishloq xo‘jaligi va sayyohlik milliy assotsiatsiyasi “Agriturist” nomi ostida paydo bo‘lgan.

Agroturizmning faol rivojlanishida tabiat qo‘ynida dam olish va tabiiy oziq-ovqatlardan bahramand bo‘lish katta rol o‘ynadi. Iqtisodiyot sohasida agroturizm qo‘shimcha daromad olish imkoniyati sifatida shakllanib, agroturistlarga barcha zarur qulayliklar (internet, ba’zida televizor, telefon kabi zamonaviy qurilmalardan foydalanish va b.) yaratib beriladi.

Agroturizm-qishloq joylardagi tabiiy-madaniy va mahalliy resurslaridan foydalangan holda uyushtiriladigan sayohat turi hisoblanadi [2; 159 b.]. Kitob-Shaxrisabz botig‘i qishloq joylari o‘zining go‘zal va betakror tabiati, noyob arxitektura yodgorliklari, muqaddas qadamjolari, milliy urf-odatlari hamda o‘ziga xos an’analariga ega. Mazkur omillar xorijiy mamlakatlar aholisini o‘ziga jalb etgan holda mamlakat turizm industriyasini rivojlantirish imkonini beradi.

Bugungi kunda agroturizmda yangi agroturistik yo‘nalishlarni tashkil etishni taqozo etmoqda. Sayyohlarga qishloq hayotining sukunati, ochiq havoda sayr qilish, dala ishlari, sabzavotlar, rezavorlar, tabiiy ko‘katlar yig‘ish, tabiiy suv havzalarida suzish, uy hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish, yangi sut va go‘sht iste’mol qilish, xalq sayillari va o‘yin-kulgilarida ishtirok etish, Kitob-Shaxrisabz botig‘i agroturizmni tashkil etish va rivojlantirish uchun Kitob, Shahrisabz, Yakkabog‘, Qamashi tumanlarida minglab gektar maydonlarda intensiv bog‘lar va klasterlar tashkil etildi. Hududlarda yetishtirilayotgan mevalarni qayta ishlaydigan korxonalar va saqlash imkoniyatiga ega bo‘lgan muzlatgichlar hamda quritish qurilmalari tashkil etilgan. Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida “Varganza” agrosanoat firmasi negizida agroturizm kompleksini tashkil etish va unda anorzorlar va uzumzorlar ko‘pligi agroturizmda turistlarni bu bog‘larga sayr hamda mahsulot tayyorlash jarayoni bilan tanishish kabi turlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday komplekslarni tashkil etish imkoniyati Kitob-Shaxrisabz botig‘iga qo‘shni bo‘lgan G‘uzor, Chiroqchi, Nishon kabi tumanlaridan ham yuqori hisoblanadi. Kitob – Shahrisabz botig‘i agrosanoatida dorivor giyohlar terish, yong‘oq, do‘lana, pista kabi mevalar, asalarichilik, ipak qurtini boqish va boshqa yo‘nalishlar keng shakllangan. Bundan tashqari Kitob – Shahrisabz botig‘ida xalqaro ahamiyatdagi milliy hunarmandchilik markazining va mahalliy ahamiyatdagi diniy turizm obyektlari, arxeologik va arxitektura yodgorliklarining mavjudligi bu yerda sayyohlikning bir necha turlarini birgalikda va samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Kitob-Shaxrisabz botig‘i tumanlarida turizm qishloqlari va turizmning bir qancha yo‘nalishlarini rivojlantirsh (ekoturizm, agroturizm, ziyorat turizmi, gastronomik turizm, etnoturizm) imkoniyatlari mavjud. Ammo, bugungi kunda bunday imkoniyatdan to‘la va samarali foydalanishga erishish uchun qishloq joylar turizm omillarini tadqiq etish va shu joylarda agroturistlarga xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish lozim. Vaholanki, Kitob-Shaxrisabz botig‘i tumanlarining qishloq joylarida diniy, milliy, tarixiy, madaniy, tabiiy, ekologik xarakterga ega bo‘lgan turizm yo‘nalishlarini rivojlantirishning katta zahiralari mavjud. Jumladan, Kitob-Shaxrisabz botig‘i qishloq joylarida baxshichilik, uloq o‘yinlari,

o‘zbek folklor qo‘shiqchilik san’ati, to‘y-ma’rakalar bu joylarda etnoturizmni rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Kitob-Shaxrisabz botig‘iga kelgan turistlar agroturizm yo‘nalishida turli agrolandshaftlarni, intensiv bog‘larni, turli ekin maydonlarini ko‘rish, oromgohlar, oshxona va choyxonalar, savdo rastalari, diniy, tarixiy, yozgi va qishki sport turlari o‘tkazish mumkin bo‘lgan joylar bilan tanishishadi.

Kitob- Shahrisabz botig‘ida hunarmandchilik turlari, asosan kashtachilik bilan dunyoga mashhur. Bu yerda hunarmandchilik turlari qo‘l ishi va tabiiy bo‘yoqlar asosida shakllantirilgan bo‘lib, Kitob, Shahrisabz tumanlarida kashtachilik, to‘quvchilik (har xil turdagi sumkalar, joypo‘shlar, milliy kiyimlar va b.), Chiroqchi va Dehqonobod tumanlarida jundan to‘qiladigan va charmdan o‘ziga xos uslubda (gilamlar, uy jihozlari va ot uchun anjomlar va b.) tayyorlangan buyumlari bilan sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Sayyohlar ularni tayyorlanish jarayonida ishtirok etishlari mumkin. Shuningdek, bu yerda mehmondo‘stlik an’analari ham qishloq joylar aholisining betakror udumlaridan biridir. Masalan, Chiroqchi, Qamashi, Kitob, Shahrisabz, G‘uzor, Dehqonobod tumanlari qishloqlari milliy choyxonalari har doim ham sayyohlarni o‘ziga jalb qilib kelgan. Masalan, tandir go‘shti, qo‘y va tuya sutidan tayyorlanadigan mahsulotlarning tayyorlanish jarayonlarida ishtirok etish hamda tatib ko‘rish barcha uchun qiziqdir. Zero, Qashqadaryo viloyati qishloq joylari o‘ziga xos gastronomik turizmning asosiy obyekti sifatida nafaqat O‘zbekistonga balki dunyoga mashhurdir.

Agroturistlar uchun qo‘shimcha ravishda ushbu hududda mavjud ziyorat turizmini rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar bo‘ylab turlar uyushtirish mumkin. Shahrisabzda «Oq saroy» majmuasi (XIV asr), «Dorusaodat» va «Dorutilovat» majmualari (XIV asr), Kitob tumanida «Hazrati Beshir» maqbarasi, «Xo‘ja Imkon» maqbarasi kabi ziyorat turizmi obyektlari dunyo ahamiyatiga molik obyektlardir. Kitob- Shahrisabz botig‘ida bo‘lgan turistlarni Qashqadaryo viloyatining tekislik qismida ham ko‘plab asori atiqalar bilan tanishish imkoni mavjud. Ms: Kasbi tumanida «Sulton Mir Xaydar» maqbarasi (XII asr), «Sardoba» suv saqlash inshooti (XVI asr), G‘uzor tumanida «Toxir va Zuxra» majmuasi, Koson tumanida «Hazrati Kusam ota» maqbarasi (X asr), «Yerqo‘rg‘on» shaharchasi qoldiqlari (eramizdan avvalgi IX asr), Qarshi shahrida «Ko‘k gumbaz» masjidi (XVI asr), «Xo‘ja Jarroh» maqbarasi (XIV asr), Qashqadaryo ko‘prigi (XVI asr), o‘rta asrlar xammomi (XVI asr) va boshqalarni misol keltirish mumkin. Ayniqsa, 12-18 asrlarga oid tarixiy yodgorliklar, eramizdan oldingi 9-8 asrlarda mavjud bo‘lgan «Yerqo‘rg‘on» shaharchasi qoldiqlari va sharq bozorlari kabi tarixiy hamda me’moriy obidalari mavjud bo‘lib, o‘tgan yillar davomida ularning aksariyati qayta ta’mirlangan va hozirgi kunda chet el va mahalliy turistlarni o‘ziga jalb qiluvchi obyektlardandir [3;179 b., 4; S.69-71].

Kitob tumanida joylashgan Mirzo Ulug‘bek nomidagi Kitob Kenglik stansiyasi va boshqa ko‘plab tarixiy joylar kabi sayohatchilarni qirziqtiradi. Qashqadaryoning tog‘li qismida Yakkabog‘ tog‘larida, Toshqo‘rg‘on qishlog‘idan 3,5 km janubda noyob paleontologik topilma yura davrida, taxminan 140-150 mln yil ilgari yashagan qadimgi bahaybat kaltakesaklar — dinozavrlarning aniq panja izlari tushgan uchastkalar mavjud. Kitob geologik qo‘riqxonasining yura davriga taalluqli qazilma baliqlar va hasharotlarning ko‘plab izlari yumshoq qatlamli yotqiziqlar orasidan topilgan [3;179 b., 4; 69-71 b.]. Bu hududlarda sayohatchilar uchun qadimgi eralarga sayohat qilish imkoni bor. Viloyatning tog‘li qismida alpnizmga mos kompleks turistik obyektlar bilan tanishish mumkin.

Qashqadaryo viloyati tumanlarida turizmning eko, shop va ekstremal turlarini rivojlantirish istiqbollari katta. Agrar sohani noan’anaviy turlarini rivojlantirish, tashrif buyurgan turistlarga asalarichilik, ipak qurti boqish, mevali bog‘lar, poliz mahsulotlari va boshqa hududning o‘ziga xos qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va ulardan oziq-ovqat turlarini tayyorlanish jarayonlari haqidagi malumotlarni taqdim etishni amalga oshirish zarur. Shuningdek, tumanlaridagi qadimiy tarixiy obidalar, ziyoratgohlarni qayta ta’mirlash,

tarixiy va diniy turizmni rivojlantirish, sog‘liqni qayta tiklash, noyob o‘simlik va hayvonlarga ega bo‘lgan tog‘larda ekoturizmni rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shimcha daromad keltiruvchi ishlarni loyihalashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa o‘rnida, sayyohlar sonini oshirish maqsadida ovqatlanish va turar-joylardan tashqari, uy egalari folklor bilan tanishish, an’anaviy bayramlar, festivallarda ishtirok etishi uchun turistlarni taklif qilish zarur. Demak, qishloq turizmi shunchaki shahar atrofidagi hududga sayohat emas, balki boshqa mamlakatlarga borish, boshqa xalqlarning turmush tarzi bilan tanishish imkoniyatini beradi. Agroturizmni rivojlantirish qishloq joylarda quyidagi muammolarni hal qilish imkonini beradi: qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish, xizmat ko‘rsatish sohalari va transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali qishloq joylar hayot darajasini oshirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun qo‘shimcha bozor yaratish va boshqalar. Bu borada eng yuqori turizm salohiyatiga ega bo‘lgan qishloq joylarda “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i”, “Turizm ovuli” tashkil etilishi belgilab qo‘yildi. Binobarin, qishloq joylarning turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida mamlakatda mahalliy va xalqaro turizmni rivojlantirish mumkin. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda ta’kidlash kerakki, Qashqadaryo viloyatida agro va ekoturistik imkoniyatlardan keng foydalanish bilan birga aholini dam olish va salomatligini tiklashlarini e’tiborga olib, hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони
2. Махмудов М., Маҳкамов Э., Қодирова Х. Агротуризм – ҳудудни ривожлантиришнинг муҳим омил сифатида./ «Олий таълим тизимида табиий фанлар: илмий тадқиқот, ўқитиш ва малака ошириш муаммолари» мавзусидаги республика илмий-амалий конф. мат. Фарғона-2018 159-160 б.
3. Усманова Р. Рекреацион география . Монография Қарши. 2015. 179 б.
4. Усманова Р. Роль природных факторов в развитии рекреации в бассейне реки Кашкадарьи Материалы международного научного-теор. конф. «Туризм и экономика», посвященной Году поддержки и развития туризм в Кыргызстане. Ош-2001.С. 69-71

TURISTIK- REKREATSIYA RESURSLARI TURLARI VA ULARNI TASNIFLASHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

Usmanova R.[1], Ashurov F.[2]
[1]Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston, e-mail: roxatu @bk.ru
[2]Qarshi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tabiiy turistik-rekreatsiya resurslari inson dam olishi uchun zarur bo`lgan barcha tabiiy, texnik, ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa omillar turlari: iqlimiy, gidromineral, gidrografik, orografik, floristik, mineral resurslar va boshqa resurs turlari haqida bayon etilgan. Shuningdek rekreatsiya va turistik resurslar tasnifi bo‘yicha yondashuvlar madaniy-tarixiy resurslar, madaniy-tarixiy meros, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy va etnografik resurslarning rekreatsiya va turizmdagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *tabiiy, texnik, ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy gidrom, fitom, litom, antropom, madaniy-tarixiy meros, etnografik, ekskursiyali, infratuzilma, turistik resurs.*

ТИПЫ ТУРИСТО-РЕКРЕАЦИОННЫХ РЕСУРСОВ И ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИХКЛАССИФИКАЦИЯ

Усманова Р.[1], Ашуров Ф.[2]
[1]Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан, e-mail: roxatu @bk.ru

[2]Каршинское высшее военное авиационное образовательное учреждение, Карши, Узбекистан

Аннотация: *Ushbu maqolada tabiiy turistik-rekreatsiya resurslari inson dam olishi uchun zarur bo`lgan barcha tabiiy, texnik, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa omillar turlari: iqlimiy, gidromineral, gidrografik, orografik, floristik, mineral resurslar va boshqa resurs turlari haqida bayon etilgan. Shuningdek rekreatsiya va turistik resurslar tasnifi bo'yicha yondashuvlar madaniy-tarixiy resurslar, madaniy-tarixiy meros, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy va etnografik resurslarning rekreatsiya va turizmdagi ahamiyati yoritilgan.*

Ключевые слова :*tabiiy, texnik, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy gidrom, fitom, litom, antropom, madaniy-tarixiy meros, etnografik, ekskursiyali, infratuzilma, turistik resurs.*

TYPES OF TOURIST-RECREATION RESOURCES AND GEOGRAFICAL ASPECTS AND CLASSIFICATION

Usmanova R.[1], Ashurov F.[2]

[1]Karshi State University, Karshi Uzbekistan, e-mail: roxatu @bk.ru

[2]Karshi Higher Military Aviation Educational Institution, Karshi, Uzbekistan

Abstract: *Ushbu maqolada tabiiy turistik-rekreatsiya resurslari inson dam olishi uchun zarur bo`lgan barcha tabiiy, texnik, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa omillar turlari: iqlimiy, gidromineral, gidrografik, orografik, floristik, mineral resurslar va boshqa resurs turlari haqida bayon etilgan. Shuningdek rekreatsiya va turistik resurslar tasnifi bo'yicha yondashuvlar madaniy-tarixiy resurslar, madaniy-tarixiy meros, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy va etnografik resurslarning rekreatsiya va turizmdagi ahamiyati yoritilgan.*

Key words**:** *tabiiy, texnik, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy gidrom, fitom, litom, antropom, madaniy-tarixiy meros, etnografik, ekskursiyali, infratuzilma, turistik resurs.*

Butunjahon turistik tashkilotining hisobotida turizmni barqaror rivojlantirishning 10 ta dasturi bayon etilgan bo'lib, unda «ekoturizmni rivojlantirish uchun iqlim o'zgarishi, chiqindilarni nazorat qilish, yerlardan barqaror foydalanish, bioxilma-xillikni va alohida muhofaza etiladigan hududlarni saqlash masalalariga alohida e'tibor berish»[3] lozimligi ta'kidlangan. Shuning uchun ham hududlarda rekreatsion faoliyatni samarali shakllantirish, unda yangi yondashuvlarni yaratish zaruriyati bilan belgilanadi. Bu holat ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim o`ringa ega bo'lishi bilan birga, insonlarni hayot faoliyatini yaxshilashda rekreatsion ehtiyojlarni ta`minlash uchun qulay sharoit yaratadi. Aholini dam olish sharoitlarini yaratish bugungi kunning eng asosiy muammosi deb hisoblanadi hamda ushbu muammoni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahon amaliyotida rekreatsiya va turizmni birgalikda rivojlantirishda tabiat yodgorliklari, alohida muhofaza etiladigan hududlar, ekotizimlarni muhofaza qilish, aholi va inson salomatligini tiklashda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, alohida hududlarning turistik va rekreatsion imkoniyatlarini baholash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish mexanizmini takomillashtirishning komplekslik imkoniyatlarini aniqlash hamda samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilishi bejiz emas.

Respublikamizda rekreatsiya va turizmning (eko, agro, tarixiy, diniy, ekstremal, shop) tarmoqlarida xizmat turlarini shakllantirish, hududlarning tabiiy resurs imkoniyatlarini hisobga olgan holda, rekreatsion obyektlar va turistik firmalar sonini ko'paytirish hamda ularning ixtisoslashuvi hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «turizm industriyasini jadal

[3]https://www.e-unwto.org. UNWTO Annual report. 2017

rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish» hamda «odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash»[4] yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, tabiiy sharoiti va geotizimlari turlicha bo'lgan Qashqadaryo viloyatida rekreatsiya va turistik resurslarni rivojlantirish, viloyatdagi rekreatsiya-turistik resurslarni baholash, umumiy rekreatsiya-turistik salohiyatni aniqlash turizmni asosiy yo'nalishlarini va dam olish turlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-son «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni, 2018 yil 6 fevraldagi PQ-3509-son «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu monografiya tadqiqot ishlariga muayyan darajada xizmat qiladi.

Rekreatsiya va turistik resurslar - geografik tadqiqotlarning muhim obyektlaridir. Bugungi kunda ekologik muammolarning keskinlashuvi, aholini dam olish va davolanish, sayohat qilishga hamda tabiiy sharoitlari ekologik toza bo`lgan hududlarga talabni oshishiga olib keldi. Aholini dam olish va sayohat qilish sharoitlari qulayligini ta`minlash bugungi kunning eng asosiy muammosi hisoblanadi hamda ushbu muammoni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqish lozim. Bunga bog`liq holda vujudga keladigan muammolarning yechimi Kitob-Shaxrisabz botig`ining rekreatsiya va turistik resurslaridan oqilona foydalanish bo`yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqish maqsadida rekreatsiya va turizmning ayrim turlarining shakllantiruvchi omillarning mavjudligi chuqur kompleks tahlilni taqoza etadi.

Geografiya fani rekreatsiya masalalari bilan keng miqyosda shug'ullanadi. Rekreatsiya geografiyasi tibbiyot, biologiya va geografiya fanlari tutashgan joyda vujudga kelgan ilmiy tarmoqdir. Landshaftlarni rekreatsiya va turizm maqsadlarida tadqiq etishda xorijiy olimlardan V.S.Preobrajenskiy (1974), N.S.Mironenko (1981), I.T.Tverdoxlebov (1981), Y.A.Vedenin (1975), V.I.Azar (1972), I.V.Zorin (1975), V.P.Burov (1973), YE.A.Kotlyarov (1978), P.G.Sarfis (1979), K.N. Musin (1999), D.V.Nikolayenko (2001), respublikamiz olimlaridan A.S.Soliyev, A.A.Rafiqov, Sh.Azimov, A.Qayumov, X.Vahobov, A.Yakubov, A.N.Nigmatov, R.Usmonova, M.R.Usmonov, N.T.Shamuratova Z.Mahamatillayev, M.Xoshimov, A.Zokirov, A.Yusupov, O.X.Hamidov, N.Tuxliyev, T.Abdullayeva, S.B.Abbasov, U.B.Badalov, J. Hasanov, X. Jumayev va boshqa olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Qashqadaryo viloyatida rekreatsiya va turizmning tashkil etuvchi resurslari tahlili, rekreatsiya va turizm sohasini rivojlantirish hamda ulardan foydalanish, hudud rekreatsiya-turistik resurslarini baholash, umumiy rekreatsiya-turistik salohiyatni aniqlash, ushbu sohaning faoliyat turlarini, dam olish va turizmni asosiy yo'nalishlarini *ishlab chiqish tadqiqot* maqsadini belgilab beradi.

Rekreatsiya resurslari murakkab tushuncha bo`lib, uni ta'riflashdan oldin tabiiy resurslar haqidagi ta'riflarni bilib olish lozim. Tabiiy resurslar ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishda asosiy omillardan hisoblanadi. Tabiiy resurslar tushunchasini ko'pchilik mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinigan. Masalan, akademik I.P.Gerasimov bilan professor D.L.Armandlar tabiiy resurslarga quyidagicha ta'rif berganlar: "Tabiiy resurslar

[4]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони

kishilar bevosita tabiatdan oladigan va ularning yashashlari uchun zarur bo‘lgan xilma-xil vositalardir”.

Rekreatsion geografiyani rivoglanishiga katta hissa qo’shgan olim A.A.Mins tabiiy resurslarni foydalanish shakllari va yo‘nalishlariga qarab, iqtisodiy jihatdan tasniflash zarurligi haqida fikr bildirgan [5; C. 118-131].

Rekreatsiya va turizmning rivojlanishini ta`minlash uchun uning har bir elementini, xususan, turistik resurslarning ham mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan ochib berishni talab qiladi. Rekreatsiya va turistik resurslarning ta`rifi xususida gap yuritadigan bo`lsak, hozirgi kunga qadar ushbu tushunchaga turlicha ta`rif berilgan. Bu borada Respublikamizda qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O`zbekiston Respublikasining «Turizm to`g`risida»gi qonunida turistik resurslar deb –«Tegishli hududning tabiiy-iqlim, sog`lomlashtirish, tarixiy-madaniy, ma`rifiy va ijtimoiy-madaniy obyektlari majmui»[5]ga aytilgan.

Rekreatsion geografiyada zarur bo`lgan tabiat resurslari haqida ham mutaxassislar ko’pgina fikrlarni bayon qilishgan. L.A.Bagrova va boshq. (1977) ning fikricha, «Rekreatsiya resurslari - bu tabiiy, tabiiy - texnik va ijtimoiy - iqtisodiy geotizimlar va ularning elementlaridan iborat bo`lib, mavjud texnik va moddiy imkoniyatlar asosida rekreatsiya xo’jaligini tashkil qilish uchun foydalanish mumkin» [4; C. 5-12.]. Binobarin, rekreatsiya resursi inson dam olishi uchun zarur bo`lgan barcha tabiiy, texnik, ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa omillarni o`z ichiga oladi. Bular tarkibida eng muhimi tabiiy resurslar hisoblanadi. Har bir dam olish turiga ma`lum tabiiy resurs zarur bo`ladi, ba’zan ularning almashib kelishi yoki bir guruh resurslarga ehtiyoj tug’iladi. Shuning uchun ham tabiiy resurslarni hisobga olish rekreatsiya majmuasi va ayrim muassasa ixtisoslashuvini aniqlashga imkon beradi. [7;8;192 б]. Ushbu mualliflarning talqin qilishicha, rekreatsiya majmuasi va ayrim muassasalarni ixtisoslashuvi: 1) tabiiy resurslarga va 2) ijtimoiy - iqtisodiy xususiyatlarga bog‘liq, bular rekreatsiyaning samaradorligi va taraqqiyot yo’nalishini belgilaydi.

Tabiiy resurslarning turi juda xilma-xil bo‘lib, ular ijtimoiy ishlab chiqarish moddiy-texnika bazasining tarkibiy qismidir. Tabiiy resurslar kompleksi mineral resurslar, iqlim, suv, yer-tuproq, o‘simlik. hayvon resurslari, shuningdek, atom resurslari va planetar hamda kosmik resurslarni o‘z ichiga oladi. Tabiiy resurslar bir tomondan dam olishni tashkil qilishi, boshqa tomondan esa cheklashi ham mumkin. Ijtimoiy - iqtisodiy xususiyatlar aholining dam olishga bo`lgan extiyojini qondirish, qurilish va hududdagi obyektlarni rekonstruksiya qilish tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini qayd qiladi. Y. A. Vedenin va boshq. (1990)ning asoslashicha, har qanday statsionar dam olish obyektida ikki guruhdagi rekreatsiya resurslari mavjud bo`ladi. Birinchi guruhga iqlimiy, gidromineral, gidrografik (dengiz akvatoriyasi, ichki suv havzalari), orografik (tog‘li o’lka, oydim - chuqur joylar), floristik (o’rmonlar) va boshqa resurs turlari xos. Ikkinchi guruh rekreatsiya - xo‘jalik tuzilmasi bilan aniqlanadi. Unga energetik, suv, hududiy, mehnat resurslari, yani rekreatsiya faoliyati bilan bog‘liq bo`lmagan, lekin rekreatsiya korxonalari funksiyasi uchun zarur bo`lgan resurslar kiradi [9; 121-123 b.].

Respublikamizning tog‘ va tog‘oldi rayonlarida dam olishni samarali tashkil etishda foydalaniladigan yerlar xaritalashtirilib, tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo‘llari belgilanmoqda, tabiiy resurslardan foydalanish usullari ko‘rsatib berilmoqda. Rekreatsiya va turizm geografiyasining umumiy va xususiy jihatlarini bir qarashda yaxlit yoki alohida-alohida ko‘rish mumkin. Uning umumiy jihatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular geografiya fanining bir tarmog‘i sifatida, xususiy jihatlari esa har birini xududiy rekreatsion va turistik rayonlashtirish, hududiy tashkil etish va rivojlantirish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda

[5] Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги қонуни. // Халқ сўзи, 1999 йил 14 сентябрь.

tadqiq etiladi. Bunda hududiy rekreatsiya tizimlari (HRT) va hududiy turistik majmualar (HTM) nazariyasini yanada chuqurroq ilmiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi [10; 159 b.].

Rekreatsiya va turistik resurslar tasnifi bo‘yicha olimlar o‘rtasida bir qancha yondashuvlar mavjud. Ulardan polyak iqtisodchisi M.Truasi, fransuz iqtisodchisi P.Deferem (2006; 378 b.), rus iqtisodchisi T.T.Xristov (2007; 288b.) va A.D Chudnovskiylarningushbu muammoning yechimlariga alohida to‘xtalganlar. Bu borada mamlakatimiz olimlari ham o‘zlarining qarashlarini ifoda etganlar (2007; 416 b.).

1-jadval

M.Truasi bo‘yicha turistik resurslar tasnifi

№	Guruhlanishi	Hududiy qamrovi	Mazmuni
1.	Tabiiy	iqlim, havo, manzara, dengiz, ko‘l, daryolar, tog‘lar, o‘rmon va boshqalar kiradi.	Tabiiy-iqlimiy resurslar.
2.	Inson tomonidan yaratilgan turistik resurslar	arxitektura binolari, yodgorliklar, madaniy obyektlar va boshqalar.	Ekskursiya obyektlari.
3.	«Qo‘shimcha» turistik resurslar	inson mehnati tomonidan yaratilgan ma’lum mintaqadagi barcha turistlarni qabul qiluvchi va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar.	Xizmat ko‘rsatuvchi obyektlar.

Manba: R.Usmanova 2023.

Yuqorida qayd etilgan olimlardan M.Truasi turistik resurslarni uch guruhga bo‘lishni tavsiya qilgan: Tabiiy turistik resurslar, inson tomonidan yaratilgan turistik resurslar va «Qo‘shimcha» turistik resurslar. inson mehnati tomonidan yaratilgan ma’lum mintaqadagi barcha turistlarni qabul qiluvchi va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar hisoblanadi. Bu resurslar orqali turistlarga xizmat ko‘rsatish darajasini baholash mumkin bo‘ladi.

Rus olimi Xristov T.T (2007; 26 b.) turistik resurslarning 5 ta asosiy turlarini ajratgan. Ularga tabiiy-rekreatsiyali, ekskursiyali, iqtisodiy, infratuzilma va axborot beruvchi resurslarni kiritgan. Bu resurslarni o‘zi yana bir qancha guruhlarga bo‘lingan. Masalan, ekskursiyali resurslar quyidagi guruhlarga bo‘lingan: madaniy-tarixiy meros, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy va etnografik resurslar. Bu turistik resurslar tanishuv turizmida keng qo‘llaniladi. Bunda madaniy-tarixiy resurslar guruhiga yodgorliklar, turli tarixiy arxitektura obidalari kirsa, ijtimoiy resurslar guruhiga diniy bayram, marosimlar, insonlarning turli an’ana va rusumlari kiradi.

Fransuz iqtisodchisi P.Deferem bu masalaga boshqacharoq yondashadi va barcha turistik resurslarni 4 ta guruhga bo‘lishni tavsiya qiladi: gidrom, fitom, litom va antropom (2006; 378 b.).

2-jadval

P.Deferem bo‘yicha turistik resurslar tasnifi

№	Guruhlanishi	Mazmuni
1.	Gidrom	Suv bilan bog‘liq turistik resurslar kiradi. Bu guruh tarkibiga ko‘l, daryolar, dengiz bo‘yi, muzliklar, mineral suv manbalari, sharsharalar va boshqalar kiradi.
2.	Fitom	Tabiiy turistik resurslar, buning tarkibi ikki turda bo‘lishi mumkin: tabiiy ravishda yaratilgan (o‘rmon, tog‘lar, cho‘qqilar, vulqonlar, tabiiy manzaralar) va inson tomonidan yaratilgan (milliy bog‘lar, parklar).

3.	Litom	Inson tomonidan yaratilgan va o‘zi yoki belgilariga ko‘ra turistlar qiziqishini orttiradigan resurslar bo‘lib, uning tarkibiga arxitektura yodgorliklari, qadimgi insonlar yashash joylari, ochiq osmondagi muzeylar kiradi. Undan tashqari, litomlarga zamonaviy qurilmalar: ko‘priklar, aeroportlar, sport majmualari va boshqalarni kiritgan.
4.	Antropom	Turistik qiziqishni orttiradigan barcha inson faoliyati ko‘rinishlarini kiritish mumkin. Antronom elementlariga insonning o‘zi, uning hayoti, urf-odatlari, yo‘qolgan yoki yo‘qolish arafasida turgan, ya’ni milliy xalq bayramlari, folklor, milliy musiqa va kiyimlarni kiritish mumkin. Undan tashqari, antropomga sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalari, o‘quv dargohlari va ijtimoiy-maishiy obyektlarni ham kiritish mumkin.

Manba: R.Usmanova 2023

A.D Chudnovskiy turistik resurslarni tabiiy-hududiy turistik muassasalar asosida ularni tabiiy-quruqlik va tabiiy-suvlik resurslariga, ularni, o‘z navbatida, tabiiy (qo‘riqxona, daryo vodiylari va b.) tabiiy-antropogen (bog‘lar, milliy bog‘lar va b.) va noyob resurslarga bo‘lgan. Turistik resurslar turli turistik dasturlar va marshrutlar yaratishga asos hisoblanadi. Ana shu nuqtai nazardan sayohatchilar maqsadiga ko‘ra olim, resurslarni shartli ravishda 4 ta guruhga bo‘lishni taklif etgan: kurortli; rekreatsiyali; diniy – madaniy; axborot – ish yuzasidan.

V.S.Bogolyubov va V.P.Orlovskayalar turistik resurslarda alohida ajralib turuvchi quyidagi asosiy belgilarni ajratishgan: qulaylik; iqlimiy sharoit; o‘rganganlik darajasi; sayyohlik ahamiyati; manzara va ekologik xususiyati; ijtimoiy – demografik xususiyatlari; potensial zahirasi; foydalanish imkoniyati va boshqalar. Rekreatsiya faoliyati madaniy resurslarsiz ham mavjud bo`lishi mumkin, ammo tabiiy resurslarsiz o`z ma’nosini yo’qotadi (6; C.136).

Respublikamizda milliy turizmni rivojlantirish uning o’zigagina xos bo’lgan yorqin qirralarini jahonga ko’z-ko’z qilish va mamlakatimizda turistlar oqimini kuchytirishning muhim omili ustivor yo’nalishlardan biridir. Turistik resurslarni ilmiy tasniflash esa ularni ishlab chiqarishga tavsiya etish realizatsiya qilishga keng yo’l ochib beradi. Turistik resurslarni tashkil etuvchi ob’yektlar va ularning turlari ko’p. Ularni barchasini sanab chiqish va tvsiyalar berish imkoniyatimiz mavzu nuqtai-nazardan cheklantirilgandir. Shu boisdan biz e’tiborimizni ekoturistik turlari va ularning turlarini o’rganishga qaratamiz. Ammo faqatgina ekologikturizm turlarini tabiat mahsuli hisoblanishini nazarda tutadigan bo’lsak, ularni o’rganish doirasibiroz qisqargan holda tadqiq etish darajasi qniqlashadi.

Turistik resurslarning tasnifi bo‘yicha mamlakatimiz olimlari, jumladan, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, N.T.Tuxliyev, A.S.Soliyev M.R.Usmonov, B.To‘rayev va boshqalar o‘z asarlarida qisman to‘xtalishgan bo‘lib, ular asosan mamlakatimizning turistik salohiyatidan foydalanish masalalariga e’tibor qaratishgan. Tabiiy turistik resurslarning asosiy ahamiyati shundan iboratki, insonlarning jismoniy va ruhiy qobiliyatini tiklashda foydalanish vositalari bo‘lib xizmat qiladi.

Turistik faoliyatni tashkillashtirishda landshaftlar, iqlim, suv obyektlari, dengizlar, mineral suv va davolovchi botqoqlar asosiy resurs vazifasini bajaradi. Bu resurslar o‘zi yoki inson tomonidan qayta tiklanishi mumkin. Bu resurslarni geografik, biologik, geologik va boshqa jihatlarga ko‘ra baholash mumkin. Tabiiy resurslar sifatida alohida tabiat komponentlari yoki bir butun tabiat komplekslarini olish mumkin. Tabiiy resurslardan foydalanish darajasi mintaqa ixtisoslashuviga ko‘ra har xil bo‘lishi mumkin. Tabiiy turistik resurslar orasida asosiy o‘rinni rekreatsiya resurslari egallaydi, ular mamlakat aholisini, hamda xorijiy turistlarning dam olishi va davolanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tabiiy turistik resurslar orasida tabiiy-davolash resurslari alohida o‘rin egallaydi. Bu resurslar davolash, sog‘lomlashtirish va dam olish turizmni asosini tashkil etadi. Tabiiy

turistik resurslar orasida landshaft, iqlim, suv resurslari omillari asosiy o‘rinni egallaydi. Tabiiy davolash resurslari tarkibida tabiiy-iqlimiy resurslar va gidromineral tabiiy davolash resurslari alohida ahamiyatga ega.

Yuqorida aytib o’tilgandek, rekreatsiya resurslari orasida tabiat boyliklari ustuvorlikka ega. Tabiat resurslari negiz vazifasini o’taganliklari tufayli rekreatsiya faoliyatining turlari aynan ularga bog‘liq. Bu borada, ayniqsa, iqlim, suv, relyef, tabiat manzarasi, tabiat yodgorliklari, mineral suvlar va boshqalar yetakchilik qiladilar, masalan, relyef turi rekreatsiya faoliyatining turini, tabiatning xilma - xilligi yoki manzarasi, dam olishning samaradorligini, iqlim - ma`lum dam olish turining vaqtini, bemorlar sog`ayishining sharoitlarini belgilaydi. Binobarin, tabiat resurslari rekreatsiya faoliyatini tashkil qilish uchun birlamchi negizni vujudga keltirishga xizmat qiladi. Ulardan qanchalik samarali foydalanish rekreatsiya infratuzilmasi yoki ijtimoiy - iqtisodiy omillarga bog‘liq, ya’ni yaratilgan qulayliklar rekreatsiya resurslaridan eng yuqori darajada foydalanishga imkon yaratadi. Zero, birlamchi tabiat qulayliklarini atroflicha va chuqur baholash bilan rekreatsiya faoliyatini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. Халқ сўзи, №24. 2018 йил 6 феврал.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Кириш туризмини ривожлантириш чора-тадбирлари” ПҚ. Халқ сўзи газетаси, №25. 2018.
3. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Ресубликасини қонун хужжатлари тўплами, 2017. 6-сон. 70-модда.
4. Багрова Л.А.и др. Рекреационные ресурсы (подходи к анализу понятия) //Изв. АН. СССР, сер. геогр.,1977, Н2, с. 5-12.
5. Минц А.А., Преображенский В.С. Функция места и ее изменение // Изв.АН. сер.геогр. 1970, №6. с 118-131.
6. Низамиев А.Г. Рекреационный комплекс Кыргызстана: реалии и перспективы. Бишкек: Илим, 1998. - 136 с.
7. Усмонова Р. Рекреацион географиянинг назарий масалалари // Замонавий географиянинг регионал муаммолари мавзусидаги илмий-амалий анжумани материаллари. Қарши-2010. 64-67 б.
8. Усмонова Р. Рекреацион география. Монография. Қарши: Қашқадарё кўзгуси ОАВ, 2015. 192 б.
9. Усмонова Р. Иқлим ресурсларини рекреация жиҳатидан баҳолашнинг географик хусусиятлари.//Ўзбекистон Евросиё маконида география, геоиқтисодиёт, геоэкология. Халқаро илм.-амал. конф. Мат.Т.:-2017.121-123 b.
10. Usmonova R. Kitob-Shaxrisabz botig`i rekreatsiya - turistik resurslaridan foydalanishning geografik asoslari. Monografiya. Qarshi: “Universitet nashriyoti”, 2023. 159 b.

6-SHO‘BA
ZAMONAVIY GEOGRAFIYA TA’LIMI. TOPONIMIKA VA GEOGRAFIK TERMINSHUNOSLIKDA MUAMMOLAR VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI

ҚАДИМГИ БАҚТРИЯ ВА СУҒД ТАРИХИЙ ГЕОГРАФИЯСИНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

Сагдуллаев А.С., Тоғаев Ж.Э.
Ўзбекистон Миллий университети, Toshkent, O‘zbekiston

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСТОРИЧЕСКОЙ ГЕОГРАФИИ ДРЕВНЕЙ БАКТРИИ И СОГД

Сагдуллаев А.С., Тогаев Ж.Э.
Национальный университет Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

SOME ISSUES OF THE HISTORICAL GEOGRAPHY OF ANCIENT BACTRIA AND SUGD

Sagdullaev A.S., Togaev J.E.
National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

XIX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб илк ёзма манбаларда тилга олинган Ўрта Осиё қадимги халқларининг ҳудудий жойлашиш чегаралари муаммоси шарқшуносларнинг асарларида долзарб мавзуга айланди (Э.Захау, В.Гейгер, В.Томашек). Бу масала XX аср бошларида кўриб чиқилган (И.Маркварт, А.Херманн) ва археологик маълумотларни ҳисобга олган ҳолда, кейинги йилларда ҳам илгари сурилган (М.М.Дьяконов, В.М.Массон, Б.Я.Ставиский). Мазкур муаммо, айниқса ўтган асрнинг 70-80 йилларида бир қатор тадқиқотчилар (И.В.Пьянков, П.Бернар, Г.П.Франкфор, Э.В.Ртвеладзе, Ж.К.Гарден ва бошқалар) ишларида баён этилди[6]. Мавзу тарихшунослиги И.В.Пьянков томонидан етарлича ёритилган. Тадқиқотчининг ишларида Бақтрия тарихи ва тарихий географиясига мансуб юнон-рим манбаларининг таҳлили катта ўрин эгаллаб, шунингдек, Суғд ва Бақтриянинг тоғлар ва дарёлар орқали ўтган ҳудудий чегаралари ҳақидаги антик давр муаллифларининг тасаввурлари кўриб чиқилди[7].

Бугунги кунга келиб муаммонинг умумлаштирилган натижалари, Македониялик Александрнинг Бақтрия ва Суғдиёна ёки Трансоксианага юришлари масаласига бағишланган Э.В.Ртвеладзенинг монографик тадқиқотларида акс этган. Шу монографияларда археология ва ёзма манбалар маълумотлари қадимги ҳудудий

[6] Пьянков И.В. Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. – Душанбе: Дониш, 1975. – 191 с.; ўша муаллиф. Средняя Азия в античной географической традиций (источниковедческий анализ) / Автореф. дис… докт. ист. наук. – Ленинградское отделение ИВ АН СССР, 1984. – 37 с.; Bernard P., Francfort H.–P. Etudes de géographie historique sur la plaine d’Ai Khanum (Afghanistan). – Paris, 1978. – 106 p.; Ртвеладзе Э.В. Ксениппа – Паретака // Кавказ и Средняя Азия в древности и средневековье. – М.: Наука, 1981. – С. 92-101; Gardin J. - C. Pour une géographie archéologique de la Bactriane // L’ archéologie de la Bactrianne Ancienne. – Paris, 1985. – P. 39-46.

[7] Пьянков И.В. Бактрия в античной традиции (общие данные о стране: название и территория). – Душанбе: Дониш, 1982. – 62 с.

жойлашиш географияси ва картографияси масалаларини очиб беришда асосий манбалар сифатида талқин қилинган[8].

XX асрнинг 70-80 йилларида Ўрта Осиёда амалга оширилган кенг қамровли археологик тадқиқотлар натижасида шу минтақанинг тарихий географиясига оид мавжуд илмий қарашлар тубдан ўзгарди.

Мил. авв. II минг йилликнинг охири ва I минг йилликнинг бошларида Ўрта Осиёда янги этномаданий жараёнларнинг ривожланиши натижасида ёзма манбалардан бизга маълум парфияликлар, марғиёналиклар, суғдийлар, бақтрияликлар, хоразмликлар ва сак–массагетлар пайдо бўлади. Ушбу элат ва қабилалар ўзаро маданий таъсир ва алоқалар асосида тарққий этган. Улар яшаган ҳудудлар номи этноним ва гидронимлар билан боғланиши эҳтимолдан ҳоли эмас. Мисол тариқасида қадимги юнон тарихчиларининг ёзишича, Бақтр дарёси гидронимидан бақтрияликлар халқи ва мамлакатининг номи келиб чиққан.

«Авесто»нинг қадимги қисмларида Суғд мамлакати Суғда ва Гава Суғда шаклларида тилга олинган. Суғда «мамлакати» билан боғлиқ бўлган Гава тушунчасини Суғданинг энг қадимги номи сифатида талқин қилиш мумкин.

“Авесто”нинг мамлакатлар рўйхатида биринчи навбатда тилга олинган “арийлар сайҳон ерлари” – Арёшайёна, Арёнам Вайжони – бу кенг ҳудудда жойлашган ўлка деб тушуниш керак[9]. Негаки, у ерда бепоён даштлар, кўп яйловларга эга баланд тоғлар ва чуқур кўллар мавжуд бўлган. Арёнам Вайжо (унинг яна бир номи Арёнам Вайчах) Вахви Датия дарёси ҳавзасида жойлашган. “Авесто”да шундай ёритилади: “Қиш у ерда ўн ой давом этади, ёз икки ой. Қиш ойларининг сувлари совуқ, ерлари совуқ; қишнинг охирида катта тошқин сув пайдо бўлади”. Шунга кўра, Арёнам Вайжо иқлими шимолий дашт ва дашт ўрмон ҳудудлар ҳамда тоғли ўлкалар табиатига яқин бўлиб кўринади. Шу сабабли Урал ва Олтой тоғлари, Ғарбий Сибир иқлими ҳамда Об, Урал ва Волга серсув дарёлари ҳақидаги дашт чорвадор қабилаларининг хотиралари “Авесто”да акс этишининг эҳтимоли юқори.

“Авесто”да Вахви Датия (“марҳаматли”, “яхши”) серсув дарёси қатори яна бир катта дарё – Ранха тилга олинган. Арёнам Вайжо иқлими совуқ вилоятлар табиатига яқин бўлиб кўринади. Бироқ мазкур географик белгилар Арёнам Вайжонинг ҳудудий жойлашувини аниқлаш учун етарлича маълумотларга эга эмас.

Худди шундай ўхшаш ҳолат Ўрта Осиё кўчманчи қабилаларнинг тарихий географиясига оид. Геродот массагетларнинг ҳудудий жойлашуви ҳақида ёзиб, уларни шарқда, қуёш чиқиши йўналишида, Аракс дарёсининг ортида жойлаштиради ва Аракс дарёси Матиёна тоғларидан бошлаб оқади деб изоҳ беради[10]. Бу таърифда Геродот Кавказ тоғларидан бошланган ва Каспий денгизига қуйилган Аракс дарёси ҳақида ҳам ёзгани эҳтимолдан ҳоли эмас. Бироқ “Матиёна” тоғлари деганда Ҳиндикуш назарда тутилганга ўхшайди. У пайтларда Амударё Қорақум тепаликларини ёриб, қадимий Узбой ўзани орқали Каспий денгизига қуйилган. Массагетлар Шарқий Каспийбўйи ва

8

9 Ртвеладзе Э.В. Александр Македонский в Бактрии и Согдиане. – Ташкент, 2002. – 151 с.; ўша муаллиф. Александр Македонский в Трансоксиане. Походы. Историческая география. – СПб.: Евразия, 2019. – 368 с.

Авеста. Избранные гимны / Пер. с авестийского И.М.Стеблин–Каменского. – Душанбе: Адиб, 1990. – С. 164.

Геродот. История. В девяти книгах / Пер. Г.А.Стратановского. – М.–Л.: Наука, 1972. – Кн. I, 202.

Жанубий Оролбўйи оралиғидаги Узбой ҳавзасида мавсумий истиқомат қилганлар ҳамда Ёйиқ (Урал) ва Эмба дарёларигача ёйилган ҳудудларда кўчиб яшаганлар.

Аҳамонийлар ёзувларида сакларнинг яшаш жойлари денгиз ва дарёлар билан боғланган. Катта серсув дарё ёнида (Амударё) «чўққи қалпоқ кийиб юрган» кўчманчилар, дарё ёки «денгиз ортидаги саклар» ва бошқалари ҳақида ҳам манбаларда маълумот бор. Бу масала монографиянинг кейинги бандида кўриб чиқилади.

Қадимги юнон ва рим муаллифлари Ўрта Осиё вилоятлари (Бақтрия, Суғдиёна) ҳудудий чегаралари ҳақида сўз юритиб, туб жойли халқларнинг аралаш жойлашуви ҳолатини ҳисобга олмаганлар. Антик давр тарихчилари турли юртларнинг ўзига хос географик хусусиятларини ҳамда қадимий халқларнинг ҳудудий жойлашиши чегараларини аниқ белгилаб беролмаганлар. Геродотнинг асарида “Бақтрия халқи” тушунчаси тилга олиниб, Бақтриянинг ҳудудий чегаралари ҳақида маълумотлар мавжуд эмас (Геродот, I, 93).

Ўрта Осиёда энг қадимги халқларнинг шаклланиши ва алоҳида этник ҳудудларнинг ажрала бошлаши масаласи мураккаб илмий муаммо ҳисобланади. Бунинг сабаби ёзма манбаларда қадимги элатларнинг ҳудудий ажрала бориши ва маълум ҳудудий чегараларга эга ерларда жойлашиш жараёни аниқ кўрсатилмаганлиги ҳолати билан белгиланган.

Бақтрия, бақтрияликлар (ёки Суғдиёна, суғдийлар ҳамда саклар) макротопоними ва этнонимлари юнон ёзма манбаларда босқинчиларга қарши турган элатлар ёки давлатнинг бир қисми бўлиб назарда тутилган.

Ўрта Осиёда аҳоли жойлашган ҳудудларнинг топонимлари турли даврларга оид ёзма манбаларда сақланиб келган. Бу ҳудудлар юнон муаллифлари асарларида Марғиёна, Бақтриёна, Хорасмие ва Суғдиёна бўлса, шунга мос равишда қадимги форс ёзувларида Марғуш, Бақтриш, Хуаразми ва Суғуда, “Авесто”нинг энг қадимги қисмларида эса улар – Моуру, Баҳди, Хваризам ва Суғда шаклида акс этилган.

Қадимги форс ёзувларини ўрганиш асосида Ўрта Осиёнинг сиёсий тарихи тўлароқ тадқиқ қилинди. Қадимги форс битикларида Ўрта Осиё тобе сатрапликлари санаб ўтилган, уларнинг аҳамонийлар томонидан босиб олиниши кўрсатиб берилган бўлса-да, лекин ушбу юртларнинг ҳудудий чегаралари ва тарихий географиясига оид етарлича маълумотлар ёритилмаган.

Қадимги форс шоҳи Доро I нинг забт этилган мамлакатлар ва сатрапиялар рўйхатида Марғиёна ўрин олмаган. Бироқ Беҳистун ёзувларида Доро I қуйидагиларни айтиб ўтади: “Марғуш (Марғиёна) деб аталган мамлакат мендан ажралиб чиқди. Фрада исмли марғиёналик бир киши уларнинг ҳукмдори деб эълон қилинди. Ўша пайтда менга тобе Бақтрия сатрапим форс Дадаршишга хабар бериб, шундай дедим: “Мени тан олмаганларни тор-мор қилиш керак”. Дадаршиш қўшинлари йўлга чиқиб, марғиёналиклар билан жанга киришди. Ахурамазда менга мадад берди. Ахурамазда иродаси билан менинг қўшинларим исёнчилар қўшинларини бутунлай маглубиятга учратди. Бу жанг ассиядий ойининг 23-кунида содир бўлган. Шундан сўнг давлат қўлимга кирди. Мана мен нималарни Бақтрияда амалга оширдим”. Шу ёзувларнинг хулоса қисми Марғиёна Бақтриянинг таркибида бўлганидан дарак беради.

Геродотнинг «Тарих» асарида Марғиёна ҳақида маълумотлар йўқ. Суғд эса юнон манбаларида чекка ўлка сифатида ёритилган. Видевдат рўйхатида Бақтриянинг Суғддан кейин тилга олиниши, қадимги форс ёзувларида Суғднинг Бақтриядан сўнг санаб ўтилиши, улар ўртасида ҳудудий чегара мавжудлигини кўрсатади. Гекатей,

Геродот ва Ктесийнинг асарларида Ўрта Осиё аҳолисининг ҳудудий жойлашуви, алоҳида дарёлар, тоғлар, воҳа ва даштлар билан боғланган.

Македониялик Александр юришлари ёритилган манбаларда ўз аксини топган маълумотлар тарихий географиянинг муаммоларини ҳал қилишда катта аҳамиятга эга. Манбалар шу нуқтаи назардан тарихий адабиётларда етарли даражада очиб берилган.

Юнон ёзма манбаларида Александр қўшинларининг Мароқандага юришлари йўлида Амударё Бақтрия ва Суғд ўртасидаги чегара сифатида таърифланган. Страбон «Окс дарёси Бақтрия ерларини Суғдиёнадан ажратади» деб ҳисоблаган. Унинг фикрига кўра, Бақтрия Арейя (Ария) чегараси бўйлаб, шимол йўналишда Марғиёна ва Суғдиёна оралиғида бўлиб, Окс – Амударёдан жануб томонда жойлашган.

Юнон-рим муаллифлари асарларида Бақтрия Суғд билан Арейя ёки Суғд ва Парфия оралиғида жойлашган деб таъкидланади. Бироқ мазкур манбаларда Ўрта Осиё вилоятларининг ҳудудий чегаралари ҳақида аниқ географик маълумотлар йўқ.

Аррианнинг ёзишига кўра, Окс дарёси ортида Суғдиёна ерлари бошланган. Страбон маълумотларида Суғдиёна чегаралари анча кенг бўлиб, Окс ва Яксарт оралиғида жойлашган. У ҳолда Суғд таркибига Амударёнинг ўнг қирғоқларида жойлашган, аммо манбаларда тилга олинмаган ва номсиз қолаётган Вахш, Кофирнигон ва Сурхон воҳаларини киритиш мумкин. Бироқ ушбу дарёлар воҳалари тарихий – географик жиҳатдан Бақтриянинг таркибида бўлиб, унинг шимолий қисмида жойлашганлар. Аксинча П.Бернар, Г.П.Франкфор ҳамда И.Н.Хлопин Страбоннинг маълумотларини етарлича танқидий кўриб чиқилмаган ҳолда, Амударё ўнг соҳил ҳавзасини Суғд таркибига киритганлар.

Қадимги муаллифларнинг Ўрта Осиё жанубидаги аҳолининг жойлашиши ҳамда тарихий вилоятларнинг ҳудудий чегаралари борасида тасаввурлари бир мунча умумий бўлган. Римлик тарихчи Курций Руфнинг битта гапи бунга мисол бўлади: «Танаис (Сирдарё) бақтрияликларни скифлардан ажратиб туради», ёки тарихчи яна шу нарсани таъкидлайдики, бақтрияликлар «урушқоқ скиф қабилалардан узоқ бўлмаган жойларда яшайди».

Шунингдек, Квинт Курций Руф қуйидагича ёзган: “Танаис Осиё ва Европа ўртасидаги чегара бўлган”. Бу тарихий анъана Танаис (Дон) ва Яксарт (Сирдарё) – бир умумий дарё ҳақидаги қадимий географик тасаввурларга асосланган.

Скифлардан (саклардан) ажратувчи чегара – бу Александр Сирдарёдан кечиб ўтган жой бўлиши эҳтимолдан ҳоли эмас, чунки македонияликлар Сирдарёни бошқа жойларда кўрмаганлар. Эҳтимол, ўша жойда Уструшона ёки ҳеч бўлмаса Сўғднинг шимолий чегаралари ўтган. Сўнгги аҳамонийлар даврида Суғдиёна Бақтрия сатраплиги таркибига кирган. Шу вазиятга кўра, Сирдарё ҳам Бақтрия чегараси сифатида талқин қилинган.

Страбон сингари Птолемей ҳам Амударёни Бақтрия ва Суғдиёна ўртасидаги чегара сифатида қайд этиб ўтади. Баъзи бир ҳолатларда айнан Суғдиёна фақат Политимет – Зарафшон воҳаси ерлари билан боғланади. Курций Руфнинг таъкидлашича, Суғдиёна тўғри йўналишда бу Политимет жўшқин оқими узунлигида дашт, унинг эни 80 стадий (Курций Руф. кн. VII, X, 1). Шу дарё воҳасида мил. авв. 328 йилда сўғдийларни жазолаш юришларида иштирок этишган юнонлар тасаввурларида, Политимет воҳаси –Суғдиёнанинг асосий ҳудуди деган фикр келган.

Сўнгги йиллар илмий адабиётларида Ўрта Осиё қадимги вилоятларининг ҳудудий чегаралари масаласига тегишли баҳс–мунозаралар яна жонланиб кетди.

Айниқса, Бақтрия ва Суғдиёна чегараларига доир мавзу долзарб масала бўлиб, бу муаммони ҳал қилиш учун олимлар махсус тадқиқотлар олиб боришган.

Юнон–рим тарихчилари ҳудудий чегараларни Ўрта Осиёдаги йирик дарёлар бўйича кўрсатиб беришлари борасида шундай фикр билдириш мумкинки, бу анъана туб жойли аҳолининг яшаш ерлари ва вилоятларнинг чегаралари тўғрисида қадимги тарихчилар аниқ ва тўла тасаввурга эга бўлмаганларидан гувоҳлик беради. Шу сабабли юнон–рим муаллифлари ҳудудий чегараларни дарёлар бўйича ажратганлар.

Окс ёки Амударёни чегара сифатида, "дарё маданий чегара" ва "дарё маъмурий ёки сиёсий чегара" деб таърифлаш мумкин. И.И.Пьянков, Амударё кўп ҳолларда ҳудудий–сиёсий чегара вазифасини бажарган бўлсада, вилоятлар ўртасида ҳеч қачон маданий чегара бўлмаган деб ёзади. Бу фикр билан тўла қўшилиб бўлмайди, негаки, аҳамонийлар ёки антик даврда Амударё тарихий – маданий вилоятлар ва давлатлар ўртасидаги чегара вазифасини бажармаган.

Қадимги даврларда ўрта Амударё бўйидаги замонавий Керки шаҳри атрофидан бошлаб инсон деярли ўзлаштирмаган ёки жуда кам сонли аҳоли истиқомат қилган "ҳеч кимга қарашли" бўлмаган бепоён даштлар бошланган. Бундай ҳудудлар кенг масофаларни ташкил этиб, Суғдиёнадаги ҳозирги Бухоро ва Қарши воҳаларига бориб тақалган. Шу сабабли чорвадорлардан иборат аҳоли кам сонли бу даштлар ёзма манбаларда бевосита суғдийларга қарашли деб ёритилган.

Суғдиёна ҳудуди аҳамонийлар даврида ва ундан қадимроқ пайтларда Амударёдан кечиб ўтиш билан бошланмаган, негаки Қашқадарё воҳасида топиб текширилган ўтроқ суғдий аҳолининг шаҳар ва уй-қўрғонлар харобалари Амударёдан анча олис масофада ҳозирги, Қарши, Яккабоғ ва Китоб воҳаларида жойлашган. Шунинг учун ҳам Суғдиёна билан Бақтрия ўртасидаги ҳудудий чегаралар ғарбда Амударёнинг ўнг соҳилида бошланган даштлар орқали ўтган.

Ўтроқ аҳоли ҳудудлари ўртасидаги чегара вазифасини табиий географик омил сифатида чўллар ва тоғлар бажарган. Кўп ҳолатларда чўл ва тоғлар этник чегараларда аралаш жойлашув ерларга айланиб қолганлиги тасодиф бўлмаса керак. Ҳисор, Бойсун ва Кўҳитан тизмалари Бақтрия ва Суғд ўртасидаги табиий чегара бўлган.

Ёзма манбаларни археология маълумотлари билан солиштириб, географик хариталарда халқларнинг ҳудудий жойлашиш чегараларини қадимги шаҳарлар, дарёлардан кечиб ўтиш жойлари, қадимги алоқа-савдо йўллар, тарихий вилоятлар ва деҳқончилик воҳа-туманларни аниқлаш муҳим вазифа.

Александр даврида Яксарт – Сирдарё бу Танаис – Дон дарёсининг бошланиши деб фараз қилинган. Худди шундай Нил бу – Ҳинд дарёсининг қуйи оқими деб ҳисобланган.

Манбаларда Бақтриянинг жанубий чегаралари Парнас, Паропамис – Ҳиндуқуш тоғлари билан белгиланган. Қадимги дунё муаллифлари бақтрияликлар жойлашган ҳудудни жуда тор қилиб кўрсатганлар. Баъзиларининг айтишича, Ҳинд дарёси бошланган Паропамис тоғларига Бақтрия рўпара бўлиб турган (Плиний). Страбон ҳам Эратосфенниг маълумотларига асосланиб, "бақтрийларнинг асосий қисми Паропамис ёнбағрида жойлашиб, унинг бир кичик ери Ҳиндистонга рўпара бўлган" – деган.

Страбон ва Плинийлар Ҳиндиқуш тизмасини Бақтриянинг жанубий чегараси сифатида тўғри кўрсатиб берганлар. Страбоннинг юқорида келтирилган хабарига кўра бақтрияликлар Ҳиндистон рўпарасида жойлашганлар (Страбон, кн. XI, VIII, 8), Сўғдиёна эса Бақтриядан юқори шарқ йўналишида, бақтрияликлар мамлакатини

Сўғдиёнадан ажратган Окс ва Яксарт дарёси оралиғида жойлашган, Яксарт сўғдийлар ва кўчманчилар ўртасида чегарани белгилаб берган (Страбон, кн. XI, XI, 2).

Шунингдек, Страбон Аракс дарёси бақтрияликларни скифлардан ажратади деб ёзган. Страбон буни тарихчи Каллисфен маълумотларига асосланиб ёритган. Аракс – Амударё; Бақтрия ерларини Помир тоғларида ёки дарёнинг ўрта оқими даштларида яшовчи саклардан ажратиши мумкин эди. Юнон-македонияликлар ҳарбий юришларда қатнашган Каллисфен бу ҳолатни аниқ кузатиб ёритган.

Арриан Окс ва Яксарт дарёлари оралиғида "паретаклар" ерлари – "тоғли ўлка" Паретакенани жойлаштириб, бироқ унга Суғднинг таркибий қисми сифатида таъриф бермаган (Арриан, IV, 21, 1; 22,1). У шундай ёзган: "Александр Суғдиёнада ишларини тугатиб ва қалъани забт этиб, паритаклар устига қўшин тортди" (Арриан, IV, 21, 1, 2). Амударёнинг ортида жойлашган бошқа бир вилоят – Бубакена ҳам Суғд таркибига киритлмаган (Курций, кн. VIII, 1, 2), аксинча "суғд ерлари" деб Наутака ва Ксениппа (Арриан, III, 30, 1; Курций Руф, кн. VIII, II, 14) ҳамда "суғд ералри ва скиф-массагетлар чегарасидаги мустаҳкам жой" Баги деб аталган (Арриан, IV, 17, 4). У Қизилқум чўлига яққин қуйи Зарафшон ерида жойлашган.

Мазкур маълумотлар Суғд алоҳида воҳа-туманлар ва вилоятлардан иборат бўлганидан дарак беради. Улар Амударё ортида жойлашган. Умуман олганда, антик даври ёзма манбалари ва археология маълумотлари асосида Бақтрия ва Суғдиёна тарихий географиясига муайян аниқликлар киритилди, алоҳида қадимий вилоятлар ҳудудий жойлашиши масаласига оид тарихий – географик хариталар тузилди.

Қадимги муаллифларнинг маълумотлари, асосан, юришлар ва жанглар тарихига оид бўлиб, йўллардаги тоғлар ва дарёлар ҳамда шаҳарлар ва қалъалар қамал қилинган жойлар билан боғланади. Шу жумладан тоғлар – Парнас, Паропамис ва «номсиз тоғ ўлкаси»; дарёлар – Аракс, Окс, Политимет, Танаис – Яксарт; шаҳарлар – Бақтра (Зариасп), Аорн, Драпсак ва Мароқанда, Кирополис, Бранхийлар шаҳарчаси ва Басилейа – «подшоҳ шаҳри»; вилоятлар – Наутака, Мамакена, Ксениппа, Габаза (Газаба), Паритака, Бубакена; қалъалар – Баги, «Суғд қалъаси», Хориен – Сизимитр қалъаси; ўлкалар – Бақтрия, Суғдиёна, Скифия (сак–массагетлар юрти), Хоразм.

Мил. авв. 329 йилда Александрнинг Суғдиёнага ҳарбий юриши қуйидаги йўналишда амалга оширилган: Бақтра – Окс – Бранхийлар шаҳарчаси – Наутака – Мароқанда – Кирополис – Яксарт. Шунингдек, Суғдиёнага юриш ҳақидаги ўз ҳикоялари бошида Арриан тилга олган Драпсак ва Аорн шаҳарлари (Арриан, кн. III, 27, 10) ҳозирги Шимолий Афғонистонда жойлашган эди. Драпсак атамаси шарқий эроний тилларида (жумладан, бақтрияликлар тилида) «драпса» , «драфшо», яъни «байроқ» тушунчасини англатади. Шу боис шаҳар номини «байроқли» деб аташ мумкин. "Авесто"да эса Бақтрия «баланд байроқли гўзал Бахди» шаклида тасвирланган.

Ҳозирги кунга келиб, юнон–рим манбаларида тилга олинган қадимий вилоятлар, шаҳарлар ва қалъаларнинг ҳудудий жойлашуви етарлича аниқланган: Наутака – Суғдиёна вилоятларидан бири бўлиб, Шарқий Қашқадарёдаги ҳозирги Китоб – Шаҳрисабз – Яккабоғ воҳаларида жойлашган, маркази – Узунқир; Ксениппа (шунингдек, бошқа манбаларда – Нихшапайя) – Қарши воҳаси, маркази – Ерқўрғон; Баги (Бага) – Бухоро воҳаси, Басилейа – Суғдиёнанинг иккинчи пойтахти (Кўктепа);

Габаза (Газаба) – бу Наутака вилоятига қўшни тоғ ўлкаси бўлиб, у Кўҳитанг жануби-шарқий ва ғарбий ёнбағирлари ҳамда ҳозирги Деҳқонобод, Оқработ ва ёзма манбаларда машҳур бўлган "Темир дарвоза" деб номланган тор дара – тоғ йўли атрофидаги ерларни ўз ичига олган. Яқинда ҳам Деҳқонобод ва Оқработ оралиғи

ерлари “Габзан” деб аталган, Куҳитангдаги “Газак” топоними “Газаба” тушунчасининг акс–садоси бўлиши эҳтимолдан ҳоли эмас.

Юнон тилидаги “Парейтакена”, “паретаклар” ўлкаси (эҳтимол, унинг номи маҳаллий бақтрия тилидаги “Паритака” – атамасидан келиб чиққан) Сурхон воҳаси билан боғланади. Шунингдек, ёзма манбалардан “паретакенлар” – Мидия қабиласи маълум (Геродот, кн. I, 101).

Наутака, Навтака – “янги қурилиш”, “янги вилоят”, “янги қалъа” атамасининг охирги “так” сўзи кўчма маънода – “куч қувват”, “қудрат” мазмунига эга. “Суғд қалъаси” ва “Хориен қояси”нинг жойлари ханузгача аниқланмаган.

“Нихшапайя” атамасининг келиб чиқиш масаласига бироз тавсиф бериш лозим. Мазкур атама Жанубий Бақтрияда топилган ҳужжатларда тилга олинган. Улар мил. авв. 353-324 йилларга, яъни аҳамонийлар подшоҳлари Артаксеркс III ва Доро III ҳамда Македониялик Александр ҳукмронлиги даврига оид бўлиб, сиёҳ билан чармга ва ёғочга битилган. Топилган хужжатлардан бирида Нихшапайя шаҳрида мудофаа девори ва хандак қуриш зарурияти ҳақида сўз юритилади, шунингдек, Киш (Кеш) тилга олинган. У дастлаб мил. авв. VII-IV асрларда Узунқир – Подаётоқ шаҳар харобалари ўрнида жойлашган.

Антик даври тарихчилари (Каллисфен, Аристовул, Клитарх) “Нихшапайя” сўзини юнон тилига мослаштириб, “Ксениппа” деб аташган. Аслида бу шаҳарнинг номи суғдий тушунчаси “Нихшапа” ёки “Никшапа”дан келиб чиқиши эҳтимолдан ҳоли эмас. Бу ном таркибида “ап” (“об”) сўзи мавжуд. У суғд тилида – “сув”, “дарё” тушунчаларини англатади (“Авесто” тилида ҳам “ап” – дарёдир). Нихшапа маъноси “дарё бўйидаги шаҳар” бўлиши мумкин. Ҳозирда ҳам Ксениппа – қадимги Қарши воҳасининг маркази Еркўрғон шаҳар харобалари Қашқадарё бўйида жойлашган. Илк ўрта асрларда Нихшапа “Нахшап” шаклига айланган ва вақт ўтиб, ўрта асрларда шаҳар Нахшаб – Насаф деб аталган. Шундай қилиб, турли тарихий даврларда номи ўзгариб борган Нихшапа – Нахшаб – Насаф – Қарши шаҳри ривож топган.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYA FANIDAN DARSDAN TASHQARI O‘QUVCHILAR AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QISH METODIKASI

Ibraimov X.I.[1], JanzakovA.B.[2]

[1]Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institute, Toshkent, O`zbekiston

[2]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O`zbekiston.

Annotatsiya*: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarining geografiya fanidan darsdan tashqari mashg’ulotlarning mazmuni berilgan. Shuningdek axborot texnologiyalari vositalari asosida amalga oshiriladigan maqsad va vazifalari, xususan O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning tabiiy geografik tuzilishi, tabiiy boyliklariga oid ma’lumotlar o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot texnologiyalari, platforma, geografiya, internet, tajriba sinov, kompyuter, elektron dosga.*

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ГЕОГРАФИИ ВНЕКЛАССНИКАМИ НА ОСНОВЕ ИНФОРМАТSIОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Ибраимов Х.И.[1], ЖанзаковА.Б.[2]

[1]Национальный институт педагогической педагогики имени Кори Ниёзи, Ташкент, Узбекистан.

[2]Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами, Ташкент, Узбекистан.

Аннотация: *В данной статье представлено содержание внеурочной деятельности школьников по географии. Также были изучены цели и задачи, реализуемые на основе средств информатsionных технологий, в частности, информатsii о природно-географической структуре и природных ресурсах Центральной Азии и Узбекистана.*

Ключевые слова: *информатsionные технологии, платформа, география, интернет, экспериментальный тест, компьютер, электронный файл*

STUDY METHODOLOGY OF GEOGRAPHY EXTRA-CLASS STUDENTS ON THE BASE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Ibraimov X.I.[1], JanzakovA.B.[2]

[1]National Institute of Educational Pedagogy named after Kori Niyozi, Tashkent, Uzbekistan

[2]Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi, Tashkent, Uzbekistan.

Abstract: *This article presents the content of extracurricular activities of schoolchildren in geography. The goals and objectives implemented on the basis of information technology tools, in particular, information about the natural-geographical structure and natural resources of Central Asia and Uzbekistan, were also studied.*

Key words: *information technology, platform, geography, internet, experimental testing, compute electronic file*

Umumta’lim maktablarida geografiya ta’limi samaradorligini oshirishda o‘qitishning metod, usul va vositalari bilan birgalikda darsdan tashqari o‘quv faoliyati ham muhim axamiyatga ega. Darsdan tashqari o‘quv faoliyati - bu o‘qituvchi va ota-onalar tomonidan o‘quvchilarning darsdan tashqari turli xil faoliyat turlarini tashkillashtirish, ularning shaxsini ijtimoiylashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Ma’lumki, geografiyadan darsdan tashqari mashg’ulotlarning mazmuni mashg’ulotlar davomida amalga oshiriladigan maqsad va vazifalar, xususan O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning tabiiy geografik tuzilishi, tabiiy boyliklariga oid ma’lumotlarni bilish bilan belgilanadi. “Ushbu darsdan tashqari mashg’ulotlar davomida o‘quvchilar darsda o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, amaliy ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladi”. Shuningdek, morfologik, fiziologik, geografik tushunchalarni mustaqil ravishda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu borada, P.U.Bayramukova quyidagicha fikr bildiradi: maktabning eng muhim vazifasi yosh avlodga bilim berish, ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularni hayotga tadbiq etishdir. Shu sababli, o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga oid metodikani takomillashtirish zaruriyati mavjud. Darsni tayyorgarlik darajasini, qiziqishlarini har bir o‘quvchining individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, u yoki bu darsdan tashqari ishning boshqa shaklini foydaliligini ta’kidlagan holda o‘quv jarayonini qanday tashkil etishiga bog’liq. Agar ushbu fikrlarning barchasi inobatga olinsa, u holda darsdan tashqari vaqtda o‘quvchining ta’lim olishi uchun yuqori natijalarga erishish mumkin [1.].

A.G.Abdullayev, Q.D.Po‘latova, M.G.Abdullayevalarning fikriga ko‘ra, darsdan tashqari o‘quv faoliyatining muvoffaqiyati, avvalo ularni to‘g’ri tashkil etishga bog’liq. Umumta’lim maktbalarida fanlardan, jumladan geografiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini samarali ravishda tashkil etish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish lozim [2.]:

- jamiyat taraqqiyotining maqsadlari va talablariga mos holda bo‘lishi;
- umumta’lim maktabning umumiy o‘quv-rejasi bilan bog’langan bo‘lishi;
- o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olishi hamda turli usul va shakllarini o‘zida birlashtirishi;
- o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi nazorat qilishga oid ma’lum bir tizim yaratish;

▪ o‘quvchilarning qiziqishini oshirishga mo‘ljallangan o‘quv resurslar bilan ta’minlash.

Ushbu ko‘rsatib o‘tilgan talablarni axborot texnologiyalari vositalari yordamidan foydalangan holda samarali tashkil etish mumkin. Mazkur vositalar yordamida umumta’lim maktab o‘quvchilarining darsdan tashqari o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda quyidagi turkum muammolar mavjud:

▪Internet tarmog’ida o‘quvchilarning qiziqishini orttirishga qaratilgan axborot ta’lim muhitini yaratish;

▪o‘quvchilarning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zini-o‘zi baholovchi onlayn tizimini yaratish;

▪pedagogik dasturiy vositalar yordamida mustaqil ta’lim olishning takomillashtirilgan mexanizmini ishlab chiqish.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan muammolar, ayni paytda umumta’lim maktablarining geografiya ta’limini darsdan tashqari o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda ham mavjudligi sezilmoqda. Geografiyaga oid ko‘pgina bilimlarni aksariyat hollarda darsdan tashqari o‘quv faoliyatida o‘rganadi. Shu bois, umumta’lim maktablarining geografiya ta’limining darsdan tashqari o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beruvchi interfaol zamonaviy o‘quv vositalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish lozim. Bu esa o‘z navbatida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish zarurati mavjudligini anglatadi.

Axborot texnologiyalari vositalari asosida geografiyani darsdan tashqari o‘quv faoliyatining samarali tashkil etishda ta’lim portallari va platformalari muhim pedagogik dasturiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ularga joylashtirilgan elektron ta’lim resurslardan foydalanishning asosiy maqsadi – zamonaviy axborot-ta’lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali mustaqil o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishdir [3.].

Shu bois, geografiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun Xalq ta’limi tasarufidagi **eduportal.uz**, **rtm.uz** axborot ta’lim portallaridan hamda tadqiqot doirasida, axborot ta’lim platformalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Mazkur axborot ta’lim muhiti yordamida tashkil etiladigan darsdan tashqari o‘quv faoliyatni tashkil etish shakllariga, jumladan to‘garaklar, ko‘rik, musobaqa, munozarali bahs, uchrashuv, har xil turdagi o‘yin, ko‘rgazmali chiqish, sayohat va shu kabilarga integratsiyalash lozim [4.].

Shu sababli umumta’lim maktab o‘quvchilarining geografiyadan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini axborot texnologiyalari vositalari hamda ta’lim portallari va platformalari yordamida o‘qitishning tuzilmasi misolida ko‘rish mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm. Geografiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etishning tuzilmasi

Axborot resurs markazlaridan foydalanish o‘quvchilarni nafaqt fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, balki ushbu fandan olgan bilimlarini mustahkamlashga imkon beradi, shuningdek, mavzu bo‘yicha ma’lumotni qay tartibda topish kerakligi hamda komp’yuter texnologiyalaridan to‘g’ri foydalanish haqida ham ma’lumotga ega bo‘ladi. Shuningdek, o‘z ish faoliyatiga doir Internetdan ma’lumotlarni qidirish, elektron pochtadan foydalanishga oid ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladi.

Axborot resurs markazlari, bu o‘quvchining mustaqil hisobotlar, sharhlar, esse yozish uchun yuqori sifatli imkoniyatdir. Shuningdek, komp’yuter dasturlaridan foydalangan holda ma’lumotni topish uchun zarur bo‘lgan vaqtni kamaytirish imkoniyatini yaratadi. Geografiya ta’lim jarayonida kompyuter texnologiyalari va amaliy dasturlaridan qanchalik ko‘p foydalanilsa, uni qo‘llashning cheksiz doirasini shunchalik chuqurroq anglaydi. Yosh maktab o‘quvchilari katta ishtiyoq bilan amaliy mashg’ulotlarni olib boradilar. SHuning uchun ularning yoshi qancha kichik bo‘lsa, amaliy topshiriqlarni bajarishga shuncha ko‘p vaqt ajratiladi. Mashg’ulotlar davomida yuk butun dars davomida o‘quvchilar bandligini ta’minlash uchun to‘garak a’zolarining imkoniyatlariga mos bo‘lishi lozim. Yosh o‘quvchilar mazkur topshiriqlarni bajarish jarayonida tezda charchaydilar, shuning uchun rahbar oldindan

sinflarni qanday tartibda jihozlashni, uni diversifikatsiya qilishni oldindan o‘ylashi kerak. Nazariy materiallar odatda darsning boshida beriladi. Yangi mavzu, biron bir vazifa sodda va oqilona tarzda tushuntirilishi kerak, buni esa vizual shaklda yaratilgan o‘quv-ma’lumotlar yordamida samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini doimiy ravishda rivojlantirgan holda, o‘qituvchi modellarni qayta ishlashga yoki yangi namunalarni yaratishda mustaqil ijodiy yondashish imkoniyati mavjud bo‘lgan muomaila turini tanlashga intiladi. O‘quvchilarga iloji boricha ko‘proq mustaqillikni ta’minlab, etakchi bir vaqtning o‘zida to‘garak a’zolarining ijodiy faoliyatiga rahbarlik qilishi, mavzuni tanlash qobiliyatini rivojlantirish, muayyan materialda qanday qilib mahsulot tayyorlashni o‘ylashi va muammoni hal qilishga yordam berishi kerak. Shu bois, umumta’lim maktablarining geografiya ta’lim-tarbiya jarayonida to‘garak mashg’ulotlarini tashkil etishda quyidagi bosqichlarni amalga oshirish lozim :

1. Ta’lim vazifalarini o‘rganish va shakllantirish. Ushbu bosqich maktab o‘quvchilarining xususiyatlarini o‘rganishga, ta’limga samarali ta’sir ko‘rsatishga va sinfda yuzaga kelgan vaziyatlar uchun eng muhim ta’lim muammolarini aniqlashga qaratilgan bo‘lishi lozim.

2. Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni modellashtirish, ya’ni, o‘qituvchining o‘z tasavvurida ma’lum bir shaklning tasvirini yaratishi.

Vazifalarga qarab, sinfdagi to‘garaklar rahbarlari ko‘pincha ularni birlashtirgan turli xil o‘qitish usullaridan (og’zaki, vizual, amaliy) foydalanadilar. Vizual o‘qitishda taqdimotli dasturlar, Interaktiv doska, elektron ko‘rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uy sharoitida elektron ta’lim resurslar, o‘quvchilar bilimini baholovchi va nazorat qiluvchi onlayn tizimlardan ota-onalarning o‘z farzandlari bilan uyga berilgan vazifani bajarishda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda o‘quvchi darsning ba’zi bir qismlarini tushunmay qolgan taqdirda, video darslar, elektron darsliklar yordamida tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, o‘quvchi bo‘sh vaqtida o‘z bilimini mustaqil ravishda bir necha bor baholab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun esa Internet tarmog’ida axborot ta’lim platformasini yaratish va ularga mos o‘quv resurslarini shakllantirib, foydalanish usullarini o‘rgatishni taqozo etadi.

A.G.Abdullayev, Q.D.Po‘latova, M.G.Abdullayevalarning fikriga ko‘ra, geografiya faniga bo‘lgan qiziqishi ko‘pchilik hollarda darsdan tashqari ishlarni qanchalik darajada samarali tashkil etilishi bilan bog’liq. Bunda darsdan tashqari o‘quv faoliyati davomida turli jonli va vizual (video lavhalar, virtual ta’lim resurslar, kinolar) ekskursiyalar o‘tkazish orqali, ushbu fanga bo‘lgan qiziqishi va fanga oid bilim, ko‘nikma hamda malakalari oshadi. Shu bois, 7-sinf geografiya fanidagi mavzularni axborot texnologiyalari vositalari asosida tashkil etish va o‘quv- topshiriqlarini mustaqil bajarishga oid beriladigan vazifalar 1 va 2-jadvallarda ko‘rsatilgan tartibda foydalanishni tavsiya etamiz.

1-jadval

Darsdan tashqari o‘quv faoliyatining mazmuni va axborot texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari (O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi misolida)

T/R	Darsdan tashqari o‘quv faoliyatiga oid topshiriq va tavsiyalar	Axborot resurs markazlarida foydalaniladigan texnik va elektron o‘quv vositalar	To‘garaklarda foydalaniladigan texnik va elektron o‘quv vositalar	Uy sharoitida foydalaniladigan texnik va elektron o‘quv vositalar
1.	O‘rta Osiyo tabiiy geografik o‘lkasi	Kompyuterlar, Internet	Kompyuterlar, taqdimotli dasturlar,	Kompyuterlar, video darslar, elektron

	haqida tushuncha Uning o‘rni va chegaralari hamda siyosiy xaritasi	texnologiyalari, interfaol xarita	Interaktiv doska, elektron ko‘rgazmali qurollar	darsliklar, onlayn test va nostandart testlar
3.	Geografik xaritalar, ularning shartli belgilari, topografik xaritalar va ulardan foydalanish	Kompyuterlar, Internet texnologiyalari, interfaol xarita	Kompyuterlar, taqdimotli dasturlar, Interaktiv doska, elektron ko‘rgazmali qurollar	Kompyuterlar, video darslar, elektron darsliklar, onlayn test va nostandart testlar
4.	Vaqt o‘lchovi. Soat mintaqalari. O‘rta Osiyoning geologik tuzilishi. Geologik vaqt hisobi, O‘rta Osiyo hududi tarixi va qazilmalari	Kompyuterlar, interfaol xarita, hisoblovchi amaliy dasturlar	Kompyuterlar, taqdimotli dasturlar, Interaktiv doska, elektron ko‘rgazmali qurollar	Kompyuterlar, video darslar, elektron darsliklar, onlayn test va nostandart testlar, hisoblovchi amaliy dasturlar
5.	Yer yuzasi tuzilishining asosiy xususiyatlari	Kompyuterlar, Internet texnologiyalari, interfaol xarita	Kompyuterlar, taqdimotli dasturlar, Interaktiv doska, elektron ko‘rgazmali qurollar	Kompyuterlar, video darslar, elektron darsliklar, onlayn test va nostandart testlar
6.	O‘rta Osiyo iqlimi. Iqlimga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, iqlimiy tafovutlar. Havo massalari. siklon va antitsklonlar	Kompyuterlar, Internet texnologiyalari, interfaol xarita	Kompyuterlar, taqdimotli dasturlar, Interaktiv doska, elektron ko‘rgazmali qurollar	Kompyuterlar, video darslar, elektron darsliklar, onlayn test va nostandart testlar
7.	O‘lka iqlimining ta’rifi. Tekislik iqlimi	Kompyuterlar, Internet texnologiyalari, interfaol xarita	Kompyuterlar, taqdimotli dasturlar, Interaktiv doska, elektron ko‘rgaz–mali qurollar	Kompyuterlar, video darslar, elektron darsliklar, onlayn test va nostandart testlar
8.	O‘rta Osiyo suvlari, ko‘llari va omborlari hamda erosti suvlari haqida tushunchalar, tuproqlari, cho‘l, adir, tog’ va yaylov o‘simliklari, ko‘l va rayonlari, hayvonot dunyosi, ularni muxofaza qilish	Kompyuterlar, interfaol xarita va virtual videolar	Kompyuterlar, taqdimotli dasturlar, Interaktiv doska, elektron ko‘rgazmali qurollar	Kompyuterlar, video darslar, elektron darsliklar, onlayn test va nostandart testlar
9.	O‘zbekistonning geologik tuzilishi va foydali qazilmalari geografik o‘rni, chegaralari va maydoni	Kompyuterlar, Internet texnologiyalari, interfaol xarita	Kompyuterlar, taqdimotli dasturlar, Interaktiv doska, elektron ko‘rgazmali qurollar	Kompyuterlar, video darslar, elektron darsliklar, onlayn test va nostandart testlar
10.	O‘zbekistonning ichki suvlari va suv boyliklari, ko‘llari, suv omborlari va erosti suvlari, ulardan	Kompyuterlar, Internet texnologiyalari, interfaol xarita	Kompyuterlar, taqdimotli dasturlar, Interaktiv doska, elektron ko‘rgazmali qurollar	Kompyuterlar, video darslar, elektron darsliklar, onlayn test va nostandart testlar

	foydalanish hamda tuproqlari, o‘simliklari, hayvonot dunyosi, tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish			
11.	O‘zbekistonning tabiiy geografik okruglari	Kompyuterlar, Internet texnologiyalari, interfaol xarita	Kompyuterlar, taqdimotli dasturlar, Interaktiv doska, elektron ko‘rgaz–mali qurollar	Kompyuterlar, video darslar, elektron darsliklar, onlayn test va nostandart testlar
12.	Viloyatlarning iqlimi, suvlari, tuproqlari va hayvonot dunyosi hamda Orol tabiiy geografik okrugi	Kompyuterlar, Internet texnologiyalari, interfaol xarita	Kompyuterlar, video lavhalar va sayohatlar uyishtirish	Kompyuterlar, video darslar, elektron darsliklar, onlayn test va nostandart testlar

O‘quvchilarning darsdan tashqari o‘quv faoliyatini axborot texnologiyalari vositalari asosida samarali tashkil etishda 1-jadvalda keltirilgan elektron ta’lim resurslardan foydalanish uchun **eduportal.uz**, **rtm.uz** ta’lim portallaridan hamda tadqiqot doirasida, geografiya saytlaridan axborot ta’lim platformalaridan foydalanishni tavsiya etamiz. Bunda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin: darsda berilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtiradi; mustaqil ravishda fanni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi; o‘quvchining bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazishni ta’minlaydi; o‘zini-o‘zi onlayn bilimini baholash imkoniyatini yaratadi; ayrim sabablarga ko‘ra darsga qatnasha olmagan hamda imkoniyati cheklangan o‘quvchi-yoshlarni masofadan ta’lim olishni muayyan darajada ta’minlaydi.

Umumta’lim maktab o‘quvchilarining geografiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatida yuqorida keltirilgan axborot ta’lim muhitlaridan foydalangandan so‘ng, ularning kreativ fikrlashini oshirish uchun komp’yuterning amaliy dasturlari yordamida bajariladigan topshiriqlar beriladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Geografiya fanidan mustaqil o‘quv topshiriqlarini kompyuterning amaliy dasturlari yordamida bajarishga oid tavsiyalar (O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi misolida)

T/r	Bajariladigan mavzular	Foydalaniladigan dasturiy vositalar
1.	O‘rta Osiyo tabiiy geografik o‘lkasining xaritasini va ularning shartli belgilarini chizish	Paint
2.	O‘rta Osiyo hududi tarixi va qazilmalariga oid taqdimot tayyorlash	Microsoft Word
3.	Yer yuzasi tuzilishi bo‘yicha taqdimot tayyorlash	Microsoft Word
4.	O‘rta Osiyo iqlimiga oid taqdimotlar tayyorlash	Microsoft Word
5.	O‘rta Osiyodagi ko‘llarni, suvomborlari va daryolarini chizish	Paint
6.	O‘rta Osiyo tuproqlari, cho‘l, adir, tog’ va yaylov o‘simliklari, ko‘l va rayonlar, hayvonot dunyosi va tabiat zonalari ularni muxofaza qilish ga oid taqdimot tayyorlash	Microsoft Word
7.	O‘zbekiston hududini chizish	Paint
8.	O‘zbekiston iqlimi, yil fasllari va iqlim resurslari, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari haqida taqdimot tayyorlash	Microsoft Word

9.	O‘zbekistondagi daryo va ko‘llari joylashuvini chizish	Paint
10.	O‘zbekiston tuproqlari, o‘simliklari, hayvonot dunyosi, tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilishga oid taqdimot tayyorlash	Microsoft Word
11.	O‘zbekistondagi viloyatlarining joylashuvini chizish	Paint
12.	Viloyatlarning iqlimi, suvlari, tuproqlari va hayvonot dunyosi bo‘yicha taqdimot tayyorlash	Microsoft Word
13.	Orol tabiiy geografik okrugi bo‘yicha taqdimot tayyorlash	Microsoft Word

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning geografiya fanidan darsdan tashqari o‘quv faoliyatida 1-jadvalda keltirilgan mavzularni o‘zlashtirishda tavsiya etilayotgan elektron ta’lim resurlaridan foydalanish, ushbu fanni mukammal darajada o‘rganishni ta’minlaydi. Mazkur mavzularni elektron ta’lim resurslari yordamida o‘zlashtirgandan so‘ng, 1.2-jadvalda keltirilgan topshirqlarni komp’yuterning amaliy dasturlari yordamida bajaradi. Buning natijasida, O‘rta Osiyo va Respublikamizning chegaralarining tuzilishi, tabiiy boyliklari, daryo va ko‘llarning joylashuvini chizishi va ular haqida taqdimotlar tayyorlash uchun mustaqil ravishda ma’lumotlarni, unga oid rasm va chizmalarni qidirib topishga harakat qiladi. Bunda o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini oshishi, fikrlash doirasining kengaytirishga yordam beradi hamda informatika va geografiya fanlarining integratsiyasi ta’minlanadi. Natijada, fanlararo aloqadorlik ta’minlanadi hamda kreativ fikrlashi oshadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Байрамукова П.У. Внеклассная работа как средство совершенствования математических знаний учащихся начальных классов общеобразовательной школы // Дис. канд. пед. наук.– Махачкала, 2000–192 с.

2. Abdullayev A.G, Po‘latova Q.D, Abdullayeva M.G. Geografiya ta’limida sinfdan tashqari ishlarning ayrim shakllari // Geografiya fani va uni o‘qitishning dolzarb masalalari: Respublika miqyosida ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Nukus, 2019. –B. 54 -56

3. Xamroyeva F.A. Oliy ta’lim muassasalarida tabiiy geografik fanlarni o‘qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 43 b.

4. Norbo‘tayev X.B. Boshlang’ich sinf tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari mashg’ulotlarning samaradorligi // Zamonaviy ta’lim 2017,№ 5. B.75-80.

6. Internet ma’lumotlar.

ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМДА “ПЕДАГОГ ҚАСАМЁДИ”

Нигматов А.Н.

Низомий номидаги ТошДПУ, Тошкент, Ўзбекистон, e-mail: nigmatov_an@mail.ru

Аннотация: *Мақолада илк бор падагогик таълимда “Педагог қасамёди”ни қабул қилиш масаласи кўтарилди. Унда, тиббиёт ва ҳарбий бўлинмаларда тегишли касбий қасамёдни қабул қилиш тажрибасидан келиб чиққан тарзда, миллий қонунчилик асосида педагог қасамёдининг талаблари, мазмуни ва моҳияти очиб берилган ҳамда унинг матни келтирилган.*

Калит сўзлар: *Қасамёд, тажриба, педагогика, қонун, талаблар, мазмун, матн, моҳият.*

“ПРИСЯГА ПЕДАГОГА” В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Нигматов А.Н.

ТашГПУ им. Низами, Ташкент, Узбекистан, e-mail: nigmatov_an@mail.ru

Аннотация: *Впервые в педагогическом образовании был поднят вопрос о принятии “Присяга педагога”. В нем раскрываются требования, содержание, суть и приводится ее*

текст на основе национального законодательства и опыта принятия соответствующей профессиональной присяги в медицине и воинских подразделениях.

Ключевые слова: *Присяга, опыт, педагогика, закон, требования, содержание, текст, суть.*

“TEACHER'S OATH” IN TEACHER EDUCATION

Nigmatov A.N.
TashSPU named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan, e-mail: nigmatov_an@mail.ru

Annotation. *For the first time in teacher education, the issue of taking the “Teacher's Oath" was raised. It reveals the requirements, content, essence and provides its text based on national legislation and experience in taking the appropriate professional oath in medicine and military units.*

Key words. *Oath, experience, pedagogy, law, requirements, content, text, essence.*

Милоддан аввал 469-399-йилларда яшаб ўтган юнон файласуфи Суқрот “Учта касб аллоҳдан, қолганлари эса одамларнинг ўзларидан: тиббиёт (инсон ҳаётини ҳал қилади – А.Н.), ҳуқуқшунос (инсон тақдирини хал этади – А.Н.), муаллим-педагог (инсон маърифат-маънавиятини шакллантиради – А.Н.). Бундай доно фикрлар ҳозирга кунда ўз ҳаётийлигини йўқотгани йўқ. Мен ҳам муаллим-педагог бўлганимдан фаҳрланаман. Зеро дунёвий илм, яъни зиёни кенг оммага тарқатаман, қаерда бўлмасин таълим ва тарбияни йўлга қўйишга ҳаракат қиламан. Лекин доимо менга бир ҳолат сира тинчлик бермайди. Нима учун юқорида тилга олинган касблардан бири – тиббиёт ходимлари ва ҳарбийлар, аниқроғи юқори малакали врач ҳамда барча ҳарбий хизматчиларнинг қасамёди борку, аммо ҳуқуқшунос ва педагогларда бундай ҳолат оммалашмаган. Ахир педагог тиббиёт ходимини ҳам ҳарбийларни ҳам кадр қилиб етиштиради, уларга тегишли маънавият-маърифат уруғини сочадику.

Врачларнинг “Гиппократ қасамёди”ни юзага келиш тарихига бир назар ташлайдиган бўлсак, у илк бор эрамиздан аввал 300 йилларда эллада(греклар)га тегишли бўлган Александрия шаҳрида қадимги грек тилида ёзилган. Унинг ҳозирги вариантлари кўп тилларга ўгиришда, замон ва маҳаллий шароитга мослаштириш орқали анчагина ўзгаришларга олиб келинган. Масалан, Шимолий Америка ва Европада уни “Касбий кодекс” билан алмаштирилган. Кўпгина мамлакатларда, айниқса мусулмон давлатларида тиббиёт ходими аборот қилишда тегишли давлат идораларидан унинг сабабини асослайди ва рухсат олади. Шунинг учун ҳам ушбу каби ҳолатлар “Касбий қасамёд”дан чиқариб ташланган. Бу ҳам мантиқан тўғри.

Аксарият давлатларда “Ҳарбий қасамёд” мавжуд. Бу ҳарбий хизматга жалб қилинаётган фуқароларнинг тантанали равишда бериладиган ваъдаси. Ҳарьий қасамёд ҳуқуқий ва сиёсий-аҳлоқий норма бўлиб, ўз халқи ва раҳбари олдида ўрнатилган қоидаларга бўйсинган тарзда давлат суверенлигини ҳимоя қилиш учун бутун куч, қудрат, билим ва солиҳият, керак бўлса жонини ҳам беришга таёр эканлиги акс эттирувчи ва ўз имзоси билан тасдиқловчи ҳужжат. Шунинг учун ҳам Ўзбекистон Республикасида “Ҳарбий қасамёд” матни 2018 йил 18 апрелдаги «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги қонуни билан тасдиқланган ва 2018 йил 19 октябрдан кучга кирган.

Яна бир масалага алоҳида тўхталиб ўтишга тўғри келади, яъни “Касбий қасамёд”ларнинг мазмуни ва моҳияти турли давлатларнинг сиёсий тузилиши, ҳуқуқий асоси ва миллий қадриятларидан келиб чиққан тарзда турлича мазмун касб этади.

Уларни инобатга олган ва чуқур таҳлил қилган тарзда қуйидаги ҳолатларни “Педагог қасамёди” матнида акс этиши лозим экан:

- ✓ *фамилияси, исми, шарифи;*
- ✓ *келажакда қайси касбга қадам қўйиши;*
- ✓ *“Қасамёд қиламан” сўзидан бошланиши;*
- ✓ *кимлар, қайси халқ ёки давлатнинг олдида содиқ бўлиши;*
- ✓ *нималарга риоя қилиши;*
- ✓ *қандай ҳаракат қилиши ёки қилмаслиги;*
- ✓ *агарда ушбу қасамни бузса қандай жавобгарликка тортилишга рози эканлиги;*
- ✓ *қаерда қасамёдни қабул қилиниши;*
- ✓ *имзоси ва ҳ.к.*

Бошқа касбий қасамёдлардан фарқли равишда “Педагог қасамёди” нисбатан барқарордир. Зеро инсониятга тегишли бўлган маърифат ва маънавиятнинг мақсади ҳамда вазифалари доимо ижобий кўринишга эга. Бу ўринда “Педагог” ким ва унинг таркибига кимлар киради, деган савол пайдо бўлиши муқаррар.

Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 1 февраль “Педагогнинг мақоми тўғрисида”ги қонунга мувофиқ ***Педагог*** *– таълим ташкилотида қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ тузилган меҳнат шартномаси асосида таълим ва тарбия соҳасида касбий фаолиятни амалга оширувчи ҳамда тегишли маълумотга, касбий тайёргарликка ва маънавий-ахлоқий фазилатларга эга бўлган жисмоний шахс.* Шундай қилиб Ўзбекистонда киши педагог мақомини олиш учун қуйидаги талабларга жавоб бериши керак:

- ➢ *таълим ташкилотида фаолият юритиши;*
- ➢ *қонуний меҳнат шартномаси асосида иш юритиши;*
- ➢ *касбий фаолияти таълим ва тарбия тегишли бўлиши;*
- ➢ *тегишли маълумот, касбий тайёргарлик ва маънавий-ахлоқий фазилатларга эга бўлган жисмоний шахс эканлиги.*

Ўзбекистон Республикасининг миллий қонунчилигидан келиб чиққан тарзда *“Педагог қасамёди”нинг матни*ни қуйидагича лойиҳа вариантда ифода этиш мумкин:

Мен, (фамилияси, исми, шарифи) Ўзбекистон Республикасида Педагоглар сафига кирар эканман, унинг қонуний мақомига қўйиладиган барча талабларга мувофиқ равишда халқимга хизмат қилишга қасамёд қиламан.

Мен қаерда яшашим ва фаолият юритишим, қандай жой ва кишилар билан мулоқатда бўлишимдан қатъий назар педагог мақомига хос бўлган хислатлар: ўз касбий соҳамда атрофлича билимларни, тегишли маърифий, маънавий-ахлоқий кўникма ва малакаларни замон талабларига мос равишда эгаллаш, уларни маҳоратли кадрлар тайёрлаш ҳамда халқимнинг онг ва маданиятини шакллантиришда бор кучимни сарфлашга қасамёд қиламан.

Агар мен ушбу тантанали равишда қабул қилган қасамёдимни бузсам миллий қонунчиликда белгиланган ҳуқуқий жавобгарликка ва халқимнинг ижтимоий жазосига тортилишга розиман.

Қасамёд қабул қилинган жой ва сана имзо ФИШ

“Педагог қасамёди” шаклан ва мазмунан давлат рўйхатидан ўтказилиши ва ҳуқуқий мақомга эга бўлиши лозим. Акс ҳолда унинг мажбурий кучга эгалиги йўқолади. Қасамёд Ўзбекистон Республикасидаги барча педагогик касбий йўналишдаги таълим ташкилотлар(тўғрироғи муассасалари)га ўқишга кирган ёки шу касбга қайта тайёрланаётган жисмоний шахслар учун қўллаш тавсия этилади. У Республикамизнинг

бирон бир касбий таълим муассасида ушбу қасамёдни қабул қилган жисмоний шахсларга тегишли эмас.

Мазкур "Педагогик қасамёд"нинг қабул қилиниши қуйидаги ижобий натижаларга:

1) *жисмоний шахс эгаллашни мақсад қилиб қўйган педагоглик касбини миллат ҳаётида нечоқлик масъулиятли эканлиги;*
2) *ушбу масъулиятни фақатгина юқори даражадаги касбий таълим йўналишидаги билим, кўникма ва малакаларга эга бўлсагина амалга жорий қилиш мумкинлиги;*
3) *ҳар қандай соҳадаги кадрларни юқори савияда тайёрлаш педагогнинг бурчига кириши;*
4) *унинг фаолият натижаси халқаро ҳамжамият тамонидан ўз халқининг онг ва маданият рейтинг даражасини баҳолашда қўлланиши мумкинлиги;*
5) *ўз касбий фаолиятини ҳар қандай вазият ва ҳолатда қўллаш кераклиги;*
6) *ушбу қасамёд нафақат ҳуқуқий, балки ижтимоий жавобгарликка эга эканлигини хис этиш ва келгусида ушбу мажбуриятларга тайёр туришга олиб келади,* деб ўйлаймиз.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 1 февралдаги "Педагогнинг мақоми тўғрисида"ги қонуни.

2. Марков А.. Сократ. Я ничего не знаю. С комментариями и объяснениями.- Москва: ООО «Издательство АСТ», 2019.- 270 с.

3. https://ru.wikipedia.org/wiki. Клятва Гиппократа.

4. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/harbiylarning_qasamed_matni.

INTEGRATION OF NEW TECHNOLOGIES IN TEACHING GEOGRAPHY: EXAMPLES OF 7TH GRADE

Elbasy A.A.

Turkistan oblast, Ordabasy region, K.Spataev secondary school Geography Teacher

Turkistan, Kazakhistan

Abstract: *This research project is designed to integrate new technologies in teaching geography at the Grade 7. In the context of modern education, the introduction of innovative teaching methods and means is an urgent task aimed at improving the efficiency of the educational process and attracting the attention of students.*

The purpose of the study: to identify the experience of integrating new technologies into the process of teaching geography in Grade 7, as well as to assess their impact on the academic success of students and their motivation to study the discipline.

The study used various innovative techniques, such as interactive learning platforms, virtual excursions, and computer programs for creating geographic models, among others. The emphasis was placed on the use of interactive teaching methods that contribute to the active participation of students in the educational process.

The results of the study showed the positive effect of the integration of new technologies on the teaching of geography in the 7th grade. Students became more interested in the subject, improved their academic performance and developed skills in working with modern information technologies. Thus, the integration of new technologies in teaching geography at the 7th grade level is an effective and promising approach that contributes to improving the quality of education and motivating students to study the discipline.

Key words: *new technology, multimedia technologies, innovation, interactive map, GIS technologies, virtual excursions.*

Introduction. In the modern informational society, the use of new technologies in the educational process is becoming increasingly important. One of the most promising areas where innovations can bring significant results is geography training. In this article, we will consider the experience of introducing new technologies into the educational process of Grade 7 and evaluate the effectiveness of this approach. Modern technologies and teaching methods open up wide opportunities for improving the teaching of geography at school. Instead of traditional textbooks and lectures, educators can make the learning process more interesting and effective by using interactive maps, virtual excursions, game technologies, online resources and other tools. These innovations help students better understand the peculiarities of geography; develop data analysis skills and memorize information through games and applications. Thus, the use of modern technologies and teaching methods can significantly improve the quality of teaching geography in the school curriculum.

Globalization and the rapid development of Information Technology require students not only knowledge of facts and definitions, but also skills in analyzing and interpreting large amounts of data. In this sense, the use of new technologies contributes to a deeper understanding of complex geographical phenomena and processes. For example, working with interactive maps, 3D models or virtual reality allows schoolchildren to get acquainted with any part of the world, studying its features and connections with other areas. This approach increases interest in the subject and encourages students to study geography on their own.[1]

An important component of the use of new technologies is the ability to exchange information between the teacher and students. Through special applications or online platforms, it is possible to organize independent classes or conduct interactive classes, in which students have the opportunity to ask questions and receive immediate feedback from the teacher. Thus, the integration of new technologies in teaching geography plays a key role in modern education. This makes the learning process interesting and effective, stimulates the active participation of students in the study of the subject and develops the skills of working with information. Students of the 7th grade, using new technologies, have the opportunity not only to get acquainted with geographical material, but also to apply it in practice, which contributes to a deeper assimilation of knowledge.

The use of Game technology can also be useful in teaching geography in the school curriculum. For example, virtual reality games can help students better understand geographical concepts and places, as well as explore the consequences of ecosystems and animals [2, p. 6].

Research materials and methodology. Currently, digital technologies are penetrating into all spheres of people's lives, and this direction of change – education-is not bypassed. One of the areas of active use of new technologies in the educational process is the study of Geography.

The article discusses the experience of using new technologies to encourage student participation in the study of geographical processes in the seventh grade.

One of the main goals in teaching geography is to form students ' ideas about spatial relationships and dependencies. Traditional teaching methods, such as the use of lectures and textbooks, do not always increase high activity and interest in the subject. Therefore, I decided to use various new technologies that allow students to independently study geographical processes.

One such tool was the use of interactive maps. Students had access to special programs or sites that offer interactive maps with different geographical features. With these tools, students can explore different regions, explore climate features, Land Use, and other aspects of geography. The interactivity of the cards allowed students to independently choose the topic of research, ask questions and get answers to them.

Another tool was the use of geographic information systems (GIS). Students were asked to create their own GIS map, which can display various geographical data. At the same time, students independently collected and added information about various objects (for example, rivers, lakes, cities) to the map. This approach allowed students to fully understand spatial connections and dependencies.

Also, in the process of teaching geography, the use of virtual reality (VR) was implemented. Students had the opportunity to visit different places in the world without leaving the classroom. They were able to visit geographical objects, study their features and gain new knowledge about the world around them. The usage of VR made it possible for students to "immerse themselves fully" in the topic being studied and increase their interest in the subject.

Currently, the use of modern technologies is becoming widespread in education, and there is no exception in the field of geography. The article by R. Brown and M. Garcia examines in detail the practice of introducing Geographic Information Systems (GIS) into the curriculum of a high school based on classes conducted with 7th grade students [3].

The main lessons learned from the practice of teaching using GIS in the educational process in Grade 7 include:

1. increasing the motivation of students and activate their educational activities through the use of Interactive and attractive GIS tools;

2. development of spatial thinking and analytical thinking skills of students in the process of working with geographical data and creating their own maps;

3. Improving the understanding of geographical concepts and the relationship of various geographical phenomena and processes;

4. improving the overall quality of Education and preparing students for mastering complex topics and tasks in the field of geography. Thus, the experience of introducing GIS technologies into the educational process of Grade 7 confirms their effectiveness and prospects in teaching geography. This practice is the basis for the further development and introduction of new technologies in the educational process in order to enrich the educational experience and increase the interest of students in the study of geography can be [4].

Geografiyadan amaliy mashg‘ulotlarda masala va mashqlarni bajarish o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, mantiqiy fikrlashlarini, barcha geografiya fanida olgan bilimlarini mustahkamlash hamda rivojlantirish imkonini beradi. Geografiyadan masalalar yecha olish umumta’lim maktab o‘quvchilarining amaliy hayotida zarur bo‘ladigan eng muhim malakalardan biri hisoblanadi. Ba’zan geografik masalalar degan so‘zdan, asosan tabiiy geografiya mavzulari bo‘yicha yechiladigan masalalar tushuniladi. To‘g‘ri tabiiy geografiyaning atmosfera, gidrosferaga oid masalalar geografiya o‘qitish jarayonida test topshiriqlarini tuzishda ancha qulay va ushbu bo‘limlarni o‘qitish jarayonida muhim ahamiyatga ega hamda hayotda ham shunday masalalarga duch kelinadi. Shuningdek, geografiya fanining boshqa tarmoqlariga oid masalalar ham – geografik tushunchalar, nazariyalar, qonun-qoidalar mohiyatini ochib beradigan amaliy mashg‘ulotlar ham katta amaliy ahamiyatga ega. Bu amaliy mashg‘ulotlar o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini aniqlashda, ularning geografik bilimlar haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirishda, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda, maktab o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish hamda ularda geografik tafakkurni hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Bunda, amaliy mashg‘ulotlarni bajarish geografiya fani o‘quv jarayonining asosiy shakllaridan biri bo‘lib unda, o‘quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatlari shakllantiriladi. O‘z bilimlarini chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi. Amaliy mashg‘ulot darslariga o‘qituvchi juda puxta tayyorgarlik ko‘rishi talab etiladi. U amaliy mashqlar yechish davomida paydo bo‘ladigan har qanday muammolarni atroflicha o‘quvchilarga tushuntirib berish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Geografiya fani o‘qituvchisi har bir amaliy mashg‘ulot darsini o‘tkazish rejasini puxta tuzib chiqishi lozim. Uni qanday yangi pedagogik texnologiyalaridan yoki yangi interaktiv usullardan foydalanishni aniqlab olishi zarur. Bunda, kerakli ko‘rsatma va tarqatma materiallarini oldindan tayyorlab qo‘yish talab etiladi [3].

Amaliy mashg‘ulotda ko‘proq o‘quvchilar guruhini bir nechta kichik guruhlarga ajratib o‘qitishning aqliy hujum, bahs-munozara, suhbat metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Natijada, bu metodlar o‘quvchilarni mavzu yuzasidan ko‘proq mustaqil fikr yuritishga, o‘z fikrini bayon etishga undaydi. Geografiya darsiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib, diqqatlarini jamlashga o‘rgatadi. Bundan tashqari amaliy mashg‘ulot so‘ngida geografiya o‘qituvchisi har bir o‘quvchining faoliyatini to‘g‘ri va holisona baholashga erishishi zarur. Shuningdek, baholarni e’lon qilib faol o‘quvchilarning familiyalarini aytib rag‘batlantirishi va aksincha passiv, nutqi rivojlanmagan yoki uyatchan o‘quvchilarga yengil tanbeh berishi ham muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilar geografiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarni ayrim darslarda emas balki doimo butun geografiya darsini o‘qitish davomida aniq ma’lum tartibda ishlab borgan taqdirdagina geografiyadan masala va mashqlar yechish malakalariga atroflicha ega bo‘lib boradilar.

Geografiyadan foydalaniladigan masala va mashqlarning turlari.

Masala bu – o‘rtaga qo‘yilgan muammoni yechimini topishda o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirgan bilimlarni qo‘llash orqali ma’lum natijaga erishishdir. Masala muammoli savollardan iborat bo‘lib, ma’lum bir geografik voqea va hodisalar yechimiga qaratilgan bo‘ladi. Shuningdek, masala geografik ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. Masalada savollardan foydalanishning asosiy maqsadi geografik tushunchalarni o‘zaro bog‘lash, aniqlik kiritish va anglab yetishdir. Masala savollari geografik til va belgilarni o‘zlashtirishda ham muhimdir. Ta’lim jarayonida isbot talab qiladigan mashqlar, jumladan, tushirib qoldirilgan

so‘zlarni to‘ldirish, matndagi xatoliklarni topishga qaratilgan mashqlar aniq isbotlashga misoldir. Bunday ko‘rinishdagi mashqlarni tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi va Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi darslarida qo‘llash yuqori samara beradi.

Mashq – o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni mustaxkamlash va rivojlantirishga qaratilgan harakatlardir. Mashq qilish bilimni – ko‘nikmaga, ko‘nikmani – malakaga aylanishini ta’minlaydigan jarayondir. Mashq o‘quvchilarda malaka va ko‘nikma hosil qilishda amaliyot bilan bog‘langan eng samarali metodir. Mashq – inson oldiga qo‘ygan maqsadni amalga oshirish, ijobiy natijaga ega bo‘lish uchun qilingan mashaqqatli mehnatdir. Mashq qilish orqali o‘quvchi o‘quv va amaliy ko‘nikma hamda malakaga ega bo‘lib, avval o‘zlashtirgan bilimlarni yodga soladi. Mashq qilmay o‘quv, amaliy ko‘nikma va malakaga ega bo‘linmaydi.

Masala va mashqlarning birdan-bir eng muhim tomoni o‘quvchilarning dars davomida ijodiy fikrlash faoliyatini faollashtirishdan iborat. O‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishda geografik masalalar yechishda ular nafaqat geografik voqea va hodisalar, balki ularning kelib chiqish sabablari hamda xususiyatlarini esda saqlab qolishga, rivojlanish qonuniyatlari hamda oqibatlari haqida fikrlash, bayon etishga, ma’lumotlarni taqqoslashga, ularni o‘xshashlik va farqli tomonlarini aniqlashga, to‘g‘ri xulosalar chiqarishga o‘rgatadi.

Masala va mashqlardan foydalanish:

Birinchidan, masala va mashq yechish fanni o‘rganishning bosh maqsadi – olingan bilimni amaliyotga qo‘llash imkonini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, masala va mashq yechish orqali o‘quvchilarning bilim olishdagi faolligi ortadi.

Uchinchidan, masala o‘quvchini fikrlash va xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

Shuning uchun ham masala so‘ziga faqat hisob-kitob asosida topshiriqni bajarish, javobni aniqlash emas, balki fikr yuritish obyekti sifatida qaralishi lozim. Geografik masalalar o‘quvchilar fikrini uyg‘otishi, ularni kitob bilan ishlashga o‘rgatishi, rivojlantirishi, shakllantirishga qaratilishi kerak.

Geografiya fanini amaliy mashg’ulotda foydalaniladigan masala va mashqlarni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

- Joy plani va geografik kartalarga oid;
- Yerning ichki tuzilishi – litosferaga oid;
- Yerning suv qobig‘i – gidrosferaga oid;
- Yerning havo qobig‘i – atmosferaga oid;
- Soat mintaqalari va vaqt hisobiga oid;
- Quyoshning ufqdan balandligini aniqlashga oid;
- Geografiya darslarida statistik ma’lumotlardan foydalanishga oid;
- Aholi geografiyasi va demografiyasiga oid;
- Iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaga oid masala va mashqlar;

Mazkur turlarning barchasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular ushbu xususuiatlaridan kelib chiqib yana guruhlarga ajratiladi [3, 6].

Geografiya ta’limida foydalaniladigan masala va mashqlarni murakkablik darajasi, shakli va ma’nosiga qarab tasniflarga ajratish mumkin.

O‘quvchilarga taklif etilayotgan masala va mashqlar (u darsda yoki darsdan tashqari o‘tkaziladigan olimpiada, bilimlar sinovida bo‘lsin)ni murakkabligiga qarab beshta darajaga ajratish mumkin:

Birinchi darajali masalalar. Oddiy bilimlarni takrorlash va taqqoslash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday masalalar ko‘proq o‘quvchilarning xotirasini tekshirish uchun qo‘lay. Masalan, maktabga 45^0 azimut bilan borsangiz, uyga qaysi azimut va ufq tomoni bilan qaytib kelasiz? [7]

Ikkinchi darajali murakkablikka ega bo‘lgan masalalar. Ularni yechishda ayrim geografik qonunlarni tadbiq eta olishni va ayrim hodisalarni taqqoslash talab yetiladi. Shuningdek, ushbu darajadagi masalalar o‘quvchilaridan boshqa fanlardan olgan bilimlarini ham ularning yechimini topish uchun safarbar yetadi. Masalan, dengiz sathida havo harorati $+26\ ^0$C bo‘lsa, 4800 metr balandlikdagi havo haroratini necha darajaga teng bo‘ladi.

Geografiyadan *uchinchi darajali* masala va mashqlarni yechishda bir necha amallarni bajarish, obyektning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyatini bilish talab yetiladi. Fanlararo bog‘lanishni amalga oshira olishni, o‘zlashtirilgan bilimlardan foydalanib masala yechimini topishga harakat qilish kerak bo‘ladi. Masalan, Amudaryo o‘z oqimi davomida 100 000 dan 500 000 gacha qaysi aholi manzilgohlari yaqinidan, ya’ni, shaharlardan oqib o‘tadi? Shaharlarni manbaidan mansabiga tomon ketma-ketlikda joylashtiring va nima sababdan ushbu shaharlarda aholi ko‘p yashashini tahlil qiling.

To‘rtinchi darajali murakkablikka ega bo‘lgan masala hamda mashqlarga javob berishda o‘quvchilar boshqa fanlardan olgan bilimlarini ham safarbar yetishni bilishlari kerak. Shuningdek, bir necha bosqichda masala yechish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Masalan, Toshkentda mintaqa vaqti bilan soat kunduzi 12 bo‘lsa, Toshkent va Nukusda mahalliy vaqt bilan soat necha bo‘ladi?

Geografiyaga oid *beshinchi darajali* masala va mashqlarda bir vaqtning o‘zida bir nechta hisoblash ishlarini amalga oshirish bilan bir qatorda obyektlarni bir-biriga taqqoslash, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarning sabablarini aniqlash, masalalar yechimini topishda geografik qonuniyat va nazariyalarni tadbiq etish talab etiladi. Masalan, Kaspiy dengizi suv sathida suv eng zich bo‘lgan holatda Botir tog‘ining eng baland nuqtasida havo harorati qanday?

Geografiya fani o‘qituvchilarining geografiyadan masala va mashqlarga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish bosqichlari taqdim qilingan, nazariy-pedagogik asoslari, tadqiqotning maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik tamoyillari, pedagogik tizimi va uning bosqichlari belgilangan. Shuningdek, geografiya ta’limida foydalaniladigan masala va mashqlar turlari hamda tanlab olish mezonlariga doir o‘quv-tarbiyaviy ishlarning mazmun va sifat jihatdan takomillashtirish o‘quvchilarning nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalarini shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratishi ko‘rsatib berilgan.

Geografiya fanlarini o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarni bajarish orqali fanlararo bog‘lanishning metodik xususiyatlariga e’tibor qaratiladi. Geografiya ta’limining samaradorligini oshirish va o‘quvchi ma’lum darajada o‘z oldiga qo‘ygan geografik maqsadlarga erishishi, tayanch kompetensiyalardan tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirishda amaliy ishlar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bunda, geografiya o‘qituvchilari masalalar yechish metodikasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi natijasida o‘quvchilar geografik bilimlarni yuqori darajada o‘zlashtirish hamda geograik hodisa va jarayonlar mazmunini yoritish imkoniga ega bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida fanlararo aloqadorlik geografiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi, ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik tayyorgarligi orqali o‘z fanini chuqur anglashi asosida samarali amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun o‘qituvchi faqat o‘zi dars beradigan fanni chuqur va puxta bilib qolmasdan, balki integrativ bilimlardan ham xabardor bo‘lishiga e’tibor qaratishi lozimligi ta’kidlangan. Bunda, geografiya, biologiyani kimyo,

fizika, matematika, informatika va tarix fanlari bilan bog‘lab o‘qitish o‘quvchilarning amaliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini oshiradi [4, 5].

Geografiya o‘qituvchilarida masala va mashqlardan foydalanishga qiziqishni shakllantirish kasbiy kompetentlik bilan bir qatorda ijtimoiy-kommunikativ tadbirlar: suhbat, muloqot, seminar, konferensiya, shuningdek, metodik ishlar, o‘quvchilarning o‘z kasbiy-shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy kompetensiyasini oshirish ustida faol ishlashi kabilarda rivojlantirilgan. Bu o‘z navbatida geografiya fanlari tizimini chuqur o‘rganish, imkon qadar real voqelikka yaqin tajribalar o‘tkazish, nazariy qonun-qoidalarni sinab ko‘rishni zarur qilib qo‘yadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. 24.09.2020-y. // http: lex.uz/pages/getpege.

2. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. –Т.: Фан ва технологиялар, 2006. –186 б.

3. Bahramov Q., Halimova G. Geografiyadan mashq va masalalarni yechish usullari. – T.: Navro‘z, 2017.

4. Джўраев Р., Зуннунов А. Таълим жараёнида ўқув фанларини интеграциялаштириш омиллари. Ўқитувчилар учун ўқув қўлланма. –Т.: Шарқ, 2005. – 80 б.

5. Муслимов Н.А., ва б. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. Монография. –Т.: Фан ва технологиялар, 2013. –128 б.

6. Mirakmalov M.T., Avezov M.M., Nazaraliyeva E.Y. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg‘ulotlar. –T.: Fan va texnologiya, 2015.

7. Xolmurodov Sh., Karimov I. Topografiya va kartografiya asoslaridan laboratoriya mashg’ulotlari. Uslubiy qo’llanma. -T.: Zuxra baraka biznes. 2023.

MAKTAB GEOGRAFIYA TA’LIMIDA 5 E O‘QUV MODELIDAN FOYDALANISH

Abdullayev M.D.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston
e-mail: www.geograf.uz@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab geografiya ta’limida 5 E o‘quv modelining ahamiyati va uni darslarda qo‘llash imkoniyatlari haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *geografiya ta’limi, pedagogik texnologiyalar, iqtisodiy geografiya, 5 E, o‘quv moduli, o‘quv dasturi, o‘quv metodologiyasi.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МОДЕЛИ ОБУЧЕНИЯ 5 E В ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ ГЕОГРАФИИ

Абдуллаев М.Д.
Чирчикский государственный педагогический университет
Чирчик, Узбекистан, e-mail: www.geograf.uz@gmail.com

Аннотация: *В данной статье говорится о важности образовательной модели 5 E в школьном обучении географии и возможностях ее использования на уроках.*

Ключевые слова: *географическое образование, педагогические технологии, экономическая география, 5 E, учебный модуль, учебная программа, методика обучения.*

USING THE 5 E LEARNING MODEL IN SCHOOL GEOGRAPHY EDUCATION

Abdullaev M.D.
Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan
e-mail: www.geograf.uz@gmail.com

Abstract: *В данной статье говорится о важности образовательной модели 5 Е в школьном обучении географии и возможностях ее использования на уроках.*

Key words: *geography education, pedagogical technologies, economic geography, 5 E, educational module, curriculum, educational methodology.*

Geografiya ta'limida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning nazariy bilimlarini oshirish, balki ularning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ham muhimdir [1]. O'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, ularning qiziqishini uyg'otish va mavzularni chuqurroq o'rganish uchun innovatsion ta'lim modellarini qo'llash zarur. Shu maqsadda zamonaviy ta'limda keng qo'llanilayotgan 5E ta'lim modelining ahamiyati katta bo'lib, bu usullar dars jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Ushbu modellar o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, global muammolarni tahlil qilish hamda ularni amaliy jihatdan hal qilish imkoniyatlarini oshiradi.

Pedagogik texnologiyalar va metodlarning muvaffaqiyati ko'pincha o'qituvchining ijodiy yondashuvi va professional mahoratiga bog'liqdir. O'qituvchi o'zining kasbiy ko'nikmalarini 5E modeliga integratsiya qilgan holda, ta'lim jarayonini samarali tashkil eta olsa, yuqori natijalarga erisha oladi.

Mazkur tadqiqot ishi "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanini o'qitishda samarali bo'lgan bir qator pedagogik texnologiyalarva o'yinlar asosida takomillashtirilgan. Quyida haqida quyida batafsil so'z yuritiladi.

Fanni o'qitish modeli – bu ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarni o'rgatish uchun ishlab chiqilgan didaktik strategiya hamda yondashuvlar to'plami. Bu model o'quvchilar qanday bilim olishlarini, dars jarayonini qanday kechishini va o'qituvchi qanday vositalar va metodlardan foydalanishini belgilab beradi. Fanni o'qitish modeli quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

- *o'quv maqsadlari* – o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va kompetensiyalar;
- *o'qitish metodlari va strategiyalari* – maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlar;
- *o'quvchilarning faoliyati* – o'quvchilar bilimni qanday o'zlashtirishi, qanday shakllarda (individual, guruhda, amaliy tajribada) ishlashi;
- *baholash va natijalar monitoringi* – o'quvchilarning rivojlanishini o'lchash va o'quv jarayonining samaradorligini baholash usullari.

Geografiya ta'limida 5E modeliga asoslangan fanni o'qitish modeli o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish, mustaqil izlanish va ijodiy fikrlash jarayonlarini rag'batlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu o'qituvchining dars jarayonini bosqichma-bosqich rejalashtirishiga yordam beradi.

5E ta'lim modeli - konstruktivizm yondashuviga asoslangan va o'quvchilarning bilim olish jarayonini tadqiqot asosida qurishga qaratilgan zamonaviy pedagogik model hisoblanadi. 5E modeli o'quv jarayonini tadrijiy tarzda tashkil qilish orqali o'quvchilarda o'z-o'zini anglash, mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga

qaratilgan besh bosqichdan iborat. Har bir bosqich o‘quvchilarning bilimni chuqur va izchil o‘zlashtirishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Engage (Jalb qilish): Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarning mavjud bilimlarini faollashtiradi va ularda yangi bilimlarga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Jalb qilish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga ma’lum bir muammo yoki vaziyatni taqdim etib, ularni fikrlashga undaydi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda qiziqish va motivatsiyani uyg‘otish, ularni faol izlanishga tayyorlashdir. O‘quvchilarning oldingi bilimlarini faollashtirish orqali ularning yangi bilimlarni o‘zlashtirishga tayyorgarlik darajasi oshiriladi.

Explore (Tadqiq qilish): Bu bosqich o‘quvchilarni o‘zlari mustaqil ravishda tadqiqot qilishga undaydi. O‘quvchilar muammolarni amaliy tarzda o‘rganib, ularni kuzatish, tajribalar o‘tkazish yoki muhokama qilish orqali yangi tushunchalarni kashf etadilar. Tadqiq qilish jarayonida o‘quvchilar o‘z bilganlarini yangi bilimlar bilan taqqoslaydilar va bu orqali bilim olish jarayoniga faol kirishadilar. Ushbu bosqich, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, ularni o‘z bilimlarini mustaqil kashf qilishga undaydi.

Explain (Tushuntirish): Ushbu bosqichda o‘quvchilar tadqiqot davomida erishgan natijalarga o‘qituvchi tomonidan ilmiy tushuntirishlar beriladi. Bu bosqichning asosiy maqsadi – o‘quvchilarning tajribalarini nazariy bilimlar bilan bog‘lash va bilimlarni tizimlashtirishdir. O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zlari kashf etgan bilimlar va tushunchalarni ilmiy asosda tushuntiradi hamda aniqlashtiradi. Shu bosqichda o‘quvchilar mavzu yuzasidan yetarli tushunchalarga ega bo‘lib, bilimlarining ilmiy asoslari bilan tanishadilar.

Elaborate (Kengaytirish): Tushuntirish bosqichidan so‘ng o‘quvchilar olgan bilimlarini yanada chuqurlashtiradi va yangi vaziyatlarga tatbiq etadilar. Bu bosqich o‘quvchilarga bilimlarini kengroq doirada qo‘llash imkonini beradi, ya’ni ular yangi vaziyatlar, muammolar yoki misollarda o‘z bilimlarini sinab ko‘radilar. Amaliy mashg‘ulotlar va muammolar asosida bilimlarni mustahkamlash, o‘quvchilarning ilgari olgan bilimlarini mustaqil ravishda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Evaluate (Baholash): Oxirgi bosqichda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi va bilimlarining chuqurligi baholanadi. Ushbu bosqichda baholash vositalari sifatida testlar, savol-javoblar, kuzatishlar yoki portfoliolar qo‘llaniladi. O‘quvchilarning bilimlarini baholash jarayoni faqat o‘qituvchi tomonidan emas, balki o‘z-o‘zini baholash va tengdoshlarni baholash usullari orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Baholash jarayonida o‘quvchilarning o‘rganish jarayoni va amaliy bilimlarni qanchalik muvaffaqiyatli qo‘llay olishi aniqlanadi.

10-sinf geografiya fanida “Jahon mamlakatlarining boshqaruv shakllari” mavzusini 5E ta’lim modeli darsda qo‘llash o‘quvchilarning dars jarayonida chuqurroq ishtirok etishini ta’minlab, mavzuga qiziqishini oshiradi. Har bir bosqichda turli metodlar va faoliyatlar o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi. Quyida bu mavzuda 5E modelini qanday qo‘llash mumkinligi keltirilgan:

1. Engage (Jalb qilish) Darsni boshlash uchun o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish kerak. Mavzuga kirish sifatida dunyo xaritasidan foydalanib, turli mamlakatlarning boshqaruv shakllarini tasvirlovchi rangli xaritalarni namoyish qilish mumkin. Masalan, boshqaruv shakli bo‘yicha ranglarga bo‘lingan davlatlar xaritasini ko‘rsatib, quyidagicha savollar berish mumkin:

- “Nega ayrim mamlakatlarda monarxiya, boshqalarida esa respublika boshqaruv shakli mavjud?”;

- “Boshqaruv shakllarining mamlakat rivojlanishiga qanday ta’siri bor?” Bu savollar o‘quvchilarni o‘z fikrlarini bildirishga va ularning ilgari olgan bilimlarini faollashtirishga yordam beradi [3].

2. Explore (Tadqiq qilish) Bu bosqichda o‘quvchilar turli mamlakatlarning boshqaruv shakllarini o‘rganish uchun kichik guruhlarga bo‘linadilar. Har bir guruhga ma’lum mamlakatlar berilib, ularning boshqaruv shaklini tadqiq qilish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar internet, darsliklar va qo‘shimcha materiallar orqali konstitutsiyaviy monarxiya, parlament respublikasi, prezidentlik respublikasi, federal davlat kabi boshqaruv shakllarini o‘rganadilar. Bu jarayonda xaritalar, diagrammalar va jadval yordamida o‘z ishlarini ko‘rsatishi mumkin.

3. Explain (Tushuntirish) O‘quvchilar tadqiq qilgan mamlakatlari va ularning boshqaruv shakllari haqida sinf oldida qisqacha taqdimot o‘tkazadilar. Guruhlar o‘z mamlakatlarining boshqaruv tuzilmasi va qanday ishlashi haqida tushuntiradilar. O‘qituvchi esa, o‘quvchilar tushunchalarni to‘g‘ri anglab olganliklarini ta’minlash uchun tushuntirishlar beradi. Masalan, respublika va monarxiya o‘rtasidagi asosiy farqlarni, federal davlatlar hamda unitar davlatlarning farqlarini tushuntirib beradi.

4. Elaborate (Kengaytirish) O‘quvchilar olgan bilimlarini kengaytirish uchun muammolarni hal qilish yoki mavzu doirasidagi yanada chuqurroq savollarni tahlil qilishadi. Unda, “Federal boshqaruv shakliga ega davlatlarda qudratning markazlashmaganligi qaysi jihatlardan ko‘rinadi?” yoki “Monarxiya va respublika boshqaruv shakllari qaysi holatlarda bir-biriga o‘xshash bo‘lishi mumkin?” kabi muammolarni muhokama qilishlari mumkin. Shuningdek, mamlakatlar boshqaruv shakllarining tarixiy rivojlanishini o‘rganish va qanday qilib bugungi shaklga kelib qolganini tahlil qilish imkoniyati beriladi.

5. Evaluate (Baholash) Baholash jarayonida o‘quvchilarning o‘rganilgan boshqaruv shakllari bo‘yicha olgan bilimlarini sinovdan o‘tkazish mumkin. Bu bosqichda testlar va savollarga javob yozish yoki ma’lumot hamda qisqa insho yozdirish orqali o‘quvchilarning mavzuni qay darajada tushunganligi baholanadi. O‘quvchilar o‘z-o‘zini baholash usullari yordamida qanday boshqaruv shakli qaysi mamlakatlar uchun maqbulroq ekanligini muhokama qilishlari mumkin. Shuningdek, ular o‘rganilgan boshqaruv shakllarining afzalliklari va kamchiliklari haqida bahs yuritish orqali mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Ushbu yondashuv orqali “Jahon mamlakatlarining boshqaruv shakllari” mavzusi faqatgina nazariy jihatdan emas, balki o‘quvchilarni mavzuga faol ishtirokchi sifatida jalb etish orqali amaliy va interaktiv tarzda o‘rganiladi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, tadqiq qilish va muammolarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. 5E o‘quv modeli asosida olib borilgan darslarni birgina darsning o‘zida emas, balki bir nechta darslarga bo‘lib ham olib borish mumkin.

Umuman olganda 5E ta’lim modeli geografiya fanida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, bilimlarni chuqur va barqaror o‘zlashtirishga ko‘maklashish, hamda ular o‘rtasida o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu yondashuv an’anaviy dars metodlaridan farqli ravishda o‘quvchilarni passiv bilim oluvchilardan faol kashfiyotchilarga aylantiradi, bu esa ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. –T.; 2008. -180 b.

2. Qurbonniyozov R. Geografiya o’qitish metodikasi. –Urganch: 2001. –212 b.

3. Fedorko V. va boshq. Geografiya. 10-sinf uchun darslik / — Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. — 192 b

4. Mo‘minov O. Geografiya ta’limi metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1986. –B. 208.

5. www.wikipedia.org

ZAMONAVIY GEOGRAFIYA TA’LIMI

Safarov I.B., Husenov J.Q.
Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston, e-mail: safarovisoq@gmail.com
Guliston davlat universiteti, Guliston, O‘zbekistonб e-mail: husenovjahongir27@gmail.com

Annotatsiya: *Zamonaviya geografiya ta’limi, o‘quv jarayonida innovatsion usullar va texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarda geografik bilimlarni samarali shakllantirishga qaratilgan. Ushbu maqolada geografiya ta’limining zamonaviy tendensiyalari, ta’lim metodologiyasi, interaktiv texnologiyalar va virtual simulyatsiyalar orqali o‘qitish usullari tahlil etiladi. O‘quvchilarning geografik ongini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va real hayotdagi geografik masalalarni hal qilishda yordam berish zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biridir. Maqolada shuningdek, geografiya ta’limining global muammolar, atrof-muhit va barqaror rivojlanish bilan bog‘liq jihatlari ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviya ta’lim, geografiya, innovatsion usullar, ta’lim metodologiyasi, interaktiv texnologiyalar, o‘quv jarayoni, global muammolar.*

СОВРЕМЕННОЕ ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Сафаров И.Б.[1], Ҳусенов Ж.Қ.[2]
[1]Каршинского государственного университета, Карши, Узбекистан,
e-mail: safarovisoq@gmail.com
[2]Гулистанского государственного университета, Гулистон. Узбекистан,
e-mail: husenovjahongir27@gmail.com

Аннотация: *современное географическое образование направлено на эффективное формирование географических знаний у учащихся за счет применения инновационных методов и технологий в учебном процессе. В данной статье будут проанализированы современные тенденции географического образования, методика обучения, методы обучения с помощью интерактивных технологий и виртуальных симуляций. Развитие географической осведомленности учащихся, побуждение их к самостоятельному мышлению и помощь в решении реальных географических вопросов-одна из основных целей современной системы образования. В статье также рассматриваются аспекты географического образования, связанные с глобальными проблемами, окружающей средой и устойчивым развитием.*

Ключевые слова: *современное образование, география, инновационные методы, методика обучения, интерактивные технологии, учебный процесс, глобальные проблемы.*

MODERN GEOGRAPHY EDUCATION

Safarov I.B.[1], Husenov J.Q.[2]
[1]Qarshi State University, Karshi, Uzbekistan, e-mail:safarovisoq@gmail.com
[2]Gulistan State University, Gulistan, Uzbekistan, e-mail:husenovjahongir27@gmail.com

Annotation: *modern geography education is aimed at the effective formation of geographical knowledge in students through the use of innovative methods and technologies in the educational process. This article analyzes modern trends in geography education, educational methodology, interactive technologies, and teaching methods through virtual simulations. Developing students ' geographic awareness, encouraging them to think independently, and helping them deal with real-life geographic issues are some of the primary goals of the modern educational system. The article also covers aspects of geography education related to global issues, the environment and sustainable development.*

Key words: *modern education, geography, innovative methods, educational methodology, interactive technologies, educational process, global problems.*

Kirish. Geografiya fani qadim zamonlardan beri insoniyatning atrof-muhitni tushunishi va o‘z hayotini unga moslashtirishida muhim rol o‘ynab kelgan. Biroq XXI asrda bu fan butunlay yangi talqin va uslubiy yondashuvlarga yega bo‘ldi. Bugungi kunda zamonaviy geografiya ta’limi nafaqat yyer yuzasini o‘rganish bilan cheklanib qolmay, balki globallashuv, texnologiyalar va ijtimoiy muammolar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Zamonaviy geografiya ta’limi yillar davomida texnologiyalar, o‘quv metodikasi va tadqiqot yondashuvlarining rivojlanishi bilan sezilarli darajada o‘zgardi. Mana zamonaviy geografiya ta’limining ba’zi asosiy jihatlari:

- ✓ Axborot va aloqa texnologiyalaridan foydalanish. Zamonaviy geografiya ta’limining yeng muhim komponentlaridan biri bu axborot va aloqa texnologiyalaridan (ICT) foydalanishdir. Bu yyerda Geografik Axborot Tizimlari (GIS) alohida o‘rin tutadi. GIS orqali o‘quvchilar turli geografik ma’lumotlarni xaritada tasvirlash, tahlil qilish va taqqoslash imkoniyatiga yega bo‘ladilar. Bu texnologiya o‘quvchilarning analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirib, ularga o‘zlarining mahalliy yoki global hududiy muammolarni mustaqil tadqiq qilish imkoniyatini beradi. Zamonaviy geografiyada GIS texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni turli xil ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish, tahlil qilish va xaritalash imkoniyatiga yega qiladi.

Dronlar va sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida geografiya darslari yanada qiziqarli va samarali o‘tkazilishi mumkin. Bu usullar talabalar uchun turli landshaftlarni real vaqt rejimida kuzatish, tabiiy ofatlarni o‘rganish yoki urbanizatsiya jarayonlarini kuzatish imkonini yaratadi.

Talabalar landshaftlar va tabiiy hodisalarni kuzatish uchun dronlar va sun’iy yo‘ldosh tasvirlaridan foydalanishi mumkin. Bu orqali geografiya darslari yanada jonli va qiziqarli bo‘ladi.

- ✓ Muhit va ijtimoiy muammolarni o‘rgatish. Zamonaviy geografiya ta’limi dunyodagi iqlim o‘zgarishi va uning ta’sirlarini chuqur o‘rganishga katta ye’tibor beradi. Talabalar o‘z hududlaridagi yekologik muammolarni tahlil qilishni o‘rganadilar. Bundan tashqari, barqaror rivojlanish tushunchasi geografiya ta’limining muhim qismiga aylangan. Talabalar tabiiy resurslarni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy barqarorlikka yerishish yo‘llarini o‘rganadilar. Bu ularga atrof-muhitni anglash va global muammolarni hal qilishda faol ishtirok yetish ko‘nikmasini beradi.
- ✓ Interfaol ta’lim usullari. Loyiha asosida o‘qitish zamonaviy geografiya ta’limining asosiy usullaridan biridir. Bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, o‘quvchilar migratsiya jarayonlari yoki urbanizatsiya muammolari bo‘yicha loyiha tayyorlash orqali o‘z hududlarini chuqur tahlil qilish imkoniga yega bo‘ladilar.

Maydon tadqiqotlari yesa o‘quvchilarga geografik bilimlarni amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatini beradi. Bu orqali ular turli hududlarni o‘rganish, landshaftlarni tahlil qilish va tabiiy yoki antropogen jarayonlarni tushunib olishga harakat qiladilar. Maydon tadqiqotlari amaliy geografik ko‘nikmalarni shakllantirishda juda samarali.

- ✓ Xalqaro integratsiya. Zamonaviy geografiya ta’limi dunyoning turli qismlaridagi hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy va yekologik aloqalarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar turli davlatlarning iqtisodiy rivojlanish darajalari, ularning tabiiy resurslari, migratsiya oqimlari va boshqa masalalarni o‘rganadilar. Bu yesa ularni global miqyosda fikrlashga va turli xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishga o‘rgatadi.
- ✓ O‘quv dasturlarining moslashuvchanligi. Geografiya fani bo‘yicha o‘quv dasturlari ko‘pincha zamonaviy muammolar va tendensiyalarga moslashuvchan bo‘lib, o‘quvchilarga aktual mavzularni o‘rganish imkonini beradi. Masalan, urbanizatsiya, tabiiy ofatlar va ularning oqibatlari, hamda aholining demografik o‘zgarishlari.

✓ Raqamli resurslar va platformalar. O‘quv ilovalari va raqamli xaritalar: Talabalar uchun turli onlayn platformalar mavjud bo‘lib, ular orqali raqamli xaritalar va boshqa o‘quv resurslaridan foydalanish mumkin. Bu zamonaviy darslarni qiziqarli va interaktiv qiladi. Virtual yekskursiyalar: Talabalar dunyoning turli joylariga virtual yekskursiyalar qilish imkoniga yega bo‘lishadi, bu geografiya ta’limining qamrovini yanada kengaytiradi. Zamonaviy geografiya ta’limi nafaqat nazariy bilimlarni berishga, balki talabalarni global muammolarni hal qilishga qodir qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Zamonaviy geografiya ta’limi haqida yana qo‘shimcha quyidagi ma’lumotlarni aytish mumkin:

1. Geografiya va siyosat. Geografiya ta’limida hududlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va harbiy aloqalar haqida tushuncha beriladi. Masalan, davlatlar o‘rtasidagi chegara mojarolari, tabiiy resurslar uchun kurash yoki savdo yo‘nalishlarining geopolitik ahamiyati o‘rganiladi.

Talabalar geografiyaning siyosiy ahamiyatini tushunishlari va bu sohadagi mojarolarning murakkabligini baholashlari uchun amaliy misollar ko‘rib chiqiladi.

2. Geografiyada o‘quv resurslari va o‘rganish platformalari. ArcGIS, QGIS kabi dasturlar geografiya o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun muhim vositalar hisoblanadi. Bu dasturlar orqali kartografiya, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish va chizmalar yaratish mumkin.

Shuningdek, Kahoot, Google Yearth, Story Maps kabi interaktiv platformalar geografiya fanini o‘qitishda foydalaniladi, bu yesa ta’lim jarayonini ancha qiziqarli va tushunarli qiladi.

3. Geografiya va biznes. Geografik bilimlar biznes uchun ham ahamiyatlidir. Masalan, joylashuv tahlili (location analysis) orqali kompaniyalar o‘zlarining savdo nuqtalarini ochish yoki transport tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha strategiyalarni aniqlashadi. Bu turdagi tahlillar geografik ta’lim orqali o‘rganilgan malakalarni qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy geografiya ta’limi talabalarga iqtisodiy geografiya va logistika kabi sohalarni o‘rganish imkoniyatini beradi.

4. Geografik ma’lumotlarni boshqarish va Big Data. Katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) geografiya sohasida juda muhimdir. Misol uchun, harakatlanish ma’lumotlari (masalan, telefon GPS), transport oqimlari, iqlim va ob-havo ma’lumotlarini tahlil qilish orqali urbanizatsiya, transportni rejalashtirish va atrof-muhit muammolarini hal qilish imkoniyatlari o‘rganiladi.

Bu ma’lumotlar orqali o’quvchilar murakkab muammolarni chuqur tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

5. Geografiya va atrof-muhitni muhofaza qilish. Tabiiy ofatlar va ularning oqibatlari zamonaviy geografiya ta’limining muhim qismi hisoblanadi. Bu mavzular orqali talabalar zilzila, suv toshqini, tornado kabi tabiiy hodisalarning sabablarini va ulardan qanday himoyalanish kerakligini o’rganadilar.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarni boshqarish masalalari, masalan, suv resurslaridan oqilona foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash, ham geografiya darslarida muhim mavzular hisoblanadi.

6. Geografik perspektivadan turli muammolarni hal qilish. Hududiy rejalashtirish va landshaft arxitekturasi: Bu sohalar urbanizatsiya jarayonlarini o‘rganish va rejalashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, aholining yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Migratsiya va demografik o‘zgarishlar: Zamonaviy geografiya ta’limida global migratsiya jarayonlari va bu jarayonlarning iqtisodiy, madaniy va siyosiy oqibatlari chuqur o‘rganiladi. Bu mavzu bo‘yicha o‘quvchilar ijtimoiy adolat va tenglik masalalariga oid bilimlarni kengaytirishlari mumkin.

7. Interdisipliner ta’lim. Geografiya ta’limi boshqa fanlar bilan integratsiya qilingan holda o‘qitiladi. Masalan, biologiya (yekologik tizimlarni tushunish), tarix (o‘tmishdagi hududiy o‘zgarishlar va kolonizatsiya), iqtisodiyot (resurslarni boshqarish) va texnologiya (GIS va raqamli xaritalash) geografiya ta’limining ajralmas qismidir. Bu interdisipliner yondashuv talabalarni bir-biriga bog‘liq murakkab muammolarni tushunishga va tahlil qilishga o‘rgatadi.

Zamonaviy geografiya ta’limi faqatgina hududlarni o‘rganish yemas, balki zamonaviy dunyoning ijtimoiy, iqtisodiy, yekologik va siyosiy masalalariga turli nuqtai nazardan yondashishni ham o‘z ichiga oladi. Bu fanni o‘qitish nafaqat an’anaviy bilimlarni, balki tanqidiy fikrlash, murakkab muammolarni hal qilish va zamonaviy dunyoda faol ishtirok yetish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Xulosa. Zamonaviy geografiya ta’limi nafaqat yyer yuzasi va uning resurslari haqida ma’lumot berishga, balki talabalarni global muammolarni tushunish, ijodkorlik va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Texnologiyalar, loyiha asosida o‘qitish va interfaol metodlar geografiyani nafaqat nazariy bilimlar yig‘indisi sifatida yemas, balki atrof-muhit va insoniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilish vositasi sifatida o‘rgatishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. “Zamonaviya geografiya ta'limi”. Qosimov Sh.A. “O‘zbekiston” – 2015
2. “Geografiya ta’limida innovatsion metodlar”. Abdullayev T. “Fan” – 2018
3. “Geografiya o‘qitish metodikasi”. Ahrorov I. “O‘qituvchi” – 2017
4. “Geografiya o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar”. Mamatqulov M. “O‘zbekiston” – 2015

EKOLOGIK ONG VA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH-GEOGRAFIYA TA’LIMINING MUHIM KOMPONENTI SIFATIDA

Atadjanova M.I.
Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch, O‘zbekiston, e-mail:m.atadjanova 89@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada geografiya ta’limida ekologik ong va ekologik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishning dolzarbligi, geografiya darslarida va darsdan tashqari vaqtlarda ekologik masalalarni kengroq tahlil qilish, tabiatda sodir bo‘ladigan hodisalar, o‘zgarishlar, ular o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kengroq yoritib berish orqali o‘quvchilarning ekologik ongi va ekologik tafakkurni shakllantirish, ekologik madaniyatini yuksaltirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik ong, ekologik tafakkur, ekologik madaniyat, tabiat, jamiyat, ekotizim, ekskursiya.*

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МЫШЛЕНИЙ – КАК ВАЖНЫЙ КОМПОНЕНТ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Атаджанова М.И.
Ургенчский государственный педагогический институт, Ургенч, Узбекистан, e-mail:m.atadjanova 89@mail.ru

Аннотация: *В статье освещены вопросы актуальность формирования экологического сознание и экологической мышлений учеников, важность более широкого анализа экологических вопросов на уроках географии и внеурочных времях, вопросы формирования экологического сознание и экологической мышлений и повышения экологической культуры учеников общеобразовательных школ объясняя им о взаимосвязи между природныими явлениями и об изменениях в природе.*

Ключевые слова: *экологическое сознание, экологическое мышление, экологическая культура, природа, общества, экосистема, экскурсия.*

FORMATION OF ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS AND ECOLOGICAL THINKING – AS AN IMPORTANT COMPONENT OF GEOGRAPHICAL EDUCATION

Atadjanova M.I.
Urgench State Pedagogical Institute, Urgench, Uzbekistan, e-mail:m.atadjanova 89@mail.ru

Abstract: *The article highlights the relevance of the formation of environmental consciousness and ecological thinking of students, the importance of a broader analysis of environmental issues in geography lessons and extracurricular hours, the issues of forming environmental consciousness and environmental thinking and increasing the environmental culture of secondary school students by explaining to them the relationship between natural phenomena and changes in nature.*

Key words: *ecological consciousness, ecological thinking, ecological culture, nature, society, ecosystem, excursion.*

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab insonning tabatga ta’siri shu darajada kuchayib ketdiki, kishilarning xo‘jalik ehtiyojlari ko‘lami bilan biosferaning chegaralangan imkoniyatlari o‘rtasida nihoyatda katta farq yuzaga keldi. Natijada dunyoning aksariyat mamlakatlarida tabiat muvozanati izdan chiqib, ekologik muammolar paydo bo‘la boshladi. Bugungi kunda esa ko‘lami jihatidan turlicha bo‘lgan ekologik muammolar dunyoning istalgan bir mamlakatida topiladi. Ekologik muammolar ko‘lami dunyo miqyosida olganda Ona sayyoramiz hayotiga shu qadar xavf sola boshladiki, ayni davrda insoniyatning yer yuzida yashab qolishi tahdid ostida qoldi.

Ekologik muammolarning hal bo‘lishida yoki tabiatga nisbatan jamiyat a’zolarining to‘g‘ri munosabatda bo‘lishida aholining, ayniqsa yoshlarning ekologik ongi, ekologik madaniyati, qolaversa ekologik tafakkurining shakllanganligi muhim ahamiyatga ega. Bu fazilatlarning shakllanishida bir qator tabiiy fanlar qatori geografiya ta’limda ham katta imkoniyatlar mavjud. Bugungi kunga kelib barcha fanlarda ekologiyalashuv (ekologizatsiya) jarayoni amalga oshirilar ekan, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad bilim oluvchilarni tabiat qonunlari mazmun-mohiyati bilan yaqindan tanishtirish, tabatdagi ekologik muvozanat, uning buzilishi sabablari hamda uning oqibatlarini tushuntirishdan iboratdir.

Ilgari geografiya ta’limida o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishga ustuvor vazifa sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning ekologik ongi va ekologik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb ahamiyat kab etmoqda. Bunda birinchi navbatda, o‘quvchilarning geografik tafakkurini shakllantirishga e’tibor qaratish lozim, binobarin geografik tafakkur ekologik tafakkur bilan uzviy bog‘langan. Geografiya ta’limida tabiat va inson munosabatlari yoritib berilsa-da, tabiat muvozanatini buzilmasligi uchun nimalarga asosiy e’tiborni qaratish lozim degan masala chuqurroq tahlil etilmagan [3].

Ekologik ong va ekologik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o‘ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning hissa qo‘shishi zarurligi bilan belgilanadi.

Tabiat haqidagi ilmiy bilimlar rivoji, jamiyatdagi ijtimoiy, tarixiy, iqtisodiy o‘zgarishlar insonni tabiat sirlaridan xabardor qila boshlagach, tabiat kuchlaridan xavfsirash, qo‘rqish o‘rnini insonda tabiatni o‘ziga buysundirish, uning ustidan hukmronlik qilish hissi ustunlik qila boshladi. Bir vaqtlar “Biz tabatdan in’om-ehson kutib o‘tirmaymiz, biz uni o‘zimizga bo‘ysundiramiz” deguvchilar ham topildi. Ammo, tabiatning o‘z qonunlari bor, unda berilgan zarbaga nisbatan “aks zarba” ham borligini unutmasligimiz kerak. Orol dengizi fojeasi buning yaqqol isbotidir.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida tabiatni muhofaza qilish maqsadiga erishish uchun barcha turdagi ta’lim-tarbiya muassasalarida ekologik bilimlar beruvchi fanlarni o‘qituvchining majburiyligini ta’minlash lozimligi mustahkamlab qo‘yilgan [1].

Geografiya ta’limida ekologik masalalarni kengroq tahlil qilish, tabiatda sodir bo‘ladigan hodisalar, o‘zgarishlar, ular o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik mavjudligi, mazkur uzviylikning buzib yuborilishi oson ekanligini o‘quvchilarga oddiy hayotiy misollar orqali tuguntirilishi kerak.

Bunda asosan quyidagi vazifalarni bajarishga muhim e’tibor qaratish lozim:

- o‘quvchilarning tabiatning yaxlit tizim ekanligi, jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqadorligi haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirishga asos bo‘ladigan ekologik bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga erishish;

- tabiat va uning tarkibiy qismlarining keng ma’nodagi ahamiyatini tushunishga, tiklanadigan va tiklanmaydigan tabiiy boyliklarning farqiga yetishga o‘rgatish;

- tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, atrof-muhit sofligini asrash, yashil zonalarni ko‘paytirish, tabiat muhofazasida faol ishtirok etish bo‘yicha motvatsiyalar berish.

O‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirishda esa quyidagilarga asosiy e’tiborni qaratmog‘imiz kerak:

- sayyoramizda va mamlakatimizda vujudga kelgan mahalliy va global ekologik muammolarni hal etishda jahon hamjamiyati, O‘zbekiston ekologik partiyasi hamda davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyati, ya'ni ushbu ekologik muammolarning hal etilishida davlatlararo umumiy aloqadorlik masalalari haqida ma'lumot berilishi;

- o‘quvchilarda ekologik madaniyat va tafakkurni shakllantirish barkamol shaxsni kamolga yetkazish borasida olib borilayotgan ta’lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy tarkibiy qismi ekanligini nazarda tutish.

Bugungi kunda maktab o‘quvchilarida ekologik ong, ekologik tafakkur va ekologik madaniyatni tarkib toptirish, ularga tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rgatish va uni tashkil etish ta’lim tiziminig dolzarb masalasiga aylangan.

“Eng muhim masala - aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”.

O‘quvchilarda geografiya darslarida ekologik tafakkurni shakllantirish ularning ma’naviy-axloqiy jihatdan kamolotiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu darslarda o‘qituvchi og‘zaki, ko‘rgazmalilik, izlanuvchanlik hamda suhbat metodlaridan o‘z o‘rnida keng foydalanishi lozim. Shuningdek, o‘quvchi bilimining samarali bo‘lishi hamda kutilgan natijalarga erishish uchun o‘qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalaridan ham keng foydalanish zarur.

Maktab o‘quvchilariga ekologik tafakkurni shakllantirishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash, rivojlantirish va qo‘shimcha ma’lumotlar berish maqsadida tashkil qilinadi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini shakllantiradi, tabiat va uning boyliklariga munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi, tabiatga nisbatan qiziqish va muhabbat uyg‘otadi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning ekologik madaniyatni ham tarbiyalab, ularda tabiat, jonivorlar, o‘simliklar olami haqida ijobiy tasavvurlar hosil qiladi.

Shuni ham aytish kerakki, o‘quvchilarning ekologik tafakkuri ularning dunyoqarashi, hatti-harakati, umumiy madaniyati, xususan, ekologik madaniyatining asosi ekanligini nazarda tutgan holda, geografiya, biologiya, kimyo va fizika o‘quv fanlarini o‘qitishda fanlararo bog‘lanish mazmuni, shakllari, o‘qitish metodlari, yo‘llari va vositalarini maqsadga muvofiq holda qayta ko‘rib chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. O‘qitish jarayonida fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish moddiy va ma'naviy olamni tadqiq qiluvchi turli fanlarning o‘zaro hamkorligini ularning rivojlanish jarayoni va o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda tafakkurini rivojlantiruvchi omil sifatida nazarda tutish zarur.

O‘sib kelayotgan yosh avlodda ekologik tafakkurni shakllantirish, ularda ekologik madaniyat asoslarini, ya’ni atrof-muhit holatiga mas’ullik munosabatini shakllantirishni ta’minlaydigan ekologik bilimlar, qadriyatlar, ko‘nikma va malakalar, kompetensiyalarni shakllantirish, qisqasi, o‘quvchilarning tabiiy va ijtimoiy muhitdagi xilma-xil faoliyatini tartibga solib turuvchi ekologik ong va odob-axloqni tarkib toptirish geografiya ta’limining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lishi kerak [4].

O‘quvchilarga ekologik ta’lim va tarbiya berishdan maqsad ularda nazariy ekologik bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilish hamda ekologik tafakkurni shakllantirishdan iborat. Ushbu murakkab pedagogik muammo esa ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, tabiatga iste’molchilik munosabatlaridan voz kechish, o‘sib kelayotgan yosh avlodda tabiiy va sun’iy yaratilgan muhitga mas’ullikni tarkib toptirish orqali hal qilinadi.

O‘quv faoliyatini uyushtirishning yangi shakllari - darsga ekologik mazmundagi o‘yin, bahs-munozaralarni kiritish bilan bog‘liq. Bunday tashkiliy shakllardan foydalanish tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi ta’lim samaradorligini ta’minlaydi. Shuningdek, bunda ekologik mazmundagi xilma-xil topshiriqlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu topshiriqlar asosida muayyan hududidagi ishlab chiqarishning ekologik vaziyatga ta’siri loyihalashtirilib, inson faoliyatining o‘lka tabiiy majmualari va ob’ektlariga bo‘ladigan ta’siriga baho beriladi.

Geografiya darslarida yuqori sinf o‘quvchilarida olingan nazariy ekologik bilim, amaliy ko‘nikma va malakalardan foydalanib, ekologik tafakkurni shakllantirishda ekologik mazmundagi materiallardan foydalanish yaxshi natija beradi. Jumladan, bunda o‘quvchilarga ekologik mazmundagi o‘quv materiallarini tahlil qilish, o‘z o‘lkasi tabiiy va madaniy landshaftlarida ekologik tashxis o‘tkazish va shu asosda o‘ziga xos “ekologik retsept” tayyorlash topshirig‘i beriladi.

O‘lka tabiatini sevish va unga mas’ullik, ehtiyotkorlik munosabatini faqat dars jarayonidagina tarbiyalab bo‘lmaydi. Shu sababli ekskursiyalarning ham ekologik tafakkur va ekologik madaniyatni shakllantirishda roli kata [3]. Bunda har bir ekskursiyani aniq reja asosida o‘tkazilishiga e’tibor qaratish lozim. Ekskursiyaga chiqishdan oldin, savollar ro‘yxatining shakllantirish, o‘quvchilarga ekskursiya davomida bajarishlari lozim bo‘lgan topshiriqlar berish, antropogen omillar ta’sirida tabiatning o‘zgarishi va uni muhofaza qilish yo‘llari haqida ma’umotlar to‘planishi lozim.

Bundan tashqari umumta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirish va atrof tabiiy muhitga mas’ullik munosabatni tarbiyalashda maktab o‘lkashunoslik muzeylarining ham o‘ziga xos o‘rni bor. Mazkur muzeylar mavjud bo‘lgan maktablarda “Inson va tabiat”, “Biosfera va biz” mavzulariga oid ko‘rgazmalar tashkil qilish va uni zarur ma’lumotlar bilan jihozlash maqsadga muvofiq [3].

Yuqoridagi ishlar samaradorligi asosan quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- dars, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ta’lim-tarbiyaviy ishlar majmuasida o‘quvchilarda ekologik tafakkur elementlari tarkib topa boradi;

- ekologik mazmundagi ishlar bevosita geografiya darslarida va darsdan tashqari vaqtlarda maktabdagi o‘quv jarayoniga muvofiq tashkil etiladi;

- ekologik ong va tafakkurni shakllantirishga doir ishlarni amalga oshirishga hududning ekologiya va tabiatni muhofaza qilish boshqarmasi xodimlarini va mahallaning faol hamda tajribali kishilarini ham jalb etish yaxshi samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik ong va ekologik tafakkur - shaxs ekologik aqliy faoliyatining muayyan bir shakli hisoblanib, atrof muhit va organizmlar o‘rtasida (biogeosenozda) ro‘y berayotgan ekologik o‘zgarishlarning mazmuni va sabablarini anglash, ularni ongli ravishda tahlil qilish, shuningdek, shaxsni ijtimoiy taraqqiyot va tabiiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni qaror toptirishiga yo‘naltirilgan faoliyatga undaydigan fikr, qaror va xulosalarning shakllanish jarayoni bo‘lib, u georafiya ta’limining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг Атроф муҳитни муҳофаза қилиш Миллий ҳаракат режаси. – Тошкент: Адолат, 1998. – Б.81.

2. “O‘zbekistonda Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining PQ-434- sonli qarori. 2017-yil 27-may.

3. Авазов Ш. Мактабда экологик тарбия. – Тошкент. Ўқитувчи, 1992. – Б 62.

4. Нишонова Н.У. Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларининг экологик маданиятини шакллантириш. – Тошкент, 2001. – Б.21.

ZAMONAVIY TA’LIM INFRATUZILMASINI SHAKLLANTIRISHNING BA’ZI MASALALARI

Nurmatov A.U.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, e-mail: nurmatovasliddin6@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy umumiy ta’lim infratuzilmasi modelini yaratish, ta’lim sifatini boshqarishning ma’muriy tizimini takomillashtirish bo‘yicha ishlarning mazmuni va ketma-ketligi asosida ta’lim faoliyati samaradorligini oshirish masalalari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, infratuzilma, maktab, o‘quvchi, axborot texnologiyalari.*

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Нурматов А.У.

Шахрисабзский государственный педагогический институт

e-mail: nurmatovasliddin6@gmail.com

Аннотация: *В статье рассмотрены вопросы повышения эффективности образовательной деятельности на основе содержания и последовательности работ по созданию современной модели инфраструктуры общего образования, совершенствованию управленческой системы управления качеством образования.*

Ключевые слова: *Образование, инфраструктура, школа, ученик, информационные технологии.*

SOME ISSUES OF FORMING MODERN EDUCATIONAL INFRASTRUCTURE

Nurmatov A.U.

Shahrisabz State Pedagogical Institute, e-mail: nurmatovasliddin6@gmail.com

Abstract: *The article describes the issues of improving the effectiveness of educational activities based on the content and sequence of works on the creation of a modern general education infrastructure model, improvement of the administrative system of educational quality management.*
Key words: *Education, infrastructure, school, student, information technology.*

So‘nggi yillarda iqtisodiy taraqqiyotni belgilovchi hal qiluvchi omil pul, binolar yoki texnologiya emas, balki inson omili yetakchi bo‘layotgani kuzatilmoqda. Yangi ming yillik va bilimga asoslangan iqtisodiyotga o‘tayotganda, odamlar foyda manbai ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. Odamlarsiz har qanday mulk passivdir, ular qiymat ishlab chiqarish uchun inson aralashuvini talab qiladi. Inson resurslari davlat va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ishlatilishi kerak bo‘lgan yangi samarali resurs sifatida qaraladi. Inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadigan shaxsning yuqori sifatli ishlab chiqarish xususiyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish sifatida o‘rganilishi kerak. Inson kapitali insoniy kapital deb ataladi, chunki u shaxs shaxsiyatida mujassamdir; kapital, chunki u kelajakdagi daromad yoki kelajakda qoniqish manbai yoki ikkalasi hamdir. Inson kapitalining shakllanishi insonni takror ishlab chiqarishga, ma’lum bir ta’lim darajasiga erishishga va shaxsning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan institutlarning faoliyati bilan bog‘liq.

Ta’lim va qo‘shimcha ta’lim insonning bilim hamda malaka darajasini oshiradi, shu bilan inson kapitalini oshiradi. Tadqiqotchilarning mutlaq ko‘pchiligi inson kapitalini shakllantirishda asosiy rolni ta’lim sohasiga beradi, bu jamiyat va shaxsning kelajakdagi daromadlarining o‘sishiga, insonning ijtimoiy farovonligini oshirishga va uni ta’minlashga katta ta’sir ko‘rsatadi. Kelgusi o‘n yilliklarning iqtisodiy muammolari mavjud milliy "ta’lim landshaftini" o‘zgartiradi. Aql-idrok, ijodkorlik, tadbirkorlik va ijtimoiy boshqaruv qobiliyatlari XXI asr insonining raqobatbardoshligi va muvaffaqiyatining eng muhim xususiyatlariga aylanadi. Global dunyo doirasida shakllangan mehnat va ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil etishning ilg‘or sxemalari insonning kasbiy moslashuviga yuqori talablarni qo‘yadi. Umrbod ta’lim olish zarurati allaqachon me’yor sifatida ko‘rib chiqilib, aholiga tezkorlik bilan ta’minlash imkonini beradi, yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga javob berish, bu esa umumiy va kasb-hunar ta’limiga yondashuvlarni o‘zgartirishni talab qiladi.

Aholining demografik tarkibi keksa odamlarning ulushini oshirish yo‘nalishi bo‘yicha o‘zgarib bormoqda, shuning uchun demografik tushunchalar bo‘yicha kattalar ulushi ortadi; hayotning faol bosqichining davomiyligi ham sezilarli darajada oshadi, bu esa kasbiy kompetentsiyani shakllantirishning o‘rtacha yoshining oshishiga olib keladi. Butun dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o‘zgarishlar tufayli umrbod ta’lim modeliga o‘tish, ko‘lamini kengaytirish va ta’lim dasturlarining yangi shakllarining paydo bo‘lishi dolzarb vazifalarga aylanmoqda. Bunday sharoitda ta’lim olish uchun shart-sharoitlarni, ya’ni ta’lim sohasidagi infratuzilmani yaratish va rivojlantirish zarur.

O‘zbekiston ta’limini modernizatsiya qilish jarayoni 21-asrning birinchi o‘n yilligida mamlakatda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ajralmas qismi bo‘lib, u ta’limning yangi tashkiliy-iqtisodiy modelini belgilaydi. Umumiy ta’limning zamonaviy infratuzilmasini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning asosiy sharti va talabidir. Kerakli ta’lim sharoitlarini yaratmasdan va muhitni yaratmasdan, yuqori sifatli jarayon va natijada kutilgan natijani olish mumkin emas. Ta’lim sifati - ta’lim tizimining ajralmas belgisi bo‘lib, erishilgan haqiqiy ta’lim natijalarining, o‘quv jarayoni shartlarining me’yoriy talablarga, ijtimoiy va shaxsiy talablarga muvofiqligi darajasini aks ettiradi. O‘quv jarayonini texnologiyalashtirish tendensiyasi ta’lim sifatini yangilash muammosi bilan chambarchas bog‘liq. Ta’limning yangi sifati fan va ishlab chiqarishni axborotlashtirish jarayonlarini,

zamonaviy aloqa vositalarini o‘z ichiga olishi, yangicha fikrlash usullarini, uni algoritmlashtirishni, shuningdek, ta’lim jarayonining samaradorligini talab qiladi.

Umumta’limni yangi sifatda ta’minlovchi ta’lim jarayonini tashkil etish ijodiy yondashishni, ta’lim sub’ektlari o‘rtasidagi munosabatlarni qayta ko‘rib chiqishni, katta kuch va moddiy-texnikaviy xarajatlarni talab qiladi. Maktabni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi sifatida ta’limni texnologiyalashtirish nafaqat o‘quv jarayonining bevosita ishtirokchilarining manfaatlarini, balki zamonaviy jamiyatning talablarini va kasbiy ta’lim, mehnat va ijtimoiy faoliyatga qodir bitiruvchilarni tayyorlash darajasiga qo‘yiladigan davlat talablarini aks ettiradi. 21-asrning birinchi o‘n yilligida ma’muriy darajadagi umumiy ta’lim infratuzilmasi - bu umumiy ta’lim muassasalari, ularning filiallari, maktab binolari va inshootlari, o‘quv inshootlari, yo‘llar va transport vositalari, transport yo‘nalishlari, telekommunikatsiyalar, pedagogik xodimlar, normativ hujjatlarning mintaqaviy majmuasidir. Infratuzilma o‘zining rivojlanish tarixiga ega bo‘lib, uning hozirgi holatini belgilaydi va bir qator aniq muammolarni hal qilish va yangilarini hal qilish uchun qayta qurish qobiliyatiga ega. Infratuzilma belgilangan vaqtda hal qila olmaydigan asosiy vazifa – har bir bola, har bir oilani sifatli ta’lim bilan ta’minlashdir. Shunga ko‘ra, ta’lim boshqaruvi oldiga asosiy maqsad – har bir bolaga sifatli ta’lim berish uchun umumiy ta’lim infratuzilmasini qayta qurish vazifasi turibdi.

Mavjud umumiy ta’lim infratuzilmasining asosiy muammolari quyidagilardan iborat edi: maktab jarayonining texnik "qoloqligi" va bolalar uchun ta’lim muhitini tashkil etish; professor-o‘qituvchilar malakasining yetarli emasligi, ularning "qarishi"; Umumta’limning zamonaviy infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy mexanizmi umumiy ta’limni tashkil etish texnologiyasini ishlab chiqishdir. Bu maktab ta’limini tashkil etish texnologiyasi, o‘quvchilarni tashishni tashkil etish texnologiyasi. ta’lim muhitini tashkil etish, ovqatlanish va ta’limni boshqarishda jamoatchilik ishtirokidan iborat bo‘lishi kerak.

Ta’lim muassasalarida suv, sanitariya va gigiyena tizimlarini yaxshilash o‘quvchilar salomatligi va ta’lim natijalariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Vaholanki, 2013-yilda boshlang‘ich maktablarning atigi 71 foizi suv bilan ta’minlangan, 49 ta kam rivojlangan davlatda bunday maktablarning ulushi bor-yo‘g‘i 52 foizni tashkil etgan. Maktablarda tegishli xavfsizlik sharoitlarining yo‘qligi tabiiy ofatlarning oqibatlarini yanada kuchaytirmoqda. Ba’zi mamlakatlar maktab xavfsizligini sinchkovlik bilan tekshirishadi, ammo hamma mamlakatlar ham bunday nazoratni o‘z zimmasiga olmaydi. Talabalar va jamiyat a’zolariga maktab sharoitlari to‘g‘risida ma’lumot berishlari uchun ishtirok etish monitoringi vositalari ishlab chiqilgan. Nogironlar maktab ta’limiga kirish uchun bir qator jismoniy va ijtimoiy to‘siqlarni engib o‘tishlari kerak. Foydalanish mumkin bo‘lgan maktablarning aniqlanmaganligi va ko‘pincha cheklangan monitoring imkoniyatlari tufayli maktab infratuzilmasi nogiron bolalar uchun qay darajada mos kelishini aniqlash qiyin.

Ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish monitoringi asosi 2003 yilda Axborot jamiyati bo‘yicha Butunjahon sammitida qabul qilingan Jeneva Harakat rejasi hisoblanadi. Maktablarda AKTdan foydalanish elektr tarmoqlariga oson va ishonchli ulanishni talab qiladi. Afrikaning Sahroi Kabirdan janubi-g‘arbiy qismidagi ko‘plab mamlakatlarda elektr tarmog‘ining yo‘qligi AKTdan foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Markaziy Afrika Respublikasida deyarli hech qanday boshlang‘ich yoki o‘rta maktab elektr tarmog‘iga ulanmagan. Gvineya va Madagaskarda har bir kompyuterga 500 dan ortiq talaba to‘g‘ri keladi.

Zamonaviy maktab infratuzilmasini yaratish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”, degan ezgu g‘oyasi asosida bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda yuzlab zamonaviy maktablar barpo etildi. Prezident maktablari, ijod maktablari hayotimizga kirib keldi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘i kengaytirildi. Yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratildi. Ta’lim

infratuzilmasini rivojlantirish maktablar qiyofasini o‘zgartirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini sezilarli darajada yaxshilash, o‘quv xonalari, oshxonalar, akt va sport zallari, maktab kutubxonalarini jihozlashni yaxshilashni nazarda tutadi.

Ta’lim faoliyatini ta’minlashning zamonaviy infratuzilmasi moddiy, uslubiy va tashkiliy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi va ularning har birini batafsil ko‘rib chiqishni talab qiladi:

– Infratuzilmaning moddiy komponenti nafaqat maktablarni loyihalash va qurishning yangi tamoyillarini ishlab chiqishga, balki sharoitlar sifatini o‘zgartirishga ham qaratilgan. Maktab maydoni funktsional va estetik jihatdan yaxshi loyihalashtirilgan bo‘lishi, jismoniy va psixologik xavfsizlikni ta’minlashi va sog‘liq uchun xavf tug‘dirmasligi kerak. Zamonaviy maktab infratuzilmasini saqlab qolish uchun maktab binosining o‘zini saqlash sifatini oshirish kerak. Maktabda shunday ta’lim sharoitlarini yaratish kerakki, har bir o‘quvchiga individual yondashuv qo‘llanilsin, o‘quv jarayonida sog‘liq uchun xavflarni minimallashtirsin va maktabning kundalik hayotida nogiron bolalar uchun inklyuziv ta’limni amalga oshirish mumkin.

– Har bir o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun infratuzilmaning uslubiy komponentini qayta yo‘naltirish kerak: turli uslubiy, axborot va maslahat resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan xizmatlarning mavjudligi, maktabda o‘qituvchilar uchun metodik ishlarga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, dars tahlili, individual yordam va boshqalar.

– Infratuzilmaning tashkiliy tarkibiy qismi ijtimoiy aloqalar uchun makon yaratishga, bolaga o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda o‘z xatti-harakatlari va o‘zini o‘zi belgilash qobiliyatini shakllantirish, o‘qituvchilar va talabalarning eng yuqori ta’lim yutuqlarini ta’minlashga qaratilgan; shaxsiy va kasbiy o‘sish, iqtidorli bolalarni izlash, qo‘llab-quvvatlash va ularga hamrohlik qilishning keng tizimi.

Ushbu sohalarda ishlarni amalga oshirish uchun texnologik rivojlanish shartlari belgilanadi: zamonaviy kompyuterlar, raqamli ta’lim resurslari va Internet tarmog‘iga ulanish mavjudligi; qishloq maktablari o‘qituvchilarining umumiy fan didaktik, uslubiy va psixologik malakasi. Maksimal individuallashtirish va ta’lim samaradorligining yuqori darajasini ta’minlaydigan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning bunday shakllaridan foydalanish.

Ma’muriy hudud ijtimoiy-ta’lim infratuzilmasi maktab va maktabdan tashqari makonni o‘z ichiga oladi va turli toifadagi bolalar (maktablar, qo‘shimcha ta’lim muassasalari, sport maydonchalari va boshqa ijtimoiy sohalar) uchun yaxlit ta’lim maydonini yaratishni nazarda tutadi. Ijtimoiy va ta’lim infratuzilmasini shakllantirish 21-asrning birinchi o‘n yilligida bolalarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, shakllantirish va ta’minlashga qaratilgan.

Shu tarzda tashkil etilgan infratuzilma davlat ta’lim standartini sifatli amalga oshirish uchun sharoit yaratadi. Zamonaviy maktab modeli iqtisodiyot va ijtimoiy sohani jadal innovatsion rivojlantirish maqsadlariga javob berishi, mamlakat farovonligi o‘sishini ta’minlashi kerak. "Yangi maktab"ni qurishda 21-asrning birinchi o‘n yilligidagi ma’muriy hudud tizimi faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga ko‘ra muhim o‘zgarishlar yuz berishi kerak. Bugungi kunda ta’lim tizimining yangilangan infratuzilmasida o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan, shuningdek, ularni aniq ta’lim jarayoni va ijtimoiy hayotga integratsiyalashuvini ta’minlovchi ko‘plab yangi yondashuv va vositalarni kuzatish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. https://lex.uz/docs/-4312785

2. Панасюк В. П. Школа и качество: выбор будущего. СПб.: КАРО, 2013. 384 с.

3. Прогресс в области питьевого водоснабжения, санитарии и гигиены в школах. file:///C:/Users/ATM9119/Downloads/JMP-2020-WASH-schools-ru.pdf

4. Субетто А. И. Основы системологии образования. М.: Исслед. центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. 251 с.

5. Nurmatov A.U. Qashqadrayo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy xususiyatlari. Zamonaviy geografik tadqiqotlar: nazariya, amaliyot, innovatsiya xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Samarqand 2023-yil 12-13 May. B. 443-448

6. Nurmatov A.U. Ўзбекистон ижтимоий инфраструктура тизимини ривожлантиришнинг ҳуқуқий-меъёрий асослари. “Geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish istiqbollari” III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2023-yil 5-6 May. B. 225-228

7. Nurmatov A.U. Qishloq joylari barqaror rivojlanishini baholashning uslubiy yondashuvlari. Yangi O‘zbekistonda Iqtisodiy va Ijtimoiy Geografiya Fani: Rivojlanish Muammolari va Istiqbollari. Toshkent shahri, 2023-yil 19-20 may. B. 169-172

GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY VA INNOVATSION TA’LIM MUHITINI TASHKIL ETISH

Yuldoshova Y.I., To‘laganov N.U.
Qarshi davlat universiteti, Qarshi. O‘zbekiston, e-mail: yuldu0664@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolda innovatsion o‘qitish usullarini ta’lim muassasalarida qo‘llashning nazariy va uslubiy jihatlari ko‘rib chiqilib, geografiya fanini o‘qitishda simulyatsion modellashtirish, kadr texnologiyasidan foydalanishning muhim xususiyatlari va imkoniyatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: innovatsion o‘qitish, simulyatsiya usuli, zamonaviy texnologiyalar, multimedia vositalari, muammolarni o‘rganish.*

ОРГАНИЗАЦИЯ СОВРЕМЕННОЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ

Юлдошова Ю.И., Тўлаганов Н.У.
Каршинский государственный университет, Қарши. Узбекистан. e-mail: yuldu0664@gmail, com

Аннотация: *В данной статье рассмотрены теоретико-методические аспекты применения инновационных методов обучения в образовательных учреждениях, раскрыты существенные особенности и возможности применения имитационного моделирования, кадровой технологии в преподавании географии.*

Ключевые слова: *инновационное обучение, метод моделирования, современные технологии, мультимедийные инструменты, проблемное обучение.*

ORGANIZATION OF A MODERN AND INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN THE TEACHING OF GEOGRAPHY

Yuldoshova Y.I., To‘laganov N.U.
Karshi State University, Karshi, Uzbekistan, e-mail: yuldu0664@gmail.com

Annotation: *this article examines the theoretical and methodological aspects of the application of innovative teaching methods in educational institutions, reveals the important features and possibilities of simulating, using frame technology in the teaching of geography.*

Key words: *innovative teaching, simulation method, modern technologies, multimedia tools, problem learning.*

Geografiya - bu Yerning inson sayyorasi sifatida yaxlit ko‘rinishini ta’minlaydigan yagona o‘quv fani deb hisoblash mumkin. U shuningdek umumiy madaniyatni, shu jumladan

ekologik madaniyatni shakllantiradi; barcha darajalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zaruriy majmuadir.

Ta’lim sohasini axborotlashtirish natijasida qator atama va tushunchalar vujudga keladi. Ammo maktablarda kompyuterlarni paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan tushuncha va atamalar bilan bir tekisda va mazmunda emas. Bu so‘z "kompyuterlashtirish" va "Axborotlashtirish" tushunchalari haqida beriladi. Ba’zi hollarda ikkala atamadan u yoki bunisi shakllanadi. "Kompyuterlashtirish" yoki "Axborotlashtirish" deganda umumta’lim maktablarini, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini kompyuterlar bilan ta’minlash hamda turli ma’lumotlarni uzatish va olish tushuniladi.

XX asrning 80-yillaridan boshlab har bir maktabda kompyuter xonalari tashkil qilina boshlandi. Kompyuter xonalarida 10 tadan ortiq bo‘lgan, ammo ularning sifati ya’ni ko‘rsatkichlari past bo‘lgan. Ammo olib borilgan tadqiqot ishlarini umumta’lim maktablarini kompyuterlashtirish natijasida ta’lim-tarbiya jarayonida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lmadi. Mazkur hol quyidagi holatlarda namoyon bo‘lgan: a) o‘qitishni va mustaqil o‘quv faoliyatini texnologiyasini motivatsiyasi o‘zgarmadi; b) o‘qituvchi faoliyatining motivatsiyasi o‘zgarmadi; v) o‘quv jarayonini boshqarish texnologiyasi o‘zgarmadi; g) bu yerda gap XX asrning 80-yillaridagi ommavity maktablar haqida ketmoqda. Chuqurlashtirilgan maxsus maktablarda esa ta’lim jarayonida katta o‘zgarishlar sodir bo‘lgan.

Keyinchalik amaliy pedagogikada kompyuterlarni qo‘llash bo‘yicha ustivor yo‘nalishlar shakllandi. Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ✓ informatika va hisoblash texnikasi asoslarini o‘rganish;
- ✓ ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash;
- ✓ axborot texnologiyalari yordamida ta’lim muassasalarini va mintaqaviy ta’lim tizimlarini boshqarish.

Bu esa axborot texnologiyalarni qo‘llashni birinchi darajali ishlar qatoriga qo‘shimcha imkon beradi. Ushbu sohada olingan samaralar umumta’lim maktablarini kompyuterlashtirishga ketgan harajatlarni qoplashi mumkin.

Ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishda yangi ta’lim texnologiyalari katta samaraga ega. Yangi ta’lim texnologiyalari quyidagilarga imkon beradi: a) har bir maktab o‘quvchisida o‘zining shaxsiy ta’liminlanishi rivojlantiriladi; b) o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartirishga va uning tizimli tafakkurlash tomoniga loyihalashga imkon beradi; v) o‘quvchilarni bilish faoliyatini samarali tashkil qilishiga imkon beradi. Bunday yondashish kompyuterni bilish vositasiga aylantiradi. Maktablarda kompyuterni o‘rni qanday bo‘lishi degan savol ta’limni kompyuterlashtirish dastlabki bosqichlardayoq qo‘yilgan edi. Ammo kompyuterni o‘rganishdan undan foydalanishga o‘tish juda qiyinchilik bilan amalga oshmoqda. Ko‘p hollarda geografiya va boshqa fanlardan ishlab chiqarilgan kompyuter texnologiyalari talabsiz qolib ketadi. Buning asosiy sabablaridan biri odatiy darslarni davomi bo‘lib qolishidadir. Elektron darsliklar ko‘p hollarda darsliklarni bir nusxasiga (kopiyasiga) aylanib qolmoqda. Shuning uchun ularga talab kamroq bo‘lib qolmoqda. Ularni samaradorligi tajribali o‘qituvchi samaradorligidan yuqori bo‘lmayapti.

Elektron darsliklarni yoki kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga talabni kamayib borishining asosiy sabablardan biri o‘quvchilarni zamonaviy ta’lim talablari va zamonaviy ta’lim talablari bilan shaxsga yo‘naltirilgan yondashish va sinf-dars tizimida faollanishiga yo‘naltirilgan bir-biriga mos kelmasligidir. Kompyuterlarni yangi avlodini yaratishi bilan yangi texnologiyalar ishlab chiqariladi, shu bilan birga ta’lim texnologiyalari ham ishlab chiqiladi. Kompyuterda matn, chizma, audio va video ma’lumotlarni birlashtirilishi o‘quv ma’lumotlarini sifatini keskin oshirib yuboradi.

Kompyuterlar industriyasini rivojlantirishi pedagogik jarayonlarda inqilobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Uning asosida esa o‘quvchini individual faoliyatini ta’minlaydigan texnologiyalarga o‘tish yotadi. Bunday texnologiyalarga o‘tish dasturiy

vositalarni yaratish bilan bog‘liq yaxlit kompyuterlashtirilgan predmetli kurslarda odatiy dasturiy asosnomalarning ayrim qismlari saqlanib qolinadi, ular esa maktab darsliklarini turli darajada qaytarishadi. Shuning uchun mazkur kurslar quyidagicha yo‘naltirilgan bo‘lmog‘i lozim; a) ixcham (Kompyuter) mavjud bo‘lishi, u o‘quvchilarni mustaqilligini yuqori darajada ta’minlashi lozim; b) turli sohadagi bilimlarni yuqori darajadagi integratsiyasi mavjud bo‘lgan predmetlarni o‘rganishda; maktablarda o‘quvchilarni qisman yoki to‘la kompyuterlar bilan almashtirish; v)sinf-dars tizimiga asoslanmagan eksperimintal ta’limiy texnologiyalarni yaratish; g) o‘quv jarayonida kompyuterlardan foydalanishni yangi yondashuvlarini ishlab chiqish; d) shaxsga yo‘naltirilgan dasturiy asoslarni ishlab chiqish.

Ta’lim muassasalarida kompyuterlardan samarali foydalanish qator tashkiliy-pedagogik ishlarni yechish bilan bog‘liq.

O‘qituvchilarni kompyuterli maktablarda ishlashga tayyorlash muhim muammo bo‘lib hisoblanadi. Kompyuter texnologiyalarini maktablarda dastlabki davrlarda kam talab etilishi oliy ta’limda ushbu soha bo‘yicha yetarli bilim berilmaganligidir. Elektron pochta imkoniyatlaridan foydalanishni dars va darsdan tashqari vaqtlarda jahon kommunikatsion tarmog‘idan foydalanish maxsus metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Maktablarni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta’minlash ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Geografiya fani va geografiya ta’limida informatsion texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda.

Geografiya ta’limida informatsion texnologiyalardan foydalanishni quyidagi shart-sharoitlarini ta’kidlab o‘tish lozim:

- ✓ geografiya o‘qituvchisi informatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi shart;
- ✓ maktab o‘quvchilari kompyuterlardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi shart;
- ✓ maktabda kompyuter sinflari bo‘lishi shart.

Geografiya ta’limida informatsion texnologiyalarni qo‘llash quyidagi sohalarda olib borilmoqda: elektron darsliklardan foydalanish; elektron xaritalardan foydalanish; internet imkoniyatlaridan foydalanish; video filmlardan foydalanish; masofaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish.

Hozirgi davrda juda ko‘p darsliklarning elektron versiyalari yaratilmoqda. Shu munosabat bilan o‘quvchilar berilgan mavzuni elektron darslikdan topib uni o‘qituvchi yordamida, yoki mustaqil o‘rganishi mumkin. Darsni o‘qituvchi boshqarib turishi mumkin. Bunda o‘qituvchi matnni o‘rganishda izohlar berib boradi. Matndagi chizmalar, rasmlar, xaritalar, jadvallar alohida tushuntiriladi. Darsni oxirida o‘qituvchi kompyuter orqali o‘quvchilarga savollar berishi mumkin. O‘quvchilar esa kompyuter orqali javob berishadi. Ularning bergan javoblari o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

Geografiya ta’limida xaritalar asosiy o‘quv vositasi bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun xaritalar bilan mustaqil ish bajarayotganda elektron xaritalardan foydalanish mumkin. Elektron xaritalar orqali quyidagi ishlarni bajarish mumkin:

- ✓ elektron xaritalar orqali tabiiy va iqtisodiy geografik tavsiyalar tuzish; masalan, iqlim xaritalaridan foydalanib ma’lum bir materik yoki xudud iqlimi tavsifini tuzish, yoki iqtisodiy geografik xaritalardan foydalanib ayrim mamlakatlarga yoki xududlarga iqtisodiy ta’rif berish va h. k.;
- ✓ internet imkoniyatlaridan foydalanib geografiyaning turli sohalari bo‘yicha yangi-yangi ma’lumotlar olish mumkin. Masalan, kundalik iqlim haqida, aholi haqida, xo‘jalik va geosiyosiy sharoit haqida va h.k;

✓ geografiya ta’limida video filmlar juda katta ahamiyatga. Video filmlardan quyidagi sohalar bo‘yicha foydalanish mumkin: a) boshlang‘ich tabiiy geografiya kursida; b) materiklar va okeanlar tabiiy geografiya kursida; v) O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasini o‘rganish kursida; g) O‘zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasini o‘rganish kursini; d) Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o‘rganish kursida; e) fakultativ mashg‘ulotlarda; j) geografik to‘garaklarda va h.k;

Masofaviy o‘qitish geografiya ta’limida endi rivojlanib kelmoqda. Masofaviy o‘qitish usulidan malaka oshirish kurslarida keng foydalanish mumkin. Informatsion texnologiyalardan foydalanish geografiya ta’limida katta imkoniyatlarga ega. Geografiya ta’limini axborotlashtirishni to‘xtovsiz takomillashtirib bormoq zarur.

Fanning yana bir muhim jihati bir nechta manbalardan olingan ma’lumotlarni qanday qilib birlashtirishga, ma’lum bir xalqaro aloqa tili - geografik xaritadan foydalanishga o‘rgatadi.

Geografik ta’lim insoniyat uchun umumiy uy sifatida o‘z mamlakati va sayyoramizni o‘rganish uchun ishonchli asosdir. Aynan shu ta’lim zamonaviy dunyo va insoniyatning xilma-xilligi va birligi bilan birligini ongli ravishda tushunishni ta’minlaydi.

O‘quvchilar o‘zlarini o‘rab turgan moddiy, ma’naviy va madaniy qadriyatlarni va insonning kosmosda mavjud bo‘lishining ma’nosini to‘g‘ri tushunishlari uchun juda katta geografik bilimlarni to‘plashi zarur.

O‘quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishda maktab o‘quvchilari uchun zamonaviy o‘quv qo‘llanmalariga katta ahamiyat beriladi. Sir emaski, o‘qitishning asosiy vositasi hanuzgacha atlas bilan jihozlangan darslikdir. Shu bilan birga, samarali o‘qitish o‘quv-uslubiy majmuasi deb ataladigan boshqa bir qator o‘quv qo'llanmalaridan (dasturlar, ko‘rsatmalar, o‘quv daftarlari) foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ammo o‘quv materiallaridan tashqari, boshqa o‘quv qo‘llanmalari ham qo‘llaniladi: audiovizual va ekran-tovush, shuningdek turli xil interaktiv o‘quv vositalari (multimedia ensiklopediyalari va qo‘llanmalari, moslashtirilgan dasturiy va uslubiy majmualar va shunga o‘xshash elektron darsliklar, test dasturlari).

Har qanday yangi texnologiyani o‘zlashtirish bilan o‘qituvchining yangi pedagogik tafakkuri boshlanadi: uslubiy tilning ravshanligi, tuzilishi, metodikada asosli me’yor paydo bo‘lishi. Sinfda pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda, yaxshi natijalarga erishib, geografiyani o‘qitish jarayoniga yangi nuqtai nazardan qarash mumkinligiga amin bo‘la olamiz. Ayni paytda geografiya darslarida turli xil pedagogik yangiliklardan foydalanilmoqda. Shunga qaramay, quyidagilar eng xarakterli innovatsion texnologiyalardir.

Mavzuni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish usuli. AKTni o‘quv jarayonining mazmuniga kiritish turli predmet sohalarini informatika bilan birlashtirishni nazarda tutadi, bu esa o‘quvchilar ongini axborotlashtirishga va zamonaviy jamiyatdagi axborotlashtirish jarayonlarini (uning professional yo‘nalishida) tushunishiga olib keladi. Maktablarni axborotlashtirish jarayonida paydo bo‘layotgan tendensiyani anglash katta ahamiyatga ega: maktab o‘quvchilari tomonidan informatika haqidagi asosiy ma’lumotlarni o‘zlashtirishdan, umumiy texnologiyalarni o‘rganishda kompyuter dasturlaridan foydalanishgacha. Natijada maktab metodik tizimida yangi axborot texnologiyalari paydo bo‘ladi va maktab bitiruvchilari kelgusi ish faoliyatida yangi axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishga o‘rgatiladi. Ushbu yo‘nalish o‘quv dasturiga kompyuter fanlari va AKTni o‘rganishga qaratilgan yangi fanlarni kiritish orqali amalga oshiriladi.

Sinfda AKTdan foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatdiki:

a) masofaviy ta’limning turli shakllarini o‘z ichiga olgan ochiq maktabning axborot muhiti, ayniqsa, loyiha uslubidan foydalangan holda o‘quvchilarning fanlarini o‘rganishga bo‘lgan intilishini sezilarli darajada oshiradi;

b) o‘qitishni axborotlashtirish o‘quvchi uchun jozibali bo‘lib, unda maktabdagi muloqotning psixologik stressi "o‘qituvchi-o‘quvchi" sub’ektiv munosabatlaridan "o‘quvchi-kompyuter-o‘qituvchi" eng ob’ektiv munosabatlarga o‘tishi, o‘quvchilarning ish samaradorligi bilan olib tashlanadi. Ijodiy ishlarning ulushi ortadi, maktab devorlari ichida bir fan bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot olish imkoniyati va kelajakda maqsadli ravishda maktab, obro‘li ishni tanlash amalga oshiriladi;

d) o‘qitishni informatizatsiya qilish o‘qituvchi uchun jozibali bo‘lib, uning ish samaradorligini oshirishga imkon beradi, o‘qituvchining umumiy axborot madaniyatini oshiradi.

Innovatsion o‘qitish usullaridan foydalangan holda geografiyani o‘qitish jarayonida quyidagi pedagogik paradigmalarni amalga oshirish mumkin:

- ta’limning insonparvarlik paradigmasi, bu erda asosiy qiymat ma’lum bir shaxs - uning ichki makoni, individual bilish jarayonining o‘ziga xos xususiyati;

- ta’limning texnokratik paradigmasi - tasdiqlangan va sinovdan o‘tgan bilimlarga asoslangan ob’ektiv haqiqat mavjudligining, shuningdek atrof-muhit bilan eksperimental o‘zaro aloqalarning qiymat tushunchasi;

- ta’limning tarixiy paradigmasi, bu jamiyat mavjudligining o‘ziga xos tarixiy shartlarini va ular bilan bog‘liq bo‘lgan jamiyatning yashash usullari va shakllarini o‘rganadi.

Innovatsion o‘qitishning mohiyati shundan iboratki, o‘quv jarayonida talaba uning sub’ektiga aylanadi, ya’ni uni yonma-yon va tasodifiy natijada rivojlantirish asosiy vazifaga aylanganda, o‘z-o‘zini o‘zgartirish uchun o‘rganadi, ham o‘qituvchi, ham o‘quvchining o‘zi. Shu munosabat bilan, pedagogik jarayonda o‘quv jarayoni davomida talabalarning mustaqilligi va faolligini maksimal darajada namoyon etishiga, shuningdek, intellektual va shaxsiy rivojlanishda ilgarilashga imkon beradigan bunday psixologik yoki pedagogik sharoitlarni aniqlash zarur bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. J.G. Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T: “O'qituvchi”. 2004

2. M.T. Mirakmalov, M.M. Avezov, E.Y. Nazaraliyeva. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg‘ulotlar. T: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2015

3. Rakhmatov, Dilmurod. "Opportunities and pedagogical importance of using e-information educational resources in education." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2.04 (2021): 430-437.

4. Rakhmatov, Dilmurod. "Mobile technologies in the higher education system." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 2021.02 (2021): 182-196.

5. Rakhmatov, Dilmurod, and Abduganiyev Akhror. "Digital technologies in higher education: innovative solutions in targeted learning." Development issues of innovative economy in the agricultural sector (2021): 83-86.

6. Колодочка, Т. Н. Фреймовая педагогическая технология в дисциплине «География» / Т. Н. Колодочка // Школьные технологии. - 2004. - № 5. - С. 203-208.

7. Фоломейкина, Л. Н. Теория и практика модульного обучения в школьной географии. Современное состояние и пути развития системы образования: монография / Л. Н. Фоломейкина [и др.] ; под общ. ред. С. В. Куприенко. - Одесса, 2012 - С. 58-71.

INTEGRATIV YONDASHUVNING MAZMUN-MOHIYATI VA TA’LIM JARAYONIDA UNDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Xoldavlatova G.N.
Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston
e-mail: xoldavlatovagavhar@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta’lim tizimida integrativ yondashuvning mazmun - mohiyati va hozirgi vaqtdagi zarurati yoritib berilgan. Shu bilan birga, integratsiyalashgan ta’lim jarayonining afzalliklari hamda undan foydalanishning ahamiyati izohlab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *intetratsiya, integrativ yondashuv, an’anaviy o‘qitish, ko‘nikma, kompleks, kompetentlik, mehnat bozori, modelli integratsiya.*

СОДЕРЖАНИЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Холдавлатова Г.Н.
Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан
e-mail: xoldavlatovagavhar@gmail.com

Аннотация: *В данной статье объясняется значение и необходимость интегративного подхода в системе образования. При этом поясняются преимущества интегрированного образовательного процесса и важность его использования.*

Ключевые слова: *интеграция, интегративный подход, традиционное образование, навык, комплекс, компетентность, рынок труда, модель интеграции.*

THE CONTENT OF THE INTEGRATIVE APPROACH AND THE EFFECTIVENESS OF ITS USE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Kholdavlatova G.N.
Karshi State University, Karshi, Uzbekistan, e-mail: xoldavlatovagavhar@gmail.com

Abstract: *In this article, the meaning and necessity of the integrative approach in the education system is explained. At the same time, the advantages of the integrated educational process and the importance of its use are explained.*

Key words: *integration, integrative approach, traditional education, skill, complex, competence, labor market, model integration.*

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish borasida dunyo miqyosida o‘qitishning integratsiyalashuviga, kompleks yondashuvni tatbiq etishga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning markaziy tamoyillaridan biri bu faol ta’limdir. Faol ta’lim talabalarni mavzu bilan faol shug‘ullanishga undaydi, chuqurroq tushunish va bilimlarni amalda qo‘llashga yordam beradi. L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan konstruktivistik nazariyalar bu yondashuvni asoslaydi. Uning ta’kidlashicha, talabalar o‘zlarining bilimlarini atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir qilish va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish orqali qurishadi [3]. Ushbu yondashuv an’anaviy modelga qarshi o‘laroq ko‘proq talabaga asoslangan yondashuviga e’tibor qaratadi. Masalan, geografiya fani misolida mashg‘ulotda talabalar ma’ruzalarni passiv tinglashdan ko‘ra ularning ilmiy tushunchalarni o‘rganish uchun amaliy tajribalar va guruh muhokamalarida qatnashishi yaxshi natijalarni beradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘rganish tajribasini oshirish uchun texnologiyadan foydalanadi. Aralashtirilgan ta’lim, o‘zgaruvchan sinflar va onlayn resurslar talabalarga ta’lim mazmuniga moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Ta’lim texnologiyasi

individual ehtiyoj va imtiyozlarga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasini yaratishga imkon beradi [6].

Bugungi ta’lim jarayonida integrativ yondashuvni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Xususan, o‘quv jarayoniga ta’limning interfaol shakllari, texnologiyalari – integrativ dars, talabani tanqidiy fikrlashga undovchi metodlar jadal rivojlanmoqda. Ta’limning globallashuvi hamda sog‘lom va muammoli ta’lim muhitini tashkil etish orqali talabalarni birgalikda o‘qitish maqsadiga xizmat qiladigan integrallashgan ta’limni tashkil qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Integrallashgan kasblar paydo bo‘layotganligi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integratsiyalashgan ta’limning o‘rni va ahamiyatini oshirmoqda.

Ma’lumki, integratsiya (lot. integratio – tiklash, to‘ldirish, integer – butun so‘zidan olingan) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha. Ta’limda esa fanlarning bir-biriga yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni tushuniladi.

«Integratsiya» atamasi ilmiy termin sifatida pedagogikaga 1980-yillarining birinchi yarmida kirib keldi va jadal sur’atlarda ijtimoiy hayotga, iqtisod, siyosat, axborot va boshqa sohalarda tadbiq etila boshlandi. 1990-yillarga kelib esa til ta’limida «integratsiyalash» tushunchasi paydo bo‘ldi.

Integrativ yondashuv asosida ta’lim beruvchi dastlabki institut California Institute of Integral Studies AQShning Kaliforniya shtatida 1968 yilda tashkil topgan. O‘tgan o‘n yil ichida AQShda Ken Vilberning integrativ instituti ham yuzaga keldi. Ispaniyaning Madrid shahridagi R.Y.Karlos universitetida integrativ ta’lim asosida ta’lim berila boshlandi [6].

Integrativ yondashuv – axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash jarayonidir. Bu yondashuv o‘rganilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo‘lishi, bilimlarga tizimli yondashish, o‘quvchilar bilimlarini egallashning eng maqsadga muvofiq yo‘llarini o‘rgatishdan iborat. Integrativ yondashuv ta’lim-tarbiya jarayonlariga kompleks va tizimli yondashuv hisoblanib, tizimiy tahlil tadqiqot metodlarini joriy etishda va bilishning induksiya hamda deduktsiya metodlaridan foydalanishda qo‘l keladi. Integrativ yondashuv ta’lim va tarbiyani iyerarxik tizim sifatida qarab, ular ustida olib boriladigan tadqiqotlarning samaradorligini kafolatlaydi [4].

Zamonaviy ilmiy metodologik rivojlanish har bir fanda o‘zaro aloqalar integratsiyasining zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayni paytda fanlardagi differensiatsiya jarayonlari bilan bir qatorda ilmiy ma’lumotlarning sintezi va integratsiyasiga bo‘lgan ehtiyojni ham kuchaytirdi. Integratsiya jarayoni geografiya faniga yangicha qarashni taqoza etadi, yangi paradigmalarni qidirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Geografiyaning o‘zida kechgan integratsiya jarayonlari natijasida tabiiy va sotsial-iqtisodiy geografiyani bog‘lab turadigan integrativ yo‘nalishlar (meliorativ geografiya, rekreatsion geografiya, tabiatdan foydalanish geografiyasi va b.). vujudga keldi [1].

Integrativ yondashuv bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, uning yechimini baholash faoliyatini tashkil qilish metodlarini o‘z tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayondan iborat.

R.V.Konchakovskiy integratsiyani 4 ta asosiy darajaga ajratadi: sistemali, modelli, kompleksli va analitik. Uning fikricha, sistemali integratsiya ikki fanning birlashuviga asoslanadi va yangi ilmiy jarayonda yangi fanning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Modelli integratsiya esa funksional va strukturali modellarning boshqa fanlar bilan birlashishiga asoslanadi. Kompleksli integratsiyada turli ijtimoiy fanlarni bir vaqtning o‘zida kompleks

tavsiflash va ularni o‘qitishning turli darajalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Analitik integratsiya ilmiy ma’lumotlar asosida tegishli sohalarda erishilgan yutuqlarni tahlil qilish, ularning ijtimoiy hayotga ta’sirini o‘rganish va ulardan amaliy foydalanishga asoslanadi [4].

L.P.Elinkon ham maktab ta’limini integratsiyalashning muhimligini ta’kidlab, «integratsiya darslarni samarali tashkil qilish vositasi, predmetlar orasidagi aloqalarni yangi pog‘onalarga ko‘tarish shakli» deb hisoblaydi [5].

Integratsiyalash – lotincha “integer” - umumiylik, “integerara” - umumiylikni to‘ldirish, yaratish, tiklash demakdir. Ta’lim mazmunidagi uyg‘unliklarni ta’minlash muammolari ham integratsiyalashning shug‘ullanadigan sohasi hisoblanadi. Ta’lim va tarbiyada esa bilimlar, tushunchalar, ko‘nikmalar va malakalarni shakllantirishlarni umumlashtirib, qonun yoki qoida ko‘rinishiga keltirishni amalga oshiradi. Integratsiyalash tushunchasi muhim ilmiy termin bo‘lib, u umumlashtirish, xulosalashlarda metodologik vosita bo‘lib hisoblanadi, chunki uning yordamida jarayon va hodisalar mazmunlari orasidagi umumiy uyg‘unlik algoritmlari yaratiladi.

Ta’lim jarayonini integratsiyalash – o‘qitishning maqsadi va omillarini bir butun qilib birlashtirishdir. Bunda ta’lim mazmunidagi barcha tashkil etuvchi elementlar: bilim, ko‘nikma, malaka, me’yor, pedagogik tizimlarni o‘zida mujassamlab bilimlarni tizimlashtirishni tashkil etish, talabalarda har xil predmetlarda o‘tiladigan va texnik, texnologik jarayonlarda sodir bo‘ladigan hodisalar, tushunchalar, g‘oyalar, nazariyalar orasidagi o‘zaro integratsiya va har tomonlama bog‘lanish borligini o‘rnata olish ko‘nikmalarini shakllantirish; bu bog‘lanishlar ilmiy va kasbiy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beruvchi ekanini tushuntirishni ta’minlash; o‘quvchilarda ijodkorlik masalalarini nazariy jihatdan to‘g‘ri va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq yechishda, turli o‘quv predmetlarini o‘rganishda olgan bilim va malakalari asosida texnikaviy – iqtisodiy, ijtimoiy – ekologik, tashkiliy – pedagogik tizimlar maqsadi, mezoni va vazifasini to‘g‘ri shakllantirish ko‘nikmalarini hosil qilishlarini nazarda tutadi.

Integrativ yondashuvda turli fanlardan olingan bilimlar, ko‘nikma, malaka va tajribani hisobga olish, ularga tayanish, ya’ni chet tilda kommunikativ, kasbiy, ijtimoiy kompetentlikni integratsiyalash, barobar rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv talabalarda erkin muloqot qilish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, talabalarda mustaqil va jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mazkur yondashuv ta’lim sifatining sezilarli ravishda ijobiy tomonga o‘zgarishiga va talabalarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyalari kuchayishiga olib keldi.

Integratsiyalashgan ta’lim, avvalo, bir-biriga yaqin va mos bo‘lgan o‘quv fanlarini yaqinlashtirish, yaxlitlash va kompleks holda o‘qitishni ko‘zda tutadi. Ta’lim mazmunini integratsiyalashtirish pedagog uchun ham ta’lim oluvchi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi, ta’lim sifatini oshirish, ta’lim oluvchining faoliyatini yaxshilash, faollashtirish, bilimlarini mustahkamlash, ularda kuchli motivatsiyani uyg‘otish va o‘z-o‘zini rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

L.T.Ahmedovaning fikricha, integratsiyalashgan dars bu - darsning muayyan va o‘ziga xos shakli bo‘lib, u nafaqat turli fanlardan olingan ma’lumotlarni birlashtiradi, balki vaqtni ham tejaydi [2]. Biroq integratsiyalashgan dars to‘g‘ri rejalashtirilgan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lsagina muayyan natija beradi.

Integrativ yondashuv zamonaviy va samarali ta’lim tamoyillaridan biri bo‘lib, ta’lim oluvchilarda ko‘p qirrali tasvir va dunyoqarashni shakllantiradi, ularni yangicha fikrlash va mulohaza yuritishga undaydi, bilimlarni oson va tez o‘zlashtirishga imkon yaratadi va

motivatsiya uyg‘otadi, fanlardan olgan bilimlarini amaliyotda erkin qo‘llash imkoniyatini yaratish bilan birga dunyoni yaxlit anglashga, tizimlarning o‘zaro bog‘liqlikda ekanligi haqidagi tasavvurni shakllantiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev S.I. Geografiyaning asosiy muammolari. Ma’ruzalar matni. Qarshi, 2024. 113 b.

2. Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов филологов (на материале художественные текстов): Дисс. док ….пед. наук. −Т., 2012. − 81 б.

3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

4. Кончаковский Р. В. К проблеме интеграции социологического и естественнонаучного знания. Культура, личность, общество в современном мире: методология, опыт эмпирического исследования. XV Международная конференция памяти профессора Л. Н. Когана. − Екатеринбург: УрФУ, 2012. − С. 175.

5. Мавлонова Р., Вохидова Н., Раҳмонқулова Н. Педагогика назарияси ва тарихи. − Т., “Фан ва технология” нашриёти. 2010. − 26 б.

6. Rajabov F.T. Zamonaviy yondashuvlar vositasida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped.fan.dok.dissertatsiyasi. –T.: 2024 y., -B.23.

7. Щукин А.Н. Методика обучения речевому общению на иностранном языке. Учебное пособие для реподавателей и студентов языковых вузов. − М., Изд-во Икар. 2011.− 454 с.

HUDUD TARIXIY GEOGRAFIYASINI O`RGANISHDA TOPONIMLARNING AHAMIYATI

Eshboyev B.T.

Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya: *Geografiya ta’limida toponimlar muhim nazariy va amaliy vazifalarni hal etadi. Shu vazifalar jumlasiga toponimlarning ma’lum bir hududning tarixiy geografik tavsifini, jumladan tabiiy sharoitlarlarni aniqlashda ham qo`l kelishi mazkur maqolada bayon etilgan.*

Kalit so’zlar: *toponim, geografik ta’lim, nom tarixi, tabiiy sharoit, tarixiy tahlil.*

ЗНАЧЕНИЕ НАЗВАНИЙ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИЧЕСКОЙ ГЕОГРАФИИ РЕГИОНА

Эшбоев Б.Т.

Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан

Аннотация: *Топонимы решают важные теоретические и практические задачи географического образования. Среди этих задач в данной статье указано, что топонимы полезны при определении историко-географического описания определенной территории, включая природные условия.*

Ключевые слова: *топоним, географическое образование, история названия, природные условия, исторический анализ.почвы.*

THE SIGNIFICANCE OF NAMES IN STUDYING THE HISTORICAL GEOGRAPHY OF THE REGION

Eshboev B.T.

Karshi State University, Karshi, Uzbekistan

Abstract: *Toponyms solve important theoretical and practical tasks in geography education. Among these tasks, it is stated in this article that toponyms are useful in determining the historical geographical description of a certain area, including natural conditions.*

Key words: *toponym, geographical formation, history of the name, natural conditions, historical analysis.*

Geografik nomlar haqidagi toponimika tilshunoslik tarix va geografiya fanlari o'rtasida oraliq fan bo'lsada Yer haqidagi fanlarga – geografiya, geologiya, biologiya fanlariga ancha yaqin muammolarni baxs etadi. Chunki joy nomida uning geografik o'rni tabiiy xususiyati boshqalardan ajralib turuvchi alomati, ijtimoiy – iqtisodiy holati kabi jihatlar muhrlangan bo'lishi mumkin. Har qanday nom o‘z zamonasining mahsuli, tarix yodgorligi, aholi muayyan tilida qoldirgan esdalik. Nomlar, agar o‘zgartirilmasa asrlar osha, hatto ming yil osha yashayveradi.

Har bir geografiya fani o‘qituvchisi o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan mavzular bo‘yicha darslik, o‘quv atlaslari va qo‘llanmalar bilan ishlar ekan, bevosita turli xil joy nomlariga to‘qnash keladi. Ana shu jihatlarni e'tiborga olgan holda maktab geografiya darslarini o‘qitishda toponimik atamalardan unumli va metodik jixatdan to‘g‘ri foydalanish o‘quvchilar malaka va ko‘nikmasining oshishiga hamda darsning sifatli yakunlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday fanning o'z nomi, bu atama qanday manoni anglatishi, bu nom birinchi marta qayerda paydo bo'lganligining o'zi ham bir tomondan geografik ikkinchi tomondan toponimika ekanligini ko'rsatadi. Geografik nomlar haqidagi fan bo'lgan toponimika sayyoramizning aniq hududining tuzilishi va xususiyatini o'rgatish bilan shug'ullanadigan geologiya, geomorfologiya, biogeografiya fanlari bilan chambarchas bog'liq. Zero geologiya Yerning ichki xususiyatlarini, qazilma boyliklarini aniqlashda aniq bir nom bilan ataluvchi hudud bilan ish ko'rganligi uchun toponimika qonun qoidalaridan foydalanadi, demak geologiya, geomorfologiya va toponimikaning manfaatlarida mushtaraklik bor.

Agar geologik qidiruv ishlari aniq nom bilan ataladigan joy bilan bog'liqligi e'tiborga olinmagan taqdirda ham, bu fanlarda qo'llaniladigan hodisa va jarayonlar ular o'rganilgan joy nomidan olinganligi uchun bu fanlarni toponimika va geografik atamashunoslik bilan aloqada desak bo'ladi. Al'p o'tlog'i, al'p burmalanishi, kal'dera, vulkan, fiord kabi atamalar aslida toponimlardir. Demak har qanday ilmlarni aniq lug'at tarkibi – ilmiy atamalar bo'lishi nuqtai nazardan atamashunoslik tilshunoslikning aniq bir yo'nalishi sifatida tilshunoslik bilan bog'liq.

Toponimlarni o'rganishning eng muhim amaliy ahamiyatlardan biri kartografiya uchun nomlarni xaritada tasvirlash diyish mumkin. Chunki geografik ob'ektlarning nomlari xaritalar mazmuning asosini tashkil etadigan nomlar avvalo xaritalar yozivi, sifatida mujassamlashadi. Bularni amalda bajarish uchun xaritalarni tuzish bilan bog'liq dalada va labaratoriyada nomlarni aniqlashga qaratilgan bir qancha ishlarni bajarish talab etiladi. Nomning joyda qanday atalishi, uning qaysi tilda qanday atalishi, uning qaysi tilda qanday manoni anglatishi, qanday talaffuz etilishi va yozuvdagi imlosi bilan aloqador ishlar jumlasidandir. Bir qancha murakkab ishlarni o'z ichiga aniq xususiyatlari haqida ma'muriy berilsa geogrfaiyaning jozibadorligi ta'minlanadi.

Chunki natija xaritada nomdan foydalanish maqsadini ko'zlaydi. Nomlarni aniqlash kartografik amaliyotida qo'llash metodikasi toponimikaning maxsus tarmog'i - kartografik toponimika deyiladi. Ushbu misol toponimika geografiya fanlari bilan uzviy bo'g'liq bo'lishini isbotlaydi. U geografiyaning bir tarmog'i sifatida amalda qo'llanilganini bildiradi.

Geografik talimning o’ziga xos qirralari ko’pchilik bo’lib, hoh oliy ta’limda bo’lsin, hoh umumiy o’rta ta’limda bo’lsin, umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo’lgan geografik dunyoqarash va geografik madaniyatini fuqarolarda shakllantirishdir. Sayyoramizning istalgan joyida ro’y berayotgan tabiiy iqtisodiy siyosiy voqeylik va hodisalarning makonini aniq tasavvur etish geografik dunyoqarash hisoblanadi. Materik okean davlatlarning joylashgan o’rni qiyofasi ozmi-ko’pmi tabiiy va iqtisodiy ijtimoiy xususiyatlari haqida ma’lumotga ega bo’lib, ularning o’rni haqida tasavvurga ega bo’lishi geografik madaniyatdir.

Geografik dunyoqarash va madaniyat albatta joy nomlari - toponimlar orqali mujassamlashgan. Shunday ekan geografik ob’ektlarning nomlari toponimlarni asosan geografik ta’lim jarayonida bilib olinadi. Toponimikaning geografiya ta’limida o’rganilishining ahamiyati ham shunda. Buning ustiga geografiya ommabop va qiziqarli o’quv predmeti deb sifatlanar ekan tariflanayotgan nomning ma’nosi atalish tarixi aniq xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilsa geogrfaiyaning jozibadorligi ta’minlanadi.

Toponimik asoslarga vaqt, manbalar va yo’nalishlar bo’yicha joylarga aholining ko’chishi, o’rnashishi kiradi. Toponimlar aniq tarixiy jarayon bo’lib, u aholining ko’chishi, madaniy, iqtisodiy vatilmunosabatlari bilan vujudga keldi, so’ng tarqala boshlaydi. Toponimika jamiyatning muomala vositasi bo’lgan tilni, uning iqtisodiyotini, madaniyatini va tarixiy taraqqiyotini o’rganish jarayonida o’sib, rivojlanib boradi.

Toponimik nomlar manbai va ularni o’rganishda qo’llanilgan uslub va usullarning to’g’riligini aniqlash maqsadida yozma va boshqa manbalar qo’lyozmalar, akt materiallari, aholi joylashgan chegaralarni aks ettiruvchi bosh (asosiy) va maxsus xaritalar hamda ilmiy safar xaritalari bilan solishtirib chiqiladi. Toponimikada ham, moddiy va madaniy yodgorliklar o’rganilganidek, oddiydan murakkabga, ya’ni bugungi kundan asrlar ichkarieiga kirib borish zarur. Bilish murakkab dialektik jarayondir, chunki bu usul bilan madaniy qatlamlarning eng qadimiysidan boshlab, to navqironigacha nomlarning manbai asta-sekinlik bilan ochiladi va nomlarning «yoshi» aniqlanadi. O’z navbatida toponimik nomlar tarix uchun ham bebaho manbadir. Geografik nomlar uzoq muddatli bo’lib, ma’lum hududdagi u yoki bu xalqning tili haqida guvohlik beradi. Nomlar ma’lum bir aholining hamjihatligi yoki tarqoqligiga ham bog’liqdir.

O’tmishda esa yangi zamindor (yer egasi) paydo bo’lishi bilan ko’pincha aholi eski geografik nomlar o’rniga shu zamindorning nomini qo’yishgan. Dialektologiyadan farqli o’laroq toponimikaga oid ma’lumot to’plashda, joylarning nomlarini o’rganishda aholidan yoppasiga so’rash uslubi qo’llaniladi. Faqat shunday uslub bilangina turli daralar, kichik soy va anhorlar, jarliklar, ko’llar va boshqa shunga aloqador bo’lgan nomlarning miqdorini aniqlash mumkin, xolos. Shunday joylarning hammasi aholi yashaydigan joylarning kartasiga yoki aholi joylari ro’yxatiga kiritilmagan, ehtimol kiritilmasa ham kerak. Toponimikaning eng katta xizmati shundaki, u hujjatxona hujjatlarini sinchiklab o’rganish, xalq og’zaki ijodi asosidagi ayrim tomonlar va nihoyat hech qanday manbalarda aks ettirilgan noma’lum joylarni bizga ma’lum qiladi. Toponimikaga oid ma’lumotlar yig’ishda va joy nomlarining kelib chiqishini o’rganishda etnografiya ham katta rol’ o’ynaydi.

Toponimikaning ayrim toifalari va tizimlari o’rtasidagi o’zaro aloqalarni o’rganish yo’li bilan toponimlarni tavsiflash toponimik tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Ko’pgina mutaxassis toponimistlar mahalliy toponimlarni har tomonlama regional tadqiq qilishga katta e’tibor beradilar. Bunda, albatta, mikro va makro toponimikani o’zaro taqqoslash zarur. Toponimika vazifalarini aniqlar ekanmiz, ma’lum joyning geografik nomi tarixi to’laroq, shu o’lkada yashagan xalqlar tarixi bilan bog’liq holda aniqlanishini uning asosiy maqsadi qilib

olishimiz zarur. Bundan tashqari, toponimikaga oid tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanilayotganda o'sha o'lka xalqlarining tilini o'rganish, arxeologiya va etnografiyaga oid ma'lumotlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Eshboev B. T. Description of toponyms related to the geographical location of kashkadarya region //Экономика и социум. – 2020. – №. 10 (77). – С. 67-72.

2. Eshboev B. T. et al. The role of geographic terms definition high relief forms in the formation of oronyms //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 117-119.

3. Tojievich E. B., Geldiyarovich N. M. Explanation Of Oronyms And Orographic Terms Of Kashkadarya Region //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. – 2021. – Т. 27. – №. 1.

4. Bexzod E., Shoxboz Y. O'zbekiston oronimlarining shakllanish xususiyatlari va lisoniy tahlili //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 697-701.

5. Eshboev B. T., Kilichov O. A. The role of geographical conditions in the formation of hydronyms //Экономика и социум. – 2022. – №. 6-1 (97). – С. 73-76.

6. Eshboev B. Kashkadarya region toponyms //Monografiya. Karshi. – 2021.

7. Миракмалов М. Т., Абдуллаева Д. Н., Эшбаев Б. Т. Отражение физико-географических условий территории в топонимии Узбекистана //Науки о Земле: вчера, сегодня, завтра. – 2018. – С. 28.

ИЗУЧЕНИЕ ТОПОНИМИЧЕСКОГО ПРОСТРАНСВА НА ПРИМЕРЕ УРБАНОНИМОВ РОССИИ И ТОПОНИМОВ ЧУВАШИИ

Вишневская М.П.[1], Гасанов Р.В.[2]

ФГБОУ ВО «Чувашский государственный университет имени И.Н.Ульянова», Россия

e-mail:[1]m-krasnova1970@yandex.ru, [2]komoestas@yandex.ru

Аннотация: *В статье рассмотрены разные подходы изучения топонимических классификаций на примере городов России, культовых объектов Чувашии, лингвогеографического анализа форманта Сугутка. Топонимика является своеобразным языком ландшафта и, с ее помощью ландшафт рассказывает о себе.*

Ключевые слова: *географические названия, урбанонимы, сакральная география.*

THE STUDY OF TOPONYMIC SPACE BY EXAMPLE URBANONYMS OF RUSSIA AND TOPONYMS OF CHUVASHIA

Vishnevskaya M.P.[1], Hasanov R.V.[2]

I.N.Ulyanov Chuvash State University, Russia

e-mail:[1]m-krasnova1970@yandex.ru, [2]komoestas@yandex.ru

Annotation. *The article considers different approaches to the study of toponymic classifications on the example of Russian cities, religious sites of Chuvashia, linguistic and geographical analysis of the Sugutka formant. Toponymy is a peculiar language of the landscape and, with its help, the landscape tells about itself.*

Keywords: *geographical names, urbanonyms, sacred geography.*

Многовековая страна с богатейшей историей Россия насчитывает более 1100 городов. Многие названия городов простые и понятные современникам, некоторые для нас - остаются просто набором звуков. В названиях многих древних городов

встречаются заимствования из языков тех народов, которые жили на территории будущих поселений до присоединения их земель к Руси. К самым старым городам относятся Керчь, Дербент, Великий Новгород, Белозерск, Муром, Ростов Великий, Смоленск, Псков, Углич, Брянск, Владимир, Суздаль.

Географические названия – это визитная карточка, с которой начинается знакомство со страной, городом или урочищем. Топоним связывается со значением «местоположения», выделяя и указывая географический объект. Достаточно известный топоним свою адресную функцию выполняет самостоятельно и непосредственно. Называется объект, и вместе с названием возникает представление о типе и местоположении этого объекта: Северодвинск, Южно- Сахалинск, Красноярск, Соликамск, Магнитогорск, Белоярский, Омск, Канаш и др.

Топонимика - это самостоятельная „пограничная“ наука, развивающаяся на стыке трех дисциплин – истории, лингвистики, географии, когда онимы изучаются под определённым углом зрения, отражая конечную задачу познания. Полное понимание достигается при всестороннем исследовании, когда используются разные методы анализа и синтеза.

27 апреля 2018 года президент России Владимир Путин на заседании попечительского совета Русского географического общества дал поручение создать новый атлас мира с достоверными географическими названиями. «Сфера топонимики, то есть названий географических и других объектов, в целом нуждается в особом внимании. Сегодня мы сталкиваемся с ситуацией, когда русские названия, которые давали ещё в прошлые века и десятилетия наши исследователи и путешественники, постепенно вытесняются с карты мира», — отметил Путин.

В России сформирована Федеральная информационная система Росреестра; в государственном каталоге географических названий собраны названия почти миллиона географических объектов; с 1959 года работают топонимические комиссии.

Географическое название, т.е. топонимический комплекс отдельного региона могут быть рассмотрены с разных позиций: 1) принадлежности названия к географической реальности: горе, реке, городу, болоту и т.д.; 2) времени и обусловленности его возникновения; 3) принадлежности к тому или иному языку; 4) содержания и этимологии собственного имени; 5) его морфологии, по нормам языка; 6) научного обоснования топонимов при передаче с языка на язык и правильного написания на родном языке; 7) области распространения, выделение ареалов, пути миграции топонимов.

Полноценное описание и анализ топонимических фактов не может осуществляться без использования исторических методов исследования. Учет реальных исторических условий является одним из основных критериев достоверности изысканий. Топонимы обычно отражают отношение человека к природе, сложившееся на протяжении длительного периода. Название всегда социально: даже физико-географические термины в топонимии являются выражением уровня экономической значимости объекта. Этимологический анализ направлен на определение словообразовательной модели совместно со сравнительно-исторический подходом выделяют генетический анализ.

Анализ топонимии производится лингвистическими средствами словообразовательного (структурно-грамматического) метода, который базируется на изучении массово повторяющихся элементов названий. Обычно их называют формантами (от латинского formans – «тот, кто образует»), чаще всего выступают, как конечные элементы названий, это - суффиксы или окончания. Остальные элементы названий (приставки, основы) также представляют интерес с точки зрения изучения топонимического словообразования.

На 09.06.2024 года в России 1125 городов, их них 349 городов имеют суффиксальное окончание – ск, что 30, 02 % (от Агыгейска до Ясногороска), рис. 1.



Рис. 1 Концентрация городов России с окончанием -ск.

Лексико-семантическая географическая классификация (таблица 1) выглядит следующим образом: названия, отражающие природные условия и процессы (оронимические; гидронимические; фитотопонимы; почвенно-грунтовые топонимы; погодно-климатические топонимы; зоотопонимы); антропотопонимы; производственные топонимы; торгово – транспортные; типов поселений; этнотопонимы; мемориальные топонимы; религиозно – культовые топонимы; топонимы-мигранты; другие топонимы (не поддающиеся объяснению или соотнесению к какой-либо группе). В настоящее время семантическая классификация наиболее часто используется специалистами, как наиболее приемлемая при общем топонимическом анализе.

Табл. 1. Лексико-семантическая географическая классификация урбанонимов России

Названия, отражающие:	Примеры
Оронимические	Горнохрустальная, Жигулевск, Кумертау, Курган, Пятигорск, Ярилина гора
Гидронимические	Волго-Вятск, Озёрск, Донской, Вязьма, Сурская, Тихорецк, Цивильск
Почвенно-грунтовые топонимы	Глинка, Песчаное, Грязи, Меловое, Каменка, Никель, Кисловодск, Нефтекамск, Камено-Шахтинск
Погодно-климатические топонимы	Солнечногорск, поселок Северный
Фитотопонимы	Березовка, Ольховка, Рябиновка, Дубовка, Зелегорск, Камышин
Зоотопонимы	Орел, Кошкино, Бурундуки Мышкин, Гусь- Хрустальний
Антропотопонимы	Николаев, Пушкин,Владимир, Арсеньев
Производственные топонимы	Новокузнецк, Нерюнгри, Каменск- Шахтинский, Железногорск (Курская область), Железногорск (Краснорская область), Новочебоксарск (город энергетиков и гидростроителей)
Торгово – транспортные	Торжок, Лиски, Канаш, Красная площадь

Этнотопонимы	Кызыл, Избербаш, Всеволожск
Мемориальные топонимы	Санкт-Петербург, Екатеринбург, Сталинград, Петрозаводск, Николаев-на-Амуре
Религиозно – культовые топонимы	Архангеловка, Воскресенская, Благовещенск, Дивеево, Старцы

Основное значение и главное назначение географического названия - фиксация места на поверхности Земли.

Часто повторяющаяся классификация Мурзаева Э.М. исходит из принадлежности названий к нарицательным словам и антропонимам. Выделяются:

1) Названия, данные по каким-то признакам рельефа: вершина Зубцы Ай-Петри в Крыму, г.г. Пятигорск и Кодаой Рог.

2) Названия, данные по признакам водных объектов: река Красная, города Кисловодск, Железноводск, Минеральные Воды в Ставропольском крае, поселок городского типа Горячий Ключ, город Междуряченск, Приморский, Приморск.

3) Фитотопонимы – имена, данные по видам растений: город Лесной, Ракитки, Сосновка, Сосновый, г. Липецк.

4) Зоотопонимы – имена, данные по видам животных: г. Медвежьегорск в Карелии, бухта Лемминга и бухта Песцовая; г. Оленегорск и залив Тюлений, остров Беличий, озеро Нерпичье и др.

5) Антротопонимы – названия, восходящие к именам, фамилиям, прозвищам людей. Эта группа в основном состоит из имен населенных мест.

6) Производственные топонимы. Они отражают ведущую роль какой-то отрасли народного хозяйства в том или ином городе, поселке: г. Лесогорск, г. Углегорск, г. Электрогорск, г. Электросталь, г. Железногорск, г. Медногорск, г. Нефтекамск и др.

7) Встречались «аристократические» топонимы: Царевококшайск (ныне Йошкар-Ола), Дворянские улицы во многих губернских городах России, а также Мещанские улицы в Москве. В Монголии: падь Зайсанам, т. е. Княжеская, близ Улан-Батора; сомон Хан-Тайшири в Хангайских горах.

8) Социальные названия. Эта группа топонимов отмирает в России.

9) Этнотопонимы – топонимы, образующиеся из имен народов, родов, племен.

10) Идеологические названия, отражающие мировоззрение господствующих классов. Широко представлены топонимы по именам святых и религиозных праздников, мифологические.

В чувашской топонимии выделяются места моления и жертвоприношения Киремет [*киреметь*] и Чук [*чюк*]. Эти мета обожествлялись, располагались далеко от населенных пунктов, сохранились в названиях оврагов, холмов, окрестностей, но никак населенных пунктов, тем более - городов.

Каждая чувашская деревня имела одну или несколько священных рощ, где проводились обрядовые действия. Почиталось также множество мелких локальных «хозяев местности». Сооружения сакральных объектов - специальное ограждение, которое не принято было часто обновлять, жертвенные и поминальные столы и скамейки. Сооружение деревянное квадратной формы, с высокими входными воротами, винтовой оградой [*карта*]. На месте моления чуваши-паломники оставляли монеты, лепешки [*юсманы*], лоскутки холста и др., приносили в жертвоприношение корову, лошадь, даже самую красивую невесту деревни, чтобы задобрить Бога Тура [*Тура*], [*Тора*]. Точное количество сакральных мест так называемой «этнической Чувашии» сегодня не сможет назвать никто [2].



Рис. 2. Доля Киреметей по территории Чувашии

Чувашия относится к числу тех регионов, где существуют различные природно-культовые объекты, связанные с традиционными верованиями народов, проживающих на ее территории. Для чувашского этноса, развитие которых тесно связано с лесной зоной, характерно почтительное отношение к растительным объектам: как отдельным деревьям, так и лесным участками и рощам.

В Чувашкой Республике 9 городов и 1729 сельских населенных пунктов, подсчитано 145 мест языческих молений, что составляет 8,34 %. Места *«чюков», «киреметей»* количественно сконцентрированы в северной части республики, в смешанных широколиственных лесных массивах.

Однако в процессе христианизации многие природные святилища были уничтожены, а уцелевшие часто подвергались уничтожению или же использовались для хозяйственных нужд. Лишь немногие культовые места сохранились до наших дней в слабо измененном виде благодаря бережному отношению местного населения к своим природным святыням. В некоторых из них до сих пор проводятся языческие обряды, чему в определенной степени способствовала поздняя христианизация местных народов. К сожалению, несмотря на значительную природную и историко-культурную ценность, в Чувашии до сих пор нет ни одного Культового объекта, который имел бы официальный охранный статус.

Корифей языковедения, тюрколог д.ф.н., профессор Г.Е.Корнилов, в сборниках «Ономастика Поволжья» приводил интересные убедительные материалы под названием «Почему по-русски Чебоксары, а по-чувашски - Шупашкар».

Работая над толкованием города Чебоксары /*Шупашкар*/ - столицы республики - вывели научно-обоснованных убеждений-11, легенд и преданий-7, означающие «крепость», «стоячие болота», «водой огражденный», «местность, изобильная рыбой», «город воеводы», «Шепаш-добрый человек», «жених Чебак + девушка Сара».

На территории Поволжья, особенно в Чувашии, имеется ряд названий Сăкăт (Сугут), рисунок 2.

Рис. 2. Топонимы с атриклем Сакат

Условные обозначения:
1 – р. Сугутка в окрестности города Чебоксары;
2 – Сăхăт- д. Сăхăтпуç, Нижарово Янтиковский МО;
3 – Мăнял Сăкăт (Янгильдино) – Чебоксарский МО;
4,5 – Тăрпăк Сăкăт (Сугут-Торбиково), Çĕньял Сăкăт (Синьял-Сугут) – Вурнарский МО;
6,7,8 – Сăкăт (Сугуты), Чăваш Сăкăт (Чувашские Сугуты), Тутар Сăкăт (Татарские Сугуты) - Батыревский МО Чувашии.



Чувашский языковед д.ф.н. Исаев Ю.Н. утверждает: «Согд – название древнего ираноязычного народа и государства в Средней Азии, расположенного между верховьями Сыр-Дарьи и Аму-Дарьи; др.-иран. согд «чистый», «святой». На территории Средней Азии, а также за ее пределами сохранился в топонимах этноним согдийского народа. Его государства, например: Согдиан-бой в Каракалпакской АССР, Сахтиян в Узбекской ССР [ОСА, II], г. Сугут в Таджикской ССР, гг. Согдану, Согды-Бяхо в Восточной Сибири....»Сугдея, Сугдая, Сидагиос – у греков, Сурож – у русских, Судак, Сугдак, Солтак, Шолтатия – у восточных географов, Солдайя – у генуэзцев – вот далеко не полный перечень названий Судака в различные исторические периоды и у разных народов.

К. Байпаков как бы продолжая мысль Н.А.Андреева-Урхи приводит в своей работе извлечение и сочинения Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-тюрк»: «Сугдак – люди, живущие в Баласагуне. Они – из Согда, который между Бухарой и Самаркандом, но они выглядят как тюрки и приняли их обычаи, а в языке тех тюрков, которые имеют два языка и смешались с населением городов, проникла мягкость; например, племена Сугдак...» [3].

А.С.Егорова в своей работе, посвященной чувашской гидронимии, относительно этого онима утверждает следующее: «...По территории Чувашии протекают три реки с почти одинаковыми названиями Сăкăт (рус. Сугуты), Сăхăт (рус. Сугутка) и Сугутка. Первые две из них являются притоками р. Свияги, но река Сăкăт сперва впадает в р. Карлу (Хырла). Сугутка протекает по территории г. Чебоксары и является притоком р. Волги» [1].

Топонимия Чувашии представляет систему знаков, состоящую из лексем финно-угорского, татарского, чувашского и русского происхождений. Топонимы характеризуют природные объекты, их расположение, хранят и передают информацию о геокультурном пространстве Чувашии.

Д.С. Лихачев утверждал: «Географические названия служат ориентиром во времени и пространстве». Топоним- эти спресованная информация о городе, о

поселении, о роли, которую ему надлежит «играть». Согласно подсчетам ученых, топонимический пласт составляет около 2-3 % общеупотребительной лексики. Согласимся с высказыванием д.ф.н. А. В. Суперанской: «Каждое название исторично, а топонимию можно назвать зеркалом истории. Топонимы несут на себе отпечаток времени и места своего возникновения».

Топонимика упорядочена, организованна, многоязычна, разновозрастна, ее элементы пребывают в обоюдной взаимосвязи. Определенные эксперты полагают то, что нереально сформировать общую концепцию систематизации географических наименований.

Список литературы

1. Егорова А.С. Чувашская гидронимия / А.С. Егорова. – Чебоксары: Издво Чуваш. ун-та, 2010. – 198 с.

2. Иванова В.В., Краснова М.П. Языческие сакральные объекты на территории Чувашии.// Эколого-геоморфологические исследования в урбанизированных и техногенных ландшафтах (Арчиковские чтения- 2015): материалы Всеросс. летней молодежн. школы- конф. (Чебоксары, 23- 28 августа 2015г.) Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 2015- С. 250- 256. [Электронный ресурс]. – Режим доступа:http://elibrary.ru/item.asp?id=23811117 (дата обращения: 14.10.2024).

3. Исаев Ю.Н. Словообразовательный и семантический анализ флористической терминологии языков различных систем. Чебоксары: Изд-во Чуваш. ун-та, 2010. 256 с.

“SHAHAR” SO‘ZINING LUG‘AVIY MA’NOSI VA LISONIY TALQINI

Bayqabilov X.M.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O‘zbekiston.

Annotatsiya: *maqolada “shahar” so‘zining lug‘aviy ma’nosi va lisoniy talqini yoritilgan. Maqolada “shahar” so‘zining turli xorijiy tillardagi lingvistik tahlili haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *poytaxt, maxsus federal okrug, shahar, shahar aholi punktlari, ma’muriy markaz, shahar-davlat, saroy, o‘rda.*

СЛОВАРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ И ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СЛОВА «ГОРОД».

Байкабилов Х.М.

Шахрисабзский государственный педагогический институт, Шахрисабз, Узбекистан.

Аннотация**:** *в статье раскрывается лингвистическое значение и лингвистическая интерпретация слова «город». В статье представлены сведения о лингвистическом анализе слова «город» в разных иностранных языках.*

Ключевые слова: *столица, особый федеральный округ, город, городские поселения, административный центр, город-государство, дворец, орда.*

DICTIONARY MEANING AND LINGUISTIC INTERPRETATION OF THE WORD “CITY”

Baikabilov K.M.

Shakhrisabz State Pedagogical Institute, Shakhrisabz, Uzbekistan.

Abstract: *the article describes the linguistic meaning and linguistic interpretation of the word "city". The article provides information about the linguistic analysis of the word "city" in different foreign languages.*

Keywords: *Capital, special federal district, city, urban settlements, administrative center, city-state, palace, orda.*

Kirish. Poytaxt – davlatning bosh shahri, mamlakatning ma'muriy-siyosiy markazi. Poytaxt odatda, markaziy (umummilliy) hukumat, parlament va sud muassasalari qarorgohi hisoblanadi. Ko‘p hollarda, poytaxt alohida boshqaruv tartibi bo‘lgan mustaqil ma'muriy birlikka ajratiladi. Ko‘pchilik federativ davlatlarda poytaxt federatsiyaning biron-bir subyekti hisoblanmaydigan maxsus federal okrug hududida joylashgan bo‘ladi. Muayyan mamlakatlarda poytaxt qayerda bo‘lishi konstitutsiya matnida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatiladi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6-moddasida "*O‘zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri*" deyilgan [1; 6-b]. Shaharlarni ko‘zgu desak, mubolag‘a hisoblanmaydi. Bugungi kunda mamlakatlarining taraqqiyotiga baho beradigan bo‘lsak, uning shaharlariga, xususan, poytaxt shaharlariga qarab xulosa chiqaramiz.

Asosiy qism. Poytaxt shaharlar qanday paydo bo‘lgan? Avvalo "shahar" degan so‘zning o‘zi qanaqa ma'noni anglatadi? Sayyoramizning turli mamlakatlarida va turli davrlarda shaharlar haqidagi tushunchalar ko‘p marta o‘zgardi. Shuning uchun ham tasavvurimizda shaharlar tushunchasi xilma-xildir. V.V.Davidovning ta‘kidlashicha, *tushunchada barcha bilimlarning genetik tabiati namoyon bo‘ladi* [4].

"Shahar" tushunchasi bilan aholi punktlari hududidagi aniq chegaralarning alohida shakllari vujudga kelgan. Ana shunday aholi punktlarining tashqi ko‘rinishining birinchi belgisi *shahar devori (qo‘rg‘oni)* bo‘lib, u mudofaa maqsadi uchun xizmat qilish bilan birga shahar yadrosining asosiy chegarasi hisoblangan. Masalan, qadimda eng mashhur bo‘lgan, aholisi asosan dehqonlarni tashkil etgan shaharlarni hozirgi davr o‘lchovi bilan qaraganimizda *shahar* aholi punktlari maqomiga qo‘shmagan bo‘lar edik. Dunyoda ko‘plab katta-kichik shaharlar mavjud. Shunga monand shahar haqidagi tushunchalar ham turlichadir. Masalan, Qo‘qon shahri – atrofidagi qishloqlar uchun u katta shahar, poytaxt esa eng katta shahar hisoblanadi. Lekin jahondagi Parij, London, Tokio oldida Toshkent kichik shahar hisoblanadi. Sotsiologlarning fikricha, shaharlik maqomini olguncha kishilarning bir necha avlodi shaharda yashab turgan va uning turmush-tarzini singdirishi kerak ekan [2].

Shahar deganda nimani tushunish lozim? degan savol bilan maxsus shug‘ullangan amerikalik tadqiqotchi R.Somplinson shaharlarni aniqlashdagi 15 ta belgini takif etgan. Ularning asosiylari quyidagilar: shahar – aholi zich joylashuvi bilan farqlanadi, shaharning asosiy vazifasi – mahsulot tarqatish, shahar – aloqa yo‘llar markazi, shahar –iste‘mol markazi va boshqalar. Bugungi kunda davlatlarni shaharlarga maqom berishi ikki xil yo‘l bilan, *birinchisi* aholi soni, *ikkinchisi* aholining bandligi hisobga olingan tarzda qonuniy yo‘l bilan beriladi [2].

Yevropalik xalqlarda jumladan, nemislar uchun *shaharni* belgilaydigan so‘z shtadt (*stadt*) bo‘lsa, ingliz xalqlarida *tow cite* atamasi *shaharni* anglatadi. Fransuzlarda ham *cite* so‘zining o‘zi *shaharni* ifodalaydi. Shvedcha *Staden* so‘zi ma‘lum klass shaharlarni ifoda etsa, Norvegiyada bu so‘z *shahar* degan ma‘noni bildiradi. Rus tilida *"shahar"* so‘zi tarixan o'ralgan, to‘silgan – dushman, yovlar hamlasidan saqlanish maqsadi bilan bog‘liq bo'lgan aholi punktini ifodalaydi. Rossiyada XVIII asr boshlarida atrofi o‘ralgan joylar ("*qo‘rg‘onlar*") shahar hisoblangan. Shaharlar mudofaasi tobora takomillashib bordi, ularning atroflarida mustahkam qal'a va qo‘rg‘onlar qad rostladi. Shu munosabat bilan "shahar" – "*ɾopoд*", ya‘ni slavyan tilida "*ɾpaдъ*" atamasi yuzaga keldi. So‘zma-so‘z tarjima qilinganda, ushbu atama – "chegaralangan" degan ma‘noni anglatadi. Polyakchada "*ɾpoд*" – qal‘a degan ma‘noni bildiradi [10].

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, *"shahar"* tushunchasi barcha el va yurtlarda, mamlakat va muzofotlarda aynan bir xil talqin qilinmaydi, ular bunday maqomda turli

davlatlarda turlicha belgilanadi. “Shahar” forscha so‘z бўлиб, “qal’a” (rus tilida “город” – огородить, ya‘ni “o‘rab olmoq”) ma‘nosini anglatadi [3].

Shahar – tarixan tarkib topgan aholi manzilgohidir. *Shahar* tushunchasi nisbiy bo‘lib, qaysi aholi manzilgohini shahar deb yuritish lozimligi borasida olimlar tomonidan hanuzgacha bir fikrga kelinmagan (1-jadval).

V.V.Bartold tomonidan ishlab chiqilgan shahar haqidagi konsepsiya O‘rta Osiyo shaharsozligi masalalarini tadqiq etish jarayonida nisbatan ko‘proq yoyilgan bo‘lib, tadqiqotchi bu konsepsiyasida IX-XII asrlar shaharlari uchun uch qismli tuzilish (ark, shahriston, rabot) xususiyatli deb hisoblaydi. Ammo, shunga e‘tibor berish lozimki, ushbu xususiyat faqat o‘rta asrlar shaharlariga xos bo’lib, yanada qadimgiroq davr shaharlari tuzilishi bundan mustasno.

1-jadval

“Shahar” tushunchasiga berilgan ba’zi ta’riflar

№	Muallif(lar) nomi	Ta’rif	Ilmiy manbalarning nomi
1.	Иномов И.	*Shahar – bu yirik aholi punkti, sanoat, tashkiliy-xo‘jalik, boshqarish, madaniy, transport va boshqa (qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan) funksiyalarni bajaruvchi joydir*	Иномов И. Ўзбекистоннинг янги шаҳарлари (шаклланиши ва ривожланиши). – Т.: “Меҳнат”, 1991. 104 б. 4-бет.
2.	Кадиров М.А.	*Shahar – aholining 75 foizi qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lmagan aholi punkti*	Кадиров М.А. Шаҳарлар географияси. Самарқанд: “Zarafshon”, 2019. – 192 б. 116-бет.
3.	Мадвалиев А.	*Shahar – aholisi, asosan, sanoat,savdo, shuningdek, xizmat ko‘rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo‘lgan yirik ma’muriy, madaniy aholi manzilgohi*	Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот – Шукр – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2020. 608 б. 560-бет.
4.	Мустафоев Б.	*Shahar – asosan sanoat (ishlab chiqarish), tijorat, madaniy-ma’rifiy va boshqa noqishloq xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanadigan muayyan miqdordagi aholi soniga ega bo‘lgan aholi punkti*	Конституциявий ҳуқуқ. Энциклопедик луғат. – Т.: “Ўқитувчи”, 2006. 584 б. 468-бет.
5.	Солиев А., Аҳмедов Э.	*Shahar – aholisi, asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat ko‘rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo‘lgan yirik aholi manzilgohi*	Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. Шарқ-Қизилқум. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. – 656 б. 20-бет
6.	Qayumov A. va boshq.	*Shahar deb aholisining asosiy qismi qishloq xo‘jaligidan boshqa tarmoqlarda band bolgan aholi punktlariga aytiladi.*	Qayumov A. va boshq. Geografiya. 9-sinf. Darslik. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. 176- b. 35-bet.

Jadval ma’lumotlari muallif tomonidan tuzilgan.

So‘ngi tadqiqotlarga ko‘ra ilk shaharlar rivojlanishida yagona reja yo‘qligi va uch qismli shahar tuzilishi O‘rta Osiyoning barcha shaharlari xos emasligi tasdiqlanmoqda. Chunki dastlabki shaharlar, antik davr yoki o‘rta asrlar shaharlari tuzilishi va bajargan vazifasi jihatidan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Tadqiqotchilar shahar tushunchasini ularning vazifaviy holati nuqtai nazaridan ham ifodalaydilar. Bu borada ayrim xorijlik olimlar manzilgohlarning bosqichma-bosqich rivojlanishida siyosiy jihatdan ustun mavqeiga ega bo‘lgan har qanday manzilgohni shahar deb e’tirof etadilar. Boshqa olimlar esa aholisi dehqonchilik bilan shug‘ullanmaydigan manzilgohlarning barchasini shaharlar qatoriga kiritishni taklif etadilar. Bir guruh olimlar siyosiy markaz vazifasini bajargan manzilgohlarni shaharlar deb hisoblaydilar [7].

Qadimda odatda shaharlarning ichki – markaziy qismi mudofaa devorlari bilan o‘ralgan, bu yerda saroy, hukmdorlar va ular oilalarining qo‘rg‘onlari, muhim ma’muriy-diniy binolar, bosh maydon (registon), ba’zilarida oddiy aholi xonadonlari ham bo‘lgan va u *shahriston* deb atalgan. Darvozalar orqali ularga kirib chiqilgan. Uning atroflarida “rabot” deb ataluvchi devorlar bilan o‘ralgan shaharning tashqi qismlari ham bo‘lib, bu yerdan bog‘lar, keyinchalik oddiy aholining uy-joylari o‘rin olgan. Bundan buyon shaharlar tarixini fanlararo yondashuv doirasida o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Aslini olganda, “*shahar*” tushunchasi bilan “*shahar maydoni*” o‘rtasidagi bog‘liqlik urbanologiya (shaharshunoslik) kategoriyalari orqali shahar makonini o‘rganish yo‘llari mavjud. Shahar semiotik makonining xususiyatlari, jumladan, “markaz” yoki “chekka” kabi tushunchalar, ularning bir-biriga nisbatan nafaqat hududiy va landshaft, balki tarixiy kontekst, ya’ni zamonlar nuqtai nazaridagi harakati o‘zgarib turadi. Murakkab tizim sifatida shahar iqtisodiyot, siyosat, jamiyat, madaniyat, tabiat va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Bu “shahar” va “shahar makoni” tushunchalarining bir-biriga bog‘liqligi va o‘xshashligini ko‘satadi. Ilgari shahar maydoni tushunchasining umumiy xususiyatlari uning shakli va kattaligidan kelib chiqar edi. Bu shahar atamasidan farqli o‘laroq, dastlab aholi, jamiyat bilan bog‘liq edi. Hududni rejalashtirish, taqsimlash va uning faoliyat ko‘satishi muayyan vaqt o‘tishi bilan “shahar maydoni” tushunchasini kengaytirdi. Birinchidan, fanda shahar deganda muayyan aholi soniga ega bo‘lgan va sanoat, savdo, turli tarmoqlarda xizmat ko‘rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat markazi tushuniladi. Ular sivilizatsiya va taraqqiyotning markazi va mahsuli hisoblanadi. Dunyo aholisining qariyb yarmi shaharlarda yashaydi. Zamonaviy shahar turli yillarda insoniyat talab va ehtiyojidan kelib chiqqan holda “optimal shahar”, “biotexnik shahar”, “ekologik shahar (ekopolis)”, “ilmiy va sanoat shahari (texnopolis)”, “biotik shahar”, “yashil shahar”, “aqlli shahar (smartopolis)”ga ajratib kelingan. Qanday nom bilan atalmasin, shaharlar, bir tomondan, insoniyat yutug‘i markazlariga, ikkinchi tomondan, ijtimoiy tengsizlik va unga bog‘liq qator ijtimoiy muammolar keskin bo‘gan joyga aylanmoqda. Binobarin, bunday muammolarga zamonaviy shaharlarni ekologik toza maskan hamda aqlli makonga aylantirish bilan yechim topish mumkin.

Ervand Sevortyan lug‘atida “baliq” so‘zi dastavval “qal’a”, “devor”, “shahar” ma’nolarida izohlanib, so‘ng suv hayvoni ma’nolarida tushuntiriladi va “shahar”, “qal’a” ma’nosidagi “baliq” so‘zining tub ildizi “bal” – loy mazmunini ifodalashi ta’kidlanadi. Maslalan, Beshbaliq, Boybaliq, Bolosog‘un nomli joy va hududlar bo‘lgan [8].

Shaharlar tarixini tahlil etish jarayonida markaziy poytaxt shaharlardan tashqari shahar-davlatlar, agrar (dehqonchilik) shaharlar, savdo shaharlari (ayrim port shaharlar) bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin. Tadqiqotchilarning fikricha, har bir tarixiy davrda o‘sha davr tarixiy-madaniy jarayonlari, o‘ziga xos xususiyatlari taraqqiyotidan kelib chiqib, o‘ziga xos “shahar” tushunchalari bo‘ladi. Misol uchun, “ilk shaharlar”, “antik davr shaharlari”,

“o‘rta asr shaharlari” va hokazo. Shuning uchun ham tadqiqotchilar urbanizatsiya jarayonining turli davrlardagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib shaharlarni eng qadimgi, qadimgi, o‘rta asrlar va zamonaviy shaharlarga bo‘ladilar.

Tadqiqot ishimizda XX asrning 40-yillaridan to hozirgi kunga qadar shakllangan poytaxt shaharlarning tabiiy-geografik tavsifi va tipologik tahlili qamrab olingan. Nega o‘tgan asrning 40-yillari tadqiqotning boshlang‘ich nuqtasi deb olingan? Buning birinchi sababi Millatlar Ligasi o‘zagida Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil etilishi bilan izohlanadi. Ikkinchi sababi esa Yevropa siyosiy xaritasida Ikkinchi jahon urushi tufayli yuz bergan ham miqdoriy va sifat o‘zgarishlar, imperialistik mustamlakachilik tizimning yemirilishi oqibatida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi (Karib dengizi mintaqasi), Okeaniyada (Tinch okeani akvatoriyasidagi orol-mamalkatlar) 100 dan ortiq mustaqil davlatlarning barpo etilishi bilan tavsiflanadi.

Xulosalab aytishimiz mumkin-ki, mamlakatlarning mustaqillika erishishi va muayyan davlatlarning bo‘linib, alohida davlat maqomiga ega bo‘lishi suveren davlatlar sonining *ortishiga,* yoki aksincha, orollarda joylashgan ba’zi mamlakatlarning tabiiy ofatlar sababli suv ostida qolishi hamda mamlakatlarning siyosiy sabablarga ko‘ra o‘zaro birlashuvi tufayli ular sonining *kamayishiga* olib keladi. Demak, mamlakatlar soni suveren davlatlar sonidan hamisha ko‘p va dinamik (o‘zgaruvchan) xususiyatga egaligi bilan izohlanadi. Bu o‘zgarish albatta o‘z o‘rnida *poytaxt shaharlarni* ham chetlab o‘tmaydi, albatta.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi – T.: «O’zbekiston» NMIU, 2014. – 73 б.
2. Arzikulova D. Zamonaviy shaharlar – T.: «O’zbekiston milliy ensiklipediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2019, - 80 b.
3. Миллер Б.В. Персидско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. М.: 1953.
4. Туркча-ўзбекча ва ўзбекча-туркча луғат. – Т.: “Ўзбекистон”, 1993. – 415 б.
5. Нигматов А.Н., Байқабилов Х.М. Жаҳон мамлакатлари номларининг географик ва топонимик асослари. Монография. Қарши: ”Насаф” НМИУ, 2021. – 156 б.
6. Иномов И. Ўзбекистоннинг янги шаҳарлари (шаклланиши ва ривожланиши). – Т.: “Меҳнат”, 1991. 104 б.
7. Кадиров М.А. Шаҳарлар географияси. Самарқанд: “Zarafshon”, 2019. – 192 б. 116-бет.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот – Шукр – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2020. 608 б.
9. Конституциявий ҳуқуқ. Энциклопедик луғат. – Т.: “Ўқитувчи”, 2006. 584 б.
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. Шарқ-Қизилқум. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. – 656 б.
11. Qayumov A. va boshq. Geografiya. 9-sinf. Darslik. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. 176- b.

O‘RTA OSIYO TOPONIMIYASI VA UNING AYRIM FARQLOVCHI XUSUSIYATLARI HAQIDA

Xakimov K.M., Usmanov M.R.

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax, O‘zbekiston, e-mail: kxakimov1954@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada O‘rta Osiyo toponimiyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va joy nomlarining tarixiy qatlamlari qisman o‘rganilgan. O‘rta Osiyodagi joy nomlari turli*

mintaqalarning o‘ziga xos tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy sharoiti, etnik va til taraqqiyoti tarixi hamda madaniy va ma’naviy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqligi aniq misollar yordamida tadqiq qilingan. O‘zbekistonda mustaqillik davrida amalga oshirilgan toponimik siyosat va o‘z yechimini kutayotgan dolzarb toponimik muammolar haqida ilmiy tushunchalar berilgan.

***Kalit so‘zlar*:** *geografik nom, geografik obyekt, toponimik siyosat, tarixiy qatlam, hudud, tabiiy sharoit, toponimik tadqiqot.*

О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ТОПОНИМИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ

Xakimov K.M., Усманов М.Р.
Джизакский государственный педагогический университет, Джизак, Узбекистан
e-mail: kxakimov1954@mail.ru

Аннотация: *В статье частично изучены формирование среднеазиатской топонимии, этапы развития и исторические пласты географических названий. На конкретных примерах изучены топонимы, тесно связанные с уникальными природными, экономическими и социальными условиями различных регионов, историческим этнолингвистическим развитием, культурными и духовными особенностями Центральной Азии. Изложены научные представления о топонимической политике, реализуемой в Узбекистане в период независимости, и некоторых актуальных топонимических проблемах, ожидающих своего решения.*

Ключевые слова: *топонимия, географический объект, топонимическая политика, исторический слой, территориальность, природные условия, топонимические исследования.*

ABOUT CENTRAL ASIAN TOPONYMY AND SOME OF ITS DISTINCTIVE CHARACTERISTICS.

Khakimov K.M. Usmanov M.R.
Jizzakh state pedagogical university, Jizzakh, Uzbekistan, e-mail: kxakimov1954@mail.ru

Abstract: *The formation of Central Asian toponymy, stages of development and historical layers of geographical names are partially studied in the article. Specific examples are provided to demonstrate toponyms that are closely related to the unique natural, economic and social conditions of different regions, historical ethnolinguistic development, and cultural and spiritual characteristics of Central Asia. Scientific concepts are given about the toponymic policy implemented in Uzbekistan during the period of independence and some actual toponymic problems that are waiting for their solution.*

Keywords: *place name, geographical object, toponymic policy, historical layer, territoriality, natural conditions, toponymic research.*

O‘rta Osiyo toponimik landshafti nihoyat xilma-xil va murakkab tuzilishga ega. Albatta, bunga mintaqadagi turli hududlarining o‘ziga xos tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy sharoit, etnik va til taraqqiyoti tarixi hamda madaniy va ma’naviy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqligi sabab bo‘lgan. Jahon tamaddunida sezilarli iz qoldirgan O‘rta Osiyoning toponimiyasi ham juda qadimiy davrlarda shakllangan va ularning ko‘pchiligi tarixiy hujjatlarda qayd qilingan. Bunga e’tibor qaratgan rus sharqshunos olimi akademik V.V.Bartold “O‘rta Osiyo tarixi va toponimiyasi bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan tadqiqotchilar ma’lumotlarni kamligidan emas, aksincha ko‘pligidan, tarqoqligidan qiynaladi” degan edi.

Sharq toponimiyasining bilimdonlaridan biri bo‘lgan E.M.Murzaevning tadqiqotlariga ko‘ra, mintaqadagi eng quyi toponimik qatlamni qadimgi substrat nomlar, ya’ni hozirgi tillar yordamida izohlab bo‘lmaydigan, maxsus etimologik tadqiqotlarni talab qiladigan nomlar tashkil qiladi. Olimning yozishicha, O‘rta Osiyoda hozirgacha aniqlangan va saqlanib qolgan

joy nomlarining eng quyi qatlami eroniy (forsiy) tillarga tegishlidir. Ular mintaqaning barcha hududlarida, Pomir tog‘laridan to To‘ron tekisliklarigacha keng tarqalgan.

Mintaqada eroniy tilli toponimlar bilan birga, turkiy nomlar ham juda qadimiy davrlarda shakllanganligini mutaxassislar allaqachon aniqlashgan. Masalan, O‘rta Osiyoning qadimiy turkiy toponimiyasini maxsus o‘rgangan tarixchi olim professor Sh.S.Kamoliddinning aniqlashicha, kelib chiqishi turkiy bo‘lgan nomlar juda qadim davrlardan buyon, ushbu hududda keng tarqalgan va ular ilk o‘rta asrlarda son jihatdan sharqiy eroniy tillarga xos bo‘lgan toponimlardan keyin ikkinchi o‘rinni egallagan.

Turkiy toponimlar o‘rta asrlardan boshlab to hozirga qadar mintaqa toponimiyasining eng baquvvat hamda barcha hududlarda keng tarqalgan geografik nomlar qatlamini tashkil etadi. E’tiborli tomoni shuki, O‘rta Osiyoning boshqa hududlariga nisbatan Yettisuv va Tyan-Shanning ichki qismlari hamda Qazog‘istonning dasht mintaqasida azaldan turkiy nomlar ko‘p bo‘lgan. Nomshunos olimlarning fikricha, turkiy toponimlarning farqlovchi xususiyatlardan biri shuki, ular ko‘pincha geografik terminlar yordamida paydo bo‘lgan. Olimlar bu holatni turkiy xalqlarning yashash tarzi bevosita ularni o‘rab turgan tabiat bilan chambarchas bog‘liqligi bilan izohlashgan.

Mintaqa toponimiyasining o‘ziga xos xususiyatlardan biri joy nomlari tarkibida etnonimlar, ya’ni urug‘-qabila nomlari salmoqli o‘rin egallaydi. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, o‘tmishda ularning soni bundan ham ko‘p bo‘lgan. Masalan, XIX asrning oxirlarida Zarafshon vodiysini o‘rgangan rus olimlari tomonidan yozib olingan 1300 aholi punkti nomi orasida 900 dan ortiq etnonim borligi qayd qilingan.

O‘rta Osiyo toponimiyasi tarkibidagi nomlarning asosiy qismini hozirgi o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq va tojik tillari yordamida osongina tushunish mumkin. Mutaxassislar ta’kidlagandek, toponimlar hozirgi ma’muriy-hududiy chegaralarni tan olmaydi. Chunki ularning ko‘pchiligi hozirgi milliy chegaralanishdan oldin paydo bo‘lgan. Shuning uchun, mahalliy xalqlar (o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik) tomonidan yaratilgan joy nomlarni O‘rta Osiyoning barcha davlatlari hududida uchratish mumkin.

O‘zbekiston toponimiyasi ham O‘rta Osiyo toponimiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun, O‘zbekiston toponimiyasini o‘rganishni niyat qilgan har qanday tadqiqotchi O‘rta Osiyodagi tubjoy xalqlarning tarixi va tilidan yaxshi xabardor bo‘lishi kerak. S.Qoraevning yozishicha, hozirgi O‘zbekiston hududidagi vohalarda yashagan mahalliy xalqlar - xorazmiy, sug‘diy, boxtariy tillarida yaratilgan nomlar, hozirgacha aniqlangan eng qadimiy substrat toponimlar hisoblanadi.

Taniqli olimning fikricha, yunonlarni O‘rta Osiyoga, jumladan hozirgi O‘zbekiston hududiga kirib kelishi mintaqa toponimiyasida biron-bir sezilarli iz qoldirmagan. Ular tomonidan yaratilgan nomlarni mahalliy xalqlar qabul qilmagan va yunonlarning ketishi bilan avvalgi nomlari qayta tiklangan. Hozirgacha saqlangan va makedoniyalik Iskandar nomi bilan bog‘liq bo‘lgan nomlarning aksariyati turli rivoyatlarga asoslangan. Iskandar haqidagi turli xil rivoyatlarning ko‘pligi, bunday toponimlarning etimologiyasini aniqlashni ancha qiyinlashtiradi. H.Hasanovning yozishicha, fotih Iskandar haqiqatdan ham yurtimizda bo‘lgan, ammo u Xo‘janddan nariga o‘tmagan. Shuning uchun, uzoq-uzoq joylardagi Iskandar nomlarini faqat ko‘chirma deb tushinish ma’qul.

Tarixchi akademik A.Muhammadjonovning ta’kidlashicha, O‘zbekistonda Iskandar nomli bir necha geografik obyektlar mavjud. Ularga Nurota tumanidagi quduq, Yangiobod tumanidagi qishloq, Toshkent yaqinidagi ariq misol bo‘ladi. Iskandar nomi bilan bog‘liq joy nomlarining keyingi paytlarda paydo bo‘lganlari ham bor. Masalan, Iskandarariq - Toshkentdan yuqoriroqda Chirchiq daryosidan chiqarilgan ariq. Bu ariqni 1883-1885 yillarda,

mahalliy xalq orasida Iskandarto‘ra laqabi bilan mashhur bo‘lgan chor Rossiyaning knyazi Nikolay Konstantinovich qazdirgan.

O‘rta Osiyoda jumladan, hozirgi O‘zbekiston hududida yashovchi turkiy va forsiy xalqlar qadimdan uzviy iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo‘lishgan. Bu munosabat va aloqalar har ikki xalqning toponimiyasiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Tarixchi olim A.Muhammadjonov Jizzax viloyatri Yangiobod tumani hududidagi eroniy qatlamga xos bo‘lgan Savot qishlog‘i nomini izohlab shunday yozadi: “Ustrushonaning Sebat rustoqida Buyuk Ipak yo‘li uch tarmoqqa (Shosh, Farg‘ona, Ustrushona) bo‘linib ketgan. Ushbu yo‘nalishlarning har birida bittadan rabot-karvonsaroy mavjud bo‘lgan va Sebat (se -“uch”, bat - “rabot”ning qisqargan shakli) - “uch rabot” ma’nosini beradi. Sebat mahalliy xalq talaffuzida Sabot, Savot bo‘lib o‘zgargan”.

O‘rta asrlarning arabiynavis geograflari Ibn Havqal va Istaxriy asarlarida ham qishloq to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud va uning katta karvon yo‘li ustida joylashganligi ta’kidlangan. Qulay geografik o‘ringa ega bo‘lgan Sebatda o‘rta asrlarda Ustrushonadagi yagona mashhur yopiq bozor, tim joylashgan. Demak, Savot - aslida Seravot bo‘lib uch rabot, uch karvonsaroy degan ma‘nolarni bildiradi.

Har bir mintaqa toponimiyasi yordamida o‘sha hududdagi tarixiy qatlamlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin. Ba’zan, nomlar o‘tmish mahsuli sifatida, asrlar davomida tildan tilga o‘tib shaklan o‘zgaradi, mazmunan mavhumlashib borgan. Masalan, Jizzax viloyati hududidagi Nurota tog‘lari etagida joylashgan Garasha qishlog‘ining nomi bunga yaqqol misol bo‘ladi. Mahalliy xalqning aytishicha, qishloq nomiga fors-tojik tilidagi “girehkusho” so‘zi asos bo‘lgan. Girehkusho so‘zi fors-tojik tilida, gireh – “tugun”, “band” va kusho – “echmoq”, “tugunlarni yechuvchi”, “tilsimlarni ochuvchi”, “hojatbaror” kabi ma’nolarni ifodalaydi. Girehkusho nisbasi XII asr oxiri va XIII asrning boshlarida shu joyda yashagan, yassaviya tariqatining izdoshlaridan bo‘lgan va shu qishloq hududida abadiy qo‘nim topgan shayx Muhammadsharif ibn Aliasqarga tegishli. Bu nisba bilan mashhur bo‘lishiga shayxning ko‘pgina karomatlari, muammolar yechimini to‘g‘ri topganligi sabab bo‘lgan deyishadi.

Ikkinchi, eng baquvvat tarixiy qatlam turkiy (o‘zbek) toponimlardan tarkib topgan. Turkiy (o‘zbek) qatlam nafaqat O‘rta Osiyo davlatlari hududida, balki Afg‘oniston, Eron, G‘arbiy Xitoy va boshqa mintaqalarda keng tarqalgan. Ular ko‘pincha, mintaqa toponimlar tizimini belgilaydi va etimologik jihatdan izohlash ancha oson. Turkiy joy nomlarining asosiy farqlovchi xususiyatlaridan biri toponimik qatlamning katta qismini etnonimlar tashkil etadi.

Professor E.Murzaevning yozishicha, turkiy qatlamdagi nomlar aholining xo‘jalik yuritish faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi bois, boy va rang-barang. Ayrim geografik tushunchalar chorva mollarning yaylovlari va landshaftlar unumdorligi bilan bog‘liq. Turkiy tillarda chorva ozuqalarning turli xususiyatlarini ifodalash uchun bir qator ixtisoslashgan geografik terminlardan foydalaniladi. O‘rta Osiyo mintaqasida ayrim geografik terminlar qaysi mamlakat hududida qo‘llanilishiga qarab fonetik jihatdan o‘zgargan. Masalan, O‘zbekiston, Qirg‘izistonda - soy, Qozog‘istonda - say, Turkmanistonda - choy (chay).

Uchinchi, tarixiy qatlam arablarning ko‘p asrlik istilosi bilan bog‘liq, ular islom dinini olib kelish bilan birga, kelib chiqishi arab tiliga mansub so‘zlardan paydo bo‘lgan toponimlarning shakllanishida faol ishtirok etganlar. O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston hududida arab tili elementlari asosida paydo bo‘lgan nomlar orasida antroponimlar ko‘p. Arab tilining mintaqada paydo bo‘lishi tarixan ayon, ammo ularni geografik obyektlarga nom sifatida shakllanishiga sabab bo‘lgan omillar kam o‘rganilgan. Bu qatlamga tegishli geografik

nomlarning asosini tashkil qiluvchi so‘zlar, ancha qadimgi davrlarda arab tilidan, turkiy tillarga o‘zlashgan.

Hozirda O‘zbekiston hududidagi arabcha toponimlarning aksariyati o‘zbek tili grammatikasi asosida yaratilgan. Sof arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ayrimlari hozirgi vaqtda ham geografik termin sifatida qo‘llaniladi va ma’nosi tushuniladi. Bunday geografik terminlar qatoriga anhor, mozor, mahalla, masjid, rabot, aqba, supa, qal’a kabi terminlarni kiritish mumkin. Bunda arab tilining adabiy til bo‘lib xizmat qilishi muhim ahamiyat kasb etgan.

Mutaxassislar arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar asosida paydo bo‘lgan toponimlar orasida diniy terminlarning ko‘pligini alohida qayd qilishgan. Mintaqadagi bir qator yirik geografik obyektlar nomini arablar o‘zgartirgan bo‘lsalar ham, ammo mahalliy xalq orasida ular keng qo‘llanilmagan. Bular Sayhun, Jayhun, Movarounnahr va boshqalar. Ko‘p asrlik lisoniy aloqalar turkiy - arabcha - Toshsaqo, Narpay, Alamli, Talli kabi gibrid nomlarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

O‘rta Osiyo hududida mo‘g‘ul tilidan o‘zlashgan so‘zlar asosida paydo bo‘lgan toponimlarning kelib chiqishi XIII asrdagi mo‘g‘ullar istilosi bilan bog‘liq. Mug‘ulcha toponimlar mintaqa joy nomlari tarkibidagi kichik bir guruh sifatida to‘rtinichi tarixiy qatlamni tashkil etadi. Mug‘ul tili hozirgi O‘zbekiston hududida xalq tiliga aylanmadi. Shu sababdan, mug‘ul tili bilan bog‘liq toponimlari nisbatan kam va ularni aniqlash qiyin emas. Ayrim mutaxassislar O‘zbekiston toponimiyasi tarkibida, mo‘g‘ulcha nomlarning kamligi, ularni mahalliy xalq bilan aralashib tili va dinini qabul qilganligi sabab bo‘lgan deyishadi.

S.Nominxanov, E.Begmatov, T.Nafasov kabi o‘zbek olimlari, turkiy tillar onomastikasida mug‘ulcha va mug‘ulcha - turkiy so‘zlar asosida yasalgan kishi ismlarni, etnonimlarni, toponimlarni tadqiq qilishgan. Masalan, T.Nafasov mug‘ul va turkiy xalqlarning o‘zaro yaqinligiga ishora qilib, mug‘ul va turkiy tillarda mushtarak so‘zlarning etnolingvistik tabiatini aniqlamasdan turib, ularni biror tilga mansubligini belgilash qiyin deb, hisoblaydi.

O‘zbekiston toponimiyasi tarkibida ayrim mug‘ulcha so‘zlar negizida shakllangan geografik nomlar hozirgacha saqlanib qolgan. Bunga, respublika hududidagi Bulung‘ur, Darxon, Norin, Yom, Sayxan kabi joy nomlari misol bo‘ladi. Masalan, Jizzax shahri tarkibidagi mahallalardan birining nomi Sayxan. Yetuk toponimik tadqiqotlar muallifi E.M.Murzaevning yozishicha, Sayxan oykonimiga, mug‘ul tilida “chiroyli”, “go‘zal” degan ma’nolarni anglatuvchi saykan so‘zi asos bo‘lgan. Keyinchalik geografik termin sifatida bu so‘z o‘zbek tiliga o‘zlashgan va hozirda “katta”, “tekis ochiq joy”, “maydon” ma’nosini ifodalaydi.

Geografik nom sifatida tanilgan yom (dialektda jom) so‘zi ham mug‘ul tilidan o‘zlashgan. Mutaxassislar Yomchi, Jom, Jomboy, Jombo‘z, Jombuloq kabi toponimlarni paydo bo‘lishini yom so‘zi bilan bog‘liq deyishadi. Yo‘l ma’nosidagi yom so‘zi mo‘g‘ullardan turkiy tillarga o‘tib, mo‘g‘ullar hukmronligi davrida O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Yomlar chingiziylar davrida qurila boshlagan. Keyinchalik yom so‘zi “choparlar, yo‘lovchilar qo‘nadigan va ot almashtiradigan joy”, “bekat” ma’nosini ifodalagan. Yomda doim otlar shay turib, bir qancha kishi xizmat qilgan. Ugedeyxon ko‘plab yomlar qurdirganligi bilan faxrlanganligi ma’lum. Yom so‘zi nafaqat turkiy tillarga balki slavyan, xususan, rus tiliga ham o‘tgan. Masalan, rus tilidagi “yamshik” so‘ziga yom so‘zi asos bo‘lgan.

O‘rta Osiyo toponimiyasi tarkibidagi beshinchi tarixiy qatlamni slavyan **(**asosan rus**)** tillari asosida shakllangan toponimlar tashkil qiladi. Ruscha nomlarning mintaqada paydo

bo‘lishi XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Rossiya tomonidan O‘rta Osiyoni bosib olishi bilan bog‘liq. Hozirgi O‘zbekiston hududida ruscha nomlar turli sabablarga ko‘ra paydo bo‘lgan. Masalan, XIX asrning oxirida chor Rossiyasi tomonidan mintaqada temir yo‘l o‘tkazildi. Shunda, chor hukumatining maxsus qarori bilan O‘zbekiston hududidagi temir yo‘l stantsiyalariga Skoblevo, Obruchevo, Lomakino, Milyutinskaya, Ursatevskoe, Xilkovo kabi rasmiy nomlar qo‘yildi.

Professor E.M.Murzaevning yozishicha, mahalliy xalq bu nomlarni yaxshi kutib olmagan. Ko‘pincha, yangi nom bilan birga, shu joyning avvalgi an’anaviy nomi ham qo‘llanib kelingan. Sobiq sho‘rolar davrida rus tili bilan bog‘liq geografik nomlar soni keskin ko‘paygan va ularning asosiy qismini antropotoponimlar tashkil qilgan. Lenin, Ulyanov, Karl Marks, Engels, Kalinin, Frunze, Kuybishev kabi antropotoponimlar keng tarqaldi.

Xususan, o‘zlashtirilgan cho‘l hududlarda paydo bo‘lgan yangi geografik obyektlarga, hukmron mafkura va siyosat ta’sirida kommunistik partiya va sho‘ro hokimiyatini tarannum etuvchi nomlar berildi. Masalan, 1975 yili tashkil etilgan Arnasoy tumani tarkibidagi barcha aholi punktlariga sho‘ro davlatining harbiy sarkardalari nomlari (Jukov, Timoshenko, Grechko, Rokossovskiy, Konev, Vasilevskiy va boshqalar) berilgan.

O‘zbekiston istiqlol sharofati bilan, mustaqil toponimik siyosat yurgizdi va joy nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha chalkashliklarga barham berildi. 2011 yili “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risa” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingandan so‘ng, respublika hududidagi barcha geografik nomlar inventarizatsiya qilindi. Qonun talablariga javob bermaydigan barcha geografik obyektlar nomlari davr talabini aks etadigan, xalqona, oddiy, sodda, tushunarli bo‘lgan nomlar bilan almashtirildi yoki tarixiy nomlari qayta tiklandi.

Umuman olganda, O‘rta Osiyo toponimiyasi o‘zining shakllanishi va taraqqiyoti jarayonida bir necha tarixiy davrlarni bosib o‘tgan. Dunyoning ko‘plab mamlakatlari kabi, mamlakatimiz toponimiyasi ham turli tillar mahsuli, ammo ular orasida turkiy (o‘zbek) toponimlar keng tarqalgan va eng baquvvat qatlam hisoblanadi. Yozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan izchil iqtisodiy islohotlar va tobora avj olayotgan xalqaro aloqalar joy nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni tadqiq qilishni dolzarb masalaga aylantirdi. Binobarin, O‘zbekiston toponimikasi oldida sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish va yechimini kutayotgan muammolarni tezroq bartaraf qilish vazifasi turipdi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Камолиддинов Ш.С. Ўрта Осиё қадимий туркий топонимлари. -Т.: 2009.
2. Караев С. Топонимия Узбекистана с топонимическим словарём. -Т.; “Turon zamin ziyo”. 2015. -500 стр.
3. Миракмалов М.Т. Географияда топонимика. -Т.; “Фан ва технологиялар”. -81 б.
4. Мурзаев Э.М. География в названиях. -М.; “Наука”, 1989. 140 стр.
5. Никонов В.А. Введение в топонимику. -М.: “Наука”. 1965. -208 стр.
6. Суперанская А.В. Что такое топонимика. -М.; “Наука”, 1985. 162 стр.
7. Эназаров Т.Ж. ва бошқалар. Ўзбек номшунослиги. -Т.: 2015. 225 бет
8. Ҳасанов Ҳ. Танланган асарлар. -Т.; “Vneshinvestprom”, 2019. 334 бет.
9. Qorayev S. Toponimika. -Toshkent.; O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. - 320 b.
10. Hakimov Q.M. Toponimika. -T.; “Mumtoz so‘z”, 2016. -368 b.
11. Hakimov Q.M., Mirakmalov M.T. Toponimika. -T.; “Tafakkur avlodi”, 2020. -355 b.

NAVOIY VILOYATI CHO‘L HUDUDLARI JOY NOMLARINING TABIIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI (TOMDI TUMANI MISOLIDA)

Jumayeva M.B.
Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy, O‘zbekiston, e-mail: parizod198110@gmail.com

Annotatsiya: *maqola Navoiy viloyati Tomdi tumani misolida cho‘l hududlari geografik joy nomlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tumandagi toponimlarning tabiiy geografik xususiyatlari ochib berilgan. Tuman toponimlari tabiiy geografik xususiyatiga ko‘ra guruhlarga bo‘lingan holda o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *oronimlar, gidronim, joy nomlari, tog‘ jinslari va tuproqlar bilan bog‘liq nomlar, foydali qazilmalar, fitotoponimlar, zootoponimlar.*

ФИЗИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТОПОНИМОВ ПУСТЫННЫХ РАЙОНОВ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ (НА ПРИМЕРЕ ТОМДИНСКОГО РАЙОНА)

Джумаева М.Б.
Навоийский государственный педагогический институт, Навои, Узбекистан
e-mail: parizod198110@gmail.com

Аннотация: *статья посвящена изучению географической топонимии пустынных регионов на примере Томдинского района Навоийской области и выявлены природно-географические особенности топонимов в этом районе. Топонимы района изучались путем разделения их на группы по природно-географическим особенностям.*

Ключевые слова: *оронимы, гидронимы, топонимы, названия связанные с горными породами и почвами, полезные ископаемые, фитотопоними, зоотопоними.*

PHYSICO-GEOGRAPHICAL CHARACTERISTICS OF TOPONYMS OF DESERT AREAS OF THE NAVOI REGION (USING THE EXAMPLE OF THE TOMDI DISTRICT)

Jumayeva M.B.
Navoi State Pedagogical Institute, Navoi, Uzbekistan, e-mail: parizod198110@gmail.com

Abstract: *the article is devoted to the study of geographical place names of desert regions on the example of Tomdi district of Navoi region, and the natural geographical features of toponyms in the district are revealed. Toponyms of the district were studied by dividing them into groups according to their natural geographical features.*

Keywords: *oronyms, hydronyms, place names, names related to rocks and soils, minerals, phytotoponyms, zootoponyms.*

Kirish. Navoiy viloyati yer maydonining asosiy qismi cho‘l hududidan iborat bo‘lib, Qizilqum sahrosining kattagina qismini egallaydi. Viloyat o‘ziga xos tabiiy sharoitiga ko‘ra yirik uch qismga bo‘linadi: shimoli-g‘arbiy qismini Qizilqum cho‘li egallagan; janubi-sharqiy qismida Nurota tog‘ tizmalariga tegishli Qoratog‘, Oqtog‘ singari tog‘lar bo‘y cho‘zgan bo‘lsa, Zarafshon daryosi vohasining o‘rta qismida viloyatning dehqonchilik zonasi o‘rnashgan. Qizilqum cho‘lida past-baland tekisliklar bilan birga, berk botiqlar va markaziy qismida eng qadimiy quruqlik belgilarining qoldiqlari bo‘lmish unchalik baland bo‘lmagan qoldiq tog‘lar ham uchraydi. Cho‘lning markaziy qismidagi qoldiq tog‘lar atrofida talaygina berk botiqlar bo‘lib, ulardan eng kattasi Mingbuloq – dengiz sathidan 12 m pastda joylashgan [4, 174-b.].

Viloyatning shimolidagi eng olis aholi yashash maskanlari – Zarafshon shahri, Uchquduq va Tomdi tumanlari cho‘l o‘rtasida qad ko‘targan makonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Har uchala hudud viloyat markazidan 200-300 km uzoqlikda joylashgan. Navoiy viloyati respublika umumiy maydonining deyarli 1/4 qismini egallaydi, shunga ko‘ra toponimlar soni jihatidan ham respublikada oldingi o‘rinda turadi. 1:200000 masshtabli

topografik karta materiallariga ko‘ra, viloyat bo‘yicha relyef shakllari nomlari - oronimlar bilan suv obyektlari nomlari - gidronimlar soni 4000 dan oshadi, bundan tashqari, aholi punktlari - shahar-shaharchalar, qishloq-ovullar soni qariyb 1500 ga etadi. Viloyatdagi tabiiy-geografik obyektlarning ko‘plari quduqlardir.

Adabiyotlar sharhi. O‘zbekistonda toponimika sohasining turli yo‘nalishlarida H.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, P.G‘ulomov, T.Nafasov, N.M.Uluqov, Z.Do‘simov, Q.M.Hakimov, A.Nizomov, Y.I.Ahmadaliyev, M.T. Mirakmalov, B.T. Eshboyev, P.S.Otaqulov, X.M. Bayqabilov singari olimlar o‘zining tadqiqot ishlarini olib borgan. Navoiy viloyati toponimlari joy nomlarini o‘rganilishi bo‘yicha esa M.Avezov, U.Turdimurodov, O‘.Oripov, N.G‘aniyevlar tadqiqotlari e’tiborga molik. Nomlarini guruhlashtirish hamda toponimlarni nazariy masalalari kompleks o‘rganilgan va xulosalar chiqarilgan, biroq, Ngeografik nomlarning tabiiy geografik xususiyatlari asosida guruhlashtirish masalalari yoritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Viloyat hududi tabiiy sharoitiga ko‘ra 3 qismga bo‘linadi: Shimoli-g‘arbiy qismini Qizilqum cho‘li egallagan, bu yerda berk botiqlar (Karakota, Mulali, Mingbuloq), qumli tekisliklar va qoldiq tog‘lar (Ovminzatog, Yetimtog, Bo‘kantov, Tomditov va boshqalar); janubi-sharqiy qismini Nurota tog‘ tizmasining past va o‘rtacha balandlikdagi tarmoqlari (Qoratog‘, Oqtog‘ va boshqalar) hamda tog‘lar orasidagi botiqlar (Nurota botig‘i va boshqalar) egallagan; Zarafshon daryosining o‘rta qismida viloyatning paxtachilik zonasi joylashgan. Viloyatning asosiy suv manbai - Zarafshon daryosi. Zarafshondan Konimex kanali chiqarilgan. Viloyatni suv bilan ta’minlashda Quyimozor, To‘dakul suv omborlarinnng ahamiyati ham katta.

Navoiy viloyat hududi katta bo’lganligidan uning toponimlari ham ko’p. Toponimshunos olim S.Qorayev ma’lumotlariga ko’ra, viloyatning 1:200000 masshtabli topografik kartasida 5500 dan ortiq oronimlar, gidronimlar va oykonimlar mavjud [7, 318-b.].

Navoiy viloyatining Tomdi tumanida davlat reestiriga kiritilgan 40 ga yaqin qishloq va aholi punktlari bor (1-rasm). Mavjud oykonimlar etimologiyasiga nazar soladigan bo‘lsak, asosan obyektning joylashgan o‘rni va shakliga ko‘ra, oronimik va gidronimik oykonimlar, joy nomining son-sanog‘iga va rangiga nisbatan qo‘yilgan joy nomlarini uchratamiz.



1-1-rasm. Navoiy viloyati Tomdi tumani toponimlari

Tomdi tumanida joyning geografik o‘rni, holati va xusussiyatiga bog‘liq holda vujudga kelgan nomlarga quyidagilarni misol qilish mumkin: Tomdi tumanidagi O‘rtaquduq, Ayaqquduq qishloqlari nomi “etakdagi qishloq, past tomondagi qishloq” yoki “o‘rtadagi qishloq, markazda joylashgan” degan ma’nolarda shunday atalgan. Besbulaq aholi punktida joylashgan urochishe Boxankese deb nomlangan. Boxankese – Qadimgi davrda ushbu hududda katta bir Boxan ismli boy yashaganligi ushbu joy kosaga oxshaganligi sababli Boxankese deb nomlangan. Obyektining hajm-xususiyati, tashqi ko‘rinishi va shakli asosida nomlangan oroobyekt nomlari guruhiga Jalpaqshi, Jeltumsuq, Uzunqum, Uzuntepa, Ushoqtepa, Do‘maloqto‘be – do‘nglik nomlarini, - Darvoza, Tomditov – tog‘lari, Kichioy, Uzunyaylov – urochishe nomlarini kiritamiz.

Fitotoponimlar. Navoiy viloyati hududi asosan cho’ldan iboratligi uchun o’simlik turlariga boy emas.Ular ichida keng tarqalganlari bahorda o‘suvchi efemer va efemeroidlar — rang, qo‘ng‘irbosh, yaltirbosh, lola, boychechak, chuchmoma, kavrak. Yozning boshlanishi bilan ular sarg‘ayib qoladi, qurg‘oqchilik va sho‘rxok yerlarga moslashgan o‘simliklar esa o‘saveradi. Qumliklarda juzg‘un, oq saksovul, quyonsuyak, qum akatsiyasi, qandim, selin kabi o‘simliklar o‘sadi. Sur-qo‘ng‘ir tuproqli yerlarda shuvoq, burgan, toshburgan kabilar tarqalgan. Okrugning sho‘rxok, sho‘rxok-botqoq yerlarida qorasaksovul, yulg‘un, baliqko‘z, sarisazan, taqirlarda donasho‘r o‘sadi. Amudaryo sohillarida to‘qayzorlar bor. Tomdi tumani toponimlari orasida zootoponimlar va fitotoponimlar kam bo‘lsa ham uchraydi. Masalan Ajiriqti, Dala, Ko‘kdala kabi nomlar chorva uchun yaylov borligidan dalolat beradi. Ajiriqti - qishloq, Tomdi tumani. Ajriq ko‘p o‘sganidan shunday nom olgan (qozoq tilida -li qo‘shimchasi qattiq undoshlardan keyin -ti shaklida talaffuz qilinadi). [5, 623- b.]. Tatirquduq - qishloq, Tomdi tumani. Tatir - shur yerda o‘sadigan buta o‘simlik; tatirquduq - “tatir ko‘p o‘sib yotgan yerdagi quduq”.

Viloyatimiz qumli cho‘llarida yumronqoziqlar, qum sichqoni, shalpangquloq, qo‘shoyoq, kaltakesak, echkemar, o‘qilon, qum bo‘g‘ma iloni, charxilon yashaydi. Sutemizuvchilardan cho‘l mushugi, jayron, xongul, sayg‘oq, bo‘ri, tulki, quyon uchraydi. Hasharotlardan chayon, qoraqurt, falanga, chigirtkalar bor. Amudaryo sohillaridagi to‘qaylarda to‘ng‘iz, qirg‘ovul, qizil g‘oz, xongul kabi hayvonlar yashaydi. Amudaryo sohillarida to‘qay landshafti va u yerdagi hayvonlarni muhofaza qilish uchunm Qizilqum qo‘riqxonasi tashkil etilgan.

1-jadval

Tomdi tumani oykonimlari tasnifi

TOPONIMIK TASNIF	TOMDI TUMANI OYKONIMLAR
Obyektni joylashgan o‘rniga ko‘ra nomlangan oykonimlar	O‘rtaquduq, Ayaquduq
Fitooykonimlar	Ajiriqti, Tatirquduq, Dala, Ko‘kdala
Zootoponimlar	Aristan, Qulonqoq
Oronimik oykonimlar	Keregetov, Pershe
Gidrooykonimlar	Tomdibuloq, Ayaqquduq, Besbulaq, Jiriq,
Antropooykonimlar	Aldabergen, Kulimbet, Nurmaxon, Yergesh, Begimbet, Utemurat, Moldaman
Etnooykonimlar	Og‘iztov
Joyning barpo bo‘lgan vaqtiga nisbatan qo‘yilgan nomlar	Yangi Tomdi
Nomning son-sanog‘iga nisbatan	To‘g‘izbay
Rang bilan bog‘liq nomlar	Aqtov, Qizilquduq, Aqqabaq, Aqtaqir

Zootoponimlar. Viloyat yer-suv nomlari orasida zootoponimlar ham uchraydi: Ukulisoy, Qoplondi (quduq), Qoplontepa (tog‘), Qulonqoq kabi obyektlar ukki, qoplon yoki qulon nomi bilan atalgan. Qulonqoq - qulonlar suvlaydigan ko‘lmak. Lekin, Eshkili, Aristan, Aristantov, Julbars singari ovul, mavze, quduq, toglar shu hayvonlarning nomlari bilan atalganligini tushuntirish biroz qiyin. Chunki qozoqlarda aristan, turkmanlarda arislon, qozoqlarda eshkili, qirgizlarda va qozoqlarda julbars degan urug‘bo‘lgan, bundan tashqari qozoq-qoraqalpoqlarda Ariston, Julbars degan ismlar ham bor. Aristan- qishloq, Tomdi, Konimex tumanlari. Qozoqcha aristan - arslon, sher demakdir [6, 237-b]. Hozirgi O‘zbekiston hududida arslon (turkiy) yoki sher (forscha) yoyinki asad (arabcha) bo‘lgan emas. Qadimgi qoyatosh tasvirlarda arslon chizmalari ham uchraydi. Ba’zan arslonga o‘xshash katta yirtqich hayvonni ham arslon deyishgan. Ustyurtda va Amudaryo bo‘ylarida qora panterani qora arslon deb atashgan.

Tuman atropooykonim va etnooykonimlar qatoriga Aldabergen, Kulimbet, Nurmaxon, Yergesh, Begimbet, Utemurat, Moldaman, Og‘iztov kabi oykonimlarni kiritamiz. Izbosarto‘be do‘gligi, Go‘neniyoz, Yerchemboy, Mametquduq, Mirzamarat, Sardor, Tugayjusupboy, To‘g‘ayjo‘rabek tog‘lik nomlari ham antropooronimlar guruhiga mansubdir.

Toponimikada eng kam o‘rganilgan soha ranglar simvolikasidir. Oq, qora, ko‘k, sariq, qsizil, bo‘z, yashil kabi rang nomlari toponimlar tarkibida tez-tez uchrab turadi; oq bilan qora ranglari ayniqsa ko‘p takrorlanadi: Oqtov- Qoratov, Oqsuv-Qorasuv, Oqqo‘rgon-Qoraqo‘rgon, Oqtepa- Qoratepa, Oqqum-Qoraqum, Oqtosh-Qoratosh kabi antipod toponimlarda ma’lum ma’noda rang tushunchasi bo‘lishi mumkin; bunday geografik nomlar tarkibidagi rangni ifodalaydigan sifatlar ham rang-tusdan boshqa ma’nolarga ega, masalan, Oqtov “qorlitov” bo‘lishi bilan birga “yuksak tog‘”, “baland tog‘”, qoratov esa “qorsiz tog‘”, “qoramtir tog‘” bo‘lishi bilan birga past tog‘ ma’nosini ham anglatadi. Qizilqum O’rta Osiyodagi eng katta cho’llardan biri. Toponimikada qizil so’zining ma’nolari ko’p: qizil rang, qon, oftob, sharq va hokazo. Lekin H.Hasanovning fikricha, Qizilqumni ikki xil izohlash mumkin: Sharqiy cho’l yoki Oltinqum. Qizil so’zining oltin ma’nosi ham bor. Muruntov tilla koni buning dalili [9, 117-b.].

Tuman hududa nomning son-sanog‘iga va rangiga bog‘liq joy nomlari sirasiga Aqtov, Qizilquduq, Aqqabaq, Aqtaqir, To‘g‘izbay kabi oykonimlarni kiritamiz. Obyektning rang, rang-tus belgisi bilan bog‘liq oronimlar Ko‘kto‘be, Oqjontepa, Oqshoxo, Qiziloy, Qoramulla, Qorato‘be kabi do‘nglik nomlari; Qizilqum qumligi; Oqtov, Qoratov, Ko‘ktepa, Oqjetpes, Qorabuloq, Qo‘ng‘irtepa tog‘ nomlari; Ko‘kdala, Qizilkese, Qiziloyquduq, Qoramulla, Qoranayza, Qiziloy, Qoramo‘la kabi urochishe nomlari ham shu guruhga mansub. Obyektning son-sanog‘i, miqdori, bilan bog‘liq oronimlarga Qo‘smurin, Uchquduqtov do‘nglik nomlari misol bo‘ladi. Oltiqoq - ovul, Tomdi tumani. Cho‘ldagi “oltita qoq”, “oltita ko‘lmak” demakdir.

Oronimlar faqatgina tog‘lar va tepaliklar emas, balki relyefning salbiy shakllari, ya’ni jarliklar, vodiylar, soyliklar, past tekisliklar, daralar, qumliklar va boshqa orografik obyektlar nomlaridir. “Oronim (yunocha oros – tog‘, onoma – nom, ism) demakdir.Oronimlar ilmiy adabiyotlarda turlicha qayd etiladi. Oronimlar tog‘ nomlari deb izohlanib, ular tarkibiga tog‘lar, cho‘qqilar, tepalar, qirlar, dovonlar, daralar, jarlarning nomlarini ham kiradi. Oronim yunoncha “oro”-tog‘, anomi-atoqli ot, yer yuzasi relyefidan bo‘rtib ko‘tarilib chiqgan har qanday baland joylar, tog‘, qir, tepa, cho‘qqi, dovon va boshqalar atoqli oti. Oronimlar huddi oykonimlar va gidronimlar singari o‘zbek toponimikasining mustaqil alohida turi majmuyidir.

Tomdi tumanidagi Besbulaq aholi punktida joylashgan urochishe Bileziksor deb nomlangan. Bileziksor-Qadimda shu yerlik odamlar ushbu joyda quduq qazishganda

sho‘rlanib tuz hosil bo‘lib qolavergan. Ushbu joy bilakuzukka o‘xshaganligi sababli Bileziksor deb nomlangan. Suketti qishloq fuqarolar yig‘inida joylashgan do‘nglik Iskenura deb nomlangan.Iskenura – Qadimgi davrlarda oziq-ovqat saqlash uchun yer (o‘ra) qazilib shu yerda oziq-ovqatlar saqlangan. Ushbu joy do‘nglik bolganligi sababli Iskenura deb nom olgan.Cho‘lda qish va bahor oylarida suv to‘lib, yozda qaqrab yotadigan, yuzasi yorilib ketadigan maydonlar taqir deyiladi. Tomdi tumanidagi qishloqlardan biri Oqtaqir shundan olingan.Ayaquduq qishloq fuqarolar yig‘inida joylashgan urochishe Qoranayza -Tomdi tumanining turg‘in xalqi qozoq millatiga mansub bo‘lganligi sababli Qoranayza deb nomlangan.Qoranayza – Qadimgi yovgarchilik davrida ushbu hududda qora nayza (urush asbobi) tushgan joy bo‘lganligi sababli shu nom berilgan. Keriz - qishloq, Nurota, Tomdi tumanlari. Koriz so‘zining mahalliy aholi talaffuzi. Koriz - yer osti suvlarini yuzaga chiqarish uchun yer ostidan kavlangan laxm, bir-biriga birlashtirilgan qator quduqdar. Koriz forscha xok (tuproq) yoki kox - “yuqori” va rextan - “quymoq, oqmoq, to‘kmoq” so‘zlaridan olingan, ya’ni “yuqoridan oqib tushadigan suv tarmog‘i” demakdir.

Foydali qazilmalari, tog‘ jinslari va tuproqlari bilan bog‘liq nomlar. Navoiy viloyati mamlakatimizning tabiiy qazilma boyliklari boy, ular negizidagi yirik sanoat korxonalari faoliyat ko’rsatayotgan hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyat hududida 200 tadan ortiq foydali qazilma konlari aniqlangan bo’lib, shulardan 16 tasi uran, 37 tasi nodir metallar konlari va 12 ta minerallashgan shifobaxsh suvlar manbaidir. Viloyatda aniqlangan konlarning 78 tasidan qazilma boyliklar qazib olinadi. Viloyatning yirik tog’-kon sanoati korxonalari asosan, Zarafshon, Uchquduq shaharlari hamda Tomdi, Nurota va Konimex tumanlarida joylashgan. Oltin (Muruntov, Ko‘kpatas), uran (Uchquduq), gaz (Gazli, Qo‘shquduq, Xo‘jaqazg‘an), oltingugurt, simob, grafit, fosfor, asbest, korund, mis, feruza kabi binokorlik materiali konlari mavjud. Navoiy viloyati hududining geologik tuzilishini hamda ma’lum bir turdagi minerallar va tog‘ jinslarining mavjudligini anglatuvchi nomlar ham mavjud bo‘lib, ularga Oltinsoy (qishloq. Xatirchi t.), Oltin vodiy (Karmana t.). Kumushkon (Karmana t.) – kumush qadimgi turkiy tilda – xazina, tabiiy boylik ma’nosini bildiradi.

Tomdibuloq qishloq fuqarolar yig‘inida joylashgan jarlik Jeroy deb nomlangan. Tuman hududida Jeroy koni mavjud bo‘lib ushbu qum zarrachalaridan oyna, shisha mahsulotlari ishlab chiqariladi shu sababli ushbu nom qo‘yilgan. Ajiriqti — korund koni Navoiy viloyatidagi Tomdibuloq ovulidan 5 km g‘arbda, Tomdi tog‘larida joylashgan. Korund metamorfizmga uchragan ohaktoshlar orasida qalinligi 1 m va uzunligi 10 m gacha bo‘lgan qatlamlarda linza shaklida yotadi. Ruda tarkibida korund (10- 60%), Margarit, xloritoid, temir oksidlari va gidroksidlari bor. Kamdan-kam holda diaspor, andaluzit, shpinel, biotit, xlorit, muskovit, pirofillit uchraydi. Konda chuqurligi 2-3 m dan 20-30 m gacha bo‘lgan qadimda qazilgan joylar uchraydi. Korunddan charx qumi sifatida foyda-lanilgan. Shu tipdagi bir qancha konlar (Ashibuloq, Tomdi, Ching‘ildi, Oqtov, Saribuloq, Beshtov) mavjud.

Suv obeyktlari bilan bog‘liq nomlar (gidronimlar). Gidrologik obyektlarni nomlashda pozitivlik, negativlik tamoyillariga ham asoslanadi. Gidrologik obyektlarga nom berishda obyektning tabiiy geografik xususiyatini yoki nomlanish uchun asos berayotgan biror voqea-hodisani anglata olishga asoslanganlik qonuni pozitivlik (lotincha positivus – musbatli, ijobiy) tamoyili deyiladi.

E.M.Murzayev fikricha, pizitivlik bu toponimlarda geografik reallikning aks etishidir. Pozitivlik tamoyili suv obyektlarini nomlashda eng ko‘p va eng keng qo‘llanadigan asosiy tamoyildir. O‘zbekiston gidronimlarining tarkibida pozitivlik tamoyili asosida yuzaga kelgan

nomlar salmoqli o‘rin egallaydi. Masalan, birgina suvning belgi-xususiyatlari asosida nomlangan SHo‘rko‘l (Konimex t.), Qizilquduq (Tomdi t.), SHo‘rquduq, Uzunquduq (Karmana t.), Qorabuloq, Saribuloq, Juzquduq (Tomdi t.) singari ko‘plab gidronimlarning mavjudligi ham fikrimizning yorqin dalilidir.Negativlik tamoyilida negativlikni, ya’ni suv obyektining xarakterlay olmaydigan va tipik bo‘lmagan belgi-xususiyatni ajratish muhim. Negativlik tamoyiliga ko‘ra gidronim suv obyekti va inshootini farqlovchi belgi asosida vujudga keladi. Obyektga bulardan tashqari nisbiylik tamoyili asosida ham nom qo‘yiladi, bunda bir suv obyektiga xos belgi va xususiyatlarni boshqa bir suv obyektiga taqqoslash, solishtirish va qiyoslash orqali amalga oshiriladi. Nisbiylik tamoyli asosida nom qo‘yilishida ko‘pincha suv obyektining joylashgan o‘rniga, suvning belgi xususiyatlari (maza-ta’mi, hajmi, rangi) asos qilib olinadi. Masalan, Navoiy viloyatida Jilg‘iqoq-Siyozqoq, Qosburkit-Qumburkit, Katta qulon – Kichik qulon (Uchquduq t.), Kattazovur-Kichikzovur, Yuqori Buxoro-Quyi Buxoro (Qiziltepa t.) kabi gidronimlar nisbiylik tamoyiliga asoslab qo‘yilgan nomlar sirasiga kiradi.

Navoiy viloyatining asosiy suv manbai Zarafshon daryosidir, undan Konimex kanali qazib chiqarilgan. Viloyat hududidagi quduqlar soni jihatdan ko‘pligi bilan ajralib turadi. Tomdi tumanida ham quduq va buloq nomlari ayrim xususiyatlariga ko‘ra nomlangan.Hududda SHo‘rbuloq, Qorabuloq, Saribuloq, Qizilquduq, O‘rtaquduq, Taldiquduq, Boymurotquduq, Buxorboyquduq, Saparboyquduq, Shokirbekquduq kabi quduq, buloq va qishloq nomlari mavjud. Viloyatning cho‘l zonasida suv tanqis, shuning uchun ko‘plab quduqlar qazilgan va har birining o‘z nomi bor. Quduq suvi ichishga yaroqli yoki yaroqsizligini nomidan aniqlasa bo‘ladi:

Shirinquduq. Chuchukquduq - suvini ichish mumkin; SHo‘rquduq, Achchiquduq - suvi iste’molga yaroqsiz quduqlar. Cho‘lda doimiy oqar suvlar yo‘q, shuning uchun yer osti suvlardan foydalish maqsadida ko‘plab qududlar qazilgan. Tomdibuloq - qishloq, Tomdi tumani markazi. Suvi kam bo‘lganidan toshlardan tomchilab oqib tushadigan buloq tomchi yoki tomdi deyiladi. Tuyaquduq - qishloq, Tomdi, Konimex tumanlari. Suvi tuya yordamida tortib olinadigan quduq. Keregetov qishloq fuqarolar yig‘inida joylashgan aholi punkti Jiriq deb nomlangan. Jiriq- Eski vaqtda ushbu ovul markazida joylashgan quduqning suvi ko‘p bo‘lganligi sababli yon atroflaridan toshib chiqib (Jirg‘alab) ketavergan shu sababli shu nom berilgan.

*Joyning iqlimi va ob-havo xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan toponimlar***.** Viloyat iqlimidagi o’ziga xos xususiyatlardan biri uning keskinligidir. Bir fasl ikkinchi fasldan harorati, namligi, quyosh radiatsiyasi va boshqa jihatlari bilan farq qiladi. Qish fasli viloyatning aksariyat qismida juda sovuq kelishi bilan boshqa hududlarga nisbatan farq qiladi. Viloyat hududiga shimol va shimoli-sharqdan sovuq havo massalari kirib kelishi natijasida havo harorati qishda -340C gacha pasayib ketadi. Fasllarning havo harorati rejimi aholi turmush tarziga ta’sir etmasdan qolmaydi. Masalan, qish faslida havo haroratining keskin sovib ketishi oqibatida Tomdi, Uchquduq, Konimex va Nurota tumanlaridagi qishloq aholi punktlarida yashovchi aholi mashg’ulotiga katta ta’sir qiladi. Shunday ekan iqlim va ob-havo xususiyatlari bilan bog‘liq oykonimlar viloyat toponimiyasida mavjud bo‘lib, lekin ularning salmog‘i kam. Tomdi tumanidagi Tandirqum, Tandircha, Tandirsoy kabi nomlar yozda harorat ayniqsa yuqori bo’lishidan shunday nomlangan.

Xulosa. Viloyat toponimiyasi geografik joy nomlarining vujudga kelishida toponimik pozitivlik, nisbiy negativlik, qatorlar qonuni va xalq etimologiyasi, toponimlarning siyrak tarqalishi singari qonuniyatlarning ahamiyati katta.Navoiy viloyati Tomdi tumani toponimlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tabiiy geografik xususiyatlar bilan bog‘liq joy nomlari salmoqli o‘rin egallaydi va bular orasidan oronimlar son va mazmun jihatdan alohida o‘rin tutadi.

Tuman hududi aholisi aksariyat qozoq va qoraqalpoq millatiga mansub bo‘lganligi bois oronimlar guruhuda ham, oykonimlar guruhida ham qozoqcha nomlar ustunlik qiladi. To‘be, tov, qum, quduq indikatorlari ishtirokida joy nomlarini ko‘plab uchratish mumkin: Muruntov, Oqtov, Sangruntov, Tomditov, To‘xtatov, Shushaktov, Qozoqtov, Qoratov, Belgeto‘be, Izbosarto‘be, Do‘maloqto‘be, Sug‘urto‘be, Qorato‘be, Yomonqum, Qizilqum, Oqqum va boshqalar.Tuman hududi viloyatning boshqa tumanlaridan (Xatirchi, Navbahor, Qiziltepa, Karmana, Nurota) oykonimlari siyrakligi bilan ajralib turadi, cho‘l-voha hududidan cho‘l qismiga tomon toponimlar siyraklashib boradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abbasov S.B. Qizilqum cho‘li landshaftlari dinamikasi va ekologiyasi. Samarqand, 2019. -174 b.
2. Nizomov A., Raximova G., Rasulova N. Toponimika. -T.: “Sharq”, 2013. -120 b.
3. Oblaqulov H.A. Navoiy viloyati aholisi turmush tarzi: geografik omillar, hududiy tafovutlar. -Navoiy, 2022. -129 b.
4. Xodjimatov A.N., Yarashev Q.S., Boymurotov S.M. Arid hududlar geografiyasi. -T.: 2024. -174 b.
5. O‘zbek joy nomlarining izohli lug‘ati (birinchi nashr). – T.: Donishmand ziyosi, 2022. -623 b.
6. Qorayev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005. – 237 b.
7. Qorayev S. Toponimika. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. -318 b.
8. Hakimov Q.M., Mirakmalov M.T. Toponimika. – T.: Tafakkur avlodi, 2020. – 343 b.
9. H.Hasanov. Geografik nomlar siri. – T.: O‘zbekiston, 1985. -117 b.

SURXONDARYO TOPONIMIKASINING O‘RGANILISH TARIXI

Eshboyev B.T, Bozorov M.I.
Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Surxondaryo toponimikasining o‘rganilish tarixi, joy nomlarining shakllanishida O‘rta Osiyo xalqlarining ta’siri haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yaksart, eroniy, turkiy tillar, Darband, gumbaz, gibrid, Xatak qishlog‘i, shudgor.*

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ТОПОНИМИИ СУРХАНДАРЬИ

Эшбоев Б.Т, Базаров М.И.
Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан

Аннотация: *В данной статье представлена история изучения топонимики Сурхандарьинской низменности, сведения о влиянии народов Средней Азии на формирование топонимов.*

Ключевые слова: *Яксарт, иранский, тюркские языки, Дарбанд, Гумбаз, гибрид, деревня хатак, плуг.*

HISTORY OF THE STUDY OF SURKHANDARYA TOPONYMY

Eshbayev B.T, Bozorov M.I.
Qarshi State University, Karshi, Uzbekistan

Annotation: *This article presents the history of the study of Surkhandarya toponymy, the influence of Central Asian peoples on the formation of place names.*

Key words: *Yaksart, Iranian, Turkish languages, Darband, gumbaz, hybrid, Khatak village, plow.*

Kirish. Eramizdan avval minginchi yillarda Eron etnik guruhlari g‘olib sifatida O‘rta Osiyo hududida paydo bo‘la boshlaganlar. Eronliklar so‘g‘d va boshqa mahalliy xalqlar ustidan hukmronlik qila boshlaganlar. Mahalliy xalqlar barcha imkoniyat va huquqlaridan maxrum etilgan. Adabiy va davlat tili fors tili bo‘lgan. Mahalliy xalqlarni eronlashtirish shu darajaga yetganki, hatto qator mahalliy geografik nomlar qayta nomlangan. Masalan, qadimiy Sirdaryo nomini Yaksart deb qayta nomlagan. Bu tarixiy jarayon davomida Kaspiy dengizidan tortib, Oltoy o‘lkalarigacha bo‘lgan katta hududda eroniy tillarning so‘g‘d, fors-tojik, buluj, Afg‘on, kojar, jat dialekt va shevalariga oid elatlar, guruhlar va qavmlar bilan bir qatorda turkiy sheva, lahjalarda so‘zlashuvchsi etnik guruhlar, urug‘-aymoq kabi elatlar ham hayot kechirganlar. VI asrning 60-yillarida O‘rta Osiyo hududida turkiy tillar guruhi keng tarqala boshlagan. O‘rta Osiyoga turklar kelgunga qadar va keyin ham ikki til tizimi eroniy va turkiy taraqqiy qilib, biri ikinchisiga ta’sir qilib turgan. K.E.Bertelsning yozishicha, arablar O‘rta Osiyoga bostirib kelganga qadar so‘g‘d tili Buxoro va Samarqand xalqlarining asosiy tili bo‘lgan. Shunga qaramay, O‘rta Osiyoning qadimiy aholisi, asosan, “eroniy” va turkiy tilda so„zlashuvchi qabilalardan iborat bo‘lgan. Prof. A.Y.Yakubovskiyning ko‘rsatishicha Movarounnahrda Amudaryo va Sirdaryoning oralig‘idagi keng hudud eramizning VI asridan va undan so‘ng Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida qadimgi turkiy madaniyatning yaratilishida juda muhim rol o‘ynadilar. Keyinroq esa o‘sha qadimiy turkiy qavm va elatlar bo‘linib-bo‘linib hozirgi o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq kabi millatlarning tarkibiga qo‘shilib ketganlar.

Asosiy qism: Tarixiy ma’lumotlarning ko‘rsatishicha O‘rta Osiyoda xususan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylarida turkiy xalqlarga nisbatan “eroniy” so‘zlashuvchi mahalliy aholi ko‘proq bo‘lgan. Eroniy tilda so’zlashuvchi aholi ko’proq shahar va shahar atroflarida, turkiy xalqlar esa ko‘proq cho‘lda yashaganlar. Eroniy va turkiy tilda so‘zlashuvchi mahalliy aholi o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar, hattoki quda-andachilik ishlarining borgan sari yaxshi yo‘lga qo‘yila borishi bu yerlarda ikki tillilikni yuzaga keltirib chiqardi. Ayniqsa, VI-VIII asrdan so‘ng turkiy qabilalarning ommaviy ko‘chib kela boshlashlari, arablar iste‘losiga qarshi eroniy va turkiy qabilalarning birgalikda kurash olib borishi, turk xoqonligining tashkil topishi, mo‘g‘ullarning kelishi va nihoyat ko‘chmanchi o‘zbeklarning yoppasiga O‘rta Osiyoga bostirib kirishlari hamda mahalliy aholi bilan aralashib ketishi, bu holning esa qadimgi turkiy qabilalar foydasiga, ya’ni ularni son va nufuz jihatdan ustun bo‘la boshlashiga olib kelganligiana shu omillarning hammasi birga qo’shilib O‘rta Osiyo sharoitida yuz bera boshlagan ikki tillilikning orta borishiga bunda ham eroniy xalqlarning turkcha so‘zlay boshlaganlari va ularning ikki tilli bo‘lib qolayotganliklari nisbatan ko„proq miqdorni tashkil etadi, asta-sekin esa turkiy so‘zlashuvga moyillikning kuchayishiga sabab bo’ldi va jarayonni tezlashtirdi. Prof. A.K.Borovkovning qayd etganidek, eroniy tojik va o‘zbek tillari orasidagi munosabat, olish-berish, ikki tomonlama xarakterga ega bo’lib, o‘zbek tili tojik tiliga, tojik tili esa o‘zbek tiliga ta‘sir etdi. Bunday o‘zaro ta‘sir hozirgi O‘zbekiston va Tojikistonning ayrim hududlarida hozir ham davom etmoqda. Xuddi ana shu jihatdan ham Surxondaryo viloyatining lingvistik shevalari va tarixiy toponimik materiali juda xarakterlidir. Tarixiy-arxeologik manbalar va Surxondaryo viloyati hududidan yozib olingan joy nomlarining ilmiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, fors-tojik tili unsurlaridan

tarkib topgan toponimlar viloyat toponimik tizimining birinchi qatlamini tashkil etadi. Ma'lumki, u yoki bu til o‘zining tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘z ichki imkoniyatlari asosida rivojlanishdan tashqari boshqa tillardan so‘z-terminlar olish hisobiga ham boyib boradi. Xuddi shu ikkinchi tarixiy taraqqiyot yo‘nalishi toponimiyada ham sodir bo‘lib turadigan lingvistik qonuniyatlardan biri hisoblanadi. Ammo, har bir hududdagi toponimik nomlar yig‘indisi shu hududda joylashgan mahalliy halq tilining lug‘at tarkibiga, xususan uning tarixiy leksik qatlamiga mansubdir. Bu fikrni ana shu fakt ham isbotlaydiki, mahlliy aholisining turkiy o‘zbekmi yoki eroniy urug‘-qabilalardan iboratliligi uning toponimiyasida ham aks etadi. Eroniy xalqlar yashagan hududda, ko‘proq eron tillarga xos toponimiya, turkiy xalqlar yashagan hududida esa ko‘proq turkiy toponimiya asosiy qismni tashkil etadi. Hattoki, qadimda eroniy xalqlar yashagan hududda so‘ngroq turkiy o‘zbek urug‘lari kelib yashay boshlagan bo‘lsa ham, baribir, asta-sekin eroniy toponimlar unutila borib, turkiy yoki o‘zbekcha joy nomlar ko‘paya boradi. Lekin, baribir, eroniy unsurlar ham toponim-substrat tarzida qisman saqlanadi. Bu yo‘nalish toponimikaning qonuniyatlaridan biridir. Masalan, birgina Boysun tumanidagi tojik xalqi yashaydigan Sayrob qishlog‘idan yozib olingan 200 ga yaqin mikrotoponimlardan 98 foizi tojik tili va shu til unsurlari asosida yaratilgan. Yoki bu tumandagi Darband qishlog‘idan yozib olingan 150 dan ortiq mikrotoponimlarning qariyb 96 foizi tojik tili unsurlari asosida paydo bo‘lgan. Tarixan o‘zbek urug‘lari yashab kelgan Sherobod tumanidagi Oqtosh qishlog‘idan yozib olingan 67 mikrotoponimlarning 26 tasi sof o‘zbek tili materiali asosida, qolgan 41 tasi aralash (gibrid) yoki boshqa til so‘zlaridan paydo bo‘lgan. Shu tumandagi Xatak qishlog‘idan yozib olingan 78 joy nomidan 30 tasi sof o‘zbek tili so‘zlaridan, 48 tasi aralash (gibrid) yoki o‘zga til materiallari negizida yaratilgan va hokazolar. Surxondaryo viloyatining hududida fors-tojik tiliga xos so‘z shakllarining toponimlarda ko‘plab uchrashi va tarqalishi turli ijtimoiy, siyosiy omillar bilan bog‘liqdir. Tojik va o‘zbek halqlari juda qadimdan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va adabiy aloqada bo'lib kelgan. Bugina emas, hatto o‘zbeklar bilan tojiklar yaqin qo‘shni va ko„pchilik joylarda aralash yashaganlar. Bu yaqin munosabat o‘z navbatida ularning tillarida o‘z izlarini qoldirgan. Fors-tojik tilidan o‘zbek tili lug‘at tarkibiga qator so‘zlar o‘tgan bo‘lib, bular o‘zbek tili lug‘at tarkibiga singib ketgan va o‘z so‘zi, til boyligi bo‘lib qolgan. Bu xil "o‘z" so‘zlarga hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasidagi anbar, ozod, bog‘, baland, bo‘ston, zamon, koriz, nishon, tarozi, paxta, xo‘ja, bozor, band, gadoy, go‘r, gumbaz, zar, eshon, kal, qalandar, kampir, karvon, ketmon, ko‘hna, xurjun, xudo, lola, lo‘li, non, payg‘ambar, podsho, poda, chosh, dahna, dasht, oxir, gugurt, dehqon, zindon, darcha, nishob, havor, xachcha, bekat, do‘st, lalmi, lashkar, mardikor, miroxo‘r, qarz, kaft, daraxtzor, peshtoq, ozoda, hammom, jang, daryo, korxona, shudgor, ustoz kabi so‘zlarni namuna qilib ko‘rsatish mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, tojik va o‘zbek xalqlarining til jihatdan bo‘lgan aloqalari va uning izlari Surxondaryo viloyat toponimiyasida ham o‘z izini qoldirgan. Viloyat toponimiyasi tarkibidagi turli so‘z va shakllardan tarkib topgan toponimlarni quyidagi tiplarga ajratib ko‘rsatish mumkin:

-Fors-tojik tili unsurlaridan tarkib topgan sodda toponimlar.

-Fors-tojik tili unsurlaridan tarkib topgan qo‘shma toponimlar.

-Umumturkiy til unsurlaridan tarkib topgan toponimlar.

-Mo‘g‘ul tili unsurlaridan tarkib topgan toponimlar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Xasanov X. – O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan.-Toshkent: Fan, 1965-220 b.

2. Inomov I. - saxovatli yurtim. - Toshkent, 1996. - 95 b.

3. Do‘simov Z. Toponimlar tasnifi masalasiga doir -1978. 1-son B. 17-20.

4. Eshboyev B.T. Geografik nomlar paydo bo‘lishining hududiy toponimik qonuniyatlari. O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 58-jild. Toshkent, 2020. 179-186 -b.
5. Madrahimov Z. Toponimika fanidan ma’ruza matni. Namangan ,2010 b.24.
6. Dusimov X. Joy nomlarining qisqacha izoxli lug’ati - T.: O’qituvchi, 1977. - 185 b.
7. Qorayev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. –T.: 2005. B.57.
8. Xasanov X. Yer tili. –T.: O‘qituvchi, 1977. 102-b.

КУЛЬТУРНЫЙ ПРОГРЕСС В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ДРЕВНОСТИ И РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

Д.А. Махкамова
Образовательный университет "Ренессанс", доцент, кандидат исторических наук.

В историческом процессе разных эпох отмечалось как мирный, так и военный пути, способствовавшие распространению в широком территориальном плане разных религий, языков систем письменности, памятников искусства и др. Мирный путь был основан на прямых культурных контактах или миграционных процессах, в результате которых происходил синтез разных культурных традициях, а также этнокультурный синтез(в качестве примера- распространение зороастризма и буддизма, согдийская колонизация Восточного Туркестана), Военный путь был основан на завоевании территорий, образований империй, оседании завоевателей на захваченных землях и переселенческой политике, внедрения этнокультурной традиции. В истории человечества основным фактором прогресса является поэтапное наращивания знаний, материальных и духовных ценностей.

Культурные связи и взаимодействия способствовали культурному прогрессу различных народов мира. Средняя Азия в силу своего расположения на перекрестке важных путей сыграло огромную роль в накоплении, преобразовании и передаче различных культурных достижений между Востоком и Западом. Древняя и Средневековая культура народов региона не могла не испытывать влияние извне и, в свою очередь, не влиять на сопредельные территории. На протяжении многих столетий шел интенсивный процесс диалога культур, предполагавшего взаимопонимание и общение между представителями различных культурных образований в рамках больших культурных зон1.Именно такой диалог, как принцип культурного развития позволял органично заимствовать лучшее из населения мировой цивилизации 2.

Рассматривая проблему культурного прогресса на основе международных связей, необходимо обратить особое внимание на характерные примеры данного процесса, начиная с его исток 3. Один из древних этапов связан с развитием ранней государственности В Средней Азии, выделение таких исторически- культурных областей, как Хорезм,Маргиана, Бактрия, Согд, которые объединяло не только общность развития материальной культуры, но и единая религия-зороастризм, Уровень развития данных областей основанных на оседлом земледелии, был достаточно высоким, и он оказывал на соседние среднеазиатские области, в том числе на территорию расселения кочевых народов. Вместе с тем, население указанных выше областей благодаря международным связям, обменивались достигнутыми навыками и соответствующей информацией в сфере материального производства и духовной культу.

На этой основе уже в середине 1 тысячелетия до. н.э. В Средней Азии была основана арамейская письменности, которая возникла в VII в.до.н.э. в Малой Азии и, постепенно, распространяясь на Востоке, потеснило переднеазиатские системы клинописи 4. В связи с этим интересен арамейский папирус, найденный на острове Элефантина в низовьях Нила, который свидетельствует о том, что в Египте в крепости

Элефантина служил Даргаман, сын Харшина, хорезмиец из отряда Артабана 5. На территории собственного Хорезма древнехоризмийская надпись IV в. до.н.э., основанная на арамейском алфавите, обнаружена на городище Большая Айбуиркала 6. На примере хоризмийца Даргамана, проживавшего вместе с семьей в Египте, и других данных можно сделать вывод о том, что выходцы из Средней Азии уже в VI-Vвв. до.н.э. проникали далеко на Запад. Это способствовало дальнейшему развитию международных связей и обмену различными культурными достижениями. В месте с тем в ряде областей Средней Азии жили и чужеземцы. В V в.до.н.э. из Северной Африки в Бактрию были переселены жители селения Барки 7. Туда же были переселены и греки из Милета, которые вплоть до походов Александра Македонского соблюдали свои обычаи, хотя и отвыкали от родного языка 8.

Наличие письменности показывает значимость и уровень развития культуры того или иного народа. В Средней Азии основу ранних письменностей(хорезмийской, бактрийской, согдийской) легли арамейская и греческая системы письменности 9. Распространение в регионе письменности , ка и денежного обращения(наиболее ранние монеты, обнаруженные здесь, являются ахеминидскими и греческими)10- это пример инокультурного влияния. Однако распространение в средней Азии указанных достижений, сопровождалось их развитием на новой, местной основе. Жители Средней Азии выступили в дальнейшем как посредники во внедрении в соседних регионах различных систем письменности. Так. В Восточный Туркестан проникли согдийская и парфянская письменность. Руническое письмо древних тюрков также возникло под влиянием согдийской письменности 11. Таким образом, распространение письменности на основе международных связей демонстрирует характерный пример культурного прогресса.

Внедрение в Китай ряда элементов музыкальной культуры и новых для китайцев музыкальных инструментов(лютня, арфа, флейта) является среднеазиатским влиянием, известно также, что при кушанах попадает в и в Индию12. Особой популярностью в Китае в VII- VIII вв. пользовались музыканты, танцоры из Бухары, Самарканда, Чача, причем, как отмечают исследователи китайская музыка этого времени стала похожая по звучанию на музыку населения Средней Азии13.Все это является наглядным примером прогресса музыкальной культуры.

Нельзя не отметить и воздействие экономического характера, Особая роль в Средней Азии в производстве стекла в Китае. Из Ферганы на Дальний Восток распространились культуры винограда и люцерны, а также особая порода лошадей. Большой популярностью в Китае пользовался бадахшанский лазурит 14. Воздействие экономического и культурного характера шли также в обратном направлении с Востока на Запад .Это, прежде всего распространение в Семиречье , Фергане, Чаче, Согде и Тохаристане китайских монет, бронзовых зеркал, китайских надписей, экспорт шелковых тканей, изделий из нефрита15.

Культурному прогрессу способствовали взаимодействия и в области искусства, это влияние эллинской культуры и скульптуре, гандхарской и буддийской школе художественной культуре. Как римское влияние следует отметить тему Капитолийской волчицы, этот сюжет зафиксирован в раннесредневековой настенной живописи во дворце Калаи-Кахкаха В Устуршане 16. Исследователи оговаривают, что этот сюжет на местной почве был соотнесен не с историей Ромула и Рема, но с какими-то сказаниями о волчице, вскормившей основателей рода уструшанских владетелей 17. Огромную роль в установление культурных контактов, развитии духовности сыграли различные религии древности, древнейшей из них является зорастризм.Это религия призывала к миру и добру, проповедовала высокую нравственность, безупречную честность, доброту, бережное отношение к природе, постоянную заботу о человеке, семье ,

уважение к труду и знаниям.18. В период кушан начинается продвижение буддийского вероучения в юго-западные районы Узбекистана, где роль буддизма запечатлена в остатках монастырей и храмов, отсюда бактрийцы и согдийцы распространяют это учение в Семиречье и Восточный Туркестан. Следует отметить широкое распространение в домусульманской Средней Азии христианства 19.

Umumiy Yer bilimidan amaliy mashg’ulot darslarda talabalarni nazariy va amaliy faoliyati bir-biri bilan chambarchas bog’langan holda olib boriladi. Shuning uchun geografik ko’nikmalarni katta qismi yangi bilimlarni o’rganish jarayonida shakllatiriladi [2]. O‘z navbatida ayrimlari amaliy mashg‘ulot dars jarayonida bajariladi, masalan, okean va dengizlarning chuqurligi, suvining harorati, sho’rligi, daryolarning egri-bugriligi, oqim moduli, havzasining maydoni, yuqoriga ko’tarilgan sari harorat va bosimning o’zgarishini hisoblash, o’rtacha havo haroratini aniqlash, ma’lum bir hudud bo’ylab o’tkazilgan tabiiy geografik kesmani tahlil qilish va h.k. Ayrim amaliy ishlarni amaliy mashg’ulot darslarida yangi mavzuni o’rganib bo’lgandan keyin bajarish mumkin. Bunda egallangan bilim va ko’nikmalar mustahkamlanadi. Masalan, talabalarni iqlim ko’rsatkichlari, daryolarning oqim rejimiga oid jadvallar va diagrammalar bilan ishlash ko’nikmalarini darsni mustahkamlash bosqichida olib borish mumkin. Shu bilan birgalikda, talabalarning ko’nikma va malakalari amaliy mashg’ulot darslarida uyga vazifani tekshirish jarayonida ham shakllantirilishi mumkin. Bunda talabalar ma’lum bir reja asosida ishlashadi, masalan, xaritadan foydalanibbiron bir obyektga ta’vsif berish, ayrim tekislik yoki tog’ning geografik ta’rifini tuzish va h.k.

Bo‘lg‘usi o‘qituvchining yetuk va o’z kasbini uctasi bo’lib shakllanishi aynan amaliy mashg’ulotlarda amalga oshirib boriladi. Chunki, talabalar amaliy mashg’ulotlarda o’qituvchi rahbarligida juda faol bo’lishadi, bir-birlari bilan munozara - baxslarga kirishib mavzuga oid bilim sirlarini chuqur o’rganib oladilar. Bu albatta amaliy mashg’ulotning ma’ruza mashg’ulotidan asosiy farqi bo‘lish bilan birgalikda pedagogik maqsadga erishishning eng yuqori yo’li hisoblanadi.

O’qituvchidan amaliy mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko’rishi ma’ruza mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko’rishdan ko’ra ko’proq o‘z ustida ishlashi, ko‘p narsalarga e’tibor berishni ya’ni, o’quv materialini yaxshi bilish, har bir jarayon borishiga tez reaktsiya ko’rsatish, har bir talabadan e’tiborni uzmaslik, talabalarni bilish faoliyatini birgalikda turli shakllarda (indvidual, kichik guruhlarda va yalpi) boshqarish, amaliy mashg’ulot topshiriqlari va zarur jihozlar, tarqatma materiallarni oldindan tayyorlash kabilarni talab etiladi.

Olib borgan tadqiqotimiz davomida oliy o’quv yurtlarida amaliy mashg’ulotlarni o’tkazishda quyidagi eng asosiy kamchiliklar mavjudligi aniqlandi:

- amaliy mashg’ulotlarga kasbiy yo’naltirilganlikni pastligi;
- ikkinchi darajali materiallarni haddan tashqari ko’pligi;
- talabalarni amaliy mashg’ulotlarga nisbatan amaliy faoliyatini deyarli kamligi;
- ma’ruza bilan amaliy mashg’ulotlar o’rtasidagi aniq bog’lanishlarni yo’qligi;
- talabalar bilimini tekshirishni pastligi;
- mashg’ulotlarni o’tkazish usullaridagi bir xillik, talabalar o’rtasidagi o’zaro hamkorlik (jamoa bo’lib mavzuni muhokama qilish, guruh ishini nazarot qilish va baholash, o’zaro qo’llab quvvatlash va boshqalar)ni pastligi.

Umumiy Yer bilimidan amaliy mashg’ulot darslarda talabalarni nazariy va amaliy faoliyati bir-biri bilan chambarchas bog’langan holda olib borish orqali nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirishga erishish mumkin. Talabalar ma‘ruza mashg‘ulotida egallanagan nazariy bilimlarining sabab oqibatlarini amaliy mashg‘ulot darslarida amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida mustahkamlab borish bilan birga, “Nima uchun?” “Nima sababdan?”, “Qanday qilib?” kabi ko‘plab mavhum savollariga javob oladilar. Masalan, “Yerning sayyora sifatidagi ta'rifi. Yerning harakati va uning geografik oqibatlari” mavzusini

o‘rganish jarayonida quyidagi ma‘lumotlar beriladi: Yer o‘z o‘qi atrofida g‘arbdan sharqqa tomon soat strelkasi yo‘nalishiga teskari tomonga qarab harakat qiladi. Yer o‘z o‘qi atrofida 23 soat 56 minut 4 sekundda bir marta aylanib chiqadi. Yer aylanishining burchak tezligi, ya’ni yer yuzasidagi biror nuqtaning har qanday muayyan vaqt davomida aylanish burchagi hamma kengliklar uchun bir xildir. Nuqta bir soat davomida 15^0 yo‘l bosadi

($360^0 \div 24\,soat = 15^0$). 1^0 geografik uzunlik esa 4 minutga (60 ÷÷ 15 == 4 minut) teng. Bu tezlik ekvatorda 464 metrga teng bo‘lsa, qutblar tomon kamayib boradi. Yer o‘qining uchida joylashgan Shimoliy va janubiy qutb sutkalik harakat jarayonida bir joyda harakatsiz turadi [3,4].

Amaliy mashg‘ulot darsida talaba Yerning harakat tezligining kengliklarga qarab qanday o‘zgarishini bilib olish orqali egallanag bilimini amaliy ko‘nikmaga aylantiradi va yangi bilimni o‘zlashtiradi. Yerning harakat tezligi turli kengliklarda o‘zgarishini quyidagi formula yordamida hisoblab topish orqali o‘rgatiladi:

$$\vartheta_э = \frac{2\,\pi R}{T}$$

Bu yerda $\vartheta_э$ - Yerning ekvatorda aylanish chastotasi, (sekund); π -Pifagor soni bo‘lib, u 3,14 radianga teng. 3,14 radian esa 180^0 ga teng. Aylananing yuzi 360^0 ga teng ekanligini bilgan holda, uni pifagor soni, ya’ni radianga aylantirganimizda $2\,\pi$ ga teng bo‘ladi. R- radius, T- vaqt (sekund).

Ushbu formula asosida ekvatorda Yerning bir sekundda aylanish tezligini quyidagicha hisoblab topamiz:

$$\vartheta_э = \frac{2\,\pi R}{T} = \frac{2 \times 3{,}14 \times R}{86400} = \frac{6.28 \times 6378{,}245}{86400} = \frac{40\,055378{,}6}{86400} = 463{,}6 = 464\ m/sek$$

Formuladagi T- o‘rniga qo‘yilgan 86400 sutkaning sekund hisobidagi qiymati. Demak, tezlik ekvatorda sekundiga 464 metrga teng. Ushbu maslani yechib bo‘linganidan so‘ng shunga o‘xhsh masalalarni turli vaqt hisobida bajarish orqali talabalarning amaliy ko‘nikmasini mustahkamlash lozim.

Shuningdek, nuqtalarning turli geografik kengliklardagi chiziqli tezligi qanchaga teng ekanligi ham quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\vartheta_f = 464 \cdot \cos f\ m/s$$

Bu yerda ϑ_f - aylanish chastotasi, ma’lum bir geografik kenglikda, 464 - yerning ekvatordagi harakat tezligi (sekundiga metr hisobida), *f* – geografik kenglik bo‘lib, *cos* lar jadvali bo‘yicha olinadi.

Masalan, Toshkent shahri 41^0 sh.k. da joylashgan. Yuqoridagi formulaga qo‘yib ishlaganimizda, dastlab kosinuslar (cos) jadvalida 41^0 ning qiymatini topib olamiz. Kosinuslar (cos) jadvalida $41^0 = 0.755$ ya’ni, 0.75 ga teng. U holda:

$$\vartheta_f = 464 \cdot \cos f \frac{m}{s} = 464 - 0.75 = 348\,m/s$$

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, 41^0 kenglikda yerning aylanish tezligi sekundiga 348 m ga teng.

Yoki Yerning harakatiga oid yana yuqoridan tashlangan jism yer yuziga tekkuncha sharq tomonga bir oz og‘adi: 158 m balandlikdan tashlangan narsa yer yuziga tushguncha 27,5 mm sharqqa tomon buriladi. Buning sababi Yerning g‘arbdan sharqqa qarab aylanishidir, deb ilmiy ma‘limot beradi. Ushbu tushuvchi jismlarning sharqqa burilish kattaligi quyidagi formula orqali aniqlab, egallangan bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirish va talabalarni

kasbiy faoliyatga tayyorlashimiz mumkin. Yuqoridan tushuvchi jismlarning sharqqa burilish kattaligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$0.222h\sqrt{h \cdot cosf}$$

Bu yerda: *h* - tushish balandligi (m hisobida), *f* – kuzatish joyining geografik kengligi. Masalan, Toshkentda kuzatish joyining geografik kengligi $f = 41^0$; tushish balandligi 81 metr. Kosinuslar jadvalida $cosf = cos\ 41^0 = 0.75$ ga. Bu holda jismning sharqqa tomon burilishi:

$$0{,}22 \times 81\sqrt{81 \times 0{,}75} = 0{,}222 \times 81 \times 7{,}79 = 13{,}26\ \text{mm}$$

Demak, Toshkent shahrida 81 m balandlikdan tashlangan jism yer yuzasiga tushganda 13,22 mm sharqqa burilgan holda tushar ekan [4].

Demak, yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, mutaxassisning yetuk va o’z kasbini ustasi bo’lib shakllanishi aynan amaliy mashg’ulotlarda amalga oshib boradi. Chunki, talabalar amaliy mashg’ulotlarda o’qituvchi rahbarligida bir-birlari bilan baxs-munozara kirishib mavzuga oid bilim sirlarini chuqur o’rganib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Архангельский С.И. Учебный процесс в высшей школе, эго закономерные основы и методы. М. : Высшей школа, 1980. -368 стр.

2. Баринова И.И. «Самостоятельные и практические работы по физической географии России. М. Просвещение, 2019 г.

3. Baratov P., Sultanova N.B. Umumiy Yer bilimi. T.: Info capital group, 2018, - 414 b.

4. Sultanova N.B. Umumiy Yer bilimi (amaliy mashg‘ulotlar). T.:Bookmany print, 2023, 282-b.

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI GEOGRAF OLIMLARI TOMONIDAN O‘LKANI O‘RGANILISHI TARIXIDAN

Usmonova R, Nazarov M.G.
Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston, e-mail: mgnkd@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada Qarshi davlat universiteti geografiya kafedrasining professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘lkani o‘rganish tarixi to‘g‘risida bayyon qilingan.*

ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ СТРАНЫ ГЕОГРАФАМИ КАРШИНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Усмонова Р,Назаров М.Г.
Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан, e-mail: mgnkd@mail.ru

Аннотация: *В статье описана история изучения страны профессорами и преподавателями географического факультета Каршинского государственного университета.*

FROM THE HISTORY OF THE STUDY OF THE COUNTRY BY THE GEOGRAPHIC SCIENTISTS OF THE UNIVERSITY OF THE COUNTRY

Usmonova R,Nazarov M.G
Karshi State University, Karshi, Uzbekistan, e-mail: mgnkd@mail.ru

Abstract: *Abstract: The article describes the history of the study of the country by professors and teachers of the Faculty of Geography of Karshi State University*

Qarshi davlat universitetining geograf olimlari tomonidan o‘lkani o‘rganishda ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Qarshi davlat universitetida Geografiya kafedrasi 1969-yilda tashkil

etilgan. Bu davrda kafedra Geografiya-biologiya va Tarix-Geografiya yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlangan. Talabalarga respublikamizning yetakchi geograf olimlaridan Z.Akramov, M.Umarov, H.Hasanov, A.A.Rafiqov, A.A.Soliyev, A.Hisomov, P.Baratov, O.Mo‘minov, M.Nabixonov, A.Saidov, A.A.Abdulqosimov, S.B. Abbosov, Y.I. Ahmadaliyev, A.N.Negmatov, Q.S.Yarashev, Z.Tojiyeva, A.N. Hodjimatov va boshqalar Qashqadaryo o‘lkasida geografiya fanining rivojlanishi va mahalliy kadrlardan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda amaliy yordam berganlar.

Geografiya ta’limi to‘g‘risida so‘z ketganda, O‘zbekistonda geografiya ta’limining rivojiga, o‘lkamizni o‘rganishga munosib hissa qo‘shgan marhum ustozlarimiz professor A.Ro‘ziyev, dotsentlar: M.Yangiboyev, A.Xayitov, A.Mamatov, I.Toirov va tajribali katta o‘qituvchilar: A.Najimov, R.Ahmedov, B.Boltayevalarning xizmatlari beqiyosdir. Ushbu ustozlar o‘lkashunos sifatida viloyatni tabiiy va iqtisodiy geografik jihatdan o‘rganishda, yoshlarga ilm berib, komil inson sifatida haqiqiy vatanparvarlarni tarbiyalashda fidoyi bo‘lishgan. Hozirgi kafedramizdagi barcha yosh geograf-olimlarimiz – ularning chin ma’nodagi izdoshlaridir. Qarshi davlat universitetining geograf olimlari Janubiy O‘zbekiston tabiati, tabiiy resurslarni baholash, tabiiy geografik jarayonlar, Janubiy O‘zbekiston tabiatini muhofaza qilish kabi qator yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Quyida Qashqadaryo viloyatining muammoli masalalariga yechim topgan, o‘lkamizni o‘zining ilmiy tadqiqotlarida chuqur o‘rgangan vohamiz geograf olimlari haqida qisqacha ma’lumot beramiz.

Mahmud Yangiboyev XX asrning 70-80-yillarida O‘zbekistondagi aholi geografiyasi bo‘yicha taniqli mutaxassis sifatida tan olingan. U Qashqadaryo viloyatidagi aholishunoslik muammolari bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borgan. U 1973-yilda “Qashqadaryo viloyatining aholisi va mehnat resurslari” mavzusidagi nomzodlik ishini mufaqqiyatli himoya qilgan. Uning ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari 1995-yilda “Aholi joylashuvi va rivojlanishining mintaqaviy muammolari” (Qashqadaryo viloyati misolida), 1996-yilda “Aholi sig‘imi muammolari” nomli monografiyalarda chop etildi. M.Yangiboyev o‘lkashunos sifatida, Qashqadaryoda mintaqaviy geografiyani rivojlantirishga asos solgan olimlardan biridir. Olimning o‘quv qo‘llanmalari, risola va maqolalarida Qashqadaryo viloyati geografiyasining turli jihatlari yoritilgan. Ular orasida 1993-yilda chop etilgan “Qashqadaryo viloyati geografiyasi” o‘quv qo‘llanmasini alohida ko‘rsatish mumkin.

Mamatov Abdulla yetuk ensiklopedist olim. O‘lkashunoslik borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. U taniqli kartashunos olim geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi, dotsent Y.Levenning ilmiy rahbarligida Qashqadaryo chap irmoqlari havzasi, ya’ni Hisor tog‘lariga tutash hududlarda karst hodisasining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarni olib borgan. Olim ushbu masalalarga oid 150 ga yaqin ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlarni e’lon qilgan. A.Mamatov 1968-yil aprelda Ozarbayjon Fanlar Akademiyasining Geografiya instituti ilmiy Kengashida “Qashqadaryo chap irmoqlari havzalari hududida karst” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Olim Qashqadaryo viloyatining sharqiy, shimoliy-sharqiy va janubiy qismida yastanib yotgan Zarafshon tizmasining janubiy yonbag‘irlari hamda Hisor tog‘larining g‘arbiy tizmalarida qator mashhur g‘orlar joylashgan. Ushbu g‘orlar mamlakatimiz tabiatining noyob obidalari bo‘lish bilan birga ekologik sayyohlikni rivojlantirishning muhim manbalari hisoblanadi. Ilmiy-pedagogik faoliyatini Qashqadaryodagi ana shunday tabiat ajoyibotlarini o‘rganish hamda ularni o‘lkashunoslik va sayyohlik nuqtai nazaridan baholashga bag‘ishlagan. A.M.Mamatov chop etilgan ilmiy ishlari orasida “Qashqadaryo havzasida ekskursiyalar o‘tkazishga doir metodik ko‘rgazmalar” (Qarshi, 1986), “Qashqadaryo viloyati

geografiyasi" (Qarshi, 1994) o‘quv-uslubiy qo‘llanmalariga ham mualliflik qilgan. "Navoiy tasavvurida yurt tabiati va jahon geografiyasi" (2000, hammuallif B.X.Kalonov), "Ommabop geografiya" (2006, hammuallif B.X.Kalonov), "Hisor qo‘riqxonasi O‘rta Osiyo tog‘ tabiatining andozasi" (2010, hammualliflar S.Abdullayev, B.Xo‘jamqulov) ilmiy asarlari, 2010-yilda Respublika ma'naviyat nashriyotida "O‘zbekiston tabiati: Qashqadaryo" kitob-albomi (tuzuvchi mualliflar: A.Erkayev, A.Mamatov, L.Yoziyev va T.Yoziyev) o‘zbek, rus, ingliz tillarida nashr ettirilgan bo‘lib, ushbu asar xalqaro kitob ko‘rgazmalarida (Moskva, Dubay) sovrinli o‘rin olgan. A.Mamatovning O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi sahifalarida 20 ga yaqin maqolalari nashr qilingan.

I.Toirov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent. Qashqadaryo geografiyasining rivojiga munosib hissa qo‘shdi. Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligini hududiy kompleks tashkil etish masalalari bilan shug‘ullandi. Olim o‘ziga xos tabiiy iqlim sharoitlariga ega bo‘lgan Qarshi cho‘lini o‘zlashtirilishi, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari – paxtachilik geografiyasini o‘tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab tadqiq etish hamda Janubiy O‘zbekiston geografik o‘lkashunosligining shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo‘shgan.

Kafedraning sobiq katta o‘qituvchilari **R.Ahmedov va A.Najimovlar** viloyatning tabiatini chuqur o‘rganish borasida Qashqadaryo viloyatining iqlim resurslari, asosan agroiqlimiy jihatlarini iqtisodiy rivojlanishidagi roli xususida tadqiqotlar olib borishgan. O‘sha davrda yosh mutaxassislarga o‘lkashunoslikdan ilm bergan katta o‘qituvchi, geograf **B.Boltayeva** Qashqadaryo viloyati geografiyasi va mamlakatimiz georafiyasini o‘qitish metodikasi yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ularning ilmiy maqola, tezislari respublika va xalqaro to‘plamlarda hamda "Qashqadaryo viloyati geografiyasi" (Qarshi, 1994) o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida aks etgan.

Metodist geograf, dotsent **A.Hayitov** 1980-yilda QarDU geografiya kafedrasiga ishga taklif qilinadi. Viloyatdagi nufuzli oliygohda talabalarda geografiya fanidan dars berish bilan birga ilmiy tadqiqotlar olib bordi. O‘z bilim va malakasini tinmay oshirib 1981-yil Sankt-Peterburg shahridagi Rossiya pedagogika universitetida, 1984-yilda Rossiya pedagogika fanlar akademiyasining institutlari va Moskva pedagogika universitetida, 1987-yilda Tver davlat universitetida, 1993-yilda SamDU, 1996-yil O‘zMU da, 1998-yil O‘zMUOPI da, 2003-yilda Osiyo taraqqiyot bankining O‘zbekiston o‘rta maxsus kasb-hunar ta'limining rivojlantirish loyihasining o‘quv adabiyotlari yaratish bo‘yicha tashkil etilgan seminarda qatnashdi. A.Hayitov Nizomiy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlar ilmiy tatqiqot instituti ilmiy kengashida 1999-yil "Maktab tabiiy geografiya kurslarida geoekologik bilimlar tizimi va ta'limning metodik asoslari" mavzusida nomzodlik ilmiy ishini himoya qildi. Hayitovning 100 dan ortiq ilmiy maqola va risolalari turli nashrlarda chop etilgan.

Bahriddin Kalonov Mehnat faoliyatini 1981-yilda Qarshi davlat pedagogika instituti (hozirgi Qarshi davlat universiteti) Iqtisod nazariyasi kafedrasida kabinet mudirligi lavozimidan boshlagan. 1982-yildan boshlab Geografiya kafedrasi o‘qituvchisi,1990-yildan boshlab Geografiya kafedrasida katta o‘qituvchi lavozimida ishlagan. 1992-1993-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Geografiya bo‘limida stajyor-tadqiqotchi bo‘lgan. Bu davrda geografiya fanlari doktori Abdusalom Bozorboyev rahbarligida "O‘zbekistonda paxta ishlab chiqarish majmuasini hududiy tashkil etish va uni takomillashtirish masalalari" mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirgan. 1993-1994-yillarda Sankt-Peterburg shahrida A.I.Gersin nomli Leningrad Davlat pedagogika institutining Iqtisodiy geografiya kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlarni davom ettirgan. Bu vaqtda o‘sha davrda iqtisodiy geografiya fani bo‘yicha yetuk mutaxassislar O.P.Litovka, Y.N.Gladkiy, O.V.Sokolovlarning ilmiy maslahatlari asosida 1994-yilda Sankt-Peterburg shahrida 11.00.02.

– iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani bo‘yicha “O‘zbekistonda paxta ishlab chiqarish majmuasini hududiy tashkil etish va uni takomillashtirish masalalari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

2006-yilda zahmatkash olimning ilmiy-ijodiy faoliyatida yangi sahifa ochilgan. U Navoiy Davlat pedagogika institutiga ishga kelgan. Bu yerda dastlab geografiya kafedrasi dotsenti sifatida faoliyat boshlab, keyin ichki nazoarat va monitoring bo‘limi boshlig‘i vazifasini bajargan. O‘qituvchilik, rahbarlik, qator jamoat topshiriqlaridan ortib, ustoz tinmay o‘z ustida ishlagan, tadqiqotlar yaratgan. U yaratgan 1 ta o‘quv qo‘llanma, 5 ta risola, 90 dan ortiq ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalar chindan ham zahmatli mehnatning shirin mevalaridir.

Abdullayev S.I. Kafedrada 1973-yildan buyon dotsent lavozimida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. U kafedra yosh olimlarining ustozi, viloyat tabiati va tabiat resurslaridan foydalanishda yuzaga kelgan geoekologik muammolarni yechimini izlash borasida olib borilayotgan muhim ilmiy tadqiqotlar rahbari. Hozirgi paytda “Qashqadaryo viloyatida tabiatdan qishloq xo‘jaligida foydalanishning geoekologik jihatlari” mavzusida ilmiy-tadqiqot olib bormoqda. Abdullayev S.I. 275 dan ziyod ilmiy va ilmiy-metodik ishlarning, shu jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 monografiya, 1 o‘quv-metodik qo‘llanma, 2 risola, 6 ta uslubiy ko‘rgazma, 1 dastur, 1 lug‘at muallifi va hammuallifi, bir qator tanlov va ixtisoslik fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqqan fidoyi olim.

Erdonov L.N. 1969-yildan beri Geografiya kafedrasida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Uning ilmiy pedagogik faoliyatida Qashqadaryo o‘lkasining iqtisodiy geografik jihatlari, ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish, viloyat neft va gaz sanoatiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Geograf olim olib borgan tadqiqotlari natijalarini M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti professor A.T.Xrushchev rahbarligida “Qarshi territorial ishlab chiqarish kompleksi gaz sanoati rivojlanishining geografik muammolari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Uning o‘lka iqtisodiy geografiyasiga bag‘ishlangan 100 dan ortiq maqola va tezislari chop etilgan.

Jankobilov I.X. – geografiya fanlari nomzodi, Qashqadaryo viloyati neft va gazga boyligini e’tiborga olgan holda B.G.Azimov rahbarligi ostida I.X.Jankobilov «Геоиндикация нефтегазоносных структур Кашкадаринской области в целях решения геоэкологических проблем (по материалам многозональних космических семок)» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishini bajargan. U Qashqadaryo viloyatining tabiiy geografik xususiyatlarini o‘rganish, karta-lashtirush kabi tadqiqotlarda faollik qildi. 2014-yilda chop etilgan “Bitiruv malaka ishi” nomli uslubiy qo‘llanmaning hammuallifi. 2016-yilda chop etilgan “Qashqadaryo viloyati geoekologik xaritasining tuzish” nomli monografiya muallifi. 2014-2015-yillarda “Qashqadaryo viloyatining ekologik, atrof-muhit muhofazasi va ichimlik suvlar sifati kartalarini tuzish” mavzusida bajarilgan Innovatsion loyihaga rahbarlik qildi. U Qashqadaryo viloyati “O‘lkashunoslik” (2016) atlasini tayyorlashda rahbarlik qildi.

Usmanova R. geograf, dotsent. 1992-yildan boshlab geografiya kafedrasida faoliyatini davom ettirib kelmoqda. 2002-yilda professor A.A.Rafiqov rahbarligida “Qashqadaryo viloyati geotizimlaridan rekreatsiya maqsadida foydalanishni optimallashtirish” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Bugungi kunda Janubiy O‘zbekiston geotizimlaridan rekreatsiya va turizm maqsadida foydalanish istiqbollari hamda viloyat tibbiy geografiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Uning “Rekreatsion geografiya” monografiyasi, “Umumiy gidrologiyadan” amaliy mashg‘ulotlar, hammualliflikda “Umumiy yer bilimidan” laboratoriya mashg‘ulotlari, “Geografiyadan o‘quv dala amaliyoti” uslubiy qo‘llanmalari nashr ettirilgan.

Qurbonov P.R. geograf, dotsent. 2012-yil professor A.Soliyev rahbarligida “Janubiy O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayoni rivojlanishining omillari va iqtisodiy geografik asoslari mavzusida dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Shu yo‘nalishda ilmiy faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Ilmiy tadqiqotlari yuzasidan jami 100 dan ortiq ilmiy ishlari respublika va xorijiy jurnallarda nashr qilingan. Uning “Janubiy O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari” monografiyasi, “Geografiyadan masala va mashqlar”, “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyadan mavzulashtirilgan testlar to‘plami” uslubiy qo‘llanmalari nashr ettirilgan.

Fayzullayev M.A. geograf, dotsent. 2005-yildan Geografiya kafedrasida o‘qituvchi lavozimida faoliyatini boshlagan. 2017-yilda O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengashda “Janubiy O‘zbekiston cho‘l hududlarida qishloq xo‘jaligi rivojlanishining iqtisodiy geografik omillari” mavzusida 11.00.02. – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo‘yicha falsafa fanlari doktorligi (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan. Uning “Janubiy O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi geografiyasi” monografiyasi, shuningdek, ilmiy tadqiqotlari yuzasidan jami 100 dan ortiq ilmiy maqolalari, “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasidan amaliy mashg‘ulotlar” (2022-y.) o‘quv qo‘llanmasi hamda “Jahon xo‘jaligi geografiyasi” (2023-y.) darsligi chop etilgan. 2024-yil g.f.d., professor Yu.I.Axmadaliyev ilmiy rahbarligida “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi rivojlanishining iqtisodiy geografik xususiyatlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Murtazayev B.Ch. katta o‘qituvchi. “Qashqadaryo viloyatida tabiatdan foydalanish oqibatlari va uni yaxshilashning ekologik-geografik asoslari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Respublikamizning eng ulkan agrosanoat va industrial markazi bo‘lgan viloyatimizning geografik taraqqiyotini oldindan uzoq muddatga ilmiy asosda rejalashtirish va resurslardan tabiiy muvozanatni o‘zgartirmasdan foydalanish masalalari yuzasidan Ushbu ilmiy tadqiqot ishi bo‘yicha 70 dan ortiq ilmiy maqola, tezislari xalqaro, respublika ilmiy jurnallari va to‘plamlarida chop etilgan. Uning “Jahon tabiiy geografiyasi bo‘yicha geografik nomlarni o‘rganish” uslubiy qo‘llanmasi, “Umumiy yer bilimidan geografik nomlarni o‘rganish” va “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasidan amaliy mashg‘ulotlar” o‘quv qo‘llanmalari chop etilgan.

Nazarov M.G. geograf, dotsent. U 2008-yildan boshlab geografiya kafedrasida faoliyat yuritadi. 2020-yilda professor A.Abdulqosimov rahbarligida “Qashqadaryo havzasi antropogen landshaftlari va ularning geoekologik holati” mavzuida dissertatsiyasini himoya qildi. Asosiy ilmiy ishlari Qashqadaryo viloyatining antropogen landshaftlari va geoekologiyasiga bag‘ishlangan. Hozirgi vaqtga qadar 2 ta monografiya hammuallifi, 2 ta o‘quv qo‘llanma hammuallifi, 1 ta darslik hammuallifi, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy jurnal va konferensiya to‘plamlarida 80 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari e’lon qilingan.

Jumayev Xayrulla Xayitovich 2006-2015-yillarda Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrasi o‘qituvchisi, 2015-2018-yillarda Qarshi davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti dekan o‘rinbosari lavozimida ishlagan. 2018 yildan hozirgi vaqtgacha Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrasida faoliyat yuritib kelmoqda. 2022-yilda O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti M.I.Nazarov rahbarligida “Qashqadaryo viloyati turizm-rekreatsiya salohiyatini baholash va turizm infratuzilmasining hududiy tizimlarini takomillashtirish” mavzusidagi geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Asosiy ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi hududlarda turizm sohasini rivojlantirishga bag‘ishlangan. Hozirgi vaqtga qadar 50 dan ortiq ilmiy ishlari chop etilgan, shundan 1 ta darslik hammuallif, 1 ta o’quv qo’llanma,1 ta monografiya, 14 ta

ilmiy maqola respublikada hamda 8 ta xorijiy ilmiy jurnalda, ulardan 1 tasi Scopus va 2 tasi nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Eshboyev Bexzod Tojiyevich 2010-yildan Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrasida o‘qituvchi vazifasida faoliyat yuritgan. 2019-yilda Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrasiga Tabiiy geografiya ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktaranturaga qabul qilindi hamda O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti Mirakmalov Mirali Turonboyevich rahbarligida “Qashqadaryo viloyati toponimlarini tadqiq etishning tabiiy geografik jihatlari” mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. 2021-yilda B.T.Eshboyev muddatdan oldin O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06-raqamli Ilmiy kengashda geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Asosiy ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi Janubiy O‘zbekiston toponimlari tadqiqiga bag‘ishlangan. Hozirgi vaqtga qadar 50 dan ortiq ilmiy ishlari chop etilgan. Jumladan, B.T.Eshboyev tomonidan 2 ta monografiya 1 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta uslubiy qo‘llanma, shuningdek, 7 ta ilmiy maqola respublikada hamda 6 ta ilmiy maqola Web of Scince va nufuzli xorijiy xalqaro ilmiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Bayqabilov Xusnuddin Mardanovich 2018-yilda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti “Tabiiy geografiya” kafedrasiga Tabiiy geografiya ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga qabul qilindi hamda geografiya fanlari doktori, professor Nigmatov Asqar Nigmatullayevich rahbarligida “Jahon mamlakatlari nomlarining tabiiy geografik jihatlari va toponimik tahlili” mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordi. 2021-yilda X.M.Bayqabilov Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Gr.02.07-raqamli Ilmiy kengashda geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Asosiy ilmiy tadqiqot yo‘nalishi jahon mamlakatlari nomlari va ularning toponimlari tadqiqiga bag‘ishlangan. Hozirgi vaqtga qadar 40 dan ortiq ilmiy ishlari chop etilgan. Jumladan, X.M.Bayqabilov tomonidan hammualliflikda (geografiya fanlari doktori, professor Nigmatov Asqar Nigmatullayevich) “Jahon mamlakatlari nomlarining geografik va toponimik asoslari” nomli monografiya, shuningdek, hammualliflikda (geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta o‘qituvchi Eshboyev Behzod Tojiyevich) “Toponimikadan amaliy mashg‘ulotlar” nomli o‘quv qo‘llanmasi nashr etilgan. Shuningdek, X.M.Bayqabilovning ilmiy maqolalari respublika hamda nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda nashr ettirilgan. 2022-yildan Belgiya Qirolligining Bryussel shahrida nashr etiladigan “Eurasian Journal of History, Geography and Economics” xalqaro ilmiy jurnalining tahririyat a’zosi hisoblanadi.

Xushmurodov Farrux Mirzomurodovich 2018-yildan Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrasida o‘qituvchi vazifasida faoliyat yuritib kelmoqda. 2018-2021-yillarda Qarshi davlat universiteti Ichki nazorat va monitoring bo‘limi bosh mutaxassisi lavozimida ishlagan. 2021-yilda Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Geodeziya va kartografiya kafedrasiga Tabiiy geografiya ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktaranturaga qabul qilindi hamda O‘zbekiston Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti texnika fanlari doktori, professor Suyunov Abdusali Samatovich rahbarligida “Qashqadaryo havza vohalari agrolandshaftlarining cho‘llanish jarayonini tadqiq qilish va xaritalashtirish” mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. 2023-yilda F.M.Xushmurodov muddatdan oldin Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07-raqamli Ilmiy kengashda geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Asosiy ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi Qashqadaryo havza vohalari agrolandshaftlarining tadqiq qilish va xaritalashtirishga bag‘ishlangan. Hozirgi vaqtga qadar 55 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari chop etilgan, shundan 1 ta darslik hammuallif, 1 ta monografiya, 20 ta ilmiy maqola respublikada hamda 7 ta xorijiy ilmiy jurnalda, ulardan 3 tasi Scopus va 4 tasi nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Navotova Dilnoza Ibrogimovna 2013-yildan Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrasida o‘qituvchi lavozimida faoliyat olib bormoqda. 2024-yil g.f.d., dotsent M.A.Fayzullayev rahbarligida “Qashqadaryo viloyati yer resurslaridan qishloq xo‘jaligida foydalanishning iqtisodiy geografik xususiyatlari” mavzusida dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Shu yo‘nalishda ilmiy faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Ilmiy tadqiqotlari yuzasidan jami 40 ga yaqin ilmiy ishlari respublika va xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

L.N.Erdonov va boshqalarning (2021) yozishicha, kafedra qoshida “Yosh Geograflar” ilmiy to‘garagi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda, unga 20 dan ortiq iqtidorli talabalar jalb etilgan hamda ularga ilmiy-tadqiqot ishi mavzulari berilgan. Kafedrada ilmiy-uslubiy ishlar katta e’tibor berilmoqda. Kafedra professor-o‘qituvchilari “Janubiy O‘zbekiston tabiatidan foydalanishning geografik jihatlari” mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirib, hozirga qadar 20 dan ortiq ilmiy ishlar to‘plami chiqarildi. ”Qashqadaryo geografiyasi”, “Geografiya darslarida texnika vositalaridan foydalanish”, “Qashqadaryo havzasida ekskursiyalar o‘tkazishga doir metodik ko‘rgazmalar”, “Ommabop geografiya”, “O‘zbekiston iqtisodiy ijtimoiy geografiyasini maktabda o‘rganish”, “Umumiy yer bilimidan geografik nomlarni o‘rganish”, “Jahon tabiiy geogra-fiyasi bo‘yicha geografik nomlarni o‘rganish’, “Sinf rahbari”, “Hisor qo‘riqxonasi – O‘rta Osiyo tog‘ tabiatining andozasi”, “Bitiruv malakaviy ishi”, “Rekreatsion geografiya”, “Kurs ishlarini tayyorlash va rasmiylashtirish”, “Janubiy O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari”, “Janubiy O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi geografiyasi”, “Qashqadaryo havzasining antropogen landshaftlari va ularning geoekologik holati” kabi ilmiy, ilmiy metodik, ilmiy ommabop kitoblar shular jumlasidandir. Shu bilan birga kafedra respublika va xorijiy ilmiy muassasalar bilan jumladan: MDU iqtisodiy geogra-fiya kafedrasi, Sankt-Peterburg universiteti “Geografiya o‘qitish metodikasi” kafedrasi, Sankt-Peterburg shahridagi Rossiya Peda-gogika universiteti “Geografiya o‘qitish metodikasi” kafedrasi, O‘zMU, SamDU, BuxDU, TermizDU, UrganchDU, QoraqalpoqDU, NamDU, FarDU, AndDU, O‘zRFA Seysmologiya ilmiy tekshirish institutining geografiya bo‘limi bilan hamkorlik qiladi.

Kafedra yosh o‘qituvchilaridan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan X.Muqumova, M.Berdiqulova, D.Murodova, S.Boymurodov, B.Yusupov J. Poyonov, M.Hamidova, G.Abdiholiqovalar tanlangan mavzular yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar Geografiya kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan Qashqadaryo havzasining landshaft kom-plekslarini elektron kartasini yaratish bo‘yicha innovatsion loyiha ustida ish olib bormoqdalar. Kelajakda kafedra negizida tashkil etilgan tayanch doktoranturaning yo‘nalishlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda kafedra qoshida “Geografiya o‘qitish metodikasi”, “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari”, “Geografiya” ta’lim yo‘nalishlari va Geografiya (o‘rganish obyektlari bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha talabalar tahsil olmoqda. “Vatanparvarlik o‘z o‘lkasini o‘rganishdan boshlanadi” degan gaplar bejiz aytilmagan. Ustozlar o‘z umrlarini vatanimiz geografiyasini o‘rganishga bag‘ishladilar, demak, kafedraning fan uchun qo‘shgan ilmiy merosini tahlil qilish ularni kelajak avlodga yetkazib berish lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Usmonova R., Qurbonov P.R., Nazarov M.G. O’lkashunoslik// Qarshi “Qarshi DU qoshidagi kichik bosmaxona”, O`quv qo’llanma, 2023 y.

2. Usmonova R., Murodova D.S. O’lkashunoslikni o`qitishda ta`lim texnologiyalardan foydalanish masalalari// Uzliksiz ta`lim mazmuni, metod va vositalarini modernizatsiyalashning didaktik prinsiplari. Respublika ilmiy amaliy konferinsiya matreallari. Qarshi-2015. 246-247 b.

3. Erdonov L.N., Muqumova X.I.,Nazarov M.G. Geografiya Kafedrasi: Kecha, Bugun – Ertaga // O`zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari. Respublika ilmiy amaliy konferinsiya matreallari. Qarshi-2021. 353-355 b.

IV SHO‘BA

GEODEZIYA VA KARTOGRAFIYA, GIS TEXNOLOGIYALARDA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

1.	Низамиев А.Г., Момошева Г.А., Камчиев У.М., Даовлатова Ф.М.	Анализ современной топонимии южного региона кыргызстана с использованием геоинформационных систем и он-лайн ресурсов (на примере Баткенской области)	4
2.	Маликов Мусахан., Мамажанов Р.И., Маликов Б.Б., Крупочкин Е.П.	Разработка геодезической основы для мониторинга и реконструкции ботанического сада САМГУ	9
3.	Латкин В.А.	Составление и использование двумерных и трёхмерных карт при исследовании экологических проблем с применением современных компьютерных технологий	13
4.	Сиютин И.Ю., Крупочкин Е.П.	Возможности и проблемы применения мультиспектральной съемки	19
5.	Mohammad S., A.Ravshanov, Muxamedov O., Usmanov M.	Leveraging machine learning, artificial intelligence, and the internet of things for sustainable and smart agricultural management	22
6.	Isayev A. A.,Gapirov M.M.,Yuldashev N.A.	Zamonaviy iqtisodiy obyektlar va undagi o‘zgarishlarni ARCGIS dasturi asosida masofadan zondlash	27
7.	Fayzullayev M.A., Nurmatov A.U., Xujamova S.B., Nurmatov N.E.	Geografiyada matematik modellashtirishning nazariy jihatlari	32
8.	Azimov B.G., Erkinnova K.B. Jankobilov I.	Gat texnologiyalari asosida axborot-tahliliy boshqaruv tizimi konsepsiyasini ishlab chiqishdagi ayrim muammolar	36
9.	Tuxtamishev Sh.Sh., Urokov, O.A., Berdikulov U.A.	Qishloq xo‘jaligi yerlarining chegaralarini geodezik usullarda aniqlash	42
10.	Negmatov S.Q.	Topografiya va kartografiya asoslari fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda innovatsion ta’limning ahamiyati	49
11.	Ibragimov U.N., Aliqulov G‘.N.	Geoinformasion tizimlar yordamida suv xavzasining joylashuvini kartografik modellashtirish	54
12.	Xusanova M.I., Isakov M.K., Ochilova D.A., Omonov I.X.	Geodeziya, kartografiya va kadastrda bazaviy gps stansiyasining qo‘llanilishi	58
13.	Norxodjayeva A.M.	Qarshi shahar urbanoflorasini o‘rganishda to‘r tizimli xaritalashning o‘rni.	61
14.	Zuxurov Y.T., Aralov M.M.	ARSGIS dasturida raqamli xaritalarni yaratish tartibi	67
15.	Xusanova M.I., Isakov M.K., Aliyeva N.S.,	Zamonaviy uslublarda qishloq xo‘jalik karta va planlari tuzishning ayrim masalalari	71

	Omonov I.X.		
16.	Tillaxo‘jayev S.S., To‘xtaboyev K.A.	GIS texnologiyasi va zamonaviy tadqiqotlar	74
17.	Ibragimov U.N.	GAT dasturlari yordamida temir yo‘llar davlat kadastri ma’umotlar bazasini yaratish	77
18.	Samankulov Sh.R.	Qurilish maydonida bino va inshootlarni o‘rnini tanlashda relyef holatining ahamiyati	82
19.	Zuxurov Y.T., Aralov M.M.	GAT dasturlaridan foydalanib bino va inshootlar davlat kadastr ma’lumotlarini tuzish	86
20.	Xusanova M.I., Isakov M.K., Ro‘ziqulov D.N., Omonov I.X.	Bino va inshootlar raqamli kadastr xarita va planlari uchun masshtab tanlashni asoslash	91
21.	Tovbayev G‘.	Kartografik metodlar yordamida iqlim o‘zgarishlarini tahlili	94
22.	Shukurov A.U., Abdulxamidov E.F.	GIS texnologiyasidan foydalangan holda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish	97
23.	Тожиева С.А.	Формирование картографических умений Школьников 34-общеобразовательной школы тайлякского района самаркандской области применением гис-технологий.	102
24.	Qo‘chqorova G.Sh. Safarova N.S.	Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishda gis texnologiyalarining ahamiyati	106
25.	Khasanova M.U.	GIS-based analysing of acceptable areas for solar and wind energy sources in samarkand region, Uzbekistan.	109

V SHO‘BA
TURIZM VA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.

1.	Вишневская М.П., Кайсарова К.С., Краснов П.А.	Развитие пешеходного туризма чувашии на примере «тропы памяти»	114
2.	Боймирзаев К.М., Худойбердиева С.М.	Спорт туризмининг жаҳон ва ўзбекистон миқёсидаги ривожланиш тарихи	120
3.	Usmanov M.R., Jumaboyev T.J., Normatov S.A., To‘g‘ilov H.S.	Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonda qishloq turizmi va agroturizm muammolari	126
4.	Ибрагимов Э.Х., Гуфранов Д.Н.	Развитие различных отраслей туризма в период независимости республики таджикистан	133
5.	Mavlonov A.M.	Buxoro viloyatida agroturizm va etnoturizmning rivojlanishi	141
6.	To‘rayev Q.T., Qurbonov Sh.B., Shonazarova V.D.	Ziyorat turizmining kichik hududlar iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati	143
7.	Halimova G.S., Qalandarova D.D.	Yo‘l va yo‘l bo‘yi landshaftlarining turistik salohiyatini oshirish masalalari xususida (Buxoro viloyati misolida)	148
8.	Bazarova N.,	Ekoturizm asosida o‘simliklar dunyosini muhofaza	152

	Mardonova N.	qilish	
9.	Jumayev X.X., Raximberdiyev M.O.	Turizm va rekreatsiyaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	157
10.	Jumayev X.X., Shokirova G.SH.	Qashqadaryo viloyatining tabiiy turistik - rekreatsion salohiyati	161
11.	Qurbonov P.R., Safarov I.B.	Qashqadaryo viloyatida rivojlanayotgan ziyorat turizmi (G'uzor tumani misolida)	169
12.	Tobirov O.Q., Isaqov M.Sh, Ro'zmatova K.X.	GIS yordamida turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari	176
13.	Tobirov O.Q., Isaqov M.Sh., Ro'zmatova K.X.	Turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari	179
14.	Matnazarov A.R., Xolbo'tayev A.N., Toshpo'latova S.Q., Xudayberdiyeva H.R.	O'zbekistonda glyatsioturizmni o'rganish va uni rivojlantirishga qaratilgan ayrim masalalar xususida	183
15.	Atadjanov I.Sh.	O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirsh istiqbollari	185
16.	Fayzullayeva L.X.	Turizm va rekreatsion hududlardan samarali foydalanish istiqbollari (qashqadaryo viloyati misolida)	189
17.	Djurayeva L.V.	O'zbekistonning turizmini rivojlanishida turistik oqim satistikasini o'rni	192
18.	Safarov I.B.	O'zbekistonda sakral turizmni rivojlantirish istiqbollari	195
19.	Ernazarov Sh.E., Pardayev N.S.	Surxondaryo viloyati shaharlarining rivojlanishida turizmning roli	200
20.	Музропова Ф.И.	Пути разработки методологии для получения котуристических регионов на региональной систематической карте	204
21.	Xamidova M.Z.	Arxeologik yodgorliklar va tarixiy manzilgohlarni o'rganishning ijtimoiy-geografik jihatlari (janubiy iqtisodiy rayon misolida)	207
22.	Normatov S.A.	Qashqadaryo qishloq turizmining shakllanishi va rivojlanishi	211
23.	Yusupov B. B.	Shahrisabz tumani G'elon qishlog'ining ekoturizmdagi imkoniyatlari	213
24.	Shodiyeva N.H., Ro'zmatov B.Z.	Turizm geografiyasi va uning rivojlanish masalalari	220
25.	Bozarov E.B., Bozorova J.Yu.	Turizm sohasini rivojlantirishda ziyoratgohlarning o'rni va roli	225
26.	Ergasheva M.K., Isayeva M.N., Uzakova M.O.	Rekreatsiya - turistik resurslardan oqilona foydalanish masalalari (Quyi Zarafshon okrugi misolida)	228
27.	Nasretdinova A., Bozorova J.	Raqamlashtirish orqali turizm imkoniyatlarini namoyon etish va rivojlantirish	232
28.	Pardayev N.S., Saitqulova Z.U.	Buxoro viloyatining turistik salohiyati va imkoniyatlari	235
29.	Abdujabborov N.F.	Tabiiy turistik-rekreatsiya resurslaridan	240

		faydalanishning ba`zi bir nazariy masalalari	
30.	Ишанкулова Д.А.	Развитие туризма и рекреационных территории в Узбекистане	245
31.	Baxshilloyev J.Sh.	Turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari, imkoniyatlari	249
32.	Baxtiyorova D., Xolmanov E.B.	Zarafshon milliy tabiat bog‘ining barqaror rivojlanishiga qaratilgan chora-tadbirlar	253
33.	Xushmurodov F.M., Usmanova R., Narzullayev H., Boymurodova X.	Kitob-Shahrisabz botig‘i tabiiy sharoitning rekreatsion-turistik maqsadlarida foydalanishni tadqiq etish xususiyatlari	256
34.	Usmanova R., Ashurov F.	Turistik- rekreatsiya resurslari turlari va ularni tasniflashning geografik jihatlari	260

VI SHO‘BA
ZAMONAVIY GEOGRAFIYA TA’LIMI. TOPONIMIKA VA GEOGRAFIK TERMINSHUNOSLIKDA MUAMMOLAR VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI.

1.	Сагдуллаев А.С., Тоғаев Ж.Э.	Қадимги Бақтрия ва Суғд тарихий географиясининг айрим масалалари	267
2.	Ibraimov X.I., JanzakovA.B.	Umumta’lim maktablarida geografiya fanidan darsdan tashqari o‘quvchilar axborot texnologiyalari asosida o‘qish metodikasi	273
3.	Нигматов А.Н.	Педагогик таълимда “педагог қасамёди”	280
4.	Elbasy A.A.	Integration of new technologies in teaching geography: examples of 7th grade	283
5.	Есназарова У.А., Сатылған А.	Вклад шоканауалиханова в географическое образование и региональные исследования	286
6.	Есназарова У.А., Есмагамбетова А.К.,Жамбыл А.Б.	Религиозно-просветительские идеи джадидов как основа воспитания патриотизма	288
7.	Onalbaeva S.B.	Subject integration in the effectiveness of the criterion-based assessment process in geography	291
8.	Mukumova H.I., Qozoqova O.X.	Ta’limda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi	294
9.	Xolmurodov Sh.A., Davronova R.Sh., Mamadaliyeva D.B.	Umumta’lim maktablari geografiya o‘qituvchilarining amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish va uni tanlash mezonlari	297
10.	Abdullayev M.D.	Maktab geografiya ta’limida 5E o‘quv modelidan foydalanish	302
11.	Safarov I.B., Husenov J.Q.	Zamonaviy geografiya ta’limi	306
12.	Atadjanova M.I.	Ekologik ong va ekologik tafakkurni shakllantirish-geografiya ta’limining muhim komponenti sifatida	309
13.	Nurmatov A.U.	Zamonaviy ta’lim infratuzilmasini shakllantirishning ba’zi masalalari	313
14.	Yuldoshova Y.I., To‘laganov N.U.	Geografiya fanini o‘qitishda zamonaviy va innovatsion ta’lim muhitini tashkil etish	317
15.	Xoldavlatova G.N.	Integrativ yondashuvning mazmun-mohiyati va ta’lim jarayonida undan foydalanish samaradorligi	322

16.	Eshboyev B.T.	Hudud tarixiy geografiyasini o‘rganishda toponimlarning ahamiyati	325
17.	Вишневская М.П., Гасанов Р.В.	Изучение топонимического пространсва на примере урбанонимов россии и топонимов чувашии	328
18.	Bayqabilov X.M.	“Shahar” so‘zining lug‘aviy ma’nosi va lisoniy talqini	334
19.	Xakimov K.M., Usmanov M.R.	O‘rta Osiyo toponimiyasi va uning ayrim farqlovchi xususiyatlari haqida	338
20.	Jumayeva M.B.	Navoiy viloyati cho‘l hududlari joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlari (tomdi tumani misolida)	344
21.	Eshboyev B.T, Bozorov M.I.	Surxondaryo toponimikasining o‘rganilish tarixi	350
22.	Махкамова Д.А.	Культурный прогресс в Центральной Азии в древности и раннем средневековье	353
23.	Argynbekova B.M., Abisheva A.X.	Tonitoring and improving students progress in natural sciences	356
24.	Налмишова К.Н., Есназарова У.А.	Теоретические основы организации поисковой деятельности учащихся в учебном процессе общеобразовательной школы	358
25.	Есназарова У.А., Толепберген А.	Коркыт ата– значимаяличность вформировании культурных ценностей	364
26.	Sultanova N.B.	Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar bilish faoliyatini rivojlantirish	368
27.	Usmonova R, Nazarov M.G.	Qarshi davlat universiteti geograf olimlari tomonidan o‘lkani o‘rganilishi tarixidan	371